

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

A K A D E M I Y A

X. B. SAITXODJAYEV

# SOTSIOLOGIYA

Darslik

Toshkent – 2017

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining  
Tahririyat-noshirlilik hay’atida maqullangan*

*Mas’ul muharrir*

falsafa fanlari doktori, professor Sh. Mamadaliyev;  
tarix fanlari doktori, professor K.Normatov

*Taqrizchilar:*

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti  
professori, falsafa fanlari doktori **I. Saifnazarov**;  
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti  
professori, falsafa fanlari doktori **F.A. Musayev**

- S- 21      **Sotsiologiya:** Darslik / X.B.Saitxodjayev; Mas’ul muharrir f.f.d.,  
prof. Sh. Mamadaliyev; t.f.d., prof. K. Normatov. – T.:O‘zbekiston  
Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 269 b.

Mazkur darslikda sotsiologiya fani predmeti, tarkibiy qismlari va tuzilishi, sotsiologik qonunlar, ularning amal qilishi, vujudga kelish tarixi va rivojlanishi, jamiyatni sotsiologik bilish hamda uning bir butun sotsial tizim ekanligi, sotsial tizim tuzilishida sotsial institutlar, tashkilotlar va guruhlar hamda huquq sotsiologiyasi va uning ijtimoiy-huquqiy munosabatlari tizimidagi roli, jamiyatning sotsial demografik tuzilishi va uni tadqiq etish xususiyatlari kabi masalalar keng tahlil qilingan

Ichki ishlar vazirligi oliy harbiy ta’lim muassasalarining tinglovchilari, kursantlari, o‘qituvchilari, xodimlari hamda sotsiologiya fani bilan qiziquvchi o‘quvchilarga mo‘ljallangan.

**KBK 60.5ya73**

## KIRISH

Hozirgi kunda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida ulkan tarixiy demokratik islohotlar ro‘y bermoqda. Ularning ilmiy-nazariy asoslari va amalga oshirilish mexanizmlari O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’limotida teran o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida samarali ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalariga alohida e’tibor berishni talab qilayotir. Ta’kidlash joizki, keng qamrovli mazkur islohotlar natijalarini tahlil qilish, ularni o‘rganish va hayotga tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibiga kiruvchi sotsiologiya fani zimmasiga ham bir qator vazifalar yuklaydi. Chunki sotsiologiya fani jamiyatdagi ulkan ijtimoiy-siyosiy va tarixiy voqealarni qayd etish bilan cheklanib qolmay, balki kelib chiqish sabablar, jamiyatga qay darajada ta’sir etishi, kelgusida qanday oqibatlarga olib kelishi, uning asl mazmun va mohiyatini atroflicha ochib beradi. Shu bois sotsiologiya fani aniqligi, qo‘yilgan savollarga beradigan ilmiy javoblari atroflicha asoslanganligi, keltirilgan dalillarning har taraflama tahlil qilinganligi bilan ham qimmatlidir. Demak, sotsiologiya faqat ijtimoiy voqelikka to‘laqonli javob berish bilan cheklanmay, ijtimoiy taraqqiyotning farazi va istiqboli xususida ham bashorat qiladi. Ana shu jihatdan sotsiologiya fani nazariyasi, amaliyoti va tadqiqot usullarini atroflicha o‘rganib chiqish zarurati dolzarb vazifaga aylangan.

Sotsiologiya fani amaliy sotsiologik tadqiqotlar yordamida jamoatchilik fikriga asoslanib, jamiyatning o‘zini o‘zi boshqarish va anglashida muhim va qudratli vosita bo‘lib hisoblanadi. Qaysi jamiyatda sotsiologik bilimlar rivojlangan hamda uning natijalaridan to‘g‘ri foydalanilsa, o‘sha jamiyat o‘zini to‘laroq anglayotganidan dalolat beradi. Darvoqe, hozirgi O‘zbekiston taraqqiyoti manfaatlari nuqtai nazaridan sotsiologiyaning rivojlanishi mamlakatda kechayotgan demokratik islohotlarning yo‘nalishi, sur’atlari, bosqichlari, muammolari va ularni hal qilish yo‘llari to‘g‘risidagi masalalarni to‘la va har taraflama anglashga yordam beradi.

Ushbu darslikda sotsiologiya fanining o‘rganish predmeti va obyekti, tarkibiy qismlari hamda tuzilishi, sotsiologiya faniga oid qarashlarning Markaziy Osiyo mintaqasida paydo bo‘lishi, shuningdek G‘arb mamlakatlarida sotsiologik fikrlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi, jamiyatni sotsiologik bilishning o‘ziga xosligi, sotsial tizim va uning tuzilishida sotsial institutlar, tashkilotlar hamda guruhlarning o‘rni masalalari tahliliy jihatdan o‘rganilgan. Darslikning o‘ziga xos jihat: «Huquq sotsiologiyasi», «Etnik birliklar hamda hududiy birliklar sotsiologiyasi», «Shahar va qishloq sotsiologiyasi», «Oila sotsiologiyasi», «Ijtimoiy aloqalar tizimida shaxs» kabi yangi boblar, bizningcha, ularning mazmun-mohiyati, jamiyat hayotida tutgan o‘rni masalalari, ya’ni huquqni muhofaza qilish organlarining amaliy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, darslikda jamiyatning ijtimoiy-demografik tuzilishi, aholining hududlar bo‘yicha joylashishi, ko‘payishi va kamayishi hamda aholining yosh va jins bo‘yicha tuzilishi, urbanizatsiya, migratsiya jarayonlarining jamiyat rivojlanishiga ta’siri, oila va nikoh masalalari, ijtimoiy aloqalar tizimida shaxsning o‘rni, shakllanishiga ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar, uning huquqiy ijtimoiylashuvi va sotsiologada shaxs deviatsiya (og‘ish) holatlarining yuzaga kelish sabablari yangi statistik ma’lumotlar asosida ifoda etilgan. Aniq sotsiologik tadqiqotlar dasturi, tarkibiy qismlari va tuzilishi, axborotlarni yig‘ishning empirik va nazariy usullari hamda tadqiqot natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish texnikasi kabilar misollar yordamida ko‘rsatib berilgan.

Ushbu darslik rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilgan O‘zbekiston davlati va jamiyatidagi iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar, rivojlanish istiqbollari hamda jamoa va tashkilotlarda kechayotgan siyosiy, ma’naviy, madaniy va huquqiy o‘zgarishlarning mohiyati haqida IIV harbiy oliy ta’lim muassasalarini tinglovchi va kursantlarini birgalikda fikr yuritishga undashi bilan ham e’tiborga molikdir. Demak, darslik tinglovchi va kursantlarning sotsiologik bilimlarini oshirishga muayyan darajada hissa qo‘sadi, deb umid qilamiz. Darslikda ayrim yutuqlar bilan birga kamchiliklar ham uchrashi tabiiy. Shuning uchun kelgusida ushbu darslik yuzasidan o‘z fikr va mulohazarini bildirgan kitobxonlarga minnatdorchiligidimizni bildiramiz.

# **I BOB.**

## **SOTSILOGIYA FANINING NAZARIY – METODOLOGIK ASOSLARI**

### **1-§. Sotsiologiya fanining predmeti va obyekti**

Sotsiologiya – insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan madaniyatning ajralmas tarkibiy qismidir. «Sotsiologiya» tushunchasi (lot. «societas» – jamiyat va yunon. «logos») – ta’limot so‘zlaridan olingan bo‘lib, jamiyat to‘g‘risidagi ta’limot ma’nosini anglatadi. Sotsiologiya jamiyatni tizim sifatida, uning mavjud tarkibiy tuzilmalari mohiyati, ularning harakat tendensiyalari va taraqqiyot qonuniyatlarini sotsial tashkil etilgan tarzda tadqiq etadi.

Shuningdek, sotsiologiya asosiy e’tiborni jamiyatni har xil sotsial va hududiy tizim bosqichlarida vujudga keladigan keng ma’nodagi insonlararo munosabatlар va jamoatchilik fikrini o‘rganishga qaratuvchi fandir. Sotsiologiya fani jamiyatning turli sohalari iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy-axloqiy va boshqa tarmoqlarida tadqiqotlar o‘tkazadi.

«Sotsiologiya» atamasi XIX asrning 30-yillarida fransuz olimi Ogyust Kont (1798—1857-y.) tomonidan fanga kiritildi. Qadim zamonlardanoq jamiyat hayoti va taraqqiyotiga nisbatan sotsiologik yondashuvlar kuzatilgan bo‘lsa-da, sotsiologiya fan sifatida XIX asrning so‘nggi choragida shakllandi. Uning shakllanishida jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi nazariy bilimlarning empirik tadqiqotlar bilan birikishi katta ahamiyat kasb etdi. Chunki sotsiologiya nafaqat nazariy bilimlar yig‘indisidan iborat bo‘lmay, u amaliy fan sifatida jamiyatni empirik sotsiologik tadqiqotlar yordami hamda jamoatchilik fikriga asoslangan holda o‘rganadi. Jamoatchilik fikrini esa faqat empirik sotsiologik tadqiqotlar yordamida bilish mumkin.

Sotsiologiyaning boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlardan farqli jihatni ham uning aynan amaliyat bilan bevosita bog‘liqligidir. Ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘rganish obyektlarini tahlil qilishda, uning kelajagini oldindan bashorat qilish uchun empirik sotsiologik tadqiqotlarga, ya’ni amaliy sotsiologiya natijasidan olingan ma’lumotlarga asoslanadi. Sotsiologik nazariy bilimlarning empirik sotsiologik tadqiqotlar bilan qo‘shilishi, faqat mulohaza, mavhum tafakkurga asoslangan nazariy bilimlarning ilmiylik darajasini keskin oshirish bilan birga, amaliy tadqiqotlarni nazariy jihatdan asoslash va takomillashtirish imkoniyatini ham tug‘diradi.

Ayni paytda mamlakat ahlining amaliy yaratuvchanlik faoliyati hamda konkret ijtimoiy vaziyatlarni bilish qobiliyatining oshib borishi, sotsial hodisa va jarayonlarni bilish uslublarining takomillashuvi sotsiologiyaning

fan sifatida predmeti va obyektini aniqlash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Xo'sh sotsiologiyaning predmeti va obyektini qanday tushunamiz?

Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida paydo bo'lishi, uning boshqa fanlarga nisbatan yosh bo'lganidan dalolat beradi. Ushbu fanda integratsiya va differensiatsiya jarayonlarining davom etayotganligi, uning faoliyat ko'lami hozirgacha aniq belgilanmaganligi sotsiologiyaning predmeti va obyektini aniqlashni murakkablashtiradi. Bugungi kunda mazkur fanga oid manbalarda uning predmeti to'g'risida 100 ga yaqin ta'riflar mavjud! Bu masalani hal qilishning yana bir qiyin tomonini, uning tuzilishi o'ta murakkabligi va inson bilimining turli darajasini qamrab olishi hamda turli nazariy metodologik tamoyillarga ega ekanligidan ham bilish mumkin. Shunga qaramay, sotsiologiyani mustaqil fan sifatida o'rganilishining o'zi uning predmeti va obyekti masalalariga yanada oydinlik kiritishni taqozo etadi?! Demak, jamiyatni o'rganadigan har bir fan o'zining tadqiqot predmetiga ega. Shuning uchun fanning obyekti predmetiga nisbatan keng-ligini inobatga olgan holda, fanning obyekti va predmetini bir-biridan farqlash muhim. Chunki sotsiologiya fanining predmeti – jamiyatda mavjud tarkibiy tuzilmalarning mohiyati, harakat yo'nalishlari va taraqqiyot qonuniyatlarini sotsial tizimda tadqiq etish hisoblanadi. Bu fan kishilar o'rtasidagi sotsial munosabatlarning vujudga kelish sabablari va rivojlanish qonuniyatlarini jamoatchilik fikriga asoslanib, aniq sotsiologik tadqiqotlar orqali olib boradi. Unda jamiyat rivojlanishining asosini tashkil qiluvchi, sotsial tashkilotlar, institutlar, guruhlar o'rtasida vujudga keladigan sotsial munosabatlarning alohida va umumiyligi jihatlarini bir butun holda hamda ijtimoiylikning mohiyati, jamiyatning barcha tarkibiy qismlaridagi sotsial jarayonlarning qonuniyatlarini o'rganiladi.

Sotsiologiya kishilar o'rtasidagi sotsial aloqa va munosabatlar hamda shaxs xulq-atvorini aniq shart-sharoit bilan bog'liqlikda amaliy sotsiologik tadqiqotlar yordamida o'rganuvchi yagona fandir. Shaxs yoki sotsial guruh oldida turgan muammolar u yoki bu darajada insoniy munosabatlar xarakteri, tevarak-atrofdagilar bilan hamkorlikda yashay olishi, qadriyatlar va axloqiy me'yorlarga tayanishi, ularni saqlab qolish, muomalaga kirishish yoki murakkab nizoli vaziyatlarni murosa yo'li bilan hal etishga uzviy bog'liq bo'ladi. Inson oldida turgan muammolar qanchalik murakkab bo'lsa, ularning hal qilishda shaxs o'zligini anglab yetishi, o'zi yashayotgan jamiyatni chuqur va atroficha bilishi juda muhim.

Sotsiologiya predmetining o'ziga xos tomoni shundaki, u ijtimoiy hodisalarining holatlari mohiyatini ifoda etishdan tashqari, sifat jihatdan yangi holatlarni vujudga keltirish qonuniyatlarini ham o'rganadi. Shu bilan

birga, u jamiyatni yangi rivojlanish pog‘onalariga olib chiqadigan ilmiy-nazariy uslub hamda yo‘l-yo‘riqlarni ishlab chiqishda faol ishtirot etadi. Jamiyatda ma’lum shaxs yoki hodisa va jarayonlar to‘g‘risida jamoatchilik fikrining kelib chiqishi, uning tuzilishi va qabul qilinishini o‘rganishda sotsiologiya muhim o‘rin egallaydi. Sotsial omil va vaziyatlarning aniq sharoitlarda namoyon bo‘lishini o‘rganish sotsiologiya predmeti uchun alohida ahamiyatga egadir.

Shu o‘rinda, sotsiologiyaning obyektini keng va tor ma’nolarda tushunish mumkin. Sotsiologiyaning keng ma’nodagi obyektini bir butun jamiyat tashkil qiladi. Chunki sotsiologiya jamiyatda kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-mafkuraviy va boshqa ijtimoiy munosabatlar, ularning vujudga kelish sabablari va rivojlanish qonuniyatlarini alohida hamda bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va aloqadorlikda yaxlit tizim sifatida o‘rganadi. Jamiyat taraqqiyotining boshqa turli jihatlarini ijtimoiy-gumanitar fanlar ham tadqiq qiladi. Masalan, jamiyatda kishilar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni huquqga oid, siyosiy munosabatlarni siyosat, tarixga oid, iqtisodiy munosabatlarni iqtisodga oid fanlar, diniy munosabatlarni esa dinshunoslik fani o‘rganadi va hokazo. Bundan jamiyat keng ma’noda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning obyekti bo‘lib hisoblanadi degan xulosa qilish mumkinki, Sotsiologiya fani jamiyatni bir butun holda uning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganmaydi, bu falsafa fanining vazifasidir. Sotsiologiyaning jamiyatni o‘rganuvchi boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlardan farqi shundaki, jamiyatni bir butun holda tashkil qiluvchi uning tarkibiy tuzilmalarini alohida hamda birgalikda tizim sifatida o‘rganadi. Shuning uchun tor ma’nodagi sotsiologiya fanining obyekti nima ekanligiga e’tibor qarataylik?

Sotsiologiyaning tor ma’nodagi obyektini uning o‘ziga xos sohasi bo‘lmish sotsial reallik, ya’ni jamiyatning alohida sohalari va tarmoqlarida faoliyat olib boradigan kishilar o‘rtasidagi ma’lum munosabatlar, ularning vujudga kelish sabablari va rivojlanish qonuniyatları tashkil etadi. Boshqacha e’tirof etadigan bo‘lsak, jamiyatda ijtimoiy fikrning shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi. Bu tor obyekt faqat sotsiologiyaning tadqiqot obyektidir. Boshqa fanlar bu obyekt bilan shug‘ullanmaydi. Jamiyatni sotsiologik jihatdan o‘rganishda falsafaning dialektik metodi va uning qonuniyatları va kategoriylariga asoslangan holda o‘rganilayotgan obyektning ijtimoiy mohiyati ochib beriladi. Jumladan, qarama-qarshilik, miqdor va sifat, inkorni-inkor, obyektivlik va subyektivlik, erkinlik va zarurat, zarurat va tasodif, sabab va oqibat, mazmun va shakl, mohiyat va hodisa, borliq va ong kabi falsafiy kategoriylar yordamida ijtimoiy obyekt tadqiq etiladi.

Sotsiologiya shaxs, guruh, oila, sotsial institut va tashkilotlar, etnik birliklar, siyosiy partiya va harakatlar hamda kishilarning boshqa ijtimoiy faoliyatlarini sotsial tizim sifatida tahlil qiladi. Bu bilan sotsiologiya o‘zining obyektini boshqa hodisa va jarayonlardan ajratgan holda aniqlashtiradi. Sotsiologiya turli sotsial sohalarning umumiy va muhim jihatlarini birlashtirib, umumiy nazariyalar hosil qiladi va metodologik asos yaratadi. U jamiyat va inson to‘g‘risida umumiy qarashlar, qonunlar va yo‘nalishlarni ifoda etib, ularning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi.

Sotsiologyaning tor ma’nodagi obyektini jamiyatdagi sotsial jarayonlar, sotsial subyektlar va sotsial umumiylikning aniq holatlari hamda ularning o‘zaro ta’siri ham tashkil qiladi. Sotsiologyaning bilish obyekti – tadqiqotchi o‘z faoliyatini yo‘naltirgan va uning bilish obyektiga aylangan sotsial reallik sifatida namoyon bo‘ladigan barcha hodisa va jarayonlar, insonlar o‘rtasidagi sotsial aloqa va munosabatlar majmuini qamrab oladi. Chunki bu aloqa va munosabatlar har doim muayyan sharoitlarda o‘ziga xos tarzda tashkil qilingan bo‘lib, sotsial tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Sotsiologiya jamiyatni uning ma’lum sohalari va yo‘nalishlariga nisbatan aniq vazifalarni amalga oshirish maqsadida o‘rganadi. Sotsiologiya fanining vazifasi:

- 1) amaliy sotsiologik tadqiqotlar yordamida ijtimoiy fikrni o‘rganadi;
- 2) ijtimoiy fikrning ta’sir ko‘rsatish sohalarini aniqlashtiradi;
- 3) ijtimoiy fikrni targ‘ib etish yo‘nalishlarini belgilab beradi;
- 4) ijtimoiy fikrni o‘rganish orqali hodisa va jarayonlarning kelajagini bashorat qiladi;
- 5) jamiyat kelajagi uchun ma’lum tavsiyalar ishlab chiqadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning darajasi, imkoniyati va holatiga to‘g‘ri baho berish, ularning imkoniyatlarini aniqlash, har taraflama tahlil qilish sotsiologyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Shu bois har bir sotsial hodisa o‘zining o‘tmishi, hozirgi holati va kelajagiga ega. Demak, sotsial hodisalarning bu uch vaziyati o‘zaro ta’sir hamda aloqadorlikda bo‘ladi. Aytish joizki, sotsiologiya fanining predmeti va obyektiga doir masalalar, ularning birini ikkinchisidan farqlashga intilish sotsiologiya fanining keyingi mavzularini mana shu fan doirasida har taraflama, chuqur o‘rganishga yordam beradi.

Har bir mutaxassis qaysi sohada faoliyat olib borishidan qat’i nazar, o‘z sohasini chuqur bilishi bilan bir qatorda, atrofdagi kishilarning qiziqishlari, manfaat va intilishlari hamda sotsial munosabatlardagi o‘rnini bilan yaqindan tanish bo‘lishi kerak. Chunki ular asosida ma’lum sotsial guruhlar va institutlar, sotsial tashkilotlar, ta’bir joiz bo‘lsa bir butun jamiyat va qolaversa, dunyo hamjamiyati shakllanadi.

Sotsiologiya fanining amaliy sotsiologik tadqiqotlar natijasida olingen aniq dalillarga asoslangan holda tajriba va bilim bilan qurollanishi hayotni chuqur o‘rganishga yordam beradi. Sotsiologik tafakkur orqali esa ijtimoiy hayotni ilmiy baholash va obyektiv axborot olish mumkin.

Shunday qilib, sotsiologiya fani jamiyatning barcha sohalarida o‘tkaziladigan aniq sotsiologik tadqiqotlarning maqsad va yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilab olish hamda baholashda katta ahamiyat kasb etadi.

## **2-§. Sotsiologiya fanining tuzilishi va tarkibiy qismlari**

Sotsiologik bilimlar tuzilishi, ijtimoiy hodisa va jarayonlarni o‘rganish darajasi, soha va yo‘nalishlari, maqsad va vazifalariga ko‘ra murakkab hamda ko‘p qirralidir. Sotsiologiya jamiyat miqyosida sodir bo‘layotgan sotsial voqeа-hodisalar va ayrim ijtimoiy uyushmalarga xos sotsial munosabatlар hamda ular o‘rtasidagi aloqalar, shaxs va shaxslararo munosabatlarni tadqiq qiladi. Bu esa o‘z navbatida sotsiologik bilimlarni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratishga asos bo‘ladi.

**Umumsotsiologik nazariya** makrosotsiologik tadqiqot sifatida sotsial tizimlar rivojlanishining umumiyligini qonuniyatlarini aks ettiradi. Sotsiologik tadqiqotlarning metodologik asosi bo‘lib hisoblanadi. **Maxsus sotsiologik nazariyalar** sotsial tizimlar tarkibiga kiruvchi alohida sotsial birliklarning tuzilishi, rivojlanish qonuniyatları va ular o‘rtasidagi aloqa hamda munosabatlarni aks ettiradi.

Demak, maxsus sotsiologik nazariyalar sotsiologiyaning alohida tarmoqlari:

- sotsial guruhlar sotsiologiyasi;
- huquq sotsiologiyasi;
- oila sotsiologiyasi;
- sotsial-etnik birliklar sotsiologiyasi;
- sotsial-hududiy birliklar sotsiologiyasi;
- shahar va qishloq sotsiologiyasi;
- deviant xulq-atvor sotsiologiyasi va sotsiologiyaning boshqa tarkibiy qismlarini qamrab oladi.

Sotsiologiyaning alohida maxsus tarmoqlari umumsotsiologik nazariyalardan farq qilib, makon va zamon jihatidan chegaralangandir. Umumsotsiologik nazariyalarning mazmuni jamiyat rivojlanishining asosiy yo‘lini belgilovchi dinamik qonuniyatga asoslangan bo‘ladi. Maxsus sotsiologik nazariyalar esa statik – muayyan bir sotsial doiradagi o‘zgarishlarni ifodalaydi. Har qanday umumsotsiologik nazariya mohiyat-

e'tibori bilan maxsus sotsiologik nazariyalar mazmuniga muvofiq bo'lishi shart. Chunki maxsus sotsiologiya aniq amaliy tadqiqotlar orqali tekshirilib boriladi. O'z navbatida umumsotsiologik nazariyalar maxsus sotsiologik nazariyalar uchun nazariy hamda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Umumsotsiologik va maxsus sotsiologik nazariyalar sotsiologiya fanining ilmiy-nazariy jihatini tashkil qiladi. Sotsiologiya fanining ijtimoiy-gumanitar fanlardan farqi uning amaliy sotsiologik tadqiqotlar bilan bevosita bog'liqligidir. Aniq sotsiologik tadqiqotlar mazkur fanning yuqorida qayd qilingan nazariy qismlarini dalillar bilan boyitadi va ilmiylik darajasini oshiradi.

**Aniq sotsiologik tadqiqotlar** amaliyot bilan bevosita bog'liq bo'lib, ijtimoiy munosabat turlarini, xilma-xil sotsial dalillarni o'ziga xos uslubga asoslangan holda o'rganadi. Bular: kuzatish, sotsial eksperiment, so'rov-noma, suhbatlashish, anketalashtirish, matematik modellashtirish va boshqa empirik usullar yordamida amalga oshiriladi. Bu tadqiqotlar dalillarni aniqlash yoki qayd etish bilan chegaralanib qolmay, balki o'rganilayotgan hodisaning rivojlanish yo'nalishlari va qonuniyatları, uning boshqa hodisa va jarayonlar bilan aloqadorligi hamda bir butun ijtimoiy tizimning taraqqiyoti bilan bog'liqligini ochib beradi.

Sotsiologik bilimlarning uch tarkibiy qismi – **umumnazariy, maxsus** va **aniq sotsiologik tadqiqotlar** o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lib, yagona sotsiologiya fanini tashkil qiladi. Sotsiologik tadqiqotlar natijasida olinayotgan bilimlarning darajalariga qarab, empirik va nazariy sotsiologik bilimlarga bo'linadi. **Empirik sotsiologik bilimlar** aniq sotsiologik tadqiqotlar jarayonida kuzatish, so'rov, anketalashtirish, hujjatlar tahlili va boshqa usullar yordamida yig'ilgan faktik materiallarni qayta ishlashni o'z ichiga oladi. **Nazariy sotsiologik bilimlar** ijtimoiy hayot sohasida yig'ilgan faktik materiallarni chuqur tahlil qilish va umumlashtirishni qamrab oladi.

Sotsiologik tadqiqotlarning maqsad va vazifalariga ko'ra, fundamental va amaliy sotsiologik bilimlarga ajratib ko'rsatish mumkin. **Fundamental sotsiologik bilimlar** mazkur fanning asosini tashkil qiluvchi, ya'ni uning nazariya va metodologiyasini ishlab chiqish hamda takomillashtirish, boyitish va rivojlantirish uchun xizmat qiladi. **Amaliy sotsiologik bilimlar** ijtimoiy hayotda qo'llaniladigan zaruriy tavsiyalar ishlab chiqish va qayta qurish hamda fundamental sotsiologiya natijasida olingan bilimlarni hayotga tatbiq etish yo'l-yo'riqlari va usullarini qo'llashga qaratiladi. Fundamental sotsiologik bilimlarni nazariy sotsiologik bilimlar bilan yoki amaliy sotsiologiyani empirik sotsiologik tadqiqotlar bilan aynan bir xil deb hisoblash noto'g'ri. Ammo ular bir-birini to'ldiradi. Masalan, empirik

sotsiologik tadqiqotlar fundamental sotsiologiya hamda amaliy sotsiologiyada ham o'tkazilishi mumkin. Agar empirik tadqiqotlarning maqsadi nazariyaning yaratilishi, fundamental sotsiologiya uchun amaliy tavsiyanomalar ishlab chiqishga qaratilgan bo'lsa, ular amaliy sotsiologiya uchun xizmat qiladi. Nazariy sotsiologik bilimlar fundamental sotsiologiyaning asosini tashkil qilsa ham ular avvalo empirik sotsiologik darajadan olingan daliliy materiallarni tahlil qiladi va umumlashtiradi.

### **3-§. Sotsiologik qonunlar va ularning amal qilish sohalari**

Kishilar moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-birlari bilan turli munosabat va aloqaga kirishadilar. Sirtdan qaraganda bu munosabat va aloqalar yuzaki, vaqtinchalik, tasodifiydek tuyuladi. Lekin ular ma'lum sotsial tizimga xos qonun va qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ma'lumki, har qanday fanning yadrosini qonun va qonuniyatlari tashkil etadi. Unda har qanday obyektiv va subyektiv voqeliklarning holat va amaliy harakat asoslari ohib beriladi. Qonun – olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiyligi va takrorlanib turuvchi o'zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo'lishidir.

*Sotsiologik qonunlar* kishilar faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular o'rtasidagi hayotiy muhim va zaruriy aloqalar hamda ularning ijtimoiy xatti-harakatlari o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Bu munosabatlardan xalqlar, millatlar, sinflar, sotsial-etnik va sotsial-hududiy birlıklar, shahar va qishloq aholisi, shuningdek jamiyat va sotsial institutlar, jamiyat va sotsial tashkilotlar, jamiyat va mehnat jamoalari, jamiyat va sotsial guruhlar, jamiyat va oila, jamiyat va shaxs o'rtasidagi aloqalarda o'z aksini topadi. Sotsial aloqalarga kirishadigan individlar esa, kishilar sotsial birliliklarning kundalik faoliyati o'rtasidagi munosabatlarni belgilab beradi.

Sotsiologik qonunlar kishilar ijtimoiy faoliyatlarining barcha sohalarida namoyon bo'lib, birinchi navbatda, bu ularning moddiy ishlab chiqarish faoliyatida yuzaga keladi. Jamiyatning iqtisodiy imkoniyatlari inson va jamiyat rivojlanishi, ular faoliyat ko'rsatishining mazmun va mohiyatini aniqlab beradi. O'z navbatida inson jamiyatda o'z yo'nalishlarini belgilab oladi. Shu bois sotsiologik qonunlar inson ijtimoiy faoliyatining qonunlari hisoblanadi. Demak, ular o'z hayatlarini sotsiologik qonunlarga mos holda tashkil etadilar.

Sotsiologik qonunlar, jamiyatda amal qilishiga qarab, umumsosiologik va maxsus sotsiologik qonunlarga bo'linadi. *Umumsotsiologik qonunlar* – jamiyat miqyosida barcha sotsial tizimda bir xil amal qiladigan qonunlarga

aytiladi. Umumsotsiologik qonunlar *birinchidan*, sotsial tizimning (huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa tizimlar) barcha sohalariga daxldor bo‘ladi, *ikkinchidan* sotsial tizimning rivojlanish qonuniyatlarini belgilab beradigan fundamental hamda o‘zak asoslarini ifodalaydi. Ushbu qonunlarga ijtimoiy munosabatlarning ishlab chiqarish usuliga bog‘liqligi qonunini kiritish mumkin. Shaxslarning jamiyatdagi holati va hayotdagi o‘rni, uning ehtiyoj va manfaatlarining qanday darajada qondirilishini iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlarining xususiyati hamda usullariga munosabatlari belgilab beradi. Sobiq sovet tuzumi davrida ishlab chiqarish kuchlari va vositalariga ijtimoiy mulkchilik joriy qilinganligining salbiy oqibatlarini hozirgi kungacha his qilib kelmoqdamiz. Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan so‘ng, mulkchilikning xilma-xil shakllari joriy qilinib, jamiyatimizning iqtisodiy sohasida katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Albatta bu o‘zgarishlar kishilarning ma’naviy hayotida o‘z ta’sirini ko‘rsata boshladи.

Umumsotsiologik qonunlarga jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar rivojlanishiga ijtimoiy-ma’naviy munosabatlarning faol ta’siri qonunini kiritish mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda ma’naviy sohada ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, milliy qadriyatlarning tiklanishi va ulug‘lanishi, inson ma’naviy qiyofasining o‘zgarishi iqtisodiy sohaning rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Umumsotsiologik qonunlarga kishilar ehtiyoj va manfaatlarining sotsial shartlanganlik qonunini ham kiritish mumkin. Ushbu jarayonlarning qondirilishi ijtimoiy sharoitlar yig‘indisiga, demak, ishlab chiqarish munosabatlarining qanday darajada rivojlanganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Shaxsning shakllanishida ijtimoiy muhitning belgilovchi roli, qonuni ham umumsotsiologik qonunlar tarkibiga kiradi. Inson tug‘ilganidan boshlab umrining oxirigacha ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liqlikda umr kechiradi. Shu bois shaxsning oila, bog‘cha, maktab, litsey, kollej, oliy o‘quv yurti, mahalla va ma’lum bir mehnat jamoasidagi kishilar bilan munosabatlari, shuningdek ijtimoiy muhitda bo‘ladigan xilma-xil o‘zgaruvchan sotsial omillar – uning jamiyatdagi turmush tarzi va o‘rnini belgilab beradi.

Umumsotsiologik qonunlar jamiyat miqyosida barcha sotsial tizimda bir xil amal qilish jihatи bilan maxsus sotsiologik qonunlardan farq qiladi.

**Maxsus sotsiologik qonunlar** alohida yoki bitta yoxud bir nechta yagona turdagи sotsial tizim doirasida amal qiladi. Maxsus sotsiologik qonunlar sinflar, sotsial etnik-hududiy va boshqa sotsial birliklar o‘rtasidagi munosabatlarda aks etadi.

Sotsiologik qonunlar tabiat qonunlari singari inson ongi va irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda obyektiv shaklda bo‘ladi. Ularning tabiat

qonunlaridan farqi shundaki, ijtimoiy taraqqiyot qonunlari inson va uning ishtirokisiz mavjud bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, maxsus sotsiologik qonunlar inson ijtimoiy faoliyatining aktiv qonunlaridir. Ularning harakat mexanizmi esa inson ijtimoiy faoliyatining zaruriy bog‘liqligida aks etadi.

Jamiyatni yangilash, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlariiga o‘tishda davlat bosh islohotchi bo‘lib qoladi. Obyektiv qonunlardan maqsadli ravishda foydalanish hamda boshqarish mexanizmini ongli ravishda ko‘rish asnosida ommaga tayangan holda faoliyatini amalga oshirsa – davlat bu vazifani muvaffaqiyatli tarzda bajarishi mumkin.

Inson jamiyatda qanday munosabatlarga kirishishidan qat’i nazar, bu munosabatlar ma’lum ijtimoiy qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Aslida inson o‘zining xatti-harakatini belgilab beradigan obyektiv ijtimoiy qonunni inkor eta olmaydi. Chunki bu qonun uning kundalik amaliy turmush faoliyatini aniqlaydi.

Sotsiologik qonunlar namoyon bo‘lishiga ko‘ra, dinamik va statikka bo‘linadi. Sotsiologiya fanining asoschilaridan biri O.Kont sotsiologiyani sotsial statika va sotsial dinamikaga ajratganda aynan mana shu qonunlarni nazarda tutgan edi.

**Dinamik qonunlar** ijtimoiy o‘zgarishlarning shakl va omillari hamda muayyan sharoitda yuz berayotgan hodisalar o‘rtasida bir xil aniq va qat’iy aloqadorlikni belgilaydi.

**Statik qonunlar** dinamik qonunlardan farq qilgan holda, sotsial hodisalarning zaruriy bog‘lanishlarini qat’iy ko‘rsatmaydi, balki yaxlit o‘zgarishlarning saqlanishini aks ettiradi, xolos. Agar dinamik qonunlar aniq sharoitlarda obyektning barcha hodisalariga taalluqli bo‘lsa, statik qonunlar dinamik harakat yo‘nalishidagi ayrim individual o‘zgarishlarni taxminan belgilaydi. Statik qonunlar tekshirilayotgan obyekt hodisalarining har bir bo‘lagini emas, balki shu obyektga tegishli ma’lum bir belgilarini o‘rganadi. Statik qonunlar obyektning umumiy belgi va xususiyatlaridan kelib chiqib, uning xatti-harakati, yo‘nalishlarini ko‘rsatib beradi.

Sotsiologik qonunlarning mohiyatini chuqur anglash, ularning amal qilish mexanizmlarini bilish, jamiyat hodisalarini har taraflama tahlil qilish, o‘rganish, qolaversa sotsial hodisa va jarayonlarni boshqarishda katta ahamiyatga egadir. Aynan sotsiologik qonunlar sotsiologiya faniga ilmiylik bag‘ishlaydi. Ya’ni shaxsnинг tartibsiz hodisalar bilan bog‘liq xatti-harakatlarini ilmiy asosda oldindan aytish mumkin emas. Biroq sotsial qonunlarga asoslangan ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, sotsiologik tadqiqotlarning empirik metodlariga tayangan holda jamiyatda sodir bo‘ladigan sotsial hodisa va jarayonlarning qanday salbiy oqibatlarga olib

kelishi va qanday natijalar bilan tugashini muayyan darajada aniqlashtirish mumkin bo‘ladi.

**Sotsiologyaning tadqiqot metodlari.** Metod – (yunon. «methodos» – usul, yo‘l) u yoki bu nazariy va amaliy vazifalarni hal etishga xizmat qiladigan, yangi bilimlarga erishishni ta’minlaydigan vositadir. Usul har qanday ilmiy bilishning tarkibiy qismini tashkil etadi. Sotsiologik usul deganda, sotsial tizim va uning tuzilmalarini empirik va nazariy bilish, sotsiologik bilimlarni asoslash hamda yangisini yaratishda qo‘llaniladigan usul va vositalar yig‘indisi tushuniladi. Barcha fanlar singari sotsiologiya fani ham jamiyat va uning tuzilmalarini ilmiy bilish jarayonida umumiyligi va maxsus usullarga asoslanadi. Sotsiologik bilimlarga erishishda qo‘llaniladigan usullarni ikki turkumga ajratib ko‘rsatish mumkin. *Birinchisi* – umumsotsiologik usul; *ikkinchisi* – aniq sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishda qo‘llaniladigan usuldir. Umumsotsiologik usullarga: dialektik va abstraktlik (mavhumlik)dan konkretlik (aniqlik)ka o‘tish metodlari; tarixiylikdan mantiqiylikka o‘tish hamda induksiya va deduksiya metodlari; tahlil va talqin kabi boshqa metodlar kiradi.

Aniq sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishda qo‘llaniladigan usullarga esa sotsiologik kuzatish, sotsial eksperiment, hujjatlar tahlili, intervyu (suhbat olib borish), anketalashtirish va so‘rovnomalar kiradi.

Xulosa qilib qayd etish joizki, sotsiologik qonunlar jamiyatning barcha sohalarida amal qiladi. Mamlakatimizning huquqni muhofaza qilish organlari o‘z navbatida ijtimoiy huquqiy tizim sifatida sotsiologik qonularga bo‘ysunadi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining har bir xodimi, tinglovchi va kursantlari bu jarayonlarni puxta bilishlari ayni muddaodir.

#### 4-§. Sotsiologiya fanining asosiy funksiyalari

Sotsiologiya fanining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

**Bilish funksiyasi.** Sotsiologyaning bilish funksiyasi – uning o‘rganish obyekti va predmeti doirasidagi masalalarni tahlil qilish bilan bog‘liq bo‘lib, sotsial tizimning vujudga kelishi, tarkibi, tuzilishi, jamiyat hayotidagi o‘rnini hamda rivojlanish qonuniyatlarini aniq sotsiologik tadqiqotlar yordamida amalga oshiradi. Bu funksiya jamiyatdagi sotsial voqeа-hodisalar hamda ularning inson hayotiga qay darajada ta’siri to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Sotsiologiya jamiyatni sotsial fakt va eksperimentlar yordamida o‘rganar ekan, uning asosiy funksiyalaridan biri ularni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdir. Mehnat jamoalari birligining nafaqat ijobjiy yoki salbiy jihatlarini o‘rganish, balki ularning yanada birlashishi, jipslashishi hamda

takomillashishi imkoniyatlarini qidirishdan iborat bo‘lmog‘i kerak. Mazkur funksiya sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishning nazariy usullarini ishlab chiqish, axborot yig‘ish va qayta ishslashni o‘z ichiga oladi. Sotsiologiyaning har taraflama rivojlanishini va takomillashib borishida bilish funksiyasining o‘rni beqiyosdir.

*Bashorat qilish funksiyasi.* Sotsiologiya rivojlanish qonuniyatlariga asoslangan bilimlarga tayangan holda, hayotdagi qisqa, o‘rta va uzoq muddatlarda, ya’ni kelajakda sodir bo‘lishi kutilgan hodisa va jarayonlarni faraz qilish orqali oldindan bashorat qilishi mumkin. Sotsial hodisa va jarayonlar uchun bashorat qilishning ahamiyati kattadir. Jamiyat hayotida yuz beradigan rivojlanish va qayta tiklanishlarni tahlil qilish va mehnat jamoalarining uzoq davrlarga mo‘ljallangan bashoratini tuzish jamiyat taraqqiyotida muhim. Sotsiologiyaning bashorat qilish funksiyasi jamiyatning har bir tarkibiy qismi taraqqiyotini ilmiy asoslash orqali uning kelajagini taxmin qilib berishdir. Bunday taxminlar sotsial va siyosiy boshqarish amaliyoti uchun tavsiyanomalar ishlab chiqishda ham qo‘llaniladi.

*Sotsial loyihalashtirish funksiyasi.* Sotsiologiya aniq sotsiologik tadqiqotlar yordamida olingan ma’lumotlarga asoslangan holda jamiyat qurilishi hamda uning loyihalarini tuzishda katta rol o‘ynaydi. Uning muhim funksiyasi jamiyatning har bir tarkibiy tuzilmasini ilmiy asosda ishlab chiqilgan tavsiyalar bilan qurollantirishdir. Bu, ayniqsa, hozirgi davr uchun juda dolzarbdir. Demak, sotsial loyihalashtirish davomida sotsial institut va tashkilot vazifalarining andozalari optimal o‘lchamlarda ishlab chiqiladi. Bunda tarkibiy tuzilmaning har bir a’zosining imkoniyatlari to‘liq hisobga olinadi va ma’lum yutuqlarga ega bo‘ladi. Sotsial loyihalashtirisha jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti har doim natija tariqasida qaraladi. Sotsial loyihalashtirish funksiyasiga har xil yangi sotsial tashkilotlar, sotsial-hududiy birliklar, shaharlar, siyosiy partiyalar va harakatlarning optimal modellarini ishlab chiqish emas, balki qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun boshqarishni ishlab chiqish ham kiradi.

**Sotsial-texnologik funksiya** sotsial loyihalashtirish funksiyasi bilan uzviy ravishda bog‘liqdir.

Bugungi kunda jamiyatning tarkibiy tuzilmalarini harakatga keltiruvchi, ularning ijtimoiy taraqqiyotini belgilab beruvchi sotsial texnologiyaga talab kuchayib bormoqda. Hozirda va kelajakda jamiyat rivojlanishini texnologiyasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham bu sotsiologiyaning muhim bir yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Sotsiologiyaning sotsial-texnologik funksiyasi amaliy sotsiologik tadqiqotlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uning imkoniyatlari belgilab olinadi.

Sotsial texnologiyani vujudga keltirish o‘rganilayotgan obyekt haqida aniq va juda keng ma’lumotga ega bo‘lishni talab qiladi. Bu sotsial loyiha-lashtirishning davomi bo‘lib, usiz sotsial texnologiyani tasavvur qilib bo‘lmaydi. Sotsial loyiha lashtirishsiz uning tartibi va ko‘lamini ham bilib bo‘lmaydi. Bu funksiyalar biri-ikkinchisini taqozo etadi.

**Boshqarish funksiyasi.** Sotsiologiya, xususan amaliy sotsiologiya boshqarish faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda sotsiologiyaning ilmiy natijalari, tavsyanomalari, takliflari, usullari va har xil holatlarga bergan baholariga asoslanadi. Boshqarishning bosh vazifasi: kadrlar tayyorlash, ularning tashkilotdagi o‘rni va rolini belgilash, salohiyat va imkoniyatlarini hisobga olib, yetarli bilim hamda malaka va ixtisosliklar bilan ta’minlashdir.

Bugungi kunda sotsiologik bilim va sohalar bo‘yicha chuqur tayyor-garliksiz boshqarish organlarida faoliyat ko‘rsatish mumkin emas. Masalan, har qanday mehnat jamoasining ish tartibi hamda jarayonlarni o‘rganish orqali, ularning xohish-irodasini hisobga olmay va sotsial oqibatlarini tahlil qilmay amalga oshirib bo‘lmaydi. Aks holda salbiy oqibatlarga olib keladi.

**Mafkuraviy funksiya.** Sotsiologiya boshqa ijtimoiy fanlar singari mafkuraviy funksiyani ham bajaradi. Uning mafkuraviy funksiyasi jamiyatda kishilarning mafkuraviy holatlarga bo‘lgan munosabatlarini amaliy sotsiologik tadqiqotlar yordamida o‘rganadi. Ushbu funksiya jamiyatda sotsial jarayonlarga baho berish hamda holatini tushuntirish, ijtimoiy fikrni o‘rganish, aholining turmush tarzi, siyosiy faoliyat reytingini belgilash va boshqalarda namoyon bo‘ladi.

**Tavsiya va yo‘nalish berish funksiyasi.** Sotsiologiya o‘ziga xos usul hamda uslubiy asoslariga ko‘ra ijtimoiy bilish metodlariga suyangan holda ijtimoiy borliq haqida o‘z yondashuvlari va maxsus bilimlar tizimini ishlab chiqadi. Bular esa sotsial hodisalarni aks ettirib, dastlabki sotsiologik axborotlarga doir izlanishlar, qaydlar, o‘lchamlar, ma’lumotlarni tahlil qilish hamda ularni umumlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Sotsiologiya ijtimoiy-huquqiy fanlar tizimida katta ahamiyat kasb etib, quyidagilarda: *birinchidan*, sotsiologiya jamiyat va uning sotsial tizimi to‘g‘risidagi fan ekanligida; *ikkinchidan*, u umumiyl sotsiologik nazariyani aks ettirgan holda boshqa ijtimoiy-huquqiy fanlarning uslubi sifatida xizmat qilishida; *uchinchidan*, ijtimoiy-gumanitar fanlar inson va jamiyatning hayotiy jihatini o‘rganishda sotsial holatlarni, ya’ni u yoki bu ijtimoiy hayotda uchraydigan va inson faoliyati orqali amal qilinadigan qonun va qonuniyatlarni qamrab olganligida; *to‘rtinchidan*, sotsiologiyaning maxsus usullaridan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar ham foydalanishida; *beshin-*

*chidan* esa sotsiologiya va boshqa fanlar oralig‘ida izlanish obyekti bo‘lgan muammolar tizimi paydo bo‘lgan masalalarini hal qilishda namoyon bo‘ladi. Bular ijtimoiy (ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-demografik va shu kabi) izlanish bo‘lib, sotsiologiya boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘rtasida yetarli talab va ehtiyojga ega fan hisoblanadi.

Sotsiologiya jamiyat uchun o‘zini o‘zi har tomonlama o‘rganishi lozim fandir. Shuning uchun u nafaqat ijtimoiy, balki tabiiy fanlar bilan ham bog‘liq holda o‘z tadqiqotlarida shu fanlarning yutuqlari, usullaridan foydalanadi va o‘z navbatida ularga ham tavsiyalar berib boradi.

Sotsiologiya fanining ichki ishlari organlari xodimlari shaxsiy tarkibini tarbiyalash hamda tinglovchilar va kursantlar bilimlarini oshirishdagi ahamiyati beqiyosdir. Chunonchi mazkur fan ichki ishlari organlari xodimlarining faoliyatida bir qancha vazifalarni o‘taydi. *Birinchidan*, u zarur axborot, ma’lumotlar beradi. *Ikkinchidan*, uning huquq sohasidagi talab va ehtiyojlarini o‘rganishda sotsiologik o‘rni mavjud. *Uchinchidan*, sotsiologiyadan huquq sohasidagi bilimlar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy ta’lim, huquqiy burch, huquqiy normalarni keng tahlil qilishda foydalaniladi. *To‘rtinchidan*, sotsiologiya ichki ishlari organlari xodimlarining huquqiy bilimlarni o‘zlashtirishi, o‘z navbatida huquqiy normalarga rioya qilishi, axloqiy-estetik bilimlarga bo‘lgan munosabatlari baholashda xizmat qiladi.

Bundan tashqari sotsiologiya fani ichki ishlari organlari xodimlarining vazifalari, aholi bilan munosabatlari, shu boradagi ish faoliyatini tashkil qilishda ko‘maklashadi. Ochig‘ini aytish kerakki, sotsiologiya fanining nazariyasini va amaliy tomonlarini har taraflama yaxshi o‘zlashtirgan ichki ishlari organlari xodimlari jinoyatlarning oldini olish, bashorat qilish va tavsiyalar ishlab chiqishda, sodir etilgan jinoyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etishda undan unumli tarzda foydalanadi.

### **Tayanch tushunchalar**

Sotsiologiya, sotsiologiya fanining obyekti va predmeti, sotsiologiya fanining tarkibiy qismlari, sotsiologiyaning tuzilishi, umumsotsiologik naziariya, maxsus sotsiologik naziariya, aniq sotsiologik tadqiqot, fundamental va amaliy sotsiologik bilimlar, sotsiologik qonunlar, umumi sotsiologik qonunlar, maxsus sotsiologik qonunlar, dinamik va statik qonunlar, sotsiologiyaning tadqiqot metodlari, sotsiologiya va ijtimoiy-huquqiy fanlar, sotsiologiyaning asosiy funksiyalari: bilish funksiyasi, boshqarish funksiyasi, bashorat qilish funksiyasi, mafkuraviy funksiya, tavsiya va yo‘nalish berish funksiyasi.

## **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Sotsiologiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi nimani anglatadi?
2. Sotsiologiya fanining obyekti va predmetini tahlil qilib bering.
3. Sotsiologiya fanining boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan munosabatini izohlab bering.
4. Sotsiologiya qanday tarkibiy qism va tuzilishga ega?
5. Aniq sotsiologik tadqiqotlar deganda nimani tushunasiz?
6. Sotsiologyaning qanday maxsus yo‘nalishlarini bilasiz?
7. Empirik va nazariy sotsiologik bilimlarni tahlil qilib bering.
8. Fundamental va amaliy sotsiologik bilimlarning farqi nimada?
9. Sotsiologik qonunlar deb qanday qonunlarga aytamiz?
10. Sotsiologik qonunlar jamiyatda amal qilish doirasiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
11. Dinamik va statik qonunlarning farqi nimada?
12. Qanday qonunlar maxsus sotsiologik qonunlar deb ataladi?
13. Umumsotsiologik qonunlarning turlarini sanab ko‘rsating.
14. Sotsiologiya fani qanday funksiyalarini bajaradi?
15. Sotsiologiya faning funksiyalarini izohlab bering.

## **II BOB. SOTSILOGIYA FANINING GENEZISI VA EVOLUTSIYASI**

### **1-§. Sotsiologiya fani shakllanishi va rivojlanish bosqichlari**

Sotsiologiya fanining mohiyati va ahamiyatini bilishda uning vujudga kelishi hamda tarixiy rivojlanish bosqichlarini o‘rganish muhimdir. Sotsiologiya keng ma’noda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, uning turli sohalardagi o‘ziga xos jihatlari hamda umumiylari va xususiy qonuniyatlarini, jarayonlarini o‘rganadi. Ijtimoiy hayotning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganishga qaratilgan ta’limotlar, qarashlar qadimgi Hindiston, Xitoy va yunonistonlik faylasuflarning falsafiy qarashlarida o‘z aksini topgan. Keyinchalik Markaziy Osiyo mutafakkirlari Al-Forobi, Ibn Sino, Beruniy hamda Amir Temur va temuriylar davrida ham jamiyat, davlat va uni boshqarishni takomillashtirish, ijtimoiy munosabatlarni o‘rganish hamda tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etgan.

Qadimdan inson o‘zini o‘rab turgan tabiat hodisalari suvning oqishi, yog‘ingarchilik va zilzilalarning sodir bo‘lishi, vulqon otilishi, fasllarning, kun bilan tunning almashishi va shu kabi boshqa tabiat qonunlari bilan qiziqib qolmay, balki o‘zining jamiyatda va boshqa kishilar orasida yashash jarayonida vujudga keladigan munosabati bilan bog‘liq muammolar bilan ham qiziqib kelgan. Jumladan, ular nima uchun odamlar alohida emas, balki boshqa insonlar bilan birga yashaydi? Nima uchun insonlar boy va kambag‘alga ajralgan? Nima uchun davlatlar o‘rtasida chegara tortilgan va bir-birlariga dushmanlik qiladilar? degan savollarga javob topishga harakat qilganlar. Shunga o‘xhash ko‘plab savollarga javob topish uchun qadimgi davrlardayoq olimlar o‘zлari yashayotgan jamiyat va insonlarga e’tibor qaratganlar. Shu bois ham o‘tmishda matematika fani real obyektlarni o‘lchash asosida vujudga kelgan va geometriya abstraksiyalar asosida yaratilgan, falsafa esa tafakkurning borliqqa munosabati natijasida paydo bo‘lgan bo‘lsa, sotsiologiya fani qadimgi olim va donishmandlarning jamiyat to‘g‘risidagi qarashlari yoki insonlarning jamiyatdagi o‘rni masalalariga bag‘ishlangan g‘oyalarida o‘z ifodasini topgan. Masalan, Qadimgi Xitoyda vujudga kelgan «Daosizm maktabi» namoyandalari oddiy kuzatish natijasida jamiyatni tartibli tarzda boshqarish, yoshlar tarbiyasi, ularga ta’sir etuvchi omillar va shu kabi masalalar yuzasidan o‘z fikrlarini bildirganlar. Qadimgi Hindistonning yozma yodgorliklaridan biri

«Mahobxorat» – «Jamiyatdagi ijtimoiy tartib va barcha kishilarning baxtga erishishi – boshqaruv sohasidagi yutuqlar uchun zarurdir», deyiladi.

Antik davr mutafakkirlari sotsiologiya fani asosining yaratilishi va ijtimoiy soha tadqiqotlariga turtki berdi. Aflatun o‘zining «Davlat» va «Qonunlar» hamda Arastu «Siyosat» va boshqa asarlarida oila, huquq, davlat kabilarni ijtimoiy institut sifatida alohida o‘rganish fikrini ilgari surdi. Ular birinchilardan bo‘lib, insonning jamiyatdagi o‘rni masalasiga alohida e’tibor qaratdilar. Inson va jamiyat to‘g‘risidagi ta’limotni nazariy asosda o‘rganish lozim ekanligini qayd etishdi. Ularning sotsiologiyaga oid ilg‘or g‘oyalari o‘z davri uchun ijtimoiy hayotning dolzarb muammolaridan bo‘lgan empirik-nazariy va tarixiy-siyosiy tadqiqotlarda o‘z aksini topdi.

Yevropa Uyg‘onish davrida ijtimoiy fikrlar yangi bosqichga o‘tib, sotsiologiyaga taalluqli hamda jamiyatning har xil sohalariga tegishli yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Jumladan, Erazm Retterdamskiy, Tomas Mor, Nikolo Makiavelli, Mishel Monten va boshqalar inson hamda uning jamiyatdagi o‘rni masalalarini ko‘tarib chiqishdi. Ma’rifatparvar mutafakkirlar Klod Adrian Gelvetsiy, Deni Didro, Jan Jak Russo, Volter va boshqalar o‘z ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan o‘zlaridan avvalgi jamiyat to‘g‘risidagi g‘oyalari va insonning o‘rni masalalariga bo‘lgan munosabatlarni tubdan o‘zgartirib, jamiyat tuzilishi hamda kishilar o‘rtasida tengsizlik yuzaga kelishi muammosini batafsil o‘rganishdi. Ijtimoiy jarayonlar rivojlanishida dinning o‘rni masalasini tadqiq qildilar. Ular jamiyat rivojlanishining mexanik va oqilona modelini yaratib, har bir shaxsni mustaqil subyekt sifatida belgilaydilar, uning xatti-harakatlari asosan o‘zining shaxsiy imkoniyatlari va manfaatlariga bog‘liq ekanligini ta’kidlashdi.

Empirik sotsiologik tadqiqotlar Yevropada asosan XVII asrlardan boshlab o‘tkazila boshlangan edi. Bu davrga kelib shaharlarning rivojlanishi, sanoatning o‘sishi bir qator muammolarni keltirib chiqardi. Bu muammolarni amaliy sotsiologik tadqiqotlarsiz o‘rganish ancha mushkul edi. Urbanizatsiya, uy-joy ta’minti, qashshoqlik kabilar shunday muammolardan bo‘lib, ularni maxsus sotsiologik tadqiqotlar orqali qiyosiy o‘rganish lozim edi. Demak, G‘arb mamlakatlarida aholining sonini, tarkibini, tuzilishini o‘rganish va ro‘yxatga olish hamda jamoatchilik fikrini tadqiq qilish ishlari boshlandi. U davrlarda o‘tkazilgan tadqiqot amaliy yoki empirik sotsiologiya nomi bilan emas, balki siyosiy arifmetika deb yuritilar edi.

XIX asrga kelib amaliy sotsiologiya usullari ancha takomillashdi. Belgiyalik olim Ketele sotsiologik statistika asoslarini ishlab chiqdi. Fransuz olimi Le Ple esa oilaviy budgetlarni o‘rganishning monografik usulini

shakllantirdi. Amaliy sotsiologiya usullarining vujudga kelishi hamda takomillashuvi sotsiologiyaning fan sifatida rivojlanishini ta'minlashda muhim omillardan bo'ldi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sotsiologiya fani vujudga kelishining nazariy asoslari o'tmish mutafakkirlarning jamiyat va tarkibiy tuzilmalari haqidagi qarashlari, jamiyat va davlatni boshqarish, sotsial guruh va etnik birliklarning jamiyat hayotidagi o'rni va boshqa shu kabi masalalar tashkil qiladigan bo'lsa, amaliy asoslari sanoatning rivojlanishi natijasida shaharlarning vujudga kelishi, urbanizatsiya masalalari, aholi soni va yoshi hamda jinsi jihatidan tuzilishini bilishga bo'lgan ehtiyojlar asos bo'lib, ularni faqat amaliy sotsiologik tadqiqotlar yordamida o'rganish mumkin edi, xolos. Ya'ni sotsiologiya fanining boshqa ijtimoiy-huquqiy fanlardan farqi ham uning amaliy sotsiologik tadqiqotlar bilan bevosita bog'liqligidadir. Chunki sotsiologiya fanining tarkibiy qismidan amaliy sotsiologik tadqiqotlarni ayirib tashlaydigan bo'lsak, u fan sifatida mavjud bo'lmaydi. Sotsiologiya fanining asoschilaridan biri O. Kont ham bekorga uni amaliy fan deb atamagan. Amaliy sotsiologik tadqiqotlarning o'tkazilishi jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik jamiyatning u yoki bu sohalarda o'tkazila boshladi. Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi XIX asrda yashab ijod etgan G'arb sotsiologlari O. Kont, E. Dyurkgeym, G. Spenser va M. Veber nomlari bilan bevosita bog'liq.

**Ogyust Kont** (1798–1857-y.) fransuz mutafakkiri sotsiologiya fani asoschisidir. O. Kont 1817–1822-yillarda taniqli fransuz sotsialist-utopisti Klod Anri de Sen-Simonning kotibi bo'lib ishlagan va uning g'oyalari ta'sirida bo'lgan. Fransuz sotsiologi E. Dyurkgeymning fikricha, Sen-Simon asarlarida Kont sotsiologiyasining barcha asosiy g'oyalari aks etgan. Keyinchalik bu g'oyalalar O. Kont tomonidan yaxlit konsepsiya tarzida shakllantirilib jamiyat to'g'risida yangi fan yaratilishiga asos bo'lgan. Uning olti tomlik «Pozitiv falsafa kursi» asari 1830–1842-yillar oralig'ida nashr etilib, unda fanlar tasnifi, pozitiv falsafa hamda sotsiologiya fani to'g'risidagi nazariyalarni ishlab chiqadi. «Ommabop astronomiya to'g'risida falsafiy traktat» (1844 y.), «Pozitiv falsafiy fikrlar haqida mulohaza» kabi asarlarda pozitiv sotsiologiya to'g'risidagi ilmiy qarashlarini ilgari suradi.

O. Kont sotsiologiyada pozitivizm yo'naliшining asoschilaridandir. U jamiyatni o'rganish uchun umummiliy uslublarni qo'llash kerakligini ta'kidlagan. Uning fikricha, bu uslublar yordamida jamiyatni boshqaradigan yashirin qonunlarni bilish mumkin. Sotsiologiya ijtimoiy hodisalarni kuzatuvchi qonunlarni o'rganishi, shuningdek ushbu hodisalarga bog'liq bo'lgan dalil va xulosalarining ishonchlilagini asoslab berishi lozim.

«Sotsiologiya» atamasi O. Kontning «Ijobiy falsafa kursi» asarida avvalroq o‘zi tomonidan ishlatilgan *ijtimoiy fizika* atamasi o‘rniga kiritilgan. U sotsiologiya fanining paydo bo‘lishiga tarixiy nuqtai nazardan qaraydi va insoniyatning intellektual tarixi uch bosqichdan o‘tadi, deb hisoblaydi: teologik, metafizik, va pozitiv. O. Kont fikricha, matematika, fizika, va biologiya kabi fanlar teologik va metafizik tafakkurdan xolos bo‘lib, hozir taraqqiyotning pozitiv bosqichida, biroq odamni o‘rganadigan fanlar, xususan sotsiologiya teologik va metafizik yondashuvlar ta’sirida ekanligini qayd etib, ularni pozitiv (ilmiy) bosqichga o‘tkazishga harakat qiladi. Uning pozitivizmi teologik va metafizik talqinlarga qarshi qaratilgan bo‘lib, pozitiv(ijobiy) hamda ilmiy fan sifatida e’tirof etadi. U hodisalarni qanday bo‘lsa shundayligicha o‘rganadi, empirik tadqiqot jarayonida aniqlanishi mumkin bo‘lgan va tartibga solingan aloqalarni ham tadqiq etadi. Mumtoz mexanika pozitiv fanning namunasi ekanligini qayd etib, sotsiologiya imkoniyat darajasida shu model izidan borishi kerak. Fizika qanchalik tabiiy fan bo‘lsa, sotsiologiya ham xuddi shunday ma’nodagi ijtimoiy fan bo‘lishi kerak, deb ta’kidlaydi.

Tabiatshunoslik fanlari asoslanadigan texnologiyani ijobiy baholagan holda jamiyat haqidagi tabiiy fan sifatida sotsiologiya yangi samarali ijtimoiy texnologiyalar uchun asos yaratishini e’tirof etadi. Uning ta’kidlashicha, sotsiologiya jamiyatni boshqarishning shunday quroliga aylanishi kerakki, uni qo’llaganda hammayoq batartib va uyg‘unlashgan holda harakat qilsin<sup>1</sup>.

O. Kont jamiyatning evolyutsion rivojlanish konsepsiyasini tarafdori bo‘lgan. Bunda u ijtimoiy taraqqiyotga erishish inson aql-idrokining rivojlanishi bilan kechishini ta’kidlagan edi. Inson dunyoni bilishda taraqqiyot yo‘lidan boradi, deb hisoblaydi. O. Kont insoniyat tarixi talqinida, ma’naviy (intellektual) evolutsianing uch bosqichi g‘oyasini rivojlantirgan. U ta’riflagan uch bosqich qonuniga ko‘ra:

1) *teologik, tabiat va jamiyat hodisalari g‘ayritabiiy ilohiy kuchlar harakati bilan izohlanadi;*

2) *metafizik, olamdagi hodisalar turli-tuman mavhum (abstrakt) mushohadalar va hukmlarga asoslangan holda izohlanadi, ular hayot voqeligidan uzib olingan metafizik mohiyatlar va sabablar vositasida tushuntiriladi;*

3) *pozitiv yoki ilmiy, olamni bilishda aniq fanlar metodologiyasidan foydalangan holda empirik kuzatiladigan qonuniyatlarini o‘rganishga asoslangan tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi ilmiy bilimga tayanishi nazarda tutilgan.*

---

<sup>1</sup> Гүннар Скибекк Нилс Гилье. Фалсафа тарихи. – Т., 2002. – Б. 593.

Pozitiv yoki ilmiy holatni O. Kont inson aql-idroki taraqqiyotining pirovard yutug‘i, deb baholaydi. Kontning fikricha, sotsiologiya insoniyat hayotining tashkil etilishi va amal qilishini oqilona (ratsional) yo‘lga solishga da’vat etadigan jamiyat to‘g‘risidagi pozitiv fandir.

Buyuk tadqiqotchi O. Kont sotsiologiyani pozitiv fan sifatida inson va jamiyat to‘g‘risidagi teologik va metafizik qarashlarga qarama-qarshi qo‘yadi. Uning fikricha, sotsiologiya ijtimoiy hayot ta’siri ostida inson ruhiyatining qanday qilib kamolga yetishini o‘rganuvchi fandir. Bu fikr uni individ-abstraksiya, jamiyat esa tabiiy qonunlarga bo‘ysunadigan borliq, degan qarashga olib keldi. Sotsial hodisalar biologik hodisalardan farqli ravishda o‘zining qonuniyatlarini asosida doimo rivojlanib boradi. Kont ularning mohiyatini tarixiylikda, deb bildi. Sotsial omillarni inkor etmagan holda Kont sivilizatsiyani, eng avvalo «ruhiy psixik birlik» deb hisoblaydi. Uning fikricha, butun jahon va insoniyatni g‘oyalar boshqaradi va o‘zgartiradi.

O.Kont fanlar tasnifini ularning obyektiv belgilariga asoslangan holda ifoda qiladi. Birinchi navbatda, u fanlarni mavhum va aniq fanlarga bo‘ladi. Mavhum fanlar ma’lum kategoriyadagi qonunlarni o‘rganadi. Aniq fanlar esa shu qonunlarni xususiy sohalarga tatbiq qiladi. Masalan, biologiya hayot to‘g‘risidagi umumiylar mavhum fan, tibbiyot esa biologiyaning umumiylarini tatbiq qiluvchi aniq fan! U beshta mavhum nazariy fanlarni ajratdi. Bular – astronomiya, fizika, ximiya, biologiya va sotsiologiyadir. Kont ularni ijtimoiy hodisalar kategoriyasi bilan to‘ldirdi. Ijtimoiy hodisalar o‘zining o‘ta murakkabligi va shu bilan birga, boshqa hodisalarga bog‘liqligi bilan farq qiladi.

Olim dastlab ijtimoiy fizikani, keyinroq esa sotsiologiyani jamiyat haqidagi pozitiv fan deb atadi. Sotsiologiya tasnif bilan cheklangan ijtimoiy fizikadan farqli ravishda ijtimoiy-nazariy fan bo‘lishi kerak. Uning fanga munosabati o‘sha davrda hukmron bo‘lgan fikrlashning metafizik metodiga to‘g‘ri kelar edi. Tabiatshunoslar tabiatning rivojlanishi g‘oyasiga yetarli darajada isbotlar keltirishgan edi. Fikrlashning metafizik usuli shunday vaziyatni vujudga keltirdiki, Kont tomonidan fanlar bir-biridan keyin yuzaga kelishi bilan emas, balki tuzilishi jihatidan tasniflanadi. U fanlar o‘rtasidagi tuzilishi jihatidan mavjud farqni ko‘rsatib, tasniflashda subordinatsiya prinsipiga emas, balki koordinatsiya prinsipiga amal qildi.

Kont sotsiologiyani sotsial statika va sotsial dinamika kabi ikki katta guruhgaga ajratdi. *Sotsial statika* – sotsial tizimning mavjudligi sharoiti va funksional qonunlarini o‘rganadi. Buni jamiyatning alohida qismlaridan tarkib topgan sotsial tashkilotlar, harakatlar, oila, din va institutlar kabilar

tashkil qiladi. *Sotsial dinamika* – sotsial tizimlarning o‘zgarishi va rivojlanishi qonunlarini o‘rganadi. Bunda olim fikricha, sotsial tizimlarni harakatga keltiruvchi kuch – jamiyatning ma’naviyati va insonlarning aql-idrokidir.

O. Kontning xizmati shundaki, u sotsiologiya fani dasturlari va usullarini ilmiy izlanishlar vositasi sifatida aniqlay oldi. U sotsiologiyaning predmeti – bu ijtimoiy hodisalarning mohiyatidir, deb e’tirof etdi. Jamiyat to‘g‘risidagi fanlar tabiiy fanlar metodologiyasiga tayanishi kerak. Tadqiqotchilar kuzatuv, qiyoslash, tarixiy, genetik usullarni qo‘llay bilishlari lozim. Ushbu metodlar ichida tarixiy va qiyosiy usullar keng tarqalgan. Kuzatuv va eksperiment usullari esa XX asrga kelib qo‘llanila boshlandi. Uning jamiyat taraqqiyotini muvofiqlashtirish va uni barqarorlashtirish muammolariga bag‘ishlangan fikrlari katta ahamiyatga egadir. Uning fikricha, jamiyatdagi o‘zaro muvofiqlik siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy, biologik qonuniyatlarga bog‘liq bo‘lib, bunga turli sotsial tizimlar birligi va ular o‘rtasidagi mutanosiblik hisobiga erishiladi. Fan esa jamiyatning hamma sohalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning zaruriy me’yorlari va mezonlarini belgilab beradi.

Shu o‘rinda qayd qilish lozimki, O. Kontning ta’kidlashicha, jamiyatdagi sotsial muvofiqlik – shaxslar va sotsial qatlamlar manfaatlarining birbiriga mosligidir. Uning jamiyatni yaxlit organizm sifatida tushunish, mehnatning sotsial adolat asosida taqsimlanishi hamda sotsial barqarorlik shartlari va omillari, turli guruh va qatlamlar manfaatlarining mosligi, davlat, jamiyat va shaxslarning o‘rni masalalariga oid fikrlari bugungi kunda nihoyatda muhimdir.

*Emil Dyurkgeym* (1858–1917-y.) Fransyaning Germaniya bilan chegaradosh bo‘lgan viloyatidagi Epinal shahrida tug‘ilgan. Uning otasi ruhoniy bo‘lishiga qaramasdan, Dryukgeym dinga nisbatan agnostik nuqtai nazarda bo‘lgan. U Parijda falsafa va siyosiy nazariyadan ta’lim olgan, Bordo universitetida pedagogika va sotsiologiyadan dars bergan. So‘ngra Parijda avval pedagogika, keyinchalik sotsiologiya professori edi. Ijodining dastlabki bosqichlaridayoq jamiyat haqidagi yangi fan – sotsiologiyani yaratishni maqsad qilib oladi. U sotsiologiyaga oid qarashlarini «Jamiyat mehnat taqsimoti to‘g‘risida», «Sotsiologiya uslubi», «Diniy hayotning oddiy shakllari» «O‘z joniga qasd qilish» va boshqa asarlarida bayon etadi. E. Dyurkgeym «Sotsiologik yilnomá» jurnalining asoschisi va noshiri bo‘lgan. Fransuz sotsiologik maktabi shu jurnal negizida shakllangan.

E. Dyurkgeym ilmiy qarashlarining shakllanishida R. Dekart, SH. Monteske, J. J. Russo singari mutafakkirlarning asarlari katta ta’sir ko‘rsatgan. Lekin E. Dyurkgeymga kontcha pozitivizm yaqin bo‘lgan.

Uning jamiyatni tadqiq qilishga yondashuvida O. Kontdagi kabi jamiyat bilan uning tuzilmalari o‘rtasidagi funksiyalarini tizim sifatida yuksak darajada tashkil etilganligiga asoslangan. Biroq u bir qator jiddiy masalalarda O. Kont bilan kelisholmagan. Bunda E. Dyurkgeymning empirik tahlilni nazariy tahlil bilan qo‘sghan holda, ya’ni sotsial hodisalarning sabablarini tushunishga intilishida asosiy farq ko‘zga tashlanadi<sup>1</sup>.

E. Dyurkgeym jamiyatni tabiatning bir qismi, deb qaragan. «Jamiyat, – deb yozadi u, – bu o’sha tabiatning o‘zi, lekin u rivojlanishda eng yuksak cho‘qqiga ko‘tarilgan. Shu bois, jamiyatni, tabiatni o‘rganadigan metodologiya yordamida tadqiq etish zarur»<sup>2</sup>. Uning fikricha, sotsiologiya – empirik tadqiqotlarga asoslangan, sotsial faktlar to‘g‘risidagi fan. Sotsial faktlarga xos bo‘lgan xususiyat, uning obyektivligi, individga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjudligidir. Bu sotsial faktlar individlarning jamiyatdagi o‘rnini boshqaradi va individ xatti-harakatlarini belgilab beradi.

E. Dyurkgeym sotsial faktlarni ikki guruhgaga ajratadi:

- 1) moddiy sotsial faktlar;
- 2) ma’naviy sotsial faktlar.

Moddiy sotsial faktlarga aholining hududlarda joylashuvi, individlarning o‘zaro, jismoniy va axloqiy munosabatlari kiradi. Ma’naviy sotsial faktlarga esa ijtimoiy va jamoa ongi yig‘indisini tashkil qiluvchi diniy, axloqiy va huquqiy ong kiradi.

E. Dyurkgeym sotsiologiyaga oid qarashlarida sotsial birdamlik g‘oyasini ilgari suradi. Uning fikricha jamiyat taraqqiyoti odamlar birdamligiga asoslanadi. Insonlar o‘rtasidagi birdamlik susaysa, jamiyat kasallanadi. Hayotiy muhim ahamiyatga ega birdamlikni tiklash uchun to‘g‘ri davolash yo‘lini topish kerak. Sotsiologiya birdamlik, uning asoslari, kuchsizlanishi va uni tiklash usullari haqidagi fandir<sup>3</sup>. Jamiyatda kishilarning bir-birlari bilan birlashishiga sabab, bu sotsial birdamlikdir. U sotsial birdamlikni asosiy qadriyat sifatida e’tirof etadi va unga asoslanadigan barcha xatti-harakatlarni axloqdan deb biladi. Kishilar o‘rtasidagi birdamlik aloqalari qanchalik kuchli bo‘lsa, axloq shunchalik mustahkam bo‘ladi.

E. Dyurkgeym kishilarning jamiyatdagi birdamligini mexanik va organikka ajratadi. Mexanik birdamlik ko‘proq arxaik (eski, qadimgi) turdagи jamiyatlarda mavjud bo‘ladi va unga individual ongning jamoada «qorishib» ketishi xosdir. Bu kishilarni bir qolipga soluvchi, bir xildagi

<sup>1</sup> Дюркгейм Э. Социология. Её предмет, метод, предназначение. – М., 1995. – С. 8

<sup>2</sup> Ўша асар. – Б. 21.

<sup>3</sup> Гуннар Скибекк Нилс Гилье. Фалсафа тарихи. – Т., 2002. – Б. 603.

odamlarga aylantiruvchi birdamlikdir. Bunday jamiyatni normativ tartibga solishda Dyurkgeym sanksiyalarga asoslangan qoidalarga tayanadi. Uning fikricha, huquqiy tizimda jinoyat huquqi ustunlik qiladi. Nisbatan rivojlangan sotsial tizimda organik birdamlik, ya’ni individlarning mustaqilligi, ularning funksiyalari bo‘linishi, o‘zaro aloqa va munosabatlarga asoslangan birdamlik shakllanadi. Organik birdamlik amal qiladigan jamiyatning huquqiy tizimida restitutiv (ya’ni buzilgan normalarni tiklovchi) sanksiya-ga asoslangan qoidalalar ustunlik qiladi va jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi, ma’muriy huquq, konstitusiyaviy va boshqa huquq turlari insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi. Birdamlikning bu turi rivojlangan jamiyatga xosdir.

U «Sotsiologiya metodlari» asarida sotsiologiyaning predmeti sotsial faktlar asosida kishilarga bog‘liq bo‘lmagan holda, ular ustidan tadqiqotlar o‘tkazishdan iboratdir, deb qayd etadi. Sotsial jarayonlarni tadqiq etishda mavjud sotsial faktlarni asos sifatida ko‘rib chiqish kerak, degan qoidaga asoslanadi. «Sotsiologiya – deb yozadi E. Dyurkgeym, – qanchalik ixtisoslashgan bo‘lsa, falsafiy mushohada uchun shunchalik boy, o‘ziga xos ma’lumotlar yetkazib beradi»<sup>1</sup>. U sotsiologik qarashlarida jamiyatni murakkab va sodda tiplarga ajratadi. Shunga qarab jamiyatning ijtimoiy hayotini tahlil qilishga kirishish kerak, deydi. Ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilishda evolyutsionizm va strukturali funksional yondashuvning tarafdori bo‘ladi. U yoki bu hodisalarning bir-biriga mos kelishi sotsial tizimning aniq ehtiyojlaridan kelib chiqadi, deb ta’kidlaydi.

E. Dyurkgeym «O‘z joniga qasd qilish» (1897-y.) nomli asarida kishilarning o‘z jonlariga qasd qilishining ruhiy tomonlarini inkor etib, bu holatni jamiyat integratsiyasi hamda axloqiy normalari bilan tushuntirishga harakat qiladi. Kishilarning o‘z jonlariga qasd qilish hollarining tez-tez takrorlanishining sababi birdamlik tuyg‘usining sustligidan kelib chiqadi deb, ta’kidlab o‘tadi.

Birdamlikning susayishini u anomiya (grekcha «anomia» – qonun, me’yorning yo‘qligi), ya’ni «me’yorsizlik» deb ataydi. Boshqacha e’tirof etadigan bo‘lsak, anomiya holati – odamlarni birlashtiruvchi aloqalarning susayishidir. Anomiya holatida individlar qiyinchilik va mashaqqatlarga chidamsiz bo‘lib qoladi, bu esa o‘z joniga qasd qilish holatlarining ko‘payishiga olib keladi. U jamiyat axloqiy normalari tahlili hamda sotsial faktlarni tadqiq qilishning maxsus metodlarini joriy qiladi.

*Gerbert Spenser* (1820–1903-y.) ingliz faylasufi, sotsiologi, pozitivism asoschilaridan biri. Spenser o‘zining «Asosiy manbalar», «Biologiyaning

---

<sup>1</sup> Дюркгейм Э. Метод социологии. – М., 1981. – С. 524.

yaratilishi», «Psixologiyaning yaratilishi», «Sotsiologiyaning yaratilishi», «Sotsiologiya tadqiqot predmeti sifatida», «Etikaning yaratilishi» kabi asarlarida sotsiologiyaga oid noyob fikrlarini ilgari suradi. Spenser falsafiy qarashlarida O. Kont pozitivizmini yanada rivojlantirdi. U O. Kont izidan borib, sotsiologiya faniga o‘zgarib turuvchanlik va evolyutsionizmda bir maromdalik g‘oyasini kiritadi. Uning fikriga ko‘ra, har qanday sotsial obyektning evolutsiyasi aloqasizlikdan aloqadorlikka, bir toifalikdan har xil toifalikkacha, noaniqlikdan aniqlikkacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Muvozanatning buzilishi natijasida yangi evolyutsion jarayonga o‘tuvchi inqiroz boshlanadi. Hamma voqeа va hodisalar mana shu inqiroz va taraqqiyot doirasi orqali yuz beradi. Ana shulardan kelib chiqqan holda G. Spenser sinfiy kurash va jamiyatdagi inqiloblarni muvozanatdan og‘ish yoki ijtimoiy organizmning kasalligi, deb e’lon qiladi. Demak, uning fikricha, sotsiologiyaning asosiy vazifasi alohida shaxslarning xohish va intilishlari, ularning individual jihatlari hamda subyektiv fikr-mulohazarlarini emas, balki jamiyatdagi evolyutsion jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini oolib beruvchi, ijtimoiy borliqning sotsial omillarini o‘rganishdan iboratdir. Spenser sotsiologiyadagi «organik oqim» asoschilaridan hisoblanadi. Uning nazariyasining mohiyati shundan iboratki, jamiyatning sinfiy tuzilishi va turli ma’muriy idoralarga ajralishini jonli tana a’zolari o‘rtasidagi vazifalarning taqsimlanishi bilan aynan bir xil, deb qaraydi. U ibridoiy madaniyatni o‘rganishga ma’lum hissa qo’shgan, etnografiyada evolyutsion mакtabning vakillaridan biri bo‘lgan, diniy e’tiqodlarning kelib chiqishi va rivojlanishi nazariyasini ishlab chiqqan. Spenser falsafiy muammolar tahlilida empiriokrititsizm va nepozitivizmga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan edi.

Spenser evolutsiyada uch jihatni ajratib: *birinchisi*, oddiydan murakkabga o‘tish (integratsiya yoki konsentratsiya); *ikkinchisi*, bir xillikdan ko‘p xillikka o‘tish (differensiatsiya); *uchinchisi*, noaniqlikdan aniqlikka o‘tishni (tartibning ko‘payishi) ko‘rsatadi. Ya’ni evolutsiya materiyaning integratsiyasi bo‘lib, u harakatning tarqalishi bilan birgalikda ro‘y beradi. Evolutsiya materiyani noaniq, bog‘lanmagan bir xil shakldan muayyan aniq, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ko‘p xillikka olib keladi.

Olimning fikricha, jamiyat o‘z a’zolarining faoliyati uchun mavjud. U har qanday jamiyat uch tizimdan iborat deb hisoblaydi: 1) saqlab turish tizimi; 2) taqsimot tizimi; 3) boshqaruv tizimi. *Birinchisi*, organizm oziqlanishini ta’minlovchi qism bo‘lib, jamiyatda zarur mahsulotlar ishlab chiqarishni amalga oshiradi; *ikkinchisi*, mehnat taqsimoti asosida ijtimoiy organizmning turli qismlari o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydi; *uchinchisi*,

davlat timsolidan bir butunning tarkibiy qismiga bo‘ysunishni amalga oshiradi. Shuningdek, Spenser jamiyatning tarkibiy qismlari bo‘lmish «organlar», ya’ni muassasalarini ham ajratib ko‘rsatadi. Bular: oila munosabatlarini hal qiluvchi tashkilotlar; urf-odatlarga oid munosabatlarni yurituvchi tashkilotlar; siyosiy organlar; diniy tashkilotlar; kasb va hunar bilan ta’minlovchi organlar; sanoat tashkilotlaridir. Bularning barchasi evolutsiya mahsulidir, deydi u.

*Maks Veber* (1864–1920-y.) XIX asr oxiri XX asrning boshlaridagi yirik sotsiologlardan bo‘lib, sotsiologiyaning tuzilishi, muammolari, asosiy tushuncha va tamoyillariga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatgan nemis klassik sotsiologiyasi asoschilaridan hisoblanadi. U sotsiologiyaga oid qarashlarini «Protestantcha etika va kapitalizm ruhi», «Sotsiologiya kategoriyalarini tushunish to‘g‘risida» hamda «Xo‘jalik va jamiyat» degan asarlarida ilgari suradi. M. Veber K. Marksning jiddiy tanqidchilaridan biri hisoblanadi. Aslida Veberning butun hayoti davomidagi ishlarini «Marks sharpasi» va intellektual merosi bilan kurash ruhida qabul qilish mumkin. Uning fikricha, zamonaviy ijtimoiy rivojlanishda noiqtisodiy omillar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Veberning mashhur va o‘ta munozarali «Protestantcha etika va kapitalizm ruhi» asarida ta’kidlashicha, kapitalistik dunyoqarashning vujudga kelishida diniy qadriyatlar fundamental ahamiyatga ega bo‘ladi. Marksning fikrlariga qarama-qarshi holda, bu dunyoqarash iqtisodiy o‘zgarishlardan emas, balki aksincha holda vujudga keladi.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng, jamiyatning ma’naviy sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ma’naviyat jamiyatning kelgusi taraqqiyoti istiqbolini belgilab beruvchi asosiy omil ekanligi Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan bir necha bor ta’kidlangan edi. Chunonchi: «*Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularning rivojlanishiga katta e’tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasiga, o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanadi*»<sup>1</sup> degan fikri o‘z mohiyatini yo‘qotmaydi.

M. Veberning fikricha, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy hodisaning mohiyati faqat uning obyektiv tomonlari bilangina emas, balki avvalo muayyan jarayonga mutanosib ravishda madaniy qimmat bilan belgilanadi. U o‘zining «ijtimoiy fanlar faqat hodisalardagi ayrim sotsial faktlarni o‘rganadi», degan fikriga asoslanib, «ideal tur» g‘oyasini ilgari suradi. «Ideal tur», Veberning fikricha, voqelikni aks ettirmaydi, bu ayrim faktlarni tizimlashtirish va tushunish uchun ishlatiladigan vosita, tarixni

<sup>1</sup> Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т. 8. –Т., 2000. – Б. 499.

voqelik bilan taqqoslab ko‘radigan tushunchadir. Veberning g‘oyalari mazmun jihatidan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi markscha ta’limotga qarshi qaratilgan edi. U «ideal tur»ni quyidagicha belgilaydi. Sotsiologiya shaxsning ta’lim olish faoliyati munosabatlarini madaniy tahlil qilishga urinish, tarixdagi qarama-qarshiliklarni, voqealarning umumiy qoidalarini topish, turlarini ishlab chiqish vazifalarini o‘z ichiga oladi. Agar tarixning vazifasi makon va zamondagi cheksiz hodisalarini tahlil qilish bo‘lsa, sotsiologiyaning vazifasi voqealarning makon va zamonga xos bo‘lgan umumiy qoidalarini aniqlashdir. Bu ma’noda sotsiologik jihatdan «ideal tur»lar nisbatan umumiy bo‘lib, ularni «sof ideal tur» deb atash mumkin.

Olimning xulosasiga ko‘ra, sotsiologiya individ xatti-harakatini muayyan ma’no bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Faqat ma’noli xatti-harakat sotsiologiyani qiziqtiradi. U o‘zining sotsiologiyasiga harakatning «sof» to‘rtta turini (ideal turlarini) asos qilib oladi:

- 1) *maqsadga yo‘naltirilgan harakat, bunga harakat mazkur maqsadga nisbatan oqilona yo‘naltirilgan bo‘lishi, o‘ziga monand vositalar bilan tushunib olingan va uning ehtimol bo‘lishi mumkin bo‘lgan oqibatlari bilan mutanosiblashtirilgan oqilona maqsadning ochiq-oydinligi xosdir;*
- 2) *bebaho qadriyatga asoslangan maqsadli-oqilona harakat, harakat muayyan mutlaq qadriyatga nisbatan oqilona yo‘naltirilgan bo‘lishi, harakatning shubhasiz bebaholigiga, ishonchga asoslanganligi, bunda inson ushbu xatti-harakatni o‘z burchi deb biladi;*
- 3) *affektiv yoki emotsiyal harakat, harakat muayyan ehtiroslar yoki shaxsning emotsiyal holatidan kelib chiqishi mumkin;*
- 4) *oddiy an’anaviy yoki kundalik harakat, harakat chuqur ildiz otgan an’ana va odatlarga ko‘ra belgilanishi mumkin.*

Dastlabki ikki turdag'i harakat ratsional (oqilona) harakatdir. Ratsionallik keyingi ikki harakat turida uchramaydi va bularda muayyan jihatlarning mavjudligi ko‘zda tutilgan. Chunonchi, dastlabki ikki tur shu ma’noda oqilonaki, ular ongli va aniq belgilangan maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, shu maqsadga yetaklovchi vositalardan foydalaniladi. M. Veber sotsial xatti-harakatlardan oqilona sotsial xatti-harakatlar tarixiy taraqqiyotning asosiy tamoyili deb hisoblaydi.

Insoniyat tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan biron-bir nazariy yo‘nalish o‘zini to‘la saqlab qololmagan. Chunki jamiyat har doim oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga tomon rivojlanib boradi. Eski qonuniyatlar o‘rniga yangi qonuniyatlar vujudga keladi. Shuning uchun ham biz o‘tmishdan obyektiv va to‘g‘ri xulosalar chiqarib, bugunimiz va kelajagimizni belgilab olishimiz zarur. Bunda sotsiologiyaning umumiy qonuniyatları qo‘l keladi.

## 2-§. G‘arb sotsiologiyasining asosiy yo‘nalishlari

**Neopozitivizm sotsiologiyasi.** Bu sotsiologiya pozitivizm falsafasining yangilangan ko‘rinishidir. Uning asosiy g‘oyalari O. Kont va D. Millning pozitivistik qarashlaridan kelib chiqadi. Neopozitivizmning asosiy namoyandalari: Moris Shlik, Rudolf Karnap, Lyudvig Vitgenshteyn va Xans Reyxenbax. Ushbu sotsiologiya tarafdorlarining fikricha, sotsiologiya har qanday mafkuraviy dunyoqarashdan xoli bo‘lishi kerak. Sotsiologiyaning asosiy vazifasi individ faoliyatini tabiatshunoslik fanlari qabul qilgan aniq usullarga asoslangan holda o‘rganishdir. Ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini bilish uchun tabiat qonunlarini o‘rganish shartdir. Sotsial hodisalar tabiat va jamiyatga xos umumiyligini qonunlarga bo‘ysunadi va unga asoslanadi. Neopozitivizm tarafdorlari jamiyat rivojlanishini har xil tabiiy omillar, iqlim sharoitlari, geografik muhit, biologik va boshqa xususiyatlar bilan bog‘liq deb ta’kidlaydilar. Neopozitivizm tarafdorlarining fikricha, individ faoliyatining natijalarini ularning kundalik turmushdagi aniq harakatlarining sababini tahlil qilish orqali bilib olish mumkin. Bu sotsiologiya amaliy sotsiologiyaning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida AQSHlik sotsiolog Lester Frank Uord (1841–1913-y.) sotsial sohalarda amaliy tadqiqotlar o‘tkazdi. U kapitalistik jamiyat doirasida sotsial islohotlar negizini ta’minlaydigan amaliy tadqiqotlar prinsipini shakllantirdi. Uning fikricha, ijtimoiy fanlar jamiyatning sotsial rivojlanish qonunlarini ochib beradi va ijtimoiy islohotlarni nazariy jihatdan asoslaydi. Uning g‘oyalarni keyinchalik amerikalik sotsiolog Franklin Genri Gidding (1855–1931-y.) rivojlantirdi. U sotsiologik tadqiqotda statik uslubni ishlab chiqib, amaliy sotsiologiyaning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning fikriga ko‘ra, sotsiologiya statistik usul yordamida individning ijtimoiy muhitga ta’siri natijalarini tahlil qilish asosida jamiyatda «ko‘p fikrlilik faoliyati»ni o‘rganishi kerak. Amaliy sotsiologiyaning rivojlanishida amerikalik sotsiolog Uilyam Tomas (1863–1947-y.) hamda polshalik sotsiolog Florian Znanetskiy (1882–1958-y.)ning hamkorlikda yozgan «Polshalik dehqon Yevropada va Amerikada» asari katta ahamiyat kasb etadi. Mualliflar birinchi marta inson omilini o‘rganishda amaliy ma’lumotlarning asosini tashkil qiluvchi shaxsiy hujjatlar (xat, kundalik, tarjimai hol, esdalik va boshqalar)ning ahamiyatini ko‘rsatib beradilar. Asarda boshqa ijtimoiy muammolar ham tahlil qilinadi. Jumladan, Polsha qishloqlarida ijtimoiy turmushning shaklan tanazzulga uchrashi sababi, Yevropadan Amerikaga ommaviy migratsiya (ko‘chish) vaqtida oilalarning buzilishidan deb ko‘rsatiladi.

**Chikago maktabi.** Chikago maktabining asoschisi amerikalik sotsiolog Uilyam Tomas hisoblanadi. Uning fikricha, sotsiologiya individ bilan ijtimoiy guruh hamda individ bilan madaniy qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek individlarning murakkab sotsial vaziyatda o‘zini tutabilishi hamda individlarning bir sotsial guruhdan boshqa guruhga moslashish jarayonidagi qonuniyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanishi kerak. Uilyam Tomas inson xatti-harakatini o‘rganishda tabiiy fanlar uslublariga asoslanish kerak, deb hisoblaydi. Uning nazariyasiga ko‘ra shaxs ijodiy sotsial hayot va madaniyatning rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ijtimoiy taraqqiyot shaxslarning yangiliklarni yaratish va ularni amaliy jihatdan qo‘llay olish qobiliyatları hamda his-hayajonlariga bog‘liq holda amalga oshadi.

Chikago maktabining yana bir namoyandasi Robert Park (1864–1944-y.) o‘zining «Sotsiologiya faniga kirish» kitobida sotsiologiyani inson faoliyati to‘g‘risidagi tabiiy fan deb qaraydi. Uning fikricha, ijtimoiy taraqqiyot raqobat, nizo, moslashish va assimilyasiyalarni o‘z ichiga oladi. Raqobat ongsiz ravishda amalga oshiriladigan, kishilarning yashash uchun kurash shakli bo‘lib, u nizoga aylanadi va o‘z navbatida moslashishga o‘tadi. Natijada sotsial guruhlarning bir-birlariga moslashishlari va ular o‘rtasidagi chuqr nizolarning assimilatsiyasi bilan yakunlanadi.

**Strukturali funksionalizm.** Ijtimoiy voqelikni tadqiq qilishga strukturali funksional yondashish, ya’ni tizimli tahlil qilishning asosiy tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Strukturali funksionalizmning mohiyati shundaki, bunda jamiyatga bir-biriga chambarchas bog‘liq qismlardan tashkil topgan va o‘zining tuzilishiga ega bo‘lgan butun bir tizim sifatida qaraladi.

Ta’kidlash joizki, strukturali funksionalizmning rivojlanishiga amerikalik sotsiolog Talkot Parsons (1907–1979-y.), Robert Merton (1910-yilda tug‘ilgan) va ularning davomchilari katta hissa qo‘shishmoqda. T. Parsons hozirgi zamon fanlari erishgan yutuqlarga tayanib hamda M. Veber, E. Dryukgeym ta’limotlariga asoslanib, yangi nazariy mакtab yaratishga harakat qildi. T. Parsons sotsiologiya fanini bevosita mantiq, psixologiya, antropologiya fanlari bilan bog‘liqligi va ulardan farqli tomonlarini ko‘rsatib berdi. Uning fikricha, sotsiologiya jamiyatdagi sotsial hodisalarning tahlili bilan shug‘ullanishi kerak. U sotsiologiyaga oid fikr va qarashlarini «Sotsial faoliyat tizimi» (1937-y.), «Sotsial tizim» (1952-y.) asarlarida bayon qildi. U o‘z sotsiologik qarashlarida individning jamiyatda tutgan o‘rniga alohida e’tibor beradi. U jamiyat harakati va rivojlanishining asosini individ xatti-harakati tashkil qiladi, – deydi. Individ shaxs sifatida o‘zining turli-tuman xatti-harakatlari orqali ijtimoiy tizimni harakatga keltiradi.

T. Parsons sotsial tizimni bir butun holda o‘rgangan bo‘lsa, Mertonning sotsiologik qarashlari undan farq qiladi. Parsons ijtimoiy hayotning ayrim sohalarida qo‘llaniladigan «ahamiyati o‘rtacha bo‘lgan nazariya»ni yaratishga urindi. Bu nazariyaga asosan jamiyat hodisalarining o‘zgarishi bir butun holda emas, balki uning ayrim tomonlari bo‘lgan sinfiy o‘zgarishlar, guruhiy nizolar, hokimiyat masalasi, shaxsning jamiyatga ta’siri va shu kabi boshqa muammolarni hal qilishga qaratilgan.

**Pitirim Sorokinning analitik sotsiologiyasi.** Amerikalik sotsiolog P. Sorokin (1889–1968-y.) sotsial tizim va sotsial bir butunlik muammolarini tahlil qilish bilan shug‘ullangan. U «O‘zaro sotsial ta’sir» nazariyasini ishlab chiqqan. Bu nazariyaga asosan, madaniyat shaxslararo munosabatlardan tashkil topgan. U madaniyat deganda o‘zaro aloqada bo‘lgan shaxslarning qadriyat va normalarini tushungan. O‘zaro aloqada bo‘lgan sotsial tizimning markaziy elementini madaniyat yoki supertizim tashkil qiladi. Uning nazarida bir nechta supertizim (madaniyat) mavjud va ularga sezuvchi supertizim, ya’ni kishilarning hissiy a’zolari orqali olgan ishonchli bilimlari va g‘oyalashgan supertizim, demak hissiyotdan tashqari e’tiqodning haqiqat sifatida namoyon bo‘lishi kiradi. Bu ikkala supertizmning qo‘shilishi natijasida aql tizimi yoki idealistik tizim tashkil topadi. P. Sorokinning sotsial tizim rivojlanishining haqiqiy sababchisi tizimni tashkil qiluvchi madaniyat va qadriyatlardir. Madaniyat va qadriyatlarning o‘zi mazkur falsafa, din, axloq, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning umumiyligi tabiatini belgilab beradi.

**Sotsiologiyada psixanalitik yo‘nalish.** Sotsiologiyada psixanalitik yo‘nalishning asoschisi avstriyalik nevropatolog, ruhshunos olim Zigmund Freyd (1856–1939-y.) hisoblanadi. Psixanalitik yo‘nalish insonlarni anglanmagan holda biror ishga undovchi hissiyotning hukmronlik rolini tan oluvchi yo‘nalishdir. Bu oqim tarafdorlari shaxs va jamiyat o‘rtasidagi nizolarning asosiy sababi sivilizatsiya, sotsial va axloqiy normalar, har xil taqiqlar, insonlarning ehtiyojlari, e’tiqodlarini nazorat qilish deb hisoblaydi.

Zigmund Freydning ta’kidlashicha, inson ruhiyatining ong bilan boshqarilmaydigan qismida instinktiv da’vatlar (xohish-istaklar) hamda xotiradan chiqarilgan fikr-g‘oyalar mujassamlangan bo‘lib, bu qism bilan idora etiluvchi ong o‘rtasida ong oldi maydoni (bu maydoncha idrok, tafakkur, xotira, anglangan o‘zlik) joylashgandir. Ong oldi maydonchasi ong bilan boshqarilmaydigan sohadagi turli xil da’vatlar, xohish-istaklarni ongning idrok etiluvchi qismiga o‘tkazishga monelik qilib turadi va o‘ziga xos vosita vazifasini o‘tab boradi. Uning nuqtai nazariga ko‘ra, anglanmagan istaklar hamda aggressiv da’vatlar bilan shaxsning madaniy darajasi o‘rtasi-

da doimiy qarama-qarshilik yuz berib turadi. Madaniyat, uning fikricha, anglanmagan ong istaklaridan voz kechish asosida yuzaga keladi. Freyd ijtimoiy jarayonlar va jamoalar mohiyatini ochishda libido (xohish, istak, rohatbaxsh narsalarga moyillik) to‘g‘risidagi ta’limotni yoqlab chiqdi. U faqat avtoritar yo‘lboshchilarni ma’qul deb biladi. Chunki xalq ommasi hech qanday mustaqillikka ega emas, shuningdek hech qanday majburiyat-larni o‘z zimmalariga olishni istamaydi va bosh egib yo‘lboshchiga bo‘ysunadi. Freydning fikricha inson tabiatini o‘zgarmas bo‘lib, ularning imkoniyatlari sotsial o‘zgarish bilan cheklanadi. Inson tabiatini faqat ijtimoiylashuvga mos keladigan psixoanalitik terapiya yordamida o‘zgartirish mumkin. Bu yo‘l, hatto ommani yuqori tabaqa darajasiga ko‘tarishi mumkin.

**Etnometodologiya.** Etnometodologiya nazariyasining asoschisi amerikalik sotsiolog G. Gorfinkel (1917-yilda tug‘ilgan) hisoblanadi. U «etnometodologiya» terminini fanga kiritgan. Etnometodologiya «jamiyat» tushunchasini obyektiv hodisa sifatida inkor etadi. Ijtimoiy bilishning obyekti kishilarning tasavvur va boshidan kechirganlari hisoblanadi. Etnometodologiya real sotsiallik bilan sotsiallikka oid tasavvurlarni aynanlashtiradi.

**Frankfurt maktabi va uning «tanqidiy sotsiologiyasi».** Bu yo‘nalish sotsiologiyasiga XX asrning 30–40-yillarida Germaniyada Maks Xorkxaymer (1895–1973-y.) tomonidan Frankfurt-Mayne universiteti qoshidagi ilmiy tadqiqotlar institutida asos solindi. Xorkxaymer sotsial antropologik nuqtai nazardan «jamiyatning tanqidiy nazariyasi»ni rivojlantirdi. Uning fikricha, sotsial tizimni qo‘llab-quvvatlashda kishilarning xarakteri va fe‘l-atvori hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Avtoritetning shakllanishi oila, cherkov, sotsial institutlar xarakterlariga bevosita bog‘liqdir. Xarakter, fe‘l-atvor shakllanishi jarayonining o‘zi mavjud sotsial tartiblarga erkin bo‘ysunishni bildiradi. U «industrial jamiyat»ni tanqid ostiga olib, uning orqaga ketish sababi erkin tashabbusning yo‘qligi va hukmronlik yo‘li bilan boshqarilishidir, deb ta’kidlaydi.

Xorkxaymer g‘oyalarini nemis faylasufi va sotsiologi Teodor Adorno (1903–1969-y.) qo‘llab-quvvatlaydi. U insoniyat evolutsiyasiga tanqidiy yondashib, uni tarixning «muvaqqiyatsiz sivilizatsiyasi» deb hisoblaydi. T. Adorno ijtimoiy hayotda mantiqiy usul orqali umumiylidkan xususiylikka o‘tishga oid metodologiyaga tanqidiy yondashadi. Uning fikricha, bu usul ijtimoiy hayotda individlarning so‘nishi va ezilishiga olib keladi. T. Adorno asosiy «Negativ dialektika» asarida ijtimoiy dialektikaning mohiyati inkor etishdan iborat, deb ta’kidlaydi.

Frankfurt maktabining tanqli namoyandalaridan yana biri amerikalik faylasuf va sotsiolog Gerbert Markuze (1898–1979-y.) hisoblanadi. Uning tanqidiy sotsiologik qarashlari juda keng muammolarni o‘z ichiga oladi.

Chunonchi, tabiatda obyektiv dialektikani inkor etish hamda ijtimoiy ong va ijtimoiy borliqni aynanlashtirish, insonlarning sotsial mohiyatini inkor etish va boshqa shu kabi masalalarni qamrab oladi. Markuze mavjud tuzumlarni (kapitalistik va sobiq sotsialistik) tanqid qilib, bunda inson sotsial voqelikning natijasi sifatida yuzaga kelgan sotsial institutlar tomonidan asoratga solingan hamda huquqlari cheklanganligini ta'kidlaydi. Bunday holatlarning oldini olish uchun sotsial tizimda oppozitsiya (qarshi tomon) bo'lishni e'tirof etadi. Bunda u ko'pchilikning fikriga qarshi tura oladigan biror organ yoki tashkilotni nazarda tutadi.

**Dialektik sotsiologiya.** Hozirgi zamon sotsiologlari sotsiologik dialektikadan foydalanishga harakat qiladilar. Bunga Frankfurt maktabining namoyandasini fransuz sotsiologi Georgiy Gurvich (1894–1969-y.)ning falsafiy sotsiologik qarashlari yaqqol misol bo'la oladi. Uning «dialektik sotsiologiya»si jamiyat taraqqiyotida dialektika qonunlariga amal qilishini, biroq jamiyatning ichki tuzilishida har qanday barqarorlashtirishni to'lig'icha inkor etadi. Uning fikricha, dialektika insonlarning amaliy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Umuman, Frankfurt maktabining tarafдорлари (T. Adorno, M. Xorkxaymer, G. Markuze) dialektika faqat ijtimoiy taraqqiyotga xosdir, deb ta'kidlaydilar. Bunday talqin qilishning sababi shundaki, jamiyat ongga va tasavvurlarga ega bo'lган kishilar birligidan iborat bo'lib, albatta, dialektik faoliyat rivojlanadi. Tabiatda esa ong bo'lmaydi, shuning uchun dialektika ham yo'qdir.

**Individualizm sotsiologiyasi.** Sharqqa nisbatan Farbda individualizm sotsiologiyasi muayyan o'ringa ega bo'lib, asosiy g'oyasi har qanday sotsial hodisa va jarayonlar asosida individual harakatlar yig'indisi yotadi va uni harakatga keltiradi. Sotsiologiya fanining muhim vazifalaridan biri individual harakat va individual harakatlar yig'indisi nimani tashkil qilishini tushuntirishdan iboratdir. «Individual harakatlar yig'indisi» nima? degan savolni ochib berish uchun bir nechta sotsial nazariyalar ishtirot etadi. Ulardan biri amerikalik sotsiolog J. Xomans tomonidan yaratilgan «*sotsial almashish nazariyasi*»dir. Ushbu nazariyaning asosiy maqsadi kishilarning xatti-harakatini rag'batlantirish orqali ularga ta'sir etishdir. Uning nazariyasi quyidagi qoidalarda ifodalanadi: *birinchidan*, harakatlar qanchalik rag'batlantirilsa, ular shunchalik tez takrorlanadi; *ikkinchidan*, avvalgi rag'batlanish ma'lum vaziyatda amalga oshgan bo'lsa, kishilar yana shunday vaziyat yaratishga intiladilar; *uchinchidan*, agar rag'batlantirish yuqori bo'lsa, kishilar unga erishish uchun rag'batlantiriladigan narsadan ko'proq narsa sarf qilishga ham tayyor bo'ladilar; *to'rtinchidan*, kishilar ehtiyoji to'la qondirilgan bo'lsa, ular boshqalarning ehtiyojlarini ham qondirish uchun harakat qiladilar.

J. Xomansning sotsial almashinish nazariyasini J. Adams, J. Uolster va boshqalar to‘g‘ri hamda odilona almashtirish nazariyasi bilan to‘ldirishdi. Bu nazariya quyidagi tizim shaklida ifoda etilgan:

- *odamlar faqat o‘zlarini o‘ylash tabiatidan kelib chiqadilar va shaxsiy manfaatlarni yuqori qo‘yishga intiladilar;*
- *guruhlar individ manfaatlari va munosabatlari hisobiga jamoa manfaatlarni kengaytiradilar;*
- *individlar nohaq munosabatlarda qatnashganliklari uchun ruhiy jihatdan o‘zlarini noqulay his qilishadi;*
- *nohaqlik qanchalik kuchli bo‘lsa, noqulaylik ham shuncha kuchli bo‘ladi vaadolatli munosabatlarni tiklashga intilish orta boradi.*

Shunday qilib, bu nazariyada asosiy o‘rinni «adolatli munosabatlar» kategoriyasi egallaydi. «Adolatli munosabatlar» o‘zaro munosabatlarda qatnashganlar hissalarining tengligini belgilaydi. Sotsial adolatga erishish natijasi o‘laroq individ va guruhlar harakati rag‘batlantiriladi.

Qayd qilish joizki, individualizm uslubiga asoslangan nazariya – ramzli interaksionizm sotsiologiyasining ko‘zga ko‘ringan namoyandalari tomonidan rivojlantirildi.

**Ramzli interaksionizm sotsiologiyasi.** «Ramzli interaksionizm» tushunchasini amerikalik sotsiolog Gerbert Blumer 1969-yilda fanga kiritgan bo‘lib, interaksionizm (inglizcha –«unteraction») – o‘zaro ta’sir ma’nosini anglatadi. Ramzli interaksionizm sotsiologiyasi amerikalik faylasuf, sotsiolog va ruhshunos J. Mid tomonidan har taraflama rivojlantirildi.

Ramzli interaksionizmning asosiy kategoriyasi «mohiyat» hisoblanadi. Kishilarning kundalik faoliyati va insoniyatning amaliy dunyosi mohiyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, odamlar obyektlarga mohiyat asosida yondashadilar. Natijada narsalar «mohiyatga ega bo‘lgan» insonlar uchun muvafqaqiyatga erishishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Ramzli interaksionizm sotsiologiyasi tarafdarlarining «mohiyat»ni idealistik nuqtai nazardan talqin qilishi noto‘g‘ridir! Ular bunday noto‘g‘ri talqinni sotsial munosabatlarga kiritishga ham harakat qiladilar. Ularning fikricha, ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishini moddiy olamni tadqiq etuvchi tadqiqotchining qarashlaridan kelib chiqib o‘rganish lozim. Ular insonlar xatti-harakatiga ta’sir qiluvchi sotsial tashkilotlar, muassasalar va institutlarning o‘rnini inkor etadilar.

J. Mid ijtimoiy munosabatlarni kishilarning amalga oshirmoqchi bo‘lgan xatti-harakatlariga qarshi aloqa yo‘li sifatida tasavvur qiladi. Bu qarshilik unchalik ahamiyatga ega bo‘lmagan imo-ishora yo‘li bilan amalga oshiriladi. Mohiyatni hal qilishga qaratilgan imo-ishoralar o‘z navbatida ramziy belgiga aylanadi. Olimning ijtimoiy nazariyasi

markazida kishilar o‘rtasidagi o‘zaro uzlusiz individual ta’sir bo‘lib, mana shu ta’sir natijasida ular bir-birlarini tushunadilar hamda o‘z xatti-harakatlarini boshqaradilar. Kishilar bu o‘zaro ta’sir jarayonida sotsial individ sifatida o‘zlarini ham anglaydi. Bu esa jamiyat harakati va rivojlanishining asosini tashkil qiladi.

**Fenomenologik sotsiologiya.** Fenomenologik sotsiologiyaning asos-chisi nemis faylasufi Edmund Gusserl (1859–1933-y.) bo‘lib, bu sotsiologiya hozirgi davrda Farb sotsiologik maktablarining birini tashkil qiladi. Fenomenologiya (yunon. «phainomenon» – hodisa ma’nosini anglatadi. Bu sotsiologiya markazida inson hayoti faoliyatidagi cheksiz imkoniyatlarni amalga oshirish muammosi turadi. «Dunyoviy hayot» fenomenologik sotsiologiyaning asosiy tushunchalaridan hisoblanadi. Olimning fikricha, fenomenologiya yordamida «dunyoviy hayot»ning asosida yotuvchi madaniyatni bilish hamda markazida inson turadigan haqiqiy olamni yaratishdir. Fenomenologik sotsiologiya ijtimoiy hayotni bilishda individlar harakatlari sabablari, maqsad va g‘oyalari asosida tushuntirishga harakat qiladi, lekin uni obyektiv tarzda tahlil qilolmaydi.

**Konfliktlogiya.** XX asrning so‘nggi yillarida sotsiologiya fanida «konfliktli sotsiologiya» keng tarqala boshlandi. Bu esa sotsiologiyada jamiyatda sodir bo‘ladigan nizolar (konflikt) ijtimoiy munosabatlarni harakatga keltiruvchi kuch, deb qaraldi. Ushbu «konfliktli sotsiologiya» namoyandalaridan biri amerikalik sotsiolog L. Kozerdir. Uning ta’kidlashicha, har qanday guruhlarda nizolarning sodir etilishi ularning o‘sishiga olib keladi. Mashhur nemis sotsiologi va iqtisodchisi R. Darendorfning qayd etishicha, integratsiya va nizolar har qanday jamiyat tomonidan teng asoslangan yo‘nalishdir. Ko‘pchilik sotsiologlar nizolar jamiyatning ijtimoiy tuzilishida mavjud, degan fikrni qo‘llab-quvvatlashadi. Ya’ni, jamiyatda sodir bo‘ladigan nizolarning asosini jamiyat manfaatlari bilan shaxsiy manfaatlarning bir-biriga mos kelmasligi tashkil etadi. Uning fikricha, nizo – sotsial guruhlar va institutlar o‘rtasidagi normalarning qarama-qarshiligidir. Jamiyatda sinflar nizolarni vujudga keltiradigan asosiy sotsial guruh sifatida namoyon bo‘ladi. Nizolar har qanday jamiyatga xosdir. Shu bilan birga, nizolarning har xil darajalarini bir-biridan farqlash lozim. U nizolarning quyidagi asosiy darajalarini ko‘rsatib o‘tadi: *guruhlar o‘rtasidagi nizolar, sotsial guruhlar ichidagi nizolar, jamiyat miqyosidagi nizolar, davlatlar o‘rtasidagi nizolar* nazarda tutiladi. Shunday qilib, uning fikriga ko‘ra, nizolar qanday darajada bo‘lishiga qaramay, ularni boshqarib turadigan jamiyat yarashtirish tarafidori bo‘lib qoladi.

Umuman olganda, hozirgi globallashuv davrini nizolarsiz, ziddiyatlarsiz va kelishmovchiliklarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Inson bilan inson va inson bilan sotsial guruh o‘rtasida hamda guruhlararo nizolar, jamiyat miqyosidagi ziddiyatlar, qolaversa, davlatlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar shular jumlasidandir. Bunday buzg‘unchi nizolar, ziddiyatlar va kelishmovchiliklarni inson aql-zakovati va qat’iy irodasining ustunligi orqali to‘g‘ri va oqilona tarzda bartaraf etish mumkin hamda ko‘zlangan istiqbolli maqsadlarga erishiladi.

### **3-§. Markaziy Osiyoda sotsiologik qarashlarning evolutsiyasi**

*Avestada sotsiologiyaga oid qarashlar.* Markaziy Osiyoda sotsiologiyaga oid fikrlarning vujudga kelishini eng qadimgi manba – zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesta»da uchratish mumkin. «Avesta» xalqimizning miloddan oldingi davrdagi hayoti, dunyoqarashi, olam va odam to‘g‘risidagi tasavvur, urf-odat va ma’naviy qadriyatları, g‘oyalari, diniy qarashlari haqida ma’lumot beruvchi beباho va asosiy manbadir. O‘ttiz asr muqaddam yaratilgan hamda tarixiy voqealarni o‘zida aks ettirgan Avesta milliy g‘oyalarni asrab-avaylash, xalqni jipslashtirish, uni ma’naviy yuksakkakka ko‘tarish, odamlarda mehr-oqibat tuyg‘ularini mustahkamlash va halq an’analarini saqlab qolishda katta ahamiyat kasb etgan. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov «Avesta» kitobining 2700-yilligiga bag‘ishlangan «*Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amalni ulug‘lagan kitob*» nomli ma’ruzasida ushbu nodir kitobning ayni zamonda bu qadim o‘lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda buyuk davlat, buyuk madaniyat buyuk ma’naviyat bo‘lganidan guvohlik beruvchi beباho tarixiy hujjat ekanligi, ming yillar, asrlar davomida avlod-ajdodlarimiz uchun ma’naviy-ruhiy tayanch, cheksiz kuch-quvvat manbai bo‘lib kelganligini ta’kidlagan edi.

Avestada o‘sha davrdagi ustuvor g‘oyalari, ma’budalar sha’niga aytilgan madhiyalar, duolar o‘z ifodasini topgan bo‘lib, keyinchalik jahon dinlarining shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Markaziy Osiyo, Qadimgi Sharq mamlakatlari, Yunoniston va Rim imperiyasida falsafiy fikrlarning rivoji uchun asos bo‘lgan. Bu ta’limotga ko‘ra, Xudo quyoshda olov va umuman insonga zarur bo‘lgan hamma narsada namoyon bo‘ladi. Zardushtiylar tabiatni: yer, suv, daraxt, o‘simlik, jonivorlarni e’zozlash, yerni ishlab, sug‘orib, bog‘-rog‘, ekinzor qilish, chorvani, ayniqsa yilqichilikni yo‘lga qo‘yish, suvni muqaddas tutish shart deb bilganlar.

Zardushtiylik Markaziy Osiyoda ibridoiy davrda mavjud bo‘lgan, tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e’tiqodlarga nisbatan progressiv, mono-

teistik ta'limotdir. U behuda qon to‘kuvchi qurbanliklar, harbiy to‘qna-shuvsalar, bosqinchilik hujumlarini qoralab, o‘troq va osoyishta hayot kechirish, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanishga da’vat etgan. Zardushtiylik dini qo‘riq yer ochib, uni bog‘-rog‘ga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga uchraydi. Aksincha, bog‘lar, ekinzorlar, sug‘orish inshootlarini buzganlar katta gunohga botadi, deb talqin qiladi. Keyinchalik Eronda rasmiy davlat diniga aylangan zardushtiylik eronshohlar hukmronligini ilohiyolashtiruvchi sinfiy qurolga aylangan.

«Avesta»da huquqiy, axloqiy me’yorlar o‘z ifodasini topgan. Unga binoan, olam nur va zulmat, hayot va o‘lim, tana va jon, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va tobelik singari hodisalarining azaliy va abadiy kurashidan iborat, deb qayd qilinadi. Shu bois ham hayotning kechishi tabiat (nur va zulmat), borliq (hayot va o‘lim), ijtimoiy hayot (yaxshilik va yomonlik), nafosat olami (go‘zallik va xunuklik) va dinda (Axura Mazda bilan Ahrimanning azaliy va abadiy kelishmasligi) turli xil kuchlar o‘rtasidagi kurash shakllari sifatida namoyon bo‘ladi. Muqaddas kitobda inson axloqiga taalluqli uchta qoida: *yaxshi fikr (gujata)*, *yaxshi so‘z (gukta)*, *ezgu ishlar (gvaritta)* haqiqat asosida bajarilishi katta ahamiyat kasb etib, niyatning ezguligi, so‘z va shartlarning butunligi, amallarning insoniyligiga asoslansagina maqsadga yetishi ta’kidlanadi. Bular inson va jamiyat uchun o‘ta muhim bo‘lgan qadriyatlar hisoblanadi. «Avesta»da ijtimoiy-siyosiy hayotni, jamiyatni boshqarishning axloqiy, huquqiy muammolariga oid ko‘plab masalalar keng yoritilganini ko‘rish mumkin. Bu ta’limotdagagi ijtimoiy-huquqiy qadriyatlarning g‘oyat muhim xususiyatlaridan biri insoniyatga qirg‘in keltiruvchi urush va mojarolarning qoralanganligi, tinch-totuv yashash, sulhparvarlik kabi olijanob g‘oyalarning ilgari surilganlidadir. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, «Avesta»da bayon qilingan axloqiy va huquqiy mezonlar insonning insonga va tabiatga hamda jamiyatga bo‘lgan munosabatini eng oliy qadriyat sifatida e’zozlovchi ta’limotlardan biri ekanligini qayd qiladi.

«Avesta»da axloqiy qadriyatlar: olijanoblik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, adolatlilik, Vatanga va Ona zaminga muhabbat kabi g‘oyalar ilgari surilgan. Shuningdek, zardushtiylikda insonning insonga qasd qilishi, o‘g‘rilik, birovning mulkini talon-toroj qilish qattiq qoralanadi. Unda yerdan, suvdan qanday foydalanish qoidalari, har xil jinoyatlarga jazo berish me’yorlari, oila va nikoh normalari ham o‘z aksini topgan.

Zardushtiylikda inson axloqi birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Inson hayoti davomida qilgan ishlariga javob berishi, keyingi hayotida shunga qarab jazolanishi haqida ogohlantirilgan. Umuman zardushtiylik dini dunyodagi ko‘pgina dinlarga, ilmiy-falsafiy fikrlarga, adabiyotga, san’atga o‘z

ta'sirini o'tkazgan. Darvoqe, IIO xodimlari, IIV tasarrufidagi oliy harbiy muassasalari tinglovchilari va kursantlari, aytish joizki, bu muqaddas kitobning huquqiy ta'limotini o'z faoliyatlarida amalga oshirishlari, dasturilamalga aylantirishlari ayni muddao bo'lib, sotsiologik so'rovnomalar o'tkazishni tavsiya qilamiz.

**Moniy ta'limoti.** Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarini o'rganishda «Avesta»dan tashqari moniylikka doir manbalar ham katta ahamiyatga egadir. Moniylik dini III asrda Eronda vujudga kelgan. Unga musavvir Moniy (216–276-y.) asos solgan. U o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini «Siru asror kitobi», «Rahbarlik va boshqaruv kitobi» va boshqa asarlarida bayon qilgan. O'z targ'iboti orqali zardushtiylik, xristianlik va buddizm g'oyalarini umumlashtirgan. Moniy ta'limotiga ko'ra, borliqning ikkita substansiya asosini – yorug'lik va yaxshilik, ruh olami va zulmat, yovuzlik hamda materiya olami tashkil qiladi. Ular o'rtasida abadiy kurash boradi. Pirovardida yaxshilik tantana qilishi, inson o'z xulqi va butun hayoti bilan yorug'likning zulmat bilan kurashiga yordam berishi hamda yorug'lik kelajak, ya'ni yaxshilikning tantanasi uchun xizmat qilishi kerak. Shuning uchun insonning odamlar va hayvonlarni o'ldirish yoki ularga azob berishga, o'tga, suv va o'simliklarga zarar keltirishga haqqi yo'q! U axloqan pok hayot kechirishi lozim. Mazkur ta'limotda himoyaga muhtoj va huquqi poymol qilingan insonlarning manfaatlarini himoya qilish masalalari birinchi o'rinda turgan. Shuningdek, bu ta'limotda muhim ma'naviy qadriyatlar – adolat, erkinlik, mehnatga intilish kabilar targ'ib qilingan.

Moniy o'sha davrdagi hokimiyat vakillari va rahbarlarini axloqsizlikka, manmanlikka, poraxo'rlikka va tubanlikka duchor bo'lganlikda ayblaydi. Umuman, moniylikda insonlarga nisbatan nasihatgo'ylik yondashuvi ustunlik qiladi. Unda insonning insonga va jamiyatga bo'lgan munosabati har qanday vaziyatda ham axloqiy tamoyillar: rostgo'ylik, halollik, odamlarga xayrixohlik va hokazolarga zid bo'lmasligi kerakligi hamda faqat axloq yo'l qo'yadigan vositalardan foydalanishi lozimligini talab qiladi.

**Mazdak ta'limoti.** Milodiy V asrning oxiri VI asr boshlarida Markaziy Osiyoda *mazdakiylik* deb nom olgan boshqa diniy-falsafiy ta'limot yuzaga keldi. Uning asoschisi Mazdak (470—529-y.) bo'lgan. Mazdak ta'limotiga ko'ra, olamda ro'y beradigan jarayonlar ongli va biror maqsadni ko'zlab harakat qiluvchi yaxshilik, yorug'lik manbai bilan yomonlik, johillik manbai o'rtasidagi kurashdan iborat edi. Bu kurash «yaxshilik»ning «yomonlik» ustidan g'alabasi bilan tugallanadi. Mazdakiylikda birinchi o'rinda sof falsafiy va diniy emas, balki sotsiologiya masalalar turadi. Mazdak va uning

izdoshlari o‘z qarashlarida xalq ommasiga suyangan. Xalqning ozodlik, erkinlik, hurlik yo‘lida olib borgan harakatlariga yetakchilik qilgani uchun tez orada ularning maslakdoshlari, izdoshlari ko‘paygan. Mazdakiylik ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish yo‘lida kurashga da’vat etuvchi mafkura sifatida xizmat qilgan. Uning asosiy maqsadi: yovuzlik va boylikka hirs qo‘yish hamda kambag‘allikka qarshi kurash, deb ta’kidlanadi. Jamiyatdagi zulmga qarshi kurash muqaddas vazifa sifatida talqin etiladi va unga diniy tus beriladi. Mazdakizmning asosiy g‘oyasi mulkiy tenglik o‘rnatishdan iborat edi. Bu tenglikka erishish uchun barcha boyliklarga dehqonlar jamoasi orqali egalik qilish, ya’ni moddiy boyliklar odamlarga teng taqsimlanishi kerak, deb da’vat etiladi. Bu ta’limot garchi hayotdan uzoq bo‘lsa-da, uning adolatsizlik va zulmga qarshi qaratilganligi, tinchlikka chaqirishi ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Bu ta’limotga asosan jamiyatda to‘q, badavlat yashayotgan odamlar nochor kishilarga ixtiyoriy ravishda yordam berib, ularning o‘zlarini o‘nglab olishlari, qobiliyatlarini ishga solishlari uchun ko‘maklashishlari kerak! Aks holda, ularni bunga majbur etish lozim, deb hisoblashgan.

Shunday qilib, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesta», keyinchalik vujudga kelgan «Moniy» va «Mazdak» ta’limotlari hamda boshqa yozma manbalar Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarida bugungi sotsiologiya faniga daxldor ijtimoiy-siyosiy ta’limotlarning keng rivojlanganligidan dalolat beradi va jahon ilm-fanining rivojlanishida ulkan ahamiyat kasb etadi.

VII asrning so‘nggi choragi va VIII asrning boshlarida Movarounnahr xalqlari Arab xalifaliklari tomonidan ishg‘ol qilindi. Ular o‘zları bilan islom dinini targ‘ib qildilar va o‘troq xalqlar orasida turli yo‘llar bilan uni tarqata boshladilar. IX asrning oxiriga kelib Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlar paydo bo‘la boshladi. Birinchi feodal davlat – Somoniylar hukmronligi shakllandi. Mustaqil davlatlar: Somoniylar, G‘aznaviyilar, Qoraxoniyilar, Saljuqiylar, Xorazmshohlarning paydo bo‘lishi bu yerda ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishiga, jumladan inson va uning jamiyatdagi o‘rni masalalariga taalluqli g‘oyalar, ya’ni sotsiologiyaning taraqqiy etishiga olib keldi. Qayd qilish lozimki, Islom dini musulmon Sharqida nafaqat din sifatida, balki madaniyat va ma’naviyatning shakllanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. U ilm-fan, adabiyot, san’at, axloq, siyosat va huquq kabi sohalarning rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

IX–XV asrlarda Yaqin Sharq mamlakatlari, birinchi navbatda Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, diniy, falsafiy, sotsiologiya ta’limotlari rivojlanishida keskin o‘zgarish, tub burilish davri bo‘ldi. Bu madaniy jonlanish va yuksalish jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib

bordi, madaniyat va ma’naviy hayotni qamrab oldi. Ijtimoiy taraqqiyotning ana shu davrida Markaziy Osiyo xalqlari dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi va yetakchi saflaridan o‘rin oldi, yirik va markaziy o‘choqlaridan biriga aylandi.

Ta’kidlash joizki, bu davrda Markaziy Osiyo xalqlarining o‘ta salohiyatli va iqtidorli olimlari, ya’ni o‘zining aql-idroki va tafakkuri, qomusiy bilimga egaligi bilan insoniyatni hayratga solgan, fan va madaniyatning so‘nmas yulduzlari, jahonga mashhur matematik, astronom, ximik, tibbiyot fanlari, faylasuf, filolog, tarixchi va boshqa ilm-fan allomalari, madaniyat arboblari yetishib chiqdi.

O‘sha davrning buyuk qomusiy olimlaridan biri *Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy* hayoti va ijodiy faoliyati davomida juda ko‘p ilmiy asarlар yaratgan. Jumladan, «Al-jabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob», «Algebraik traktat», «Hind hisobi bo‘yicha kitob», «Yer surati haqida kitob»larni aytish mumkin. Uning ayrim asarlari asl holida saqlanib qolmagan. Borlari boshqa tillarga tarjima qilingan va dunyoning ko‘pgina davlatlarida saqlanadi.

Al-Xorazmiy tabiiy fanlar bilan birga, ijtimoiy-gumanitar fanlarni ham chuqur o‘zlashtirgan. Uning tarix, geografiya, bilishga oid asarlari mayjud bo‘lib, «Kitob at-tarix», «Kitob surat-al arz» kabi asarlari bu haqda ma’lumot beradi. Al-Xorazmiy musulmon huquqini yaxshi bilgan. Uning «Al-jabr val-muqobala» asarining ikkinchi yarmida turli xo‘jalik-turmush, savdo va yuridik masalalarga algebra metodlarini joriy qilish muammolari ishlab chiqilgan. Xorazimiyning ijodiy faoliyati va izlanishlari tabiatni, borliqni o‘rganishga, ilmiy metodlarni tasdiqlashga, dunyoni bilishga qaratilgan edi. Uning jamiyat va uni bilishga bo‘lgan qarashlarida sotsiologiyaga oid fikrlar bisyorligi bilan ajralib turadi.

O‘z davrining buyuk qomusiy olimlaridan biri – *Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon Forobiyydir*. U 873-yili Sirdaryo bo‘yidagi Forob qishlog‘ida tug‘ilgan va 950-yili Damashqda vafot etgan. Abu Nasr Forobi O‘rtta asrlarda birinchi bo‘lib, jamiyatning vujudga kelishi, maqsad va vazifalari haqidagi ta’limotni ilgari surgan. Bu ta’limot ijtimoiy hayotning ko‘p masalalari – davlatni boshqarish, ta’limtarbiya, axloq, ma’rifat, e’tiqod, urush va tinchlik kabi masalalarni qamrab olgan. Forobiyning fikricha, ijtimoiy-gumanitar fanlarning maqsadi kishilarning baxt-saodatga erishish yo‘llarini ko‘rsatib berishdir. U jamiyatning kelib chiqishi ustida mulohaza yuritar ekan, zo‘ravonlik va majburlash ta’limotini inkor etib, u inson jamoasining kelib chiqishi asosida tabiiy ehtiyoj yotganligi haqidagi nazariyani ilgari suradi. «Tabiiy

ehtiyoj kishilarni jamoaga uyushishga, o‘zaro yordamga olib keladi. Ana shu o‘zaro yordam tufayli ehtiyoj qondiriladi. Kishilar o‘rtasidagi o‘zaro yordam inson jamoasini keltirib chiqaradi<sup>1</sup>. Forobiyning inson jamoasining kelib chiqishiga oid yuqorida qayd qilib o‘tgan fikrlari, bugungi kunda sotsiologiyaning asosiy masalalaridan birini tashkil qiluvchi, sotsial tizim tuzilishida sotsial guruh va tashkilotlarning vujudga kelishi masalasiga hamohangdir.

Forobiy inson jamoasining quyidagi uch darajasini (asosan unga birlashgan kishilar soniga nisbatan) ajratib ko‘rsatgan: 1) *buyuk jamoa, ya’ni yer yuzidagi barcha jamoalarni birlashtirgan jamoa*; 2) *o‘rta jamoa, ya’ni ma’lum xalqni o‘z ichida birlashtiruvchi jamoa*; 3) *kichik jamoa, ya’ni ma’lum shahar jamoasi nazarda tutiladi*.

Bugungi kunda ham sotsiologiyada jamiyatdagi kishilar guruhi unga birlashgan kishilar soniga qarab katta, o‘rta va kichik guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi. Forobiy baxt-saodat va kamolotga shahar jamoasi orqali erishish mumkin deb tushunadi. Uning bu fikri uyg‘onish davrida shaharlarning iqtisodiy, madaniy va ma’muriy markaz bo‘lganligini ifodalaydi. Turli xalqlar bir-biridan urf-odati, xulqi, xususiyati va tili bilan farqlanadi. Forobiy bu farqlarga tabiiy nuqtai nazardan yondashib, bunday farqqa jug‘rofiy muhit ta’sir qiladi, deb hisoblaydi. Forobiyning bu fikri keyinchalik sotsiologiyada jug‘rofiy yo‘nalishning vakili bo‘lgan Ibn Xaldun qarashlariga turtki bergen edi. Forobiy jug‘rofiy muhitni umuman jamiyat shakllanishining muhim omili, deb e’tirof etgan. U ushbu omil bilan bir qatorda, xalqning madaniy darajasi, ilm-fan, kasb-hunarga ham asosiy e’tibor bergen, ya’ni madaniy omillarni muhim deb hisoblagan. Forobiyning fikricha, omillarni birlashtirishda muhim sotsial institut hisoblangan shahar jamoasi katta ahamiyatga ega bo‘lgan. U madaniy taraqqiyot va davlatni birlashtirish vazifalarini ham amalga oshiradi.

Shu o‘rinda, Forobiyning jamiyat tuzilishi va uni boshqarish haqidagi qarashlari diqqatga sazovordir. Kishilarning maqsad va manfaatlariga ko‘ra o‘z atrofiga uyushtirishga qarab, Forobiy shahar-davlatlarni ikki guruhga ajratadi: fozil, olijanob shaharlar va johil, yomon shaharlarga bo‘ladi. Johil shaharning o‘zi ham bir nechta turlarga bo‘linadi. Ular yomonlik va axloqsizlik qoidasiga asoslanganligiga qarab farqlanadilar: bosqinchilikka asoslangan shahar; zulm, ezishga asoslangan shahar; kayf-safo va boylikni maqsad qilib olgan shahar; tartibni inkor etuvchi shahar-umuman johil shahar. Forobiy fozil shahar-davlatni esa kishilarning sog‘lom organizmiga

<sup>1</sup> *Фараби.* Трактат о взглядах жителей добровольного города. Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII–XII вв. – М., 1960. – С. 136.

o‘xshatgan. Organizmda bo‘lgani kabi fozil shaharda ham uning a’zolari kasb-hunarlarli, faoliyati va bilimlari bilan bir-birlarining ehtiyojini qondirib, o‘zaro yordam ko‘rsatadilar. Fozil shahar-davlatga fozil va adolatli shaxs rahbarlik qiladi, u aholini baxt-saodatga olib borishni o‘z maqsadi deb biladi.

Allomaning fikricha, davlatni o‘n ikki yetuk xislatga ega bo‘lgan shaxs boshqarmog‘i kerak. Agar unda bu xislatlar bo‘lmasa, davlat mana shunday yetuk xislatlarga ega bo‘lgan bir nechta shaxslar tomonidan boshqarilishi kerak. Buning ham imkonи bo‘lmasa, davlat saylagan shaxslar (demokratiya) yordamida boshqarilishi zarur. Forobiy orzu qilgan fozil shahar-davlatlarning asosiy vazifasi – tinchlikni ta’minalash, adolatni himoya qilish, odil sudlovni o‘rnatishdir. Bunday fozil jamoada komil insonlar vujudga keladi. Demak, Forobiy o‘sha davrdayoq ijtimoiy fikrning ahamiyatini chuqur anglab, zamonaviy sotsiologiyada ko‘p qo‘llanuvchi ekspertlar, ya’ni o‘z davrining yetuk donishmandlari fikrlariga tayanib ish tutish zarurligiga urg‘u beradi. «Donishmandlarga ishonib, ularga ergashuvchi odamlar o‘sha narsalarni donishmandlardek bilib oladilar. Zero, donishmandlarning bilimlari, eng yaxshi bilimlardur»<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida XIX asrning ikkinchi yarmida mustaqil fan sifatida vujudga kelgan va bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarda muayyan o‘ringa ega bo‘lgan sotsiologiyaga faniga oid fikrlarni keng qamrovli tahlil qilgan deyishga asos bo‘ladi.

Uyg‘onish davrining buyuk qomusiy olimi *Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy* (973—1048-y.) jahon fani tarixida eng mashhur siymolar qatoridan joy olgan, o‘z davrining deyarli barcha fanlariga katta hissa qo‘shgan mashhur qomusiy olim, yirik faylasufdir. U ilm-fanning turli sohalariga oid 150 dan ziyod asar yozgan bo‘lib, bizgacha ulardan faqat 30 ga yaqini yetib kelgan. Beruniyning ijtimoiy qarashlari aks etgan alohida asari saqlanib qolmagan bo‘lsa ham uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari aks etgan asarlari orasida «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» va «Hindiston» asarlari ayniqsa mashhurdir.

Beruniy o‘zining ijtimoiy qarashlarida sotsiologiyaga oid ta’limot «sabablarning sababi» – inson va jamiyatning yuzaga kelishi masalasining qo‘yilishidir. Beruniy kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi haqida aqlga asoslanishni ilgari suradi. Insonni inson sifatida ulug‘laydigan narsa – bu mehnat ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi. «Inson o‘z ehtiyojlarini tushunib, o‘ziga o‘xhash kishilar bilan birga yashash zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o‘zaro kelishuvchanlik qabilidagi «shartnomा»

---

<sup>1</sup> Абӯ Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Т., 1993. – Б. 167.

tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish ham zarur»<sup>1</sup>, – deb ta’kidlaydi.

Ijtimoiy hodisa va jarayonlarni tushuntirishda Beruniy kishilar ehtiyojini ham muhim omil sifatida ko‘rsatib, asoslab bergen. Xususan, u odamlarning bir-birini himoya qilish ehtiyoji, muomala ehtiyoji, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini alohida tahlil qilib ber gan, ya’ni bulardan tashqari jamiyatni boshqarish masalalari bilan ham qiziqqan. Uning fikricha, u yoki bu davlat arbobining hokimiyatni boshqarishga yaroqliligi uning davlatga rahbarlik qilish mahorati va qobiliyatiga bog‘liqdir. Umuman, Beruniy ijtimoiy hayotni o‘rganishga juda qiziqish bilan qaragan! Bu esa albatta, sotsiologiya fanining rivoji va bizdan oldin yashagan xalqlarning hayotini bilishga keng imkoniyat yaratadi. Mutafakkirning fikricha, jamiyatni boshqaruvchi shaxs qat’iyatli, ma’rifatparvar, yangilikka intiluvchi bo‘lmog‘i, oliv va quyi tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik,adolat o‘rnata olishi lozim. Shunday qilib, har qanday nizo-janjalilar, toj-taxt talashish, zo‘ravonlik, bosqinchilik harakatlariga qarshi turgan Beruniy davlatlar va xalqlar o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari yuritish g‘oyasini ilgari surgan.

Buyuk olim va mutafakkir *Abu Ali ibn Sino* (980–1037-y.) Markaziy Osiyo va musulmon Sharqida tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkurning shakllanishiga ulkan hissa qo‘shgan alloma, tibbiyot, falsafa va qator tabiiy-ilmiy fanlar bo‘yicha ko‘plab yangi asarlar yozgan mashhur qomusiy olimdir. Uning umumiylasarlari soni 450 dan oshadi, lekin uning bizgacha faqat 160 taga yaqini yetib kelgan. Jahonda «Shayx ur-rais», ya’ni «Olimlar boshlig‘i», «Tabiblar podshohi» nomlari bilan ulug‘langan bu olimning «Kitob al-qonun fit-tib» («Tib qonunlari») asari XII asrdan boshlab Yevropada lotin tiliga tarjima qilingan va 30 martadan ortiq nashr etilgan.

Ibn Sino o‘z kuzatishlari, izlanishlari natijasida falsafiy bilimlarni nazariy va amaliy ilmlarga bo‘ladi. Nazariy ilmlarni inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘limgan narsalar to‘g‘risidagi haqiqiy ilmlar deb ta’riflaydi. Amaliy ilmlarning obyekti esa inson faoliyatidir. Nazariy ilmlar haqiqatni bilishga, amaliy ilmlar esa yaxshi ishlarni amalga oshirishga qaratilgan (tabiatshunoslik, matematika, metafizika). Amaliy ilmlar uchga bo‘linadi: *birinchisi* – shaxs haqidagi ilm; *ikkinchisi* – insonlarning o‘zaro munosabatlari haqidagi ilm; *uchinchisi* – davlatni boshqarish ilmi. Shunisi diqqatga sazovorki, Ibn Sinoning X asrda falsafaning amaliy qismi to‘g‘risida aytgan fikrlari hozirgi zamon sotsiologiyasining tarkibiy qismini

<sup>1</sup> Абӯ Раиҳон Беруний. Танланган асарлар. Т. 1. – Т., 1968. – Б. 247.

tashkil qiluvchi amaliy sotsiologik tadqiqotlarga to‘g‘ri keladi, desak yanglishmaymiz.

Atoqli olim Abu Ali Ibn Sino kundalik amaliy ishlar jarayonida bo‘ladigan axloqiy munosabatlarni aks ettirish bilan birga jamiyatdagi turli tabaqalarning munosabatlarini ham o‘z asarlarida alohida bayon qilgan. Ibn Sinoning fikricha, real jamiyatda insoniy fazilatlar va ideal jamoaga erishish mumkin. Buning uchun insonlar jamiyatda o‘zaro yordam asosida yashashlari kerak. Olim jamiyat kishilarning o‘zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi zarur, degan ilg‘or g‘oyani ilgari surgan. Bunda jamiyatning hamma a’zolari qonunga itoat etishlari shart. Qonunni buzish vaadolatsizlik jazolanishi kerak, deb ta’kidlaydi. U «Ishorat va tanbihot» asarida «Inson o‘z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatda bo‘lib o‘z ehtiyojlarini qondira olishi mumkin»<sup>1</sup> degan fikrni ilgari suradi. Ibn Sino o‘zining bu fikri bilan kishilarning ma’lum guruhlarga birlashishi negizida shaxsiy manfaatlar yotganligini e’tirof etadi.

Ibn Sinoning fikricha, jamoaning barcha a’zolari foydali mehnat bilan shug‘ullanmog‘i zarur. U insonlarning jamiyatda tutgan o‘rni va vazifalariga qarab uchta guruhga ajratadi: 1) *davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishlari bilan shug‘ullanuvchilar*; 2) *bevosita xomashyo, zarur mahsulotlar ishlab chiqarish bilan mashg‘ul bo‘lganlar*; 3) *davlatni qo‘riqlash, uni turli tashqi hujumlardan saqlashni ta’minlovchi harbiylar*, hisobga olinadi. Demak, jamiyatning bu guruhlari o‘zaro bir-birlariga bog‘liq va har doim muloqotda bo‘ladilar, bir-birlarisiz yashay olmaydilar. Bunday qarashlar sotsiologiya fanining vujudga kelishida nazariy asoslardan bo‘lib hisoblanadi.

U qayd qiladi: «O‘zaro bog‘liqlik va almashuv jarayonida insonlar bir-birlarini qandaydir muhtojlikdan xoli etadilar. Buning uchun ular o‘rtasida o‘zaro kelishuv zarur bo‘lib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o‘rnataladi. Qonunshunos esa bu qoidalarga bajarilishi shart majburiyat tusini beradi. Shuningdek, u yomon ishlarni qiluvchilarga ham, yaxshi ishlarni ro‘yobga chiqaruvchilarga ham baho berishi zarur. Buning uchun oliy qonunshunos va sudyani tan olish zarurki, insonlar o‘z faoliyatlarida ularning hukmlaridan foydalansinlar»<sup>2</sup>. Darvoqe, Ibn Sinoning ushbu fikrlariga ko‘ra, insonlararo o‘zaro munosabatlar hamda ushbu munosabatlarni tartibga solib turuvchi ma’lum huquqiy tashkilotga ehtiyoj seziladi.

<sup>1</sup> Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. – Т., 1995. – Б. 68.

<sup>2</sup> Ўша жойда.

Jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va boshqa sotsial tashkilotlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bugungi kunda sotsiologiya fanining diqqat markazida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Aytish joizki, Ibn Sino o'z davrida sotsial tashkilotlarni yaxlit tizim sifatida tadqiq qilmasa-da, ularning jamiyatdagi o'rni va vazifasi to'g'risida o'zining qimmatli fikrlarini bildirgan.

Umuman, Ibn Sinoning bebaho fikr va mulohazalaridan xulosa qilishimiz mumkinki, ijtimoiy-falsafiy qarashlari nafaqat o'z davri uchun, qolaversa hozirgi ijtimoiy-gumanitar fanlar va muayyan darajada sotsiologiyaning rivojlanishida o'z o'rniga egadir.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari va davlat arboblarining ijtimoiy-falsafiy merosini o'rganishda sohibqiron *Amir Temurning* (1336–1405-y.) jamiyat va uni boshqarish to'g'risidagi qarashlarini tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlaymiz. Ma'lumki, Amir Temur tarixda markazlashgan yirik davlatga asos solgan buyuk davlat arbobi. Uning faoliyati bilan bog'liq manbalarda davlat boshqaruvi jarayonida shaxs va uning jamiyatda tutgan o'rni haqidagi fikrlar ko'plab uchraydi. Masalan, sohibqironning «Temur tuzuklari» asarida davlat tizimi, lavozimlar vazifasi, undagi turli toifalar va ularga munosabat, davlatni boshqarishga asos bo'lgan qoidalar, qo'shining tuzilishi, uni boshqarish, ta'minlash, rag'batlantirish, qo'shin turlarining tutgan o'rni va o'zaro munosabati kabi masalalar tahliliy tarzda bayon etilgan.

Tarixdan ma'lumki, har qanday davlat tuzumi o'z boshqaruvini ma'lum sotsial qatlamlar hamda sotsial guruhlarga tayangan holda olib boradi va ularning manfaatlarini himoya qiladi. Amir Temur davlatni boshqarishda alohida sotsial guruhlar va sinflar manfaatini himoya qilish orqali davlat tizimining barcha qatlamlariga, raiyatga, xalqqa suyanadi. U farzandlariga nasihat qilib, «Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaifalarni ko'ring, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik – dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin»<sup>1</sup>, deydi.

Sohibqiron Amir Temurning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida insonning ichki ruhiy holati va uning fikrlash qobiliyati, tafakkur ijodkorligi masallariga keng o'rin berilgan. Insonning eng buyuk xususiyati uning fikrlash qobiliyatiga ega ekanlidir. Zero, inson o'zining amaliy faoliyatida, sotsial hodisalarini boshqarishda hissiyotga emas, balki aql-zakovatiga tayanadi. «Har kimdan kengash oldim, har kimdan fikr o'rgandim, qaysi biri foydaliroq bo'lsa, uni qalb xazinasida saqlab, ishlata bildim»<sup>2</sup>, deb qayd qilgan

<sup>1</sup> Амир Темур ўгитлари. – Т., 1992. – Б. 61.

<sup>2</sup> Ўша асап. – Б. 62.

edi Amir Temur. Binobarin, sotsial jarayonlarni o‘rganishda bir nechta odamning fikrini bilish, natijada shu jarayonga oid oqilona qaror qabul qilish imkonи Amir Temur vasiyatiga ko‘ra, qiyosan qaraganda bugungi kunda sotsiologiya fanining jamoatchilik fikrini o‘rganishdan maqsadi ham ma’lum voqeа va hodisalarga oqilona yondashishdir. Demak, Amir Temur shaxsining tarixda tutgan o‘rnini to‘g‘ri anglab yetish, ijtimoiy-falsafiy qarashlari hamda hayot falsafasini o‘rganish O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, «Temur tuzuklari» o‘ziga xos kodeks, ya’ni davlat va uni idora qilish normalari, tartib-qoidalari to‘plami bo‘lib, ularda ilgari surilgan g‘oyalar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas!

Amir Temur va temuriylar davri (1370–1501-y.) ijtimoiy-siyosiy qarashlarini tahlil etishda mutafakkirlar va buyuk faylasuf, shoirlar sultoni *Alisher Navoiy* (1441–1501y.) merosi alohida ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy turli ijtimoiy tabaqalarning feodal jamiyatda tutgan o‘rni to‘g‘risida «Mahbub ul-qulub» asarida so‘z yuritib, o‘z davridagi deyarli barcha sotsial guruh va tabaqalarga tavsif beradi. Ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri xalqqa, mamlakatga, umuman insoniyatga foydali yoki zararli ekanligini bayon etadi. Ulug‘ mutafakkir jamiyatdagi yuzdan ortiqroq sotsial tabaqa xususiyatlarini aniqlab, ularning mamlakat sotsial tizimida tutgan o‘rni hamda faoliyat xususiyatlarini aniq ifodalab beradi. Mazkur sotsiologik tasnidan maqsad, ularning ijtimoiy farovonligini oshirish ekanligi asarning mazmunini tashkil etadi. Jamiyatni tasniflash, uning qay ahvolda ekanligini bilish uning mazmunini yaxshilashga yo‘l ochadi. «Shu jihatdan, – deb yozadi Alisher Navoiy, – hamsuhbatlarni va do‘s-t-yoronalarni bu hollardan ogoh va xabardor qilmoq vojib ko‘rindiki, toki ularda har toifaning xislati haqida bilimlar va har tabaqaning ahvoli haqida tushunchalari bo‘lg‘ay»<sup>1</sup>.

A. Navoiyning fikricha, jamiyat barqarorligida sotsial tabaqalarning o‘z vazifalarini to‘g‘ri, halol bajarishlari katta ahamiyatga ega. Odil podshohlar faoliyati farovon jamiyatni, zolim podshohlar faoliyati esa ijtimoiy tuzumning jafo va razolatlarini keltirib chiqaradi. Navoiy shoh-larning jamiyat ijtimoiy va siyosiy tuzumidagi o‘rniga katta e’tibor bergen. Shoh odil bo‘lsa, mamlakat obod, xalq farovon bo‘ladi va aksincha, shoh zolim bo‘lsa, xalq xonavayron, mamlakat xarob bo‘ladi. Navoiy shuningdek, boshqa guruhlar, jumladan yuqori tabaqa vakillarining roli to‘g‘risida ham fikr yuritgan. Alisher Navoiy shoh atrofini to‘g‘ri xulqli odamlar egallashi kerak, degan odil fikrni ilgari surgan. Alisher Navoiy «Vaqfiya»

<sup>1</sup> Насоий А. Махбуб ул-кулуб. – Т., 1984. – Б. 48.

asarida har xil ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa toifadagi sotsial guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni ham tahlil qilgan. Unda sotsial guruhlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning vujudga kelish sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llariga e’tibor qaratgan. Alisher Navoiyning sotsiologik qarashlari «Xamsa» asarida muayyan tizim assosida bayon etilgan. Xususan, «Saddi Iskandariy» dostonida jamiyatdagi adolatli tuzum g‘oyasi ilgari surilgan. Bunda adolatga turli jihatdan qaralgan: ***adolatli shoh – adolatli davlat – adolatli tuzum – adolatli tartib***, – deb baho berilgan. Adolat jamiyatni tashkil etishda, shoh va xalq raiyat o‘rtasidagi munosabatlarga zarur qoida deb qaralgan. Alisher Navoiy O‘rta asrlarda birinchi bo‘lib falsafaning markaziga inson muammosini qo‘ygan. U jamiyatning miqdor va sifat jihatidan ijtimoiy bo‘linganligi, umuman ijobiy hodisa ekanligi, bu tasniflash doirasining qanchalik kengligi mamlakat farovonlik darajasining ifodasi ekanligi xususida e’tiborga sazovor sotsiologik qarashlarni asoslab beradi.

Alisher Navoiyning merosi juda boy va serqirradir. Undan bizga o‘ttizdan ortiq nodir asarlar qolgan. Ayniqsa mutafakkirning davlat va huquqning vazifasi insonga xizmat qilishdir, degan fikrlari ayniqsa, IIV xodimlari uning tasarrufidagi oliy harbiy ta’lim muassasalari tinglovchilari va kursantlari uchun ham nihoyatda ahamiyatli ekanligini ta’kidlaymiz.

Buyuk mutafakkir va faylasuf *Mirzo Abdulqodir Bedil* (1644–1721-y.) o‘zining ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan falsafiy-sotsiologik bilimlar rivojiga muhim hissa qo‘shgan. Bedilning «Irfon» asarida tabiat, adabiyot, falsafa masalalari bilan bir qatorda, sotsiologiyaga oid fikrlar bayon etilgan. Ushbu kitobga kirgan «Kamde va Mudan» dostonida Bedil ijtimoiy hayotning san’at, shaxs erkinligi, do‘stlik, muhabbat, vafodorlik, adolat va bilimga oid fikrlarni ilgari suradi. Bedil tilanchi, tamagir, poraxo‘r va tekinox‘rlarni jamiyat tanasiga yopishgan kanalarga o‘xshatadi, ya’ni ularni qoralaydi. U ushbu asarida kishilarni ilm-ma’rifatga chorlaydi, adolatga undaydi. Uning asarlarida kishilarning jamiyatdagi o‘rni va turmush tarzi masalalari o‘z aksini topgan.

O‘zbek mumtoz shoiri *Boborahim Mashrab* (1640–1711-y.) o‘z ijodi-da tarixiy shart-sharoitni kuzatish orqali sotsiologiyaga tegishli ko‘pgina fikrlarni oldinga surdi. Mashrab jamiyatni o‘rganar ekan, undagi kamchiliklarni tanqid ostiga olib, hukmdorlarni insofga, xalqqa yordam berishga da’vat etadi. Insoniylik, pok muhabbatni kuylash, kishilarni do‘stlik, vafodorlikka chaqirish uning dunyoqarashi mag‘zini tashkil etadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo Chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi, ular mustamlakachilik siyosatini yurgiza boshladilar. Shunga qaramay, mahalliy xalq orasida mustamlakachilikka qarshi ma’rifat-parvarlik g‘oyalari tarqala boshlandi, yangi ta’lim – tarbiya shoxobchalari,

maktab, maorif, madaniy targ‘ibot, jadidchilik harakati rivoj topdi, ko‘plab ma’rifatparvarlar yetishib chiqdi.

Ma’rifatparvarlik mafkurasining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri *Ahmad Donish* (1827—1897-y.) bo‘lib, falsafa, falakiyat, riyoziyot, adabiyot, tarix sohalarida asarlar yozgan. Allomaning eng mashhur sotsiologiyaga oid qarashlari aks etgan asari «Navodirul vaqoye» (Nodir voqealar)dir. Bu asarda muallif ota-onasi va bolalar bilan bo‘ladigan munosabat, bolalarni nazorat qilish, noz-ne’matlarning mohiyati, koinot tarixi, sevgi va muhabbatning mohiyati, ruhning mohiyati, uning jism bilan aloqasi kabi masalalarni o‘rganadi va unga o‘z munosabatini bildiradi. U o‘z xalqini zulm va nochorlikdan qutqazish choralarini izlaydi. «Davlat bir guruh kishilarga emas, balki xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerak», degan g‘oyani ilgari suradi. Buning uchun hukmdor bilimdon, odil va donishmand bo‘lmog‘i shart. Ahmad Donishning qayd etishicha, mamlakatni idora qilishda hukmdor muhim davlat ishlarini o‘z ayonlari, davlat arboblari fikri bilan maslahatlashib hal qilishi lozim. Bular ham donishmand va odil bo‘lmoqlari shart. Hukmdor ularning maslahatlariga qulog solishi va ular bilan hisoblashishi kerak. Chunki ko‘pchilikning aqli bir kishining aqliga nisbatan kuchliroqdir. Mamlakatni mana shunday kishilar boshqargandagina jamiyatda tartib va intizom o‘rnataladi, davlat taraqqiy qiladi. Yuqoridaqilardan kelib chiqib, bugungi kun sotsiologiyasida ham jamiyat va uning tuzilmalarida vujudga keladigan masalalarni jamoatchilik fikriga asoslangan holda bartaraf etish lozimligi e’tirof etiladi.

Ahmad Donish bundan tashqari «Tarixiy risola» asarida Buxoro amirligidagi inqirozning sabablarini tahlili qilib, jamiyat taraqqiyotining asosiy shartini tadrijiy, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan islohotlarni hayotga joriy qilish lozimligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishga harakat qiladi. Mutafakkirning ushbu fikrlari hozirgi paytda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Ma’rifatparvarlik harakatining yirik namoyandalaridan *Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat* (1859—1909-y.)dir. Furqat Qo‘qonda dunyoga keladi. U «Ilm xosiyati», «Akt majlisi xususida», «Vistavka xususida» va boshqa ko‘plab she’riy asarlarida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surgan. U o‘ta murakkab davrning ziddiyatli tomonlarini, mamlakat qoloqligining tub ildizlarini tushunib yetadi. Bu qoloqlikning asl sababi jaholatda, urush-janjallarda deb hisoblaydi. Xon va beklarning o‘zaro urushlari, ularning savodsizligi va johilligi, ochko‘z va tamagirligi, tekinxo‘rligi mamlakat va xalqqa ofat va kulfat keltirayotganligini anglab, tanqid qiladi. Furqat jamiyatdagi salbiy illatlar vaadolatsizliklarni bartaraf etishda ma’rifat, ilm-fan, ta’lim-tarbiya katta ahamiyatga ega ekanligini chuqur idrok qiladi.

Ma’rifatparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib qilgan mutafakkirlardan *Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyydir* (1850–1903-y.). Muqimiy Qo‘qonda tavallud topgan. U o‘z sotsiologik qarashlarida erkin, insofli va adolatli jamiyat, insoniylik, iymon-e’tiqod, erk, barkamol inson haqida fikr yuritadi. Adolatsizlik, zo‘ravonlikka asoslangan jamiyatni qoralaydi. U o‘z qarashlarini «Veksel», «Urug‘», «Asrorqul» va boshqa hajviy asarlarida aks ettirgan. Shoir jamiyatni juda sinchkovlik bilan o‘rgangan. U jamiyatdagi qarama-qarshiliklar, adolatsizliklarni ko‘rib, o‘zining she’rlarida shular haqida fikr yuritgan.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Markaziy Osiyoda sotsiologiyaga oid fikrlar rivojida jadidlarning ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari katta ahamiyat kasb etdi. Jadidchilik qisqa muddat ichida ijtimoiy turmushning barcha jabhalarini qamrab oladi. Jadidchilik ma’rifatparvarlik harakatining yuqori bosqichi bo‘lib, uning namoyandalari mamlakatni feodal qoloqlikdan chiqarish, milliy mustaqillikka erishish uchun kurash olib borganlar. Jadidchilik harakatining yetakchilaridan *Mahmudxo‘ja Behbudiy* (1875–1919-y.), Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li (1878–1931-y.), Abdurauf Fitrat (1886–1938-y.)lar edi.

Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi maorif tizimini isloh qilishdan iborat bo‘lgan. Jadidlar milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy-siyosiy qaramlik va qoloqlikdan chiqish muammolarini biladigan zamonaviy bilimga ega savodli kadrlar bo‘lishi zarurligini yaxshi anglashgan edi. Shuning uchun ham dunyoviy bilimlarni o‘rganish, maorif tizimini isloh qilish ishlari ularning diqqat markazidagi asosiy masalalardan hisoblangan.

M. Behbudiy, «Islohnı maktab va madrasalardan boshlash zarur, chunki millat hayoti ta’lim-tarbiya bilan belgilanadi»<sup>1</sup>, deb yozadi. Uning ta’kidlashicha, biz madaniyat va iqtisod sohalarida boshqa millatlarga qaram bo‘lishni istamasak, biz milliy sudyalar, advokatlar, o‘qituvchilar, davlat arboblari, muhandis, savodli tijoratchilarni tayyorlashimiz zarur. Ular savdo idoralari va banklarda yordam berishlari, bizning manfaatlarimiz, dinimizni himoyachilari bo‘lmoqlari zarur. Busiz bizning kunimiz sanoqlangandir. Masala shunday ekan, siz hurmatli vatandoshlar, o‘z farzandlaringizni din va millatga xizmat qalmoqlari uchun zamonaviy bilimga o‘rgatishga harakat qilishingiz zarur, millat va denga faqat bilim va mablag‘ bilan xizmat qilish mumkin<sup>2</sup>. Biz din va millatni himoya qiluvchi ishonarli va mustahkam vositaga ega bo‘lmog‘imiz shart. Bu vosita – maorifdir<sup>3</sup>. Ma’rifatparvar

<sup>1</sup> Ойна журнали. – 1913. – №1.

<sup>2</sup> Ўша манба. – 1913. – №7.

<sup>3</sup> Ўша манба. – 1914. – № 41.

olimning yuqoridagi fikrlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotma-gan va ijtimoiy jarayonlarni isloh qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Jadidlar sotsiologik qarashlarida milliy mahdudlikni rad etishadi. Ular Turkistondagi barcha millat va elatlarni birlashtirishga, jamiyatni har qanday kelishmovchilik va ziddiyatlardan xoli qilishga intilishadi.

Aytish joizki, jadidlar o‘z qarashlarini maqolalar va asarlarida maorif, ijtimoiy hayot va turmush tarzining ayrim tomonlarini isloh qilish zarurligini uqtirish bilan birga, yoshlar diqqatini boy madaniy merosimizga, mada-niyatiga, ilm-fan sohasida erishgan yutuqlariga, diniy va xulqiy poklik masalalariga jalb qilib, uni mavjud ahvolga taqqoslab ko‘rsatishga harakat qilishgan edi. Demak, sotsiologiya fani kishilarning sotsial munosabatlarni o‘rganar ekan, bizningcha ushbu munosabatlarning o‘tmishi, bugungi holati va kelajagi bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etishi maqsadga muvofiqdir.

Sobiq sovet tuzumi davrida sotsiologiya fani inkor etildi. Chunki hukmron mafkura ta’limotining maqsadi oldindan aniq belgilangan bo‘lib, jamiyatda hech qanday sotsiologik tadqiqotlarga o‘rin qolmagan edi. Biroq jahon sotsiologiyasining yutuqlari ta’siri ostida sotsiologiya fan sifatida o‘tgan asrning 50–60-yillarida o‘rganila boshlandi. Ma’lumki, sotsiologiya fani har qanday jamiyatning ko‘zgusidir. U jamiyatning yutuqlari bilan birga, unda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarni, kishilarning norozilik va ko‘zbo‘yamachiliklarini ochib tashlaydi.

Shunday qilib, XX asrning 60-yillarida sovet sotsiologlarining assotsiatsiyasi, aniq sotsiologik tadqiqotlar instituti, oliy o‘quv yurtlarida sotsiologik laboratoriylar, Mamlakat respublikalarining Fanlar Akademiyasida sotsiologik tadqiqotlar bo‘limlari ochildi. Mustabid tuzum sotsiologik tadqiqotlar rivojlanishiga har qanday yo‘llar bilan to‘sinqilik qilar edi. O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarning natijalari oldindan belgilab qo‘yilar edi. Chunki hukmron partiya olib borayotgan siyosatdagi, mavjud kamchiliklar va ziddiyatlarni oshkor qilish mumkin emas edi! Jamiyatning u yoki bu sohasida o‘tkaziladigan sotsiologik tadqiqotlar ham ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan tuzumning buyruq va qarorlarini tasdiqlash maqsadidagina o‘tkazilar edi. Achinarli tomoni shundaki, mustabid tuzum davrida O‘zbekistonda sotsiologiya bo‘yicha birorta darslik yoki o‘quv qo‘llanmasi yaratilmadi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivojining asosiy bosqichlariga doir yuqorida qayd etilgan ma’lumot va tahlillar mintaqamiz xalqlari jahon sivilizatsiyasi tarixi hamda dunyo xaritasida o‘zining munosib o‘rniga ega ekanligidan, haqiqiy ma’nodagi ozodlikni orzu qilgan ota-bobolarimizning Vatan va xalq baxt-saodatini

ko‘zlagan orzu-istiklari O‘zbekiston mustaqilligi sharofati bilan ro‘yobga chiqqanligidan dalolat beradi.

#### **4-§. Mustaqillik yillarda sotsiologik tafakkur taraqqiyoti**

Mustaqillik yillarda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma’naviy va huquqiy sohalarini tubdan isloh etish hamda natijalarini tahlil va taxmin qilishga bo‘lgan ehtiyoj sotsiologik bilim va tafakkurni taqozo etadi. Sotsiologiya boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, jamiyatni bir butun tizim sifatida hamda ijtimoiy munosabatlarni va shaxs xulq-atvorini aniq shart-sharoit bilan bog‘liqlikda o‘rganuvchi maxsus fandir.

Mamlakatimizda sotsiologiya fan sifatida istiqlol yillarda shakllandı. Sobiq Sovet tuzumi davrida sotsiologik bilimlar inkor etilib kelingan edi. Ta’bir joiz bo‘lsa, sotsiologik bilimlar va ularning amaliy tadqiqotlari mexanizmi ish boshlasa, albatta buyruqbozlikka asoslangan totalitar tuzumning asl basharasini ochib tashlashi mumkin edi. Shuning uchun ham sotsiologik amaliy tadqiqotlar ko‘r-ko‘rona, nomigagina o‘tkazilib, ularning natijalari oldindan belgilab qo‘yilar edi.

Ta’kidlash joizki, sho‘rolar davrida ijtimoiy bilim faqat siyosatchilar, madaniyat xodimlari, ta’lim-tarbiya sohasi xizmatchilariga kerak, boshqa soha xodimlariga sotsial bilim shart emas, deb hisoblashgan. Bu esa o‘z navbatida shaxs rivojlanishi hamda butun jamiyat madaniyati taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatib keldi.

Mutaxassislar qaysi sohada ishlamasinlar, o‘z faoliyatlarining ijtimoiy oqibatlarini e’tiborga olishlari kerak, albatta. Bu esa ayni paytda sotsiologik tafakkurni talab qiladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda sotsiologiya faniga obyektiv qarash hamda munosabat vujudga keldi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarini o‘rganish, ijtimoiy munosabatlar hamda jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy guruhlar va tashkilotlarning xulq-atvorini tadqiq qilishga barcha sharoit yaratildi.

O‘zbekistonda dastlab 1989-yilda Toshkent davlat universiteti hozirgi O‘zMU falsafa fakulteti tarkibida sotsiologiya bo‘limi va kafedrasi tashkil qilindi. Shu yildan boshlab respublikamizda ilk sotsiolog mutaxassislar tayyorlana boshlandi.

1990-yilda Farg‘ona Davlat universitetida sotsiologiya kafedrasi tashkil etildi. Sotsiologiyaga oid nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash maqsadida 1992-yil shu kafedra asosida «Umumiy sotsiologiya» va

«Amaliy sotsiologiya» kafedralari tashkil qilindi. 1991-yilda sotsiologiya bo'yicha mutaxassislar tayyorlash bo'limi ochildi.

Bugungi kunda respublikamizning 4 ta oliy o'quv yurtida: M.Ulugbek nomli O'zMU, FarDU, SamDU, BuxDULARIDA fakultetlar qoshida sotsiolog mutaxassislar tayyorlanmoqda. Mazkur Oliy o'quv yurtlarini tamomlagan kadrlarimiz respublikamizning turli sohalarida faoliyat olib borishmoqda.

1993-yilda O'zbekiston Respublikasi FA falsafa va huquq instituti qoshida O'zbekiston sotsiologlarining assosatsiyasi (uyushmasi) tuzildi. Mamlakat Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1994-yil 18-iyuldag'i buyrug'i bilan 1995–1996-o'quv yilidan boshlab Respublikamizning barcha oliy o'quv yurtlarida sotsiologiya fanini o'qitish joriy qilindi. Sotsiologik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari to'g'ri yo'lga qo'yildi. Bu o'z navbatida kelajagimiz vorislari bo'lgan yoshlarimiz ongida sotsiologik tafakkurni shakllantirish hamda atrofimizda bo'layotgan voqeа va hodisalarga xolisona baho berishning muhim omilidir.

Shuningdek, respublikamiz Oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etilgan katta ilmiy xodimlar izlanuvchilar institutida doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib borayotgan tadqiqotchilarga «Ilmiy tadqiqot o'tkazish metodikasi», «Sotsiologik va empirik tadqiqotlar o'tkazish, dissertatsiya tadqiqotiga oid materiallarni tahlil qilish» kurslari o'qitilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan sotsiologiya fani bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning natijasi sifatida sotsiologiya fani bo'yicha: 22.00.01. Sotsiologiya nazariyasi, metodologiyasi va tarixi, sotsiologik tadqiqotlar usullari, 22.00.02. Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi, 22.00.03. Ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi yo'nalishlari bo'yicha sotsiologiya fanlari doktori ilmiy darjasini berish joriy qilingan.

Hozirgi paytda, jamiyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy, siyosiy-huquqiy sohalarini har taraflama o'rganishda sotsiologik amaliy tadqiqotlarning salmog'i ortib bormoqda. 1992-yilda Mehnat vazirligi qoshida sotsiologik tadqiqotlar markazi tashkil qilinib, markaz tomonidan respublikamizda keng sur'atda tadqiqotlar o'tkazilib, unda aholining iqtisodiy islohotlariga, demokratlashtirish jarayonlariga bo'lgan munosabatlari atroficha o'rganila boshlandi. Uning barcha viloyatlar va tumanlardagi shahobchalarida mutasaddi ilmiy xodimlar sotsiologlar jamiyat hayotini o'rganish maqsadida aholi ichiga tobora chuqurroq kirib borishda jonbozlik ko'rsatmoqdalar.

O'zbekistonda sotsiologiya fanini rivojlantirish borasida talay tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 25-iyundagi «Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash

tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida»gi Farmoniga muvofiq demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, inson huquqlarini ta’minlash, fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlarini uyg‘unlashtirish va jamoatchilik fikrini o‘rganish ishlarini yaxshilash maqsadida 1999-yilda Vazirlar Mahkamasi «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi ni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Unda «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazining asosiy vazifalari: inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilinishi, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish muammolari, shuningdek ijtimoiy munosabatlar rivojining boshqa dolzarb masalalari bo‘yicha jamoatchilik fikrini o‘rganish; mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy hayoti, davlat siyosati va hukumat faoliyati to‘g‘risidagi jamoatchilik fikrini umumlashtirish va tahlil etish; ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning dolzarb muammolari, aholining davlat hokimiyati va boshqaruvi yuqori idoralari qarorlarini tushunishlari yuzasidan jamoatchilik fikrining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash; kishilar dunyoqarashining shakllanishidagi asosiy yo‘nalishlar, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy, huquqiy ongning holati va mazmunini aniqlash; aholining siyosiy, huquqiy madaniyati saviyasini o‘rganish va ularni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash; jamoatchilik fikrini o‘rganishning uslubiy asoslarini takomillashtirish sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni tashkil qilish kabi masalalar belgilab qo‘yildi.

Hozirgi paytda «Ijtimoiy fikr»ni o‘rganish markazi va uning viloyatlardagi shoxobchalari orqali sotsiologik tadqiqot ishlari keng ko‘lamda amalga oshirilib, o‘zining ijobjiy natijalariga ega bo‘lmoqda.

2016-yil 28-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida» Farmoni e’lon qilindi. Farmonda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida Qoraqolpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek har bir tuman va shaharda (tumanga bo‘ysunuvchi shaharlardan tashqari) Xalq qabulxonalarli va virtual qabulxonalar tashkil qilinishi belgilab qo‘yildi. Xalq qabulxonalarli va virtual qabulxonalarini tashkil qilishdan maqsad aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to‘laqonli himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, yuzaga kelgan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etishga qaratilgan.

Qayd qilish lozimki, shaxsning davlat siyosatiga, mavjud siyosiy rejimga munosabati, moddiy turmush darajasi, kayfiyati, intilishlari va shu

kabi holatlarni sotsiologik tadqiq qilishning samarali natijalari hamda Xalq qabulxonalariga kelib tushayotgan murojaatlar orqali mamlakatdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy holatni yuzaga chiqarish mumkin. Faqat to‘laqonli demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatidagina mavjud siyosiy kuchlarning fikrlar xilma-xilligiga yo‘l qo‘yiladi.

Mustaqillik yillarida sotsiologiya masalalari jamiyatimizda muhim mavzuga va o‘rganish obyektiga aylanib, bir qator yirik sotsiologlar yetishib chiqdi. Jumladan M. B. Bekmuradov, O. B. Ota-mirzayev, N. S. Ali-qoriyev, A. Begmatov, M. H. G‘aniyeva, M. Qirg‘izboyev, A. Karimov, A. J. Holbekov, R. A. Ubaydullayeva, SH. M. Sodiqova kabi olimlar sotsiologiyaning umumnazariy va maxsus yo‘nalishlarini hamda amaliy massalalarini o‘z ilmiy izlanishlarida to‘liq yoritib berdilar. Sotsiologiyaga oid bir qancha o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruzalar kursi, darslik va monografiyalar chop etildi. Bularni istiqlol davrida erishgan yutuqlarimiz sifatida e’tirof etishimiz mumkin. Lekin bu ishlarimizni yetarlicha deb bo‘lmaydi. Chunki sotsiologiya va uning tarkibiy yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan ishlarimiz talaygina? Shular jumlasiga huquq sotsiologiyasi tarkibiga kiruvchi: jinoyat huquqiy sotsiologiyasi, oila huquqi sotsiologiyasi, ma’muriy huquq sotsiologiyasi, hududiy birliklar sotsiologiyasi tarkibiga kiruvchi: shahar va qishloq sotsiologiyasi, shaxs sotsiologiyasining tarkibini tashkil qiluvchi deviant xulq-atvor sotsiologiyasi va boshqa tarkibiy yo‘nalishlarni keltirishimiz mumkin.

Jamiyatda o‘rnatilgan ijtimoiy hamda huquqiy normalardan og‘ish holatlarini o‘rganuvchi deviant xulq-atvor sotsiologiyasi mamlakatimizda o‘rganilmagan sohadir. Faqat turli soha mutaxassislari deviant xulq-atvorning turli ko‘rinishlarini o‘z tadqiqot obyektlari doirasida o‘rganganlar.

Sotsiologiya murakkab sotsial tizim, sotsial institut va tashkilotlarni hamda turli xil sotsial guruhlarni tahlil qilishga tajriba va bilim bilan qurollanib, hayotni o‘rganishga yordam beradi. Sotsiologik bilim va tafakkur orqali ijtimoiy jarayonlarni har taraflama chuqur tahlil etib, uning kelajagini oldindan bashorat qilish mumkin.

### **Tayanch tushunchalar**

Sotsiologiya fani paydo bo‘lishining nazariy va amaliy assoslari, empirik sotsiologik tadqiqotlar, O. Kont sotsiologiyasi: sotsial statika va sotsial dinamika, E. Dyurkgeym moddiy sotsial va ma’naviy faktlar, G. Spenser «organik oqim» asoschisi, M. Vebercha individ xatti-harakati, hozirgi zamон G‘arb sotsiologiyasining asosiy yo‘nalishlari: neopozitivizm sotsiologiyasi, Chikago maktabi, strukturali funksionalizm, sotsiologiyada psixoanalitik yo‘nalish, etnometodologiya, dialektik sotsiologiya,

individualizm sotsiologiyasi, «Ramzli interaksionizm» sotsiologiyasi, konfliktlogiya. Markaziy Osiyoda ilk sotsiologik qarashlar, «Avesta»da sotsiologik fikrlar: yaxshi fikr (gujata), yaxshi so‘z (gukta), ezgu ishlar (gvaritta), Forobiy inson jamoasi to‘g‘risida: buyuk jamoa, o‘rtalama jamoa, kichik jamoa, Beruniyning sotsiologik qarashlari, Abu Ali ibn Sinoning sotsiologik fikrlari, Alisher Navoiy insonparvarlik to‘g‘risida, Mirzo Bedilning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, Boborahim Mashrab qarashlari, Jadidchilik harakatlari, XIX asrning oxiri va XX asrda Markaziy Osiyoda sotsiologik fikrlar taraqqiyoti, O‘zbekiston mustaqilligi va sotsiologiya rivojlanishining imkoniyatlari.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Sotsiologiya mustaqil fan sifatida qachon vujudga keldi?
2. Sotsiologiya atamasini fanga kim olib kirdi?
3. O. Kontning fikricha, sotsiologiya jamiyatni qanday o‘rganadi?
4. E. Dyurkgeymning moddiy va ma’naviy sotsial faktlari o‘rtasidagi farqni tushuntiring.
5. E. Dyurkgeym sotsial hamkorlik g‘oyasining asosini nima tashkil qiladi?
6. G. Spenser «Organik oqimi»ning ma’nosini tushuntirib bering.
7. M. Veber xatti-harakatlarning qanday turlarini ajratib ko‘rsatadi?
8. Hozirgi zamon G‘arb sotsiologiyasining asosiy yo‘nalishlarini sanab bering.
9. Forobiy inson jamoalarining kelib chiqish sabablari nimada deb biladi?
10. Ibn Sino insonlarni jamiyatda tutgan o‘rni va vazifalariga qarab qanday guruhlarga ajratgan?
11. Alisher Navoiy adolatni qanday talqin qilgan?
12. G‘arb sotsiologiyasi bilan Markaziy Osiyo mutafakkirlari sotsiologiyasini tahlil qiling.
13. Bugungi kundagi G‘arb sotsiologiyasini O‘zbekistonga tatbiq etsak bo‘ladimi?
14. O‘zbekistonda sotsiologiya fani rivojlanish imkoniyatlariga egami?
15. O‘zbekistonda demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda sotsiologiyaning ahamiyati nimada?

### **III BOB. JAMIYAT SOTSIAL TIZIM SIFATIDA**

#### **1-§. Sotsial bilishning mohiyati va tuzilishi**

Ilmiy bilish shakllaridan birini sotsial bilish tashkil qiladi. *Xo'sh, sotsial bilish va uning o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat? Sotsiologik bilimlar sotsial bilishni to'laligicha qamrab oladimi? Sotsial bilishda sotsiologiyaning o'rni qanday?* Ma'lumki, o'tmishda mutafakkirlar jamiyat rivojlanishi va uning qonuniyatlarini o'rganish muammolari bilan qiziqib kelganlar. XIX asrning boshlariga qadar ular jamiyatni faqat nazariy jihatdan izohlashdangina iborat bo'lgan. Keyinchalik fan va texnika, ishlab chiqarish usullari va sanoatning keng rivojlanishi natijasida jamiyat va uning tuzilmalari rivojlanishining qonuniyatlarini har taraflama o'rganish – davr talabiga aylandi. Jamiyat rivojlanishi qonuniyatlariga oid masalalar asosan ijtimoiy-gumanitar fanlarga daxldor bo'lib, ayniqsa sotsiologiya fani oldida turgan vazifalarni belgilab olish imkonini berdi.

Sotsial bilish – jamiyatni bilish demakdir. Sotsial bilish, uning boshqa shakllari – tabiatni bilish hamda inson tafakkuri yoki koinotni bilishdan farq qilib, o'ziga xos murakkab jarayondir. Jamiyat tabiatning bir qismi, taraqqiyotning oliy mahsulidir. Jamiyat rivojlanishi va taraqqiyoti – tabiiy-tarixiy taraqqiyotning bevosita davomidir. Tabiat rivojlanishi qonunlari bilan ijtimoiy taraqqiyot qonunlari o'rtasida ko'plab umumiyl tomonlar mavjud bo'lib, ayni paytda tafovutlar ham bor.

Jamiyat ham tabiat kabi obyektiv, o'z tuzilishi va taraqqiyot qonunlariga ega bo'lgan sotsial organizmdir. Jamiyat qonunlari o'z xususiyati va mohiyatiga ko'ra, tabiat qonunlaridan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

*Tabiat qonunlari olamdag'i narsa va hodisalar hamda stixiyali kuchlarning o'zaro ta'siri shaklida namoyon bo'lsa, ijtimoiy taraqqiyot qonunlari hazrati inson faoliyati orqali namoyon bo'ladi;*

*Tabiatda uning o'zgarishi bilan yangi qonunlarning paydo bo'lishi odatda million yoki milliard yillar davomida amalga oshsa, jamiyat qonunlari jamiyat sharoitining o'zgarishi bilan tez tarzda o'zgara boradi;*

*Tabiat yangi qonunlarining kashf qilinishi va qo'llanilishi ancha tekis amalga oshadi va bevosita ijtimoiy larzalarga olib kelmaydi. Ijtimoiy taraqqiyot qonunlari esa aksincha, kishilarning sotsial munosabatlari va manfaatlariga ta'sir qiladi.*

Tabiat va jamiyat qonunlarining ushbu farqli tomonlaridan tabiat qonunlari obyektiv, jamiyat qonunlari esa subyektiv, degan xulosaga qilish mumkin emas?! Jamiyat qonunlari ham tabiat qonunlari singari kishilarning

irodasi va ongiga bog‘liq bo‘lmagan holda obyektivdir. Jamiyat har doim oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga qarab o‘zgarishi va rivojlanishi sababli uning qonunlari ham o‘zgaruvchan xarakterga egadir. Jamiyat qonunlarining tabiat qonunlaridan yana bir o‘ziga xos xususiy jihat shundan iboratki, uning subyektga, ya’ni kishilarning ongli faoliyati bilan bevosita bog‘liqligidir. Biroq inson qonunlarni qanday xohlasalar, shunday o‘zgartirsa bo‘ladi, degani emas!? Inson jamiyat qonunlarini bekor ham yoki yo‘q ham qila olmaydi. Shu bois ham jamiyat qonunlari kishilar ongi, faoliyati bilan bog‘liq bo‘lishiga qaramay, yuqorida qayd qilib o‘tganimizdek, ular ham obyektivdir. Jamiyat qonunlari ma’lum taraqqiyot bosqichiga aloqador bo‘lib, jamiyat o‘zgarishi bilan eski qonunlar yangi qonunlarga o‘z o‘rnini bo‘shatib beradi.

Jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini bilish hamda hayotning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalarida namoyon bo‘layotgan ziddiyatlarni chuqur va atroficha anglab, ularni o‘z vaqtida bartaraf etish, jamiyatni ilmiy asosda boshqarish, insonlarning baxt-saodati, istiqboli uchun zarur barcha narsalarni yaratib berishning asosiy omillaridandir. Shuningdek, sotsial bilish o‘ziga xos jihatlari bilan bilishning boshqa shakllaridan farq qiladi. Ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi: *birinchidan*, sotsial bilish obyektining o‘zgaruvchan xarakterda ekanligi; *ikkinchidan*, sotsial bilish obyektining bilish subyektiga faol ravishda ta’sir etishi; *uchinchidan*, sotsiologik tarafdan o‘rganiladigan obyektiv qonuniyatlarsiz, barcha davlatlar, xalqlar, mamlakatlar tarixiga taalluqli umumiyligi rivojlanish qonunlarini aniqlashning mushkulligi; *to‘rtinchidan*, kishilar o‘rtasida davom etayotgan cheksiz sotsial munosabatlar ichidan muhimlarini nomuhimlaridan ajrata bilish, aks holda faoliyat davomida ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmasligi; *beshinchidan*, sotsial bilishning ma’lum ma’noda jamiyat tuzumiga bog‘liqligi; *oltinchidan*, sotsial hodisa va holatlarning jamiyat rivojlanishining ma’lum bosqichida yuzaga kelishi; *yettinchidan*, sotsial bilish ijtimoiy rivojlanishning obyektiv yo‘nalishlariga asoslangan holda jamiyatning kelajagini ham o‘zida aks ettirishi bilan farq qiladi.

*Jamiyat* – tabiat tadrijiy taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga kelgan, kishilar ongli faoliyati davomida biror-bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardan iborat murakkab tizimdir. Tabiat taraqqiyotining oliy mahsuli bo‘lgan jamiyatni kishilar yaratadi, shu bilan birga, ularning o‘zi ham tarixning, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining mahsulidir. Demak, jamiyat ishlab chiqarish faoliyati asosida vujudga kelgan. Ishlab chiqarish jarayonida kishilar o‘zaro ijtimoiy aloqa va munosabatda bo‘ladilar. Bu aloqa va munosabatlar esa sotsial munosabat (siyosiy, axloqiy, huquqiy, mafkuraviy va boshqa)larning asosini tashkil qiladi.

Falsafa va sotsiologiyaga oid bilimlar tizimida jamiyat tushunchasi *keng* va *tor* ma'nolarda qo'llaniladi. *Keng ma'noda* – tabiatdan ajralib chiqqan moddiy dunyoning tarkibiy qismi, rivojlanayotgan kishilar hayotiy faoliyatining majmuini ifodalaydi. *Tor ma'noda* – insoniyat tarixining muayyan bosqichi yoki ijtimoiy tuzumning aniq turini anglatadi.

Jamiyatning tuzilishi, tarkibi juda ko'p elementlardan tashkil topgan. Sotsial bilishda ulardan eng muhimlari uning obyekti va subyektidir. Sotsial bilish jarayoni mana shu obyekt va subyektning o'zaro ta'siri va munosabatlari asosida yuzaga keladi.

*Sotsial bilishning obyekti* – bir butun jamiyat, uning moddiy va ma'naviy hayoti, jamiyatning muayyan bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy tizim, unga xos ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari, ularning sharoiti, rivojlanish va o'zgarish qonunlari, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy munosabatlar, jamiyatda sodir bo'layotgan aniq voqeа va hodisalardir.

*Sotsial bilishning subyekti* – ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bosqichidagi alohida shaxs, insonlar, sinflar, sotsial qatlamlar, siyosiy partiya va harakatlar hamda shu kabi kishilar guruhidir.

Ta'kidlash joizki, jamiyatda sodir bo'layotgan voqeа va hodisalar o'z-o'zidan sotsial bilishning obyekti bo'lavermaydi, balki ular kishilarning bilish faoliyati doirasiga kirgandan so'ng sotsial bilishning obyektiga aylanadi. Shuningdek, shaxs, sotsial guruhlar, sinflar, siyosiy partiyalar va harakatlar ham o'z-o'zidan sotsial bilishning subyekti bo'la olmaydi. Ular o'z qarashlarini biror sotsial voqeа yoki hodisaga yo'naltirgan vaqtдан boshlab sotsial bilishning subyekti bo'la oladi. Sotsial bilishning obyekti va subyekti o'rtasidagi aloqadorlik har doim muayyan tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Darhaqiqat, sotsial bilishning murakkab tomoni shundaki, u sotsial jarayonlarni bilishning subyektiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Chunki sotsial bilishning subyekti bo'lgan inson sotsial guruhlar manfaatiga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Sotsial bilish jamiyatda hukmron bo'lgan mafkuraga ham bog'liqdir. O'rta asrlarda Yevropada Xristian dinining hamda sobiq Ittifoq davrida esa kommunistik partiyaning hukmronligi falsafa, sotsiologiya, iqtisod, tarix va huquqiy fanlarni o'ziga bo'ysundirganligi bunga yaqqol misol bo'ladi.

Sotsiologiyada jamiyatni bilishning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, u bilishning subyekti bo'lgan alohida shaxslar, kishilar, sotsial guruhlar, sinflar, sotsial qatlamlar, siyosiy partiya va harakatlar jamiyatning hozirgi holatini bilishga asoslangan bo'lib, jamiyat rivojining keyingi istiqbollarini ham bashorat qiladi.

Demak, jamiyatdagi sotsial hodisa va jarayonlarni umumlashtirish va ulardan nazariy xulosalar chiqarishda alohida sotsial guruhlar va ma'lum sinflar manfaatlaridan emas, balki bir butun jamiyat manfaatlaridan kelib chiqish kerak!

**Jamiyatning sotsiologik tushunchasi.** Sotsiologiya fanining jamiyatni o'rganuvchi boshqa fanlardan farqini anglash uchun jamiyatning sotsiologik tushunchasini bilish muhimdir. Jamiyat o'zini o'zi bir maromda boshqarish, o'zaro hamkorlik qilish orqali kishilarning barcha ehtiyojlari qondirilishini ta'minlaydi, sotsial aloqalar vositasida o'z faoliyatini tizimli tashkil etadi. Bunda jamiyat va shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar hamda ularning farqli va o'xshash tomonlarini qayd etish lozim bo'ladi.

**Jamiyat va shaxs.** Jamiyatni shaxsdan ayri holda tasavvur etib bo'l-maydi, lekin shunga qaramay shaxs hali jamiyat degani emas? Ularning farqi shundaki, shaxs jamiyatning subyektiv namunasi bo'lib hisoblanadi. Agar shaxslararo, guruhlararo hamda sotsial tashkilotlar o'rtasida ma'lum bir maqsadni amalga oshirish uchun biri ikkinchisini taqozo etadigan munosabatlar, aloqalar, o'zaro ta'sirlar vujudga kelgan taqdirdagina jamiyat bo'la olishi mumkin.

**Jamiyat va davlat.** Jamiyat bilan davlat o'rtasida quyidagi farqlar mavjud: *jamiyat birlamchi, davlat esa ikkilamchidir; jamiyatning funksiyasi davlatning funksiyasiga nisbatan kengdir; jamiyat jamoatchilik fikriga asoslansa, davlat hokimiyat va majburlovi qo'llaydi; jamiyat tabiiy va yozib qo'yilmagan huquqqa suyanadigan bo'lsa, davlat muayyan huquqqa asosan ish ko'radi; jamiyatda rasmiy va norasmiy institutlar mavjud, davlat esa rasmiy tashkilotlarga asoslangan holda ish olib boradi*.

Sotsiologiya fani jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarini o'rganishda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlardan farqli ravishda ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, ta'sir va munosabatlarni bir butun tizim sifatida aniq sotsiologik tadqiqotlar yordamida amalga oshiradi. Demak, sotsiologiya faqat sotsial dalillarni tahlil qilish bilan cheklanib qolmay, balki sotsial rivojlanishning obyektiv yo'nalishlariga asoslangan holda jamiyatning kelajagini ham aks ettiradi. Chunki sotsial bilish faqat mavjud yangi hodisa va jarayonlarni aks ettiribgina qolmay, jamiyat istiqbolini nazarda tutib, rivojlanish yo'l-yo'riqlarini belgilaydi. Shuning uchun ham bozor munosabatlariga o'tish hamda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarida ularning sifat jihatidan yangi holatini tasavvur qilish uchun sotsiologik sohada muhim o'zgarishlarni amalga oshirish bilan bog'liq bir qator nazariy muammolarni hal qilish vazifasi kun tartibidan joy oladi.

Hozirgi paytda ba’zi MDH davlatlarining rivojlanish tajribasi shuni ko’rsatadiki, bozor munosabatlariga o’tishning o’zi jamiyatni iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy inqirozdan olib chiqadi. Ta’kidlash joizki, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirish natijalariga ko’ra, jamiyatning ma’naviy yangilanish darajasi hamda oqilona yo’nalishlari asosida rivojlanishining tahlili ko‘p jihatdan jamiyatni sotsiologik qonunlar hamda amaliy sotsiologik tadqiqotlar assosida yig‘ilgan ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Sotsiologiya jamiyatni bilishda sotsial fakt va eksperimentlarga asoslanadi.

## **2-§. Sotsial bilishda sotsial fakt va eksperimentlarning o‘rni**

«Sotsial fakt» lot. «factium» – «bajarilgan, amalga oshirilgan», degan ma’noni anglatadi. Sotsial faktlar deganda, quyidagilar tushuniladi: individ, shaxs va bir butun sotsial guruhlari xatti-harakati; kishilar moddiy va ma’naviy faoliyatining mahsuli; kishilarning u yoki bu voqeа-hodisa to‘g‘risidagi qarashlari, fikrlari va bergen baholari. Shunday qilib, sotsial fakt – ma’lum jarayonlar yoki ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasiga daxldor alohida ahamiyat kasb etuvchi voqealar yig‘indisidir.

Sotsial faktlarni ikki xil: kundalik turmushda tor va ilmiy jihatdan keng ma’nolarda tushunish mumkin. *Kundalik turmushdagi sotsial faktlar* deb, ma’lum vaqt va sharoitda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan voqeа va hodisalarga aytildi. *Ilmiy jihatdan keng ma’nodagi sotsial faktlar* deb, o‘zining maxsus o‘rniga ega bo‘lgan aniq tushunchalarda qayd etilgan voqeа-hodisalarga aytildi.

Jamiyatda sodir bo‘ladigan har qanday voqeа va hodisa sotsial fakt sifatida qo’llanishi uchun ikki talabga javob berishi, *birinchidan*, ommaviy jihatdan namoyon bo‘lishi, *ikkinchidan*, ijtimoiy ahamiyat kasb etishi lozim. Shuningdek, sotsial faktlar sotsial jarayonlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, har taraflama yetarli asosga ega bo‘lgandagina sotsial fakt sifatida tan olinadi. Har qanday sotsial fakt kishilar va ularning hayot faoliyatlariga ma’lum darajada aloqador bo‘lganligi sababli yuzaga keladi va ular turlicha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham tadqiqotchidan sotsial faktlarni to‘g‘ri tanlab olish va voqelikka aniq yondashish talab qilinadi.

Ijtimoiy voqelikni sotsiologik bilish – umumiylil bilishning turi sifatida o‘zaro qarama-qarshiliklarning uzviy bog‘liqligiga asoslangan empirik va nazariy darajalarni o‘z ichiga oladi. Empirik bilish darajasining maqsadi bevosita empirik bilimga ega bo‘lishdir. U empirik faktlarni yig‘ish va umumlashtirishga asoslanadi. Empirik bilish asosida ijtimoiy

voqelik haqida ma'lum bir tizimga solingan dastlabki bilimlar yaratiladi. Nazariy bilish darajasi esa bilvosita yangi bilimlarga ega bo'lish jarayoni, ya'ni subyekt yordamida olingan ma'lumotlarni mantiqiy jihatdan birlash-tirib, turli tarixiy voqelik o'rtasidagi mavjud aloqadorlik va munosabatlar haqida tushuncha va bilim hosil qiladi, ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini umumlashtiradi.

Sotsial bilish jarayonida ijtimoiy tarixiy faktlar katta ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarixiy fakt deganda, jamiyatning o'tmishi bilan bog'liq hamda u yoki bu sohasida muayyan o'ringa ega bo'lgan va sotsial bilish jarayonini izohlaydigan ijtimoiy ahamiyatga molik voqeа va hodisa tushuniladi. Ijtimoiy tarixiy faktlar ijtimoiy amaliyatni aks ettirgani bois ham nazariy jihatdan umumlashtirish uchun manba bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, u yoki bu nazariy qarashlar to'g'rilingining isboti sifatida xizmat qiladi. Demak, sotsial hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishda alohida sotsial faktlarni o'rganib undan tashqari o'rganilayotgan obyektga tegishli bo'lgan barcha sotsial faktlarni tahlil qilish zarur, aks holda faktlar ixtiyoriy ravishda tanlab olingan, degan shubha paydo bo'lishi mumkin?!

Sotsial faktlar kuzatish natijalariga yoki statistik ma'lumotlarga asoslanishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'plab faktlarni statistik usul-larni qo'llash yo'li bilan umumlashtirish asosida erishiladi. Statistik dalil-larni ma'lum darajada sotsial hodisalarni ommaviy kuzatishga asoslangan tavsifnomasi namunasi, deb belgilasa ham bo'ladi.

Sotsial faktlar o'zicha ilmiy bilishni tashkil qilmaydi. Ular ilmiy bilish xususiyatiga ega bo'lish uchun muayyan nazariy xulosalarga tegishli hamda ular yordamida tushuntirilishi kerak. Ana shunda sotsial faktlar sotsial bilishning zaruriy elementiga aylanadi. Demak, sotsial bilishning aniq tarixiy faktlarga tayangan empirik darajasi nazariy daraja bilan to'ldiriladi. Bilishning empirik darajasidan nazariy darajasiga o'tish murakkab dialektik jarayondir.

Sotsial bilishning nazariy darajasi ijtimoiy voqelikni, bilishning yuqori bosqichi bo'lib, alohida faktlarni umumlashtirish asosida ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini ochishga yordam beradi. Shuning uchun ijtimoiy nazariya tizimga solingan bilim, ma'lum konsepsiya tarkibiga kirishi bilan tavsiflanadi. Demak, sotsial fakt ijtimoiy nazariya asosini tashkil qilib, uning umumlashmasidir. Sotsial fakt va ijtimoiy nazariya birligi oldindan ilmiy bilish va bashorat qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy nazariya empirik ma'lumotlarni umumlashtirib, ijtimoiy jarayonlar rivojlanishning obyektiv qonuniyatlarini oldindan bashorat qilish imkoniyatiga egadir. Sotsial bilish jarayonida sotsial faktlarga asoslangan

holda jamiyatda kuzatib bo‘lmaydigan yoki hali tajribada aniqlanmagan hodisalarini oldindan aytib berish imkoniyati tug‘iladi. Shuning uchun biror-bir voqea va hodisaga nisbatan taalluqli sotsial faktlarni to‘g‘ri tanlash ichki ishlar organlari xodimlarining amaliy faoliyatni bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu faoliyat kelgusida sodir etilishi ehtimol tutilgan jinoyatlarning oldini olish uchun asos sifatida jinoyatlarni fosh etish mumkin bo‘ladi. Jinoyatlarni fosh etish va ularning oldini olishda sodir etilgan jinoyatga mos keladigan va uning asosida vujudga kelgan sotsial faktlarni tanlab olish har qanday mushkul ishning yechili-shini tezlashtiradi.

Sotsial faktlarning ishonchliligi sotsiologik tadqiqotlar dasturining aniq ishlab chiqilishini ta’minlaydi hamda uning dastlabki yo‘nalishi va maqsadini belgilab beradi. Tadqiqotchi tomonidan tanlab olingan nazariy yondashuv, sotsial faktlarni obyektiv saralash va ularga baho berish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, xulosalarning ilmiyligini ta’minlaydi.

Sotsial bilish kishilarning olamga faol hamda amaliy munosabati asosida namoyon bo‘ladi. Bunda esa ularning amaliy xulqi va ularning ijtimoiy-tabaqaviy mansubliklari, tabiat, ma’lum sotsial sohalar ta’siri ostida to‘plangan yo‘l-yo‘riqlari hamda qadriyatlar va boshqa umumiyy tartiblar ta’sir ko‘rsatadi. Bu hol sotsial bilishda obyektiv haqiqat masalasi, shuningdek turli tabaqa vakillari tomonidan ijtimoiy jarayonlarni baholashda mezon muhim rol o‘ynaydi. Darvoqe, har qanday jamiyatda sotsial voqea va hodisalarni bilish hamda tahlil qilish asosiga ko‘ra kishilarning dunyoqarashi, diniy va axloqiy qoidalariга muvofiq tarzda amalga oshadi. Shuning uchun sotsial bilishning mazmuni, mohiyati uni o‘rganayotgan subyektning sotsial mavqeiga bog‘liq bo‘ladi.

Jamiyatda kishilar faoliyatini iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy omillar belgilaydi. Bu sotsial omillar xilma-xil bo‘lib, ular qisman tashqi sotsial hodisalardan va qisman ideal orzulardan, chunonchi, shuhratparastlik, shaxsiy manfaat yoki katta istaklardan iborat bo‘lishi mumkin. Bu omillar zaminida ularni harakatga keltiruvchi ma’lum moddiy va ma’naviy kuchlar mavjud. Ular kishilarning ongida turli-tuman maqsadlar, orzular, rag‘batlar, xohish va istaklar, iroda va ehtiyojlar shakliga aylangan tarixiy sabablarni tashkil qiladi, ya’ni bu omillar kishilar ongida ideal kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Bu kuchlar zaminida esa ularni yuzaga keltiruvchi ehtiyojlar va manfaatlar hamda ularni qondirishga qaratilgan sotsial va ma’naviy faoliyatlar yotadi.

Ta’kidlash joizki, sotsial bilish jarayonida sotsial eksperiment katta ahamiyat kasb etadi. U bilishning alohida shaklini tashkil qilib, nazariya bilan ijtimoiy amaliyotni bog‘lovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

*Sotsial eksperiment* – voqeа va hodisalar o‘rtasidagi sababiy aloqalarni o‘rganish hamda nazorat qilish va boshqarish sharoitlarida yangi bilimlarni olish uchun qo‘llaniladigan umumilmiy uslubdir. Demak, sotsial eksperimentlar maqsadga kirishish hamda yangi amaliy usullarni izlash va boshqarishda qo‘llaniladi. Sotsial eksperimentlar asosan tabiiy va sun’iy shakl-larga bo‘linadi.

Sotsiologiyada tabiiy eksperimentning tadqiqot obyektlari cheklangan bo‘ladi. Tadqiqotchidan o‘rganilayotgan obyektga zarar yetkazmaslik talab qilinadi. Shu bois tabiiy sotsiologik eksperimentlar kichik guruhlarda o‘tkaziladi. Sun’iy sotsiologik eksperiment keng qamrovlidir. U statistik EHMDa sotsial jarayonlarni modellashtirishning tahlil metodlaridan biri sifatida kengroq sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishda qo‘llaniladi. Sun’iy sotsial eksperimentlar tabiiy sotsial eksperimentlarning strategik taraq-qiyotini aniq belgilab beradi.

Mustaqillik yillarida turli mulkchilik shakllarining joriy qilinishi tufayli texnika va ishlab chiqarish sohalarida sotsial eksperimentlarning imkoniyatlari yanada kengaydi. Yangi iqtisodiy munosabatlar, mehnat muhofazasini takomillashtirish, jamiyatni boshqarish, tashkilotchilik va tashabbuskorlik, shaxs va jamoalarda sof psixologik muhitning shakllan-tirishi aniq sotsial eksperimentlarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Sotsial eksperiment o‘tkazishning muayyan talablariga ko‘ra, quyidagi jihatlar nazarda tutiladi: *kishilarining amaliy faoliyati hamda muayyan tizimning biror sohasi bo‘yicha sotsial eksperiment o‘tkazishda ommaning tashabbusiga tayanish; tadqiqotning maqsadi, dasturi va tuzilishi jamiyatning ijtimoiy manfaatlariiga mos kelishi; sotsial eksperiment tadqiq etila-yotgan obyektlarning faol shakllanishiga mos kelishi; ijtimoiy-psixologik, axloqiy, huquqiy, siyosiy sohalaridagi sotsial eksperimentlar kishilar hayotidagi moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.*

O‘zbekistonda yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shaklla-nayotganligi, kishilarining dunyoqarashi, faoliyatida jiddiy o‘zgarishlar yuz berayotganligi bois, bu o‘zgarishlarni to‘g‘ri tushunish, hisobga olish uchun o‘z vaqtida sotsiologik tadqiqot va eksperimentlar o‘tkazib borish taqozo etiladi. Shundan bo‘lsa kerak sotsiologik eksperimentlarning roli keskin oshib bormoqda. Sotsial eksperimentlar kishilarining hayoti, faoliyati, manfaatlari, maqsadlari va intilishlari hamda jamiyat rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta’sir etishi ham mumkin. Shuning uchun sotsial eksperimentlarni o‘tkazishdan avval jiddiy tayyorgarlik ko‘rilishi, ular keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan oqibatlar oldindan o‘rganilishi, tahlil etilishi lozim.

Hozirgi paytda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etish yo‘lida bozor munosabatlari va milliy davlatchilikni shakllantirishda sotsial-huquqiy eksperimentlarga ehtiyoj sezilmoqda. Demak, qonun ijodkorligi faoliyatining rejalashtirilishi va sotsial-huquqiy eksperiment o‘tkazilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Sotsial-huquqiy eksperiment tor doirada ma’lum sotsial-huquqiy vaziyatni vujudga keltirish bo‘lib, ya’ni maxsus ishlab chiqilgan normativ huquqiy akt (yoki ularning majmui) tadqiq etiladi. Uning maqsadi muayyan sharoitlar uchun qanday yuridik normalarning talab qilinishi hamda ularning amalda qanday bo‘lishlarini tekshirishdan iborat bo‘ladi. Qayd qilish lozimki, sotsial-huquqiy eksperiment yuridik normalarning kamchiliklarini o‘z vaqtida aniqlashga imkon beradi, ularni yo‘naltiradi hamda ayni paytda sotsial munosabatlarni huquqiy tartibga solishda xato qilmaslikka ko‘maklashadi.

Ijtimoiy voqelikni bilishda ijtimoiy nazariyalarning roli kattadir. Jamiyatning bugungi va kelajakdag‘i hayotini o‘zida mujassamlashtirgan ijtimoiy nazariyalar ilmiy tarzda asoslangan bo‘lsa, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni o‘rganishning rivojlangan shakli bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham ijtimoiy voqelikni bilishda *tarixiylik* va *mantiqiylik* usullaridan foydalilaniladi. Tarixiylik va mantiqiylik jamiyat taraqqiyoti jarayonlarining muhim xususiyatlarini bilish usulidir. *Tarixiylik usulida* sotsial voqeа va hodisalarning hozirgi holati ularning o‘tmishi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Tarixiylik usuli asosida sotsial voqeа va hodisalarning ro‘y bergan vaqtin, vujudga kelishi va rivojlanishi bilib olinadi. Har bir sotsial voqeа va hodisalar tarixiy nuqtai nazardan aniqlangan tajribalarga asoslanib o‘rganiladi. Tarixiylik usulining xususiyati shundaki, u tarixiy harakatni, undagi voqeа va hodisalarni bir butun holda o‘rganishni talab qiladi. Agar taraqqiyotning ilgarigi bosqichlarida vujudga kelgan va hozirgi davrda amalda bo‘lgan hamda kelajakda taraqqiyotni belgilaydigan omillar puxta o‘rganilib, chuqur tahlil qilinmasa, ya’ni kelajakda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yilishi, jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin!

Mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashmasak, o‘tmishda yo‘l qo‘yilgan xatolardan to‘g‘ri xulosalar chiqarmasak, ko‘zlangan maqsadlarimizga erishishimiz qiyinlashadi. Har bir hodisaning haqiqiy tarixini ochib berish uchun uning taraqqiyotidagi asosiy bosqichlar hamda aloqalarini ajratib ko‘rsatish zarur. Buning uchun hodisalarning mohiyati haqida nazariy bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi. Sotsial bilishdagi *mantiqiy usul* voqeа va hodisalarning mazmunini nazariy jihatdan tadqiq qilish usuli hisoblanadi. Mantiqiylik usuli tadqiqot obyekti-

ning eng muhim aloqalarini, jamiyatda yuz berayotgan voqeа va hodisalarning mohiyatini, qonuniy aloqalar va munosabatlarini, sotsial hodisalar va jarayonlarni chuqurroq bilib olishga yordam beradi. Sotsial bilishning tarixiylik va mantiqiylik usullari o‘zaro dialektik aloqadadir.

Sotsial bilish jarayonida keng qo‘llaniladigan usullardan yana biri *tizimlilik usulidir*. Murakkab jarayonlarni ilmiy bilishda tizimlilik usuli qo‘llaniladi. Bu usul sotsial bilish jarayonida mazmunan bir-biriga yaqin voqeа va hodisalarni o‘z ichiga oladi. Bu usul asosida tadqiq qilinayotgan jarayonning boshqa jarayonlar bilan umumiy aloqa va munosabatlari o‘rganiladi. Har bir o‘rganilayotgan jarayon va uni tashkil qiluvchi hodisalar yaxlit tizimdir. Bu tizimni tashkil qiluvchi har bir voqeа va hodisa o‘rni, vaqt va imkoniyatlariga ko‘ra bir-biri bilan funksional tarzda bog‘langan bo‘ladi. Shuning uchun ham birinchi voqeа va hodisaning o‘zgarishi ikkinchisining o‘zgarishiga olib keladi. Ijtimoiy hayotning har bir sohasi muhim ketma-ketlikni, ya’ni izchillikni tashkil qiluvchi tizimlardan iboratdir. Masalan, jamiyatning huquqiy tizimi uning iqtisodiy va siyosiy tizimidan kelib chiqadi. Huquqiy tizimning yaxlitligi va tarmoqlarga bo‘linishi subyektiv ixtiyoriy bo‘lmay, obyektiv sababiy bilan bog‘liqligini tashkil qiladi.

Hozirgi sharoitda ijtimoiy hayot yanada murakkablashib, ko‘plab tarmoqlarga ajralib bormoqda. Tabiat va jamiyat, texnik va ma’naviy jarayonlar bir-biri bilan jipslashib, o‘zaro aloqalari tobora kuchaymoqda. Jamiyatning u yoki bu sohasidagi o‘zgarishlar ijtimoiy ahamiyat kasb etib, uning boshqa sohalariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Aynan shuning uchun ham tizimlilik usuli jamiyatning ayrim sohalarida vujudga kelgan masalalarni, jamiyat uchun umumiy ahamiyat kasb etgan muammolar bilan o‘zaro aloqadorlikda ko‘rib chiqishga imkon beradi.

EHMLarning yangi avlodи jamiyatning barcha sohalariga shiddat bilan kirib bormoqda. Bu sotsial bilish sohalarida ham *matematik usullarni* ttabbiq etishni taqozo etadi. Bu borada bir qator qiyinchiliklar mavjud. Chunki sotsiologiya voqeа va hodisalarning miqdorinigina emas, balki sifat belgilarni ham o‘rganadi. Masalan, biror ishlab chiqarish jamoasini o‘rganar ekanmiz, undagi har bir kishining yoshi, jinsi, moddiy daromadi, ma’lumoti, xohish-istaklari, hayotiy ehtiyojlari, milliy his-tuyg‘ularini e’tiborga olmaslikning iloji yo‘q. Shaxsning yoshi, moddiy daromadi, ma’lumoti miqdoriy belgilar bo‘lsa, uning xohish-istaklari hayotiy ehtiyojlari, milliy his-tuyg‘ulari kabi jihatlari esa sifat belgisini tashkil qiladi. Hozirgi paytda sotsiologiyada sifat ko‘rsatkichlari anketa usuli orqali o‘rganilmoqda. Natijalarni olish esa EHM orqali tezlashtiriladi. Sotsiologik tadqiqotlarda

EHMLarning ko‘plab qo‘llanilishi miqdor jihatdan to‘g‘ri natijalar olish uchun emas, sotsial jarayonlar va vaziyatlarni modellashtirish uchun ham yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishda qo‘llaniladigan matematik usullaridan biri *o‘lchash usulidir*. O‘lchash usulida voqeа va hodisalarni tashkil qiluvchi elementlar emas, balki o‘rganilayotgan obyektlarning ma’lum belgi va o‘ziga xos tomonlari tadqiq etiladi. Har qanday sotsial obyekt va hodisa boshqa obyekt va hodisalardan farq qiladigan o‘ziga xos belgi hamda xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular esa kishilar tomonidan o‘lchash usuli orqali aniqlanadi. Har xil miqdor va sifat belgilarni o‘lchash, ular o‘rtasidagi statistik aloqalarni yo‘lga qo‘yish, ayni paytda sotsial bilishning matematik modellarini tuzishga imkon beradi.

Ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish – voqelikni ma’lum ramzlar, belgilar, fikrlar, g‘oyalar yig‘indisi ko‘rinishida aks ettirishdir. Boshqacha aytganda, jamiyat hodisalari to‘g‘risida yig‘ilgan taassurotlarni shakllantirishdir. Demak, ijtimoiy obyektlarni matematik modellashtirishda ikki jihatga alohida e’tibor berilishi kerak: *birinchisi* – nazariy kibernetikaning rivojlanayotgan nazariy tizimlar bilan kompleks aloqasini ko‘rsatish. Bu yondashishda tadqiq qillinayotgan hodisalarning eng umumiy xususiyatlari yuqori darajada moddellashtiriladi; *ikkinchisi* – ijtimoiy tizimlarni modellashtirish bo‘lib, eng qulay nazariy yondashuvni tanlab olish bilan bog‘liqidir. Unda tizimlarning har xil holatlari qayd etiladi. Natijada uning kelgusi holatlarini topish imkoniyatlari yaratiladi.

Sotsial bilishda huquqiy bilish jarayoni, jamiyatning huquqiy ijodkorligida namoyon bo‘ladi. Huquq ijodkorligi esa o‘ziga xos belgi va xususiyatlarga ega.

### **3-§. Sotsial tizim va uning tuzilishi funksiyalari**

Sotsial tizim va uning tuzilishi to‘g‘risida so‘z yuritishdan avval, tizimning o‘zi haqida, qanday belgi va xususiyatlarga ega? degan savol-larga javob berish maqsadga muvofiqdir. Tizim tushunchasi umuman keng ma’noli bo‘lib, bu o‘rinda sotsial tizimni o‘z ichiga qamrab oladi. Atrofimizdagи narsa va hodisalar bir-biri bilan uzviy dialektik aloqadorlikda hamda doimiy rivojlanishda bo‘ladi. Ularning bu rivojlanishini bir-biridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Tabiatdagи narsalar, jamiyatdagи hodisa va jarayonlar bir butun tizimni tashkil qiladi.

*Tizim* (yunoncha qismlardan tashkil topgan, butun, birlashish ma’no-larini anglatadi) – ichki tartibga solingan, o‘zaro aloqa va munosabatda bo‘lib turadigan, bir butunni tashkil qiluvchi elementlar majmuidir. Bunga

insonning biologik organizm sifatidagi tuzilishini, D.I. Mendeleyevning ximiyaviy elementlari tizimi (davriy jadvali) va shunga o‘xhash ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Tizimga xos muhim belgilardan biri uning tarkibidagi elementlarning bir-biri bilan mustahkam bog‘liqligi hamda biri-ikkinchisini taqozo etishdir. Tizimning elementlari o‘rtasidagi munosabatlar har bir elementning boshqa tizimlardagi elementlar bilan aloqasiga nisbatan kuchliroq, barqarorroq va ichki jihatdan zarurdir. Tizimning ichki tartibga solinganligi uning elementlari o‘rtasidagi aloqalar, o‘zaro ta’sir qonunlarining majmuasida ifodalanadi. Har bir qonun o‘ziga xosligiga ko‘ra, ayrim hodisalar o‘rtasidagi aloqalarning muayyan tartibini yoki turini ifodalaydi.

Sotsiologiya fani tabiatdagi narsa va ashyolar yoki tirik organizmlarning tizimlilagini o‘rganmaydi, bu boshqa tabiiy fanlarning o‘rganish obyektini tashkil qiladi. Sotsiologiya fani jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalariga ko‘ra bir-biridan mustaqil va o‘zaro bog‘liq sotsial tizimlarni o‘rganadi. Sotsiologiya tarixida jamiyat o‘z ijtimoiy ehtiyojlarini qondi-ruvchi kishilar birligi sifatida tushuniladi. Shu bilan birga, jamiyat ayrim kishilarning birligi bo‘lmay, balki har doim harakatdagi ijtimoiy munosabatlar majmuasi hamdir.

Sotsiologiya sotsial tizimlarning rivojlanishi va funksional qonuniyatlar hamda harakatlantiruvchi kuchlarini o‘rganishi bilan birga, turli ijtimoiy hodisalar, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi aloqalarni, shuningdek shaxs, kishilarning ijtimoiy va axloqiy xulqini ham tadqiq qiladi. Hozirgi paytga qadar jamiyat hayotini sotsiologik jihatdan tadqiq qilish, bizningcha ikki yo‘nalishda rivojlanib keldi. *Birinchi yo‘nalish*: sotsiologiyada pozitivizm yo‘nalishining yetakchilari ingliz sotsiologi O. Kont va fransuz sotsiologi Ye. Dyurkgeym tomonidan asoslantirilgan elementar yo‘nalish bo‘lib, keyinchalik amerikalik olim T. Parsons tomonidan rivojlantirilgan psixologik ta’limotidir. Bu yo‘nalishda sotsial tizim o‘zgarishi tashqi kuchlar ta’siri orqali tushuntirilib, ko‘proq kishilarning psixologik holatlariga e’tibor berilgan. *Ikkinci yo‘nalish*: K. Marksning sotsiologik ta’limoti bo‘lib, unda sotsial tizim ichki ziddiyatlar hamda ichki kuch ta’siri orqali tushuntirilib, materialistik mohiyatga ega moddiy munosabatlarni belgilovchi roliga asosiy e’tibor berilgan. Ta’kidlash joizki, O. Kont va E. Dyurkgeym sotsiologik qarashlarga asoslanib, jamiyatning bir butunligi, uning «ijtimoiy muhitdagi doimiy muvozanati»ning ichki va tashqi ta’sirini muvofiqlashtirish sotsiologiyaning asosiy vazifasi sifatida belgilashgan. Sotsial tizimlar tarkibidagi o‘zgarish va integratsiya sifatidagi Parsonsning funksional sotsiologik ta’limoti muvozanat to‘g‘risidagi nazariyadir. Marks sotsiologiyasida esa sotsial tizimlarning o‘zaro ziddiyatlilik xarakteri «muayyan

muvozanatdan og‘ish» emas, balki ularning (sotsial tizimlarning) tarkibiy tuzilish mohiyati qonun nuqtai nazaridan ichki rivojlanishning zaruriy natijasidir. Sotsial tizimlar mohiyatini bunday tushunish jamiyatda ichki sotsial ziddiyatlar (konfliktlar) sinfiy kurashlar ro‘y berishi hamda ular jamiyat rivojining asosi va mohiyatini belgilashini anglatadi. Bunga Marks va Engelsning «Hozirgacha o‘tgan jamiyat tarixi – sinflar kurashi tarixidan iboratdir» degan qarashlari fikrimizning dalilidir. Har ikki yo‘nalish ham jamiyat hayotidagi muhim belgilarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Sotsiologik amaliyot funksional o‘zgarishlarsiz va evolutsiyasiz hamda inqilobiy (revolutsiya) tushunchasi bilan funksional munosabatlar tahlilisiz sotsial tizimlar rivojlanishini faqat ziddiyat va konfliktlar orqali asoslashga urinuvchi ta’limot jamiyat hayotini bir tomonlama o‘rganishga olib kelishini ko‘rsatmoqda. Burjua sotsiologiyasi nomi bilan atalgan G‘arb sotsiologik ta’limotda ham o‘ziga xos ijobiylar bilan bir qatorda, sotsial tizimlar rivojlanishining ichki ziddiyatli xususiyatlarini hisobga olmaslik jamiyatni bir tomonlama o‘rganishga olib keladi! Bir tomonlama yondashuvlar hech qachon ijobiylar bermagan. Bunga misol tariqasida marksistik ta’limot asosiga qurilgan sobiq sovet tuzumini keltirish mumkin. Har bir xalq va millat o‘zining milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda Birinchi Prezident Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, «o‘ziga xos va o‘ziga mos» yo‘lni tanlasa hech qachon adashmaydi.

*Sotsial tizim* – o‘z tabiatiga ko‘ra, sotsial xususiyatga ega bo‘lgan, o‘zaro aloqalar, munosabatlar orqali uyushgan, muayyan bir butunni tashkil qiluvchi kishilar birligidir. Jamiyat hayotida tutgan o‘rni, maqsad va vazifalariga qarab sotsial tizimlar quyidagi shakllarda:

- 1) *oddiy sotsial tizimlar*;
- 2) *murakkab sotsial tizimlar*;
- 3) *eng murakkab sotsial tizimlar* sifatida namoyon bo‘ladi.

*Oddiy sotsial tizimlar* ma’lum maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun birlashgan, biri ikkinchisini taqozo etadigan kishilar birligini tashkil qiladi. Bugungi kunda ishlab chiqarishning ma’lum sohasi bilan shug‘ullanuvchi kichik ishlab chiqarish korxonalari, oila bunga misol bo‘la oladi.

*Murakkab sotsial tizimlar* esa jamiyatning u yoki bu sohasida o‘z o‘rniga ega, jamiyat rivojlanishiga ta’sir etadigan kishilar birligidir. Bunga ma’lum bir ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlar, oliy o‘quv yurtlari, shahar va qishloq aholisi, ularning o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini kiritish mumkin.

*Eng murakkab sotsial tizimlar*, ya’ni bir butun jamiyat miqyosida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan sotsial tizimlar kiradi. Jamiyat eng umumiy murakkab sotsial tizim bo‘lib, uning tarkibiy elementlarini tashkil qiluvchi huquqiy

tizim, siyosiy tizim, iqtisodiy tizim va boshqa tizimlar sotsial tizimning ushbu shakliga misol bo‘la oladi. Chunki jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalari o‘z tabiatiga ko‘ra, kishilar o‘rtasidagi eng murakkab munosabatlar, jarayonlar va aloqalarni o‘z ichiga oladi.

Sotsial tizimga xos muhim belgilardan yana biri – inson tabiatini va mohiyatidir. Inson o‘z faoliyatini boshqa insonlar bilan birgalikda, o‘zaro aloqadorlikda, munosabatlarda amalga oshiradi va natijada sotsial muhit individga, individ esa sotsial muhitga ta’sir etadi. Sotsial tizim tarkibiga individlar kiradi hamda ularning xatti-harakatlarini belgilab beruvchi sotsial normalar va qadriyatlar uning elementlarini tashkil etadi.

Sotsial tizim shakllari biri ikkinchisi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular murakkab iyerarxik tuzilishga ega. Ular o‘rtasidagi o‘zaro iyerarxik tuzilish esa ularni boshqarish jarayonlaridagi imkoniyatlarini kengaytiradi Eng murakkab sotsial tizim shakllari quyi bo‘g‘inlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Sotsiologiyada eng murakkab sotsial tizim tarkibiga kiruvi oddiy va murakkab sotsial tizimlar ost tizimlar deb yuritiladi. Masalan, jamiyat eng murakkab sotsial tizim bo‘ladigan bo‘lsa, uning tarkibiy elementlarini tashkil qiluvchi sinflar, etnik birliklar, sotsial guruh, tashkilot va institutlar, shuningdek jamiyatning iqtisodiy, ma’naviy, huquqiy, siyosiy va boshqa tizimlari ost tizimlarga kiradi. Sotsial tizimlar ko‘p hollarda bir-biri bilan «kesishgan» bo‘ladi, aynan bir individda turli xil tizimlar elementlari bo‘lishi mumkin. Demak, ularning elementlari bilan aloqada yoki ulardan mustasno ravishda nisbiy mustaqildir.

Sotsial tizimlar maqsadga yo‘nalganligi, moslashuvi, o‘zini qayta tiklash hamda funksional va rivojlanish kabi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Har bir sotsial tizim tashqi ijtimoiy muhit bilan doimiy ravishda aloqa qiladi. Kishilar ijtimoiy voqelik, jarayonlar va g‘oyalar ijtimoiy muhit elementlari sifatida namoyon bo‘ladi. Hozirgi sotsial munosabatlarning tarkib topishi jarayonida ijtimoiy muhitni sotsiologik tahlil qilish ilmiy-nazariy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Sotsial tizim o‘zgarishining sotsial vazifalari o‘zaro farq qiladi. Ular muayyan iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va boshqa qonuniyatlar asosida faoliyat ko‘rsatadilar.

Sotsial tizimlarning rivojlanishi tabiiy-tarixiy jarayon tarzida namoyon bo‘ladi. Har bir sotsial tizim boshqasining, ya’ni yuqori darajadagi tizimning tarkibiga kiradi. O‘zi esa quyi, kichik tartibdagi tizimlarni o‘z tarkibiga qamrab oladi. Jamiyat hayotida biror-bir sotsial tizim alohida ravishda, boshqalaridan, ijtimoiy muhitdan ajralgan holda yashay olmaydi. Sotsial tizim o‘zgarmas va abadiy emas. Ular tarixiy taraqqiyot davomida doimo o‘zgarib, rivojlanib boradi. Ichki, tashqi funksional va ziddiyatli

munosabatda bo‘ladi. Har qanday sotsial tizim o‘zining tarkib topishi, rivojlanishi, o‘ta taraqqiy etishi va tanazzuliga ega bo‘ladi.

Sotsial tizimlar o‘zining shakllanishi va rivojlanishiga ko‘ra, qonuniyatlargaga ega bo‘lib, ular individ hayot faoliyatini belgilab beradi. Individ u yoki bu tarzda sotsial tizim normalari va qadriyatlarni qabul qiladi va ijtimoiylashadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy faoliyat ko‘rsata olishning bir qancha variantlari orasidan o‘ziga ma’qulini tanlab olishi mumkin.

Sotsial tizimni u yoki bu mezon asosida ajratish sotsiologik tadqiqot bilan belgilanadi. Aynan bir sotsial tizim, masalan, oila teng ravishda ham sotsial nazorat tizimi, ham sotsial institut, ham sotsial tashkilot, ham guruh sifatida qaralishi mumkin.

Sotsial tizimning asosiy elementi inson bo‘lib, u doimiy ravishda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy, huquqiy va boshqa munosabatlarda faoliyat ko‘rsatadi. Bu munosabat va aloqalar barqaror bo‘lib, tarixiy taraqqiyot jarayonlarida yangilanib boradi va avloddan-avlodga o‘tadi.

Sotsiologiya fani sotsial hodisa va jarayonlarni o‘rganishda tarixiylik prinsipiiga asoslanadi. Bunda: *birinchidan*, barcha sotsial hodisa va jarayonlarga muayyan ichki tuzilishga ega bo‘lgan tizim sifatida qaraladi; *ikkinchidan*, ularning ishlash va rivojlanish jarayonlari tadqiq etiladi; *uchinchidan*, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o‘tish qonuniyatları, undagi o‘zgarishlar o‘rganiladi. Qayd qilish lozimki, jamiyatning murakkabligi sotsial taraqqiyotning har doimo oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga tez o‘sib boruvchi sotsial organizm ekanligidadir. Dastlab 100 yoki 1000 kishidan iborat bo‘lgan urug‘ va qabilalarni hozirgi davrda millionlab kishilarni o‘zida qamrab olgan elat va millatlar bilan solishtirib bo‘lmaydi?!. Ular orasidagi farq yer bilan osmoncha?! Demak, jamiyat o‘za’zolarining sotsial aloqalari va o‘zaro ta’sirlari hamda munosabatlari asosida tashkil topadi va rivojlanib boradi.

*Sotsial aloqa* – ma’lum vaqt ichida biron maqsadni amalga oshirish uchun muayyan shaxsning hamkorlikdagi faoliyatini belgilab beruvchi dalillar yig‘indisidir. Sotsial aloqalar kishilarning xohish-irodasiga bog‘liq holda emas, balki obyektiv holda hamda o‘z moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish yo‘lida ijtimoiylashuvi asosida yuzaga keladi. Sotsial aloqalar sotsial birlikni tashkil qiluvchi kishilar harakatining mazmuni va xususiyatidan kelib chiqadi.

*Sotsial o‘zaro ta’sir* – kishilar harakati va ularning bir-biriga bo‘lgan ta’sirining amalga oshish jarayonidir. Sotsial o‘zaro ta’sir mexanizmi yaxlit jamiyat yoki ayrim kishilar guruhining o‘zgarishi va harakatining amalga oshishini o‘z ichiga oladi. Sotsial o‘zaro ta’sir yangi sotsial munosabatlarga olib keladi.

*Sotsial munosabatlar* – kishilar va sotsial guruhlar o‘rtasidagi nisbatan barqaror va mustaqil aloqalarni tashkil qiladi.

*Jamiyatni oddiy individlar yig‘indisi va ularning aloqalari hamda o‘zaro ta’sir va munosabatlari tarzida qarash mumkinmi?* Jamiyatni tizim sifatida tahlil qiluvchi olimlar bu savolga «yo‘q» deb javob beradilar. Ularning nuqtai nazarida jamiyat bir butunni tashkil qiluvchi tizim! Demak, individual harakatlar, aloqalar, munosabatlar jamiyatning yangi sifat darajasini, ya’ni murakkab tizimni tashkil qiladi. Darhaqiqat, jamiyat bu individlarga nisbatan birlamchi munosabatlarda bo‘lgan mustaqil substansiyadir. Har bir individ tug‘ilganidan boshlab, boshqa individlar bilan munosabatda bo‘ladi, sotsiallashuv jarayonida o‘z o‘rnini egallab boradi.

Yaxlit tizim ko‘plab aloqalar, o‘zaro ta’sirlar va munosabatlar natijasida yuzaga keladi. Ayniqsa, koordinatsion (muvofiglashgan) va subordinatsion (kichiklarning kattalarga bo‘ysunishiga asoslangan) elementlardan iborat aloqalar alohida xususiyatga ega bo‘ladi. *Koordinatsion aloqa* – yaxlit tizimni saqlab turadigan, o‘zaro aloqada bo‘lgan tarkibiy elementlarning bir-biriga mosligi. *Subordinatsion aloqa* – yaxlit tizimda bir xil ahamiyatga ega bo‘lmagan elementlarning bir-biriga bo‘ysunishi.

Sotsiologiyada jamiyatga bo‘lgan tizimli yondashuv – deterministik (sababiy bog‘langan) va funksionalistik (funksiyali) jihatlar bilan to‘ldiriladi. Deterministik yondashuv K.Marks fikriga ko‘ra, jamiyat – iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy omillardan tashkil topgan yaxlit tizimdir. Har bir tizim o‘z holicha mavjud bo‘la olmaydi. U boshqa tizimlar bilan sabab va oqibat asosida bog‘lanadi. Barcha tizimlar bir-biri bilan pog‘onali tarzda tuzilgan. Ular subordinatsiya asosida munosabatda bo‘ladi va bir-biriga bo‘ysunadi hamda to‘ldirib boradi.

Iqtisodiy tizim boshqa sotsial tizimlarning strategik rivojlanishini belgilab beradi. Albatta, rivojlanish jarayonlarida boshqa tizimlarning ham aks-ta’siri qayd etiladi, ya’ni tizimlar o‘zaro dialektik munosabatda bo‘ladi. Natijada jamiyat tirik organizm sifatida doimo harakatda va rivojlanishdadir. Bunda ishlab chiqarish usuli yetakchi rol o‘ynaydi.

Sotsial, ijtimoiy va mafkuraviy tizimlar iqtisodiy tizimga aks-ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘zaro ta’sirlar sotsial tizimlarda dialektik xususiyatga egadir. Shuning uchun ham «ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari», «bazis va ustqurma», «ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong» kabi tushunchalarning biri ikkinchisiga aks-ta’sir ko‘rsatib, o‘zaro dialektik aloqadorlikni tashkil etadi.

Sotsiologiyada «sotsial tizim» va «sotsial tuzilish» bir-biriga yaqin tushunchalardir. Sotsial tizim – tashqi sharoitlarning ta’siri natijasida

o‘zining tuzilishini o‘zgartiruvchi, bir butunni tashkil etuvchi sifat elementlarining yig‘indisidan tashkil topgan sotsial obyektdir. Sotsial tuzilish (lot. «structura» – «tuzilish», «joylashish», «tartib») – sotsial tizimning bir butunligini ta’minlaydigan, har qanday ichki va tashqi o‘zgarishlarda o‘zining xususiyatlarini saqlab qoladigan mustahkam o‘zaro bog‘langan elementlar yig‘indisidir. Sotsial tizim tuzilishini uning tarkibiy qismlari bilan aynan bir xil deb qarash noto‘g‘ridir. Sotsial tizimning tarkibiy qismlari uning tuzilishiga nisbatan kengdir. Har qanday tarkibiy qism sotsial tizimning tuzilishini tashkil qilavermaydi, faqat bir-biri bilan mustahkam bog‘langan, har qanday ichki va tashqi o‘zgarishlarda o‘zining belgi va xususiyatlarini saqlab qoladigan elementlar uning tuzilishini tashkil qiladi. Agar sotsial tizimning tuzilishi o‘zgaradigan bo‘lsa, mavjud sotsial tizim avvalgi holatida o‘z faoliyatini davom ettira olmaydi, uning butun tarkibida o‘zgarish sodir bo‘ladi.

Har qanday sotsial tizimning mustahkamligi uning tuzilishidagi barcha elementlarning yaxlitligi va o‘zaro bog‘liqligidan tashkil topadi. Sotsial tuzilish jamiyatning ishlab chiqarish usuliga bo‘lgan munosabatlari, sotsial holatlari bilan farq qiluvchi alohida qatlam va guruhlardir. Sotsial tuzilish o‘z tarkibidagi elementlarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy tizimlardagi o‘rnini belgilab beradigan sotsial munosabatlarning xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Sotsial tuzilishlarning har biri o‘zidan avvalgi taraqqiyot darajasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shunday sotsial tuzilishlar ham borki, ularda sotsial tizimning asosiy elementi sifatida ma’lum kishilar guruhi hal qiluvchi rolni bajaradi. Shunday qilib, jamiyat eng umumiylar murakkab sotsial tizimdir. Uning sotsial tuzilishini quyidagi elementlar tashkil qiladi:

1. Jamiatning sotsial-sinfiy tuzilishi har doim tizimdagi boshqa munosabatlarga nisbatan asosiy belgilovchi rolni bajargan va shunday bo‘lib qoladi. Hozirgi paytda O‘zbekistonda mulkdorlar sinfini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bundan dalolat beradi.
2. Sotsial-hududiy tuzilish aholining mintaqaviy, hududiy joylashuvini o‘z ichiga oladi. Bunda shahar bilan qishloq o‘rtasidagi tafovut asosiy bo‘g‘in hisoblanadi.
3. Sotsial-kasbiy tuzilish kishilar kasbi (professional) mehnatining har xilligiga qarab belgilanadi.
4. Sotsial-demografik tuzilish kishilarning sotsial ahvoli, yoshi, jinsi va boshqa farqlarini o‘z ichiga oladi.
5. Sotsial-etnik tuzilishi milliy-etnik tafovutlar hamda sotsial tengsizlik bilan bog‘liq munosabatlarni anglatadi.

Jamiyatning tuzilishidagi bu elementlar, ya’ni biri ikkinchisini taqozo etib, dialektik aloqada bo‘ladi. Bir tuzilishdagi o‘zgarishlar boshqa tuzilishning o‘zgarishiga olib keladi.

Sotsial tizim va uning tuzilishi – bu qotib qolgan yoki kishilar o‘rtasidagi oldindan belgilab qo‘yilgan munosabatlar yig‘indisidan iborat bo‘lmay, tashqi sharoit va qonuniyatlar natijasida o‘zining tuzilishini o‘zgartirib boradi. Yaqin o‘tmishdagi sotsial-iqtisodiy formatsiyalarni o‘zining tuzilishiga ega sotsial tizim sifatida olib qaraydigan bo‘lsak, sobiq sovet tuzumining yemirilishi va uning o‘rnida 15 ta mustaqil davlatning vujudga kelishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston davlat mustaqilligini e’lon qilib, buyruqbozlikka asoslangan totalitar tuzumdan voz kechildi, ya’ni demokratik huquqiy davlat qurish yo‘lini tanladi. Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy, huquqiy va boshqa sohalarida keng qamrovli demokratik islohotlar amalga oshirildi va ravnaq topmoqda. Hozirgi davrda mustahkam va barqaror sotsial tizim shakllandi. Umuman sotsial tizimning tuzilishini jamiyatning huquqiy tizimisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Qisqa vaqt mobaynida, o‘zbek milliy davlati o‘zining huquqiy tizimini shakllantirish jarayonida tarixiy, olamshumul o‘zgarishlarni amalga oshirmoqda. Birinchi Prezidentimiz rahnamoligida O‘zbekiston Respublikasining umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan hamda erkin demokratik kelajagi aniq belgilangan Konstitutsiyamiz qabul qilindi. Baxt qomusimiz suveren davlatimizning qonunchilik asosini shakllantirishning asosiy huquqiy poydevori, mustaqil davlatimizning tamal toshi bo‘ldi.

Huquqiy islohotlar borasidagi ulkan va aniq maqsadga qaratilgan sa’yararakatlar natijasida sud tizimi mustaqil va boshqa tarmoqlarga bog‘liq bo‘limgan hokimiyat sifatida qaror topdi. Jamiyat demokratik rivojlanishining strategik maqsadlari va qoidalariga muvofiq huquqni muhofaza qilish organlarining yangilangan tizimi barpo etildi.

Shunday qilib sotsial tizimning funksional va rivojlanish qonuniyati hamda tarkibiy qismlarining o‘ziga xos tamoyillari va o‘zaro munosabatlarini ilmiy jihatdan o‘rganib, to‘g‘ri boshqarish muhim ahamiyatga egadir. Bunda sotsiologik asosda tahlil qilinmagan va oldi olinmagan nuqsonlar jamiyat taraqqiyotida salbiy asoratlar qoldiradi.

Inson hayotini jamiyatdan ajralgan holda tasavvur etish mushkul. Insonning guruh, birlashma, tashkilotlarda birgalikda yashashi va hamkorlik qilishi hayotining ajralmas jihatidir. Shu bois insonning jamiyatda qabul qilingan normalardan og‘ishi holatlarida, jinoyat sodir etganda, ular jamiyatdan ajratilib, maxsus qamoqxonalarda ushlab turiladi. Biroq bundan

ham qat’iy jazo chorasi insonni aloqadan umuman mahrum qilishdir! Buyuk sotsiolog Entoni Giddens ta’kidlaganidek, «insonning yakka o‘zini qamab qo‘yish, hatto boshqa ba’zi qulayliklarga ruxsat etilsa ham ko‘pchilik uchun chidab bo‘lmas uqubatdir»<sup>1</sup>.

Farzand tug‘ilganidan boshlab ma’lum guruhlarda: oila, bog‘cha, maktab, litsey, kolledj, oliy o‘quv yurtlari va mehnat jamoalarida o‘z faoliyatini olib boradi. Ma’lum guruh yoki tashkilot inson hayotini tartibga soladi, tarbiyalaydi va boshqaradi. Jamiyatning sotsial tizimi tarkibiga kiruvchi sotsial guruh va tashkilotlar xilma-xil bo‘lib, ular alohida belgi va xususiyatlarga egadir.

Bir sotsial tizimning elementlari o‘zining sifati va belgilari bilan boshqa tizimga mos kelmasligi mumkin. Ikki va undan ortiq tizim umumiyl integral belgi va xususiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Har xil sotsial tizimlarning bir xil integral belgi va sifatlari ular turiga asos bo‘la oladi. Ulardan har xil institutlar, tashkilotlar va boshqa sotsial guruhlar ajralib chiqishi mumkin. Konstitutsiyamizning 56-moddasida «*O‘zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi*»<sup>2</sup>, deb belgilab qo‘yilgan.

XVIII asr ingliz faylasufi va sotsiologi T. Gobbs guruhlarga quyidagi-cha ta’rif bergen edi. «Guruh – kishilarning o‘z umumiyl xatti-harakat va manfaatlari asosida uyushgan muayyan birligidir». Sotsiologiya va psixologiya fanlariga oid adabiyotlarda sotsial guruhlarga quyidagicha ta’rif beriladi.

*Sotsial guruh* – kishilik jamiyatining ma’lum tarixiy rivojlanish sharoitida o‘z axloq normalari va umumiyl manfaatlari asosida uyushgan barqaror birligidir. Guruhni tashkil qiluvchi individllar o‘zaro hamda jamiyatga nisbatan munosabatlarga qarab, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladilar. Shu xususiyatlar tufayli guruhlar bir-biridan farqlanadi. Sotsial guruhlarni jamiyat hayotida tutgan o‘rniga qarab *katta*, *o‘rta* va *kichik* guruhlar kabi uch turkumga ajratish mumkin. Bular:

*katta sotsial guruhlar* ma’lum belgilari asosida bir butun jamiyat miqyosida umumiylikka ega kishilar birligidir. Bularga sinflar, sotsial qatlamlar, etnik jihatdan umumiyl elatlar, millatlar, yoshlari jihatidan umumiyl bo‘lgan yoshlar, qariyalar va boshqalar kiradi;

---

<sup>1</sup> Энтони Гидденс. Социология. – Т., 2002. – Б. 313.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2014. – Б. 19.

*o‘rta sotsial guruhlar* jamiyatning ma’lum bir sohalarida umumiyligka ega kishilar birligidir. Bularga biror-bir jihatdan umumiyligka kishilar guruhi – shahar, tuman, qishloq aholisi va boshqalar kiradi;

*kichik sotsial guruhlar* jamiyatning ayrim yoki ba’zi tomonlari doirasida mavjud kishilar birligidir. Bunga O‘zbekiston Respublikasi IIV Oliy harbiy ta’lim muassasalaridagi kurslar, sohalar bo‘yicha guruhlar, do‘stona munosabatlar asosida birlashgan ulfatlar va boshqalarni kiritish mumkin.

Sotsial guruhlar katta yoki kichikligidan qat’i nazar o‘zining ichki va tashqi munosabatlaridan tashkil topib, ma’lum tuzilishga ega bo‘ladi. Kichik sotsial guruhlar o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalariga qarab *rasmiy* va *norasmiy* guruhlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. *Rasmiy guruh* o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalari, qoida va talablariga ega holda harakat qiladi. *Norasmiy guruh* esa mayl va xohishlarining umumiyligi asosida harakat qiladi. Har qanday rasmiy guruh asosida norasmiy guruh vujudga kelishi mumkin.

Kishilarning mehnat bilan bog‘liq sotsial faoliyati sotsial guruhlarning asosiy belgisi va omili hisoblanadi. Mana shu belgi va omillar asosida kishilarning muqarrar birligi vujudga keladi. Sotsial guruhlar kishilarning mehnati va ularning sotsial mehnatda qanchalik ishtirok etishiga qarab tasniflanadi.

Kishilar mehnat faoliyatining muayyan shakllaridan *birinchisi* integratsiyalashish omilidir, *ikkinchisi*, ijtimoiy-siyosiy faoliyat hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy faoliyat natijasida sotsial rivojlanishga doir vazifalarni hal qilish uchun kishilarning barqaror birligi vujudga keladi. Bundan tashqari sotsial faoliyatning boshqa omillari ham sotsial guruhlarning vujudga kelishiga asos bo‘lishi mumkin.

Jamiyatda sodir bo‘ladigan ishsizlik, oziq-ovqat va sanoat mahsulotlarining tanqisligi, qimmatchilik, yetishmovchilik, ta’lim-tarbiya ishlarning sustligi, huquqiy ong va huquqiy madaniyatning past darajada bo‘lishi kabi ko‘pgina sabablar har xil jinoiy guruhlarning vujudga kelishiga asos bo‘ladi. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday ta’kidlagan edi: «*Jamiyatda alohida guruhning yoki alohida hududlarning manfaatlari umumiyligini manfaatlardan ustun turadigan munosabatlar tizimi mavjud bo‘lishi noto‘g‘ri va xavflidir. Bu hol jamiyatda ijtimoiy keskinlikning o‘sishiga olib boradi. Davlatga, uning barqarorligi, yaxlitligiga, taraqqiy etish qobiliyatiga tahdid tug‘diradi*»<sup>1</sup>. Shuning uchun har bir IIO xodimi jamiyat rivojlanishiga tahdid soladigan har qanday

<sup>1</sup> Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Т., 1998. – Б. 102–103.

norasmiy guruhlarning vujudga kelishining oldini olishi va ularga qarshi kurashishi kerak. Bu, umuman IIV xodimlari va oliy harbiy ta’lim muassasalari tinglovchilari va kursantlarining ham nihoyatda hushyor bo‘lib, mamlakat xavfsizligi va istiqbolini saqlash uchun har qanday guruhlarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi ayni muddaodir.

#### **4-§. Sotsial institutlar hamda ularning funksiyalari**

Sotsial institut – bu, *birinchisi* ijtimoiy nizom va qoidalar to‘plami, *ikkinchisi* mahkama va jamoat, muassasa ma’nolarini bildiradi. Sotsial institut yoki institutsional sotsiologiya umumsotsiologiyaning maxsus yo‘nalishidir. Jamiyat tuzumining o‘zgarishi hamda jamiyat rivojlanishiga ko‘ra, ba’zi institutlar o‘z o‘rnini boshqasiga bo‘shatib beradi yoki yangilari paydo bo‘ladi. Masalan, mustaqillikdan keyin amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, fuqarolik jamiyati instituti va shu kabi boshqa sotsial institutlar vujudga keldi. Sotsial institutlarning shakllanishi, institutsiyalashish jarayoni bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi aniq belgilangan qonun va qoidalar asosida tartibga solinish jihatlariga aytildi. Masalan, fanning institutsiyalashish jarayoni – bu fanning yakka shaxs faoliyatidan o‘ziga bilimlar tizimini qamrab olgan ilmiy daraja va tadqiqot institutlari, institut va universitet hamda akademiya va boshqalarni tartiblashtirilgan munosabatlar tizimiga aylanishidir.

Institutsional sotsiologiya – ijtimoiy hayotni tashkil etish, boshqarish va tartibga solishning barqaror shakllarini o‘rganuvchi sohadir. Ijtimoiy hayotning institutlashuvi insonni insonlar bilan bog‘lovchi muhim vositadir. Sotsial institutlarni aniq sotsial tashkilot yoki guruhlardan farqlash lozim. Bir qarashda sotsial institut muayyan vazifani bajaruvchi odamlar, muassasalar, idoralar majmui sifatida gavdalanadi. Mazmuniga ko‘ra esa sotsial institut va shaxslarning aniq vaziyatlarga amal qiladigan maqsadga muvofiq, ya’ni rasmiy va norasmiy hamda barqaror va standartlashgan tamoyil, normalar, birlashmalarni bildiradi. Sotsial institut, qisqacha ta’rifiga ko‘ra, odamlarning sotsial jihatdan tashkil qilingan va boshqariladigan faoliyatlarni anglatadi. Sotsial institutlar kishilar xatti-harakatining nisbatan barqaror shakl va namunalarini, avloddan-avlodga o‘tuvchi an’analari hamda odamlar nasl-nasabining qayta takror hosil qilinishini ham ta’minlaydi. Jamiatning sotsial tuzilishiga kiruvchi har bir sotsial institut muayyan ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan vazifalarni ado etish uchun tashkil topadi hamda faoliyat maqsadi va unga erishishni ta’minlovchi aniq funksiyalar, ya’ni institutga xos bo‘lgan sotsial pozitsiya va rollar, shuningdek maq-

sadli xatti-harakatni rag‘batlantiruvi va deviant (og‘ma) xatti-harakatlarga qarshi qaratilgan tazyiqlar (sanksiyalar) tizimi bilan tavsiflanadi.

Jamiyatda kishilar o‘rtasidagi sotsial munosabatlar, asosan muayyan sotsial institutlar orqali quriladi hamda maqsad va vazifalarini mana shu sotsial institutlar orqali amalga oshiradi. Sotsial institut – kishilararo hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning tarixan tarkib topgan barqaror shaklidir. Umuman «institut» tushunchasi sotsiologiyaga yuridik fanlardan kirib kelgan bo‘lib, dastavval u kishilarning sotsial-huquqiy munosabatlarini tartibga soladigan va boshqaradigan huquqiy normalar majmui bilan bog‘liq muassasa (oila va nikoh, mulk, meros)larga nisbatan ishlatilgan. Bu tushunchani sotsiologiya fanining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan italiyalik faylasuf va tarixchi Janbattista Viko (1668–1744-y.) qo‘llagan. U fuqarolik institutlari to‘g‘risida bir nechta asarlar yaratdi. Sotsiologiyaga oid adabiyotlarda «institut» tushunchasi sotsiologiyaning asoschilari Ogyust Kont va Gerbert Spenserlar tomonidan ham qo‘llanila boshlagan edi.

O. Kontning qarashlarida jamiyat sotsial organizm sifatida e’tirof etiladi va uning asosiy a’zolari – oila, din, huquq, davlat, kooperatsiyalar ekanligini qayd qilinadi. Undan keyin ijtimoiy hodisalarga institutsional yondashuvni G. Spenser o‘z asarlarida davom ettiradi. O‘zining «Birinchi asoslar» (1860–1863-y.) kitobida davlatning sotsial institut sifatida vujudga kelishini tahlil qilib, «davlatda tirik tanada bo‘lganidek, boshqaradigan tizimning vujudga kelishi muqarrar. Shakllanish boshqarishning quyi markazini tartibga solish, boshqarish va bo‘ysundirish uchun mustahkam tarzda yuqorigi markaz yuzaga keladi»<sup>1</sup>, deb ta’kidlagan edi. Shuningdek, u sotsial institutlarning quyidagi uch turini alohida ko‘rsatadi:

*1) avlodlarni davom ettiruvchi institut (oila va nikoh); 2) taqsimlovchi institut (iqtisodiy ishlab chiqarish sohasi); 3) boshqaruvchi institutlar (din, siyosiy tashkilotlar).* U o‘zining bu qarashlariga ko‘ra, uch tur barcha sotsial institutlarga xos ekanligi, sotsial hodisa va jarayonlarning barqarorligini ta’minalash hamda ular o‘rtasidagi tenglikni saqlashda boshqaruvchi institutlarning o‘rni muhimligini alohida qayd qiladi. Uning asarlarida sotsial institutga alohida ta’rif berilmasa ham jamiyat hayotini o‘ziga xos sotsial institut sifatida talqin etadi va keyinchalik sotsial institut nomiga aylanadi.

Keyinchalik sotsial institut masalasi E. Dyurkgeym va amerikalik sotsiolog va iqtisodchi T. Veblen tomonidan ham keng talqin etildi. Ular o‘z asarlarida sotsial institutlar tarixiy taraqqiyotning mahsuli ekanligi, oila, davlat, fuqarolik jamiyatni kabi ijtimoiy institutlar inson mavjudligining sotsial shakllarini tashkil qilishiga to‘xtaladilar.

---

<sup>1</sup> Spencer H. First principles. – N.Y., 1898. – S. 46.

Har qanday sotsial institut o‘zining maqsadiga muvofiq keladigan faoliyat turlarini qo‘llab-quvvatlaydi hamda standart talablaridan tashqari chiqadigan individning xulq-atvorini nazorat qiladi va tartibga soladi. Sotsial institut – tarixan tarkib topgan, kishilarning ma’lum maqsadlar sari birgalikdagi faoliyatlari asosida yaratilgan, bir butun jamiyat yoki uning alohida qismlarining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy hamda boshqa ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqqan kishilar birligidir. Demak, sotsial institutlar o‘z qoidalari orqali kishilar xatti-harakatlariga ta’sir etish imkoniyatlariga ega ekanliklari bilan xarakterlanadi.

Sotsial institutning belgilariga quyidagilar kiradi:

- *jamiyatning u yoki bu ehtiyojlarini qondirish maqsadidagi birlashgan sotsial guruh va muassasalar yig‘indisi;*
- *belgilarni, qadriyatlar, normalarning madaniy namunalari tizimi;*
- *bu norma va namunalarga xulqning mos kelishi;*
- *zaruriy masalalarni hal qilish uchun moddiy mablag‘lar.*

IIV oliy harbiy ta’lim muassasalari sotsial institut sifatida quyidagi belgilarni o‘zida ifodalaydi:

- *tinglovchilar, kursantlar, professor-o‘qituvchilar, ta’lim muassasasi rahbariyati va boshqalar;*
- *tinglovchilar va kursantlar xatti-harakat normalarining, oliy harbiy ta’lim tizimiga munosabati;*
- *professor-o‘qituvchilar hamda tinglovchilar va kursantlar o‘rtasida amaliy jihatdan tarkib topgan munosabatlar;*
- *bino, auditoriya, o‘quv jarayonlarining izchil va tizimli tarzdagi davomiyligi;*
- *davlat va jamiyat tomonidan oliy harbiy ta’lim mutaxassislari ehtiyojlarining qondirilishi hisobga olinadi.*

Sotsial institut o‘zining aniq maqsadiga ega bo‘lishi va a’zolariga xizmat qilishi, standart talablariga rioya etishi, individning guruh, jamoada qaror topayotgan me’yorlar, tartib-qoidalar, axloqiy, siyosiy, huquqiy va tashkiliy talablarni o‘z faoliyatining mezoni sifatida qabul qilishi kerak. Shuningdek, sotsial institut sotsiologiyada keng ma’noda talqin etilib, institut a’zolarining aniq belgilangan xulq-atvor qoidalari tuzilishini ifoda qiladi.

Sotsial institutlar ko‘p hollarda tashkilot deb yuritilib, ularning aksariyati tashkilotlar tizimini tashkil qiladi. Shunga qaramasdan ularning ba’zilari tashkilot yoki tashkilotlar tizimi bo‘laolmaydi. Shunday sotsial institutlar borki, kishilarning sotsial amaliyotida har doim takrorlanib turadigan, ularsiz jamiyat borlig‘ini tasavvur etib bo‘lmaydigan, ayni paytda sotsial munosabatlarni qayta ishlab chiqarishni ta’minlaydigan mexanizm vazifasini bajaradi. Bunga misol tariqasida oila va nikoh institutini keltiri-

shimiz mumkin. Bu institutni hech qachon tashkilot nomi bilan yuritib bo‘lmaydi. E. Dyurkgeym sotsial institatlarni majoziy ma’noda «*ijtimoiy munosabatlarni qayta ishlab chiqarish fabrikasi*» deb atagan edi. Mazkur institutlar avlodlar davomiyligini hamda jamiyat barqaror rivojlanishining asosini tashkil qiladi. Sotsial institutlar yig‘indisi butun ijtimoiy hayot harakatining negizini yaratadigan «institutsional o‘yma qolip»ni tashkil qiladi<sup>1</sup>.

Jamiyat barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladigan sotsial institutlar tizim sifatida o‘z tuzilishiga ega. Har qanday sotsial institut, avvalo jamiyatning ehtiyoj va manfaatlarini qondirish hamda sotsial munosabatlarni takror ishlab chiqarishni ta’minlash mexanizmining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bu mexanizm ijtimoiy hayot yoki alohida sohalarning jamiyat farovonligi uchun xizmat qilishini tartibga solish hamda o‘z qadr-qimmatiga ega sotsial-huquqiy normativ majmua tarzida namoyon bo‘lishini o‘zida ifoda etadi.

Har qanday sotsial institut tuzilishini quyidagilar: shaxs, sotsial guruh va jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida tuzilgan sotsial guruh va sotsial tashkilotlar hamda ularni ta’minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy qadriyatlar, xatti-harakatlar va normalar yig‘indisi, iqtisodiy sohalardagi munosabatlarni tartibga soladigan savdo markasi, bayroq, tovar nomi va boshqa belgilar tizimi, uning mafkuraviy asoslari hamda sotsial resurslar tashkil qiladi.

**Sotsial institut funksiyalari.** Har qanday sotsial institut o‘zining ma’lum sotsial amaliyot va munosabatlarini qayta ishlab chiqadigan asosini belgilovchi funksiyaga egadir. Agar u armiya bo‘lsa, uning asosiy funksiyasi mamlakatning harbiy-siyosiy xavfsizligini ta’minlashdir. Undan tashqari sotsial institutga taalluqli bo‘lmagan funksiyalarini ham bajaradi. Masalan, ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelganda bartaraf etish va bostirish hamda zaruratga ko‘ra qoloq mamlakatlarga qardoshlik yordamini ko‘rsatish va boshqalar shular jumlasidandir. Oilaning asosiy funksiyasi avlodlar bar-davomligini ta’minlash hisoblanadi. Undan tashqari oilaga taalluqli, ya’ni farzandlarni tarbiyalash, bilim berish, mustaqil hayotga tayyorlash kabi funksiyalarini ham bajaradi.

Sotsial institutlar tomonidan qondiriladigan ehtiyojlar xilma-xildir. Masalan, jamiyat xavfsizligini ta’minlashga bo‘lgan ehtiyojni mudofaa instituti, ma’naviy ehtiyojni ma’naviy markazlar hamda olamni bilishga bo‘lgan ehtiyojlarni esa ilm-fan ta’minlaydi. Shuningdek, alohida bitta sotsial institut bir nechta ehtiyojlarni, chunonchi, din sotsial institut sifatida

---

<sup>1</sup> Институциональных матриц: в поисках новой парадигмы. // Журнал социологии и социальной антропологии. – 2001. – № 1.

diniy, axloqiy, madaniy ehtiyojlarni va aksincha, ma'lum bir ehtiyoj turli sotsial institutlar tomonidan, masalan, ma'naviy ehtiyoj fan, san'at, din va boshqalar tomonidan qondirilishi mumkin. Sotsial institatlarning ko'p xilligidan ularning jamiyatdagi funksiyalari ham turli tarzda namoyon bo'laadi. Sotsiologiyada sotsial institatlarning bir nechta tasniflanishi mavjud bo'lib, shulardan biri «institutsional maktab» namoyandalari S. Lipset, D. Landberg va boshqalar uning to'rtta funksiyasini ajratib ko'rsatishadi. Bular:

*1. Jamiyatning avlodlar bardavomiyligi funksiyasi.* Bu jamiyatning asosiy institutini tashkil qiladi. Bu funksiyani oila instituti, davlat va jamiyat hamda boshqalar bajaradi.

*2. Ijtimoiylashtirish funksiyasi.* Jamiyatda o'rnatilgan normalar va faoliyat yo'nalishlarini individlar tomonidan avloddan-avlodlarga in'om qiladi. Bu funksiyani oila instituti, ta'lim, din va boshqalar bajaradi.

*3. Ishlab chiqarish va taqsimlash funksiyasi.* Ijtimoiy-iqtisodiy institutlar tomonidan ta'minlanadi. Ijro qiluvchi organlar ularni amalga oshiradi va nazorat qiladi.

*4. Boshqarish va nazorat qilish funksiyasi.* Bu funksiya axloqiy va huquqiy normalar hamda qoidalar tizimi orqali amalga oshiriladi. Sotsial institutlar individ xatti-harakatlarini sanksiyalar tizimi orqali boshqaradi<sup>1</sup>.

Har bir sotsial institut o'ziga xos funksiyalar bilan birga barcha sotsial institatlarga xos umumiylar funksiyalarni ham bajaradi. Barcha sotsial institatlarga xos funksiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

**Ijtimoiy munosabatlarni qayta ishlab chiqarish va mustahkamlash funksiyasi.** Har bir sotsial institut o'z a'zolarining xatti-harakatlarini belgilab beruvchi va standart qoliplarga solingan hamda qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan o'zining axloq normalari va qoidalariga egadir. Ijtimoiy nazorat instituti sotsial institutning har bir a'zosi faoliyati qonuniyligini ta'minlash hamda jamiyat tuzilishining barqarorligini saqlab turadi. Masalan, Oila kodeksi, oila institutini jamiyatning kichik guruhi sifatida a'zolarining har taraflama kamol topishining qonuniy asoslarini belgilab beradi. Ijtimoiy nazorat oilalar buzilishining oldini oladi, barqaror rivojlanishini ta'minlab beradi.

**Tartibga solish funksiyasi.** Jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni jamiyatda ishlab chiqilgan axloqiy va huquqiy normalar asosida tartibga solib turadi. Insonning butun hayoti har xil sotsial institatlarda ishtirok etishi bilan o'tadi va har bir sotsial institut inson faoliyatini o'zida ishlab chiqilgan va qabul qilingan normalar asosida tartibga solib turadi.

---

<sup>1</sup> Радугин А. А., Радугин К. А. Социология. – М., 1995. – С. 124.

Albatta, inson sotsial institut yordamida o‘z imkoniyatlarini namoyon etadi va sotsial rollarini bajaradi.

***Uyg‘unlashtiruvi funksiya.*** Bu funksiya institut a’zolarining bir-birlariga bo‘lgan o‘zaro munosabatlari hamda mas’uliyatini ta’minlaydi. Bu jarayon jamiyatda qabul qilingan institutlashgan normalar, qadriyatlar, qoidalar tizimi va sanksiyalar yordamida amalga oshirilib boriladi. U sotsial institut tarkibiga kiruvchi barcha elementlarning bir butunligi va barqaror yuksalishini ta’minlashga yo‘naltiradi.

***O‘zlashtirish funksiyasi.*** Jamiyat avlodlar o‘rtasidagi sotsial tajribani almashmasdan rivojiana olmaydi. Har bir sotsial institut normal tarzda faoliyat olib borish uchun institut qoidalarini yaxshi va faol o‘zlashtirgan yangi kishilarning kelishiga muhtoj bo‘ladi. Bu jarayon institutning sotsial chegaralarining o‘zgarish yo‘llari va avlodlar almashinishi bilan amalga oshadi. Albatta, har bir sotsial institut o‘zining qadriyatlari, normalari va rollariga ijtimoiylashuvining mexanizmlarini taqdim etadi.

***Aloqa qilish funksiyasi.*** Sotsial institut tomonidan ishlab chiqilgan har qanday axborot yoki ma’lumot institut doirasida sotsial normalarni bajarish, boshqarish va nazorat qilish hamda institutlararo munosabatlarni ta’minlash maqsadida oshkora e’lon qilinishi lozim. Bu funksiyaning o‘ziga xos xususiyati – rasmiy aloqadir. Bu ommaviy axborot vositalari institutining asosiy funksiyasidir. Sotsial institutlarning aloqa qilish imkoniyatlari har xil bo‘lib, ba’zilariga ko‘proq, ayrimlariga kamroq aloqa qilish xosdir. Ilmiy muassasalar esa axborotni faol idrok etadi.

Shuningdek, sotsial institutlar tomonidan quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish belgilanadi:

- *jamiyat a’zolarining bardavomligini ta’minlash va tiklash;*
- *individlar, sotsial birlik va guruhlarning har xil ehtiyoj va manfaatlarini qondirish imkoniyatlarini ta’minlash;*
- *sotsial munosabatlar doirasida individlarning ijobiy harakatlarini qo’llab-quvvatlaydi, salbiylarini esa inkor etgan holda tartibga solib turadi;*
- *o‘zining ijtimoiy tartibga solish tizimi orqali umumiyl ijtimoiy tartibni belgilab beradi va qo’llab-quvvatlaydi hamda shaxsiy bo‘lmagan ijtimoiy funksiyalarni qayta ishlab chiqishni amalga oshiradi;*
- *individlar harakati va munosabatlari integratsiyasi hamda jamiyatning ichki jipslashishini ta’minlaydi.*

Sotsial institutlarning qayd etilgan asosiy funksiya va vazifalari bir butun holda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Ta’kidlash joizki, borliqda biror-bir narsa yoki hodisa va jarayonlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Jamiyatda aholining bardavomligini ta’minalashga bo‘lgan tabiiy-biologik va sotsial ehtiyojlar oila institutini, xavfsizlik

va tartib-intizomni ta'minlashga bo'lgan ehtiyojlar davlatni, yashash uchun oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojlar ishlab chiqarish institutlarini, yosh avlod-larga bilimlar berish va ijtimoiylashtirishga bo'lgan ehtiyojlar xalq ta'limi sohasidagi institutlarni, ma'naviy masalalarni hal qilishga bo'lgan ehtiyojlar din va bag'rikenglik institutlarini yuzaga keltirdi.

Sotsial institutlarning institutsional xususiyatlari, maqsad va vazifalari, tashkiliy tuzilmasi, jamiyatdagi o'rni, ichki belgilari kabi jihatlariga qarab quyidagi turlarga:

- oila va nikoh instituti;
- sotsial-iqtisodiy institutlar;
- sotsial-siyosiy institutlar;
- ma'naviy hayot sohasidagi sotsial institutlar;
- huquq va huquqiy institutlarga bo'lish mumkin.

Jamiyat o'z ichiga sotsial-iqtisodiy, sotsial-siyosiy, ma'naviy va huquqiy institutlarni qamrab oluvchi murakkab sotsial institutlar tizimini tashkil qiladi. Ularning vazifasi jamiyatning bir butun holda rivojlanishi va faoliyatini tartibga solish hamda boshqarishdan iboratdir.

Oila instituti er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonuniyligini ta'minlaydi, farzandlarning dunyoga kelishi, er-xotin va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi hamda ularning ijtimoiylashuvini ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni boshqaradi.

Sotsial-iqtisodiy institutlar (mulkchilik, ayirboshlash, pul, bank, xo'jalik tashkilotlari) jamiyat hayot faoliyatining moddiy asosini tashkil qiladi. Ular kishilarning sotsial ehtiyojlari va jamiyat hayoti faoliyatida tutgan o'rnini belgilab beradi. Kishilarning iqtisodiy institutlar tuzilishidagi o'rni, ularning jamiyatda joriy qilingan mulkchilik shakliga ega bo'lish munosabatlariga qarab sotsial tizim tuzilishida o'z o'miga ega bo'ladi. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng mulkchilikning xilmayxil shakllari joriy etildi, mulkdorlar sinfini shakllantirish bugungi kunda iqtisodiy sohadagi eng asosiy masalalardan birini tashkil qiladi. Sotsial tizim iqtisodiy jihatdan qancha rivojlangan bo'lsa, uning barcha sohalarida shuncha o'zgarishlar hamda taraqqiyot amalga oshadi.

Davlat sotsial-siyosiy institutlar (hokimiyat, siyosiy partiyalar, harakatlar va boshqalar) orqali sotsial siyosat vositasida, ya'ni jamiyat barcha a'zolaring etnik birliklari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi hamda xalqaro munosabatlarni amalga oshiradi. Sotsial-siyosiy institutlarning vazifasi qonunchilik aktlari asosida insonning siyosiy tizimdagi holati va o'rnini aniqlash hamda davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishiga imkon yaratish, siyosiy ehtiyojlarining amalda ro'yobga chiqarishiga yordam berishdan iboratdir. Hozirgi kunda jamiyatimizning iqtisodiy sohada bo'l-

gani kabi siyosiy sohalarida ham yangi siyosiy institutlar, jumladan Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyat ko'rsatmoqda. Bularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish maqsadida davlatimiz tomonidan «O'zbekiston fuqarolik jamiyatni institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror va boshqa qator hujjatlar qabul qilindi.

Jamiyatning ma'naviy sohasida Respublika ma'naviyat targ'ibot markazi instituti, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi kabi boshqa sotsial institutlar milliy va ma'naviy qadriyatlar, kishilar ongi va madaniyatini shakllantirish hamda rivojlanish va umuminsoniy qadriyatlari, moddiy va ma'naviy madaniyat yutuqlarini o'zlashtirishda maqsadga yo'naltirilgan ishlarni ro'yobga chiqarishda yordam beradi. Chunonchi, Ta'lif to'g'risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi, milliy-madaniy markazlarning faoliyat ko'rsatishi kabilar shular jumlasidandir.

Jamiyatda sud va prokuratura institutlari, yoshlarimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan huquqiy ta'lif muassasalari va boshqa shu kabi huquqiy institutlarning funksional ahamiyati O'zbekistonning huquqiy davlat qurish doktrinasi ta'lifoti bilan belgilanadi. Ushbu doktrinaga ko'ra, huquq, huquqiy madaniyat, qonun ustuvorligi barchaning hayot tarzi hamda sotsial faoliyatining negizi bo'lishi kerak. Uning mohiyatini Birinchi Prezident Islom Karimovning, qonunga rioya etish hamma uchun majburiy, uni buzishga aslo yo'l qo'yib bo'l-maydi, jamiyatda huquqiy madaniyat darajasi bo'lishi zarur, degan fikrlari, avvalo, huquqiy institutlar va ularda xizmat qilayotgan huquq-tartibot xodimlariga taalluqlidir. Demak, huquqiy madaniyatning shakllanishi huquq institutlari xodimlarining o'zлari huquqqa, qonun talablariga nechog'lik bo'ysunishiga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini nechog'lik halol va odil himoya etishiga bog'liqdir.

Sotsial institutlarni amal qilish doirasi va vazifalariga ko'ra quyida-gicha ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Reliatsion (yozma ma'lumotlarga asoslanuvchi) sotsial institutlar. Bu institutlar jins va yoshidan tortib, kasb-mashg'ulot turi hamda qobiliyati mezonlariga asosan tarkibini aniqlaydi.

2. Reguliyativ (idora etish) sotsial institutlar. Bu institutlar shaxsiy maqsadlarning jamiyatdagi normalariga daxlsiz holda amalga oshish chegaralari, ya'ni chegaradan chiqib ketilganda qo'llaniladigan sanksiyalarni (bunga sotsial nazoratning hamma mexanizmlari kiradi) belgilab beradi.

3. Integrativ (uyg‘unlashtiruvchi) sotsial institutlar. Bu institutlar yaxlit tuzumda jamiyat manfaatlarini qondirishda mas’ul bo‘lgan sotsial rollarni ifodalaydi.

4. An’anaviy sotsial institutlar. Bu institutlar urf-odat, marosimlar va qarindosh-urug‘chilik tomonidan qat’iy belgilangan normalar bilan bog‘liqdir.

5. Madaniy sotsial institutlar. Din, san’at, adabiyot, ma’naviyat bilan bog‘liq muassasalar nazarda tutiladi.

Sotsial tizim sohalarida sinfiy va milliy munosabatlar, oilaviy, diniy, sotsial fikrlar hamda inson xatti-harakatlarini sotsial jihatdan tashkil etadigan va boshqarib turadigan maxsus sotsial institutlar ham faoliyat ko‘rsatadi. Darhaqiqat, sotsial institutlar sotsial munosabatlar kabi rasmiy va norasmiyga bo‘linadi.

*Rasmiy sotsial institutlar* – rasmiy nizomiga ega bo‘lgan, faoliyati qonunlar va huquqiy norma hamda me’yorlar asosida boshqariladigan kishilar guruhidir. Rasmiy sotsial institutlarga davlat, sud, armiya, oila, maktab va boshqalarni kiritish mumkin. Uning boshqarish va nazorat qilish funksiyasi qat’iy belgilangan rasmiy qoidalarga ko‘ra salbiy va ijobjiy sanksiyalar asosida amalga oshiriladi. Rasmiy sotsial institutlar jamiyatning mustahkam va barqaror rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Taniqli olim S. Frolov rasmiy sotsial institutlarga shunday baho beradi: «Sotsial institutlar sotsial munosabatlarning mustahkam arkonlari bo‘lsa, rasmiy sotsial institutlar esa jamiyatning mustahkamligini belgilaydigan, ya’ni yetarli darajada mustahkam va baquvvat metalldan yasalgan ustunini tashkil qiladi»<sup>1</sup>.

*Norasmiy sotsial institutlar* faoliyati – bajaradigan vazifalari va ish uslublari rasmiy qonunlar bilan tasdiqlanmagan hamda normativ me’ylarda aniq belgilanmagan bo‘ladi. Shunga qaramasdan norasmiy sotsial institutlar rasmiy sotsial institutlar kabi fuqarolar tashabbusining ijodiy mahsuli sifatida sotsial doirada boshqarish va nazorat qilish funksiyalarini bajaradi. Norasmiy sotsial institutlar bo‘sh vaqt ni bekorga o‘tkazmaslik maqsadida, xalq hashari, shanbalik, to‘ylarda xizmat qilish va boshqalarda o‘zlarining xohish irodasi va manfaatlari umumiyligi asosida birlashgan kishilar guruhidan tashkil topadi. Norasmiy sotsial institutlarda ijtimoiy nazorat jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy fikr, urf-odat, an’analar va norasmiy sanksiyalar yordamida amalga oshiriladi.

Sotsial institutlarning soni yuqorida qayd etilganlar bilan cheklanmaydi. Ular o‘z shakli va namoyon bo‘lishiga qarab ko‘p va xilma-xildir. Yirik sotsial institutlar qo‘yi darajadagi institutlarni o‘z ichiga qamrab

---

<sup>1</sup> Фролов С. С. Социология. – М., 1996. – С. 173–175.

olishi mumkin. Masalan, xalq ta’limi instituti o‘z doirasiga boshlang‘ich, o‘rtá maxsus va kasbiy ta’limni, sud instituti advokatura, prokuratura, sud ishlari, oila instituti onalik, farzandlikka olish va boshqalarni qamrab oladi. Ushbu sotsial institutlarning sotsial tizim sohalaridagi asosiy vazifalari har bir individning jamiyatda o‘ziga xos o‘rinni egallashi, sotsial ehtiyoj va manfaatlarining to‘la qondirilishi hamda jamiyat barqarorligi va individ ijtimoiylashuvini ta’minlash hisoblanadi.

Birinchi Prezident Islom Karimov 2010-yil 12-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» nomli ma’ruzasida istiqbolli taraqqiyotimizning muhim ustuvor yo‘nalishlarini belgilar ekan «Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish» masala-sini kun tartibiga qo‘ygan edi.

Darvoqe, jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi unga mos muayyan sotsial institutning amal qilishini taqozo etadi. Hozirgi zamon sivilizatsiya-siga xos rivojlanayotgan mamlakatimizda sotsial institutlarning shakllanish jarayoni ro‘y bermoqda. Bular:

- *iqtisodiy sohada* – bozor iqtisodiyoti uchun amal qilishga xizmat qiladigan sotsial institutlar;
- *siyosiy sohada* – demokratik hokimiyatning turli bo‘g‘inlari faoliyatini ta’minlovchi hamda jamiyatning barcha jabhalarida yangi jamiyat tarziga xos sotsial institutlar;
- *ma’naviy sohada* – o‘zida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mujassam etgan ma’naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladigan sotsial institutlar;
- *huquqiy sohada* – qonun ustuvorligi hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini har taraflama to‘liq ta’minlashga xizmat qiluvchi sotsial institutlar.

Hozirgi paytda yangilanib borayotgan jamiyatimizga izchil tatbiq qilinayotgan sotsial institutlar an’anaviy sotsial institutlarga mutlaqo qaramaqarshi qo‘yilmasdan, jamiyatimizning o‘tmishi, hozirgi kuni va kelajagi vorisligini ta’minlashga xizmat qiladigan, jamiyatdan begonalashmagan, mamlakatimiz mintaqasiga mos keladigan sotsial institutlar faoliyatiga keng yo‘l ochib bermoqda. Mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarda 8600 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Fuqarolar yig‘inlari va o‘zini-o‘zi boshqarish organlari – mahallalar soni 9969 tani tashkil etadi. Bular qatoriga «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi, «Sog‘lom avlod uchun», «Nuroniy» jamg‘armalari, «Ijod» fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlari

milliy assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o‘tish mumkin. O‘tgan davrda fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 260 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi. Fuqarolik jamiyati institutlari xalqaro tamoyilga ko‘ra «uchinchi sektor» deb nomlanadi (davlat tashkilotlari – «birinchi sektor», biznes tuzilmalari – ikkinchi sektor). Keyingi uch yilda fuqarolik jamiyati institutlari taqdim etgan turli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan 30 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi. Demak, sotsial institutlarning tobora ravnaq topishi demokratik huquqiy davlatni yanada kuchaytirish, ya’ni fuqarolik jamiyatining kuchayishini ta’minlamoqda.

## 5-§. Sotsial tashkilotlar va ularning jamiyat hayotidagi o‘rni

Inson hayoti va faoliyatini muayyan sotsial guruhlар bilan bir qatorda sotsial tashkilotlarsiz tasavvur etish mushkul. Uning hayoti bilan bog‘liq nihoyatda muhim hodisa – tug‘ilish, nikoh yoki o‘lim qayd etilishi kerak?! Buning uchun inson ma’lum tashkilotlarga murojaat qiladi. Shuningdek, inson kundalik turmushida ta’lim, sanitariya, kommunal xizmatlar, atrof-muhitni nazorat qilish va shunga o‘xhash bir qancha davlat tashkilotlari bilan bevosita aloqada bo‘ladi. Entoni Giddens ta’kidlaganidek, «agar hayotimiz davomida telefon yoki xat orqali boshqalar bilan aloqa qilishni xohlasak, o‘yimiz yorug‘ va issiq bo‘lishini istasak, gazeta va jurnallar o‘qib, televizor ko‘rib, radio eshitib ma’lumot olish va hordiq chiqarishni xohlasak, biz doimo tashkilotlarga bog‘liq bo‘lib qolaveramiz»<sup>1</sup>.

Sotsial tashkilotlar sotsial institutlar singari jamiyatning bir butun tizim sifatida barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan sotsial tuzilishining asosiy «hujayra»laridan birini tashkil qiladi. Sotsial tashkilot (lot. «organizo» – tashkil qilmoq) insonlar, guruhlarning mehnat va majburiyatlar taqsimoti hamda boshqaruv tuzilmasi mavjudligi asosida u yoki bu vazifani hal qilish uchun birlashib, u jamiyatning ichki tartib-intizomiga asoslangan muvofiqlashtirilgan faoliyatni olib boruvchi yirik birikmadir.

Hozirgi paytda, sotsial tashkilot masalasiga har xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, u bir nechta ma’nolarda e’tirof etiladi. *Birinchidan*, tashkilot jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ma’lum sotsial obyekt tuzilishini tartibga soluvchi, *ikkinchidan*, kishilar faoliyatini o‘zining aniq belgilangan normalari yordamida boshqarish hamda nazorat qilish bilan shug‘ullanadigan kishilar uyushmasi sifatida talqin etiladi. Falsafiy ensiklopedik

<sup>1</sup> Энтони Гидденс. Социология. – Т., 2002. – Б. 315.

lug‘atda sotsial tashkilot keng va tor ma’noda ifoda qilinadi. «*Keng ma’noda* alohida individ va sotsial guruhlar harakatlarini boshqarish va tartibga solish usuli sifatida qaraladi. *Tor ma’noda* esa oldindan belgilangan va ma’lum maqsadlarga erishish uchun yo‘naltirilgan hamda amalga oshirishda birgalikda harakatni talab qiladigan guruhdir»<sup>1</sup>, deb ta’rif qilinadi.

G‘arb sotsiologiyasida sotsial (ijtimoiy) tashkilotlarni tadqiq qilishda psixologik qonuniyatlariga ko‘proq e’tibor beriladi. Masalan, M.P. Blau va G. Zimmelning sotsiologik nazariyalarida sotsial tashkilotlardagi subyekting xulqi va omilini psixologik asosda tushuntirishga asoslaniladi. Amerikalik sotsiolog J. Xomansning sotsial tashkilotlarni tadqiq qilishdagi sotsiologiya, psixologiya va pozitiv mantiqqa asoslanish zarurligi to‘g‘risidagi fikri hozirgi davrda nazariy jihatdan sotsiologiyani rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. T. Parsonsning tarkibiy funksional tahlili sotsiologik maktabda ham sotsial tashkilotlarni o‘rganish hamda jamiyat hayotidagi ijtimoiy tartib, ya’ni «ijtimoiy muvozanat»ni saqlashda psixologik iqlimni o‘rganish muhim rol o‘ynaydi Okean orti sotsiologi D. Bell universitet va institutlar sotsial tashkilotlarning markaziy o‘rinlarini egallaydi, deb qayd qiladi. Uning maorif va fan ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy institutlari hisoblanadi, degan fikri hozirgi paytda bir qator ilg‘or davlatlar tajribasida o‘z isbotini topdi. Tadqiqotchi N. Smelzer: «sotsial tashkilot ma’lum maqsadlarga erishish uchun shakllangan ikkinchi darajali sotsial guruh»<sup>2</sup>, deb qayd qilsa, A.I. Prigojin esa «sotsial tashkilot ma’lum bir umumiyl maqsadlarga erishish, individual maqsadlarga erishish orqali yoki aksincha individual maqsadlarga erishish esa umumiyl maqsadlarni ilgari surish orqali amalga oshirish vaqtida vujudga keladi»<sup>3</sup>, deb ta’kidlaydi.

Sotsiologiyada sotsial tashkilotlarni tahlil etishda uch asosiy yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) *ratsional*; 2) *tabiiy* va 3) *neoratsional yondashuvlar nazarda tutiladi*.

*Ratsional yondashuv* nuqtai nazaridan qaralganda sotsial tashkilot aniq qo‘yilgan maqsadlarga erishish vositasidir. Bu yondashuvda sotsial tashkilotda bir-birlarini almashtirishlari mumkin bo‘lgan, lekin bu sotsial tashkilotning butunligi va yaxlitligiga ta’sir etmaydigan alohida mustaqil bo‘laklar yig‘indisi, majmui deb qaraladi. Ratsional yondashuv ko‘p holarda sotsial tashkilotda mavjud bo‘lgan norasmiy munosabatlarni inobatga olmaydi.

Ratsional yondashuvdan farqli o‘laroq, *tabiiy yondashuv* tarafdarlari tashkilotni «tabiiy butunlik», ya’ni o‘ziga xos organizm sifatida o‘rganadi-

<sup>1</sup> Философский энциклопедический словарь. – М., 1983. – С. 463.

<sup>2</sup> Смелзер Н. Социология. – М., 1994. – С. 189–636.

<sup>3</sup> Пригожин А. И. Современная социология организаций. – М., 1995. – С. 45.

lar. Bu organizm uchun tabiiy o'sish, o'z mavjudligini davom ettirishi hamda tizim muvozanatini saqlab qolishga xos intilishdir. Bu nuqtai nazarga ko'ra, tashkilot qo'yilgan maqsadlariga erishganidan keyin ham o'z mavjudligini davom ettirishi mumkin. Asosiy vazifa tashkilotdagi muvozanatni ta'minlashdir. Tashkilotga tabiiy yondashuvda norasmiy munosabatlarga ko'proq e'tibor beriladi. Demak, ratsional va tabiiy yondashuvlarning ijobiliy tomonlarini qo'shishga intilish natijasida yangi yondashuv – sotsial tashkilotning *neoratsional modeli* vujudga keladi. G'arb sotsiologiyasida Blau, Gouldner va boshqalar ratsional va tabiiy yonda-shuvni qo'shish ya'ni tashkilotdagi ratsionallik va norasmiy munosabatlarni uyg'unlashtirishni yoqlab chiqishdi.

**Sotsial tashkilotning belgilari.** Sotsial tashkilot sotsial guruh, sotsial birlik, sotsial institut kabi jamiyat sotsial tuzilishining zaruriy elementi hisoblanadi. Lekin ularning birortasi aynan bir xillikni tashkil qilmaydi. Sotsial tashkilot o'zining tuzilishi, jamiyat hayotida tutgan o'rni, vazifalari va shunga o'xhash bir qator belgilari bilan ulardan farq qiladi. Ular quyidagilardan iborat bo'lib, *birinchidan*, sotsial tashkilot, avvalambor amaliy harakati bilan xarakterlanadigan guruhdir. Bunda a'zolarning amaliy faoliyati muhim hisoblanadi. *Ikkinchidan*, eng yuqori darajada shakllanish uchun xos bo'lgan kishilar birligidir. Boshqa sotsial birliklardan farqli ravishda uning ichki tuzilishi yuqori darajada shakllantirilgan bo'lib, a'zolarining barcha xatti-harakatlari normallashtirilgan, standartlash-tirilgan, tartib va qoidalarga bo'ysunishini amaliy jihatdan qamrab oladi. *Uchinchidan*, sotsial tashkilot a'zolarining tashkilotchiligi, uyushuvchanligi, birdamligi, harakatchanligi hamda boshqaruvga xosligi muhim hisoblanadi. Agar har qanday sotsial tashkilotda mana shu belgilarga nisbatan yetishmovchiliklar bo'lsa, uning faoliyatiga putur yetadi.

Sotsial tashkilotning sotsial institutdan farqi shundaki, tashkilot a'zolarining ish faoliyati jarayonida muayyan vazifalarni bajarishda ixtiyoriy yoki majburiy uyushma ekanligidir. Sotsial tashkilotning boshqa sotsial guruhlardan yana farqli tomoni, ya'ni uni tashkil etuvchi individ qat'iy ravishda muayyan sotsial rol va qarashlarni ijro etadi. Jamiyat sotsial tashkilotlarni turli xildagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va g'oyaviy mafkuraviy maqsadlarga erishish vositasi, deb qaraydi. Sotsial tashkilotlar individlarning ehtiyoj va manfaatlarini ma'lum bir qat'iy me'yorda qondirili-shiga xizmat qiladi. Bu me'yor odamning mazkur sotsial tashkilotda qabul qilingan sotsial norma va qadriyatlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy maqomi bilan belgilangan bo'ladi. Sotsial tashkilotlarning faoliyat ko'rsatish mexanizmlari har xil bo'lib, ammo kishilar o'rtasidagi munosabat darajalari va sohalarining barcha tomonlarini qamrab oladi.

Sotsial tashkilot asosan quyidagi: sotsial tizimda kishilarning ijtimoiy munosabatlarda qatnashishlari uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratish; individlarning sotsial tizimdagi axloq normalari va qadriyatlarini o‘zlashtirish orqali ijtimoiylashuvini ta’minlash; individ xatti-harakatlari va yo‘nalishlari hamda munosabatlarining mavjud tizim doirasidan chetga chiqmasligini nazorat qilish funksiyalarni bajaradi. Jamiyat sotsial tashkilotga ma’lum iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy maqsadlarni amalga oshirish vositasi sifatida qaraydi.

O‘tmishda sotsial tashkilotlar an’anaviy urf-odatlar ta’sirida rivojlanib kelgan. Keyinchalik hokimiyat organlari tomonidan ma’lum maqsadlarga erishish uchun ta’sis etilib, maxsus binolarga joylashtirilgan.

Hozirgi paytda sotsial tashkilotlarning hayotimiz faoliyati uchun muhimligini anglash unchalik qiyin emas? Bugungi global taraqqiyotga qadar odamlar primitiv tarzda, ya’ni oddiy yashash, farzand tarbiyalash, ish va dam olish kabi asosiy ehtiyojlari qarindoshlari va qo‘schnilar hamda mahalla doirasida qondirilar edi. Ayni paytda esa, ko‘plab ehtiyojlarimiz biz hayotda hech qachon uchratmagan va ehtimol bizdan minglab kilometr uzoqlikda yashaydigan kishilar tomonidan qondirilishi ham mumkin! Bunday sharoitda sotsial tashkilotlarning inson hayoti va faoliyatida o‘ta muhim rol o‘ynashini his etamiz.

Sotsial tashkilot faoliyatining baholash mezoni, demak kishilarning jamiyat oldidagi maqsadga kirishish uchun mavjud imkoniyatlardan qanchalik foydalana olganligi bilan bog‘liqdir. Sotsial tashkilot insonlarning o‘z ehtiyoji va manfaatlarini amalga oshirish imkoniyatlarini cheklaydi. Bu cheklovlar mazkur sotsial tashkilotlar qabul qilgan sotsial qoida va normalarda ifodalanadi. Sotsial tashkilotning sifati – uning rivojlanish jarayonidagi individlarning amaliy faoliyati va xususiyatlarini namoyon qilish uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Tashkiliy ishlarni amalga oshiruvchi shaxs, guruh sotsial tashkilotning subyekti hisoblanadi.

Sotsial tashkilotning maqsadi qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun jamoalar integratsiyasini yaxshilashga xizmat qilishi lozim. Sotsial tashkilot a’zolarining xatti-harakatlari va yo‘nalishlari ijtimoiy qonuniyatlarga mos kelsa, ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi, ya’ni sotsial tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan maqsadlarning jamiyatdagi sotsial-iqtisodiy vazifalar bilan mos kelishi har qanday tashkilotning normal rivojlanishini ta’minlaydi. To‘g‘ri tanlangan maqsad bor imkoniyat va mablag‘larni unumli tarzda safarbar etishga yordam beradi, kishilar faoliyati yanada kengayadi. Maqsadlarning noaniqligi esa jamiyat rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Sotsial tashkilotlar rasmiy va norasmiy ko‘rinishlarda bo‘ladi.

Ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, mavqeい, xatti-harakatlari hamda maqsad va vazifalariga qarab rasmiy va norasmiy turlarga bo‘lish mumkin.

*Rasmiy sotsial tashkilot* – ish yuritish norma va qoidalari ro‘yxatga olingan, yuqori darajali ko‘rsatmalar, buyruqlar, farmoyishlar bilan bosh-qariladigan va rasmiy shakllantirilgan kishilar uyushmasidir. Har qanday rasmiy sotsial tashkilot o‘zining maxsus ma’muriy apparatiga ega bo‘ladi. Bu ma’muriy apparatning asosiy vazifasi tashkilot mavjudligini ta’minlash uchun uning a’zolari faoliyatini muvofiqlashtirishdir.

Rasmiy sotsial tashkilot tuzilishi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: *tashkilotning maqsadi va vazifalari; tashkilot a’zolari; «tashkilot-chilar» boshqaruvni shakllantiruvchi va tashkil qiluvchi bo‘g‘in bo‘lib, bu xususiyat katta hamda kichik guruhlar uchun zarur emas; o‘zaro bog‘liq rollarning majmui, ya’ni har bir inson umumiy ishdan o‘ziga tegishligini bajaradi; odamlar xatti-harakatini boshqarish qoidalari; faoliyat olib borish usullari, ya’ni texnik, texnologik, axborotlashtirish, moliyalashtirish va boshqa eng foydali va samarali usullarni bilish; belgilangan harakatlar ketma-ketligi; birinchi navbatda hokimiyatga bo‘ysunuvchi munosabatlar va tashkilot a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar tizimi; boshqa tashkilotlar, atrofdagi jamoalar, sotsial guruhlar (masalan mijozlar) va muassasalar hamda bir butun jamiyat bilan aloqalarni tartiblashtirish nazarda tutiladi.*

***Rasmiy sotsial tashkilot tuzilishi quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi:***

1) oqilona, ya’ni uning shakllanishi va faoliyatining asosida maqsadga muvofiq va foydali hamda ma’lum bir maqsad sari ongli harakat qilish tamoyili yotadi;

2) shaxsiy bo‘lmagan, ya’ni tashkilot a’zolarining individual va shaxsiy xususiyatlariga befarq bo‘lmagan holda tashkilotda o‘rnatalgan funksiyalarga muvofiq munosabatlar ustunligi;

3) xizmat munosabatlari, ya’ni xizmatga oid munosabatlarni tartibga soladi va boshqaradi;

4) funksionallik, ya’ni o‘z faoliyatini zarur funksional maqsadlar sari yo‘naltiradi;

5) tashkilotchilar mavjudligi, ya’ni tashkilot barqarorligini ta’minlash maqsadida uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni bir butun maqsad sari yo‘naltirib turadigan hamda umuman o‘z faoliyati samaradorligini muvofiqlashtirish uchun doimiy mas’ul rahbarlarning mavjudligi e’tiborga olinadi.

Amerikalik sotsiolog A. Ettisioni rasmiy tashkilotlarning 3 ta asosiy turini ajratadi: 1. Erkin tashkilotlar. Bunga ko‘proq jamoat tashkilotlari, xotin-qizlar jamiyatları va boshqalarni kiritadi. 2. Utilitar (manfaatli)

tashkilotlar. Kooperatsiya, birlashmalar, firmalar, davlat muassasalari va hokazo. 3. Majburiy tashkilotlar. Axloq tuzatish muassasalari, qamoqxona, armiya va hokazo.

Rasmiy sotsial tashkilotlarning xususiyati jamiyat turiga bog‘liq bo‘ladi. Chunki kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik qonun va normalarga mos holda ishlab chiqiladi. Rasmiy tashkilotlarda byurokratiyaga moyillik kuchli bo‘ladi. Demak, «byurokratiya» (fran. «bureau» – byuro, idora va yunon. «kratos» – hokimiyat, hukmronlik) «idora hokimiyati» degan ma’noni anglatadi. U 1745-yilda fransuz olimi De Gurne tomonidan iste’molga kiritilgan. Bu so‘z xalqdan ajralib qolgan va uning ustidan hukmronlik qilib o‘ziga xos vazifalar hamda imtiyozlarga ega bo‘lgan kishilar qatlami bo‘lib, tashkilot yordamida o‘z manfaatlarini amalga oshiradigan boshqaruv tizimini bildiradi

Sotsiolog M. Veber ideal turdagи byurokratiyaga xos ba’zi xususiyatlarni tahlil qilib quyidagi belgilarini e’tirof etadi: *Birinchidan*, qat’iy bog‘liqlikka ega bo‘lib, unda tashkilotdagi vazifalar «xizmat majburiyatлari» shaklida taqsimlanadi. Byurokratiya piramida shaklida, ya’ni uning cho‘qqisidan quyigacha «boshqaruv zanjiri» hosil bo‘ladi va u muvofiq qarorlar qabul qilishga imkon yaratadi. Iyerarxiyadagi har bir tabaqa o‘zidan bir pog‘ona pastki tabaqani boshqaradi va nazorat qiladi. *Ikkinchidan*, qoidalar tashkilotning barcha pog‘onalaridagi mansabdor shaxslarning xulq-atvorini belgilaydi, lekin bu byurokratik majburiyatlar sodda va oson vazifa degani emas? Mansab qancha yuqori bo‘lsa, unga tegishli qoidalar ko‘proq xislatlarni qamrab oladi va ular shuncha murakkablashadi. *Uchinchidan*, mansabdor shaxslar ish kuni mobaynida «band bo‘lishadi» va o‘z mansablariga ko‘ra maosh oladilar. Iyerarxiyadagi har bir lavozim egasi aniq belgilangan. Tashkilotlar har bir shaxsdan yuqoriqoq mansabni egallashga intilishini kutadi, ya’ni o‘sish qobiliyati egallab turgan lavozimi yoki har ikkalasiga asoslanib amalga oshiriladi. *To‘rtinchidan*, mansabdor shaxsning tashkilot ichidagi majburiyatları va uni boshqarish faoliyatı o‘rtasida aniq chegara mavjud. Uning shaxsiy hayoti ish joyidagi faoliyatidan qat’iy farq qiladi. *Beshinchidan*, tashkilot a’zolarining hech biri o‘zi boshqaradigan moddiy resurslarga egalik qila olmaydi<sup>1</sup>.

Darvoqe, M. Veber byurokratiyani jamiyat hayoti faoliyatiga kuchli salbiy ta’sir etuvchi katta kamchilik, deb e’tirof etgan.

Byurokratiya tizimi boshqarishning ma’muriy-buyruqbozlik tizimi bilan bog‘liqdir. Boshqarishning ma’muriy-buyruqbozlik tizimi ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o‘ta markazlashgan va ma’muriylashgan bo‘lib, siyosiy-

<sup>1</sup> Энтони Гидденс. Социология. – Т., 2002. – Б. 316–317.

huquqiy madaniyatning o‘ta pastligi va oshkorralik prinsiplarining buzilishi bilan tavsiflanadi. Bunga sobiq sovet tuzumini misol qilib keltirish mumkin.

Ma’muriy-buyruqbozlik tizimida boshqaruv avtoritar boshqarish elementlarini ham o‘z ichiga oladi. Avtoritar (lot. «autoritas» – hokimiyat, nufuz) – qattiqqa‘l boshqaruv hokimiyatiga so‘zsiz bo‘ysunishga asoslangan tizimidir. Avtoritar tartibot, ya’ni qonunlarni poymol qiladigan va xalqdan so‘zsiz itoat talab etuvchi yakka hukmdor (monarx, diktator)ning cheklanmagan hokimiyatidir. Bu tartibot fuqarolarning siyosiy huquqlari va erkinliklarining to‘la yoki qisman bekor qilinishi, hukmron partiyaning davlat maqomiga tenglashtirilishi, markaziy va mahalliy vakillik organlarining tugatilishi yoki ularning qo‘g‘irchoq muassasalarga aylantirilishi, «hokimiyatlar taqsimlanishi» prinsipining amalda bekor qilinishi bilan tavsiflanadi. Bunda demokratik tartibotlarning ayrim elementlari – saylov tizimi, turli siyosiy partiyalar va boshqalar faoliyatiga cheklangan holda bo‘lsa-da, yo‘l qo‘yiladi.

**Norasmiy sotsial tashkilotlar.** Rasmiy tashkilotlarning kamchiliklarini to‘ldirish va zid ravishda undagi kishilarning xatti-harakatlari va xususiyatlari hamda manfaatlarining bir-biriga mos kelishi asosida norasmiy sotsial tashkiliy aloqalar vujudga keladi. Bu aloqalar davlatning buyruq, farmoyishlari asosida emas, balki alohida obro‘ga ega kishilar tomonidan boshqariladi. Norasmiy aloqalarda kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik yetakchining tavsiyalari to‘g‘riligiga ishonish va erkin bo‘ysunish asosida amalga oshiriladi. Norasmiy sotsial aloqalar rasmiy sotsial tashkilotlar yo‘l qo‘ygan xatolari tufayli, ya’ni yaxlit tizimda buzilishlar yuzaga kelgandan so‘ng faoliyat ko‘rsata boshlaydi.

Norasmiy sotsial tashkilot – kishilarning o‘zaro manfaatlari umumiyligi va shaxslararo munosabatlар ustunligi asosida vujudga kelgan kishilar birligidir. Norasmiy sotsial tashkilotlar o‘z-o‘zidan va ichki sabablar tufayli vujudga kelgan kishilar birligi sifatida tashkiliy masalalarni rasmiy qonunlarda ko‘rsatilganidan farq qiladigan usullarda hal qilishga harakat qiladi. Erkin bo‘ysunishga asoslanadi.

Norasmiy sotsial tashkilotning uchta asosiy xususiyatini ko‘rsatish mumkin: *norasmiy tashkilotning vujudga kelishi shart-sharoitga qarab to‘satdan, rejasiz tarzda sodir bo‘ladi; norasmiy sotsial tashkilot rasmiy sotsial tashkilot bilan parallel, yonma-yon mavjud bo‘ladi va faoliyat olib boradi; norasmiy tashkilotning asosiy xususiyati – shaxslararo munosabatlар mazmunini norasmiy munosabatlар tashkil qiladi.*

Rasmiy sotsial tashkilotlarda kishilar mansab jihatdan o‘zaro bo‘ysunishga qat’iy amal qilishga intiladilar, norasmiy tashkilotlarda esa bu holat

vaziyatga qarab o‘zgarib turadi. Norasmiy tashkilotlar yangi tartib-qoidalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Sotsial tashkilotning quyidagi asosiy turlariga: mehnat, ishlab chiqarish va ijtimoiy tashkilotlar kiradi.

*Mehnat tashkiloti* – umumiylar maqsadga erishish borasida ma’lum reja asosida faoliyat olib boradigan hamda a’zolari uchun ahamiyatga ega ijtimoiy zarur mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish yo‘lida tashkiliy jihatdan uyushgan kishilarning birligidir.

*Ishlab chiqarish tashkiloti* – faqat moddiy narsalar ishlab chiqarish sohasiga taalluqli bo‘lib, bu yerda ishchilar va xodimlar moddiy boylik ishlab chiqarish maqsadida birlashadilar. Mehnat tashkiloti ishlab chiqarish tashkilotiga nisbatan keng tushunchadir, u ishlab chiqarish, ilmiy, o‘quv, tibbiy, madaniy-maishiy, boshqaruv va boshqa tashkilotlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Mehnat tashkilotlari jamiyatning barcha sohalarda faoliyat olib boradi va bir-birlaridan asosan ikkita mezon bo‘yicha farqlanadi.

*Mulk shakliga ko‘ra:* davlat mulki; kooperativ mulk; aksiyadorlik mulk; mehnat jamoasi mulki; xususiy mulk; chet el kapitali bilan birgalidagi mulklardir.

*Faoliyat sohasiga ko‘ra:* moddiy boyliklar ishlab chiqarish sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar – sanoat, qurilish, transport, qishloq xo‘jaligi va boshqa tashkilotlar kiradi;

ishlab chiqarish bilan shug‘ullanmaydigan sohalardagi tashkilotlar – madaniy muassasalar, sog‘liqni saqlash, ta’lim sohalari va boshqalar kiritish mumkin.

*Ijtimoiy tashkilotlar* – fuqarolarning umumiylar manfaat va maqsadlari asosida birlashgan nodavlat va notijorat tashkilotlaridir. Bularga fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish, ekologik, siyosiy, sport, dam olish, xayriya, madaniy va boshqa sohalarda faoliyat yuritayotgan tashkilotlar kiradi.

Sotsial tashkilotlar o‘rtasidagi birdamlik darajasiga ko‘ra: assosiatsiya, kooperatsiya, jamoa hamda korporatsiya tashkilotlariga bo‘linadi.

***Sotsial tashkilotlarning faoliyat olib borish prinsiplari.*** Sotsial tashkilotlar har doim quyidagi shartlarga javob berishlari lozim:

- ongli ravishda oldinga qo‘yilgan umumiylar maqsadning mavjudligi va unga erishish uchun tashkilot faoliyatining yo‘naltirilganligi;

- huquqiy holat va rollarning iyerarxik (pog‘onama-pog‘ona bo‘ysunish) mavjudligi, ya’ni individlar sotsial holat va rollarning vertikal taqsimlanishi;

- tashkilotga kiruvchi individlar tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan talab va qoidalarning mavjudligi;

– funksional vazifalarni bajaruvchi mutaxassislikning mavjudligi nazarda tutiladi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, sotsial tashkilotlarning har taraflama rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Respublikani suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Hozir O‘zbekistonni 190 dan ortiq davlatlar tan olgan. Dunyodagi 120 dan ortiq mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatalgan. Toshkentda 44 ta xorij mamlakatining elchixonasi faoliyat ko‘rsatadi.

Prezident SH. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasida bundan buyon ham uzoq-yaqindagi barcha xorijiy mamlakatlar, jahon hamjamiyati bilan samarali hamkorligimizni davom ettirishimizni alohida qayd etib, «Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan faol munosabatlar va hamkorlik olib borish O‘zbekistonning milliy manfaatlariga xizmat qiladi. Biz Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Xalqaro valuta jamg‘armasi, boshqa xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar bilan amaliy hamkorlikni yanada rivojlantiramiz»<sup>1</sup>, deb ta’kidladi.

Hozirgi paytda O‘zbekiston eng obro‘li va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan do‘stona aloqalarni oqilona ravishda rivojlantirib bormoqda. Eng yirik bank va moliya organlari, nodavlat va nohukumat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Mamlakatda 88 ta chet davlat vakolatxonalar, 24 ta hukumatlararo tashkilot va 13 ta nohukumat tashkilot ishlab turidi. O‘tgan yillar mobaynida respublikada 30 ga yaqin xalqaro konvensiyalar o‘tkazildi. O‘zbekistonning har taraflama rivojlanishi hamda jahon miqyosida boshqa bir qancha davlatlar bilan teng muloqotda bo‘lishida Birlashgan Millatlar Tashkilotining roli kattadir. Bu nufuzli tashkilot respublikamiz istiqbolining olg‘a dadil qadam bosishi, o‘z mustaqillik yo‘lidagi faoliyatini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi.

## Tayanch tushunchalar

Sotsial bilish, sotsial bilishning obyekti va subyekti, jamiyat qonunlari, jamiyat va shaxs, jamiyat va davlat, jamiyatning sotsiologik tushun-

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишлиланган тантанали маросимда «Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови» номли маърузаси // Халқ сўзи. – 2016. – 5 дек.

chasi, sotsial fakt va sotsial eksperiment, huquqiy eksperiment, demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, sotsial tizim va uning tuzilishi, sotsial tizim turlari: oddiy, murakkab va eng murakkab sotsial tizimlar, sotsial guruh, rasmiy va norasmiy guruhlar, sotsial institut tuzilishi va funksiyalari, sotsial institut turlari: rasmiy va norasmiy institutlar, sotsial tashkilot, sotsial tashkilot tuzilishi va funksiyalari, sotsial tashkilotning maqsad va vazifalari, sotsial tashkilot turlari: rasmiy va norasmiy sotsial tashkilotlar, byurokratik boshqaruv va uning belgilari, norasmiy tashkilot belgilari, O‘zbekiston mustaqilligi va xalqaro tashkilotlar.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Sotsial bilish deganda nimani tushunasiz?
2. Sotsial bilishning obyekti va subyektini izohlab bering.
3. Sotsial fakt deb nimaga aytamiz va u qanday talablarga javob berishi kerak?
4. Sotsial eksperimentning tabiatshunoslik fanlaridagi eksperimentdan farqini tahlil qilib bering.
5. Huquqiy eksperiment deganda nimani tushunasiz?
6. Sotsial tizim deb nimaga aytildi?
7. Sotsial tizimning tuzilishini nima tashkil qiladi?
8. Nima uchun jamiyat eng murakkab sotsial tizim deyiladi?
9. Institut so‘zining lug‘aviy ma’nosini nimani anglatadi?
10. Sotsial institut deb nimaga aytildi?
11. Rasmiy va norasmiy sotsial institutlarni tahlil qilib bering.
12. O‘zingiz ta’lim olayotgan oliy ta’lim institutining funksiyalarini sanab bering?
13. Yangi tashkil qilingan monitoring instituti vazifasi nimadan iborat?
14. Sotsial tashkilot deb nimaga aytildi?
15. Rasmiy va norasmiy sotsial tashkilotlarni izohlab bering.

## IV BOB. HUQUQ SOTSILOGIYASI

### **1-§. Huquq sotsiologiyasi va uning ijtimoiy-huquqiy munosabatlari tizimidagi o'rni**

Huquq sotsiologiyasi – umumsotsiologiyaning tarkibiy qismlari: din sotsiologiyasi, mehnat sotsiologiyasi, yoshlar sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi, shaxs sotsiologiyasi kabi tarmoqlardan birini tashkil etadi. Huquq sotsiologiyasi umumsotsiologiya fanining tarkibiy qismi sifatida jamiyatning huquqiy tizimi va uning tarkibiy tuzilmalarining hozirgi holati hamda kelajakda yuzaga kelishi mumkin hodisa va jarayonlarni jamoatchilik fikriga asoslangan holda taxmin qiladi. Bu fan huquqning nazariy muammolarini amaliyot bilan bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, hozirgi paytda mamlakatimiz boshidan kechirayotgan global ijtimoiy o'zgarishlar bois yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishda amaliy yordam ko'rsatadi. Huquq sotsiologiyasi O'zbekistonda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni faqat nazariy jihatdan anglashgina emas, balki nazariya bilan amaliyotning o'zaro aloqasini chuqur tushunish hamda o'z bilimlari bilan dolzarb amaliy masalalarni hal qilishga qodir bo'lgan yosh mutaxassislarning yangi avlodini tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab huquqshunoslik va sotsiologiya fanlarining integratsiyasi natijasiga ko'ra, ular o'rtasidagi muammo-larni o'rganadigan yangi fan tarmog'i sifatida huquq sotsiologiyasi vujudga keldi. Bugungi kunda huquqiy va sotsiologik bilimlar tutashgan joyda yuzaga kelgan mazkur fan bo'yicha ikki xil qarash mavjud. Huquqshunos olimlardan V. A. Tumanov, V. S. Nersesjans, V. V. Lapayeva, A. X. Saidov va boshqalar ushbu fanni yuridik fan deb hisoblaydilar. Faylasuf va sotsiolog olimlar E. V. Tadevosyan, V. V. Varchuk, K. Kulchar, S. I. Ospanov va boshqalar, jumladan taniqli fransuz huquqshunos olimi J. Karbonye huquq sotsiologiyasini umumsotsiologiyaning tarkibiy qismi sifatida talqin etadilar. Bizningcha, huquq sotsiologiyasi umumsotsiologiyaning tarkibiy qismlaridan birini tashkil qiladi. Chunki huquqiy fanlarda huquq mustaqil ijtimoiy hodisa sifatida o'rganilsa, huquq sotsiologiyasi huquqni bir butun ijtimoiy tizim sifatida, unga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'nnaviy va mafkuraviy omillar bilan birgalikda talqin etadi. Huquq sotsiologiyasi huquqiy jarayonlarni tadqiq qilishda huquqiy fanlarga nisbatan kengroq (ko'proq) usullardan foydalanadi, ya'ni umumilmiy usullardan tashqari ijtimoiy jarayonlarni matematizatsiyalash, modellashtirish, so'rov,

anketa usullari hamda statik va dinamik qonunlarga asoslangan holda o‘rganadi. Shu bois ham huquq sotsiologiyasi huquqiy normalarning shartlashganligi va ularning jamiyat hayotiga ta’siri mexanizmlarining qanchalik samara berishini tadqiq qiladi. Huquq sotsiologiyasi umumsotsiologiya nazariyasining tarkibiy qismi sifatida 1962-yil Vashington shahrida o‘tkazilgan sotsiologlarning xalqaro V kongressida rasmiy ravishda e’tirof etildi. Demak, hozirgi paytda huquq sotsiologiyasi sotsiologiyaning tarkibiy qismi sifatida o‘zining izlanish obyekti va predmeti, o‘ziga xos izlanish usullari va vazifalariga ega mustaqil yo‘nalishdir.

Huquq sotsiologiyasi o‘z navbatida qanday huquqiy normalar mavjudligi, ularning hayotga qanchalik mos kelishi, nimalar huquqiy norma deb qabul qilinganligi kabi muammolarni tahlil qiladi. Huquqni qiziqtirgan juda ko‘p masalalar sotsiologiya orqali ham o‘rganiladi. Xulosa shuki, sotsiologiya huquqiy fanlar oldida turgan ko‘pgina muammolarni hal qilishga yordam beradi, ya’ni bu masalalar bilan huquq sotsiologiyasi shug‘ullanadi.

*Jamiyatning huquqiy tizimi hamda uning tarkibiy tuzilmalarida faoliyat yuritayotgan yuridik institut va tashkilotlarni tizim sifatida tadqiq etadigan fan – huquq sotsiologiyasidir.* Bugungi kunda huquqiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning tub maqsadi – mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati boshqaruvinning boshqa nodemokratik tuzumlaridan farqli ravishda xalq irodasiga tayangan holda ko‘p fikrlilik, oshkorlik hamda jamoatchilik fikriga asoslanadi. Jamoatchilik fikrining maqsad va manfaatlarini doimiy ravishda o‘rganib borish – demokratik tuzumning muhim belgilaridan bo‘lib, u aniq sotsiologik tadqiqotlar yordamida amalga oshiriladi.

Huquq sotsiologiyasi, umuman jamiyatning huquqiy tabiatini va qonuniyatlarining vujudga kelishi va amal qilishi hamda rivojlanishining ijtimoiy yo‘nalishlarini bir butun tizim sifatida o‘rganadi. Har qanday fanda bo‘lgani kabi huquq sotsiologiyasi ham o‘zining tadqiqot obyekti va predmetiga egadir. Jamiyatning huquqiy tizimi tarkibiga kiruvchi huquqiy borliq, huquqiy munosabatlar, huquqiy hodisa va jarayonlar huquq sotsiologiyasining obyekti hisoblanadi. Lekin bu jarayonlar huquq sotsiologiyasidan tashqari huquq falsafasi, huquqiy ta’limotlar tarixi, davlat va huquq nazariyasi hamda boshqa huquqiy fanlarning ham obyekti bo‘lib hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan huquqiy fanlar ushbu jarayonlarni ma’lum yo‘nalishlarda o‘rganadi hamda o‘zining tadqiqot predmetiga egadir. Jumladan, huquq sotsiologiyasi ham huquqiy munosabatlarni

tadqiq qilishda o‘zining tadqiqot predmetiga ega. Huquq sotsiologiyasi predmetini jamiyatning huquqiy tizimi tarkibiga kiruvchi tarkibiy tuzilmalari ning rivojlanish qonuniyatlarini jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va mafkuraviy tizimlari bilan uzviy aloqadorlikda, o‘zaro ta’sir hamda munosabatlarda aniq sotsiologik tadqiqotlar yordamida o‘rganish tashkil qiladi. Ba’zi adabiyotlarda huquq sotsiologiyasi obyekti bilan predmetini aynanlashtirish yoki tenglashtirish xollari uchraydi. Bu noto‘g‘ri. Barcha fanlarda bo‘lgani kabi huquq sotsiologiyasida uning obyekti predmetiga nisbatan kendir!?

Huquq sotsiologiyasi jamiyatni o‘rganuvchi boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan chambarchas tarzda bog‘liqdir. Jamiyat esa ular o‘zaro aloqadorligining obyektiv asosi hisoblanadi. Jamiyat har doim oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga rivojlanib boruvchi ijtimoiy organizmdir. Ingliz sotsiologi G. Spenser jamiyatning sinfiy tuzilishi va turli ma’muriy idoralarga ajralishini jonli tana a’zolari o‘rtasidagi vazifalarning taqsimlanishi bilan aynan bir xil deb biladi. Ya’ni, u jamiyatni jonli tanaga qiyoslaydi. Haqiqatan ham jamiyat iqtisodiy, sotsial, siyosiy, mafkuraviy, huquqiy va boshqa munosabatlardan tashkil topgan sotsial organizmdir. Shu o‘rinda jamiyat yuqorida qayd etilgan kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning birortasisiz mavjud bo‘la olmaydi va mavjudligi tufayli jamiyatda ma’lum vazifalarni bajaradi.

Huquq sotsiologiyasi o‘zining obyekti jihatidan boshqa ijtimoiy-huquqiy fanlar bilan umumiylikni tashkil qilar ekan, uning predmeti va jamiyat hayotida tutgan o‘rnini ularsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ularning biri ikkinchisini to‘ldiradi va mustaqil rivojlanishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, davlat va huquq nazariyasi tarixi va boshqa huquqiy fanlar davlat va huquqning kelib chiqishi, rivojlanishi, amal qilishining eng umumiyl qonuniyatlarini o‘rgansa, huquq sotsiologiyasi huquqni ijtimoiy hodisa sifatida boshqa sotsial munosabatlar bilan shartli ravishda bog‘liqligini aniq sotsiologik tadqiqotlar yordami hamda jamoatchilik fikriga asoslangan holda tadqiq qiladi. Mazkur fanning ijtimoiy-huquqiy fanlardan yana bir farqli tomoni, uning amaliyot bilan bevosita bog‘liqligidir. Huquq sotsiologiyasini jamiyatning huquqiy sohalarida olib boriladigan aniq sotsiologik tadqiqotlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Huquq sohasidagi sotsiologik tadqiqotlar – empirik sotsiologik tadqiqot olib borishning kuzatish, hujatlarni o‘rganish, so‘rov, suhbatlashish, anketa, sotsial eksperiment usullari yordamida olib boriladi.

Huquqiy munosabatlar jamiyatning ijtimoiy munosabatlar tizimida alohi-da o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham huquq sotsiologiyasining asosiy

muammolaridan biri huquqiy munosabatlarni bir butun sotsial tizim sifatida jamiyat hayotida tutgan o‘rnini tadqiq qilishdir. Bu esa qo‘yidagi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi: huquqiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarning sotsial jihatlarini tahlil qilish; jamiyat va huquq o‘rtasidagi sotsial aloqadorlik hamda o‘zaro ta’sir qonuniyatlarini ochish; huquqiy munosabatlarning ijtimoiy munosabatlar tizimiga va aksincha, ijtimoiy munosabatlarning huquqiy munosabatlarga ta’sirini aniq belgilash; jamiyatda fuqarolarning huquqiy bilim darajasi ning oshib borishiga ta’sir etuvchi omillarni bilib borishga qaratadi. Bular amaliy sotsiologik tadqiqotlar yordamida o‘rganiladi.

Huquq sotsiologiyasi huquqning ijtimoiy tabiatini va uning vazifalarini tadqiq qiladi. Huquqning boshqa ijtimoiy munosabatlar bilan o‘zaro aloqasi hamda munosabatlarining xususiyatlarini amaliy sotsiologik tadqiqotlar yordamida ularning qonuniyatlarini ochib beradi. Shuningdek, huquqning umuminsoniy mazmuni va mohiyatini, uning sotsial funksiyasi, maqsadi va qadriyatlarini aniqlaydi, mufassal tarzda yoritadi. Huquqning ushbu umumijtimoiy jihatni va ahamiyati sobiq sho‘ro tuzumidan keyin O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklari, qadriyatları va milliy mafkura, g‘oyalarini qaror toptirish hamda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan hozirgi tub ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlar sharoitida o‘zining muhim o‘rniga egadir!

Qabul qilinayotgan qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy institutlar va tashkilotlarning ishlash mexanizmlari sotsial-huquqiy tadqiqotlar yordamida yanada faollashadi. Huquq tizimida amalga oshiriladigan sotsiologik tadqiqotlar esa jamiyat bilan huquq o‘rtasidagi aloqa va sotsial funksiyalar hamda huquqiy normalarining sinflar, jamoalar, guruhlar, shaxslar faoliyatidagi ta’sir doirasini aniqlab beradi. Huquq sohasidagi sotsiologik tadqiqotlar huquqning sotsial munosabatlarga ta’sirini ochib beradi. O‘z navbatida sotsial munosabatlarning huquqqa ta’sir etuvchi omillari, huquqning sotsial jihatdan asoslanganligi natijalariga ko‘ra, qanchalik samara berishida o‘rganiladi.

Huquq sotsiologiyasining huquqni tadqiq etishdagi o‘ziga xos tomoni – uning genezisi va evolutsiyasi sotsial asoslangan fenomen (hodisa) sifatida o‘rganiladi. Bunda kishilar xatti-harakatlarini boshqarishda huquqning roli va tartibga solish maqsadlariga ko‘ra, manfaat va ehtiyojlarning bevosita muvofiqligini ta’minalash nazarda tutiladi. Shuningdek, sotsial-huquqiy tadqiqotlar qonun va qonunosti hujjatlarida ijtimoiy talablarning qay darajada aks etishi, ijtimoiy manfaat va ehtiyojlarning ijtimoiy tuzum rivojlani-shining obyektiv yo‘nalishlariga qay darajada mos kelishini aniqlab berish

hamda qonunlar jamiyat a'zolarining huquqlarini talab darajasida himoya qiladimi? degan masalalarni ochib berishga qaratadi.

Sobiq Ittifoq davrida bunday sotsiologik tadqiqotlar olib borishning imkonи yo'q edi. Hukmron partiya KPSS rasmiy jihatdan cheklanmagan davlat hokimiyatini tashkil qilar edi. Mazkur davlat apparati inson xohish-irodasini ifodalaydigan huquq sotsiologiyasini o'ziga yaqinlashtirmadi. Agar huquq sotsiologiyasi o'sha davrda jamiyat yuridik institutlarining idoralari va davlat apparatida faoliyat ko'rsatuvchi rahbar kadrlarni qiyosiy tarzda o'rgana olganda, ularning «*og'ish holatlari*»ni ko'rsatib bergen bo'lar edi!? Bu insonparvarlik nuqtai nazardan faraz qilish, albatta.

Huquqning ijtimoiy mohiyatini ochib beradigan asosiy omil – omma, xalqdir. Chunki huquq omma va xalq uchun xizmat qiladi va ularga tegishlidir. Shuning uchun fuqarolarning ishtiroki va yuridik maqomisiz xalq ommasining amaliy faoliyatini tashkil qiluvchi iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy munosabat hamda jamiyat manfaatlari talablariga javob beradigan huquqiy normalarni yaratib bo'lmaydi. Ya'ni huquqiy munosabatlar o'z-o'zidan vujudga kelmay, avvalambor huquqiy munosabatlar ishtirok-chilari va subyektlari irodasi bilan kelishilgan holda yuzaga keladi. Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan sobiq Ittifoq davrida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida keng qo'llanilgan boshqarishning ushbu usuli huquqiy munosabatlarning ijtimoiy va insoniylik mohiyatini soxtalashtirdi. Demak, huquq jamiyatda salbiy holat sifatida yuzaga kelgan byurokratizmga qarshi yo'naltirilgan ijtimoiy kuch sifatida namoyon bo'lolmadi. U jamiyatda demokratianing rivojlanishi hamda inson omilining yuksalishi va iqtisodiy boshqaruv usullarining joriy qilinishiga to'sqinlik qildi. Ta'kidlash joizki, huquqning ijtimoiy tabiatini ma'lum tarixiy sharoit-dagi ijtimoiy munosabatlar va ular rivojlanishining sababiy aloqadorligi qonuniyatlariga bog'liqligi e'tiborga molikdir. Huquqning ijtimoiy mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

*Birinchidan*, huquqning shakllanishi va rivojlanishi hamda joriy qilinishi iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariiga bevosita bog'liqdir. Agar iqtisodiy sohada o'zgarishlar yuzaga kelsa, o'z navbatida jamiyatdagи huquqiy munosabatlarning o'zgarishiga olib keladi. Ya'ni jamiyat sotsial sohalari faoliyatida kishilarning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi sotsial ehtiyojlar yangi huquqiy munosabatlarni yuzaga keltiradi, demak rivojlanishning shakli va yo'nalishlarini belgilaydi.

*Ikkinchidan*, huquqning ijtimoiylashuvi sotsial hayotni tartibga solishning obyektiv zaruriyatini belgilab beradi. Jamiyat qonunlariga binoan, ishlab chiqarish jarayonlarida odamlarning maqsad va manfaatlariga nisbatan

ular o‘rtasida kelishmovchiliklar – nizolar, qarama-qarshiliklar va konfliktlar paydo bo‘lishi mumkin. Bunday sharoitda odamlarning faoliyati ma’lum qonunlar bilan tartibga solinmasa, jamiyatda parokandalik yuzaga keladi. Bu vaqtida esa huquq jamiyatni qonun ustuvorligi asosida barqarorlashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

*Uchinchidan*, huquq o‘z-o‘zidan emas, balki avlodlar yaratgan tartib-qoidalar, huquqiy ta’limotlarga asoslangan holda rivojlanadi. Shuning uchun ham uning rivojlanishini boy tarixiy huquqisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

*To ‘rtinchidan*, huquqiy omillarni ijobiy tarzda harakatga keltiruvchi kuch-qudrat – kishilarning obyektiv ehtiyoji va manfaatlari hisoblanadi.

Shunday qilib, huquqiy munosabat va jarayonlarni o‘rganuvchi huquqiy fanlar boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘rganadigan sotsial munosabatlar bilan uzviy dialektik aloqadorlikda o‘rganilishidan dalolat beradi.

## 2-§. Huquq sotsiologiyasining tarkibiy qismlari

Huquq sotsiologiyasining tarkibiy qismlari yoki tuzilishi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda tasniflashning qanday mezoniga asoslanishiga bog‘liq holda xilma-xil nuqtai nazarga muvofiq tavsiflanishi mumkin? Huquqshunoslikda qabul qilingan tadqiqotlar tasnifi jihatidan huquqdagi sotsiologik tadqiqotlarni, avvalo huquq tarmoqlari bo‘yicha tarkiblashtirish kerak. Shunga muvofiq, huquq nazariyasi hamda huquq tarmoqlari doirasida jinoyat huquqi sotsiologiyasi, mehnat huquqi sotsiologiyasi, oila huquqi sotsiologiyasi, fuqarolik huquqi sotsiologiyasi va boshqa sohalarda yuridik-sotsiologik yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Umumsotsiologiya fanidagi kabi huquq sotsiologiyasida ham ikki tarkibiy daraja (ikki tarkibiy qism)ni ajratish lozim. Bular nazariy tadqiqotlar darajasi hamda empirik tadqiqotlar darajasidir. Bunday farq muayan darajada shartli ekanligini nazarda tutish lozim. Chunki nazariy va empirik darajalarning, ya’ni birinchisi ikkinchisiga asoslanishi har qanday sotsiologik tadqiqotga xos xususiyatdir. Bunda nazariy va empirik yondashuvlarning taqsimot nisbatidan kelib chiqib, tadqiqot ko‘proq nazariy yoki empirik yo‘nalishda ekanligi haqida so‘z yuritish mumkin. *Birinchi holatda* mavjud faktik material tadqiqot predmetining konseptual rivojlanishiga imkon beradigan darajada chuqur nazariy umumlashtiriladigan tadqiqot haqida gap boradi. *Ikkinci holatda* esa ijtimoiy faktlar to‘g‘risida empirik ma’lumotlarni to‘plash hamda dastlabki umumlashtirishga asoslangan tadqiqot haqida so‘z yuritiladi.

Huquq sotsiologiyasining empirik tadqiqot obyekti – kishilarning huquq sohasida aniq amaliy xatti-harakatini o‘rganadi. Bunday tadqiqot jarayoni-

da sotsial faktlar aniqlanadi, tavsiflanadi va ular o'rtasida muayyan empirik aloqa o'rnatiladi. Bunda sotsial fakt deganda, empirik kuzatishga imkon beradigan sotsial voqelik va hodisa nazarda tutiladi. Sotsial faktning yuridik fakt singari turlari mavjud bo'lib, qonunda ko'zda tutilgan yuridik fakt munosabatlari yuzaga kelishi, o'zgarishi yoki to'xtatilishiga muvofiq bo'lgan holatlar (ya'ni, ijtimoiy voqelikning tegishli hodisalari)dir. Yuridik faktlar – qonun chiqaruvchi yuridik ma'no beradigan hamda muayyan huquqiy oqibatlar bilan bog'liq sotsial faktlar (masalan, tug'ilish, o'lim, nikoh tuzish, ishga qabul qilish, bitim tuzish, qonunga zid harakatlar va h. k.)-dir. Darvoqe, sotsial faktlarda empirik bog'liqlikni (ba'zan empirik qonunlar, empirik umumlashmalar ham deyiladi) aniqlash empirik tadqiqotning muhim jihatni hisoblanadi. Empirik bog'liqlik (masalan, saylovchilarning saylovdagi ovoz berish xususiyati bilan yoshi, ma'lumot darajasi, turar joyidagi bog'liqlik va h.q.) kuzatilayotgan sotsial faktlar to'g'risidagi statistik axborotni bir tizimga jamlash orqali aniqlanadi.

Tadqiqotlar tasnifi bo'yicha sotsiologiyada qabul qilingan boshqa bir mezon, ya'ni ularni tadqiqot ishining maqsad va vazifalariga ko'ra farqlash bilan bog'liqdir. Bu yondashuvga ko'ra, fundamental va amaliy tadqiqotlar turlariga ajratiladi. *Birinchisi* – fanni rivojlantirish, uning nazariyasi va metodologiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar; *ikkinchisi* – amaliyot uchun biron tavsiyani ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotdan iborat bo'ladi. Hozirgi kunda huquq sotsiologiyasi doirasida amaliy yuridik-sotsiologik tadqiqotlarning ikki yo'nalishi: *qonun ijodkorligini sotsiologik ta'minlash* (qonunchilik sotsiologiyasi) *hamda huquqni qo'llash faoliyatini* (avvalo, sud faoliyatini) *sotsiologik ta'minlash yo'nalishlari shakllanmoqda*.

Huquq sotsiologiyasini yuridik-sotsiologik tadqiqotlarning huquq sotsiologiyasi predmeti sifatida uchta asosiy jihatini tashkil qiluvchi uchta yo'nalish bo'yicha tasniflash katta ahamiyat kasb etadi: 1) sotsial munosabatlarning huquqqa ta'siri (ya'ni, huquqning sotsial shart-sharoiti yoki boshqacha aytganda, huquqning sotsial shartlanganligi); 2) huquqning ijtimoiy munosabatlarga qayta ta'siri (ta'sirning sotsial oqibatlari); 3) huquqiy va nohuquqiy omillarning sotsial tizim doirasidagi o'zaro ta'sir mexanizmi (huquqning sotsial ta'siri mexanizmi) nazarda tutiladi.

Huquq sotsiologiyasini shu nuqtai nazardan ko'rib chiqiladigan bo'lsa, uning tadqiqot predmeti tuzilishini uchta asosiy qismdan (predmetning tarkibiy qismlaridan) iborat, deb aytish mumkin: qonunchilikning sotsial shartlanganligi (ya'ni, huquqning vujudga kelishidagi sotsial shart-sharoitlar); huquqning amal qilishining ijtimoiy funksiyalari va sotsial

mexanizmi; uning samaradorligi (ya’ni, amal qilishning sotsial oqibatlari) hisobga olinadi. Demak, ushbu yo‘nalishlardan birinchisi doirasidagi tad-qiqotning predmet sohasini (jihatini) nohuquqiy xususiyatga ega omillar tashkil qilib, ular huquqning alohida sotsial hodisa sifatida shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi hamda qonunchilikning huquqiy xususiyatini belgilab beradi. Shunga muvofiq huquqning amal qilish mexanizmini o‘rganish predmeti sotsial rivojlanish jarayonida o‘zaro ta’sir ko‘rsatishda bo‘lib, huquqning jamiyatda amal qilishiga ta’sir ko‘rsatadigan huquqiy va nohuquqiy omillarning o‘zaro aloqasi mexanizmidan iboratdir.

Huquq sotsiologiyasida ajratib ko‘rsatilgan ushbu tadqiqotlar yo‘nalishlarini (umumiy predmetning tarkibiy qismlarini ham) faqat nazariy abstraksiya darajasida farqlash mumkin. Amaliyotda esa bitta tadqiqot doirasida ko‘pincha turli yo‘nalishlarning elementlari birgalikda o‘rganiladi.

*Huquq ijodkorligi* – jamiyatdagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari tizimini yaratish va takomillashtirishga qaratilgan faoliyat turidir. O‘zining mohiyatiga ko‘ra, huquq ijodkorligi davlat xohish-irodasini ifoda etuvchi normativ-huquqiy me’yorlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu hujjatlar barcha uchun majburiy bo‘lib, davlat organlarining normativ-huquqiy me’yorlarini yaratish, unga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish yoki bekor qilish borasidagi faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Huquq ijodkorligi ilmiy bilish qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Shu bilan birga, u bilishning o‘z predmeti, yo‘nalishi, xususiyati, funksiyalari va maqsadlariga ega bo‘lgan alohida tarmog‘idir. Huquq ijodkorligining o‘ziga xos tomoni shundaki, u jamiyatning huquqiy hayotida sodir bo‘layotgan voqeа va hodisalarni aks ettiradi, jamiyatning kelgusi hayotida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan jarayonlarni bashorat qiladi va shu asosda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari tizimini yaratish hamda takomillashtirish uchun o‘z faoliyatini yo‘naltiradi.

Huquq ijodkorligi sotsial bilishning alohida tarmog‘ini tashkil qiladi. U o‘zining bilish obyekti va subyektiga egadir. Uning obyektini davlat organlarining normativ-huquqiy me’yorlari hamda kishilarning unga bo‘lgan munosabatlari tashkil qiladi. Uning subyekti sotsial bilishning subyektidan biroz farq qiladi. Sotsial bilishning subyektini alohida shaxs, kishilar guruhi yoki jamoasi tashkil qiladigan bo‘lsa, huquq ijodkorligining subyektini har qanday shaxs, guruh yoki jamoa tashkil qila olmaydi. Chunki huquq ijodkorligi o‘z xususiyatiga ko‘ra davlat ahamiyatiga molik faoliyatdir. U bilan asosan parlament, ya’ni oliy vakillik organlari shug‘ullanadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan huquq ijodkorligini oliy vakillik organi Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, mahalliy davlat organlari amalga oshiradi.

Ushbu faoliyat jamiyatni boshqarishning muhim vositasi sifatida davlat turi, shakli, mexanizmi va funksiyalari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Huquq ijodkorligi vositasida tabiiy huquq normalari normativ-huquqiy me’yorlarga aylanadi va qonunchilik shaklidagi ijobiy huquq sifatida amalga kiritiladi. U davlat organlari faoliyatida katta o‘rin tutadi hamda unga tayyorgarlik ko‘rish jarayonlari alohida ajralib turadi. Ushbu jarayonlarning zarurligi qabul qilinayotgan hujjatlarning sifatini muntazam oshirib borishni taqozo etadi. Davlatning huquq ijodkorligi faoliyati turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ushbu faoliyat bilan tegishli davlat organlari shug‘ullanadilar. Ayrim davlatlarda huquq ijodkorligi referendum orqali amalga oshiriladi. Har bir davlatda huquq ijodkorligi o‘ziga xos xususiyat-larga ega bo‘ladi.

Huquq ijodkorligi asosan quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

*birinchidan*, huquq ijodkorligi xalqchil xarakterda, ya’ni qonunlar qabul qilinayotganda xalqning keng qatlamlari bilan muloqot orqali muhokama qilinadi; *ikkinchidan*, huquq ijodkorligi demokratik xarakterda, ya’ni uning faoliyatida fuqarolarning fikr-mulohazalari inobatga olinadi; *uchinchidan*, huquq ijodkorligi ilmiylik kasb etib, qabul qilingan huquqni qo‘llash amaliyot bilan uzviy tarzda bog‘liq bo‘ladi; *to‘rtinchidan*, huquq ijodkorligi qonuniydir. Huquq ijodkorligi subyektlarining barcha harakatlari va normativ-huquqiy me’yorlarni tayyorlash, qabul qilish va chop etish bo‘yicha qonunga, eng avvalo, ularning Konstitutsiyaga asoslanishida namoyon bo‘ladi.

Tabiiy huquq normalari va prinsiplari hamda fuqarolarning sotsial ehtiyojlari va manfaatlarini qonuniylik darajasiga ko‘tarish – huquq ijodkorligining mohiyat-mazmunini tashkil etadi. Ijtimoiy borliq har doim o‘zgarish va taraqqiyotda bo‘lganligi bois sotsial qonuniyatlar rivojlanishning har xil bosqichlarida turlicha namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham ilgari qabul qilingan huquq normalarini o‘zgartirish va takomillashtirish uchun, demakki huquq ijodkorligiga ehtiyoj tug‘iladi.

Real voqelikda obyektiv qonuniyatlar yaxlit tizim shaklida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan boshqarish uchun boshqa turlari bilan birga amalga oshirish kerak. Chunki huquq ijodkorligi ijtimoiy qonuniyatlarni o‘rganuvchi fanlar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Agar iqtisodiyotda huquqiy boshqaruv iqtisodiy fanlarning yutu-g‘iga asoslanmasa, u xo‘jalik munosabatlarida juda kam samara beradi?!

Ma’muriy huquq muammolarini hal qilishda axborot nazariyasidan foydalanish va unga asoslanish zarur. Huquqni buzuvchilarga samarali huquqiy ta’sir ko‘rsatish esa sotsial psixologiya, pedagogika, etika, kiberne-tika kabi fanlarning ham nazariya va metodlarini qo‘llashni taqozo etadi.

Jamiyat tarkibida huquqiy tizim muhim o‘rin egallaydi. Chunki kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi va uning rivojlanishini huquq va huquqiy munosabatlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Huquq kishilar o‘rtasida vujudga keladigan sotsial munosabatlarni tartibga solib turadi va boshqa sotsial tizim (iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, axloqiy va boshqa)lar ichida o‘zining alohida o‘rniga egadir. Huquqshunos olim H. Odilqoriyev huquqiy tizim tuzilishini tahlil qilib, unga shunday ta’rif beradi: «Jamiyatning huquqiy tizimi – muayyan makon va zamonda amal qilayotgan huquqiy hodisalar, huquqiy prinsiplar, institutlar, normalar va jarayonlarning mushtarak bir butunligi, o‘zaro uzviy bog‘liqligi hamda aloqadorligi bo‘lib, ularning maqsadli harakatlanishi natijasida sotsial munosabatlarning yuksak saviyada huquqiy tartibga solinishiga erishiladi»<sup>1</sup>.

Jamiyatining huquqiy tizimi ham o‘zining tuzilishiga ega bo‘lib, quydagilarni tashkil qiladi: huquqiy normalar; qonunlar; huquqiy muassasalar tizimi; huquqiy ong; huquqiy madaniyat; huquqiy amaliyot. Huquqiy tizimning bu tarkibiy qismlari bir-biri bilan uzviy aloqada, o‘zaro ta’sirdadir. Bir tarkibiy elementning harakatlanishi qolgan elementlarning harakatlanishiga olib keladi. Ular alohida, ma’lum bir funksiyani bajarib qolmay, yaxlit tizim sifatida jamiyat miqyosidagi sotsial, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va boshqa munosabatlarni tartibga solib turadi. Demak, jamiyatning huquqiy tizimini bir butun sotsial tizim sifatida uni tashkil qiluvchi huquq sotsiologiyasi o‘rganadi.

Sotsial tizim tuzilishida inson asosiy o‘rinni egallaydi. Chunki har qanday sotsial tizimni uning katta yoki kichikligidan qat’i nazar shaxs, jamoa, sotsial guruh va sinflar tashkil qiladi va harakatga keltiradi.

Inson o‘zining tuzilishi va xususiyati jihatidan, ya’ni ko‘p qirrali va o‘ziga xos sifat belgilariga ega bo‘lib, uning ko‘p qirraliligi sotsial tizimlarning ko‘p qirraliligi demakdir. Masalan, ichki ishlar organlari xodimlari asosan fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va jamiyatda huquqiy tartibni ta’minlash uchun maxsus uyushgan kishilar guruhidan iboratdir. Shu bilan birga, ichki ishlar organlari xodimlari orasida sportning ma’lum sohasi bo‘yicha jahon va respublika championlari yetishib chiqqan hamda sportning yanada rivojlanib, taraqqiy etishida o‘z hissalarini qo‘sib kelayotganlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ya’ni jismoniy tarbiya va sport sohasi ham alohida sotsial tizimdir. Bu sotsial tizim sohasida ham ichki ishlar organlari xodimi muhim va asosiy rol o‘ynashi mumkin?! Ular tizim sifatida bir-biridan farq qilsa-da, chambarchas bog‘liq hamdir. Bu sotsial tizimlarda inson asosiy bo‘g‘inni tashkil qiladi.

---

<sup>1</sup> Одилқориев Ҳ. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002. – Б. 117.

Yakka shaxs va kishilar jamoasi sotsial tizimning asosiy funksiyalarini bajaradi. Inson sotsial tizimning mavjud bo‘lishi, integratsiyasi, takomillashuvi va rivojlanishini tartibga solishda asosiy obyekt va subyekt hisoblanadi. Inson jamiyatda axborot yig‘ish, qayta ishslashni amalga oshiruvchidir. Shu bois u sotsial tizimlarning muhim bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi.

### **3-§. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining amaliy faoliyatida huquq sotsiologiyasining o‘rni**

Hozirgi paytda jamiyatimizning barcha sohalari kabi huquqni muhofaza qilish organlari sohasida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning amaliy natijalarini huquq sohasida o‘tkaziladigan aniq sotsiologik tadqiqotlar yordamida aniqlab boriladi. Demak, huquq sotsiologiyasi bugungi kunda mavjud qonunlarning ijtimoiy ahamiyatini o‘rganishga, huquqning amal qilishida sotsial vositalar samaradorligiga yangicha yondashuvni shakllantirishga ko‘maklashadi.

Mustaqil O‘zbekistonda shakllanayotgan huquq sotsiologiyasi huquq fani va amaliyotining mamlakatda o‘tkazilayotgan islohotlarni ilmiy jihatdan ta’minalash, ijtimoiy totuvlikka erishish, ijtimoiy mojarolarning oldini olish va o‘z vaqtida hal qilish, huquq-tartibot, shaxs, huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, fuqarolik jamiyati hamda demokratik huquqiy davlatni qaror toptirish bilan bog‘liq masalalarni hal etishga hissa qo‘sadi. Buning uchun qabul qilingan qonunlarni amaliyotga joriy etish masalalarini ko‘rib chiqish bilan birga, normativ-huquqiy tabiatini va boshqa shu kabilarni tadqiq qilish davr talabidir. Bunda esa huquq sotsiologiyasi oldida turgan asosiy vazifalardan biri huquqiy va sotsiologik bilimlar orqali qonunchilik faoliyatini sotsiologik ta’minalash borasida empirik tadqiqotlarni amalga oshirish hamda muayyan yuridik-sotsiologik nazariyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ishlanmalar asosida yuridik-sotsiologik sohada qonunchilik sotsiologiyasi va qonun ijodkorligini sotsiologik ta’minalashga yo‘naltirilgan nazariy hamda empirik tadqiqotlar majmuini shakllantirish lozim. Qonun ijodkorligini sotsiologik ta’minalash tizimini shakllantirish – huquq sotsiologiyasining amaliy funksiyasini ro‘yobga chiqarishning juda muhim yo‘nalishi. Huquq sotsiologiyasi ushbu funksiyani bajarishi orqali jamiyatda huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirishda sezilarli darajada hissa qo‘sghan bo‘ladi.

Ma’lumki, qonunlar samarasizligi ularning sifati pastligi, avvalo ijtimoiy ahamiyati borasidagi mavjud kamchiliklar bilan bog‘liqdir. Shuningdek, qonunlarni amalga oshirish mexanizmlari talab darajasida emasligi, huquqni qo‘llash faoliyatidagi nuqsonlar, qonun va sud qarorlarini bajarishdagi

sustkashlik, qabul qilingan qonunlarni targ‘ib qilishga e’tiborsizlik hamda uning sotsial legitimligini ta’minlash va boshqa shu kabi masalalar jamiyat rivojiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Umuman olganda, huquq sotsiologiyasi va uning negizida vujudga kelgan qonunchilik sotsiologiyasi qabul qilingan qonunlarning bajarilishi muammolari bilangina cheklanib qolmay, balki huquqni tartibga solish uchun bo‘lgan ehtiyojni bashorat qilishi, qonun loyihasi konsepsiyasini asoslash hamda shu negizda qonunga taalluqli masalalarni muvofiqlashtirish modelini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ayniqsa, qonun ijodkorlari sotsial ekspertizani tashkil qilish hamda qonunning asosiy qoidalari bo‘yicha ijtimoiy fikrni o‘rganish, qonunni tajriba tariqasida o‘rganish mumkinligini hisobga olish va nihoyat uning amal qilish samaradorligi bilan bog‘liq masalalarni o‘z qiziqish doiralariga faolroq kiritishlari g‘oyat muhimdir.

Huquqni muhofaza qilish organlarining amaliy faoliyatida huquq sotsiologiyasining o‘rnini empirik axborotlarni to‘plash usullarisiz tasavvur etish mushkuldir. Huquq tizimi sohasiga taalluqli bo‘lgan huquqiy faktlar hamda birlamchi axborotlarni kuzatish usuli yordamida to‘plash mumkin. Huquqiy jarayonlarni bevosita kuzatishning ahamiyati yuridik dogmatika jihatidan yetarlicha baholanmayotgani haqida avstriyalik yurist Ye. Erlix: yuridik dogmatika maktab ta’limi kabi kamchiliklardan zahmat chekayotgani, o‘quvchi olamni alifbe va darsliklar orqali bilgani uchun haqiqatni hayotdan va tajribadan izlash o‘rniga qonunlar to‘plamlaridan va ularga yozilgan sharhlardan izlamoqda, – deb ta’kidlaydi. Huquqni bilish, eng avvalo hayotni, xatti-harakatlarni, urf-odatlar hamda huquqning aniq amalga oshirilishiga doir hujjatlarni (shartnomalar, vasiyatnomalar, bitimlarni) bevosita kuzatishdan iborat bo‘ladi. Huquqshunos kishilarning xulq-atvorini kuzatib va salmoqlab borishi darkor. Amaldagi joriy huquqni o‘rganish, eng avvalo huquqning amalga oshirilishi jarayoni hamda joriy huquqni bevosita kuzatish orqali sodir bo‘ladi.

Huquqiy munosabat va jarayonlarni kuzatishning asosiy xususiyati kuzatuvchining kuzatish obyekti bilan aloqasidir. Tadqiqotchining kuzatilayotgan huquqiy hodisalarni emotSIONAL idrok etishi, uning kuzatish natijalariga ishtyoqi, dunyoqarashi nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Huquq sohasida ham kuzatishning chetdan (ishtirok etmagan holda) kuzatish hamda qo‘silib (ishtirok etgan holda) kuzatish turlaridan keng foydalani-ladi. Chetdan kuzatishda tadqiqotchi o‘rganilayotgan obyektdan tashqari hamda hodisalarda ishtirok etmay, ularni ro‘yxatga oladi. Kuzatishning bu turidan kishilarning katta guruhlari jalb etilgan ommaviy jarayonlarni o‘rganish jarayonida foydalanadi. Qo‘silib kuzatishda esa kuzatuvchi o‘zi kuzatayotgan jarayonlar qatnashchilari bilan bevosita aloqada bo‘lib, ular

faoliyatida ishtirok etadi. Tadqiqotchi o'rganilayotgan guruhda o'z maqsad va vazifasini yashirib, uning ishtirokchisi sifatida qo'shilib kuzatishi nati-jasidagina eng to'g'ri ma'lumot olishi mumkin. To'la qo'shilib kuzatish usulidan industrial sotsiologiyada mehnat jamoasining kichik guruhlari o'rtasidagi o'zaro munosabat omillari hamda shakllarini o'rganishda keng foydalaniladi. Huquq sohasida to'la qo'shilib kuzatish usuli kamdan-kam qo'llaniladi. Ushbu usul huquq sohasi, ayniqsa IIO xodimlarining kriminal muhitni o'rganishda qo'llanilsa, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi istisno etilmaydi. Bu *bir tomon dan*, tadqiqotchi uchun xatarli bo'lishi mumkin, *ikkinchи tomon dan* esa ularning oldiga axloqiy va huquqiy xarak-terdagi murakkab vazifalarni qo'yadi. Shuningdek, bu kabi tadqiqotlarni o'tkazish u yoki bu huquqiy sohada normal munosabatlarning rivojlanishiga ziyon yetkazishi, tadqiq etilayotgan munosabat ishtirokchilarining huquqlarini cheklashi, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga zarar keltirishi mumkin.

Kuzatish uslubiga xos bo'lgan subyektivizmni yengib o'tish uchun sotsiologlar ko'pincha, uni empirik ma'lumotlar to'plashning boshqa usul-lari – hujjatlar tahlili, so'rovlar va sotsial eksperimentlar bilan to'ldirishga intiladilar.

Hujjatlar tahlili – hujjatlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tadqiqot nuqtai nazaridan o'rganish hamda tahlil qilishdan iborat. Huquq sotsiologiyasida foydalaniladigan hujjatlar orasida, eng avvalo matnli axborot manbalari, ya'ni matnli axborot bilan berilgan hujjatlarni ajratib ko'rsatish kerak. Huquq sotsiologiyasi uchun yuridik hujjatlar (qonun hujjatlari, sud va xo'jalik sudlarining ishlari, arizalar, shartnomalar, notarial hujjatlar va shu kabilar) asosiy matnli axborot manbalari hisoblanadi. Ushbu hujjatlar tahliliga yuridik-sotsiologik yondashuvning xususiyati shundaki, tadqiqotchi yuridik matnlarning an'anaviy mantiqiy-huquqiy tahlilidan tashqari ishning rasmiy tomoni ortida qanday ijtimoiy voqealar turganini, tegishli qonun ijodkorligi va qonunni qo'llash hujjatlarida qanday shaklda o'z ifodasi hamda e'tirofini topgani yoki topmagani va hokazolarni tush-nishga intiladi. Masalan, ijara shartnomasini sotsiologik o'rganishda shart-noma qatnashchilari aynan nimani istashlari, ularning istaklari hujjatdagi yuridik ta'rflarda qanchalik aynan aks ettirilgani, shartnomaning yuridik oqibatlari qandayligi hamda ular ahslashayotgan taraflarning har biri uchun qanday real ahamiyatga egaligini aniqlashga yo'naltirilmog'i darkor.

Matbuotni o'rganish, o'quvchilarning xatlari, fuqarolarning davlat organlariga yo'llagan shikoyatlari va murojaatlarining tahlili hamda shu kabilar yuridik-sotsiologik axborotning muhim manbai bo'lishi mumkin. Fuqarolarning hokimiyat organlariga yo'llagan, huquqiy yechimini talab

qiluvchi ijtimoiy muammolar ko‘tarilgan shikoyatlari va murojaatlari huquq sotsiologiyasi sohasi mutaxassislarida alohida qiziqish uyg‘otadi. Bunday murojaatlar mavzusining tahlili, odatda ijtimoiy hayotning og‘riqli nuqtalarini yetarli darajada to‘g‘ri aniqlash imkonini beradi. Chunonchi, 2017-yil – «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb qayd etilishi ham huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga murojaatlar tushishi, ya’ni ularni tahliliy jihatdan ko‘rib chiqib, haqqoniy xulosalarga kelish davr talabi bo‘lib qolishi kerak.

Huquq sotsiologiyasining barcha sohalarida so‘rov usulidan keng foydalilanadi. So‘rov – birlamchi axborot to‘plash usuli bo‘lib, tadqiqot-chining tadqiqot mavzusiga oid savollar bilan respondent (so‘raluvchi)ga og‘zaki yoki yozma murojaatini nazarda tutadi. So‘rov birlamchi sotsiologik axborot to‘plashning keng yoyilgan usulidir. Sotsiologik ma’lumot-larning deyarli 90 foizi shu usul yordamida qo‘lga kiritiladi. Sotsiologik so‘rovning asosiy turlariga intervyu (suhbatlashish) va anketalashtirish kiradi. Huquqiy munosabat va jarayonlarni ilmiy bilishda so‘rov usulining bu turlaridan o‘rinli foydalananish maqsadga muvofiqdir. Chunki birining o‘rniga ikkinchisini qo‘llash muvaffaqiyatsizlikka va ortiqcha sarf xarajat-ga hamda vaqtdan yutqazishga olib keladi.

Sotsiologik ma’lumotlarni olishda intervyu (suhbatlashish) o‘z o‘rniga ega bo‘lib, tadqiqotchi yoki intervyu oluvchining respondent bilan tadqiqot predmetiga oid masalalar bo‘yicha muayyan maqsadga qaratilgan suhbatidir. Bunday suhbat jarayonida intervyu oluvchi bilan so‘ralayotgan respondent o‘rtasida shaxsiy aloqa o‘rnatiladi, natijada intervyu oluvchi istas-istamasa o‘zi olayotgan axborotga ta’sir o‘tkazadi. Shu sababli bunday axborotning obyektivligi ko‘proq intervyu oluvchining professional tayyorgarligi va shaxsiy fazilatlariga bog‘liqdir. Ushbu vaziyat axborot to‘plash usulidagi kamchilikdir. Boshqa tomondan qaralganda, intervyu respondentning nuqtai nazarini to‘laroq va aniqroq bilib olish imkonini beradi, chunki respondent bilan bevosita muloqot, emotsional aloqa obyek-tini yanada chuqurroq bilib olish uchun alohida sharoit yaratadi, bunday sharoitni birorta, hatto juda yaxshi anketa ham yarata olmaydi.

Intervyu (suhbatlashish)ning imkoniyatlari cheklangan hamda jamoat-chilik fikrini yanada chuqur va har taraflama keng o‘rganish maqsadida so‘rovning anketalashtirish usulidan foydalilanadi. Anketalashtirish ayrim xususiyatlariga ko‘ra, intervyuga juda yaqin turadi, lekin undan bir nechta jihatlari bilan farq qiladi. Intervyuda beriladigan savollar alohida olingan respondentga qaratilgan bo‘lsa, anketa savollari ma’lum kishilar guruhiga qaratilgan bo‘ladi. Anketa usulida savollar respondentga yozma ravishda

beriladi. Anketada faqat savollar tizimi berilib qolmay, savollarga javob variantlari ham taqdim etiladi. Savol va javob variantlaridan tashqari qo‘yilgan masala yuzasidan respondentlarning o‘z fikrlarini bayon qilish uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalarini aniqlash hamda ularning samaradorligini oshirish maqsadida turli sotsial eksperimentlar o‘tkazib boriladi. Huquq sohasidagi sotsial eksperimentlar jamiyatning huquqiy tizimi va ularning tarkibiy tuzilmalarida empirik bilish usuli sifatida qo‘llaniladi. Sotsial eksperiment turiga kiruvchi huquqiy eksperiment XX asrning 20-yillaridan boshlab huquq sohasida faol qo‘llanila boshlangan. Chunonchi, Sh. Monteskye antik demokratiya davrida qonunlarni qabul qilish tajribasini tavsiflar ekan, vaqtincha (muvaqqat) amal qiladigan bunday huquqiy hujjatlarning senat qarori sifatidagi foydasini qayd etgan va qonunni uzil-kesil qabul qilishdan oldin uni sinab ko‘rish foydali bo‘lishini ta’kidlagan edi<sup>1</sup>. Huquqiy eksperiment – eksperimental omil sifatida huquqiy norma namoyon bo‘ladigan eksperimentdir. Huquqiy eksperimentda, ya’ni allaqachon amalda bo‘lgan normaning samaradorligi tekshiriladi yoki tayyorlanayotgan yangi huquqiy hodisaning ta’sirchanligi bashorat qilinadi. Shunday qilib, huquq sotsiologiyasidagi empirik sotsiologik tadqiqotlar umumsotsiologiyaning izlanish usullari yordamida amalga oshiriladi va takomillashib boradi. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining faoliyatida huquq sotsiologiyasining o‘rni va roli tobora orta boradi.

### Tayanch tushunchalar

Huquq sotsiologiyasi, jamiyatning huquqiy tizimi va uning tuzilishi, huquq sotsiologiyasining obyekti va predmeti, huquqiy institut va tashkilotlar, huquqiy munosabat va jarayonlar, huquq sotsiologiyasining asosiy vazifalari, huquq sotsiologiyasining tarkibiy qismlari, huquq sotsiologiyasining nazariy tadqiqotlar darajasi, huquq sotsiologiyasining empirik tadqiqotlar darajasi, huquq sotsiologiyasining tarkibiy qismlari: jinoyat huquqi sotsiologiyasi, oila huquqi sotsiologiyasi, ma’muriy huquq sotsiologiyasi, kuzatish, hujjatlar tahlili, so‘rov, suhbatlashish (intervyu), anketa-lashtirish, eksperiment, huquqiy eksperiment.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Huquq sotsiologiyasi qachon vujudga keldi?

<sup>1</sup> Монтескье Ш.Л. О духе законов. Избранные произведения. – М., 1955. – Б. 173.

2. Huquq sotsiologiyasining huquqshunoslik fanlardan farqli tomonlarini izohlab bering.
3. Huquq sotsiologiyasining obyekti va predmetini farqlab bering.
4. Huquq sotsiologiyasining huquqiy jarayonlarni o‘rganishda ahamiyati nimada?
5. Huquq sotsiologiyasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
6. Huquq sotsiologiyasining tarkibiy qismlari haqida so‘zlab bering.
7. Huquq sotsiologiyasining qanday tadqiqot darajalari mavjud?
8. Huquq sotsiologiyasida empirik tadqiqot darajasi bilan nazariy tadqiqot darajasini tahlil qilib bering.
9. Bugungi kunda huquq tizimi sohasida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda?
10. Huquq sotsiologiyasida qo‘llaniladigan usullarni sanab bering.
11. Huquq sotsiologiyasining IIO xodimlarining amaliy faoliyatidagi o‘rni haqida so‘zlab bering.
12. Huquq sotsiologiyasining umumsotsioliya fani bilan o‘xhash va farqli tomonlarini ko‘rsating.
13. Huquq sotsiologiyasi qaysi fanlar integratsiyasi natijasida yuzaga keldi?
14. Huquq sotsiologiyasining muammolarini aniqlang.
15. O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishda huquq sotsiologiyasining o‘rni haqida fikringizni bildiring.

## V BOB. JAMIYATNING SOTSIAL-DEMOGRAFIK TUZILISHI

### **1-§. Jamiyatning sotsial-demografik tuzilishi mohiyati, uning sotsial asoslanganligi va jamiyat rivojiga ta'siri**

Demografik muammolar hozirgi davr sotsial-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan birini tashkil qiladi. Chunki demografik jarayonlarning o‘zgarishi jamiyat ishlab chiqarish kuchlari va iqtisodiyotining rivojlanishi hamda aholining turmush tarziga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham demografik jarayonlarni har taraflama tahlil qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demografik jarayonlarni o‘rganishda juda ko‘p ma’lumotlardan foydalaniadi. Ko‘pchilik davlatlarda demografik ma’lumotlar statistika tashkilotlari tomonidan alohida tarzda to‘planadi. Ular aholi soni, tarkibi va demografik jarayonlarni aks ettirib, o‘z ichiga ushbu masalalarga oid raqamli jadval va diagrammali ma’lumotlar, ilmiy manbalar, sotsiologik-demografik tadqiqotlar natijalarini qamrab oladi. Dunyo miqyosida demografik ma’lumotlarni to‘plash BMT boshchiligidagi tuzilgan maxsus dastur asosida o‘tkaziladi.

Demografiya (yunon. «demos» – xalq va «grapho» – yozaman) – har yili turli sabablarga ko‘ra vafot etgan aholi o‘rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to‘ldirib borilishi qonuniyatlarini sotsial-tarixiy sharoitlarga bog‘liq holda o‘rganadigan fan<sup>1</sup>. Demografiyaga oid jarayonlarni tadqiq qilish asosan XVII asrning II yarmidan angliyalik olim J. Graunt tadqiqotlari bilan bog‘likdir. Demografiya terminini birinchi bor 1855-yilda fransuz olimi A. Giyar qo‘llagan. 1882-yilda Xalqaro gigiyena va demografiya kongressining Jeneva sessiyasida rasmiy ravishda qabul qilingan. Bu tushuncha XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida keng tarqaldi. Demografiyaning maqsadi muayyan hudud, mamlakat, dunyo aholisi va millatning takror barpo bo‘lishi jarayon va omillarini o‘rganish, muammolarni belgilab, yechimlarni aniqlash hamda istiqbolini ko‘rsatib berishdan iboratdir.

Sotsiologianing demografik jarayonlar bilan bog‘liq asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– demografik jarayonlar: tug‘ilish, o‘lim, oila va uning tarkibi, nikoh va ajralish, aholining yosh va jins bo‘yicha tuzilishi, aholining hududlar bo‘yicha joylashishi, migratsiya jarayonlarining jamiyat rivojiga ta’sirini aniqlash;

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т.3. – Т., 2002. – Б. 248.

- demografik mayl va ularning omillarini nazariy jihatdan o‘rganish;
- demografik bashorat ya’ni, ma’lum hudud aholisining soni, yoshi, jinsiy tarkibi va demografik vaziyati istiqbolini sotsiologik tadqiqotlar yordamida oldindan aniqlash;
- demografik siyosat yuritish hamda uning asosiy maqsadi – aholining miqdor va sifat jihatdan o‘sishini boshqarishdan iborat chora-tadbirlarini ishlab chiqish nazarda tutiladi.

Darhaqiqat, demografik siyosat – jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy-madaniy hamda sotsiologik siyosatining ilmiy asosini tashkil etmog‘i lozim. Shunda, jamiyat har tomonlama muntazam rivojlanib boradi hamda aniq ma’lumotlar jamlanadi.

Jamiyatning sotsial-demografik tuzilishi aholining hayot jarayonlari bilan bog‘liq: tug‘ilish, o‘lish, oila, nikoh, ajralish, migratsiya (ko‘chish) hamda jins va yosh bilan bog‘liq munosabatlар majmui tashkil qiladi. Uning asosiy ko‘rsatkichlari: aholi soni, tuzilishi, tug‘ilish va o‘lish, nikoh va ajralish, uning ma’lum hududlarga tarqalishi, shahar va qishloq aholisining migrantsion almashuvi, shuningdek ularga bo‘lgan har xil davrlarda turli moddiy va ma’naviy hamda boshqa omillarning ta’siridir.

Aholi mohiyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi uchta jihatga ega. *Birinchisi*, aholining biologik birlik ekanligidir. Ushbu jihatga ko‘ra, insonda biologik mavjudot sifatida ko‘payish hamda biologik jamlama sifatida takror barpo bo‘lishga xos rivojlanishdir. *Ikkinchisi*, aholi sotsial-biologik kategoriyadir. Bu jihat bo‘yicha aholi sotsial va biologik munosabatlarning o‘ziga xos davomchisi hisoblanadi. Uchinchisi, aholi sotsial hodisa bo‘lib, ya’ni sotsial aloqalar orqali birlashgan insonlar jamlamasini sifatida yuzaga chiqadi<sup>1</sup>. Har bir individ mana shu jamlamaning kichik bir elementi sifatida ishtirok etadi.

Inson jamlamasiga kirgan har bir individ, avvalambor biologik hodisa hisoblanadi. Chunki odam tirik tabiat mavjudotlarining eng oliy turidir. Ovqat hazm qilish, muskullar faoliyati, qon aylanishi va nihoyat ko‘payishi ham biologik jarayon hisoblanadi. Insonlarning boshqa hayvonot olami vakillari bilan o‘xshashlik jihatlari aynan ushbu tabiiy alomatlarda yuzaga chiqadi. Inson nafaqat biologik, balki ijtimoiylashuv jarayonlarining ham mahsulidir. Shuning uchun inson omili va mohiyati sotsial rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, sotsial mehnatning mahsulidir. Inson tug‘ilishi bilan insoniy xususiyatlarga ega bo‘lib qolmaydi, balki butun hayoti davomida boshqa insonlararo munosabatlari natijasida uni egallay

---

<sup>1</sup> Социология: Учебник для вузов // Под.ред. В.Г. Осипова, Л.Н. Москвичева. – М., 2003. – С. 242.

boradi. Mana shu ma'noda inson jamlamasi biologik va sotsial funksiyaling tashuvchisi sifatida ma'lum aholini tashkil qiladi.

Aholi ko'plab belgi va xususiyatlarga ega bo'lib, ular ma'lum funksiyalarni bajarishda namoyon bo'ladi. Ulardan eng asosiyilari – ishlab chiqarish, iste'mol va ko'payish funksiyalaridir. Ular turli tarixiy davrlardagi jamiyatlarda turlichcha o'lchovga ega bo'lgan. Masalan, ishlab chiqarish funksiyasi: sotsial mehnat samaradorligi ko'rsatkichlari yordamida yuzaga chiqsa, iste'mol – aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish hamda takror barpo bo'lish esa reproduktiv yoshdagi ayol tomonidan dunyoga keltirilgan bolalar soni sifatida paydo bo'ladi. Bulardan tashqari, aholining boshqa funksiyalari ham mavjud bo'lib, ular jumlasiga sotsial va migrantsion harakatchanlik kiradi. Mazkur funksiyalar aholi faoliyatining turli jihatlarini tavsiflaydi. Aholining serqirra ekanligini inson faoliyatini turli jihatlardan o'rganuvchi ko'pgina fanlar ham tasdiqlaydi. Masalan, demografiya, aholi geografiyasi, etnografiya, aholishunoslik iqtisodiyoti, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya va boshqa bir qator fanlar aholining umumiy yoki uning ma'lum bir qismining tadqiqot obyekti bo'lib yuzaga chiqadi.

Aholining demografik tuzilishi va funksiyalari doimiy harakatda bo'lgan dinamik tizimdir. Aholi harakati uchta tur bilan farqlanadi: *sotsial*, *tabiiy* va *migrantsion*. Sotsial harakatni tor va keng ma'nolarda talqin qilish mumkin. Keng ma'nodagi sotsial harakatda barcha sotsial munosabatlar, shu jumladan, demografik munosabatlar ham kiradi; tor ma'nodagi sotsial harakat deganda, odatda faqat o'ziga xos doiradagi munosabatlar tushuniladi. Bunga misol qilib aholining sotsial sohadagi harakatlarining barcha turlarini kiritish mumkin. Faqat tabiiy va migrantsion harakatlar bundan mustasno! Aholi harakatini uchta turga ajratib ko'rsatish, bizningcha, har biri bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Ma'lumki, dunyodagi barcha sotsial-tarixiy jarayonlar bir-biri bilan o'zaro jips holda bog'liq bo'lgan. Aholi harakatining barcha turlari uzlusiz ravishda, organik birlikda inson jamlamasining u yoki bu xususiyatini o'zgartirgani holda amalga oshadi. Bu holatni uchta xususiyatga bo'lish mumkin. *Birinchidan*, ma'lum xususiyatlar (jins, irq, yosh va h.k.) tug'ilish bilan bog'liq yoki o'zgarmasdan qoladi yoxud vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. *Ikkinchidan*, ijtimoiylashuvi mobaynida orttirib boriladi (bilim, til va h.k.). Uchinchidan, qisqa vaqt mobaynida o'zgarishi va takomillasha borishi mumkin (masalan, toifa, sotsial maqomi va h.k.).

Jamiyatning sotsial-demografik tuzilishini o'rganishda aholining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. *Demografik jarayonlarning miqdor ko'rsatkichlariga* – aholining soni,

uning o'sish darajasi, oila va uning tarkibi, aholining yoshi va jinsi bo'yicha tarkibi, har xil toifadagi kishilar ma'lumoti, kasbiy mahoratiga ko'ra farqi, jismoniy va aqliy mehnat bilan shug'ullanayotganlarning tarkibi, migratsiya jarayonining hajmi va yo'nalishi, aholining ma'lum bir hudud-larga taqsimlanishi kiradi. *Demografik jarayonlarning sifat ko'rsatkichlariga* – aholining sog'lig'i hamda ular umrining uzunligi kiradi. Aholi sog'lig'i, umrining uzunligi hamda ish qobiliyatini oshirish jarayonlaridagi faolligi ishlab chiqarish samaradorligini yanada yuksaltirish uchun katta ahamiyatga egadir.

Shuningdek, insonlarning har qanday jamlamasи miqdor va sifat o'zgarishlariga duchor bo'lishi tabiiy holdir. Miqdor o'zgarishlar ichki harakat oqibati, ya'ni ko'payish jarayoni hamda tashqi, aholi migratsiyasi natijasiga ko'ra yuzaga keladi. Ichki va tashqi harakatlar ham miqdor, ham sifat o'zgarishlariga olib kelsa-da, sotsial harakat aholi xususiyatlarining faqat sifat o'zgarishlariga olib keladi, xolos. Migratsion jarayon ko'p hollarda nafaqat sotsial rivojlanish, balki tabiiy harakat bilan ham bog'liq bo'lib, sotsial harakatga o'z ta'sirini o'tkazadi. Insonning yoshi osha borishi bilan uning aqliy tajribasi va malakasi ortadi hamda aholining sifat jihatdan o'zgarishlariga o'z hissasini qo'shadi. Bunda har qanday jamiyatning o'zligi va ma'naviy qiyofasi, turmush tarzidagi ijobiy o'zgarishlar har bir jamiyat aholisi donishmandligi va taraqqiyotdagi barqarorligi bilan hamda tinchtotuv yashashi va istiqboliga ko'ra belgilanadi. Demak, mazkur sotsiologik tahlil mamlakatimiz aholisi uchun naqadar zarurligini yana bir bor qayd qilamiz.

Aholining takror barpo bo'lishi natijasida uning miqdori – tug'ilish va o'lim, demografik tarkibi esa aholi qatlamlarining bir yoshdan ikkinchi yoshga o'tishi hamda migratsiya jarayonlari bilan o'zgaradi. Ayni paytda tabiiy harakatdan farqli o'laroq, migratsiya – bu aholining demografik makondagi harakatidir, uning hudud bo'yab taqsimlanishidir. Demak, migratsiya – ko'chib o'tishlar sodir bo'layotgan ma'lum bir hudud doirasida aholi miqdorining o'zgarishiga olib kelmaydi, balki muayyan hudud (mamlakat)ning ayrim qismlaridagi aholi soni va tarkibi o'zgaradi, xolos.

Tadqiqotlar migratsiya va aholining takror barpo bo'lishi o'rtasida o'xshashlik mavjudligini ko'rsatadi. Aytish joizki, ikkalasiga ham ikkita tarkibiy qismlarning ta'siri o'ziga xosdir: ijobiy (tug'ilish, kirish) va salbiy (o'lim, chiqish). Migratsiya va takror barpo bo'lish jarayonlari – demografik dinamikaning ikkita tarkibiy qismidir. Aholining takror barpo bo'lishi va migratsiyasi o'rtasida yetarli darajada quyidagicha tafovutlar mavjud:

*Birinchidan*, bu ikki jarayon aholi harakatining ikki turi hisoblanadi. Takror barpo bo'lish jarayoni aynan insonlar jamlanmasida sodir bo'ladi

va uning uchun ikkita harakat (tug‘ilish, o‘lim) o‘ziga xosdir. Migratsion jarayonlar esa bundan mustasno, ya’ni migratsiya tashqi hodisa hisoblanadi.

*Ikkinchidan*, aholining takror barpo bo‘lish jarayonida: tug‘ilish, o‘lim har ishtirokchi uchun bir marta sodir bo‘ladi, migratsiyada esa emigratsiya, ishtirokchilar uchun ko‘p marta takrorlanishi mumkin.

*Uchinchidan*, reproduktiv mayl aholining takror barpo bo‘lish holatiga bevosita ta’sir qiluvchi ehtiyojlar bilan determinantlashadi. Bular oila qurish va bola orttirish ehtiyoji, o‘zidan keyin avlod qoldirish ehtiyoji, bolalar dunyoga kelgandan keyingi hayotiy ehtiyoj, ya’ni oila va farzand munosabatlari bilan bog‘liq boshqa ehtiyojlar nazarda tutiladi. Migratsiya-da esa aholi ayrim qismlarining sotsial-iqtisodiy maqomini o‘zgartirish ehtiyojlari bilan asoslanadi. *Birinchi holatdagi* ehtiyojlar – demografik maylning ichki maqsadi, uning birlamchi unsuri bo‘lsa; *ikkinci holatda* – migratsiya odatda moddiy ehtiyojlarni qondirish vositasi bo‘lib yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham oilaning farovonlik darajasi bolalarga bo‘lgan ehtiyojiga nisbatan qarama-qarshi bog‘liqlikda bo‘lsa, migratsion ko‘chishlarda nisbatan to‘g‘ri bog‘liqlikda bo‘ladi.

*To‘rtinchidan*, takror barpo bo‘lish jarayonlari bilan aholining shunday demografik xususiyatlari bog‘liqki, ular inson hayoti davomida (jins) o‘zgarmasdan qoladi yoki vaqt o‘tishi (yosh) bilan o‘zgaradi. Shu bilan birga, migratsiya o‘zgaruvchan sotsial xususiyatlar bilan o‘zaro ta’siriga ko‘ra, ularning ayrimlarini migratsiya doimo (turar joy, mehnat) boshqalarini esa ba’zan (kasb, malaka) o‘zgartirib turadi.

*Beshinchidan*, migratsiya aholining takror barpo bo‘lishidan obyektiv omillarga yetarli darajada kuchli bog‘liqligi bilan tubdan ajralib turadi. Migratsiya sotsial-iqtisodiy rivojlanish parametrlari – ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, urbanizatsiyaning jadalligi va hokazolar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Aholi harakati uchta turining mavjudligi, o‘z navbatida demografik bilimlar tizimi chegaralari bo‘yicha uchta yondashuvning kelib chiqishini taqozo etadi. Ayrim iqtisodchi – demograflar demografiya aholi harakati ning barcha turlarini o‘rganish kerak, deb hisoblashsa, boshqalari – aholi takror barpo bo‘lishini o‘rganish kerak, deb chegaralab qo‘yishadi, uchin-chilari esa demografik bilimlar tizimiga aholining ham tabiiy, ham migratsion harakatini kiritadi.

Bizningcha, ushbu darajalar ichida eng ommabopi uchinchi nuqtai nazar bo‘lib, ya’ni demografik bilimlar predmetini tabiiy va migratsion harakat tashkil etadi.

**Dunyo aholisi.** Aholining takror barpo bo‘lish jarayonlari natijasiga muvofiq Yer yuzi aholisi doimiy va uzlucksiz yangilanib boradi. Dunyo

aholisi 2016-yilga kelib 7,3 milliard kishini tashkil qildi<sup>1</sup>. Aholi soni ko‘p-ligi jihatidan dunyoda birinchi o‘rinda Xitoy, ikkinchi o‘rinda Hindiston davlatlari turadi. Aholisining ko‘payishi yil hisobiga o‘sish tezligi jihatidan Xitoyga nisbatan Hindistonda baland bo‘lganligi uchun 2028-yil Hindiston birinchi o‘ringa chiqishi taxmin qilinmoqda. 1991-yilda aholi soni jihatidan uchinchi o‘rinda sobiq Sovet ittifoqi turgan. U parchalanib ketgandan so‘ng, uchinchi o‘rinni AQSH egalladi. 2016-yilga kelib AQSH aholisi 323 mln kishini tashkil qildi. Indoneziya va Braziliya davlatlari to‘rtinchi va beshinchi o‘rinlarni, Pokiston, Bangladesh, Nigeriya va Rossiya mamlakatlari oltinchi, yettinchi, sakkizinchi va to‘qqizinchi o‘rinlarda turishadi.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 1994–2014-yillar davomida 60 yoshdan oshgan kishilar soni ortib borgan. 2014-yilga kelib qariyalar soni 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar soniga nisbatan ikki baravarga ko‘paygan. BMT taxminlariga ko‘ra, 2050-yillariga borib dunyo aholisining yarmi Osiyoda, to‘rtadan bir qismi Afrika mamlakatlarida, 8,2 % Lotin Amerikasida, 7,4 % Yevropa qit’asida, 4,7 % Shimoliy Amerikada yashaydi<sup>2</sup>.

BMT va Vashington universiteti olimlari tadqiqotlariga ko‘ra, dunyo aholisi taxminan 2100-yilga borib, 11 milliard kishini tashkil qiladi. 2009-yilda insoniyat tarixida shahar aholisi qishloq aholisi bilan tenglashdi. Hozirgi paytda shahar aholisi shiddat bilan o‘sib bormoqda.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisi quyidagicha o‘sib borgan: 1820-yil – 1 milliard, 1927-yil – 2 milliard, 1960-yil – 3 milliard, 1974-yil – 4 milliard, 1987-yil – 5 milliard, 1999-yil – 6 milliard, 2011-yil 31- oktabrda 7 milliard kishini tashkil qilgan.

Agar aholi o‘sish dinamikasida jiddiy o‘zgarishlar yuz bermasa, 2024- yilga borib, dunyo aholisi 8 milliardga yetadi.

Aholisi soni 80 mln kishidan ortiq bo‘lgan mamlakatlar 2016-yil hisobi bo‘yicha<sup>3</sup>:

<b>№</b>	<b>Mamlakatlar</b>	<b>Aholisi</b>	<b>Yillar hisobiga o‘sishi</b>
1	XXR	1 373 541 278	0,481 %
2	Hindiston	1 266 883 598	1,312 %
3	AQSH	323 995 528	0,899 %
4	Indoneziya	258 316 051	1,04 %
5	Braziliya	205 823 665	1,102 %
6	Pokiston	201 995 540	1,551 %

<sup>1</sup> ria.ru. Проверено 5 февраля 2016.

<sup>2</sup> // www.census.gov. Проверено 1 февраля 2016.

<sup>3</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Служебная:ссілки сюда / Население, Земли>.

7	Nigeriya	186 053 386	2,553 %
8	Bangladesh	171 696 855	1,579 %
9	Rossiya	146 544 710	0,190 %
10	Yaponiya	126 702 133	- 0,077 %
11	Meksika	123 166 749	1,086 %
12	Filippin	102 624 209	1,873 %
13	Vyetnam	95 261 021	1,054 %
14	Efiopiya	90 076 012	3,179 %
15	Misr	90 067 793	1,922 %
16	Eron	82 801 633	
17	Kongo	81 331 050	
18	Germaniya	80 722 792	- 0,2 %

Jahon bankining ma'lumotlari ko'ra, O'zbekiston davlati aholi soni bo'yicha dunyoda 43-o'rinda turadi. Dunyo aholisi asosan rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga ko'payadi. Rivojlangan davlatlarda esa aholi darajasi kam o'zgaradi. Aholisi tobora kamayib boradigan Yevropa mamlakatlari bundan mustasno. Yer yuzida odamlar soni kutilganidan ham tez ko'payib borayotgani tufayli BMT iqtisodchilari avvalgi farazlariga o'zgartirish kiritishlari kerak bo'ladi. Shunday qilib, 2028-yilga borib Hindiston aholi soni bo'yicha Xitoyni ortda qoldiradi. O'sha vaqtga borib, ushbu mamlakatlarning har birida aholi soni 1,45 milliard kishiga yetadi. Shundan keyin Hindiston aholisi ko'payishda davom etsa, Xitoyda, aksincha qisqarish boshlanadi. Ekspertlarning fikricha, odamlar sonining ko'payib borishiga rivojlanayotgan mamlakatlarda tug'ilish sonining ortishi hamda dunyo bo'yicha umr ko'rish davomiyligining uzayib borayotgani sabab bo'lmoqda!? BMT ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi 1950–1955-yillardan to 2005–2010-yillarga qadar 47-yildan 69-yilga uzaygan. Ushbu ko'rsatkich xuddi shu maromda o'sib borishi kutilmoqda.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilda Yer yuzi aholisining 22 foizini pensionerlar tashkil qiladi. Har bir soniyada ikki kishi o'zining 60 yoshini nishonlamoqda. BMT farazlariga ko'ra, XXI asr o'rtalariga borib, Yer yuzida 100 yoshdan oshgan 3,2 millionga yaqin keksalar istiqomat qiladi. Bugungi kunda ularning soni 300 mingdan oshib ketgan. 2050-yilda aholining o'rtacha yoshi 76 va 2100-yilda 85 yoshni tashkil qiladi. Bunga sog'liqni saqlash tizimining yaxshilanishi, iqtisodiy farovonlik sabab bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda esa har bir ishlayotgan xodimga bir nafar pensioner to'g'ri keladi?!

Avlodlar bardavomligini ta'minlash uchun bitta ayolga o'rtacha 2,1 nafar bola to'g'ri kelishi kerak. Janubiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari-da demografik vaziyat ayanchli holatda ekanligi qayd etilmoqda. Bunday

ayanchli vaziyat Germaniyada ham kuzatilmogda. Bir qator Yevropa mamlakatlari xalqlarining kelajagini demografik jihatdan porloq yoki istiqbolli deb bo‘lmaydi. Agar tug‘ilish shu darajada davom etadigan bo‘lsa, 40 yildan keyin Yevropa mamlakatlarining aholisi 100 million kishiga kamayadi. 60 yoshdan oshgan fuqarolar soni 47 foizga ko‘payib, mehnatga yaroqli fuqarolar 24 foizga kamayadi. Bu o‘z navbatida Sayyoraning oldingi qatorida turgan mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishiga hamda sog‘liqni saqlash sohasi va harbiy qudratiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi!

Yevropa, AQSH va Kanadaning jahon Yalpi ichki mahsulotidagi hissasi 2050-yilda 30 foizga kamayadi. Aytish joizki, demografik muammolar bilan faqat Yevropa xalqlari to‘qnash kelayotgani yo‘q. Tez orada Janubiy Koreya, Yaponiya, Tayvan, Singapur va hatto Xitoy ham mehnatga yaroqli fuqarolarga muhtojlik sezadi. Bu jihatdan AQSH muayyan darajada muammoni bartaraf etishi mumkin. Bu mamlakatda yaqingacha bir ayolga 2,4 bola to‘g‘ri kelardi. So‘nggi ikki yilda bu ko‘rsatkich ancha pasaydi. Biroq «okean orti»ga muhojirlar emigratsiyasi bu muammoni hal qilish imkonini bermoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa boshqacha vaziyatni kuzatish mumkin. Bu mamlakatlarda har 15 oyda aholi 100 million kishiga ko‘paymoqda. Bugungi kunda 15 yoshdan kichik har 10 nafar bolaning 9 nafari rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqomat qiladi. Demak, 2050-yilda jahon aholisining 70 foizi kam daromad ko‘radigan 25 mamlakatda istiqomat qiladi. Qayd qilish lozimki, jahon yoshlari ko‘pchiligining ish topish qiyin bo‘lgan mamlakatlarda istiqomat qilishi, ya’ni bu davlatlarning qashshoqlashuviga, g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan radikallashuvi hamda jahonda yangi «qaynoq nuqta»larning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi ehtimolidan holi emasligini ta’kidlaymiz!

## **2-§. Aholining jins va yosh bo‘yicha tarkibi. Aholining tug‘ilishi va o‘limiga ta’sir etuvchi omillar**

*Aholi tarkibi to‘g‘risida tushuncha.* Aholi tarkibi – bu aholining muayyan o‘zgaruvchan belgilariga ko‘ra taqsimlanishidir. Aholi tarkibini tadqiq qilishda turli xil tavsiflardan foydalaniladi. Aholi tarkibi va tuzilishi sotsiologiya fanidan tashqari demografiya, tarix, falsafa, iqtisodiyot, statistika va boshqa fanlar ham o‘rganadi. Aholi tarkibini o‘rganishda tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, o‘ziga qulay bo‘lgan tavsifdan foydalanish mumkin. Odatta, turli fan vakillari (demograflar, iqtisodchilar, tarixchilar, faylasuflar, sotsiologlar va h.k.) aholi tarkibini quyidagi o‘zgaruvchan belgilarga asoslanib tavsiflaydi:

- aksriptiv (*tug‘ilganda hisobga olinuvchi*) tavsiflar: *jins, yosh, irqiy mansublik, etnik mansublik va boshqalar;*
- sotsial tavsiflar: *nikoh holati, savodxonlik va bilim, məktəbda o‘qitilishi (bolalar va o‘səmirlar uchun), kelib chiqishi, ona tili, fuqarolik holati, diniy mansubligi va hokazo;*
- iqtisodiy tavsiflar: *daromad manbai, iş bilan bandlik maqomi, kasbi, mutaxassisligi va hokazo;*
- migratsion tavsiflar: *tug‘ilgan joyi, mazkur aholi manzilgohida qancha vaqtdan beri yashayotganligi yoki bu vaqt ichida yashash joyini nechta marta o‘zgartirganligi va hokazo;*
- vitol (demografik) tavsiflar: *nikohga kirish yoshi, nikoh tartibi, tug‘ilgan farzandlar soni, homiladorliklar soni, genetik oraliqlar (intervallar), tug‘ilishlar soni, o‘limlar soni, o‘lik tug‘ilganlar soni va boshqalar;*
- oila (uy xo‘jaligi) tavsiflari: *uy xo‘jaligi turi, kattaligi, tarkibi va boshqalar nazarda tutiladi.*

Aholini ro‘yxatdan o‘tkazish va demografik hodisalarini hisoblash olish jarayonida aholi tuzilishiga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risidagi ma’lumotlar inobatga olinadi. Ushbu omillar bo‘yicha aholi tarkibi haqidagi umumlashgan ma’lumotlar tuziladi. Sotsiolog uchun aholining takror barpo bo‘lishiga bevosita va bilvosita bog‘liq bo‘lgan aholi tarkibi hamda tavsiflari muhimdir. Chunki ulardagi o‘zgarishlar bevosita hamda eng katta ta’sir qiluvchilardir. Bunday tarkiblar «demografik tavsiflar» deb yuritiladi.

Demografik tavsiflarga quyidagilar kiradi: *jins, yosh, nikoh va oilaviy holati, shuningdek, yuqorida aytilgan vitol hodisalar tavsifi.* Demografik o‘zgaruvchilar ichida birinchi o‘rinlar *jins* va *yosh* hamda *oilaviy holati* tavsiflariga tegishlidir. Sotsiologiya demografik tarkiblar ichida ko‘proq aholining – *jins, yosh, nikoh* va *oila* tarkiblariga tegishli muammolarni o‘rganadi.

***Aholining jins va yosh bo‘yicha tarkibi.*** Jamiyatda moddiy narsa va predmetlar ishlab chiqarish yoki ma’naviy sohani yuksaltirishda, ayrim sohalarda erkaklarning mehnati, ayrim sohalarda esa xotin-qizlar hamda yoshlarning fidoyi mehnati talab qilinadi. Aholining jinsi va yoshi bo‘yicha tuzilishini o‘rganib, tahlil qilib borish mamlakat mehnat salohiyatining rivojlanish sur’atlarini aniqlashga katta imkoniyat yaratadi.

***Aholining jinsiy tarkibi.*** Aholining jinsiy tarkibi – aholining erkaklar va ayollarga taqsimlanishidir. Aholining jinsiy tarkibini o‘rganish muhim demografik va sotsial-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, «*jins*» tushunchasiga to‘xtalamiz. Biologiya fani jinsnı aholi ko‘payishini ta’minlab beruvchi organizmning genetik, morfologik va fiziologik xususiyatlarining

jamlamasi sifatida tahlil qiladi. Bu fan insonga nisbatan jins odam tanasining (genetik, morfologik va fiziologik) reproduktiv, xulqiy-axloqiy, ijtimoiy va ruhiy alomatlarining majmuasi sifatida ko'rib chiqadi hamda insonni erkak yoki ayol sifatidagi shaxsiy biologik va sotsial maqomini belgilab beradi.

Demografiyada jinsiy tarkibni tasavvur qilishning quyidagi ikkita yondashuvidan foydalilanadi: *birinchisi, jami aholi yoki ayrim yosh guruhidagi erkaklar va ayollarning mutlaq soni va ulushining teng hisobi; ikkinchisi, jami aholi yoki ayrim yosh guruhidagi erkaklar sonining ayollar soniga nisbati yoki aksincha nazarda tutiladi.*

Ma'lumki, odatda jinslar nisbati erkaklar sonining har 100 yoki 1000 ayolga to'g'ri keladigan nisbati orqali hisoblab chiqilishi bilan aniqlanadi, aksincha kam holatlarda ayollar sonining har 100 yoki 1000 erkakka to'g'ri keladigan nisbati ham olinadi. Aholining jinsiy tarkibi uchta omilning birgalikdagi ta'siriga bog'liq bo'ladi: tirik tug'ilganlar orasida o'g'il bolalar sonining qiz bolalar soniga nisbati; differensial o'lim darajasi, ya'ni turli yosh guruhidagi erkaklar va ayollar o'rtaсидаги о'лим darajasining farqi; migratsiya jadalligidagi jinslar farqi hisobiga olinadi. Birinchi omil (jinslarning ikkilamchi nisbati) barcha aholi uchun amaliyatda bir xil va o'zgarmasdir. Shuning uchun bu yerda asosiy rol differensial o'lim darajasi va migratsiya jadalligidagi jinslar farqiga tegishli, ya'ni ular mavjud siyosiy-huquqiy va sotsial-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Aholi jinsiy tuzilishi tarkibi jihatidan erkak va ayollarga bo'linadi. Yosh jihatidan esa go'daklar, bolalar, yoshlar, o'spirinlar hamda qariya va keksalarga bo'linishi biologik asosga ega bo'lib, konkret tarixiy sharoitlarning natijasi hisoblanadi. Ma'lumki, tabiiy qonuniyat sifatida o'g'il bolalarning tug'ilishi qiz bolalar tug'ilishiga nisbatan har doim yuqori bo'lib kelgan. U asosiy biologik o'zgarmas konstanta bo'lib hisoblanadi va taxminan 100 nafar tug'ilgan qiz bolalar soniga 105–106 nafar o'g'il bolalar soni to'g'ri kelgan. Boshqacha aytganda, har 1000 nafar tug'ilgan chaqaloqlarga doimo taxminan 512 nafar o'g'il bola va 488 nafar qiz bola to'g'ri keladi<sup>1</sup>. Statistik ma'lumotlar yana shundan dalolat beradiki, tug'ilganlar orasidagi o'g'il bolalar hissasi onalar yoshining ulg'ayishi va tug'ilish tartib raqaming oshishi bilan kamayib boradi. Masalan, 20 yoshgacha bo'lgan onalarda har 100 nafar qizaloqqa 130 nafar o'g'il bolalar to'g'ri keladi, 38-42 yoshdagи onalarda esa bu nisbat 90 nafarni tashkil qiladi (110 nafar qiz va 90 nafar o'g'il).

---

<sup>1</sup> Бреева Е.Б. Основи демографиии. – М., 2009. – С. 65.

Jamiyatda aholining jins jihatdan tuzilishi borasida olib borilayotgan demografik siyosat ham oqilona taraqqiyotga katta ta'sir qiladi. Masalan, 1950-yillarda Hindistonda tug'ilishni boshqarishga qaratilgan siyosat olib borilgan bo'lsa, 1980-yillarga kelib, 67 ta davlatda shunday siyosat olib borila boshlandi. Bunday siyosat hozirgi paytda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlarida davom etmoqda.

Qayd etish mumkinki, O'zbekistonda tug'ilishning kamayish jarayoni XX asrning 70–80-yillarida kuzatildi. Aytish joizki, mamlakatimizda jinslar nisbatining buzilish holatlari kuzatilayotgani yo'q!

**Aholining yosh tarkibi.** Demografik jarayonlarning zaruriy elementlaridan biri kishilarning yoshidir. Aholining yosh tarkibi mamlakatning sotsial-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aholining yosh tarkibini o'rghanishdan oldin «yosh» tushunchasining mohiyatini ohib berish maqsadga muvofiqdir. Yosh – bu insonning tug'ilishidan boshlab, uning hayoti davomidagi o'tgan vaqtidir. Shuningdek, eng muhim demografik tavsiflardan bo'lib, u yillarda, oylarda, haftalarda, kunlarda va soatlarda hisoblanadi. Yosh obyektiv tavsif bo'lishiga qaramasdan inson hayotining yosh davri biroz o'zgaruvchan bo'lib, umrining uzunligi evolutsiyasi mobaynida yanada takomillasha boradi. Ya'ni bundan bir asr muqaddam «keksalik» deb yuritilgan yosh hozirda «keksalikka kirish» yoki «o'rta yosh» deb hisoblanmoqda.

Jamiyatdagi demografik jarayonlar insonlarning ma'lum vaqt, davr yoshida amalga oshadi. Shuning uchun ham sotsiologiyada yosh har qanday demografik jarayonlarning eng muhim tavsifi sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan o'lgandagi yosh (o'lim yoshi), nikohga kirish yoshi (nikoh yoshi) va bola tug'ish yoshi (tug'ish yoshi), deb nomlanuvchi yoshlar va hokazolar haqida gapirish mumkin.

Kuzatish vaqtidagi muayyan guruh kishilarning yoshi haqidagi ma'lumot aholining yosh tarkibini shakllantirish imkonini beradi. Yosh barcha demografik jarayonlarning umumiyligi koordinatasini hisoblanadi. Ularning universal va mustaqil o'zgaruvchisi bo'lib, inson hayotidagi istalgan hodisalarini ro'yxatga (hisobga) olishda e'tiborga olinadi. Demak, insonning yoshi tug'ilgan daqiqadan uning hayoti davomidagi o'tgan vaqt bilan o'lchanadi. Demografiyada esa yoshning uchta ta'rifidan foydalaniлади: *aniq yosh, yillar to'lgandagi yosh va kalendar yillarning farqi sifatida hisoblangan yosh*. U yoki bu ta'rif, ya'ni mavjud ma'lumotlar va maqsadlarni hisobga olinishi bilan tanlanib, ular uchun yosh hisoblab chiqiladi.

*Aniq yosh* – imkonli boricha maksimal aniqlik bilan o'lchanagan, tug'ilgan vaqtidan joriy daqiqasigacha bo'lgan davr oralig'iga tengdir. Masalan, insonni tug'ilgan vaqtini aniq bilgan holda aytish mumkinki,

ma'lum vaqtida uning yoshi 45 yil 5 oy 25 kun 7 soat 30 minut 55 sekundga teng bo'ladi.

*Yillar to'lgandagi yosh* – bu aniq yoshning to'liq sonlarga ega bo'lma-gan qismidir, u oxirgi tug'ilgan kundagi aniq yoshiga tengdir. Aynan shu yosh bo'yicha odatda «*Yoshingiz nechtada?*» degan savolga javob beriladi. Matematik jihatdan bu pastga qarab to'liq songacha qoldiq qismlar kattaligini hisobga olmasdan yaxlit bo'lishini anglatadi.

*Kalendar yillarning farqi sifatida hisoblangan yosh* – bu o'z ta'rifidan ham nimani anglatishini bildirib turibdi. Agar kishilarning tug'ilgan yili ma'lum bo'lsa (masalan, 1959-yil), bunda uning kalendar yillar farqi bo'yicha yoshi joriy tug'ilgan yilining farqiga tengdir (masalan, 2016–1959 = 57). Ta'kidlash joizki, kalendar yillar farqi sifatida hisoblangan yosh, agar tug'ilgan kunigacha hisoblab chiqilmasa yillar to'lgandagi yoshga teng bo'lmasligi mumkin. Haqiqatda «kalendor yillar farqi sifatidagi 57 yosh» jamlamasi inson 56 yoki 57 yil to'lgandagi yoshga tengligini anglatadi yoki o'z ichiga 56 dan 58 yoshgacha bo'lgan yillarni oladi.

Yosh haqidagi ma'lumotlar: aholini ro'yxatdan o'tkazish, maxsus tekshiruvlar, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishlarni qayd qilish jarayonlarida olinadi. Bu masala nafaqat sotsiolog uchun, balki boshqa sotsial soha mutaxassislari uchun, ayniqsa demograflar uchun ham juda muhimdir. Chunki yosh nafaqat demografiyada, balki deyarli barcha sotsial jarayonlarda mustaqil o'zgaruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, aholining yosh tarkibi – bu aholining yosh guruhlari va yosh kontingentlari bo'yicha taqsimotdir.

Shunday qilib, aholi yosh tarkibining xususiyatlarini anglash orqali istiqboldagi tug'ilish va o'lim tendensiyalari, shuningdek aholining takror barpo bo'lishi haqida ilmiy jihatdan asoslangan mulohazalar chiqarish mumkin. Ushbu xususiyatlarni bila turib, iqtisodiy va sotsial sohalarda u yoki bu muammolarning vujudga kelish ehtimolini baholash, mehnatga layoqatli aholi va ishchi kuchining dinamikasini faraz qilish, tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, ularga bo'lajak talablar hamda mintaqalarda saylovchilarining natijalari va shunga o'xshash masalalarni bilish imkoniyatini yaratadi.

Aholining yoshi bo'yicha tuzilishi – progressiv yoki regressiv bo'lishi mumkin. Agar 15 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 50 va undan katta yoshlilar sonidan ko'p bo'lsa, aholining bunday tuzilishi progressiv, aksincha, ya'ni 15 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 50 va undan katta yoshlilar sonidan kam bo'lsa, aholining bunday tuzilishi regressiv hisoblanadi. Agar aholining yoshi bo'yicha tuzilishi progressiv bo'lsa, rivojlanish imkoniyatlari katta bo'ladi, aholining mehnat salohiyati barqarorlashadi.

O‘zbekiston davlati aholisining hozirgi yosh tarkibi 90-yillarda boshlangan tug‘ilish darajasining qisqarishiga qaramay yosh hisoblanadi. Ya’ni aholi tarkibida 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar ulushi 62,1%ni, 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar ulushi 33,3%ni, 16–29 yoshdagilar ulushi 28,8%ni tashkil etadi<sup>1</sup>. Bugungi kunda mamlakatimizda 60 yoshdan oshganlar soni 2 million 873 mingdan ko‘proq kishini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida xalqimizning o‘rtacha yoshi 1990- yildagi 67 yoshdan 73,5 yoshga, ayollar o‘rtasida esa 75,8 yoshga ko‘tarildi. Ayni paytda yurtimizda 225 ming nafar 80 yoshdan, 44 ming nafar 90 yoshdan, 8 ming 700 nafar 100 yoshdan oshgan tabarruk keksalar yashamoqda. Ular orasida 3 ming 109 nafar Ikkinchı jahon urushi qatnashchisi, 69 ming 994 nafar front ortida mehnat qilgan insonlar borligini alohida ta’kidlash lozim<sup>2</sup>.

Xalqaro amaliyot va statistikada aholining yosh tarkibi iqtisodiy nuqtai nazardan uch guruhga ajratiladi: bolalar (0–14 yosh); mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (15–64 yosh); mehnatga layoqatli yoshdan katta bo‘lgan aholi (65 va undan yuqori yoshdagilar) nazarda tutiladi.

O‘zbekiston milliy statistikasida esa aholining mehnatga layoqatliligi bo‘yicha uch guruhga bo‘linadi: 1) mehnatga layoqatli yoshgacha bo‘lgan aholi (0–15 yosh); 2) mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (16–54 yoshdagi ayollar, 16–59 yoshdagi erkaklar); 3) mehnatga layoqatli yoshdan katta bo‘lgan aholi (55 va undan yuqori yoshdagi ayollar, 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklar) hisobga olinadi.

Aholi sotsial-iqtisodiy nuqtai nazardan yoshiga ko‘ra, 6 guruhga ajratiladi:

1. Bolalar (0–15 yosh) – mamlakat jami aholisining eng katta qismini tashkil etib, ularning aksariyati mehnat jarayonida ishtirok etmaydi. Ammo ushbu aholi guruhining salmog‘i mehnat salohiyatining kelgusi va istiqbol ko‘rsatkichlarini belgilab beradi. Chunki ushbu qatlamning yuqori chegarasidagi qismlar tez orada mehnat resurslari safiga qo‘shiladi.

2. O‘smir yoshlar (16–24 yosh) – mazkur guruhning katta qismi iqtisodiy nofaol aholi tarkibiga kirib, ular maktab, akademik litsey, kollej va oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan yoshlar, tug‘ruq ta’tilidagi ayollar hisoblanadi. Shuningdek, mazkur guruh tarkibiga iqtisodiyotning qator soha va tarmoqlarida band bo‘lganlari ham mavjud bo‘lib, ularning mehnat faoliyatları aksariyat hollarda boshlang‘ich ko‘rinishga ega bo‘ladi.

<sup>1</sup> Ама-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. . – Т., 2009. – С. 154–155.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Эришган мэрралар билан чегараланмасдан, бошлаган ислохтларимизни янги босқичга кўтариш – бугунги кундаги энг долзарб вазифамиздир. Т. 23. – Т., – Б. 144.

3. O‘rtalik yoshlilar (25–30 yosh) – ular o‘zining jismoniy holati va imkoniyatlari jihatidan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan, mehnatga layoqatli jami aholining asosiy qismini qamrab oladi. Mazkur guruh vakillari asosan o‘zlarining aniq hayot yo‘llarini tanlab olgan, o‘z oilasiga ega bo‘lgan va hayotda ma’lum bir yutuqqa erishganlar hisoblanadi. Ularning barchasi ham iqtisodiyotda band bo‘lmaydi, chunki ularning orasida yosh bolali onalar va ayollar ham ko‘pchilikni tashkil etadi.

4. 31–59 yoshdagi aholi – ushbu guruhdagi aholi o‘zining yuksak mehnat shakliga ega bo‘lib, hayotiy va mehnat tajribasining yuqori ko‘rsatkichlariga erishadi. Shu vaqtgacha olgan amaliy ko‘nikma va tajribalarini ishlab chiqarish jarayonlariga safarbar etishadi va mehnat jamoasida alohida o‘rin egallashadi. Bu toifa insonlar yoshlarga o‘rnak va maslakdosh bo‘ladi. Ushbu yosh chegaralari aholisining iqtisodiy faoliyat darajasi boshqa qatlamlarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Shuningdek, mazkur qatlamning yuqori chegarasida pensiya yoshiga yetgan ayollar ham bo‘lib, ular o‘zlarining mehnat faoliyatlarini yakunlash taraddudida bo‘lishadi.

5. Qariyalar (60–70 yosh) – mazkur qatlam vakillari pensiya yoshiga yetgan aholi hisoblanib, ularning aksariyati pensiyada bo‘lishadi. Lekin ularning orasida o‘z mehnat faoliyatlarini davom ettirayotganlari ham bo‘lishadi.

6. Keksalar (70 va undan katta yosh) – ularning deyarli hammasi mehnat faoliyatidan chetlashgan bo‘lasa-da, ayrimlari hamon o‘z kasbiy faoliyatini davom ettiradilar<sup>1</sup>.

*Tug‘ilish* – bu bir avlod yoki avlodlar guruhini tashkil etuvchi muayyan aholi majmuidagi farzandlarning dunyoga kelish jarayonidir. Hozirgi paytda o‘lim darajasi past bo‘lgan sharoitda tug‘ilish aholining takror barpo bo‘lishdagi yetakchi omili sanalib, uning tartibi (toraytirilgan, oddiy, kengaytirilgan) hamda yosh va jinsiy tarkib evolutsiyasining umumiy yo‘nalishini belgilaydi. Tug‘ilish darajasidagi sotsial va biologik omillar mutanosibligi muqobil bo‘lmay, balki jamiyat va uning tarkibi, sotsial institutlarning rivojlanishi jarayonida o‘zgarib boradi. Shu o‘rinda aytish joizki, tug‘ilish evolutsiyasidagi asosiy yo‘nalish – bu biologik omil rolining pasayishi va sotsial omil ahamiyatining o‘sib borishidir.

Tug‘ilishning biologik asosi – bu insonning biologik tur sifatida ko‘payish qobiliyati bo‘lib, «pushtlilik» yoki «turga xos pushtlilik» deb ta’riflanadi. Aholi guruhlarining tug‘ilish darajasidagi pushtliligi muayyan bir reproduktiv mayl (farzandlar va aniq bir farzand tug‘ilishi to‘g‘risidagi

<sup>1</sup> Абдураҳмонов К.Ҳ., Имомов В. Ўзбекистон меҳнат потенциалидан самарали фойдаланиш ва уни бошқариш. – Т., 2008. – Б. 40–41.

qarorni qabul qilish borasidagi me'yor va tushunchalar majmui) orqali amalga oshiriladi. Reproaktiv mayl insonning jamiyatdagi boshqa tur mayllari hamda sotsial institutlar faoliyati, iqtisodiy tuzum, siyosiy vaziyat va boshqalar bilan chambarchas tarzda bog'liq bo'ladi.

Reproaktiv mayl va tug'ilish darajasining asosiy aniqlovchilari – bu nikoh-oila mayli me'yorlari, ya'ni oiladagi farzandlar sonining o'ziga xos jihatlaridir. Demak, har qanday jamiyatda oiladagi farzandlar soni shaxs va oila turmush tarzining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi hamda oila doirasida sotsial va iqtisodiy rol o'ynaydi va oila a'zolari o'rtasidagi ruhiy muloqotga ta'sir o'tkazadi. O'z navbatida oilaning turmush tarzi, tarkibi va vazifalari jamiyatning sotsial-iqtisodiy tuzilishi bilan bog'liq va tarixiy taraqqiyot davomida o'zgarib boradi. Jamiyatning modernizatsiyalashuvi ta'sirida barcha sotsial mayl me'yorlari, shu tariqa insoniyat sivilizatsiyasining har qanday rivojlanish bosqichida oilaning o'zgarib borayotgan tashqi muhitga maksimal tarzda moslashishi uchun yo'naltirilgan reproduktiv mayl me'yorlarining majmui ham o'zgaradi. Shunday qilib, yo'nalish va oiladagi ota-onaning farzandlarga bo'lgan ehtiyojlari jamiyatda samarali va qulay tarzda o'z vazifalarini bajarishni ta'minlaydi.

Hozirgi paytda dunyoda tug'ilish bo'yicha Nigeriya davlati birinchi o'rinda turadi. Bir yilda 1000 nafar aholi boshiga taxminan 50 ta chaqaloq to'g'ri keladi. Nigeriyalik ayol (15–40 yosh oralig'i) umri davomida o'rtacha 7 nafar farzand ko'radi. Ikkinci o'rinda – Uganda va Mali davlatlari turadi. Bu yerda 1000 nafar aholi boshiga 47 va 45 chaqaloq to'g'ri keladi. Bu uchta davlat Afrika qit'asida joylashgan. Uchinchi o'rinda esa Afg'oniston turadi. Bu yerda 1000 nafar aholi boshiga 45 chaqaloq to'g'ri keladi. Tug'ilish bo'yicha eng oxirgi o'rinda Vatikan davlati va Germaniya turadi. Vatikan davlatida tug'ilish umuman yo'q hisobi, chunki davlatning asosiy aholisi rohiblar bo'lib, ular turmush qurmaslikka ont ichishgan. Germaniyada esa 1000 nafar aholi boshiga 8 ta chaqaloq to'g'ri keladi. Germaniyalik ayolning beshinchisi befarzand hisoblanadi. Bunda ularning o'zi uchun yashash istagi farzand ko'rishdan yuqoriroq ekanligi ko'rini turibdi!?

Tadqiqot natijalariga ko'ra, qaysi davlatda aholining daromadi va ma'lumoti yuqoriroq bo'lsa, tug'ilish darajasi muayyan darajada past bo'ladi, aksincha qashshoqlikda kun kechiradigan, savodsiz aholi ko'pchilikni tashkil etuvchi mamlakatlarda tug'ilish sur'ati yuqoriroq ekan. Buning sababi, inson qanchalik aqli bo'lsa, uning o'zi va farzandlari oldidagi mas'uliyati shunchalik yuqori bo'ladi!

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tug‘ilish jarayoni bir muncha ko‘paydi. 2016-yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston aholisi soni 31 million 576,4 ming kishini tashkil qildi. Ushbu ma’lumot Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan e’lon qilindi. O‘tgan 2015-yil davomida mazkur ko‘rsatkich 553,9 ming kishiga yoki 1,8 foizga ko‘paydi. 2016-yilning yanvar–iyun oylarida O‘zbekiston aholisi 231,7 ming kishiga ko‘paygan, tug‘ilganlar soni 318,0 ming kishini tashkil qilgan. Tug‘ilish koeffitsiyenti 20,2 promilleni (2015-yilda tug‘ilish koeffitsiyenti 20,2 promille edi) tashkil qilgan, o‘lim soni 73,9 ming kishi, ya’ni o‘lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni qamrab olgan edi<sup>1</sup>. Shahar joylari aholisi yil boshida 15,964 millionga yetgan bo‘lsa (aholi umumiyligi sonining 50,6 foizi) qishloq joylarida – 15,612 millionni tashkil etdi (49,4 foiz). Tug‘ilishlar soni 2015-yilda 735,8 mingtani tashkil qildi va 2014-yilning shu davriga (718,0 ming kishi) nisbatan 17,8 mingtaga ko‘paygan. Tug‘ilish koeffitsiyenti mos ravishda 23,5 promilleni tashkil qildi va 2014-yilning shu davriga (23,3 promille) nisbatan 0,3 promillega ko‘paygan<sup>2</sup>.

*O‘limning demografik mohiyati.* Demografiya fanida o‘lim jarayoni muayyan darajada o‘rganiladi. Ayni paytda bu jarayonni biologik va sotsial asoslarda o‘rganish o‘rtasida qarama-qarshiliklar keskin namoyon bo‘lmoqda. Oxir-oqibatda o‘lim inson organizmining biologik rivojlanishining g‘alabasi sifatida barcha sotsial qonuniyatlardan ustun keladi? Aslida inson organizmi jamiyatda yashashi davomida sivilizatsiya yutuqlarining ijobiy jihatlaridan bahramand bo‘libgina qolmay, balki atrof-muhitning salbiy ta’sirlaridan muntazam tarzda ruhiy zARBALARGA uchraydi. Shuning uchun har qanday davlatning aholi salomatligi va o‘limiga nisbatan olib borayotgan siyosatida faqat sanitariya-epidemiologik vaziyatni nazorat qilish bilan cheklanib qolmasligi, ya’ni hozirgi davr talablari darajasida faoliyat olib borishi kerak.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining har bir bosqichida kuzatiladigan o‘limning miqdor ko‘rsatkichlari aholining yoshi va o‘lim sabablari bilan bog‘liq omillar yig‘indisi yordamida aniqlanadi. Ushbu omillar shartli ravishda ikkita – endogen va egzogenga bo‘linadi.

*Endogen omillar deganda, organizmning ichki rivojlanishidan kelib chiqqan holatlar, egzogen omillar deganda, esa inson organizmiga tashqi muhit ta’siri tushuniladi.* O‘limning endogen omillari yoki inson organiz-

---

<sup>1</sup> Демографическая ситуация в Республике Узбекистан. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике (19 марта 2014). Архивировано из первоисточника 24 марта 2014.

<sup>2</sup> [sharh.uz/.../138-statistika-aholi-soni-tugilish-ulim-nikoh-ajralish](http://sharh.uz/.../138-statistika-aholi-soni-tugilish-ulim-nikoh-ajralish).

mida, u tug‘ilganidan to o‘lguniga qadar sodir bo‘ladigan endogen jarayonlar ko‘p jihatdan biologik yoki genetik tabiatga ega hamda butun organizm yoki uning alohida a’zolarining tabiiy keksayishi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Odamning alohida a’zolarining asta-sekin qarishi va ular-dagi potologik o‘zgarishlar yosh o‘sgan sari rivojlanadi. Tabiiyki, o‘lim endogen omillar ta’sirida keksa yoshdagilarda o‘zining cho‘qqisiga yetadi. Aytish joizki, endogen omillardan sodir bo‘ladigan barcha o‘lim holatlari faqat keksa yoshdagilarga to‘g‘ri kelmaydi, ya’ni aynan yoshning o‘sib borishi natijasida organizmning biologik yoki jismoniy eskirib borishi bilan bog‘liq emas? Demak, endogen omillar ta’sirida o‘lim holatlari insonning yoshlik va bolalik davrida ham kuzatiladi. Bunda irsiy kasalliklar, tug‘ma nuqsonlar, genetik buzilish va hokazolarni sabab qilib ko‘rsatish mumkin.

Keksalik tushunchasining o‘zi ham genetik xususiyatlarga ega va u insonlarda bir xil vaqtida sodir bo‘lmaydi. Shu sababdan bir sharoitda yashayotgan insonlarda hayotiy kuchlarning tugash vaqtini yoki yoshi ma’lum ko‘rsatkich atrofida doimo o‘zgarib turadi. Uning maksimal qiymati sifatida hayotning biologik davomiyligi belgilangan bo‘lib, u 115–125 yoshni tashkil etishi mumkin. Agar endogen omillar aholining muayyan guruhida o‘lim holatlarining taqsimlanishini inson yoshi funksiyasidan kelib chiqqan holda tartibga solib tursa, ekzogen omillar, aksincha bu tartibni buzadi. Chunki ekzogen omillar inson yoshiga bog‘liq holda sodir bo‘lmaydi. Har qanday odam yoshidan qat’iy nazar mazkur omillar ta’sirining obyektiga aylanishi mumkin. Ular insonning darhol o‘limiga sababchi bo‘lishi yoki bo‘lmasligi ham mumkin. Biroq bunday omillarning organizmda o‘tkazgan ta’siri juda kam hollarda asoratsiz kechadi.

*Ekzogen omillar* insonni yoshligidan o‘limga olib kelmasa-da, organizmning keksayishi jarayonini tezlashtiradi va barvaqt o‘limga sababchi bo‘ladi. Mazkur holat o‘limning kvazieyendogen omili deb ataladi. Bu omillar aholining hayotiy davomi hamda turmush sifatini tavsiflaydi. Bunda moddiy ta’milanganlik (daromad, turar joy va h.k.), ya’ni sog‘liqni saqlash va tibbiy yordam sifati, sanitariya madaniyati, ma’lumotlilik daramasi, atrof-muhitning holati va boshqalar tushuniladi.

Insoniyat yashab kelayotgan muhitning modernizatsiyalashuvi ikki yo‘nalishda kechadi: *bir tomon dan*, sivilizatsiya taraqqiyoti inson hayoti davomiyligini qisqartiruvchi omillarni nazorat qilish imkonini yaratadi; *ikkinci tomon dan* esa sivilizatsiyaning o‘zi taraqqiy etib borishi davomida biologik mavjudot hisoblanuvchi insonga qarshi bo‘lgan, asosan texnogen tabiatga oid ekzogen omillarni keltirib chiqaradi. Ushbu ma’noda tashqi omillar yig‘indisi muntazam ravishda o‘zgaradi, murakkablashadi va

kengayib boradi. Bir tomondan o‘limni sotsial nazorat qilishning kuchayishi, ikkinchi tomondan, sotsial va individual xulq-atvorning shakllanishi ekzogen omillar rolini cheklaydi va aksincha endogen omillar rolini oshiradi.

Ayrim holatlarda endogen va **ekzogen** omillari ta’sirida o‘lim yuz bergenligi bois ulardagi o‘zgarishlarning yig‘indisi ikki xil oqibatga olib keladi. Bular o‘limni miqdor ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi (yosh o‘sib borgan sari o‘lim holatlarining ko‘payishi hamda yoshdan qat’iy nazar o‘lim holatlarining tez-tez uchrashi) va hayot davomiyligining o‘sishi nazarda tutiladi. Mazkur hodisalar demografiyasi epidemiologik o‘tish, deb nomlanadi. Bunda turli yosh hamda o‘lim sabablarining intensiv ravishda evolyutsion o‘zgarishi nazarda tutiladi. Demak, o‘lim sabablari deganda, insonga ekzogen omillar va inson organizmining qarishi jarayonlari bilan bog‘liq potologiyalarning yuz berish holatlari tushuniladi.

Ekzogen omillar ta’sirida sodir bo‘lgan o‘lim sabablariga yuqumli va parazitar kasalliklar, baxtsiz hodisalar, shikastlanish, nafas yo‘llari, shamollah, oshqozon-ichak a’zolarining kasalliklari kiradi.

Endogen tabiatga ega o‘lim sabablari qatoriga qon aylanish tizimi, endokrin kasalliklar, shishlar, tug‘ma nuqsonlar, qon-tomir tizimining shikastlanishi va bir qator boshqa kasalliklar kiradi. Mutaxassislarning fikricha, ko‘p kasalliklarning kelib chiqishi aralash tabiatga ega bo‘lib, yaqqol misoli – xavfli shishlar va o‘sintalarning paydo bo‘lishidir. Zero, ularning vujudga kelishi genetik moyillik bilan bog‘liq. Lekin ayni vaqtida ularning tashqi muhit (kanserogen) omillar ta’sirida ham o‘sishi aniqlangan. Shuning uchun o‘lim sabablarining ushbu guruhi kvaziendogen sabablar qatoriga kiradi.

O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, 2015-yilda o‘lganlar soni 152,9 mingtani tashkil qildi va 2014-yilning shu davriga (149,8 ming kishi) nisbatan 3,1 mingtaga ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,9 promilleni tashkil qildi (2014-yilda – 4,9 promille). O‘lganlar umumiylaridan 58,9 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,6 foizi o‘sma kasalliklaridan, 5,9 foizi ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 5,4 foizi nafas olish organlari kasalliklaridan va 6,6 foizi esa baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan vafot etgan. 2015-yilda bir yoshga to‘lmagan 8,3 mingta bolalar o‘limi kuzatildi. Bolalar o‘limi koeffitsiyenti 11,4 promilleni tashkil qildi (2014-yilning yanvar-dekabrida 10,8 promille). Bir yoshgacha o‘lgan bolalarning umumiylaridan 59,0 foizi perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 23,2 foizi nafas olish organlari kasalliklaridan, 9,1 foizi tug‘ma anomaliali-

lardan va 3,4 foizi infeksiya va parazitlar bilan kasallanganligi sababli vafot etgan<sup>1</sup>.

### **3-§. Aholi migratsiyasi va uning sabablari**

*Aholi migratsiyasi* – bu odamlarning (migrantlarning) u yoki bu hududlar chegarasi orqali, ya’ni yashash joyini doimiy ravishda o‘zgartirayotgan yoki qisqa yoxud uzoq muddatga hamda doimiy tarzda kelib ketishini anglatuvchi ko‘chishdir. Migratsiya lotincha «migratio» so‘zidan olingan bo‘lib, «ko‘chish» ma’nosini anglatadi. Aholining turli maqsadlarda, ya’ni yangi yerlarni o‘zlashtirish, daromad topish, o‘qish, yashash hamda siyosiy nuqtai nazardan yashash joyini doimiy yoki vaqtincha o‘zgartirishga «aholining mexanik harakati» deyiladi<sup>2</sup>.

Xalqaro huquq normalariga muvofiq, kishilar turar joyida 2 yildan kam yashagan bo‘lsa, ular migratsiya jarayonida hisoblanadi. Aholining migratsiyasi demografik jarayonlarga bevosita ta’sir o‘tkazishi bilan birga, mamlakatning demografik rivojlanishida bilvosita o‘z ta’sirini qoldiradi. Masalan, AQSHga mehnat qilish maqsadida borgan migrantlar oilasida tug‘ilgan chaqaloq mamlakat fuqarosi hisoblanadi va uning demografik rivojlanishida o‘zgarish sodir bo‘ladi.

Migratsion harakatning umumiy tasnifi makon-vaqt tarkibiy qismlari ga asoslanadi. Aholi migratsiyasining bir qancha tasniflari mavjud bo‘lib, ularga migratsiya turlari, holati (ko‘rinishi), shakllari, sabablari va bosqichlari kiritilgan.

*Migratsiya turlari* – bir mamlakat ichida va mamlakatlararo sodir bo‘ladi. Shuning uchun uning ikkita turi mavjud: *xalqaro (mamlakatlararo tashqi) va ichki (mamlakatda)* ga bo‘linadi.

*Xalqaro migratsiya* aholi «immigratsiya»si va «emigratsiya»si tushunchalari bilan bevosita bog‘liqdir. Immigratsiya – (lot. «immigrare» – ko‘chib kelib joylashmoq) xorijiy fuqarolarning ma’lum bir mamlakatga ishlash yoki o‘qish uchun doimiy yoki vaqtinchalik (odatda, uzoq muddatga) yashash uchun ko‘chib kelishini bildiradi. Emigratsiya – (lot. «imigrare» – ko‘chib bormoq, ketmoq, ko‘chmoq) aholining boshqa mamlakatga doimiy yoki vaqtinchalik (uzoq muddatga) yashash uchun (ixtiyoriy yoki majburiy) ko‘chishini bildiradi. Xalqaro migratsiya kontinentlararo (masalan, Yevropadan AQSHga yoki Avstraliyaga) va kontinent ichidagi (masalan, Yevropa hududi bo‘yicha) kabi turlarga ham bo‘linadi.

<sup>1</sup> sharh.uz/.../138-statistika-aholi-soni-tugilish-ulim-nikoh-ajralish.

<sup>2</sup> Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойлашиши. Монография. – Т., 2010. – Б. 113.

*Ichki migratsiya* deganda, mamlakat hududi doirasida bir manzilgohdan ikkinchi manzilgohga ko‘chgan aholi tushuniladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasida aholining shahardan shaharga, shahardan qishloqqa, qishloqdan shaharga yoki qishloqdan qishloqqa ko‘chishi ichki migratsiya hisoblanadi.

***Migratsiya ko‘rinishlar holati.*** Migratsiyaning tashqi va ichki ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular doimiy (umrbod), vaqtinchalik va majburiylik jihatlari bilan farqlanadi. *Doimiy (umrbod) migratsiya* kishilarning doimiy yashash joyi – bir mamlakatda yoki boshqa mamlakatga butunlay ko‘chishi, almashtirishi tushuniladi. *Vaqtinchalik migratsiya* yetarlicha uzoq muddatga, lekin cheklangan va oldindan belgilangan muddatga ko‘chishni bildiradi. Masalan, ko‘pchilik ishchilarning kam sonli aholi yashaydigan hududlarga shartnoma bo‘yicha bir nechta yil ishlash uchun ko‘chishi vaqtinchalik migratsiya hisoblanadi.

*Majburiy migratsiya* zamonaviy ko‘rinishlardan biri bo‘lib, u siyosiy sabablarning natijasi hisoblanadi. Masalan, sobiq Ittifoqda aholini ommaviy deportatsiya qilish majburiy migratsiyaning shakllaridan biri hisoblangan. U bir nechta yo‘nalishlarda amalga oshirilgan. Quloqlar deb nomlanuvchi odamlarga nisbatan bir qator deportatsiyalar qo‘llanilgan. Ular 1930-yillarning boshida kollektivlashtirish va quloqlarni yo‘qotish shiori ostida amalga oshirilgan. Ushbu rejalar bo‘yicha Ukrainadagi quloqlar Shimoliy va markaziy Qoratuproq hududlari hamda Quyi va O‘rtal Volga bo‘ylariga, Belorussiyadan Sibirga, Shimoliy Kavkazdan Ural va Qozog‘istonga ko‘chirilgan. G‘arbiy hududlar aholisi Sharqiy Sibir va Uzoq Sharqqa ko‘chirilgan. Umuman olganda, ushbu ko‘chirishlarda quyidagi tendensiyalar kuzatilgan: *birinchidan*, ularni vatanlaridan iloji boricha uzoqroqqa ko‘chirib o‘tishga intilish; *ikkinchidan*, umuman boshqa tabiiy iqlim sharoitlariga jo‘natish qiynash va azob berish nazarda tutilgan.

Sovet deportatsiyasining yana bir turi «chegaralarni tozalash» hisoblanadi. 1930-yil va 1934–1935-yillardan boshlab chegara hududlarida yashovchi odamlar o‘z vatanlaridan ko‘chirila boshlandi: G‘arbdan finlar, nemislar, polyaklar; Janubdan – kurdlar, eronliklar; Uzoq Sharqdan esa koreyslar mamlakat ichkarisiga ko‘chirildi. Shuningdek, ikkinchi jahon urushi yillarida butun bir xalqlar va elatlarni mamlakatning uzoq hududlariga, jumladan, O‘rtal Osiyo, Qozog‘iston va Sibirga deportatsiya qilish jarayonlarini kuzatish mumkin.

SSSRning parchalanishi bilan majburiy migrantlar paydo bo‘ldi: ularga qochoqlar, vaqtinchalik qochoqxona olgan shaxslar, majburiy ko‘chib ketganlar va ichki ko‘chirilgan shaxslar kiradi. «*Qochoq*» maqomini muayyan

bir mamlakat fuqarosi bo‘lman, ya’ni ma’lum alomatlari bo‘yicha: irqi, dini, millati, biror sotsial guruhga mansubligi va siyosiy qarashlari bo‘yicha ta’qib qilingan, tahlikada yashaydigan hamda o‘z fuqaroligi bo‘lgan davlatning himoyasidan foydalana olmaydigan yoki foydalanishni xohlamaydigan shaxslar olishadi. Bular qatoriga ma’lum fuqaroligi bo‘lman, o‘zining avvalgi yashash joyi davlatiga bora olmaydigan yoki borishni istamaydigan shaxslarni ham kiritish mumkin. Tinchlik va osoyishtalik hamda insoniylikka nisbatan jinoyat sodir qilgan yoki boshqa og‘ir qasddan jinoyat sodir etgan shaxslar ham qochoq sifatida qaraladi. *Vaqtinchalik qochoqxona olgan shaxslar* qatoriga ularni qochoq, deb tan olinishga asoslari bo‘lgan, lekin mamlakat hududida vaqtinchalik qolish imkonini berish uchun iltimosnomalarini arizasi bilan cheklangan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi yo‘q shaxslarni kiritish mumkin. Ularni qochoqlar, deb tan olinishi uchun asos bo‘lmasligi mumkin, lekin insoniylik nuqtai nazaridan mamlakatdan tashqariga deportasiya qilinmaydi.

*Migratsiya sabablari* bo‘yicha tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- sotsial va iqtisodiy, ya’ni ularni ba’zan ajratish qiyin bo‘ladi (bo‘sh qishloq xo‘jalik yerlari va ish qidirish bilan bog‘liq ko‘chishlar; yuqoriroq daromadlarni qidirish bilan; turmush tarzini o‘zgartirish maqsadida qishloqdan shaharga ko‘chib o‘tish va aksincha; yanada yuqoriroq sotsial maqomga ega bo‘lish va hokazolarga ko‘ra ko‘chishlar);
- siyosiy ta’qiblar hamda irqiy va diniy siquvlardan qochish, siyosiy sharoitlar yoki davlat chegaralarining o‘zgarishi bilan bog‘liq repatriatsiya (qochoqlar va ko‘chirma bo‘lganlarning o‘z Vataniga qaytishi);
- harbiy – evakuatsiya va deportatsiya;
- etnik (milliy);
- demografik (oilalarni birlashtirish, nikoh migratsiyasi);
- tabiiy sharoitlar (iqlim);
- ekologik sharoitlar: atrof-muhitning ifloslanishi, ekologik halokatlar natijasida aholi ko‘chib kelishi yoki ketishiga majbur bo‘ladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2015-yilda respublikamizga ko‘chib kelganlar soni 139,6 ming kishini, ko‘chib ketganlar soni esa 168,6 ming kishini tashkil qilgan. Migratsiya qoldig‘i minus 29,0 ming kishiga (2014-yilda — minus 38,5 ming kishi) teng bo‘lgan?!

Ta’kidlash joizki, ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatida, bizningcha, muhim hisoblangan: sotsial demografik tuzilish, uning sotsial belgilanganligi va jamiyat rivojiga ta’siri, aholining yoshi va jinsiga nisbatan tarkibi, tug‘ilish, o‘lish, umr davomiyligi kabi va boshqa migratsiya muammolarni bilishlari katta ahamiyatga egadir. Bu esa jamoat tartibini saqlash

va jinoyatchilikka qarshi kurashda qo'llaniladigan chora-tadbirlarni belgilashda hamda usul va vositalarni aniqlash va xatti-harakatlarni maqsadga muvofiq yo'naltirishda oqilona tarzda ahamiyat kasb etadi. Masalan, aholining tug'ilishi, o'lim va migratsiya jarayonlarini zudlik bilan biling, ayniqsa profilaktika nozirlariga kelgusi faoliyatini to'g'ri rejalashtirish uchun samarali imkoniyatlar yaratadi.

### **Tayanch tushunchalar**

Demografiya, jamiyatning sotsial-demografik tuzilishi, sotsial-demografik tuzilishning mohiyati, sotsial-demografik tuzilishning asosiy ko'rsatkichlari, aholining miqdor va sifat ko'rsatkichlari, aholining yosh va jins bo'yicha tuzilishi, aholining tarkibi va tuzilishi, aholining hududiy joylashishi, aholining ko'payishi va kamayishi, demografik jarayonlarning jamiyat rivojiga ta'siri, urbanizatsiya, aholining migratsiyasi, migratsiyaning sabab va omillari, O'zbekistonda demografik siyosat.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Demografiya nima?
2. Demografiya bilan sotsiologiyaning o'xhash va farqli jihatlarini tahlil qilib bering.
3. Sotsial-demografik tuzilishning asosiy ko'rsatkichlarini nima tashkil qiladi?
4. Aholining yosh va jins bo'yicha tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
5. Demografik jarayonlarning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilib bering.
6. Demografik jarayonlarning sifat ko'rsatkichlarini nima tashkil qiladi?
7. Aholi tuzilishi qachon progressiv hisoblanadi?
8. Demografik jarayonlarning jamiyat rivojiga ta'sirini izohlab bering.
9. O'zbekiston aholisi progressiv tuzilishga egami?
10. Migratsiya nima?
11. Immigratsiya bilan emigratsiyaning farqi nimada?
12. Migratsiyaning sabab va omillari nimada?
13. Sotsiologiya fanining demografik jarayonlarni o'rganishda boshqa ijtimoiy fanlardan farqi nimada?
14. Xalqaro huquq normalariga muvofiq, agar kishilar turar joyda necha yildan kam yashasalar migratsiya jarayonida deb hisoblanadi?
15. Sotsial-demografik muammolarni hal qilishda huquqni muhofaza qilish organlarining o'rni haqida so'zlab bering.

## VI BOB. SOTSIAL BIRLIKLER

### 1-§. Sotsial-etnik birliklarning mohiyati va ularning belgilari

Insonning tabiiy ehtiyojlaridan, bu – jamiyatda ma'lum bir sotsial birliklarga muhtojlik sezishidir. Ular ichida eng muhim o'rinni etnik birlik egallaydi. Inson o'zligini namoyon qilishida etnik birlik katta ahamiyatga ega bo'lib, masalan, «men – o'zbekman» yoki «men – qoraqalpoqman», deb e'tirof etishi shaxsning shunchaki shu millatga mansubligini bildirib qolmay, balki o'sha millatning o'ziga xos ajralmas bir bo'lagi ekanligini his etishidir. Uning millati sha'niga aytilgan biron bir noxolis fikr shaxsda yashirin yoki oshkora norozilik va ziddiyatni keltirib chiqarishi mumkin?!

Xalqlarning kelib chiqish tarixi (etnogenezini) hamda shakllanish jarayonlarini o'rganishda ijtimoiy fanlarda «etnos» (yun. «xalq») va «etnik birlik» iboralari qo'llaniladi. Muayyan mamlakatning barcha aholisi xalq tushunchasida ifodalanadi. «Etnik birlik» atamasi muayyan joy, ya'ni hududda yashovchi xalqning lokal guruhini anglatadi. Shu jihatdan ham «etnos» va «xalq» tushunchalari ma'lum ma'noda bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ammo mazmun va mohiyat jihatidan bir-biridan farq qiladi. O'tmishda xalqlar – urug', qabila, elat, millat kabi turli xil etnik birliklarga birlashishgan.

Insoniyat tarixi xilma-xil sotsial-etnik birliklardan tashkil topgan. Hozirgi paytda 262 ta mamlakatda ikki mingdan ortiq millat, elat va qabilalar yashamoqda. Ularning so'zlashadigan tillari esa 5 minga yaqinni tashkil etadi. Ammo shu tillardan 2 mingtasidan ko'prog'ida yozuvlar yo'q. 1600 ta xalq Osiyo va Afrikada, 100 dan ortiq xalq rivojlangan davlatlarda, 200 dan ortiq xalq Rossiyada, 130 dan ortiq millat va elatlar esa O'zbekiston hududida yashamoqdalar.

Ma'lumki, har qanday jamiyat sotsial-etnik birliklar hamda shu hududdagi faoliyatidan kelib chiqqan holda rivojlanadi. Ularning tinchligi va manfaatlarning o'zaro mos kelishi hamda birligi ko'pgina sotsial-iqtisodiy masalalarni to'g'ri hal qilishiga bog'liqidir. Sotsiologiya fani har bir sotsial-etnik birlikning jamiyatda tutgan o'rni va manfaatlari hamda rivojlanish darajasini boshqa sotsial munosabatlar bilan uzviy aloqadorlikda o'rganadi. Ularning huquqiy munosabatlar va jarayonlar bilan bog'-liq tomoni esa huquq sotsiologiyasi doirasida tahlil qilinadi.

*Etnik birlik* – kishilarning ma'lum tarixiy davr hamda ijtimoiy tizimda tarkib topgan alohida barqaror uyushmadir. U jamiyat kabi qadimiydir. Etnik birliklarning shakllanishi – insoniyat jamiyatining shakllanishidir. O'tmishda etnik birliklarning to'rtta bosqichi va turi mavjud bo'lib, ularga: *urug'*,

*qabila, elat va millat* kiradi. Ketma-ket almashib kelgan bu etnik birliklar turli bosqichlarda vujudga kelgan bo‘lib, ular o‘z davriga xos xususiyatlari bilan ham farq qiladi. Kishilar birlashuvining tabiiy negizi – hududning umumiyligi, shuningdek, tillarining yaqinligi yoki umumiyligi etnik birlikning vujudga kelishida asosiy shart hisoblanadi. Ya’ni shu narsaga e’tiborni qaratish lozimki, ma’lum etnik guruhlarning vakillari yashaydigan umumiyligi hudud tarixiy omillar tufayli doimo bir davlat doirasida bo‘lmashi mumkin? Ma’lumki, ko‘pgina etnoslar yirik davlatlarning bo‘linib ketishi natijasida, ba’zida boshqa mamlakatning ichida qolib ketadi. Ayni paytda tashqi ta’sirlarga bardosh berish, ichki taraqqiyotni ta’minalash masalalari kabi omillar esa ko‘plab etnoslarning yagona davlat bo‘lib birlashishga zamin yaratgan. Masalan, amerikaliklar, faxr va g‘urur bilan «biz amerikalikmiz» deb e’tirof etishadi. Ammo u yerda ko‘plab etnoslar yashaydi.

Etnik birliklarning vujudga kelishi va rivojlanishi jamiyatning obyektiv ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ma’lum ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari hamda jamiyatning rivojlanishi bilan belgilangan. Darvoqe, sotsial etnik birliklar o‘ziga xos umumiyligi xususiyatlari bilan birgalikda, barqaror sotsial belgilarga ham egadir. Uning o‘ziga xos xarakterli belgilaridan, ya’ni uning ma’lum umumiyligi hudud va iqtisodiy hayat asosida shakllanishi va rivojlanishidir. Tarixiy taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida etnik birliklar hozirgidek barqaror bo‘lmasligi, chunki kishilarning hayat faoliyatları tabiiy muhit sharoiti bilan bog‘liq edi. Etnik birliklar yashash joylarini tabiiy muhit sharoitiga qarab tez-tez o‘zgartirib turishgan. Etnik birliklarning umumiyligi iqtisodiy hayoti hali rivojlanmagan: sodda holda, ya’ni birgalikda yashash, dehqonchilik va ov qilish, yeb-ichish kabilalar umumiyligi bo‘lgan. Keyinchalik ishlab chiqarish kuchlarining takomillashuvi natijasida barqarorlasha borgan.

Sotsial-etnik birliklarga xos belgilardan – umumiyligi an’ana, urf-odat, xatti-harakat normalari, til, madaniyat, san’at, sotsial taraqqiyot va kishilar hayat faoliyatlarining asosini tashkil qiluvchi ajdoddlardan-avlodlarga o‘tadigan moddiy va ma’naviy qadriyatlar tizimiga egaligidir. Bundan tashqari, sotsial-etnik birliklarda o‘zlikni anglash tuyg‘usi muhim belgilardan hisoblanadi. Ikki yoki undan ortiq etnik birliklarning bir mintaqada simbioz (o‘zaro foydali yashash) tarzda hayat kechirishlari sotsial-etnik organizm, deyiladi. Ularning yashash sharoitlari va etnik xususiyatlari hamda iqtisodiy hayoti bir xil bo‘ladi.

Diniy umumiylilik, irqiy jihatdan yaqinlik ham sotsial-etnik birlikning rivojiga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Shakllangan etnik birlik yaxlit sotsial organizm bo‘lib, u etnik jihatdan bir xil bo‘lgan nikohlar, til, madaniyat, an’analar, urf-odatlar tufayli barqaror tus oladi.

Sotsial-etnik birliklarning shakllanishida yuqorida qayd etilgan omillar muhim ahamiyatga ega ekanligi deyarli barcha ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi. Shuningdek, etnik birliklarning sotsial-tarixiy birlik sifatida shakllanishi va rivojlanishida «xalq ruhi», «xalq qalbi» kabi belgilar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qalb, ruh nafaqat individual, ya’ni guruhlarga va etnik birliklarga ham xos hodisadir.

Ruhni, qalbni o’rganish, Aristotel ta’biriga ko‘ra, «eng ulug‘vor va maftunkor» mashg‘ulotdir. Faylasuf, «ruhni bilish har qanday haqiqatni bilishga, ayniqsa tabiatni bilishga ko‘p yordam beradi,» deb yozadi. Uning fikriga ko‘ra, «ruh, qalb kishining, narsaning mavjudlik mohiyatidir». Xalq ruhi, qalbi subyektiv voqelik hisoblansa-da, u etnik birliklarning uyushgan harakatlarida, madaniyati, tili, turmush tarzi va ijtimoiy-siyosiy institutlarida obyekтивlashish xususiyatiga ega bo‘ladi. Ba’zan kuzatiladiki, tashqaridan xalq ruhiga, qalbiga mos kelmaydigan ijtimoiy-siyosiy institutlar, ayniqsa qabul qilingan qonunlar kutilgan natija bermaydi, kishilar ularni qo‘llab-quvvatlamaydi, o‘zining befarqligi bilan ularga salbiy baho beradi. To‘g‘ri, ba’zi axloqiy normalarni kuch bilan, zo‘rlab singdirish, shakllantirish mumkin, lekin ular ham xalqning tarixiy-madaniy paradigmasi hamda axloqiy tasavvurlariga mos kelishi darkor. O‘z paytida Sharq mutafakkiri Konfutsiy, qabul qilinadigan qonunlar xalq qalbiga, an’analariga va axloqiy qarashlariga muvofiq kelishi lozim, aks holda kishilar ularga amal qilishdan qochadilar, degan edi.

Darhaqiqat, sotsial etnik birliklarga quyidagicha ta’rif berishimiz mumkin. Sotsial etnik birlik – kishilarning tarixan tarkib topgan ma’lum urug‘, qabila, elat va millat kabi birliklariga xos bo‘lgan hududi, iqtisodiy turmush tarzi, til va psixikasining umumiyligi, madaniyatining o‘ziga xosligi hamda o‘zligini anglashi va o‘zini etnik birlikka xosligini e’tirof etishi bilan farqlanadigan alohida barqaror sotsial guruhlardir.

***Sotsial etnik birlik va irq.*** Odamlar irqiy jihatdan ham bir-biridan farqlanadi. Lekin bu irqiy farqlanish ular orasidagi sotsial etnik birliklarga xos bo‘lgan barqaror belgilar asosida vujudga kelmaydi. Umuman «irq» arabcha so‘z bo‘lib – tomir, ildiz degan ma’noni anglatadi. Irqlar – kishilarning gavda tuzilishi, qiyofasi, ko‘z, soch va teri rangi, yuz va bosh qutisi shakliga binoan farqlanadigan guruhlardir.

Irq insoniyat tarixining turli davrlarida ma’lum hududlarda birga yashab tarkib topganligi, kelib chiqishi va morfologik belgilarining o‘xshashligi bilan bir-biriga yaqin bo‘ladi. Irq bo‘yicha odamlar bir-biridan tashqi qiyofasi bilan, badan pigmentatsiyasi (teri, ko‘z va soch rangi), soch shakli, soqol, badandagi jun va tuklarning qalin-siyrakligi, bo‘y-basti, yuz tuzilishi, lab ko‘rinishi va boshqa belgilari bilan farq qiladi.

Dunyodagi barcha xalqlar uchta katta irqqa: *ekvatorial (negroid yoki negroavstraloid), yevropeoid (yevrosiyo) va mongoloid (Osiyo-Amerika) irqlariga bo'linadi*. Shu bilan birga, shunday guruhlar ham borki, ularni ayrim belgilari turli irqdagi belgilarga mos keladi. Masalan, avstraliyaliklar soch rangi, shakli, soqoli, badanlaridagi tuklarining qalinligi jihatidan yevropeoid irqiga o'xshab ketadi, lekin boshqa belgilari bilan ekvatorial irqqa yaqindir. Bunga o'xshagan misollar juda ko'p. Ayniqsa, polineziyaliklarning kelib chiqishini aniqlash mushkul: ularning belgilari uchala katta irq belgilariga ham o'xshaydi. Bu turli irqlarning o'zaro qo'shilishi natijasidir.

Irqlar paleolitning so'nggi davrlarida bundan 40—30 ming yil avval odam Yer yuzini egallashi bilan shakllana boshlagan. O'sha davrda ko'p-chilik irqiy belgilar moslanish xususiyatiga ega bo'lganligi uchun muayan muhit sharoitida tabiiy tanlanish tufayli mustahkam bo'la borgan. Masalan, ekvatorial irqda terining qora rangi ultrabinafsha nurlar ta'siridan himoyalovchi, burun katagining keng bo'lishi nam tropik iqlim sharoitida suv bug'lanishini kuchaytiruvchi, tananing uzun bo'lishi, ya'ni tana yuzasi uning hajmiga nisbatan kengaytirish orqali termoregulatsiyani amalga oshiruvchi vosita sifatida vujudga kelgan.

Barcha irqlar aqlli inson (nomo sapiens)ga xoc bo'lgan umumiy xususiyatlarga ega: ularning barchasi biologik va psixik jihatdan teng bo'lib, evolyutsion rivojlanishning bir xil pog'onasida turadi. Ular madaniyat va sivilizatsiyaning eng yuqori darajada rivojlanishida ham bir xil imkoniyatga egadir. Hozirgi zamon fani mavjud irqlar bir xil qobiliyatga ega emasligi, ular evolutsiyaning turli bosqichlarida turganligi to'g'risidagi irqchilik g'oyalarini inkor etadi!? Odam irqini «millat», «til guruhi» tushunchalari bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Bitta millat tarkibida har xil irq va aksincha, bitta irqning o'zi turli millatlar tarkibiga kirishi mumkin.

Irq inson evolutsiyasining bosqichi hisoblanmaydi. Irqning birortasi ham boshqalariga nisbatan odamsimon maymunlarga yaqin turmaydi. Irqiy belgilar etnografiya, til belgilariga ham o'xshamaydi. Irqiy belgilar hech qachon jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatmagan va ko'rsata olmaydi ham.

Qadimgi Xitoy madaniyati mongoloid irqqa, ikki daryo (Amu va Sirdaryo) oralig'i madaniyati ham xuddi shunday mongoloid irqqa mansub kishilar tomonidan yaratilgan. Qadimgi Hindiston va Misrda esa ekvatorial va yevropeoid irqiga mansub kishilar yashaganlar.

***Irqchilik.*** Irqchilarining talqiniga muvofiq insonlar biologik va psixik jihatdan teng bo'lmay, ya'ni tug'ma biologik xususiyatlariga ko'ra, insonlar irqi jihatdan insoniyat madaniyatning yuqori cho'qqilariga erisha oladigan «oliy» va madaniy taraqqiyotga layoqati bo'lмаган «past» irqlarga

bo‘linadi. Iрqchilik g‘oyasi birinchi bor fransuz olimi J.A. Gobino tomonidan XIX asr o‘rtalarida ilgari surilib, oriyarni «oliv irq» deb e’lon qiladi. Iрqchilik fashizmning rasmiy mafkurasiga aylanadi. Bu mafkura irqiy tengsizlikni tabiiy qonuniyat, deb baholaydi. Odamlar o‘rtasidagi farq ularning sotsial farqini ko‘rsatmaydi. Iрqchi nazariyotchilar ongli ravishda «irq» va «millat», «irk» va «madaniyat», «irq» va «til», «irq» va «sinf» tushunchalarini aralashtirib yuborishadi. Bu bilan mutlaqo biologik tushuncha bo‘lgan irq madaniy, milliy, til va sotsial belgilarga ega bo‘lgan hodisa kabi ko‘rsatiladi.

Antropologiya fani irqiy farq odamlarning hayotida ikkinchi darajali shartlardan ekanligi hamda ular o‘rtasida chegara bo‘la olmasligini tasdiqladi. Insonlar bir-biridan tanasi va rangi bilan ajralib turadi, boshqa hech qanday tomonidan ular farqlanmasligi ma’lumdir. Hech qanday xalqning qobiliyati, xulq-atvori uning tanasining rangiga, ya’ni irqiga bog‘liq emas. Irqlarni o‘rganish esa Yer yuzidagi odamlarning paydo bo‘lishi va kishilarning asta-sekin turli maydonlar uzra tarqalishi tarixini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Irq xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan bir qancha hujjalarda, jumladan, irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiyada keskin qoralangan. O‘zbekiston Respublikasi 1995-yil 31-avgustda mazkur konvensiyaga qo‘shilgan.

Dunyo xalqlari hozirgi ko‘rinishlariga kelgunga qadar sotsial-etnik birliklar, ya’ni urug‘chilik, qabila, elat va millat kabi ko‘rinishlarni bosib o‘tishgan. Bu sotsial-etnik birliklar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan, balki ma’lum bir obyektiv va subyektiv shart-sharoit ta’siri ostida vujudga kelgan va shakllangandir.

**Urug‘.** Urug‘ insonlar birligining eng qadimgi shakllaridan biridir. Biror-bir uruqqa tegishlilik ona yoki ota tomonidan qon-qarindoshchilik asosida o‘zining qandaydir real yoki mifologik nomlar egalarining avlodlari ekanligini anglashdir. Urug‘ning paydo bo‘lishi asosan quyi va yuqori paleolit davrlari o‘rtasiga, ya’ni odamning shakllanishi bilan bir paytga to‘g‘ri keladi, deb taxmin qilinadi.

Ekzogamiya qonuniga ko‘ra, urug‘lar bir-birlaridan ajralgan holda yashay olmagan. Urug‘lar vujudga kelgan dastlabki vaqtlardanoq qabilalarga uyushghan. Qabilalar esa urug‘ning bir-biriga yaqin aloqada bo‘lgan ikki urug‘ munosabatlaridan iborat edi. Urug‘lar ibridoiy jamoa tuzilishining asosiy sotsial, iqtisodiy va boshlang‘ich tashkiloti hisoblanadi. Urug‘ning sotsial-etnik birlik sifatida rivojlanish tarixi masalasida har xil qarashlar mavjuddir. Ko‘pgina olimlar urug‘ jamoasi rivojlanishi davrida ketma-ket ikki bosqich: matriarxat va patriarxat davrni bosib o‘tgan, deb hisoblaydilar.

Matriarxat davrida ona urug‘ning sotsial hayotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu davr kishilarning ishlab chiqarish munosabatlari, asosan qon-qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarning shakllanish davriga to‘g‘ri kelgan. Bu munosabatlar jamoa ishlarida kishilarning jinsidan qat’i nazar, ularning teng huquqligi, asosiy ishlab chiqarish qurollarining umumiy mulk ekanligi, mehnat va iste’molning umumiyligi bilan xarakterlanadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan urug‘chilik tuzumining ikkinchi bosqichi – patriarchatga o‘tila boshlangan. Ko‘pchilik xalqlar bu davrda, ya’ni o‘tish davrida dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullana boshlaganlar. Jamoaning asosiy iqtisodiy yacheykasi – katta patriarchal oila hisoblangan.

Boshqa bir guruh olimlarning fikricha, urug‘chilik munosabatlarining dastlabki bosqichlarida urug‘ asosiy ishlab chiqarish yacheykasi bo‘lmay, balki asosan nikohni tartibga solish vazifasini o‘tagan. Bunda u rivojlanish bosqichiga qarab emas, balki muayyan sharoitlarga bog‘liq ravishda ota yoki ona urug‘i shaklida maydonga chiqqan. Ekzogamiya qonunining kuchi bilan turli urug‘ vakillarini o‘z ichiga olgan jamoa jamiyatning iqtisodiy yacheykasi va muhim sotsial organizmi hisoblangan. Bunday jamoaning negizini bir urug‘ vakillari tashkil etgan. Urug‘lar avvalambor ehtiyojlar, maqsadlar va manfaatlar birligi asosida birlashgan. Natijada yirik urug‘lar paydo bo‘lgan. Keyinchalik bir qancha yirik urug‘lar birlashib qabilalar paydo bo‘lgan. Urug‘larning qabilalarga bo‘linishi ko‘p xalqlarda saqlanib qolgan. O‘rta Osiyo xalqlari ko‘pgina qabila va urug‘larga bo‘lingan. Masalan, o‘zbeklar 92 dan ortiq, turkmanlar 100 dan ortiq, qozoqlar 300 dan ortiq qabilalar va urug‘larga, ular esa yana bir nechta qavmlarga bo‘lingan. Urug‘lar ko‘pincha yashagan geografik joylari va ishlab chiqarish turlarining nomlanishi bilan atalgan. Turkiy xalqlar tarkibiga: barlos, qiyot, qushchi, qo‘ng‘iroq, nayman, chimboy, qarluq, o‘g‘iz, kenagas, do‘rmon, mang‘it, nukuz, uyg‘ur, xitoy, qipchoq, ming kabi urug‘lar kirgan.

***Qabila.*** Urug‘larning birlashishi tuzilishi jihatidan murakkabroq bo‘lgan etnik-birlik – qabilani vujudga keltirgan. Qabila (arab.) – urug‘-aymoq, bir ota-onadan tarqalgan, nasl-nasab jihatidan bir xil bo‘lgan bir nechta guruhlar uyushmasidan iborat bo‘lgan etnik birlik. Qabila a’zolari o‘rtasidagi qon-qarindoshlik aloqalarining mavjudligi hamda urug‘ va bo‘g‘inlarga birikishi uning asosiy belgisidir. Shuningdek, qabilaning boshqa belgilari ham mavjud bo‘lib, bular uning ma’lum bir hududga ega ekanligidan, qabiladoshlarning iqtisodiy birligi, yagona qabilaviy tili va nomi, qabila kengashi va harbiy boshliqlarning o‘zini o‘zi boshqarishdan iboratdir. Qabilaning iqtisodiy manfaatlari bir bo‘lib, o‘zini himoya qilishda ham umumiy manfaatlardan kelib chiqilgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumida qabilalarda o‘zini o‘zi boshqaruvchi boshqaruv uyushmasi bo‘lgan. Uyushma a’zolari harbiy va oddiy kishilardan saylangan yo‘lboshchilar edi. Ishlab chiqarish qurollarining takomillashuvi natijasida asta-sekin qabilada mulkka bo‘lgan munosabatlar o‘zgarib, odamlar boylar va kambag‘allarga ajralgan, harbiy yo‘lboshchilarning roli oshib borgan. Qabila ittifoqlarining tuzilishi, bir qabilaning ikkinchisini bo‘ysundirishi, qabilalarning boshqa yerlarga ko‘chib o‘tishi, ularning o‘zaro qo‘silib ketib yanada yirikroq etnik birlik – elatlarning vujudga kelishiga olib kelgan. Urxun yozuvlarida mustaqil qabila barpo etish uchun 700 kishi bo‘lishi lozimligi qayd qilingan.

*Elat.* Jamiyatda kishilar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnik aloqalarning tobora rivojlanib borishi natijasida bir nechta qabilalarning birlashishi yuz beradi. Qabilalarning birlashishi jarayonida etnik birlikning yangi turi vujudga keladi. Bu etnik birlik ma’lum tarixiy sharoitda hudu diy, iqtisodiy, til va etnomadaniy umumiylig asosida shakllanadi. Shakllangan yangi etnik birlikni ifodalash uchun fanda elat, ya’ni xalq atamasi qabul qilingan. Kishilarning hudud, til, iqtisodiy va madaniy jihatdan umumiyligi bilan birlashgan, tarixan tarkib topgan, millatdan oldingi sotsial-etnik birligi elat hisoblanadi. Elat qabila bilan millat orasidagi etnik birlikning ko‘rinishidir.

Elat (asosi «el») atamasi o‘tmishda keng ma’noda qo‘llanilgan; xalq, davlat, qabila, qabila ittifoqi, ma’lum bir qabila yoki hudud fuqarolarini anglatgan. Turli elatlarning hudud jihatidan o‘zaro yaqinlashuvi urug‘ va qabila guruhlaridagi kishilarning qon-qarindoshlik aloqalarini kuchaytirgan. Elat dastlabki sinfiy jamiyat – quzdorlik tuzumi zaminida tarkib topgan bo‘lib, uning shakllanishi turli tarixiy davrlarda o‘ziga xos holda kechgan. Davlatning paydo bo‘lishi bilan elatning mustahkamlanishiga imkoniyat yaratilgan. Rivojlangan o‘rta asrlarda Yevropa va Osiyoning ko‘pgina mamlakatlarida elat to‘la shakllandi. Masalan, elat Qadimgi Misr, Mespotamiyada davlat uyushmalarining paydo bo‘lishi bilan shakllana boshlagan bo‘lsa, Yevropada elatlar (qad. rus, polyak, fransuz va boshqalar) shakllanish jarayoni ilk o‘rta asrlardan boshlangan. Yer sharining qolgan qit’alarida bu jarayon keyinchalik ham davom etgan. Elat til jihatidan o‘zaro yaqin qabilalarning uyushuvi (polyak elati, slavyan qabilalari – polyak, visdyan, mazovshan va boshqalardan) yoki bir qabilaning boshqasi tomonidan istilo qilinishi natijasida shakllangan etnik komponentlar (fransuz elati – gall qabilalari; rim kolonistlari va german qabilalari – franklar, vestgotlar, burgundlar va boshqalar) birining tili umumiylig tilga, qolgan qabilalar tillari esa dialekt (sheva) holida saqlangan yoki butunlay yo‘qolib

ketgan. Natijada yagona nom, hudud, madaniy va xo‘jalik jihatidan umumiylit yuzaga kelgan.

**Millat.** Millat jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeい jihatidan elatdan yuqori turadigan sotsial etnik birlikdir. Uning shakllanishi elatning shakllanish jarayoni kabi uzoq davom etadigan ijtimoiy voqelik bo‘lib, elatning eng yuqori cho‘qqisi, kamolot bosqichidir. Bu bosqichga ko‘tarilgan xalqning tarixan tarkib topgan davlati: *birinchidan*, millat nomi bilan yuritiladi; *ikkinchidan*, uning aniq hududiy chegarasida muomalada bo‘lgan umum-millat tili davlat tili maqomi darajasiga ko‘tariladi; *uchinchidan*, davlat hududining butunligi va chegarasining daxlsizligi tan olinadi; *to‘rtinchidan*, millat va unga xos mentalitet shakllangan bo‘lib, fuqarolarning o‘zlikni anglash darajasi – ularning hayot mazmuniga, kundalik turmush tarziga aylanadi va *beshinchidan*, davlat jamiyat tomonidan boshqariladi.

Millat shu kungacha juda ko‘p mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan, unga turlicha izohlar berilgan. Ulardan ayrimlarini keltiramiz. Taniqli ingliz faylasufi Ernest Gellnerning fikricha, millatni inson yaratgan, millat inson ongining mahsulidir, L. Ioninning fikricha, millatga mansublik insonga tug‘ilishda beriladi va bu uning butun hayoti davomida o‘zgarmay qoladi. U jins kabi mustahkamdir, V.A. Tishkovning fikricha, millat, eng avval guruhlar ichidagi ta’riflanish bo‘lib, u olimlar yoki davlatlar tomonidan aniqlangan va kiritilgan tushunchalardan emas. Bu olimlar tomonidan berilgan millatga xos belgilarni ortiqcha izohlashga o‘rin yo‘q!

Millat – kishilarning uzoq tarixiy taraqqiyoti natijasida tashkil topgan iqtisodiy turmush tarzi, tili, hudud birligi, urf-odat va an'analarining umumiyligi, madaniyati, ong va psixologiyasining o‘ziga xosligi asosida qaror topgan sotsial etnik birlikdir. Millatlarning tarkib topishida davlatning roli muhim bo‘lgan. Millat qon-qarindosh bo‘lgan va bo‘lman qabila, elat hamda xalqlardan shakllanadi. Masalan, rus millati sharqiy slavyan qabilalari zaminida paydo bo‘lgan. Sharqiy slavyanlar tarkibi esa g‘arbiy va sharqiy slavyanlar, germanlar, fin-ugor va turkiy xalqlar asosida paydo bo‘lgan.

Milliy birlik irqiy, diniy yoki davlat birligidan farq qilishi, millatlar bir irqdan yoki turli irqlardan tashkil topishi yoki aksincha, turli millatlar bir irqqa mansub bo‘lishi, ba’zi millatlar turli dinga yoki bir nechta millatlar bir dinga e’tiqod qilishlari mumkin. Bir davlatda yashab, o‘z millatiga ega bo‘lman yoki ayrim qismlari turli davlatlarda yashovchi millatlar ham mavjud. Mana shularni hisobga olgan holda, aytish mumkinki, millatni ta’riflashda irqiy, diniy birlik zarur belgi bo‘la olmaydi.

Millatning muhim xususiyatlaridan biri – uning o‘z tiliga egaligidir. Millatning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy jihatdan birlashishi elatlarning yozma adabiy tili va xalq og‘zaki tilining sheva va lajhalarining yaqin-

lashishi asosida yagona milliy adabiy tilning paydo bo‘lishiga olib keladi. Shevalar o‘rnini milliy til egallaydi. Tilda har bir millatning o‘ziga xos ruhiyati, milliy xususiyati o‘z aksini topadi. Millatning tashkil topishida tilning ahamiyati beqiyosdir. Uning davlat tili maqomi darajasiga ko‘tarilishi millat nomi bilan atalgan davlatning mustaqillik belgilaridan nishonadir. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonunga muvoifiq, o‘zbek tiliga 1989-yil 21-oktabrda davlat tili maqomi berilgan. Millat – mustaqil davlat belgisi. Uning mustahkam zamini – davlat iqtisodiy siyosatining barqarorligi millatning shakllanishi hamda fuqarolarning o‘zligini anglash darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Millatning paydo bo‘lishida til bilan birga, milliy madaniyat ham muhim o‘rni tutadi. Insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan moddiy va ma’naviy qadriyatlarning hammasi madaniyatga tegishli, demak har bir millatning o‘z milliy madaniyati mavjud bo‘lib, boshqa millatlarda takrorlanmaydigan o‘ziga xos belgi va xususiyatlari bilan ajralib turadi. Milliy ruh bilan sug‘orilgan an’analalar va urf-odatlarda, milliy og‘zaki ijodda, adabiyotda, qo‘yingki, millat hamda uning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan hamma hodisalarda milliy madaniyatning o‘ziga xosligi sezilib turadi. Demak, milliy madaniyat millatni birlashtirib turuvchi muhim omillardandir.

Millatning yana bir muhim xususiyati – uning milliy ongi va psixologiyasidir. Millatning kundalik hayoti davomida uning tili, urf-odatlari, an’analari, madaniyati shakllanishi jarayonida uning milliy ongi va milliy psixologiyasi ham mustahkamlanib rivojlanib boradi. Milliy psixologiya millatning xarakteri, hissiyoti, didi, g‘ururi va birligida, uning milliy tilida, an’analari va urf-odatlarida, madaniyatida namoyon bo‘ladi. Millatning tilidan tortib kiyinishigacha o‘ziga xos milliy psixologiyasi aks etib turadi. Masalan, o‘zbekning tilini, milliy kiyimini, musiqasini, raqsini rus, turkman yoki boshqa millatlarnikidan yaqqol tarzda farqlaymiz.

Millatning o‘zini-o‘zi anglashi ham millatga xos belgilardandir. Milliy o‘zini-o‘zi anglash asosida har bir xalq, millat o‘zining haq-huquqlarini idrok etadi, o‘z milliy manfaatlari asosida turmush tarzini shakllantirib boradi. Milliy o‘zlikni anglash asosida kishilarning individual hamda jamoa tarkibida o‘zlarini umumiy birlikda «biz» tushunchasining shakllanishi yotadi.

Millatning o‘zini-o‘zi anglashi – shu millatga tegishli bo‘lgan insonlarning sotsial-etnik birlikka intilishida, o‘z millatining mavqeini yaqqol tasavvur qila olishida, butun millat manfaatlari uchun tinmay mehnat qilishida o‘z ifodasini topadi. Albatta, bu yerda milliy tuyg‘u, milliy g‘urur, milliy iftixor kabi sotsial psixologik xususiyatlarning ahamiyati kattadir. Bu tuyg‘ularga ega bo‘lmagan inson hech mahal o‘zining ma’lum bir

millatga tegishli ekanligini his qila olmaydi. Shu bilan birga, o‘z millatini boshqa millatlardan ustun qo‘yish, ularni mensimaslik millatchilikka olib borishi mumkin.

Milliy o‘zini-o‘zi anglash tuzilishida milliy manfaatlar alohida o‘ringa egadir. Milliy manfaatlar ma’lum asoslarga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi: manfaatlar umumiylit darajasiga ko‘ra: individual, guruhiy va ijtimoiy hamda yo‘nalishiga qarab, iqtisodiy, ma’naviy va siyosiy larga bo‘linadi. Har qanday millatning milliy o‘zini-o‘zi anglash jarayonida milliy manfaatlar mohiyatini ifodalagan holda milliy harakat faoliyatlarining dasturiga aylanadi. Milliy o‘zini-o‘zi anglashda milliy mafkura va milliy g‘oya muhim nazariy metodologiyani tashkil qiladi. Milliy o‘zini-o‘zi anglash etnik birliklarni birlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

## 2-§. Sotsial-etnik birliklarning O‘zbekistonndagi taraqqiyoti

Hozirgi o‘zbeklarning sotsial-etnik rivojlanish tarixi juda qadim davrlar bilan uzviy bog‘liqdir. Arxaik davrda O‘zbekiston hududlarida va unga tutash mintaqalarda bir nechta elatlar vujudga kelgan: baqtriyaliklar, xorazmliklar, sug‘diylar, qangarlar, farg‘onaliklar. Ammo bu elatlar kishilik jamiyatining ma’lum bir tarixiy taraqqiyoti davomida inqirozga uchrab, ilk o‘rta asrlarda yangi elatlar – turk, uyg‘ur, o‘g‘uz, tojik va o‘zbek elatlari tashkil topgan. Ushbu elatlarning barchasi ham to‘liq elat bo‘lib shakllanmagan. Turli sotsial-siyosiy va tarixiy omillarga ko‘ra bu elatlarning ayrimlari parchalanib ketgan va shakllanishi davom etayotgan elatlarning etnogenetik jarayonlariga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazgan. Masalan, turk, o‘g‘uz, uyg‘urlarning parchalanib ketishidan keyingi etnik jihatdan bir muncha o‘zgargan avlodlari o‘zbek elatining etnogenetik jarayonida qatnashgan. Xullas, iqtisodiy xo‘jalik, madaniy va etnik jarayonlarning tobora rivojlanishi natijasida bir nechta qabilalarning birlashuvi jarayonida vujudga kelgan elat etnik hududiy, iqtisodiy til va etnomadaniy umumiylit asosida shakllangan.

O‘zbeklarning millat bo‘lib shakllanishida ma’lum tarixiy davrlarni boshidan kechirgan. Bu yuqorida ifoda qilinganidek urug‘chilik, qabila, halq, elat kabi sotsial-etnik birliklarni boshidan o‘tkazgan. O‘tmish avlodlaridan qolgan va bizning zamonamizgacha yetib kelgan tarixiy bitiklar, buyumlar va yodgorliklar o‘zbeklarning ota-bobolari qadimdan hozirgi O‘zbekiston hududida yashaganligi hamda uning asosiy aholisi bo‘lganligini tasdiqlaydi. Qadimiylar sotsial-etnik birlik sifatida o‘z tarixiga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi murakkab shakllanish bosqichlarini bosib o‘tgan. Bu to‘g‘rida tad-qiqotchilar tomonidan xilma-xil qarashlar, fikrlar ilgari surilgan?!

Hozirgi paytda O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilar ekan, ularning tinch-totuv va ahillikda yashashlarining muhim omillaridan millatlararo siyosatning oqilona yo‘lga qo‘ylganligidir. Dunyo-da ikkita bir xil odam bo‘lmaganidek, ikkita bir xil millat ham bo‘lmaydi. Shaxslar kabi millatlarning ham xarakterlari, fazilatlari, manfaatlari, dunyoqarashlari, ichki-ruhiy olami turlicha ekanligi isbot talab qilmay-digan haqiqatdir. Shuning uchun ularni yagona andoza yoki qolipga solib bo‘lmaydi! Bu esa millatlar mavjud ekan millatlararo munosabatlardagi muammolar ham saqlanib qolishidan va uni doimiy ravishda ilmiy-nazariy, ijtimoiy-falsafiy, amaliy sotsiologik jihatdan o‘rganib borish lozim bo‘lgan dolzarb muammolardan biri sifatida qaralishi kerak.

Millatning mavjudligi jamiyatda qanchalik zarur va betakror bo‘lish bilan birga u o‘ziga xos juda murakkab ijtimoiy-siyosiy, huquqiy birlik ham hisoblanadi. Agar milliy manfaatlар bir-biriga zid kelib qolsa, jamiyatda millatlararo qarama-qarshilikni va konfliktlar hamda to‘qnashuvlar yuzaga qalqib chiqadi. Bu salbiy holatlarning oldini olish yoki ularni bartaraf etish ko‘proq davlat olib borayotgan oqilona milliy siyosatga bog‘liq bo‘lib qoladi. Millatning yana bir o‘ziga xosligi, uning ichki ma’naviy-ruhiy olamini tashkil etuvchi milliy erkinlik, or-nomus, qadr-qimmat, sha’n-shavkat, izzat-nafs, faxr va g‘urur kabi tuyg‘ularda namoyon bo‘ladi. Agar ularga tashqa-ridan yoki boshqa xalq yoki millatlar tomonidan salbiy ta’sirlar bo‘ladigan bo‘lsa, millatlararo, hatto davlatlararo munosabatlarda ziddiyatli holatlar paydo bo‘ladi va ular og‘ir musibatlarga olib kelishi mumkin?!

Faxr va g‘urur ila qayd qilish lozimki, O‘zbekiston hududida qadim-dan turli millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib kelgan mintaqalardan hisoblanadi. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yahudiylar-ning Markaziy Osiyoda paydo bo‘lishi ikki ming yillik tarixga ega. XII asrda Samarcand, Buxoro, Termiz va Urganch shaharlarida 3 ming nafar yahudiy istiqomat qilgan. Ikkinci jahon urushi yillarida O‘zbekistonga 300 ming nafar yahudiy evakuatsiya qilingan. Hozir O‘zbekistonda 15 ming-dan ortiq yahudiylar istiqomat qilmoqda. O‘zbekiston ko‘p millatli (polietnik) davlat. Ma’lumotlarga ko‘ra, bundan yuz yil avval hozirgi respublikamiz hududida 70 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilgan. Oradan 30 yil o‘tgach, bu son 91 taga, 1959-yilda 113 taga, 1979-yilda esa 123 taga yetdi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 136 ta millat va elat vakillari bo‘lgan 32,2 million aholi yashaydi.<sup>1</sup> Ular o‘z milliy-madaniy urf-odatlari, an’analari, tili,

<sup>1</sup> Юксак маънавият ва қонун устуворлиги асосида яшаш, эл-юртга садоқат, адолат, ҳалоллик фазилатлари ва муомала маданиятини камол топтириш. – Т., 2016. – Б. 43.

konstitutsiyaviy-huquqiy tengligiga asoslanadi. O‘zbekistonda barcha millat vakillariga nisbatan teng huquqli munosabat Konstitutsiya va qonunlar bilan mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18 muddasida: «*O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdir-lar*»<sup>1</sup> deb belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlar o‘rtasida millatlararo totuvlik hukmronlik surmoqda. Buning isboti sifatida mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda, Davlat ta’lim muassasalarida o‘qitish 7 tilda olib borilmoqda. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o‘z ko‘rsatuvarlarini 12 tilda namoyish etmoqda, undan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda<sup>2</sup>. Yurtimizda turli millatlar orasida totuvlikni ta’minalash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan hisoblanadi. Xalqimizning «qo‘sning tinch – sen tinch» degan maqolida ana shu haqiqat nazarda tutilgan. Butun dunyoda, birinchi navbatda, qo‘sni mamlakatlarda yonma-yon yashayotgan xalqlar orasida tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, hamkorlik, hamjihatlik, teng huquqli munosabatlar bo‘lmasa, ulardan hech biri o‘zining porloq istiqbolini ta’minalay olmaydi.

Millatlararo totuvlikni ta’minalashda Respublika baynalmilal madaniyat markazining roli benihoyadir. Markaz 1992-yil yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan tashkil etildi. Milliy madaniy markazlarning asosiy maqsadi mamlakatimizdagi turli millat va elat vakillarining ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojlarini qondirish, milliy qadriyatlarni saqlash, ularning urf-odat va an’analari davomiyligini ta’minalashdan iboratdir. Respublika baynalmilal madaniyat markazining nashri «Yagona oilada» («V semye yedinoy») jurnalida milliy madaniy markazlar faoliyatining barcha qirralari yoritib boriladi. Atoqli yozuvchi Chingiz Aytmatov O‘zbekistondagi milliy madaniy markazlar faoliyatiga yuksak baho berib, ularni «kichik BMT» deb atagan. Agar 1989-yilda milliy madaniy markazlar soni 12 ta bo‘lgan bo‘lsa, 1997-yilda 90 ta, hozirgi kunda 162 ta kichik BMT lar faoliyat yuritmoqda<sup>3</sup>. Buyuk Yo‘lboshchimiz Islom Karimov Respublika baynalmilal madaniyat markazining tashkil

<sup>1</sup> О‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т., 2014. – В. 8–9.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 25 янв.

<sup>3</sup> Юксак маънавият ва қонун устуворлиги асосида яшаш, эл-юртга садоқат, адолат, ҳалоллик фазилатлари ва муомала маданиятини камол топтириш. – Т., 2016. – Б. 437.

etilishi va ahamiyati haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: «*Hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir xalq va millatning etnik o‘ziga xosligi, tili, urf-odati, an’analalarini saqlashda muhim rol o‘ynaydigan milliy madaniy markazlarning faoliyatini rivojlantirish uchun bugun barcha shart-sharoit hamda imkoniyatlarni yaratar ekanmiz, bu bilan biz odamlarning tinch va osoyishta hayoti, ertangi kunga ishonchining mustahkam poydevorini bonyod etgan bo‘lamiz*»<sup>1</sup>. Mustaqillik yillarida Respublika baynalmilal madaniyat markazi va milliy madaniy markazlarning yuzdan ortiq faollari faxriy unvonlarga sazovor bo‘ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi. Turli millatlar vakili bo‘lgan 14 nafar fuqarolarimiz O‘zbekiston Qahramoni degan yuksak unvon bilan mukofotlanganligini alohida ta’kidlash o‘rinlidir<sup>2</sup>. Shuningdek, milliy madaniy markazlar vakillari respublikamiz davlat hokimiyatining turli tizimlarida faoliyat yuritishmoqda.

Qayd qilish lozimki, ya’ni jamiyatda istiqomat qiluvchi barcha millatlar o‘rtasida milliy munosabatlar to‘g‘ri hal qilinmasa, ularning teng huquqliligi ta’milanmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi hamda tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Hozirgi paytda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo‘layotgan milliy nizolar ana shundan dalolat berib turibdi?!

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar totuvligi, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko‘z qorachig‘idek saqlash lozimligini alohida ta’kidlab: «*Jamiyatimizda hukm surayotgan o‘zaro do‘slik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e’tiqodga mansubligidan qat’i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta’minalash e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Ularning o‘rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g‘oyalarni tarqatishga O‘zbekistonda mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi*»<sup>3</sup>, deb ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, adolatli siyosat ko‘p millatlilik maqsadining yagonaligi va yaxlitligi hamda taqdirlar birligini, hamjihatlik zarurligini tushunishga

<sup>1</sup> Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. – Т. 2002. – Б. 182.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 25 янв.

<sup>3</sup> Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишлиланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи. – 2016. – 14 дек.

yordam beradi. Umuminsoniy g‘oyalarning ustuvor bo‘lishini osonlashtiradi. Aksincha milliy munosabatlarga ziyraklik va sinchkovlik bilan yondashmaslik yoki umummiliy tamoyillarga biroz e’tiborsizlik ham tinchlik va barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Birinchi Prezident Islom Karimov bu haqda shunday yozgan edi: «*Ayni chog‘da insoniyat tarixida buning aksini, ya’ni ko‘p elatlardagi millatlararo munosabatlarda uyg‘unlikning yo‘qligi, butun-butun xalqlar va mamlakatlarni ancha orqaga uloqtirib tashlagan ijtimoiy-siyosiy falokatlarga olib borganini ko‘rsatuvchi misollar ham oz emas. Zero, ko‘p elatlilik nafaqat ayrim mamlakatlarning, balki butun-butun mintaqalarning ham ichki siyosiy barqarorligi va milliy xavfsizligiga putur yetkazuvchi bosh omilga aylangan»<sup>1</sup>.*

Jahon keng, dunyoda mamlakatlar ko‘p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz – O‘zbekistonimiz yakkayu-yagona. O‘zbekiston deb atalmish yurtning yagonaligi, ya’ni betakror tabiat, boy tarixi, zahmatkash insonlari bilan bir qatorda bu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzandlaridek yashashlarida namoyon bo‘lmoqda. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi shaxsiy tarkibi xizmatchilar, xodimlari – o‘z tarkibiy tuzilishi va faoliyatları davomida do‘stlik, ahillik, hamkorlik va hamjihatlik namunalarini namoyish qilib, kasbiy mahoratlari jihatidan fidoyilik ko‘rsatib, ona Vatan O‘zbekistonda tinchlik va osoyishtalikni ta’minalash hamda strategik barqaror rivojlanishni yuksaltirishda ulkan vazifalarni sidqidildan amalga oshirmoqdalar. Milliy totuvlik g‘oyalariga sodiq bo‘lib, ko‘p millatli mamlakatimizni ko‘z qorachig‘iday asrashda huquq-tartibot tizimida o‘z mavqeini baland ko‘tarish uchun bor kuch-qudratlarini safarbar etishmoqda.

Dunyoning qariyb barcha mamlakatlari ko‘p millatli davlatlar hisoblanadi. Respublikamiz ham ana shunday boy, turfa madaniyatlar gullab-yashnayotgan ko‘p millatli mamlakatlardan biri ekanligi har bir o‘zbekistonlikka iftixor baxsh etadi. O‘zbekistonni o‘z Vatani, deb bilib, uning taraqqiyoti yo‘lida fidokorona mehnat qilgan turli millatga mansub yurtdoshlarimiz buni dildan his qilmoqdalar. Chunki mamlakatimizda barcha millat va elat vakillariga teng huquqli sharoitlar yaratilgan. Shu bois ular ahil, yagona va yaxlit oila sifatida mustaqilligimizni mustahkamlash yo‘lida samarali mehnat qilib kelmoqdalar.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т. 7. – Т., 1999. – Б. 70–71.

### **3-§. Sotsial-hududiy birliklar. Shahar va qishloq sotsiologiyasi**

Ma'lumki, kishilar ijtimoiy faoliyatlari turli xil bo'lib, ular o'rtasidagi sotsial munosabatlar o'zaro sabab va oqibatlarga ko'ra bog'lanadi hamda sotsial-hududiy birliklar doirasida ish yuritadi. Bunday birliklar doirasida kishilar hayot faoliyatlarining asosiy shakli va muhim belgilari namoyon bo'лади.

*Sotsial-hududiy birliklar* – ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ma'lum hududda doimiy yashab, faoliyat olib borayotgan kishilar birligidir. Sotsial-hududiy birliklarda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy va mafkuraviy, aloqa hamda munosabatlarning barqarorligi uning *asosiy belgisidir*. Bunday birlikni ma'lum makonda mustaqil tizim sifatida tashkil etgan kishilar hayot faoliyatining *alohida shakli* deyish mumkin. Bu birlikning o'ziga xos muhim belgilaridan biri – hudud yaxlitligi hamda bo'linmaslik xususiyatga ega ekanlidir.

Sotsial-hududiy birlikning shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning ishlab chiqarish usuliga bevosita bog'liq bo'lib, uning o'zgarishi sotsial-hududiy tuzilishning o'zgarishiga olib keladi. Sotsial-hududiy birliklar yangi yerlarning o'zlashtirilishi hamda ishlab chiqarish tarmoqlari – neft, gaz va boshqa sanoat korxonalarining vujudga kelishi bilan ham bog'liqdir. Chunonchi, O'zbekistonda XX asrning 50-yillaridan boshlab Qarshi, Sherobod va Mirzacho'l cho'llarining o'zlashtirilishi hamda yangi neft-gaz va oltin konlarining ochilishi aholining ma'lum hududlarda birlashishini ta'minladi.

Bunday birliklarning yuzaga kelishi jarayonida kishilar faoliyatida yangi munosabatlar, ishlab chiqarishning umumiyligi belgilari, bir xil manfaatlar va o'ziga xos turmush tarzi shakllandi. Demak, umumiyligi belgilari mavjud bo'lgan sotsial tizimda vujudga kelganligi uchun ham sotsial-hududiy birliklar umumxalq manfaatlari bilan mos keladi. Sotsial-hududiy birliklar o'zlarining shakli va tuzilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ular iyerarxik, ya'ni quyidan yuqoriga pog'onali bo'ysunish xususiyatiga ega bo'lib, yuqori pog'onali birliklar quyidagi birliklarni o'z ichiga oladi. Sotsial-hududiy birliklarning shakli va tuzilishi jihatidan bir nechta asosiy guruhlarga ajratish mumkin. Masalan, *O'zbekistonda:* 1. *Aholi yashaydigan joylarning umumiyligiga qarab – shahar va qishloq.* 2. *Ma'muriy-hududiy boshqarilishining umumiyligiga qarab – tuman, viloyat, respublika.* 3. *Millat va elatlar sotsial-hududiy birliklarning alohidaligiga qarab – Qoraqolpog'iston Respublikasi nazarda tutiladi.*

Sotsial-hududiy birliklarning shakllari bir-biridan, ya’ni maqsad va manfaatlari, urf-odatlari, an’analari hamda ishlab chiqarish usullariga bo‘lgan munosabatlari kabi jihatlari bilan ajralib turadi. Bunday birliklarni tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro munosabatlari natijasida ular shakllanadi. Shuningdek, har qanday sotsial-hududiy birliklar murakkab tuzilishga ega bo‘ladi. Ulardan ikkita asosiy tuzilishni ko‘rsatish mumkin: *mehnat jamoalari; yashash joylardagi jamoalar*. Mehnat jamoalari moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonida shakllansa, yashash joylardagi jamoalar esa moddiy va ma’naviy ehtiyojlarni qondirish, ya’ni maishiy xizmat sohasida shakllanadi.

Sotsial-hududiy birliklar boshqa sotsial birliklardan quyidagi o‘ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. *Birinchidan*, sotsial-hududiy birliklar jamiyatning asosiy boshlang‘ich tashkiloti sifatida namoyon bo‘ladi. Unda jamiyatni yaxlit holda ifoda etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy tuzilishi, shuningdek muhim jarayonlar o‘z aksini topadi. Jamiyatning rivojlanish qonuniyatлari sotsial-hududiy birliklarda o‘z ifodasini namoyon etadi. Agar jamiyat yaxlit sotsial tizim sifatida qaraladigan bo‘lsa, sotsial-hududiy birliklar shu tizimga bo‘ysunuvchi tizimni tashkil qiladi va jamiyatdagi kishilar faoliyatлari ular o‘rtasidagi munosabatlarni to‘ldirib turadi. *Ikkinchidan*, shaxsning rivojlanishi hamda moddiy va ma’naviy ehtiyojlarining qondirilishi ma’lum sotsial-hududiy birliklar doirasida amalga oshadi. Jamiyat maqsad va manfaatlarning amalga oshirilishi bevosita sotsial-hududiy birliklarga bog‘liqdir. Chunki jamiyatning asosiy maqsad va manfaatlari, undagi har bir kishining moddiy, ma’naviy va jismonan rivojlanish darajasi, sotsial-hududiy birliklar taraqqiyoti darajasi bilan dialektik aloqada bo‘ladi. *Uchinchidan*, sotsial-hududiy birliklarda shaxs ijtimoiy munosabatlarining ko‘p qirraligi namoyon bo‘ladi. Jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, huquqiy va boshqa vazifalarni hal qilishda shaxs faol qatnashadi. Shuningdek, bu birlik jamiyat taraqqiyoti va yangilanishi hamda ijtimoiy qayta qurishlarning subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. *To ‘rtinchidan*, sotsial-hududiy birliklar ma’lum mustaqillikka va boshqarish idoralariga ega bo‘lgan, o‘zini o‘zi boshqaruvchi tizim sifatida jamiyat rivojlanishini ta’minlaydi. Sotsial-hududiy birliklarning jamiyat tizimidagi o‘rni va mustaqillik darajasi hamda ularning hududiy hajmi, moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish imkoniyatlarining ahamiyatiga juda bog‘liq bo‘ladi.

Aholining hududlar bo‘yicha joylashishi ijtimoiy ishlab chiqarish va sotsial rivojlanish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, tabiiy-tarixiy qonuniyat natijasidir. Aholining sotsial-hududiy joylashish tizimi bilan ijtimoiy ishlab chiqarish va kishilarning sotsial rivojlanishi o‘rtasida o‘zaro munosabat va

aloqa mavjud bo‘lib, sotsiologiya fani ularni o‘rganishda asosiy e’tiborni shahar va qishloq sotsiologiyasiga qaratadi. Darvoqe, shahar va qishloq – sotsial-hududiy birliklarning asosiy shaklidir. Sotsiologiya fanida esa shahar va qishloq sotsiologiyasi maxsus soha hisoblanadi. Unda shahar va qishloq hayoti, ularning sotsial muammolari hamda vujudga kelish sabablari va bartaraf etish yo‘llari o‘rganiladi. Jamiyat a’zolarining sotsial-hududiy birliklarga bo‘linishi natijasida XX asrning boshlarida shahar va qishloq sotsiologiyasi vujudga keldi. Bunda, demak shahar va qishloq hayotining o‘ziga xos xususiyati, mehnat faoliyati hamda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari, aholi udumlari, an’analari va ularni ilmiy asosda o‘rganish zaruriyatining paydo bo‘lganligidir.

*Shahar sotsiologiyasi* – sotsial-hududiy birlikning alohida shakli: shaharlар va ularning vujudga kelishi, sotsial-iqtisodiy rivojlanishi, tarkibiy tuzilishi, aholisining turmush tarzi hamda tabiatini yaxlit tizim sifatida o‘rganuvchi maxsus sohadir. Shahar sotsiologiyasining muammolariga: uning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, aholisining ijtimoiy tarkibi, turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, aholi o‘sish va u bilan bog‘lik ijtimoiy muammolar, ish bilan ta’minlanganligi, ilmiy madaniy hayot, xizmat ko‘rsatish darajasi va turlari, uning sifati, ekologik vaziyat, ijtimoiy rivojlanishdagi boshqaruv usulini o‘rganish hamda jinoyatchilik darajasi va boshqa masalalar kiradi.

Shahar – aholisi qishloq xo‘jaligi mehnati bilan band bo‘lmagan katta aholi qatlamidir. Shahar – mehnat turining har xilligi va aholisining sotsial tarkibi hamda turmush tarzining o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Hozirgi zamon shaharlari qishloqqa nisbatan aholining zinch joylashganligi, o‘ziga xos arxitekturasi, rejali qurilish majmualari, hashamatli binolar, siyosiy-ma’muriy markaz sifatida hamda madaniy ilmiy jihatdan ustunligi bilan ajralib turadi.

Shahar aholi sonining ko‘pchiligi bir joyda to‘planishi va cheklangan hududlarda aholi zichligi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shahar sotsial taraqqiyotda alohida o‘ringa ega bo‘lib, uning aholisi o‘ziga xos turmush tarziga egadir. Shaharlar aholisi asosan sanoat tarmoqlarida, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish, ilm-fanda hamda madaniyat sohalarida band bo‘ladi. Shaharlar asosan sanoat korxonalari, transport vositalari, madaniy-ma’rifiy muassasalarning ko‘pligi bilan ajralib turadi. Shaharlar o‘zining iqtisodiy va sotsial jihatdan rivojlanganligi uchun o‘ziga yaqin qishloqlar taraqqiyotiga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Shaharni sotsial-hududiy birlik sifatida har bir mamlakat o‘zining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilaydi. Ayrim mamlakatlarda

shahar aholisi umum e'tirof etilgan ko'rsatkich 8-10 ming kishi atrofida bo'lsa shahar maqomini oladi. Masalan, Rossiya davlatida aholi soni 12 ming kishidan ko'p bo'lgan va aholisining 85% qishloq xo'jaligi sohasi bilan band bo'lmasan aholi punktlari shahar hisoblanadi.

Shaharlar kichik, o'rta va katta shaharlarga bo'linadi. Aholisi 50 ming kishigacha bo'lgan shaharlar kichik, 50–100 ming kishigacha bo'lgan shaharlar o'rta va 100 ming kishidan yuqori bo'lgnlari katta shaharlar deb yuritiladi. Aholisi 1 million kishidan ko'p bo'lgan shaharlar alohida ajralib turadi. Aholisi 2 million kishidan ortiq bo'lgan shaharlarni *megapolis shaharlar*, deb atash mumkin.

Shaharlar taxminan miloddan oldingi 3500-yillar, Nil daryosi atroflari, keyinchalik Misr, Iroq, Hindiston va Xitoyda, ya'ni qishloq xo'jaligi rivojlanishga qulay bo'lgan joylarda vujudga kelgan. Qadimgi shaharlarning gullab-yashnagan davri – Rim imperiyasi davriga to'g'ri keladi. Asosan shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi sanoat taraqqiyoti bilan bezosita bog'liq bo'lgan.

O'zbekiston hududida qadimgi shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi taxminan miloddan avvalgi ikki minginchi yillarga to'g'ri keladi. Arxeolog olimlarning ilmiy tadqiqot izlanishlari xulosalariga ko'ra, miloddan avvalgi 1000-yillarning ikkinchi yarmida Farg'ona vodiysida Chust, Dalvarzin, Oshqoltepa va boshqa kichkina shaharlar mavjud bo'lganligi qayd etiladi.

Shahar aholisi asosan uch manba: aholining tabiiy ko'payishi, qishloq aylanishi asosida o'sadi. Shahar aholisi soni ko'paya borishi bilan uning aholi tarkibidagi salmog'i ham orta boradi. 1926-yilda respublikamiz hududida bor-yo'g'i 15 shahar mavjud edi. Hozirgi paytda ularning soni 119 taga yetdi. Faqat 1970-yildan 1985-yilgacha bo'lgan davr ichida respublikamiz xaritasida 81 ta yangi shahar vujudga keldi. Shahar va shahar toifasidagi qal'alarning o'sishini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin<sup>1</sup>.

### **Respublikamizda shaharlar sonining o'sishi**

Yillar	1926	1960	1970	1980	2013
Shaharlar	15	33	43	93	119
Shaharchalar	19	66	85	95	104
Jami	34	99	128	188	223

<sup>1</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, shaharlar aholisi soniga qarab ikki guruhga: kam va ko‘p rivojlangan mintaqalarga bo‘linadi. 1800-yilda Yer shari kurrasida shahar aholisining 60 foizdan ko‘prog‘i kam rivojlangan mintaqalarga to‘g‘ri kelgan. Urbanizatsiya<sup>1</sup> darajasi bo‘yicha ular ko‘proq rivojlangan shaharlardan orqada qolgan. 1800-yilda sayyoramizda 100 ming va undan ziyodroq aholi yashagan 50 ta shahar bo‘lgan. Ularda butun Yer yuzi aholisining atigi ikki foizga yaqini yashagan. Avstriya va Germaniyada aholining – 5, Fransiyada – 10, Buyuk Britaniyada esa 21 foizga yaqin aholi 10 mingdan ko‘p shaharlarda istiqomat qilishgan. Shaharlar bu mamlakatlar hayotida sanoat va savdo, fan va madaniyat hamda yangi ilg‘or texnologiyalar markazi sifatida muhim rol o‘ynagan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, 1970–1975- yillar o‘rtasida kam va ko‘p rivojlangan shaharlar aholisi har ikki – Osiyo va Yevropa mintaqasida tenglashdi, 2000-yilda dunyo shahar aholisining 2/3 qismi (ya’ni 3 milliarddan 2 milliardi) kam rivojlangan mintaqalarda joylashadi.

Butun dunyo	1950 y.		1980 y.		2000 y.	
	mln. kishi	% hisobi	mln. kishi	% hisobi	mln. kishi	% hisobi
	735,2	29	1725,8	40	2951,6	48

**Dunyo shaharlarining aholisi.** XX asr boshlarida sayyoramizda aholisi bir milliondan ortgan shaharlar 12 ta bo‘lgan bo‘lsa, 80-yillarga kelib bunday shaharlarning soni 200 taga yetdi. Mexiko, Tokio, Qohira, Kalkutta shaharlari gigant-shaharlar ro‘yxatidan o‘rin oldi. Aholisining ko‘pligi bo‘yicha Yaponiya poytaxti Tokio shahri 1-o‘rinda turadi. Bu yerda shahar atrofi bilan birgalikda 26 mln. 800 ming kishi istiqomat qiladi. Yer sharida eng yirik 10 ta shaharning ro‘yxatida keyingi o‘rnlarni quyidagi shaharlar egallagan: San-Paulu – 16,4 mln, Nyu-York – 16,3 mln, Mexiko – 15,6 mln, Bombez – 15,1 mln, Shanxay – 15,1 mln, Los-Anjeles – 12,4 mln, Pekin – 12,4 mln, Kalkutta – 11,7 mln, Seul – 11,6 mln. tashkil etadi.

**O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy bo‘linishi.** O‘zbekiston Respublikasi 14 ta hududiy birlik: Toshkent shahri, 12 ta viloyat va Qoraqolpog‘iston Respublikasidan tashkil topgan. Shuningdek, viloyatlar tarkibiga

<sup>1</sup> Urbanizatsiya (lot. urbs – shaharlar) – umuman olganda mamlakat yoki tuman hayotida shaharlar rolining oshganligini bildiruvchi murakkab sotsial-iqtisodiy jarayondir. Bu jarayonning eng umumiyl belgisi jami aholi sonida shahar aholisining salmog‘i hisoblanadi.

kiruvchi qishloq va shahar turidagi tumanlar hamda viloyatlar va tumanlarga bo‘ysunuvchi shaharlar, qishloq va ovullardan iborat.

1	Toshkent shahri	8	Namangan viloyati
2	Andijon viloyati	9	Samarqand viloyati
3	Buxoro viloyati	10	Surxondaryo viloyati
4	Farg‘ona viloyati	11	Sirdaryo viloyati
5	Jizzax viloyati	12	Toshkent viloyati
6	Qashqadaryo viloyati	13	Xorazm viloyati
7	Navoiy viloyati	14	Qoraqalpog‘iston Respublikasi

O‘zbekiston poytaxti – Toshkent shahri. Mamlakatning hududi 447,4 ming kv. km. Chegarasining uzunligi – 6221 km. Respublika aholisi hududlar bo‘yicha bir xil joylashgan emas. Binobarin aholining o‘rtacha zichligi jihatidan O‘zbekiston MDH ning ba’zi mamlakatlaridan oldinda turadi. Aholi soni tez ko‘payib borayotganligi sababli har kvadrat kilometr hudud hisobiga uning zichligi o‘rta hisobda 65,8 kishiga to‘g‘ri keladi. Bu raqam Qozog‘istonda 6,1, Qirg‘izistonda 22,7, Turkmanistonda 9,4 ni tashkil etadi. O‘zbekiston aholisi 2016-yil 1-iyulga qadar 31,807 million kishini tashkil qildi. Shundan 50,6 % – shahar va 49,4 % – qishloqlarga to‘g‘ri keladi. Shahar aholisining ko‘payish nisbati, ya’ni 2009-yilda mamlakatda 4 million kishi yashaydigan 966 ta qishloq aholi qal’alariga shahar turidagi aholi qal’alari maqomi berildi. Natijada shahar aholisi 35,8 % dan 50,6 % ga ko‘tarildi<sup>1</sup>. Aholisining o‘rtacha zichligi 1 kv. km 65,8 kishiga to‘g‘ri keladi. Aholi soni bo‘yicha O‘zbekiston MDH davlatlari orasida Rossiya va Ukraina davlatlaridan keyin uchinchi o‘rinda turadi.

### ***O‘zbekistonda aholi soni 100 mingdan yuqori bo‘lgan shaharlar.***

Shaharlar	Aholi soni ming. kishi. 2001-yil. 1-iyul.	Aholi soni ming. kishi. 2014-yil. 1-yanvar.
Toshkent	2 137,2	2 352,9
Samarqand	361,3	509,0
Namangan	391,3	475,7
Andijon	338,4	403,9
Nukus	212,0	295,2
Buxoro	237,4	272,5

<sup>1</sup> Салиев А. С., Курбанов Ш. Б. Демографическое развитие сельской местности Республики Узбекистан / Социально-экономическая география. Вестник Ассоциации российских географов-обществоведов. – 2015. – № 1 (4). – С. 151–152

Farg‘ona	183,0	264,9
Qarshi	204,7	254,6
Qo‘qon	197,5	233,5
Marg‘ilon	149,6	215,4
Angren	128,8	175,4
Jizzax	131,5	163,2
Chirchiq	141,7	149,4
Urganch	138,6	137,3
Termiz	116,5	136,2
Navoiy	138,1	134,1
Olmaliq	113,1	121,1
Xodjeyli	100 minga yetmagan	104,5
Denov	100 minga yetmagan	104,4
Bekobod	100 minga yetmagan	101,2
Shahrisabz	100 minga yetmagan	100,3

Mamlakatda 124 ta shahar va 104 ta shahar turidagi qal’alar mavjud bo‘lib, ularda umumiy hisobda aholining 15,5528 million kishi yoki umumiy aholining 50,6 % yashaydi<sup>1</sup>.

Aholi soniga nisbatan qabul qilingan qoida bo‘yicha shaharlar va boshqa qal’alar asosan besh guruhgaga bo‘linadi.

Shaharlar va boshqa aholi qal’alarining aholi soni bo‘yicha tasnifi:

Guruhlari	Shaharlar	Qal’alar	Qishloqlar
Eng yirik	1 mln. dan ortiq	-	-
Yirik	500000 – 1 mln.gacha	10 000 dan ortiq	5 000 dan ortiq
Katta	250000 – 500000gacha	5 000 – 10 000 gacha	2 000 – 5 000 gacha
O‘rta	50000 – 100000gacha	8 000 – 15 000 gacha	1000 – 2000 gacha
Kichik	50 minggacha	3 000 gacha	500 – 1000 gacha

Darhaqiqat, shaharlarni aholi soniga qarab tasniflash doimiy bo‘lmaydi. Urbanizatsiya jarayoni taraqqiy etishi bilan kelajakda yirik shaharlarning aholi soni bo‘yicha pastki chegarasi o‘zgarishi mumkin. Masalan, hozir bu chegara 500 mingni tashkil etsa, kelajakda u 1 milliongacha ko‘tarilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi shaharlarini ana shu nuqtai nazardan qarab chiqiladigan bo‘lsa, ular guruhlari bo‘yicha quyidagicha: eng yirik shaharga – aholisi 500 mingdan ortiq, yirik shaharlarga – 250–500 ming, katta shaharlarga – 100–250 ming, o‘rta shaharlarga – 50–100 ming, kichik shaharlarga – 50 minggacha bo‘lgan shaharlarga bo‘linadi.

<sup>1</sup> Демографическая ситуация. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике (19 марта 2014). Архивировано из первоисточника 24 марта 2014.

Eng yirik shaharlar qatoriga Toshkent shahri kiradi. Toshkent jami shaharlar soniga nisbatan 0,8 foizni tashkil etadi. Aholisining soni bo‘yicha esa respublikadagi barcha shaharlar aholisining salkam 30 foiziga to‘g‘ri keladi. Yirik shaharlar qatoriga Samarcand, Namangan va Andijon shaharlari kiradi. Bu shaharlarda bir million uch yuz kishidan ortiq aholi yashaydi. Katta shaharlarga Angren, Buxoro, Jizzax, Marg‘ilon, Navoiy, Nukus, Olmaliq, Qarshi, Qo‘qon, Urganch, Farg‘ona, Chirchiq, Termiz shaharlari kiradi va aholisining soni ikki yarim ming kishidan ko‘pni tashkil qiladi.

Shaharlar o‘tmish va hozirgi kunda ishlab chiqarish, sanoat, fan va madaniyat rivojlanishining markazi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ularni boshqarish va rivojlantirish hamda barcha shart-sharoitlarni yaratib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, shahar fuqarosi qishloq fuqarosiga nisbatan 6 marta ko‘p xizmat turlaridan bahramand bo‘ladi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarda mulkka bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi: o‘rtta va kichik qo‘shma korxonalarning faoliyat ko‘rsatishi, yangi ishlab chiqarish imkoniyatlarining ochilishi, transport va aloqa tarmoqlarining rivojlanishi tobora yuksalib bormoqda. Shu bilan birga, shahar aholisining ko‘payishi – ularni oziq-ovqat, sanoat mahsulotlari va ish bilan ta’minlash hamda uy-joyga bo‘lgan talablarini qondirish kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Katta shaharlarda avtomobil qatnovining ko‘pligi va sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindilar atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo‘ladi. Atrof-muhitning ifloslanishi nafaqat inson hayotiga, balki o‘simliklar va hayvonot olamiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu muammolarni to‘g‘ri va oqilona hal qilish Ichki ishlar organlari xodimlarining zimmasiga yuklanadi hamda ularning izchil va rejali harakat qilishlari talab etiladi.

*Qishloq sotsiologiyasi* – qishloqlarning sotsial-hududiy birlik sifatida vujudga kelishini va ularni harakatga keltiruvchi qonuniyatlar hamda ishlab chiqarish usuli va turmush tarziga, ya’ni sotsial sohalarda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabatlarini, yoshi va jins jihatdan tuzilishini, aholisining ish bilan qanchalik ta’minlanganligini o‘rganadigan sohadir. Qishloq sotsiologiyasi bu muammolarni o‘rganar ekan asosan aholi bandligi, sotsial-demografik va kasbiy tuzilishi, bo‘sh vaqt ni tashkil etish, turmush tarzi, madaniy va ma’naviy qiziqishlariga alohida e’tibor qaratadi.

*Qishloq* – odamlari qishloq xo‘jalik mehnati bilan band bo‘lgan, dehqonchilik madaniyati yuksaltirilgan va katta bo‘lmagan aholi punktidir. Hududiy birlikning bu turiga odamlarining bevosita yer bilan bog‘liqligi, mehnatning davriy va mavsumiyligi, ijtimoiy va kasbiy faoliyatları bir-

biridan unchalik farq qilmasligi hamda qishloq turmush tarzining o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, qishloq aholisi hududiy birlik sifatida shahardan hudud bo‘yicha joylashishiga nisbatan zinch emasligi va kengligi bilan ajralib turadi. Bularda mehnat qilish sharoitining biroz qiyinligi va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish darajasining pastligi kabi tomonlari bilan ham shahardan farq qiladi.

Hozirgi paytda mamlakatimizning barcha sohalari kabi qishloq xo‘jaligida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, industrial qishloqlar vujudga kelmoqda. Ya’ni, qishloq aholisini avtomobilsozlik, mashinasozlik, neft-gaz sanoati, xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish tarmoqlariga jalb qilish ishlari olib borilmoqda. Bozor munosabatlariga o‘tish natijasida qishloqlarda mulkchilikning yangi turli shakllari vujudga keldi, o‘rta va kichik korxonalar ochildi, hunarmandchilik faoliyati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yildi. Bularning barchasi qishloqlarning rivojlanishi hamda shahar turini olishga xizmat qilyapti.

Hozirgi paytda qishloq sotsiologiyasining huquqiy maqomi yanada ravnaq topmoqda, kafolati mustahkamlanib bormoqda. «Yer to‘g‘risida», «Kooperatsiya to‘g‘risida», «Ijara to‘g‘risida», «Dehqon xo‘jaliklari to‘g‘risida»gi qonunlarning qabul qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Farmonlari, hukumat qarorlarining chiqarilishi qishloqlarda yangi huquqiy munosabatlarni joriy etish, ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, tadbirkorlik va fermer hamda shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratdi.

Aytish joizki, davlatimizning 2016-yilning so‘nggi choragida qishloq ahliga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgardi. Ayniqsa, arzon zamonaviy uyjoylar qurish, uzoq muddatli kreditlar berish joriy qilinmoqda, sotsial o‘zgarishlar: qishloq vrachlik punktlarini tibbiy jihatdan ilg‘or texnologiyalar bilan jihozlash, ta’lim muassasalarini yanada yuksaltirish, qishloq mahallalarini ko‘rkamlashtirish kabi jarayonlar amalga oshiriladi. Qishloqlarning infrazilmasini tubdan o‘zgartish davlatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosini tashkil qiladi. Bular: kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, madaniy va bilim saviyasini oshirish, moddiy va ma’naviy rag‘batlan-tirishni takomillashtirish, yo‘l va maishiy xizmat binolarini qurish, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, sport va boshqa tarbiyaviy ishlar darajasini ko‘tarish nazarda tutiladi.

**Aholi zichligi.** Respublikamizda har bir odamga 0,17 hektar ekin maydoni to‘g‘ri kelsa, Qozog‘istonda 1,54, Qirg‘izistonda 0,26, Ukrainada 0,59, Rossiyada 0,67 hektar ekin maydoni to‘g‘ri keladi. Tabiiy shart-sharoitlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan O‘zbekistonda aholi

asosan vohalarda yashaydi. Har kv.km. hududga Qoraqalpog‘istonda 8,1 va Navoiy viloyatida 6,5 kishi to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonning ayrim viloyatlari ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha MDH ning hamma mintaqalaridan oldinda turadi. MDH tarkibiga kirgan 164 ta ma’muriy birlik (o‘lka, viloyat) orasida faqat olti viloyatda har kvadrat km. maydon hisobiga aholining o‘rtacha zichligi 150 kishidan ko‘proqni tashkil qiladi. Ana shu olti viloyatning beshtasi O‘zbekiston viloyatlaridir. Misol tariqasida qaraganda, Andijon viloyati aholi zichligi bo‘yicha Moskva viloyatidan oldinda turadi, MDH tarkibidagi barcha hududlar orasida birinchi o‘rinni egallaydi. Andijon viloyatida har kv. km. maydonga to‘g‘ri keladigan zichlik 452,1 kishini tashkil etadi. Moskva viloyatida bu raqam 334,5 ga teng. Toshkent viloyatida ham aholi zich joylashgan. Bu viloyatda bir kvadrat kilometr maydon hisobiga olganda aholi zichligi 279,3 kishini tashkil qiladi.

Shunday qilib, sotsial-hududiy birliklar sotsiologiyasida uning boshqa sotsial birliklardan farqi hamda shahar sotsiologiyasi, shaharlarning vujudga kelishi, shaharga oid muammolarni hal qilishda sotsiologiyaning o‘rni va qishloq sotsiologiyasi, qishloq va shahar tafovuti, qishloqqa oid muammolarni bartaraf etishda umuman sotsiologiyaning roli, shahar va qishloq joylarida tub islohotlarning mohiyati tahlil qilinadi.

### **Tayanch tushunchalar**

Sotsial etnik birlik, sotsial etnik birliklarning mohiyati va ularning belgilari, sotsial etnik birlik va irq, ekvatorial: negroid yoki negroavstraloid, yevropeoid: yevrosiyo va mongoloid, irqchilik, sotsial-etnik birliklarning tarixiy shakllari: urug‘, qabila, elat, millat, milliy madaniy markazlar, mustaqillik va sotsial-etnik birliklarning rivoji, sotsial-hududiy birlik, sotsial-hududiy birlikning boshqa sotsial birliklardan farqi, sotsial-hududiy birliklarda aholining joylashishi va maqsadi, shahar sotsiologiyasi, shaharlarning vujudga kelishi, shaharga oid muammolarini hal qilishda sotsiologiyaning o‘rni, qishloq sotsiologiyasi, shahar va qishloq tafovuti, qishloqqa oid muammolarni bartaraf etishda sotsiologiyaning o‘rni, O‘zbekiston mustaqilligidan so‘ng shahar va qishloq joylarida tub islohotlarning mohiyati.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Sotsial etnik birlik deganda nimani tushunasiz?
3. Sotsial etnik birliklar qanday belgilarga ega?
4. Sotsial etnik birlik va irq tahlil qilib bering.

5. Sotsial etnik birliklarning tarixiy shakllarini sanab bering?
6. Etnos so‘zining lug‘aviy ma’nosi nimani ifodalaydi?
7. Millat deb nimaga aytamiz?
8. Millatning belgilarini sanab bering?
9. Sotsial-hududiy birlik deb nimaga aytamiz?
10. Sotsial-hududiy birliklarning boshqa sotsial birliklardan farqini tahlil qilib bering.
11. Sotsial-hududiy birliklarning qanday turlarini mavjud?
12. Shahar sotsiologiyasi qaysi muammolarni o‘rganadi?
13. Qishloq sotsiologiyasi nimani o‘rganadi?
14. Shahar va qishloq o‘rtasidagi farqni tahlil qilib bering.
15. Mustaqillikdan so‘ng shahar va qishloq joylarida qanday islohotlar olib borilmoqda?

## **VII BOB. OILA SOTSILOGIYASI**

### **1-§. Oila – ijtimoiy institut sifatida**

Oila sotsiologiyasi – umumsotsiologiyaning tarkibiy qismlari: din sotsiologiyasi, mehnat sotsiologiyasi, yoshlar sotsiologiyasi, huquq sotsiologiyasi, shaxs sotsiologiyasi kabi tarmoqlardan birini tashkil etadi. Jamiatni oilasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Oila jamiyat hayotida muhim o‘rinni egallaydi. Oila va nikoh masalalari insoniyat uchun beba ho jarayon, ya’ni ijtimoiy-tarixiy hodisalardan biri bo‘lganligi uchun bu masala bilan falsafa, tarix, mantiq, sotsiologiya, iqtisod nazariyasi, huquqshunoslik, etnografiya, psixologiya, pedagogika, demografiya kabi bir qancha ijtimoiy fanlar shug‘ullanadi. Bu fanlarning har biri o‘z predmeti doirasida oilaning vujudga kelishi, oila va nikoh masalalari, oilaning funksiyalari va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni masalalarini o‘rganadi istiqbolini belgilaydi.

Oila sotsiologiyasining oilani o‘rganishda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlardan farqli jihat shundaki, oilani sotsial institut sifatida o‘rganadi. Ya’ni, oilaning barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni tizim sifatida jamoatchilik fikriga asoslangan holda tadqiq etadi. Oila sotsiologiyasining obyektini oila va nikoh, oila va jamiyat, oila va shaxs munosabatlari hamda oilaning jamiyatdagi o‘rni masalalari tashkil qiladi. Oila sotsiologiyasining predmetini esa oila va nikoh munosabatlari doirasida vujudga keladigan jarayonlarning vujudga kelish sabablari hamda ularning qonuniyatlari bo‘lib hisoblanadi.

Oila sotsiologiyasi oila va nikoh, oila va shaxs, oila va jamiyat munosabatlari hamda oila va mahalla, oilaning tarkibi va tuzilishi, jamiyatda oilalar soni va ularning barqarorlik holati, oilaning mustahkamligini ta’milovchi omillar, oila va nikohning buzilishiga ta’sir etuvchi salbiy holatlar, oilaning kelajagini taxmin qilish va shu kabi oilaga taalluqli bo‘lgan boshqa masalalarni sotsiologik tadqiqotlar yordamida o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi.

Jamiat u qanday shakl va ko‘rinishda bo‘lmisin oilaning sotsial institut sifatida vujudga kelishi va rivojlanishi muqarrardir. Oilaning sotsial institut sifatida vujudga kelishi, avvalambor insonga xos bo‘lgan biologik xususiyatlarning o‘sib borishi va natijada erkak hamda ayolning nikohga asoslangan ittifoqining tuzilishi yotadi. Tirik mavjudotlar ichida faqat hazrati inson biologik jihatdan er va xotinning bir-biriga qo‘shilish

vaqtin chegaralanmagan. *Birinchidan*, insonga yilning xohlagan vaqtida homilani paydo qilish imkoniyati berilgan. Insonning boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladigan *ikkinci* biologik xususiyati shundan iboratki, dunyoga kelgan inson bolasining uzoq vaqt davomida ojizligi, ya’ni ona tomonidan bolani ehtiyojkorlik bilan o‘z vaqtida ovqatlantirish va parvarish qilish hamda tozalik va gigiyena qoidalariga amal qilgan holda boqib, o‘stirish kabi ishlar amalga oshirilishi talab qilinadi. Ota tomonidan esa oilani iqtisodiy jihatdan ta’minlash zarur bo‘lgan.

Har qanday jamiyatda oilaning vujudga kelgan vaqtlaridan tortib, bugungi kunda ham ona bola tarbiyasi bilan band bo‘lgan, ota esa oilani iqtisodiy jihatdan ta’minlash uchun ov qilgan, ishlab chiqarish sohalari hamda og‘ir mehnat bilan shug‘ullangan. Buning hosilasi sifatida oilaning hamma joyda bir xil tuzilishi yuzaga kelgan. Ya’ni, erkak va ayol doimiy ravishda ma’lum bir maqsadlar sari harakat qilishgan, natijada oilada dunyoga kelgan farzandlarning jinsiga qarab bajarishi lozim bo‘lgan ishlari taqsim qilingan, mehnatga layoqatlilik qobiliyatları aniqlanib, keyinchalik jamiyat ishlab chiqarish sohalaridagi o‘rni belgilangan va farzandlarning har taraflama kamol topib rivojlanishiga erishilgan.

Oila sotsiologiyasi o‘z mazmuniga ko‘ra juda keng ko‘lamga ega bo‘lib, hozirgi zamon oila-nikoh munosabatlarining barcha jihatlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tarkib topa borishi oila-nikoh munosabatlarida ham jiddiy o‘zgarishlarni, oilaviy munosabatlarda vujudga kelayotgan yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, ularning ichida oila-nikoh munosabatlarining huquqiy-yuridik yo‘nalishi, axloqiy-estetik, oila va islom dini, oila va aholi salomatligini himoya qilish muammosi, oila soni, tarkibi va tuzilishi, oilaning moddiy-iqtisodiy ta’mnoti, turmush darajasi, oilada er-xotinning o‘rni va roli, oiladagi ruhiy muhit, oilaviy mojarolar va ajralishlar, ularni keltirib chiqaradigan sabablar, yosh oilalar va ularning ahvoli kabi yo‘nalishlar muhim sotsiologik tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda.

Oila sotsiologiyasi turmush tarzi sotsiologiyasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Zero, oila bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalar kishilar turmush tarzi tarkibiga kiradi. Ammo oila jamiyatning kichik yacheykasi sifatida maxsus sotsiologik tadqiqotga muhtoj. Shuning uchun ham oila sotsiologiyasi maxsus sotsiologik nazariya sifatida hozirgi davr jamiyat ijtimoiy hayotini ilmiy jihatdan o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Oila sotsiologiyasi oilaga tegishli bo‘lgan sotsial munosabatlar: *oilaning tuzilishi va sonini belgilovchi omillar; oilaning ijtimoiy hayot tarmoqlari hamda boshqa sotsial jamoa va guruhlar bilan aloqasi; oila-*

*ning sotsial institut sifatidagi vazifalari va uning o‘ziga xos xususiyatlari; nikoh va ajralishning vujudga kelish sabablari; oilani rejalashtirishning sotsial va psixologik omillari; oilada paydo bo‘ladigan ziddiyatlar va ularning oldini olish masalalari; oila integratsiyasi va dezintegratsiyasi; oila-nikoh munosabatlarining tarixiy shakl va tamoyillari; oilaning kelajagi va taraqqiyoti; oilaning jamiyatga va aksincha jamiyatning oilaga ta’siri masalarini aniq sotsiologik tadqiqotlarga asoslangan holda jamoatchilik fikri yordamida bir butun tizim sifatida talqin etadi.*

*Oila – nikohga asoslangan ota-onva bolalari jipsligida turmush ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami hamda madaniy va ma’naviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog‘langan, ya’ni qarindoshlik<sup>1</sup> asosida birlashgan kichik guruhdir. Oila sotsiologiyasi oila va nikoh munosabatlarini ikki tomondan: *birinchisi*, bolalarni dunyoga keltiruvchi jinsiy munosabatlarni boshqaradigan tabiiy-biologik; *ikkinchisi*, oila va uning a’zolarining jamiyat tuzilishidagi o‘rni va rollari bilan bog‘liq sotsial hodisa sifatida o‘rganadi.*

*Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo‘lmagan. Oilaning rivojlanishi har xil tarixiy davrlarda aholining o‘sish sur’atlarini belgilab beradigan, oila va nikoh munosabatlarining xarakteriga ta’sir etadigan, ma’lum ishlab chiqarish usulining rivojlanish darajalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Insoniyat tarixida ishlab chiqarish kuchlarining pastligi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning hali yetarli darajada rivojlanmagan dastlabki bosqichlarida oila va nikoh munosabatlari tartibga solinmagan, pala-partish, qon-qarindoshlik munosabatlarida amalga oshirilgan?! Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to‘da-to‘da bo‘lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo‘lmay, to‘dagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiyl er-xotin hisoblangan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi.*

Dastlab ota-onva bilan farzandlar, so‘ngra aka-uka va opa-singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib, guruhli va qat’iyatli tarzdagi oila paydo bo‘lgan. Bu oilalarda hali er-xotin nikohi barqaror alohida xo‘jalikka ega bo‘lmagan. Bu davrda tabiiy omil o‘z vazifasini tugalladi, ya’ni jinsiy munosabatlar doirasidan qon-qarindoshlar istisno qilindi. Tarixiy

---

<sup>1</sup> Qarindoshlik: (qon-qarindoshlik aloqalari) – nikohdan o‘tish natijasida yoki yaqin aloqalar jarayonidagi (ota, ona, bola, bobo, momo va boshqalar o‘rtasidagi) munosabatlarning natijasidir. Nikohga kirgan individlar bir-birlari bilan qarindosh ham hisoblanadi. Ayni vaqtda nikoh majburiyati ularni juda keng doiradagi ishlarning qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog‘laydi. Nikohdan keyin kuyov tomonning otasi, onasi, akalari, singillari va ularning boshqa qarindosh-urug‘lari kelin tomonning qarindosh-urug‘lari bilan qarindoshlik munosabatlariga kirishadi.

davrlar o‘tishi bilan jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari hamda madaniy hayotining yuksalishi tufayli bir nikohlik – monogamiyaga o‘tilgan.

*Monogamiya* (mono... va yunon. «gamos» — qo‘shilish) bir nikohlilik – nikoh va oilaning tarixiy shakli. Ibtidoiy jamiyatning yemirilishi davrida juft nikohdan paydo bo‘lib, monogamiya nikohning hukmron shakliga aylangan. Shunga qaramasdan monogamiya nikohining eng ko‘p tarqalgan shakli emasligini tadqiqotchi Jorj Merdok o‘zining 565 ta jamoalarni qiyosiy tadqiq qilish jarayonida, ya’ni ulardan 80 foizi poligamiyaga yo‘l berilishini aniqlagan<sup>1</sup>.

*Poligamiya* (poli... va yunon. «gamos» — qo‘shilish) ko‘p nikohlilik – erkak yoki ayol bir paytning o‘zida bittadan ortiq er yoki xotinga ega bo‘lishiga yo‘l qo‘yadigan nikoh shaklini bildiradi. Poligamiyaning ikki tipi mavjud: *poliginiya* – erkak bir paytning o‘zida ikki yoki undan ortiq xotin bilan nikohda bo‘lishiga yo‘l berilishi; *poliandriya* – kamroq tarqalgan nikoh shakli bo‘lib, unda ayol bir paytning o‘zida ikki undan ortiq erli bo‘lishi mumkin?!

*Poliandriya* (poli... va yunon. «andros» – er), ko‘p erlilik – guruhli nikohning kamdan kam uchraydigan shakli bo‘lib, unda ayolning bir nechta eri, odatda aka-ukalar bo‘ladi. Oilaning bu turi, asosan matriarxat davriga to‘g‘ri keladi. Poliandriyada xotinlar erkin er tanlaganlar, er-xotinlik, oila turg‘un bo‘lmagan. Biologik nuqtai nazardan bolaning otasi aniq bo‘lmagan. Masalan, Janubiy Hindiston madaniyatida tud urug‘i erkaklari biologik nuqtai nazardan otalikni o‘rnatish bilan qiziqmaganlar. Ularda bolaga otalik rasmini amalga oshirish chog‘ida, o‘qli kammonni homilador ayolga tantanali suratda bergen erkak bolaning otasi hisoblangan. Yana bir jihat, bordi-yu boshqa erkak bolaga otalik qilishni xohlab qolsa, bu rasm ayolning navbatdagi homiladorligida takrorlangan. Poliandriyaning asosiy shakllari: 1) bir urug‘ avlodlar poliandriysi, bir urug‘ a’zolari bo‘lgan erkaklar bitta ayol yoki ko‘plab ayollarga er bo‘ladi; 2) aka-uka tug‘ishgan birodarlar poliandriysi, aka-uka bir nechta erkak bitta ayolga er bo‘ladi. Aka-uka poliandriyasida katta akaning xotini hamma ukalariga xotin bo‘ladi. Tug‘ilgan bolalar hamma otalarniki hisoblanadi. Oilaga tegishli yer va mulk bolalarning eng kattasiga meros bo‘lib qoladi. XIX asrlarda ham aleutlar hamda eskimoslarning ayrim guruhlarida bu marosim mavjud bo‘lgan, keyinchalik Shimoliy Hindiston va Tibetdagi ayrim etnografik guruhlarda saqlanib qolgan!

*Poliginiya* (poli... va yunon. «Gyne» – xotin), ko‘p xotinlilik – asosan patriarxatga xos nikoh shakli. Ayrim xalqlarda, ko‘proq musulmon xalqlarida poliginiya saqlanib qolgan. Poliginiya ko‘p xotinliklikka ruxsat

---

<sup>1</sup> Энтони Гидденс. Социология. – Т., 2002. – Б. 427.

berilgan jamiyatda hamma erkak bunga erisha olmagan? Bir nechta ayolga erlik qilish huquqidan ijtimoiy hayotda yuqori o'ringa ega bo'lган, moddiy jihatdan ta'minlangan kishilar ko'proq foydalanishgan. Oilaning poliginiya turi iqtisodiy omillar va jinslar nisbatiga bog'liq holda uchraydi. Odatda, ayollar soni erkaklarnikiga nisbatan ko'p bo'lмаган jamiyatning o'zi yo'q. Demak, erkaklarning ko'pchiligi ikkita va undan ortiq ayolga erlik qilishi tabiiy holga aylangan.

Poliginiyada bir oiladagi bir nechta ayol bir xonadonda istiqomat qilishgan. Ammo ko'pchilik hollarda ular alohida xo'jalik yuritishgan. Har bir xotin o'z bolalari bilan alohida oilaviy xo'jalikka ega bo'lsa, demak, oila ikkita yoki undan ko'proq bo'ladi. Er odatda, o'z uyi bo'lishiga qaramasdan oyda va haftada ma'lum tunlarni navbat bilan boshqa xotinlari bilan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lган. Bunday oilalarda ayollar bir-birlariga yordam qo'llarini cho'zishga hamisha tayyor turishgan hamda ayni vaqtida erining hurmat va e'tiboriga sazovor bo'lish uchun bir-birlariga nisbatan raqobatda ham bo'lганlar. Demak, pinhona, ya'ni o'zaro kurash olib borishgan.

Poliginiyada ba'zan vujudga kelgan kelishmovchiliklarni hal qilishda ernening birinchi xotini katta rol o'ynagan. U eriga nisbatan o'zidan keyingi xotinlarga qaraganda ko'p imkoniyatlarga ega bo'lган. Poliginiya aslida guruhli nikohning qoldig'idir, unda bir urug'ning barcha ayollari boshqa urug'ning barcha erkaklariga umumiyligini xotin hisoblangan.

*Matriarxat oila* – (lot. «mater» – ona va yunon. «arche» – ibrido, hokimiyat; aynan – ona hukmronligi) ginekokratiya, asosan ibridoiy jamiyatning ilk davridagi ijtimoiy tuzum shakllaridan biri. Ba'zi xalqlarda patriarchatdan oldin mavjud bo'lган, ayimlarida urug'chilik tuzumidan sinfiy jamiyatga o'tish davrida ham saqlangan. Matriarxatda ayollar hukmron mavqega ega bo'lган, mulk va nasl-nasab sotsial mavqe ona urug'i bo'yicha o'tgan. Nikohdan so'ng er xotin jamoasiga ko'chgan (matrilokal nikoh) yoki er va xotin o'z jamoalarida alohida-alohida yashashgan. Matriarxat oila Janubiy-Sharqiy Osiyodagi ayrim xalqlar (mas, minangkabau va mikronezlarning ayrim guruhlari)da hozir ham saqlanib qolgan.

Ijtimoiy ishlab chiqarish – chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi bilan erkaklar mehnatining qadri oshdi, mahsulot ishlab chiqarishda erkaklarning ulushi ortdi, binobarin ularning ijtimoiy mavqeい ham tubdan o'zgardi. Mavjud tartib-qoidalar – farzandlarning onasiga tegishli bo'lishi hamda ona mulkiga merosxo'r sanalishi erkaklarning yangi mavqeiga zid bo'ldi. Natijada ota huquqiga asoslangan patriarchal oila vujudga keldi.

*Patriarxat oila* – erkak boshchilik qiladigan katta oila. Ya'ni, patriarchatdan patriarchatga o'tish davrida vujudga kelib, birgalikda xo'jalik

yurituvchi qarindoshlarning bir qancha avlodidan tashkil topadi. Patriarxat oila asosan ilk xo‘jalik jamoasi bo‘lgan, uning iqtisodiy asosini yer hamda ishlab chiqarish quollariga umumiy egalik (ishlab chiqarishga ham, iste’molga ham) qilish tashkil etgan.

*Katta oila* – patriarxat oilaning tarixiy shakllaridan biri. Katta oila ota tomondan qarindoshlik, urug‘-aymoqlikka asoslangan, bir nechta og‘a-ini, ularning xotinlari, o‘g‘illari, kelinlari, erga tegmagan qizlari, nabiralari (3 yoki undan ortiq avlod) hisobiga 20–30, ayrim joylarda 100 dan ortiq kishilardan tashkil topgan xo‘jalik guruhidir. Oilaning bu shakli O‘zbekistonning Xorazm viloyatida «Katta oila», Qashqadaryo viloyatida «Bir qozon», «Katta ro‘zg‘or», Zarafshon vodiysida «Ota uyi», Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida «Katta ota uyi» nomlari bilan yuritilib kelingan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, katta oila turli davrlarda jahondagi deyarli barcha xalqlarda mavjud bo‘lgan<sup>1</sup>.

Bunday katta oilalar O‘rta Osiyoda mil. av. 1ming yillikda vujudga kelib, mil. av. 7–3 asrlarda keng tarqalgan va milod boshlarida mustaqil qaror topgan. Katta oilaning rivojlanish bosqichlari: shaharlarda va taraqqiy etgan hududlarda milodning dastlabki ming yilligi o‘rtalarida, ko‘chmanchi aholi yashagan mintaqalarda esa X–XII acrlarga to‘g‘ri keladi. Katta oilaning iqtisodiy asosini oila ixtiyoridagi ishlab chiqarish vositalari: yer, chorva mollari tashkil qilgan. Oila a’zolari tomonidan yaratilgan barcha boyliklar, daromadlar o‘rtada bo‘lgan. Shuningdek, iste’mol sohasida ham katta oilaning barcha a’zolari teng qatnashgan. Katta oila ayni paytda sodda ishlab chiqarish birlashmasi bo‘lgan.

Katta oila o‘troq holda katta binolarda, ko‘chmanchilarda esa o‘tov-kapalarda yashagan. Er-xotin uchun ma’lum joy ajratib berilgan. Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabat patriarxal xarakterda bo‘lgan. Yoshi eng ulug‘ (ayrim oilalarda obro‘li va tadbirkor) kishi oila boshlig‘i hisoblangan. U oilaning xo‘jalik faoliyatiga rahbarlik qilgan. Oilaning ichki ro‘zg‘or ishlari oila boshlig‘ining yordamchisi hisoblangan katta ayol (ko‘pincha oila boshlig‘ining xotini) tomonidan boshqarilgan. O‘g‘illar yoshiga qarab navbat bilan uylanishgan (oilaning ko‘pchiligi o‘z urug‘idan qiz olib, o‘z urug‘iga qiz uzatgan). Kelin tushirishda to‘lanadigan qalin ham oilaning umummulkidan berilgan. Oila jamoasi katta oila xo‘jaligini yuritishda chetdan tirikchilik vositalari sotib olmay va chetga hech narsa sotmay tirikchilik o‘tkazishga harakat qilgan. Savdo-sotiqlari va tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi bilan katta oilalar ham bozor uchun mahsulot (qorako‘l teri, jun, gilam, chakmon va h.k.) ishlab chiqara boshlagan. Oila

<sup>1</sup> Насрилдинов К. Ўзбек оиласи тарихидан. – Т., 1995. – Б. 48–49.

jamoasining ayrim a'zolari uchun chetdan pul topish, yollangan holda imkoniyati paydo bo'lgan. Shunday qilib, oilada ayrim kishilarga tegishli shaxsiy mulk paydo bo'lib, ko'payib borgan.

Xususiy mulkchilik, shaxsiy mulkning ortishi (boshqa xususiy sabablar, ocharchilik, vabo, oila boshlig'ining vafoti kabi sabablar) natijasida katta oilalar tarqalib keta boshlaydi. Katta oila o'rniga kichik oilalar vujudga keladi. Lekin dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va boshqa xo'jalik shakllari o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasining turlicha bo'lishi sababli katta oila kichik oila bilan bir qatorda uzoq davr yashab keldi (uning qoldiqlari elat, to'p, qoraqalpoqlarda koshe, tojiklarda qavm deb atalgan). O'rta Osiyoga tovar-pul munosabatlarining kirib kelishi katta oilani yemira borib, natijada individual kichik oila, oilaning asosiy va keng tarqalgan shakli bo'lib qoldi.

O'zbekistonda XX asrning 20–30-yillarida iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar natijasida ayollarning ijtimoiy mehnatga faol tortilishi, erkak va ayollarning amaldagi tengligi vujudga kelishi bilan xotinlarining erlarga iqtisodiy qaramligi yo'q bo'la bordi. O'zbekiston Respublikasida ko'p xotinlilik qonun bilan taqiqланади.

***Oilaning tuzilishi.*** Har qanday oila tuzilishini – oila a'zolarining soni tashkil qiladi. Oilani tashkil qiluvchi a'zolarning soniga qarab: oddiy va murakkab oilalarga ajratish mumkin. Er-xotin va bolalardan tashkil topgan oila oddiy er-xotinlik yoki nuklear oila deb nomlanadi. Er-xotin va bolalardan tashqari, ularning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari bilan birga umumiyo xo'jalik yurituvchilar murakkab bo'lib hisoblangan. Oilaning bunday murakkab turi barcha xalqlarda uchraydi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi xalqlarga xos bo'lib, O'zbekiston aholisining ko'pchiligi murakkab oilalardan tashkil topgan.

Oila-nikoh masalalari O'zbekistonda asrlar davomida har xil tarixiy voqealar ta'sirida hamda urf-odatlar, an'analar bilan bog'liq holda shakllanib kelgan. Chunonchi, Islom dini kirib kelgandan keyin oila-nikoh munosabatlari shariat asosida olib borilgan, sobiq Ittifoq davrida esa aralash oilalar ko'paygan. Buni o'sha davrdagi davlat siyosati va shart-sharoitlar taqozo etgan?!

Mustaqillik yillarida xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklandi. Ular oila mustahkamligini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi oilaga bag'ishlangan bo'lib, uning 63-moddasi: «*Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat*

*muhofazasida bo‘lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi*»<sup>1</sup>, deb qayd qilingan. Shuningdek, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha boshqa qonuniy hujjatlar ham qabul qilinib, amaliy tadbirlar belgilangan.

Darvoqe, hozirgi paytda zamonaviy oilaning quyidagi turlari mavjud:

- 1) to‘liqligiga ko‘ra – to‘liq, noto‘liq va qayta tuzilgan (ikkinchi nikoh);
- 2) bo‘g‘inlar soniga ko‘ra – nuklear (ota-on va bolalardan iborat bo‘lgan) va ko‘p bo‘g‘inli (ikki avloddan ortiq oila a’zolari birga yashovchi oila);
- 3) bolalar soniga ko‘ra – farzandsiz, kam bolali, ko‘p bolali oilalar;
- 4) er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra xizmatchilar, ziylolar, ishchilar, dehqonlar, ishbilarmonlar, tadbirkorlar, aralash oilalar;
- 5) er-xotinning ma’lumotiga ko‘ra – oliv ma’lumotli, o‘rta va maxsus ma’lumotli, aralash ma’lumotli oilalar;
- 6) hududiy jihatlarga ko‘ra – shahar oilalari, qishloq oilalari, aralash oilalar;
- 7) er-xotin orasidagi munosabatlarga ko‘ra – avtoritar, demokratik, liberal, aralash turdag oilalar;
- 8) er-xotinning millatiga ko‘ra – bir millatli yoki aralash millatli oilalar;
- 9) dini, urf-odatlari yoki tili bir guruhdagi millatlar vakillari orasidagi nikohlar. Masalan, o‘zbek-qozoq, o‘zbek-turkman, rus-ukrain, o‘zbek-tatar, o‘zbek-qirg‘iz va hokazo.
- 10) dini, urf-odatlari yoki tili bir guruhga kirmagan millat vakillari orasidagi nikohlar. Masalan, o‘zbek-rus, o‘zbek-ukrain, o‘zbek-nemis va hokazo.

Oila va nikoh munosabatlarida O‘zbekistonda qadimdan aralash oilalar ko‘p bo‘lgan. Masalan, o‘zbek – tojik, o‘zbek-qozoq va hokazo.

## **2-§. Oilaning asosiy funksiyalari va istiqboli**

Oila ijtimoiy institut sifatida jinsiy hayotni boshqarish hamda aholini qayta ishlab chiqarish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirish, xo‘jalik yuritish va maishiy, himoya qilish, huquqiy holat (status)ni belgilash va ruhiy qoniqtirish kabi asosiy funksiyalarni bajaradi. Bular:

***Jinsiy hayotni boshqarish va avlod qoldirish funksiyasi.*** Oilaning eng asosiy funksiyalaridan, bu jinsiy hayotni boshqarish va avlod qoldirish tashkil etadi. Chunki oilaning bu funksiyasi inson zotining ham biologik, ham ijtimoiy ehtiyoji bilan bog‘liqdir. Oila – asosiy ijtimoiy institut

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2016. – B. 12.

sifatida insonlarning jinsiy ehtiyojlarini tartibga soladi va boshqarib turadi. Oilaviy vafodorlikning ma'lum bir normalari bo'lishiga qaramay, ayrim mamlakatlarda bunday normalar buzilgan hisoblanadi. Jinsiy munosabatlarni tartibga solib turadigan ba'zi normalar kishilik jamiyatida har xil tarzda qabul qilingan. Ayrim joylarda qizlarning turmushga chiqquncha, jinsiy munosabatda bo'lishi norma sifatida qabul qilinsa, ayrim joylarda bu katta gunoh hisoblanadi! Dunyoning ko'plab mintaqalarida o'ziga xos normalar mavjuddir.

Oila har doim jamiyatni yangi avlodlar bilan to'ldirib turadi. Qari va dunyodan ko'z yumganlar o'rniga yangi avlod jamiyatga kirib kelaveradi. Jamiyat esa mana shu yoshlar hisobiga yashaydi hamda yangi mehnat zaxiralari va ishlab chiqaruvchi kuchlarga ega bo'laveradi. Demak, oila jamiyatni yangi avlod bilan to'ldirib turuvchi sotsial institut vazifasini bajaradi. Aytish joizki, oiladan tashqari tug'ilgan bola qoralanadi va uning aybdorlariga nisbatan jinoiy javobgarlik ishi qo'zg'atiladi.

Ma'lumki, oilaning avlod qoldirish funksiyasi nafaqat oila mustahkamligini saqlashda, balki jamiyat hayotida ham juda muhim rol o'ynaydi. Ko'p bolali oilalar hozirga kelib, ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri ostida borgan sari kamayib ketmoqda. Bu holat yaqin kelajakda o'zbek millatining rivojlanishi va ravnaqi darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi, albatta. Jamiyat, har qanday davlatning ijtimoiy tanazzulga yuz tutishi eng avvalo undagi oilaning barbod bo'lishi, buzilishining ko'payishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shuning uchun oilaviy ajralishlarni keltirib chiqaruvchi tub sabablarni aniqlash, o'rganish va ularning oldini olish uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish oila sotsiologiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Tarbiyalash funksiyasi.** Oilaning mahsuli sifatida dunyoga kelgan bolalarni tarbiyalash – oilaning asosiy funksiyalaridan hisoblanadi. Oila – tarbiya maktabi, tarbiyaning ilk bosqichi oiladan boshlanadi. Oilada bola uchun eng birinchi muallim – ota-onadir. Farzandni tarbiyalash ota-onaga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Ota-onaning bolaga beradigan ta'lim va tarbiyasi, avvalo avlodlari tomonidan meros bo'lgan hamda hayot tajribasi natijasida o'zlashtirgan ezgu ishlari va bilimlari bilan belgilanadi. Farzand tarbiyasiga mas'uliyatsizlik bilan yondashish – oilada salbiy va og'ir oqibatlarga olib keladi. Bu haqda buyuk o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniy alohida e'tibor berib: «*Axloq bu – ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo'lish shakli. Binobarin, har bir xulq – ezgulik va oljanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo'linadilar. Lekin bular kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit,*

*tarbiya kerak. Kishilar yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon yoki yaxshi qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya, yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir. Tarbiya ona qornidan boshlanadi va umrning oxiriga qadar davom etadi*<sup>1</sup>, deb ta’kidlagan edi.

Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblangan. O‘zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib, hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro‘zg‘or tutishi, farzandlarning odobli, ma’naviy yetuk bo‘lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli nihoyatda katta bo‘lgan. O‘zbek oilalari o‘zlarining mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlari bilan ajralib turadi. Oilada ota-onan tomonidan qilinadigan har bir xatti-harakat va munosabat bola tarbiyasida o‘z izini qoldiradi. Bola tarbiyasida xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi mumkin emas, aks holda salbiy oqibatlarga olib keladi! Noto‘g‘ri tarbiya noqobil farzandlarni yuzaga keltiradi? Farzandlarning noqobil bo‘lishligini oldini olishda avvalambor ota-onan va yaqin qarindoshlar hamda mahalla mas’uldir.

**Ijtimoiylashuv funksiyasi.** Shaxs ijtimoiylashuvi o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, unga sotsial institutlar, ayniqsa oila instituti katta ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni, shaxsning ijtimoiylashuvi oiladan boshlanadi. Ota-onan bilan farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar, ular tomonidan beriladigan ta’lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega bo‘lib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda urf-odatlarni singdirish orqali jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlari uchun boshlang‘ich ijtimoiy yo‘nalish beriladi. Ota-onan farzandlarini katta oqim – jamiyatga qo‘sish bilan ularning iqtisodiyotga, madaniyat va ma’rifatga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalaydi.

Individ bo‘lib tug‘ilgan bolaning shaxs sifatida shakllanishining dastlabki asosi oilada qo‘yiladi. Qadimgi yunon mutafakkiri Platondan tortib, hozirgi olimlarning ko‘pchiligi bola tarbiyasidagi ijtimoiylashuv oila institutidan tashqarida muvaffaqiyatsiz tarzda kechganliklarini e’tirof etishgan?! Xullasi kalom, bolalarning ijtimoiylashuvi uchun oila birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bolalar o‘z «men»ligini oilada anglaydi va shaxs sifatida rivojlanishning asosi ham oiladan boshlanadi. Bunday holatni oila sotsiologiyasi so‘rovnomalari natijalari ham tasdiqlaydi.

**Xo‘jalik yuritish va maishiy funksiya.** Bu funksiya jamiyatning iqtisodiy munosabatlar faoliyatida alohida o‘ringa ega bo‘lib, har bir oilaning o‘ziga xos xo‘jalik yuritish hamda maishiy ishlarni tashkil qilish tartibini belgilaydi. Oilaning bu an’analari tashqaridan ta’sir qilish mumkin

<sup>1</sup> Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилд. – Т., 2006. – Б. 38.

emas. Oila daromadi va budgeti hamda xo‘jalik yuritish va maishiy ishlari-ni uning asosini tashkil etadi. Har bir oila o‘z daromadlariga ko‘ra, oila budgetidan kelib chiqqan holda oila a’zolarining ehtiyoj va manfaatlarini qondirib yashaydi. Ayniqsa, hozirgi bozor munosabatlari davrida oilaning bu funksiyasining roli va ahamiyati oshib bormoqda. Endilikda har bir oila o‘zining kelajagini yaratishga hamda oilasini iqtisodiy jihatdan ta’minalashga harakat qilmoqda. Bu borada davlatimiz tomonidan oilalarning har taraf-lama ravnaq topishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu o‘z navbatida shaxsning ijtimoiylashuvi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatning yangilanishi natijasida oilaning xo‘jalik yuritish va maishiy funksiyasining imkoniyatlari ham kengayib boraveradi. Iqtisodiy jihatdan har tomonlama ta’minalangan oila bo‘lib boradi. Demak, jamiyatning mustahkam iqtisodiy bo‘g‘iniga aylanadi.

**Himoya qilish funksiyasi.** Oila sotsial institut sifatida oila a’zolarini jismoniy, iqtisodiy va ruhiy jihatdan himoya qiladi. Agar oila a’zosining birortasida noxushlik yuzaga kelsa, oila a’zolarining barchasi qayg‘uradi va yordam qo‘lini cho‘zadi. Oilaning bitta a’zosiga keladigan isnod yoki qayg‘u uchun, oilaning barcha a’zolari kurashadi. Jamiyat oilalardan tashkil topgan, uning tinch va xotirjamligi, tashqi kuchlardan himoyalanishi jamiyatimizda istiqomat qilayotgan barcha oilalarning tinch va osuda hayot kechirishining garovidir. IIO xodimlari o‘z faoliyatlari davomida ushbu funksiyaga qat’iy amal qilib, *mahalla+oila+shaxs* tamoyilini avaylab asragan holda yurt tinchligi va omonligini ko‘z qorachig‘iday saqlashlari lozim.

**Huquqiy holat(status)ni belgilovchi funksiya.** Oila tarbiyasini olgan shaxs oila a’zolariga tegishli haq-huquqlarni meros sifatida qabul qiladi. Shaxsga taalluqli eng asosiy haq-huquqlaridan biri – millati, shahar yoki qishloq madaniyatidagi o‘rni, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqalardir. Jamiyatda oilaning ma’lum sotsial qatlamga mansubligi (bu yerda oilaning moddiy jihatdan ta’minalanganligi), ya’ni oilada voyaga yetayotgan farzandning keyingi hayotida kim bo‘lishligini ma’lum darajada belgilab beradi. To‘g‘ri, shaxs o‘zining sinfiy holatini jamiyatdagi mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda o‘zgartirishi o‘ziga ham bog‘liq bo‘ladi. Lekin shuni esdan chiqarmaslik lozimki, har bir insonning kelajakda kim bo‘lishligi asosini bola tarbiya olayotgan oiladan qidirish kerak! O‘zbek oilalarida qadimdan ajdodlardan avlodlarga o‘tib, yetti pushti bitta kasb bilan shug‘ullanayotgan hunarmandlar, kosiblar, novvoylar va qishloq xo‘jaligining ma’lum sohasi bilan shug‘ullanuvchi dehqonlar oilalari jamiyat rivojlanishida o‘zining muhim o‘rinlariga ega bo‘lishgan. Hozirgi paytda oila biznesi, kasanachilik va oilada xususiy tadbirkorlikni rivojlan-

tirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Demak, shaxsning huquqiy holati (status)ni belgilovchi omillar oilada qo'yiladi.

**Ruhiy qoniqtirish funksiyasi.** Inson o'ziga nisbatan oila a'zolarining dildan, yurakdan va samimiy munosabatda bo'lishi asosiy ehtiyojlaridan birini tashkil qiladi. Olimlar insonning ruhiy zo'riqishlari, ularning muloqot yuritishdagi qiyinchiliklari va hatto ayrim jismoniy kasalliklarning kelib chiqishi oilada iliqlikning yo'qligi, dildan so'zlashadigan muloqot va munosabatlarning yetishmovchiligidan, deb ta'kidlashadi. Sotsiologik tadqiqotlar yordamida olingan ma'lumotlar shundan dalolat beradi-ki, shaxsning jamiyatda qabul qilingan normalardan og'ish holatlarining yuz berishi, shuningdek aksariyat jinoyatlar yoshlikda ota-onaning mehridan mahrum bo'lganlar, ota-onsa mehridan uzoqda bolalar uylarida tarbiyalanganlar tomonidan sodir etiladi. Insonning yaqin qarindoshlari va ishonchli odamlari bilan dildan muloqotda bo'lishi hayotiy ehtiyoj ekanligi hamda umrining mazmunini tashkil qilishi isbot talab qilinmaydigan haqiqatdir. Oila tuzilishi va sifati jihatdan ruhiy qoniqtirishning eng asosiy va muhim manbai bo'lib xizmat qiladi. Er-xotinlik, tug'ishganlik insonlarga shunday imkoniyatlarni beradi.

Yuqorida qayd qilingan oilaning asosiy funksiyalari bir-birlari bilan uzviy bog'liqlikda va aloqadorlikdagina har tomonlama yetuk insonni shakllantiradi. Hozirda, turli mamlakatlarda, jumladan O'zbekiston Respublikasida ham oilaning xo'jalik yuritish va maishiy funksiyasining salmog'i yanada ortmoqda. Bozor munosabatlarining tarkib topishi natijasida bu funksianing bajarilishi, oilaning boshqa funksiyalarining faol amal qilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 25-oktabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni oilalarda kichik biznes va tadbirkorlikning yanada jadal rivojlanishini ta'minlash bilan jamiyat taraqqiyotida nafaqat iqtisodiy jihatdan ahamiyatliroqdir. Ko'p jihatdan aholini ijtimoiy foydali mehnat bilan band qilish, xo'jalik uchun zarur mollar bilan ta'minlash (xo'jalik yuritish va maishiy funksiyasi), bolalarda yoshlikdan mehnat ko'nikmalarini shakllantirish (tarbiyaviy funksiyasi), oilada ijtimoiy-psixologik er-xotin va farzandlar o'rtasidagi ruhiy uyg'unlik, mehr-oqibat munosabatlarini (ruhiy qoniqtirish funksiyasi) yanada oshiradi.

Oilani jamiyatsiz, jamiyatni esa oilasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Oila jamiyatning asosiy hujayrasi va ijtimoiy tayanchidir. Ya'ni, oila shaxs bilan jamiyat o'rtasida vositachilik rolini bajaradi. Oila shaxsning o'zini

namoyon qilishga va jamiyatda o‘z o‘rnini egallahsga yordam bersa, jamiyat uning oiladagi shaxsiy xavfsizligini himoya qiladi va ta’minlaydi hamda individual qobiliyatlarini o‘stirishda yordam beradi. Hozirgi paytda oilaning benazir nufuzi, ulkan ijtimoiy ahamiyatga molik sotsial institut ekanligi hech kimda shubha tug‘dirmaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1994-yildan boshlab, har yili 15-may kunini «Xalqaro oila kuni» sifatida nishonlashga qaror qildi. 1993-yildan buyon Vena, Qohira, Kopengagen va Pekinda o‘tkazilgan hamda boshqa qator xalqaro anjumanlarning kun tartibiga oila muammosi kiritilishi ham ulkan sotsial ahamiyatga egadir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi»ning 16-moddasida shunday deyiladi: 1. «Balog‘atga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniga qarab biror bir cheklashsiz nikohdan o‘tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o‘tayotganda ham, nikohda bo‘lgan vaqtida ham va nikoh bekor qilinayotganida ham bir xil huquqlardan foydalanadilar. 2. Nikoh, nikohdan o‘tayotgan ikkala tomonning xohishi va batamom rozi-lici bilangina tuzilishi mumkin. 3. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasidir va u jamiyat, davlat tomonidan muhofaza etilish huquqiga egadir»<sup>1</sup>.

Oila jamiyatning asosiy bug‘ini va tayanchi ekan, uning baxtiyorligi va farovonligi – pirovard natijada jamiyatning barqarorligi va gullabyashnashi hamda farovonligi shartidir. Oila nafaqat inson naslini davom ettirish omili sifatida, balki jamiyat a’zolarini, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy g‘oya va milliy mafkura tamoyillari asosida tarbiyalash maskani sifatida katta ahamiyatga molikdir.

Barpo etilayotgan adolatli fuqarolik jamiyatida oila o‘ziga xos sotsial institut, ya’ni birinchi galda uning jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqligi hamda ijtimoiy vazifalarida ifodalanadi. Mamlakatda har bir oila insonning turmush farovonligi hamda fuqarolar totuvligini mustahkamlashga qaratilgan dasturiy maqsadlarga asoslanib, faoliyat yuritmoqda. Birinchi Prezident Islom Karimov bu boradagi vazifalar haqida shunday degan edi: *«Eng muhim vazifa – xalqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat poydevorini, eng avvalo, boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, ma’naviy sog‘lom va madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etadi»*<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси. Декларациянинг 60 йиллигига бағишиланган нашр. – Т., 1948–2008. – Б. 7.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т., 1996. – Б. 14.

Jamiyat va davlatning oila xususidagi g‘amxo‘rligi, avvalambor davlatning kuchli ijtimoiy siyosatida namoyon bo‘lmoqda. Chunonchi, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, ya’ni Birinchi Prezident Islom Karimov «Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekib, muhtoj oilalarga moddiy va ma’naviy yordam berishning ko‘lamni yanada kengaytirilganini qayd qilgan edi. Oila jamiyatning ravnaq topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi paytda oilaning jamiyatda tutgan o‘rni va ishtiroki yanada oshib bormoqda. Shuningdek, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy manfaatlari va farovonligini yaxshilash uchun davlat ko‘z-qulqoq bo‘lmoqda. Oilalarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda farovon turmush tarzini izchil ta’minalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tashabbusi bilan 1997-yil – «Inson manfaatlari yili», 1998-yil – «Oila yili», 1999-yil – «Ayollar yili», 2000-yil – «Sog‘lom avlod yili», 2001-yil – «Ona va bolalar yili», 2002-yil – «Qariyalarni qadrlash yili», 2005-yil – «Salomatlik yili», 2007-yil – «Ijtimoiy himoya yili», 2008-yil – «Yoshlar yili», 2010-yil – «Barkamol avlod yili», 2012-yil – «Mustahkam oila yili», 2014-yil – «Sog‘lom bola yili», 2015-yil – «Keksalarni e’zozlash yili», 2016-yil – «Sog‘lom ona va bola yili» deb nomlanib, hukumatimiz tomonidan davlat dasturlari qabul qilindi. Ularning ijrosi davlatimiz tomonidan nazoratga olinishi – jamiyatimizda oilaga berilayotgan ulkan e’tibor va e’tirokdir.

Mazkur tashabbusning hamda shu asosda qabul qilingan davlat dasturlarining o‘ziga xos ramziy ma’nosini va sabablari bor. Avvalo, bu – «Inson manfaatlari», «Oila», «Ayollar», «Yoshlar», «Qariyalar», «Keksalar», «Sog‘lom ona», «Sog‘lom bola», «Sog‘lom avlod», «Sog‘lom ona va bola» tushunchalarini bir-biridan ajratgan holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bularning barchasi oilaning bag‘rida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sohalardagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonunlarning qabul qilinishi, ya’ni xalqaro huquqiy standartlarga to‘la-to‘kis mos bo‘lib, ularni hayotimizga tatbiq etish ishlari samarali tarzda amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Sharq mamlakatlari sirasiga kiradi. Ma’lumki, Sharqda oila muqaddas maskan sanalgan. «*Oila*, – degan edi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov, – *hayotning abadiyligini, avlod-larning davomiyligini ta’minalaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i*<sup>1</sup>». Oilani avaylab-asrash,

<sup>1</sup> Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараккиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – Б. 376.

e’zozlash, uning qadr-qimmatini yuksakka ko’tarish har bir insonning burchidir.

Hozirgi paytda respublikamizda o’n mingga yaqin mahalla va qishloq fuqarolari yig‘inlari oilalar bilan jamoatchilik asosida katta tashkiliy va ommaviy ishlarni olib bormoqdalar. Oilalarni saqlab qolish va ularni mustahkamlash, voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini himoya qilishga o‘z hissalarini qo’shib kelmoqdalar.

*Oila davlat muhofazasida.* Oilaga g‘amxo‘rlik qilish, unga har taraflama moddiy yordam ko‘rsatish demokratik huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 65-moddasi 2-qismida «*Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi*»<sup>1</sup> va Oila kodeksining 4-moddasi 1-qismiga binoan «*Oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasida*»<sup>2</sup>, deb belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimizda oilani davlat muhofazasida bo‘lishini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish majmui kotibiyati olib boradi. O‘tgan vaqt davomida respublikamizda ayollar va o‘sib kelayotgan yosh avlod sog‘lig‘ini mustahkamlashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida sog‘lom oilani shakllantirish hamda tug‘ish yoshidagi ayollarni sog‘lom-lashtirish ishlari o‘zining ijobiy samarasini bermoqda.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridayoq «Oila va ayollar muammolari» komissiyasi tashkil etildi. Ushbu komissiya oila va ayollar muammolari bo‘yicha davr talablariga javob beradigan oilani saqlash va mustahkamlash hamda barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan yangi qonunlar loyihalarini tayyorlash vazifalarini o‘z oldiga qo‘yadi. Birinchi Prezidentning ilk Farmoni 1990-yil 3-mayda qabul qilingan bo‘lib, «*Ko‘p bolali onalarga nafaqa miqdorini ko‘paytirish to‘g‘risida*» deb nomlangan. Unda ko‘p bolali onalarning moddiy ahvoli hamda yosh avlodning o‘sish sharoitlarini yaxshilash maqsadida onalarga to‘lanadigan oylik nafaqa ikki martaga oshirildi.

Jamiyat taraqqiyotida, ma’naviy barkamol va jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalashda oilaning o‘rni muhim ekanligini hisobga olib, oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an’analarni avaylab-asrash, ularni umum-bashariy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo‘li bilan oilalarning mustahkamligini ta’minlash, oila a’zolarining huquqiy savodxonliklarini oshirish muammolarini ilmiy o‘rganish va fuqarolarga bu masalalarda amaliy

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T., 2016. – B. 12.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси. – Т., 2008. – Б. 2.

yordam berishni muvofiqlashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 2-fevral qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasida «Respublika oila – ilmiy-amaliy markazi» tashkil etildi.

Bunday markazning vujudga kelishi ko‘p jihatdan ahamiyatlidir. Birinchidan, oila – jamiyatning negizidir, demak oila muammolarini o‘rganish va hal qilish bilan uzlusiz, hamisha shug‘ullanadigan, bu borada o‘z taklif-mulohazalarini ishlab chiqib, vaqtı-vaqtı bilan davlat va jamiyat oldiga qo‘yadigan muassasaga ehtiyoj katta. Ikkinchidan, hayot, jamiyat hamisha rivojlanishda, taraqqiyotda ekan, demak oila muammolari ham o‘zgarib, yangilanib boraveradi va ular to‘g‘risida butun jamiyat va davlat boshqaruvi o‘z vaqtida aniq tasavvurga ega bo‘lib boradi.

«Oila» markazi avvalo oilaning ravnaqi bilan bog‘liq muammolar majmuasini atroflicha ilmiy o‘rganish va uslubiy tavsiyalar tayyorlashni o‘zining asosiy vazifalaridan biri deb biladi. Bunday muammolar esa oz emas. Shu bilan birga, «Oila» markazi faqat ilmiy ahamiyatga ega muammolar bilangina shug‘ullanib qolmay, qarorda ko‘rsatilganidek, u keng amaliy faoliyat bilan ham mashg‘ul bo‘ladi. Ya’ni oilani rivojlantirish, uni takomillashtirish, oila a’zolari salomatligining tibbiy-biologik asoslarini ilmiy o‘rganish bilan bir qatorda, bu muammolarni hal qilish yuzasidan amaliy tadbirlar majmuasini ham bajaradi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni yaxshilash maqsadida Nikoh uylari va salomatlik markazlarida maxsus o‘quv - tarbiyaviy kurslarni tashkil etish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bugungi kunda bu maskanlar muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, oilaning huquqiy savodxonligini yaxshilash va himoyalash – hozirgi kunda eng muhim vazifalar qatoridan o‘rin olgan.

Oila ilmiy-amaliy markazining faoliyati davlat va jamiyat taraqqiyoti manfaatlariga yo‘naltirilgandir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oila» ilmiy-amaliy markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori va uning bugungi kundagi faoliyati butun mohiyat e’tibori bilan jamiyat taraqqiyotida, ma’naviy barkamol va jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalashda oilaning o‘rnı muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi va uning ravnaqiga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi o‘n besh yillardiki, alohida e’tibor yosh oilalarga qaratilmoxda. Birinchi Prezident Islom Karimov «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashabbus guruhi yig‘ilishida so‘zlagan nutqida: **«Harakat... yosh oilalarga yordam berishni o‘zining asosiy burchi deb bilishi, shu maqsadda «Yosh oila» dasturini ishlab chiqish masalasiga alohida ahamiyat qaratishi zarur. ...Harakat endigina turmush qurgan**

*yosh oilalarga ma'lum bir imtiyozlar berilishi, aytaylik, ularga keyin bo'lib-bo'lib qaytarish sharti bilan imtiyozli kreditlar ajratilishi haqida o'z takliflarini ilgari surishi va ularni amalga oshirishi uchun harakat qilish o'rinci, deb bilaman. Ishonchim komilki, bu yosh oilalarga moddiy yordamgina bo'lib qolmay, ayni paytda ularni mustahkamlashga ham xizmat qilishi muqarrar»ligini ta'kidlagan edi.* Shuningdek, Birinchi Prezidentning «Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2007-yil 18-may dagi farmoniga binoan, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda yosh oilalarga amaliy yordam berish, ularga sifatli ta'lim, huquqiy axborot, maslahat va boshqa, jumladan, bolalar sog'lig'ini saqlash va tarbiyalashni ta'minlash bo'yicha xizmat ko'rsatish, yosh oilalarni ma'naviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, yoshlarda o'zi qurgan yangi oila uchun g'urur va mas'uliyat hissini, ota-onaga, keksa avlod vakillariga hurmat-e'tibor, mehnat qilish va xalqimizning ma'naviy qadriyatlari ruhida bolalarda tartib-intizom tuyg'usini shakllantirish maqsadida 2007-yilda 50,0 million so'm ajratish to'g'risidagi takliflar maqullandi.

Hozirgi paytgacha oilani o'rganish haqida alohida fan yo'q. Lekin oilaning turli qirralarini o'rganish bilan esa o'ndan ortiq fanlar shug'ullanadi. Bular: etnografiya, aholishunoslik, demografiya, ijtimoiy geografiya, sotsiologiya, iqtisodiyot fanlari bilan statistika, psixologiya, oila pedagogikasi, tibbiyot, huquqshunoslik hamda boshqalardan iboratdir. Etnografiya – nikoh-oila munosabatlarini o'rganadi. Aholishunoslik fani aholi hamda uning asosiy bo'g'ini bo'lmish oilaning turli xil muammolari, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy jarayonlarni talqin qiladi. Ijtimoiy geografiya tadqiqotlarida aholi va oilaning hududiy tafovutlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Sotsiologiya esa inson hayotining ijtimoiy jihatlari hamda kishilik jamiyatining barcha ijtimoiy munosabatlarini o'rganadi. Iqtisodiyot bilan statistika fani oila budgeti hamda oila ishlab chiqarish (agar u mavjud bo'lsa) va oilaviy iste'molni, mehnat taqsimoti va oiladagi xo'jalik-iqtisodiy munosabatlarni tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Psixologyaning vazifasi asosan nikoh-oila munosabatlarida namoyon bo'ladigan hissiyot, tasavvur, urfodatlar, shuningdek psixologik (ruhiy) hodisalarning ijtimoiy va tabiat manbalarini o'rganishdan iboratdir. Oila pedagogikasining maqsadi – oilaning bolalarga ko'rsatadigan ta'sirini, oiladagi tarbiya qonuniyatlari va vositalarini, ota yoki onaning bolaga ta'sirini, oila bilan boshqa tarbiya muassasalarining o'zaro munosabatlarini aniqlashdir. Tibbiyot fani – nikohning fiziologik jihatlari va uning oqibatlarini, oilaning oila a'zolari sog'lig'i-ga ta'sirini talqin etadi. Huquqshunoslik oila to'g'risidagi qonunlar va

oilaning ijtimoiy hayotga munosabatini o'rganib, mavjud yoki jamiyat uchun maqsadga muvofiq huquqiy qoidalarni asoslab beradi.

Jamiyat tuzilishida oilani sotsial institut sifatida o'rganilishining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki oila – jamiyatning asosiy bug'ini. Oiladagi har bir yutuq va kamchiliklar jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun ham oilaning tuzilishi va jamiyat hayotida tutgan o'rni masalalarini amaliy sotsiologik tadqiqotlar yordamida o'rganib borish muhim bo'lib, komil inson va barkamol shaxs hamda oqilona ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish vositalaridan biri hamdir.

### **3-§. Nikohning mohiyati va uning turlari**

Oila asosini nikoh munosabatlari tashkil qiladi. Nikoh – bu tarixan vujudga kelgan, er va xotin o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-axloqiy shaklidir. Nikoh orqali jamiyat er-xotinning o'zaro birgalikdagi hayotini tartibga soladi va ularning oiladagi huquq-burchlarini qonunlashtiradi. Shu bilan birga, oila nikohga nisbatan yanada murakkabroq bo'lib, nafaqat er xotinni, balki ularning farzandlarini va shu oila tarkibiga kiruvchi qarindoshlarni ham o'z ichiga oladi.

*Oila-nikoh munosabatlari quyidagi prinsiplarga asoslanadi:*

1. Yakka nikohlik tamoyili (faqat bitta).
2. Nikohning ixtiyoriyligi.
3. Ajralishning erkinligi (davlat tomonidan nazorat qilinadi).
4. Oila va oilaviy munosabatlarda er-xotinning teng huquqligi.
5. Bolalarni birgalikda tarbiyalash tamoyili.

Nikohning huquqiy asoslari – nikoh tuzish va uni bekor qilish shartlari hamda tartiblari, er-xotinning huquq va majburiyatları «Oila kodeksi»da batafsil tarzda ifoda qilingan.

Nikoh sotsiologiya, demografiya, ma'naviyat asoslari, huquq, pedago-gika, tarix va psixologiya kabi fanlar tomonidan tadqiq etiladi. Sotsiologiya nikohni o'rganuvchi boshqa fanlardan farqli o'laroq nikohning yosh jihatdan vujudga kelish sabablari va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni masalalarini amaliy sotsiologik tadqiqotlar yordamida o'rganadi. Nikoh – insonlar populyatsiyasida er-xotin juftligining shakllanish jarayonidir. Nikoh demografik tahlilda real yoki gipotetik avlodga nisbatan qaraladi va u qonun yoki an'anaga binoan nikoh yoshiga yetgan, lekin hali nikohdan o'tmagan insonlar (erkak va ayol) o'rtasida tuziladi. Nikohning shartlari, shakllari va uni tuzish tartiblari turli mamlakat va xalqlarda turlicha hamda tarixiy rivojlanish jarayonlarida ma'lum darajada o'zgarib turgan.

Jinsiy munosabatlarning dastlabki sotsial tartibga solingan shakli ibtidoiy jamoa tuzumining guruh nikohidir. Ko‘rinishidan guruh nikohi dislokal, ya’ni er va xotin birga yashamasdan bitta maishiy xo‘jalik jamoasiga mansub bo‘lmagan. Keyinchalik guruh nikohi torayib, avval bitta avlodga tegishli shaxslar, keyinchalik esa bir juft shaxslar orasida tuzilgan, ya’ni nikoh juftligiga aylangan.

Dastlab nikoh juftligida er va xotin birga yashagan, keyinchalik esa er xotinning qabilasiga (matrilokal nikoh), xotin erining qabilasiga (patrilokal nikoh) o‘tgan. Nikohning bu turlarida er va xotin o‘rtasidagi mulk alohida bo‘lib, guruh nikohidagi ayrim belgilar saqlangan.

Dehqonchilik va chorvachilikka o‘tish munosabati bilan erkak kishining xo‘jalikdagi o‘rni oshib, natijada nikoh juftligi mustahkamlangan. Ya’ni monogam nikohning boshlanishiga asos solingan. Monogam nikohning qabila tuzumi parchalangandan so‘ng nikoh monolokal turga, ya’ni er va xotin bitta oilaga va bitta xo‘jalikka mansub bo‘lgan xolga o‘tgan. Monogam nikoh deganda, bir erkakning bitta ayol bilan jinsiy va xo‘jalik-maishiy ittifoqi tushunilib, natijada bu «monogam nikoh» tushunchasini «oila» va «uy xo‘jaligi» tushunchalariga yaqinlashtirdi. Ko‘pchilik hududlarda asta-sekin patrilokal nikoh, ya’ni xotin va farzandlarning butunlay ernen hukmi ostida bo‘lishligi tasdiqlandi. Tarixiy rivojlanish davomida nikohning asosiy shakli monogamiya bo‘lib bordi. Shu bilan birga, ba’zi xalqlarda monogamiya bilan bir qatorda nikohning poligamiya (ko‘p xotinlik, ko‘p erlik) turi ham uchrab turdi.

Nikoh tuzish va nikohdagi juftni tanlash turli sotsial-iqtisodiy shart-sharoitlar bilan amalga oshirilib kelingan. Quldarlik tuzumidagi mamlakatlarda nikoh faqat erkin fuqarolar uchun mumkin bo‘lgan. Erkin kishilarning qullikdagi ayollar bilan nikohdan o‘tishi qat’iy qoralangan. Feodal tuzumdagi davlatlarda esa hukmron sinflar o‘rtasida monogam nikoh tarqalgan, dehqonlar o‘rtasidagi nikohlar esa zodagonning ruxsati bilan tuzilgan.

Aytish joizki, industrial jamiyat va ta’lim tizimining rivojlanishi hamda ayollarning ishlab chiqarishga ko‘proq jalb etilishi nikoh jarayonining o‘zgarishiga olib keldi. Chunonchi, ta’lim tizimining rivojlanishi bilan ba’zi mamlakatlarda nikoh yoshining kattalashishi yuzaga keldi. Natijada nikohga kirmagan, birgalikda yashovchi erkaklar va ayollar, nikohdan oldingi aloqalar va nikohsiz (noqonuniy) tug‘ilgan farzandlar soni ko‘payib boradi?!

O‘zbekistonda nikoh «Oila kodeksi» bilan tartibga solinadi. Respublikada nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlarida tuziladi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatiga ega emas, nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlariga ariza bergenlaridan keyin bir oy

o‘tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Uzrli sabablarga ko‘ra, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi bir oy o‘tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin. Alovida hollarda (homiladorlik, bola tug‘ilishi, bir tarafning kasalligi) nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin<sup>1</sup>.

Respublikamizda 2015-yil davomida FHDYO organlarida 287,6 mingta nikoh va 29,6 mingta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 9,2 ta nikoh (2014-yilda – 9,6 ta) va 0,9 ta ajralishlar (2014-yilda – 0,9 ta) to‘g‘ri keladi. 2016-yilda 275,1 mingta nikoh qayd etilgan bo‘lsa, 29,4 mingta nikoh bekor qilingan. Nikoh qayd etilish ko‘rsatkichining pasayishi O‘zbekistonning barcha hududlarida deyarli bir xilda bo‘lib, Qashqadaryo, Namangan, Andijon, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida sezilarli darajada kamaygan. Respublikamizning Jizzax, Sirdaryo, Xorazm viloyatlarida o‘tgan yilga nisbatan ajrimlar soni o‘sishi kuzatilgan. Statistik ma’lumotlar Buxoro, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida esa aksincha, ajrimlar soni kamaygan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda ajrimlar sonini kamaytirishga, ya’ni oilalarni saqlab qolishga jiddiy e’tibor qaratmoqda. 2016-yil 9 oyi yakuniga ko‘ra, Toshkent shahrida tuzilgan oilalarning 32 foizi ajrashish darajasiga yetib borgan. Bu ko‘rsatkich respublikaning boshqa hududlarida, xususan Qoraqalpog‘iston Respublikasida 8 foiz, Xorazmda 6 foiz, Surxondaryoda 9 foiz, Qashqadaryoda 10 foiz, Buxoroda 12 foiz, Jizzaxda 14 foizni tashkil etmoqda. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, oilaviy ajrimlar oqibatida asosan ayollar va bolalar jabr ko‘radi. Hozirda Toshkent shahrida 505 ta mahalla bo‘lib, ularning har birida Yarashtiruv komissiyalari faoliyat olib bormoqda. Ana shu komissiyalar faoliyati samarasi o‘laroq 2016-yilda 1012 ta oila sud zalida yarashtirilgan, 1361 ta voyaga yetmagan bola tirik yetimlikdan saqlab qolingga<sup>2</sup>.

Ko‘pchilik chet mamlakatlarda nikoh odatda fuqarolik huquqiy bitim hisoblanib, nikoh tuzish va oiladagi boshqa munosabatlarga oid savollar fuqarolik qonunchiligi asosida tartibga solinadi. Nikoh tuzishda bo‘lg‘usi er-xotinning mol-mulki umumiyligi yoki alohida bo‘lishligiga katta ahamiyat beriladi. Dunyo mamlakatlarida nikoh tuzish uchun shaxslar nikoh yoshiga (qonunda ruxsat etilgan yoki an’analarga ko‘ra) yetgan bo‘lishlari lozim. Ko‘pchilik mamlakatlarda nikoh yoshi nikohga kiruvchilarning jinsiy, ruhiy va sotsial yetukligi hamda shu mamlakat udum va an’analarini hisobga

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси. – Т., 2007. – Б. 8.

<sup>2</sup> <http://vatandosh.uz/news/2014/09/25766/>.

olgan holda qonun tomonidan belgilanadi. Ilgari nikohga kirish yoshi diniy me'yorlar bilan belgilangan hamda erkaklar va ayollar uchun bir xilda bo'lgan. Katoliklarda nikoh yoshi ayollar uchun 12, erkaklar uchun 14, protestantlarda har ikkala jins vakillari uchun 14 yosh deb belgilangan.

Islomda nikohga kirish yoshi bir xil belgilanmagan. Shariat qoidalariga ko'ra, qiz bola 9 yoshida, o'g'il bola esa 12 yoshida balog'atga yetgan, deb hisoblangan hamda oila qurishi mumkin bo'lgan. O'zbekistonda nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh etib belgilangan. Uzrli sabablar bo'lganda, alohida hollarda nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra, nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin<sup>1</sup>.

Ba'zi mamlakatlarda nikoh yoshini tartibga soluvchi qonunlarning mavjud emasligi va qonunda ko'rsatilgan nikoh yoshining kichikligi hamda ayol-larning oila va jamiyatdagi huquqiy tengsizligini keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan 1967-yil 7-noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan maxsus Deklarasiyada to balog'atga yetmagunlariga qadar qizlarning nikohdan o'tishlarini taqiqlash va nikohga kirishning minimal yoshini belgilashga qaratilgan chora-tadbirlarga alohida e'tibor berilgan.

Aholi o'rtasida nikoh juftligining hosil bo'lish jarayoni bиринчи va takroriy nikohga kirishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, nikoh «nikoh bozori»dagi holat, nikoh aylanmasining shakllanishi, nikohdagi tanlashning mavjudligiga bog'liq bo'ladi. «Nikoh bozori» – bu nikohga layoqatli aholining turli guruuhlaridagi nisbatlar tizimini ko'rsatuvchi shartli belgidir. Mazkur bozordagi holat nikohga kirish ehtimolligiga, muayyan hudud aholisining jinsiy tarkibiga va nikohga layoqatli aholi tarkibidagi salohiyatli nikoh juftliklarining soniga bog'liq bo'ladi. Nikoh aylanmasi nikohdagi juftliklar yig'indisidan iborat bo'lib, jamiyatdagi qonunchilik, ma'naviy-etnik me'yorlar, juftliklarning shaxsiy sifatlari hamda sotsial-iqtisodiy holatlari bilan belgilanadi.

Nikoh tanlovi nikoh aylanmasi ichida nikoh juftliklarini tanlashdan iborat bo'lib, unga sotsial-iqtisodiy, madaniy, psixologik va antropologik mezonlar ta'sir o'tkazadi hamda har birining ta'siri vaqt davomida o'zgarib turadi.

**Nikoh holatini ifodalovchi demografik ko'rsatkichlar.** Nikoh holatini tadqiq va tahlil qilishda uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalani-ladi. Aytish joizki, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlarning nikoh haqidagi ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida statistik va aholini ro'yxatga olish ko'rsatkichlari hamda tekshiruv natijalari asosida

---

<sup>1</sup> Ўша кодекс. – Б. 8–9.

to‘planadi. Ushbu ma’lumotlar asosida nikoh bo‘yicha maxsus statistik shakllar ishlab chiqish hamda tavsiflarini tadqiq qilishda baza vazifasini o‘taydi. Aholini ro‘yxatga olish jarayonlarida so‘rovnoma to‘ldirayotgan shaxsning nikohdagi holati so‘raladi hamda nikohlar soni aniqlanadi. Aholining nikoh holati, ya’ni sotsial-demografik jarayonlarning o‘sish darajasi, davomiyligi, mustahkamligini belgilovchi tavsiflar hamda nikoh tuzuvchi shaxslarning yoshlarini inobatga olgan holda o‘rganiladi.

Nikoh holatini ifodalovchi demografik ko‘rsatkichlar quyidagi guruhlarga ajratiladi: *avlodlar orasidagi nikoh va nikohsizlik holatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar; nikohga kirishning umumiy chastotasini o‘lchovchi ko‘rsatkichlar; nikohdan o‘tuvchi shaxslarning yoshini belgilovchi ko‘rsatkichlar; beva bo‘lib qolish chastotasi; nikohning mustahkamligi va ajralishlar chastotasi; takroriy nikohlarning tarqalganlik ko‘rsatkichlari; nikohdagi juftni tanlash xususiyatlari nazarda* tutiladi.

*Nikoh holati* – demografik tahlildagi aholining muhim tarkibiy tavsifi bo‘lib, ayni paytda nikoh jarayonidir. Nikoh holati nikoh yoshida bo‘lgan erkak va ayolning mutlaq soni aholining o‘rtacha yillik soniga nisbati orqali aniqlanadi. Mazkur ko‘rsatkich aholining ro‘yxatga olish ma’lumotlariga ko‘ra aniqlanadi.

Aholining nikoh holatiga aholining yosh va jinsiy tarkibi, birinchi nikohdan o‘tuvchilarning o‘rtacha yoshi hamda oldingi tug‘ilish darajasi ta’sir etadi. Har bir avlod ma’lum tarixiy sharoitda shakllanganligi uchun sotsial-iqtisodiy va madaniy omillar: aholining nikoh institutiga munosabatini belgilovchi sotsial xulq me’yorlari, iqtisodiy inqirozlar, sotsial va siyosiy ziddiyatlar (urush, inqilob, qatag‘on) nikoh holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Nikoh holatiga yosh tarkibining ta’sirini belgilovchi eng qulay ko‘rsatkich – bu nikohning u yoki bu holatidagi o‘rtacha yashash muddatidir. Masalan, nikoh holatidagi o‘rtacha yashash muddatini aniqlash uchun nikohda turgan erkaklar va ayollarning soni hamda o‘zlari mansub yosh guruhlarining intervali kattaligi ko‘paytirilib, hosil bo‘lgan ko‘paytmalar qo‘shiladi. Biroq bu usul bilan hisoblangan ko‘rsatkichlarda nikoh holatiga o‘limning ta’siri hisobga olinmagan bo‘ladi. Mazkur ko‘rsatkich nikohda turganlar haqidagi ma’lumotlarni standartlash imkonini beradi, shu sababli ham ulardan qiyoslash uchun foydalanish mumkin. Bu interval ko‘pincha 15–49 yosh-dagi ayollarning reproduktiv vazifalarini amalga oshirishlarini, nikohda turganliklarining davomiyligiga bog‘liqligini hisoblash uchun qo‘llaniladi.

*Mutlaq nikohsizlik darajasi* odatda aholining 50 yoshgacha bo‘lgan va hech qachon nikohda bo‘lmagan ayol va erkak soni bilan tavsiflanadi. Bu ko‘rsatkich tadqiqot olib borilayotgan avlodlarning qancha qismi nikohga kirmaganligini ko‘rsatadi. Aholining mutlaq nikohsizlik darajasi quyida-

gicha aniqlanadi. Agar 50 yoshgacha bo‘lgan va hech qachon nikohda bo‘lmanay o‘sishni ayollar va erkaklar soni 5 foizdan kam bo‘lsa – *past*, 5–9 foizni tashkil qilsa – *o‘rtacha*, 10 foizdan yuqori bo‘lsa – *yuqori* hisoblanadi.

Mamlakatimizda aholining mutlaq nikohsizlik darajasi past hisoblanadi, ya’ni ular 5 foizdan kamni tashkil etadi. Aholi ro‘yxati va ma’lumotlaridan olingan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, turli yoshdagi ayollar (real avloddagi) orasida mutlaq nikohsizlik darajasi faqat urush yillari va undan keyingi nikoh bozorining deformatsiyasi davrida yuqori bo‘lgan.

**Ajralish va uning ko‘rsatkichlari.** Ajralish har qanday avlodda nikoh juftliklarining nikohni bekor qilishi natijasida yuzaga kelgan demografik jarayondir. Bu er va xotinning hayot vaqtidagi nikohning bekor qilinishidir. Ajralish ham nikoh singari sotsiologiyadan boshqa fanlar: demografiya, huquq, pedagogika, falsafa, psixologiyaning tadqiqot predmetlari jumlasiga kiradi. Nikohning huquqiy jihatdan bekor qilinishiga asos, bu fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlarining ma’lumotlari xizmat qiladi.

Ajralish murakkab sotsial jarayon bo‘lganligi bois, uning sotsial-demografik omillari hali yetarli darajada o‘rganilmagan hamda ajralish qonuniyatlarini tushuntiruvchi umumiyligini konsepsiya ishlab chiqilmagan. Ajralish qadimda islom aqidalariga ko‘ra, amalga oshgan va bu jarayon «taloq» deb atalgan. «Taloq» arabcha so‘z bo‘lib, ozod bo‘lmoq, ajralmoq degan ma’nolarni bildiradi. Islom aqidalariga ko‘ra, taloq erkak tomonidan aytimsa er-xotinning ajralishi qonuniy hisoblanmaydi. Agar ayol tomonidan nikohning bekor etilishi talab qilinsa-yu, erkak bunga norozi bo‘lsa, taloq kuchga kirmagan. Shariat qonunida erkak «taloq» so‘zini hushyor va sog‘lom paytida aytib, o‘zi iqror bo‘lgandan keyin taloq qonuniy bo‘lgan<sup>1</sup>.

Nikohning barqarorligi yoki ajralishga nikohgacha va nikoh davrida qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Chunonchi, *nikohning barqarorligiga ta’sir etuvchi nikohgacha bo‘lgan omillar*: arning oliv ma’lumotli bo‘lishi, oilaning umumiyligini ahvoli, ota-onalar oilaviy hayotining ijobiyligi, nikohdan oldingi tanishuvning davomiyligi, bir-biri haqidagi ilk ijobiyligi taassurotlari, ish, o‘qish sharoitida tanishuv, g‘amxo‘rlik, nikoh tuzish tashabbusining erkak kishi tomonidan berilishi va hokazo. *Nikohning barqarorligiga ta’sir etuvchi nikoh davridagi omillar*: ayolning yuqori reproduktiv holati, asosiy oilaviy muammolarni kelishgan holda birgalikda yechishi, er-xotinning bo‘sh vaqtini birgalikda ahil tarzda o‘tkazishi, kelinqaynona munosabatlarining ijobiyligi hal bo‘la borishi – nikohning barqarorligiga olib keluvchi omillar hisoblanadi. *Nikohning bekor qilinishi hamda ajralishga olib keluvchi nikohgacha bo‘lgan omillar*: erkak va ayolning erta nikohga kirishi, nikohga kech kirish, xotin yoshining eridan

<sup>1</sup> Буреева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. – Т., 1997. – Б. 84 .

katta bo‘lishi, xotinning oliy ma’lumotga ega bo‘lishi, er-xotinning naslnasabiga nisbatan kelib chiqishiga, nikohdan oldingi homiladorlik kabi nikohgacha bo‘lgan omillar ajralishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. *Nikohning bekor qilinishiga, ajralishga olib keluvchi nikoh davridagi omillar*: er va xotinning reproduktiv holatining bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi, spirtli ichimliklar iste’mol qilish, ma’naviy muloqotda er va xotin xulqining to‘g‘ri kelmasligi, ota-onaning salbiy munosabati ajralishga sabab bo‘ladi.

Ajralishning demografik mohiyatini ochishda ajralish jihatlarini o‘lchovchi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Ular jumlasiga ajralishning umumiyligi, yoshi, maxsus va yig‘indi koeffitsiyentlari kiradi. Shuningdek, ajralishning maxsus koeffitsiyenti ham qo‘llaniladi. Bu koeffitsiyent aholini ro‘yxatga olish va joriy ro‘yxatlar ma’lumotlariga ko‘ra, ma’lum davr mobaynidagi ajralishlar sonining shu davr o‘rtasidagi nikoh juftliklarining o‘rtacha soni nisbatiga teng bo‘ladi.

Respublika bo‘yicha nikohlar umumiyligi sonining o‘sishi bilan ajralishlar sonining ham o‘sayotganligi tashvishlidir. Oilaviy ajralishlarning asosiy sabablari nimalarda? Ajralishlarning tarafdori ko‘proq kim? Erkaklar mi yoki ayollarmi? Qaysi birlari ko‘proq aybdor? degan savollar yuzasidan doimiy sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish va natijalarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish ham oila sotsiologiyasining vazifalaridandir.

Olib borilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ko‘ra, hozirgi vaqtida asosan ko‘proq quyidagi omillar oilaviy ajralishlarga sababchi bo‘lmoqda:

1. Er o‘z oilasini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlay olmasligi.
2. Erlik burchini, oila boshlig‘i sifatidagi mas’uliyatli vazifasini bajarmayotganligi tufayli.
3. Erning spirtli ichimlik, narkotik moddalarni iste’mol qilishi va natijada sog‘lom oilaviy muhitning buzilishi oqibatida.
4. Ayollarning o‘z eriga nisbatan qo‘pol munosabatlarda bo‘lishi, erni er o‘rnida ko‘rmasligi, mensimasligi va oilada ayollik (xotinlik) burchini his qilmasligi natijasida.
5. Er-xotin o‘rtasida o‘zaro hurmatning yo‘qligi, xarakterlarining to‘g‘ri kelmasligi, oddiy muomala madaniyatining yo‘qligi.
6. Qaynona-kelin munosabatlaridagi kelishmovchiliklar.
7. Yosh yigit-qizlarning bo‘lg‘usi oilaga har jihatdan tayyor emasliklari va hokazolar.

Shuningdek, oilaviy hayotda o‘zlarini baxtli deb hisoblagan ayollar. Bular: ish joyida muvaffaqiyatga erishgan, har tomonlama qiziqishga va qobiliyatga ega bo‘lgan, mustaqil, tashqi ko‘rinishidan kelishgan va go‘zal

bo‘lgan ayollar emas, balki jiddiy, yumshoq ko‘ngil, mehribon, o‘z oilasiga jonkuyar, chekinuvchan, bir gapdan qoladigan ayollar ekan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra haqiqiy oilaviy baxtga erishish omillari axloqiy munosabatlarga borib taqalishi ma’lum bo‘ldi.

Oilalarni mustahkamlash, nikohni bekor qilish holatlarining oldini olishda milliy urf-odatlar va an'analar, shuningdek, mahallalardagi yarash-tiruv komissiyalarining imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalani layot-ganligi oqibatida nikohni bekor qilish darajasi yuqoriligidcha qolmoqda.

*Takroriy nikoh* – bu ajrashganlar va bevalarning tuzgan nikohidir. Ajralish darajasi yuqoriq bo‘lgan sharoitda, ular qoplovchi rol o‘ynaydi. Takroriy nikoh koeffitsiyenti birinchi nikoh koeffitsiyentiga nisbatan bevalar va ajrashganlar, takror nikohga kirganlar soni aholi ro‘yxatidagi ma’lumotlar asosida hisoblanadi. Demak, yangi nikohga kirishning ko‘payishi jihatlari takroriy nikohning maxsus va yosh koeffitsiyentlari yordamida aniqlanadi. Nikohlarni tugatish va takror nikohga kirish hodisalarini o‘zaro taqqoslash takroriy nikoh va ajralish hamda bevalikning qay darajada qoplaganligini baholashga yordam beradi. Ya’ni, takror nikohga kirishning o‘rtacha yoshi – nikohga kirish ketma-ketligi yoshining o‘rtacha miqdoriga bog‘liq bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, nikoh ikkita sabab bilan to‘xtatilishi mumkin: ajralish tufayli va umr yo‘ldoshlaridan birining o‘limi sababli. Shuning uchun nikohlarning to‘xtatilish ko‘rsatkichlari ajralish hamda o‘lim va beva qolish ko‘rsatkichlariga bo‘linadi.

Shunday qilib, ajralish er-xotinning hayotiy davomidagi nikohni bekor qilishi hisoblanib, ajralish jihatlarini o‘lchovchi ko‘rsatkichlar yordamida uning holatiga baho beriladi.

#### **4-§. Oila mustahkamligi va barqarorligini ta’minlovchi sotsial xususiyatlar**

Oilaning mustahkamligi va barqarorligini ta’minlashda sotsial xususiyatlar muhim o‘ringa ega. Oiladagi bu xususiyatlarga, ayniqsa oilaparvarlik, serfarzandlik, farzandlar tomonidan ota-onalarni hamda qarindosh urug‘larni hurmat qilishlik, oila a’zolari o‘rtasidagi inoqlik va mehr-oqibatli bo‘lishlik, o‘zaro yordam, bola tarbiyasida mahallaning o‘rni va shu kabilar kiradi.

Farzandning kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, qanday kasb egasi bo‘lishi hamda atrofdagi insonlar bilan qanday munosabatlarga kirishishining tamal toshi oilada qo‘yiladi. Bu to‘g‘risida Birinchi Prezidenti Islom Karimov, Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch asarida «Insonning eng sof

va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oljanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarining poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir»<sup>1</sup> deb ta’kidlaydi.

Bolalarimiz bizning vorislarimizdir. Jamiyatning ertangi taqdiri va kelajagi biz tarbiyalab voyaga yetkazayotgan farzandlarimizning qo‘liga o‘tadi. Shuning uchun ham oilada ularning tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashish har bir ota-onaning muqaddas burchi ekanligini hech qachon yoddan chiqarmaslik lozim. Oilada bola tarbiyasi uchun, eng avvalo har bir ota-ona mas’uldir. Qolaversa oiladagi katta yoshdagilar kichiklariga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatib, o‘zi tarbiya olayotgan oilasiga hamda jamiyatiga munosib farzand bo‘lishi uchun yordamlashishi kerak. Oilada farzandlar tarbiyasi borasida ularning har taraflama yetuk va komil inson bo‘lib yetishishi uchun imkon darajada barcha shart-sharoitlarni yaratish lozim.

Kundalik turmushimizda tarbiya sohasida «tarbiyasi og‘ir», «tarbiyasi qiyin» degan tushunchalarini ishlatalamiz. Bu tushunchalar odatda tarbiyasi-da biror nuqsoni bor, aytganidan qaytmaydigan sho‘x va qaysar o‘quvchi va bolalarga nisbatan ishlataladi. Shuningdek, tarbiyasi og‘ir bolalar qatoriga o‘zboshimcha, hatto bezori bolalar va zararkunanda darajasiga tushib qolgan o‘smirlar ham kiradi. Ularni tarbiyalash, hayotini haqiqiy to‘g‘ri yo‘lga solib yuborish oson ish emas, albatta. Biroq astoydil, e’tiqod va fidoyilik ko‘rsatib, ijtimoiy fanlar, xususan, sotsiologik so‘rovnomalar natijalarida olingan jamoatchilik fikriga asoslangan holda katta hayoti tajribaga ega tarbiyachi-murabbiylar yordamida ularning oldini olish hamda bartaraf etish mumkin.

Islom dinining asosi bo‘lgan hadislarda «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, axloq-odobini ham yaxshilangizlar», deyiladi. Farzand – hayotning guli.

Darhaqiqat, odobli farzand bilan hayotimiz fayzlidir. Biroq farzandlarimiz xatti-harakatida ham goho nuqsonlar ko‘zga tashlanadi, ularning o‘z vaqtida oldi olinib, bartaraf etilmasa, gunoh ishlarga olib boradi. Shuning uchun oilada farzandlarimizga hadis namunalarini uqtirib borishimiz ham foydadan holi emas.

Oiladagi ota va ona o‘rtasidagi munosabat, bu munosabatda yuz beruvchi holatlar bolalar tarbiyasiga, ularning kelajagiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Agar ota-ona tarbiyali, odobli, bir-birlariga xushmuomala bo‘lsalar, oiladagi farzandlar ham ulardan namuna olib, shunday tarbiyali

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008. – B. 33.

bo‘lib o‘sadilar. Ayniqsa, oila a’zolari o‘rtasida nutq odobi masalasi g‘oyat muhim ahamiyatga egadir. Bu ishni amalga oshirishda, birinchi o‘rinda, ota-onalarning o‘zлари namuna ko‘rsatib, sof ona tilida so‘zlashlari lozim.

Ma’lumki, «sen» va «siz» so‘zлари ham bir og‘izdan chiqadi. Oila a’zolari o‘zларining katta kichikligidan qat’iy nazar bir-birlarini «siz»lab, hurmatini joyiga qo‘yib, shirin so‘z, xushmuomala, yoqimtoylit fazilatlari bilan munosabatda bo‘ladigan bo‘lsa, albatta bu fazilatlar bolaning keyingi hayotida o‘z ifodasini topadi. Bo‘lajak oila vakillari, bular farzandlar ekan, ularning kelgusida qanday oila qurishlari, qanday oila egasi-yu, qanday uy bekasi bo‘lishi ular o‘sib-unayotgan oilasida shakllanadi. «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», – degan naql bejiz emas. Oiladagi an'analar, udumlar asirlar osha davom etaveradi. Undagi yaxshi va yomon fazilatlar hamda illatlar kelgusi avlodlar hayotida o‘z aksini topadi. Shuning uchun iloji boricha oilada ijobiy xislatlarni kengroq shakllantirib, nuqsonlarni bartaraf etib borish ota-onaning va oiladagi boshqa keksa avlodlarning jamiyat oldidagi jiddiy burchi hisoblanadi.

Oilada kitobxonlikni tashkil etish ham oila rivojining sotsial xususiyatlaridan bo‘lib hisoblanadi. 2017-yil 12-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida»gi farmoyishi e’lon qilindi. Farmoyishdan ko‘zlangan asosiy maqsad yoshlarimizda kitobga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish va kitob mutolaasi hamda kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida yoshlar va aholining keng qatlamlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish masalalariga ham alohida e’tiborni qaratib, «Kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi»<sup>1</sup> deb, alohida ta’kidlaydi. Yoshlarimizda kitobga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish, ularning kitob bilan oshno bo‘lishi, avvalo oiladan boshlanadi. Oilada bola-

<sup>1</sup> Мирзиёев III. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлши керак. / Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишлиланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруzasи // Халқ сўзи. – 2017. – 16 янв.

ning kitobga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish va kitobxonligini uyushtirish jiddiy ahamiyatga ega bo‘lib, uni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1. Bolaning yoshi hamda qobiliyatiga qarab badiiy asarlarni to‘g‘ri tanlash va olib berish.

2. Oilada bolaning badiiy kitoblarni o‘qishi uchun belgilangan vaqt ajratish hamda unga sharoitni yaratib berish.

3. Bolaning o‘qishi uchun tanlangan badiiy asarlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi lozim va ulardan oila kutubxonasini tashkil etish.

4. Bolalar kitobxonligini faqat oila doirasida emas, balki bog‘cha va maktab bilan hamkorlikda uyushtirish. Bunda tarbiyachilar va sinf rahbarlari bilan doimiy aloqa o‘rnatib, bolaning ko‘proq qaysi sohalarga qiziqishlari bilan muntazam xabardor bo‘lib turish lozim.

5. Oilada bolalar kitobxonligini oshirish (uyushtirish)da turli xil usullardan foydalanish (tajriba va kuzatish, suhbat, ifodali o‘qish, hikoya, bahs-munozara) yaxshi samara berishini ko‘rsatadi.

Yurtimizda azal-azaldan mahalla tarbiya o‘chog‘i hisoblanadi. Oilaning haqiqiy moddiy ahvolini, ularning ma’naviy va madaniy qiziqishlarini mahalladan ko‘ra yaxshiroq biladigan boshqa sotsial institut yo‘q. Xalqimiz tomonidan «Mahalla – ham ota, ham ona» degan hikmatli naql bekorga aytilmagan. Birinchi Prezident Islom Karimov Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch asarida, «Biz har qaysi xonodon, butun el-yurtimizdag‘i ma’naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bo‘lsak, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini avvalo mahalla hayotida xuddi oynadek yaqqol ko‘rish imkoniga ega bo‘lamiz»<sup>1</sup> deb, bejizga ta’kidlamagan.

Hozirgi paytda bozor munosabatlari barchani tobora chuqurroq o‘z doirasiga tortmoqda. Bu holat oilaviy munosabatlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Oilaning ishga yaroqli bo‘lgan barcha a’zolari tirikchilik bilan band bo‘lib, bolalar o‘z holiga tashlab qo‘yilayotgani ham haqiqatdir. Ana shunday vaziyatlarda mahallalarning jamiyat hayotidagi o‘rni va rolini hamda mas’uliyatini oshirish to‘g‘risidagi da’vat va tegishli far moyishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-fevral kuni «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonni qabul qilindi. Farmonda mahalla institutini yanada takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida yoshlarni ma’naviy boy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta’minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008. – B.38.

organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlash muhim vazifalardan ekanligi belgilab qo‘yildi.

Mahalla instituti oila hamkorligida yoshlarimizni milliy va umum-insoniy qadriyatlar, yaqin qo‘schnichilik va o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, yordamga muhtoj odamlarga g‘amxo‘rlik qilish, yoshlarni vatanparvarlik, jamiyat oldidagi burchi va javobgarligini teran anglash ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Tayanch tushunchalar**

Oila sotsiologiyasi, oila sotsial institut, oila tushunchasi va uning shakllanish bosqichlari, oila sotsiologiyaning o‘rganish obyekti va predmeti, oilaning tuzilishi va shakllari, monogam oila, poligam oila, poliandriya, poliginiya, matriarxat oila, patriarchal oila, katta oila, oilaning asosiy funksiyalari: jinsiy hayotni boshqarish va aholini qayta ishlab chiqarish funksiyasi, tarbiyalash funksiyasi, ijtimoiylashtirish funksiyasi, xo‘jalik yuritish va maishiy funksiyasi, himoya qilish funksiyasi, huquqiy holat (status)ni belgilovchi funksiya, ruhiy qoniqtirish funksiyasi, bo‘s sh vaqt ni tashkil etish funksiyasi, oila, jamiyat va davlat munosabatlari.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Oila deb nimaga aytamiz?
2. Oila sotsiologiyasining obyekti va predmeti nimadan iborat?
3. Oilaning shakllanish bosqichlari to‘g‘risida gapirib bering.
4. Monogam va poligam oilani tahlil qilib bering.
5. Poligam oila deb qanday oilaga aytamiz?
6. Matriarxat va patriarchal oila o‘rtasidagi farq nimada?
7. Oilaning asosiy funksiyalarini sanab bering?
8. Jinsiy hayotni boshqarish va aholini qayta ishlab chiqarish funksiyasining mohiyati nimada?
9. Tarbiyalash funksiyasi bilan ijtimoiylashtirish funksiyasini tahlil qilib bering.
10. Xo‘jalik yuritish va maishiy funksiyasining jamiyat iqtisodiy hayotidagi o‘rni to‘g‘risida gapirib bering.
11. Oilaning himoya qilish funksiyasi deganda nimani tushunasiz?
12. Oilaning huquqiy holat (status)ni belgilovchi funksiyasi mohiyati nimada?
13. Jamiyat hayotida oilaning ruhiy qoniqtirish funksiyasining roli to‘g‘risida gapirib bering.
14. Oilaning jamiyatga ta’siri nimalarda namoyon bo‘ladi.
15. Oila, jamiyat va davlat munosabatlari to‘g‘risida so‘zlab bering.

## **VIII BOB. SHAXS SOTSILOGIYASI**

### **1-§ Sotsiologiyada shaxs va uning talqini**

Sotsiologiyada sotsial tizimlarning asosiy bo‘g‘ini hamda ularni harakatga keltiruvchi kuch va uning subyekti alohida shaxs, insonlar, sotsial guruqlar, siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar hisoblanadi. Bunda alohida shaxsning o‘rni va roli juda kattadir. O‘tmishda shaxs va uning jamiyat hayotida tutgan o‘rni masalasi tarixchi, siyosatshunos, huquqshunos va faylasuf olimlar tomonidan har xil tarzda baholab kelingan. Uning qanday baholanishidan qat’i nazar, shaxsning jamiyat hayotida tutgan o‘rnini sotsiologik jihatdan har taraflama tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Birinchi Prezident Islom Karimov jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun va mohiyatiga shunday deb baho bergan edi: «*Jamiyatimizni isloh qilish va yangilash bo‘yicha ko‘p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren O‘zbekistonning fuqarosi turadi. Islohotlarning mazmuni ayni har bir fuqaro o‘z qobiliyatini, o‘z iste’dodini namoyon etishga, shaxs sifatida o‘zini ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lishiga qaratilgan*»<sup>1</sup>.

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida olib borilayotgan demokratiya jarayonlari har bir shaxsning ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayot sohalarida faol ishtirok etishiga bog‘liqdir. O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun har bir insondan kuchli bilim va yuqori ma’naviy madaniyatga ega bo‘lish talab qilinadi. Shu bois shaxsning har xil ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘rnini o‘rganish dolzarb muammolardan hisoblanadi hamda shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jarayonidagi o‘rni, ijtimoiy funksiyalari va uning ijtimoiylashuv jarayonlarini tadqiq etishda katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda sotsiologik bilimlar tizimida shaxs muammosi asosiy o‘rinni egallaydi. Shaxs muammosini nafaqat sotsiologiya fani, balki falsafa, siyosatshunoslik, psixologiya, dinshunoslik, huquqshunoslik va boshqa bir qancha ijtimoiy-huquqiy fanlar ham o‘rganadi. Falsafa fani shaxs hayot faoliyatining mohiyati, uning biologik va ijtimoiy mavjudot sifatidagi rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi. Siyosatshunoslik fani esa shaxsning siyosiy munosabatlar tizimidagi o‘rnini, psixologiya fani shaxsning ichki dunyosiga xos bo‘lgan individual belgi va xususiyatlarini o‘rganadi. Dinshunoslik fani esa shaxsning diniy e’tiqod va faoliyatining

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3.–Т., 1996.– Б. 352–353.

yuzaga kelishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Demak, har bir fan shaxs masalasini o‘rganishda o‘zining o‘rganish predmeti, subyekti va obyekti hamda metodologiyasi asosida talqin qiladi.

Sotsiologiya fani shaxs masalasini o‘rganishda, uning ijtimoiy muhit bilan munosabati hamda sotsial aloqalar tizimidagi o‘rnini o‘rganadi. Uning obyektini shaxsning jamiyatdagi o‘rni va roli tashkil qiladi. Shaxsni sotsiologik bilishning predmetini uning sotsial tizimlardagi masalalarini institutsional va institutsional bo‘lmagan munosabatlarda o‘rganish tashkil qiladi. Boshqacha aytganda, sotsiologiya shaxsni sotsial institutlar faoliyatiga bog‘liq holdagina o‘rganib qolmay, sotsial institutlar faoliyati va rivojlanishiga ongli ta’sir etuvchi omillardan biri sifatida ham tadqiq etadi.

Shaxsning sotsial munosabatlar tizimidagi o‘rnini tahlil qilishdan avval, uning individ va inson tushunchalaridan farqli tomonlarini bilish maqsadga muvofiqdir.

Individ (lot. «individum» – bo‘linmaydigan) alohida odam, shaxs ma’nosini anglatadi. Inson individ tarzida dunyoga keladi. Individ kishilar guruhi jamoasi orasida o‘zining betakror xususiyatlariga ega bo‘lgan yakka kishidir. Individ o‘zi yashab turgan jamiyatning imkoniyatlari va sharoitlari bilan hisoblashadi. Shu bilan birga, individda jamiyat, ajdodlar ruhi va kelajak avlodlar oldida qarzdor ekanligini anglashdan boshlab, shaxsiy sifatlar shakllanib boradi. Shaxs insonga xos belgi va xususiyatlarni o‘zlashtirish natijasida shakllanadi. U insoniyat tarixi yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarni o‘zlashtirib, ma’lum sotsial guruhning a’zosi va vazifalari bilan bog‘liq belgilarga ega bo‘ladi.

Individ va shaxs bir-biriga yaqin tushunchalar bo‘lib, shaxs betakror hodisa sifatida, albatta individ, lekin u individual xususiyatlarga ega bo‘lgani uchungina shaxsdir. Individ o‘ziga xosligi, betakrorligi bilan sifatlansa, shaxs erkin, mustaqil fikrlash va muayyan vaziyatda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish kabi fazilatlari orqali sifatlanadi!?

Shaxs va inson tushunchalari aynan bir xil tushuncha emas. Har qanday insonni shaxs deyish mumkin emas. Inson o‘zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlantirgan ongli mavjudot bo‘lib, uning mohiyatini anglash uzoq vaqt davom etadigan jarayondir. Ya’ni, «inson tabiat» tushunchasi faylasuflar, sotsiologlar tomonidan qadim zamonlardanoq izohlangan. Bu tushuncha asosida inson hayvondan farqlanadi. Inson tabiatи deyilganda, inson ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan qobiliyatlar majmui tushuniladi. Inson ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan qibiliyatlar majmui xilma-xil bo‘lganligi tufayli, nazariy va amaliy xarakterga ega bo‘lgan. Masalan, «*Insonni tarbiyalash mumkinmi? Yuqori yoki past tabiatli insonlar bormi? Inson xatti-harakatini aniqlashda irsiyat yoki ijtimoiy*

*muhit muhimmi? Qanday o‘ziga xos belgi va xususiyatlar insonni shaxs sifatida xarakterlab beradi? Insondagi hamma mavjud narsalar shaxs tushunchasi tarkibiga kiradimi?» – degan savollar tug‘ilishi tabiiy. Insondagi hamma mavjud narsalar «shaxs» tushunchasi tarkibiga kirmaydi. Masalan, biologik xususiyatlar, yuzning tuzilishi, soch va ko‘zlarning rangi, gavdaning katta yoki kichikligi va boshqalar shular jumlasidandir. Inson qachonki, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lganidan keyin shaxs darajasiga ko‘tarilishi mumkin. Insonni shaxs darajasiga ko‘taradigan omil, avvalo uning sotsial-psixologik xususiyatlari aqli, irodasi, kuza-tuvchanligi, ijtimoiy funksiyalari, kelajakni ko‘ra bilishi va dunyoqarashining kengligidir.*

Ta’kidlash joizki, insonda ikki: tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar mavjud bo‘lib, ular insonning shaxs bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy ehtiyojga barcha biologik ehtiyojlar, ya’ni har bir insonning o‘ziga xos individual biologik xususiyatlari – asab, qon aylanish tizimi, organizmnning rivojlanish darajasi, oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoji va boshqalar, bular shaxs shakllanishidagi biologik omillarni tashkil qiladi. Shaxs shakllanishida insonning ijtimoiy ehtiyojlari – muhim bo‘lib, ularga insonning mehnat faoliyati, yon-atrofdagilar bilan doimo muloqotda bo‘lish, bilim va dam olishga bo‘lgan ehtiyojlari, ijtimoiy faollik, ma’naviyatdan bahramand bo‘lish va boshqa shu kabilardan iborat bo‘lib, ijtimoiy omillarni tashkil qiladi.

Insonning qaysi jihatlari shaxsda namoyon bo‘ladi? Hozirgi paytda shaxsning shakllanishida ijtimoiy omillar muhim rol o‘ynaydi. Biologik omillar shaxs rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuchi sifatida zaruriy shart bo‘lib hisoblanadi. Biologik omillar shubhasiz inson xatti-harakatiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, shaxsdagi ba’zi iroda, qobiliyat, ong, xarakter, temperament kabi bir qator xususiyatlar biologik omillardandir, ya’ni bularning barchasi irsiy yo‘l bilan avloddan-avlodga o‘tadi.

Shaxs – insonning jismoniy tabiatи emas, balki ijtimoiy sifatidir. Shaxs ehtiyojlari uning manfaatlari orqali namoyon bo‘ladi. Manfaatlар esa uni maqsadli faoliyatga yo‘llaydi. Kishilarning ijtimoiy munosabatlari ularning xulq-atvorida, eng avvalo manfaatlар tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida, shaxs faoliyatining maqsadi, mazmuni va mohiyatini ifodалaydi. Manfaatlarning murod-maqsadga aylanishi shaxs faoliyati motivining oliv darajasidir.

Ta’kidlaganimizdek, shaxsdagi ayrim psixologik xususiyatlar – iroda, xarakter, kuzatuvchanlik, qobiliyat, temperament tug‘ma bo‘ladi. Insonning shaxs darajasiga ko‘tarilishida bu xususiyatlar yetarli bo‘lmaydi. Uning

shaxs darajasiga yetishishida ijtimoiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Insonga ijtimoiy omillarning bevosita yoki bilvosita ta'siri natijasida unda ijtimoiylashuv jarayoni boshlanadi.

*Shaxs ijtimoiylashuvi*. Inson biologik organizm sifatida dunyoga keladi. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin u o'z manfaatlariga, intilishlariga, yo'naliшlariga, qadriyatlariga, maqsadlariga, o'zga insonlarga nisbatan munosabatlariga ega bo'lgan shaxsga aylanadi. Inson bu holatga ijtimoiylashuv jarayoni orqali erishadi. Ijtimoiylashuv individning jamiyatda to'la huquqli faoliyat ko'rsatishi uchun ijtimoiy normalar, qadriyatlar va bilimlar tizimini o'zlashtirish jarayoni bo'lib, bu jarayonda shaxs sifatida shakllanib boradi.

Ijtimoiylashuv jarayoni individning butun umri mobaynida davom etadi. Birorta ham inson o'ziga boshqa insonlar o'tkazadigan ta'sirsiz yashay olmaydi. Bu uning xulq-atvorida hayotining turli davrlarida aks etadi.

Ijtimoiylashuv shunday hodisaki, bunda o'z «men»ini shakllanti-rayotgan individ o'ziga tegishli bo'lgan guruh normalarini o'zlashtira borib, o'ziga xos betakror individ sifatidagi shaxsga aylanadi. Insonning ijtimoiylashuvi murakkab, serqirra hodisa bo'lib, tashqi muhit hamda maxsus tashkil qilingan va ongli ravishda yo'naltirib turiladigan tarbiyaviy ishlar ta'sirida amalga oshiriladi.

Sotsiologiya insonning ijtimoiylashuvini, *birinchidan*, uning bashariyat yaratgan madaniyatni o'zlashtirishida, *ikkinchidan*, shaxsning ijtimoiy muhit bilan bog'liq xolda shakllanishida, *uchinchidan*, uning kishilar bilan normal muloqot qilishida, *to'rtinchidan*, jismoniy va ruhiy jihatidan sog'lom bo'lishda ko'radi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi murakkab va maxsus tashkil qilingan tarbiyaviy ishning ta'siri natijasida amalga oshadi. Bu jarayon sotsiologiyada ikki asosda o'rganiladi: 1) ijtimoiylashuvga o'tmish madaniy merosining saqlanishi hamda uning avloddan-avlodga o'tish mexanizmi sifatida qaraladi; 2) bu jarayon inson shaxsining shakllanishiga ta'sir qilishida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiylashuv shaxs tarbiyasiga nisbatan keng ahamiyat kasb etadigan jarayondir. Tarbiya – oldindan tashkil etilgan va rejalashtirilgan ijtimoiy faoliyatni o'zida mujassam etsa, ijtimoiylashuv bundan tashqari shaxsga ta'sir etuvchi ijtimoiy-siyosiy hayot va turmush sohalaridagi obyektiv faktlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Jamiyatni shakllantiruvchi mexanizmi sifatida ijtimoiylashuvning mohiyatini ochib beradigan bo'lsak, unda shaxsni bir vaqtning o'zida ham obyekt va ham subyekt sifatida ta'sirini ochib berish lozim bo'ladi.

Shaxs bilan ijtimoiy muhitning o'zaro bog'liqligi quyidagi uch asosda amalga oshadi: individlar ijtimoiylashuvining boshlanishi, ya'ni individual

tajribani o'zlashtirish; individlarning o'zaro guruhlar bilan aloqasi; individlarning bir butun jamiyat bilan aloqasi nazarda tutiladi.

Individning ijtimoiylashuvi jamiyatdagi ma'lum sotsial aloqa va munosabatlar ta'sirida amalga oshadi. Bu sotsial aloqa va munosabatlarning asosini shaxs bilan kishilar o'rtasidagi, bolaning ota-onasi bilan hamda individlarning sotsial guruhlar va umuman jamiyat bilan munosabatlarini tashkil qiladi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi ijtimoiy muhitning ta'siri darajasi hamda uning inson xatti-harakati va shaxsi bilan aloqasi orqali aniqlanadi. Insonning ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi obyektiv tizimlarning turlariga g'oya va mafkura, ta'lim va tashviqot, sotsial maqom va shaxsning roli hamda funksiyalarini ko'rsatish mumkin. Shaxsning ijtimoiylashuvida tashviqot va mafkura tizimi alohida o'ringa ega bo'lib, *bir tomonidan*, g'oyalarning vujudga kelishimi qamrab olsa, *ikkinchi tomonidan* uni bu g'oyalarni ommaviy axborot vositalari orqali tashviqot qiladi.

Shaxs tabiatni hamda madaniy va ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishi – o'zini ijtimoiy jihatdan namoyon qilish qobiliyati bilan belgilanadi. Uning bu qobiliyati jamiyatda o'sadi va rivojlanib boradi. Inson – tarixiy jarayonlar subyekti sifatida o'zini o'zi anglagan va o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan, o'zining ijtimoiy funksiyalarini tushungan hamda hayotda o'z o'rnni topgan taqdirdagina shaxsga aylanadi.

Inson jamiyat oldidagi burch va mas'uliyatini hamda majburiyatlarini o'z erkinligi va ijtimoiy faolligining uzviy qismi sifatida qabul qilganda chinakam shaxsga aylanadi. Insonning hayotiy faolligi shaxs sifatida shakllanishining asosiy omili bo'lib hisoblanadi. Mazkur jarayonda faqat tabiiy va ijtimoiy dunyoga moslashish yuz bermasdan, balki inson uni o'z xohishiga mos ravishda o'zgartiradi. Jamiyat tizimi va uning tuzilishidagi barcha ijtimoiy munosabatlarning yuksalib borishi shaxsning bunyodkorlik va dunyonи o'zgartiruvchi ijodiy faoliyatlarining natijasi hisoblanadi. Ushbu o'zgarish jarayoni cheksizdir, chunki faoliyat, faollik inson shaxsining mohiyatini tashkil etuvchi kuchlarning namoyon bo'lishi va rivojlanishidir. Faol shaxs dunyonи o'zgartirish bilan birga, ayni paytda o'z qobiliyati, mahorati, ko'nikma va bilimlarini uzlusiz ravishda takomillashtirib boradi hamda o'z-o'zini yaratadi. Shaxsning faol hayoti davomida jamiyatda ijtimoiy aloqalari yuksaladi. Bunda insoniy ehtiyojlar doirasi kengayadi va mazkur ehtiyojlarni qondirish vositalarining sifat va son jihatdan o'sishi yuz beradi. Inson ijtimoiy fazilatlar va sifatlar majmuasini kasb etish hamda insoniy sivilizatsiyalar tarixi to'plangan tajribani uzlusiz va har tomonlama o'zlashtirish orqali shaxsga aylanadi.

## 2-§. Shaxsning sotsial mavqe (status) va sotsial roli

*Shaxs* muayyan tarixiy sharoitdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayonida o‘zi mansub bo‘lgan sotsial guruh manfaatlarini ifodalaydigan, ularni himoya qila oladigan, mustaqil fikrlash va muayyan vaziyatda mas’uliyatni o‘z bo‘yniga olib, mustaqil qarorga kela oladigan insondir. Ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxs o‘zining ongi, madaniyati, faoliyatni, egallagan mavqeい va bajaradigan rollari bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

**Shaxs tuzilishi.** Shaxs tuzilishining asosiy tarkibiy qismlari: ong, madaniyat, faoliyat, sotsial mavqe va sotsial rol.

*Ong* – in’ikosning oliy darajasi, voqelikning inson miyasida g‘oyaviy takror ishlab chiqilishi va ijtimoiy munosabatlar jarayonida o‘z-o‘zini boshqarishi. Ong insonning bilim olishi, tajriba to‘plashi, sotsial norma va qadriyatlarni o‘zlashtirishi hamda uning ijtimoiy hayotga kirishishi, ya’ni ijtimoiylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Ong insonga o‘z «men»ini anglashga, sotsial jarayonlarda o‘z o‘rnini egallahashga, har qanday vaziyatlarda o‘z-o‘ziga baho berish, o‘z-o‘zini boshqarishda, voqelikni har taraflama idrok etishiga yordam beradi

Ong sotsial munosabat va faoliyatning natijasi sifatida individ ijtimoiylashuv jarayonini shakllantiradi. Shuningdek, insonga o‘z ehtiyoj va manfaatlarini yanada samarali qondirish yo‘llarini topishga, hayotda to‘plangan tajribalarni jamlashga, yig‘ilgan axborotlarni boshqa kishilarga berishga hamda keljakning ideal qiyofasini yaratishga imkon beradi.

Shaxsning *madaniyati* uning faoliyati jarayonida amal qiladigan sotsial norma va qadriyatlarni majmuasini ifodalaydi. Madaniyat tarixiy bosqichlarda sotsial guruhlarning harakatlari natijasida faoliyat jarayonida shakllanadi. Uning o‘ziga xos xususiyati aynan obyektga tegishligidir, ya’ni har bir jamiyat o‘z madaniyatiga ega bo‘lishidir. Uning asosini norma va qadriyatlarni tashkil qiladi.

*Faoliyat* subyektning obyektga maqsadli ta’siridir. U doimo subyekt faolligi bilan bog‘liqidir. Shu bilan birga, ular shaxsning ehtiyoj va manfaatlari orqali baholanadi hamda unda qoniqish hissini paydo qiladi. Qoniqmaslik sharoitlarni o‘zgartirishga, ularni o‘z manfaat va ehtiyojlariga moslashtirishga intilayotgan shaxs faoliyatini belgilaydi. Faoliyat, ham obyektiv, ham subyektiv xarakter kasb etadi. Obyektiv o‘zida maqsadlar majmuasini, ijtimoiy taraqqiyot ehtiyoj va manfaatlarini ifodalaydi. Ular sotsial jamoalar tomonidan amalga oshiriladi. Subyektiv xarakteri shaxs manfaatlari va maqsadlari majmuasidir. Qadriyatlarni anglash va o‘zlashtirish shaxs ehtiyojlarining oliy darajasidir. Qadriyatli yo‘nalish faoliyat shartini shakllantiradi, natijada uning sotsial harakati yo‘nalishlarini belgilaydi.

Inson intiladigan qadriyatlar, ko‘pincha unga shunchalik qadrlik, u uchun inson har qanday qarshilikka qarshi kurashishi mumkin. Bunday qadriyat-larga erkinlik, tenglik, haqiqat va boshqalar misol bo‘ladi. Ular o‘z navbatida ham shaxsi, ham ijtimoiy hayotda haqiqiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, ma’lum jamiyatda qabul qilingan norma va qadriyatlar asosida yuzaga kelgan shaxsiy munosabatlar sotsial munosabatlarni yuzaga keltiradi. Sotsial munosabatlarning shaxslararo munosabatda yuzaga kelishi jamiyatdagi barcha tizimlarning shakllanishi va ularni rivojlanib borishini ta’minlaydi. Shaxs sotsial munosabatlarni subyekti sifatida uning asosiy xarakterli xususiyatini belgilaydi. Shu sababli jamiyatdagi munosabatlar individual va sotsial munosabatda farqlanadi. Individual munosabat aynan shaxsning jamiyatdagi barcha sotsial munosabatlarga nisbatan shakllangan qarashlarini asosini tashkil qiladi.

Sotsiologiya tarixida o‘zining metodologik tuzilishi jihatidan farq qiluvchi shaxs to‘g‘risidagi nazariyalar ishlab chiqilgan. CH. Kuli, R. Darendrof, R. Minton, R. Mertonlarning shaxs roli haqidagi nazariyasi va boshqalar shular jumlasidandir.

Amerikalik Dj. Mid va R. Mintonlar tomonidan asos solingen hamda keyinchalik R. Merton va T. Parsons, G‘arbiy olmoniyalik sotsiolog R. Darendroflar tomonidan yanada rivojlantirilgan sotsiologiyada shaxsning «sotsial mavqe» va «sotsial roli» nazariyasi o‘z o‘rniga ega. Bu nazariya-ga ko‘ra, har bir inson muayyan sotsial tizimda bir nechta o‘rinni egallashi mumkin. Uning har bir egallagan o‘rni *sotsial mavqe* (status) deb ataladi. Demak, shaxs o‘z hayoti faoliyatida egallagan o‘rniga qarab bir nechta sotsial mavqega ega bo‘ladi. Binobarin, bu o‘rinlardan biri – uning asosiy mavqeini belgilaydi. Bosh mavqe shaxsning egallab turgan mansabi bilan izohlanadi. Sotsial mavqe shaxslarning huquq va majburiyatlarini ifodaydi. Insonlarning o‘zaro hamkorligi va bajaradigan vazifalarining mazmunini ularning mazkur tashkilotlarda egallab turgan sotsial mavqelari aniqlab beradi. Shaxsning sotsial roli nazariyasida belgilangan va erishilgan sotsial mavqelar o‘zaro farq qiladi. Belgilangan mavqe – shaxsning xizmati va xatti-harakatlaridan qat‘i nazar jamiyat tomonidan aniqlab qo‘yilgan bo‘ladi. Shaxsning etnik kelib chiqishi, tug‘ilgan joyi, oilasi, zoti va boshqalar shular jumlasidandir. Erishilgan mavqelar deganda, shaxsning o‘z xatti-harakati, qobiliyati bilan erishgan mavqeい tushuniladi.

Belgilangan va erishilgan sotsial mavqelarni tadqiqotchi M. Yang chuqr tahlil qilgan bo‘lib, u shunday yozadi: «Malika – bu belgilab qo‘yilgan mavqe. Shohona merosga ega bo‘lgan qiz hech narsa qilmasa-da, u kelajakda malikadir. U malika bo‘lib tug‘ilgan. U kelajakda kelishgan, xushbichim yoki beso‘naqay, bo‘yi baland yoki past, aqlli yoki aqlsiz

bo‘ladimi, bari bir u malika bo‘lib qolaveradi. Erkak bo‘lish – tug‘ilish bilan bog‘liq belgilangan mavqe, lekin er bo‘lish – erishiladigan mavqedir, u erkakning kelajakdagi xulq-atvori bilan bog‘liq xolda kelib chiqadi. Qora tanlilik – belgilangan mavqe, lekin politsiya xodimi bo‘lish – erishiladigan mavqedir. Hech kim politsiyachi bo‘lib tug‘ilmaydi. Erishiladigan mavqe-ga har bir individning iqtidori, to‘g‘ri tanlov va faolligi orqali erishiladi»<sup>1</sup>.

An’anaviy jamoalarda esa mavqelar ko‘p holda belgilangan bo‘ladi va shaxsning oldindan kim bo‘lishi, jamiyatdagi o‘rni tug‘ilishi bilan ma’lum bo‘ladi. Erkak tug‘ilishi bilan ovchi, baliqchi yoki harbiy bo‘lishga tayyor-garlik ko‘radi. Hozir ishlab chiqarish korxonalari rivojlangan davrda shaxsning qaysi kasbni tanlab olish erkinligi keng va teng hamda ularga har taraflama imkoniyatlar yaratib berilgan.

Belgilangan va erishilgan mavqelar bir-biridan tubdan farq qiladi. Shu bilan birga, ular kesishadi va o‘zaro munosabatda ham bo‘ladi. Masalan, ayollarga nisbatan, erkaklar uchun prezident yoki vazir bo‘lish osonroqdir.

Sotsiologiyada kishilarning konkret harakatlari jamlanmasi «sotsial rol» atamasi bilan ifodalanadi. *Sotsial rol* shaxsning sotsial tizimda egallagan mavqeい bilan bajariladigan faoliyati majmuini bildiradi. Masalan, shifokor bemorlarni davolash, o‘qituvchi o‘quvchilarga bilim va tarbiya berish, quruvchi bino va inshoatlarni qurish va hokazo. Agar shaxs ba’zi sabab-larga ko‘ra egallagan mavqeい bo‘yicha xalqning ishonchini oqlamaydigan va kutgan natijalarini bermaydigan bo‘lsa, u holda unday shaxslarga nisbatan sanksiyalar qo‘llaniladi. Masalan, rahbar egallagan lavozimidan ozod etiladi, ota-onalar ota-onalik huquqidan mahrum bo‘ladi va hokazo.

Sotsial rol ikkita mezonga javob berishi lozim. Birinchisi, funksional maqsadga muvofiqlik, ikkinchisi esa kishilarning ijtimoiy madaniyatdan kutayotgan natijalariga mos kelishi. Bu ikkala mezon bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq. Ma’lum holatlarda ularning biri belgilovchi rolni bajarishi, ba’zida ikkalasi ham bir xil ahamiyat kasb etishi mumkin. Masalan, konstitutsion monarxiya tuzumida qirolning roli ijtimoiy mada-niyat nuqtai nazardan baholanadi. Lekin amaldagi boshqaruva jarayonida uning mavqeい unchalik baland emas. Hozirgi mustaqil O‘zbekiston sharoitida ichki ishlar organlari xodimlarining roli aksincha, funksional vazifani maqsadga muvofiқ bajarish zaruriyati jihatidan ahamiyatlidir. Bugungi kunda O‘zbekistonda Prezidentning rolini har ikkala mezon bo‘yicha bir xil muhimligini ko‘rish mumkin.

---

<sup>1</sup> Rabbiej, Horwitz M. The arousal of ingroup – outgroup bias by chance win or loss // S.Sociol Psychol. 1969. col. 13.

Insonning xulqi va xatti-harakatlari jamiyatda va uning tarkibiy tuzulmalarida qabul qilgan sotsial normalar orqali boshqariladi. Bular na-faqat jamiyatda qabul qilingan qonunlar, an'analar, balki maxsus normativ topshiriqlar, aytaylik, u yoki bu sotsial tizimda qayd qilingan nizomlarda, buyruqlarda ifodalangan bo'lishi mumkin.

Shaxs jamiyatda ma'lum bir ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Har qanday shaxs ijtimoiy amaliyat tizimiga mos keladigan u yoki bu ijtimoiy faoliyat turini amalga oshirishdagi ma'lum harakatlari bilan tavsiflanadi. Shaxsning ishlab chiqarish, sotsial, siyosiy va ma'naviy sohalardagi harakatlari yig'indisi – ijtimoiy funksiyasini tashkil qiladi. Shaxsning u yoki bu ijtimoiy funksiyalarni amalga oshirishi uning hayot tajribalarini amaliy yoki nazariy jihatdan o'zlashtirganligiga bog'liqdir. Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy funksiyasi jamoat xavfsizligini ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va odamlarning ehtiyojlari to'g'ri qondirilishini ta'minlashdir. Shaxsning u yoki bu ijtimoiy funksiyalarni bajarishi jamoatchilik fikri bilan baholanadi.

Shaxsning ijtimoiy funksiyasi va ijtimoiy faoliyat shakli jamiyat tuzilishini belgilab beradigan ishlab chiqarish usulining xarakteriga be-vosita bog'liqdir. Shuning uchun ham ba'zi tarixiy sharoitlarda shaxsni asoratga solish va bo'ysundirishga olib kelsa, boshqalarida esa erkin rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi.

Shaxs ijtimoiy funksiyani bajaruvchi sifatida ijtimoiy taraqqiyotning subyekti bo'lib hisoblanadi. Jamiyat harakati shaxslar tomonidan ma'lum ijtimoiy funksiyalarni hamda ijtimoiy harakatlarni bajarishlari natijasida amalga oshadi. Shaxsning subyektiv faoliyati ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirishi va aksincha, sekinlashtirishi ham mumkin. Shaxsning ijtimoiy harakatlari, obyektiv qonunlar va halq ommasining talablariga mos holda olib borilsa, ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtiradi.

Ta'kidlash joizki, har qanday erkin va demokratik jamiyatda ham shaxs mutlaq erkin bo'la olmaydi! Uning faoliyati har doim o'ziga bog'liq bo'lmagan ko'p omillar bilan uzviy bog'liq bo'ladi? Shaxsning ijtimoiy faolligini oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43-moddasi muhim ahamiyat kasb etadi. Unda «Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi», deb belgilab qo'yilgan.

Hozirgi paytda jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy va boshqa sohalarida vujudga kelayotgan yangi ijtimoiy munosabatlar tizimi va shaxsning turmush tarzidagi o'zgarishlarini hisobga olib borish hamda o'r ganish masalasi sotsiologiyada katta ahamiyat kasb etadi.

Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitning o‘zgarishi, bozor munosabatlariga o‘tish bilan mamlakatimizda shaxsning ijtimoiy turmushida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ularni o‘rganish, tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarish sotsiologiya fanining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Davlat organlari, jamoat tashkilotlari va mansabdor shaxslar, jumladan, ichki ishlar organlari xodimlarining vazifasi fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdir. Bu o‘rinda, ayniqsa, ichki ishlar organlari xodimlaridan har bir fuqaroning huquqlari qonun ustuvorligi asosida mustahkamlanishi hamda hech kim tomonidan buzish mumkin emasligiga ishonchni shakllantirish lozim!

Shaxsning shakllanishida sotsial va huquqiy normalarning o‘rni ham katta ahamiyat kasb etadi. Xatti-harakat va xulq-atvor, ularning norma va qoida odamlar ijtimoiy xatti-harakatlarining ma’lum sotsial yo‘nalishlarini belgilab berish bilan birga, jamiyatning yaxlit sotsial tizimi sifatida barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Sotsial xatti-harakat normalari tizimi tarkibi murakkab va ko‘p qirralidir. Uning tarkibiga huquqiy normalar, axloq, urf-odat, sotsial tashkilotlar va diniy normalar kiradi. Demak, bular shaxs xatti-harakatini boshqarishning normativ-huquqiy tizimini tashkil qiladi.

Sotsial normalarning quyidagi asosiy belgilari: imperativ (qat’iy buyruq tarzidagi) shaxsning har qanday jamiyatga qarshi xatti-harakati jamiyat tomonidan aks-ta’sirni yuzaga keltiradi; shaxs xatti-harakatini baholash va buyruq berish vaziyatlarining dialektik birligi; sotsial voqelikni aks ettirish hamda unga ta’sir etish (boshqarish funksiyalari)ni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Shaxsning shakllanishi va jamiyatning barqarorligida huquqiy normalar o‘z o‘rniga egadir. Huquq kishilar xatti-harakatlari boshqarilishining normativlarini jamiyat a’zolarining barchasi uchun majburiy ekanligini o‘zida ifoda etadi. Huquq normalarining boshqa axloqiy va an’anaviy normalardan farqli tomoni shundaki, ular aniq belgilangan rasmiy hujjalarda muqarrar ravishda qayd etilgan bo‘ladi.

Jamiyatda hamma vaqt ham alohida kishilar, guruhlarning harakatlari jamiyat uchun foydali bo‘lavermaydi! Shaxsiy manfaat bilan ijtimoiy farovonlik har doim bir-biriga mos kelavermaydi. Yuridik huquqlar kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish, ya’ni yaxshilashga yo‘naltirilgan bo‘lib, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni imkon boricha birlashtirishga harakat qiladi. Demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda jamiyatni davlat tomonidan huquqiy tartibga solish, shaxslar xatti-harakatini boshqarishning asosiy usulidir.

Kishilar xatti-harakatini huquqiy tartibga solishda ular tomonidan shaxsning huquqiy normalarga munosabatining ikkita darajasini ko‘rsatish mum-

kin. 1) *normalarni anglagan holda to‘g‘ri va zaruriy bajarilishi*; 2) *normalarni amaliyotga joriy etish o‘rniga, ularni bajarmaslik* nazarda tutiladi.

Ikkinchchi holat davlat tomonidan huquqiy jihatdan majbur etishni qo‘llashga olib keladi. U yoki bu xatti-harakatni huquqiy tartibga solishning asosiy sharti fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarining to‘g‘ri va o‘z vaqtida qondirilishini ta’minlashdir.

### **3-§. Huquqiy ijtimoiylashuv ichki ishlar organlari xodimlari shaxsini shakllantirishning muhim omili**

*Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi* – ijtimoiylashuv jarayonining ajralmas tarkibiy qismini tashkil qilib, uning hayoti faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Inson hayoti tabiiy va pozitiv (insonlar tarafidan yaratilgan) qonunlarga bo‘ysunadi. Kishilarning xatti-harakatlarini imkon darajada belgilab beradigan qonunlar, huquqiy bilim va tajribalarni o‘zlashtirish, zarur sotsial malakalarni asta-sekinlik bilan egallash, o‘z huquqlarini anglab borish va ularga amal qilish, kishilar o‘rtasidagi murakkab munosabatlар va sotsial institutlar bilan bo‘ladigan munosabatlarni anglab, tushunib borish jarayonlari huquqiy ijtimoiylashuv deyiladi. Demak, huquqiy ijtimoiylashuv – huquqiy jihatdan himoya qilinadigan qadriyatlarning shaxs qadriyatlari normasiga qo‘shilib borishidir.

Huquqiy ijtimoiylashuv jarayoni quyidagi jihatlarni: *birinchidan*, yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan vaziyatlarga baho berish mezonlarini o‘zlashtirish; *ikkinchidan*, kishining o‘ziga hamda butun jamiyatga daxldor bo‘lgan qonun va qoidalarini bilib borishi; *uchinchidan*, bu qonun va qoidalardan qanday darajada foydalanish lozimligini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Inson jamiyatda o‘rnatilgan qonun va qoidalarni faqat tushunibgina qolmay, balki mana shu qonunlar uning o‘ziga ham daxldor ekanligi, bu qonunlar orqali nimalarga ruxsat etiladi-yu, nimalarga ruxsat etilmasligi, agar qonunlarga itoat qilmasa, qanday jazolar belgilanishi va qanday qonunlar orqali o‘zini himoya qilishi mumkinligini bilib boradi.

Huquqiy ijtimoiylashuv shaxsning turli ijtimoiy guruhlarda o‘zining sotsial rollarini tushunib va takomillashtirib borishi bilan bog‘liqdir. Shaxs jamiyatda kishilar bilan ijtimoiy munosabatga kirishganida har xil rasmiy va norasmiy rollarni bajaradi. Shaxsning rasmiy rollari jamiyatdagi qonun va qonun osti hujjatlarida belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, norasmiy rollar bundan mustasno bo‘ladi. Huquqiy ijtimoiylashuv jarayonini o‘rganishda asosiy e’tibor rasmiy rollarga qaratiladi.

Huquqiy ijtimoiylashuv shaxs ijtimoiylashuvining boshqa turlaridan quyidagi jihatlari bilan: ya’ni *birinchidan*, o‘zining aniqligi; *ikkinchidan*,

oldindan belgilab quyilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilganligi; *uchinchidan*, harakatlar mazmuni va mohiyatining aniqligi bilan ajralib turadi. Bajarilishi lozim bo‘lgan rollar oldindan ma’lum qonun va qoidalar asosida belgilab quyiladi. Uzoq vaqt davomida saqlanib qoladigan barqaror ijtimoiy munosabatlar o‘ziga xos huquqiy munosabatlarni vujudga kelтирди. Natijada har xil kasb bilan shug‘ullanuvchi sotsial guruh vakillari o‘zlarining qonunlarda belgilab quyilgan majburiyatları to‘g‘risida bir butun tasavvurga ega bo‘ladilar. Qonunlar shaxsning u yoki bu guruhdagi rasmiy maqomini belgilab beradi.

Inson o‘zining kasbiy faoliyati yoki lavozimini o‘zgartirganda, bir sotsial-demografik guruhdan boshqasiga o‘tganda (balog‘atga yetishi, turmush qurishi, pensiya yoshiga yetishi va boshqa holatlarda) mazkur tizimda qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan huquq va majburiyatlarning ijrochisiga aylanadi.

Kishilar o‘rtasidagi o‘zaro huquqiy munosabatlar, ularning kundalik turmushdagi munosabatlari, ya’ni aloqalaridan ajralgan holda boshqacha tarzda uchrashi mumkin. Ular urf-odat va axloqiy normalar bilan birgalikda keladi. Ko‘p hollarda bu munosabatlarga ularni boshqa guruhlardan ajratib turadigan kichik guruhlardagi o‘zaro munosabat usullari ham ta’sir etishi mumkin. Shuningdek, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi jarayoniga jamoani boshqarish turi katta rol o‘ynaydi hamda guruh boshqaruvchisi ning shaxs sifatida psixologik, individual xususiyatlari bevosita unga ta’sir etadi. Bu va boshqa omillar mazkur jamoada mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantiradi. Ba’zi hollarda guruh ichida qonunlarda belgilab qo‘yilgan talablarga zid bo‘lgan o‘zaro munosabatlar turi hamda noqonuniy va hatto kriminal munosabatlar ham yuzaga kelishi mumkin. Tabiiyki, bunday normalardan og‘ish g‘arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun, avvalo guruh manfaati, qolaversa boshqaruvdagi rahbar shaxs manfaatlari uchun amalga oshiriladi. Bunday holatlar sobiq sovet tuzumidan keyin o‘tish davrida o‘z kuchini yo‘qotgan ayrim eski qonunlar ommaviy ravishda deyarli rad etilib, yangi qonunlar hali unchalik shakllanib bo‘lmaganligi uchun keng tarqaldi. Alohida korxona va tashkilotlarga mustaqil xo‘jalik yuritish imkoniyatlarining berilishi hamda davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlari ba’zi rahbar shaxslarga davlat mulkini noqonuniy o‘zlashtirishga asos yaratib berdi!?

Mustaqillikka erishilgandan so‘ng, tarixiy vaziyat shuni ko‘rsatdiki, shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining eski qolipdagi ko‘rinishlari o‘zini oqlamadi, yangilari esa hali ishlab chiqarilmaganligi sababli, shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi jarayonida ham qonun va qonunchilik hujjatlariga ishonch-

ning muayyan darajada yo‘qolishiga hamda uning obro‘sizlanishiga olib keladi?! Sotsiologiyada bu sotsial anomiya nazariyasi, deb yuritiladi. Sotsial anomiya nazariyasi jamiyatda shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi tuzilishining bir butun xolda amalga oshirilayotgan jarayonlar bilan bog‘liq ekanligini tushunishga yordam beradi. Ya’ni, jamiyatdagi sotsial normalar hamda hayot qadriyatlari yo‘nalishlari shaxsning hayot faoliyati uchun ilg‘or yo‘nalish va qadriyatlarga aylangandagina, shaxsda muayyan ong va xattiharakatlar shakllanadi. Natijada u mazkur tarixiy sharoitda jamiyat uchun nima yaxshi-yu, nima yomon, nima foydali-yu, nima foydasiz ekanligi bilan hisoblashadi. Bu esa o‘z navbatida shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining fundamental asosiga aylanadi.

Barkamol avlod turli xil ijtimoiy munosabatlar tizimi va ma’lum sotsial guruhlar ta’sirida ulg‘ayib borar ekan, jamiyatning sotsial-siyosiy, madaniy, huquqiy, iqtisodiy tuzilishini tashkil qiluvchi qadriyatlar bilan munosabatda bo‘ladi hamda moslashib boradi. Ular negizida qonuniylashgan sotsial-psixologik va axloqiy normalar yotadi. Shuning uchun ijtimoiy va huquqiy munosabatlar ijtimoiylashayotgan shaxs tomonidan tabiiy va odatiy zarurat sifatida baholanadi.

Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi, avvalambor mehnat jamoalari, kichik guruhlar va alohida sotsial institutlar bilan barqaror munosabatlar natijasiga ko‘ra, tarixan tarkib topgan siyosiy tuzum ostida shakllanadi. Ular ko‘p hollarda qonun kuchi bilan mustahkamlanadi. Shaxs tomonidan barqaror va o‘zaro huquqiy munosabatlarning o‘zlashtirib borilishi, ularning jamiyat va hokimiyat ishlarida ishtirok etishini kafolatlaydi. O‘z navbatida, jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy-siyosiy qonunlar va sotsial normalarga rioya qiladigan shaxslar jamiyatdagi mavjud siyosiy tuzumning barqarorligiga ishonch hosil qilib, uning asosini tashkil qilishadi.

Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, u o‘ziga ta’sir etuvchi *bevosita* va *bilvosita* omillarga ham bog‘liqdir. Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi *bevosita* omillarga birinchi navbatda ta’lim tizimi orqali maqsadga yo‘naltirilgan huquqiy munosabatlarni o‘zlashtirish hamda huquqiy madaniyatni uzluksiz targ‘ib va tashviq qilish kiradi. Bularning to‘rtta turini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Huquqiy ijtimoiylashuvning *birinchi turiga* huquqiy ta’lim va tashviqot kiradi. Huquqiy ta’lim boshqa ta’lim yo‘nalishi singari uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, tarbiya usullari va pedagogika va psixologiya fanlarining barcha imkoniyatlaridan foydalangan holda uzluksiz ravishda amalga oshiriladi. Huquqiy tashviqot ommaviy ma’ruzalar o‘qish, plakatlardan foydalanish, reklama hamda OAV orqali amalga oshirib

boriladi. Zaruriy ashyolar puxta ishlab chiqilishi va ravon tilda yozilishi hamda estetik jihatdan o‘ziga tortadigan bo‘lishi lozim. Bu vazifalarning barchasi huquqiy munosabatlarni shakllantirish va targ‘ib qilish bilan shug‘ullanadigan sotsial va yuridik institutlarning zimmasiga yuklatiladi.

Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining *ikkinchı turiga* kishilarning qonunlarda belgilab qo‘yilgan huquqlarni himoya qilish uchun qonunchilik organlariga murojaat qilib, uning natijasidan imkon boricha qoniqish hosil qilishlarini kiritish mumkin.

Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining *uchinchı turiga* qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarining ochiq-oydinligi va legitimligi hamda barcha yuridik institutlar va davlat organlarining mana shu qonunlarga qat’i itoat etishini kiritish joizdir. Har qanday qaror sharoitga qarab tayyorlanishi bosqichida har bir shaxs va fuqaroga tushunarli bo‘lishi kerak. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, qabul qilinayotgan qaror yoki uning amalga oshirilishi mansabdor shaxsning individual xususiyatlari hamda kayfiyatları va g‘arazli manfaatlariga bog‘liq bo‘lmasligi lozim.

Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining *to‘rtinchı turiga* sotsial guruhlarining qadriyatlar, axloqiy normalar va urf-odatlariga yaqin bo‘lgan o‘zaro ishonch munosabatlari kiradi.

Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining *bilvosita* omillariga jamiyatda moddiy ishlab chiqarish va ma’naviy hamda madaniy sohalarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi kiradi. Jamiyatning sotsial turmush sohalari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan taqdirda, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etmasa-da, biroq davlat qonunchilik hujjatlariga ishonch hissini uyg‘otadi hamda uning xulq-atvoriga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turadigan konstitutsiyaviy qonunlar ham shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining bilvosita omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining nisbatan keng tarqalgan omillaridan biri – atrofdagilarning qonunlarning legitimligiga ijobiy yoki salbiy munosabatda bo‘lishidir.

Shunday qilib, shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi jamiyat huquqiy tizimi to‘g‘risidagi mexanik tarzdagi axborotlar yig‘indisidan iborat bo‘lib qolmay, mazmunan o‘ta murakkab jarayondir. U yuridik tashkilotlar faoliyatiga mas’uliyat va majburiyatlar hamda chuqr ilmiy nuqtai nazardan yondashishni talab qiladi.

*Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining obyektiv omillari.* Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining obyektiv omillariga aholi asosiy qismining turmush tarzi va farovonligi, jamiyatda olib borilayotgan siyosiy-huquqiy amaliyot, ya’ni joriy qonunlarning amaliyotga qanday darajada tatbiq etilishi va shu

qonunlarga fuqarolarning amal qilishi kiradi. Agar jamiyatda olib borilayotgan davlat siyosati huquqiy davlat qurishga yo‘naltirilgan bo‘lib, jamiyatda demokratik prinsiplar qaror topayotgan bo‘lsa, jamiyatning huquqiy tizimida umuman ijobjiy muhit shakllanadi. Bunday siyosat shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi jarayoniga shubhasiz ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Aks holda, jamiyat huquqiy tizimida qonunlarga munosabat salbiy bo‘ladi.

Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvida mafkuraviy tarbiya muhim rol o‘ynaydi. Faylasuf olim A. Ochilidiyevning ta’kidlashicha, «Mafkura shaxsnинг ijtimoiy tasavvurlari, bilimlari, qadriyatlar tizimi, hayotiy yo‘nalishlarining shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan mafkuraviy tarbiya, ya’ni shaxsning jamiyat hayoti, uning taraqqiyot qonunlari, kuza-tilayotgan hodisa, jarayonlarni nechog‘lik to‘g‘ri va aniq tushunishi, o‘rinli vaadolatli baholashi, qanday maqsadlarni ko‘zlab faoliyat olib borishi masalasi har doim hayotiy ahamiyatga ega bo‘lib qolaveradi.»<sup>1</sup> Mafkurasi bo‘lmagan va unga asoslangan tarbiya tizimini yaratmagan jamiyat umuman mavjud bo‘lmaydi.

*Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining subyektiv omillari.* Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining subyektiv omiliga birinchi navbatda shaxsning o‘zi kiradi. Shaxsning avvalo o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘zini inson sifatida shakllanishga yo‘naltirish shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi subyektiv omillarining asosiy belgilovchisi hisoblanadi. Ikkinchidan, ota-onalar, qarindoshlar-urug‘lar, yaqin tanishlar, jamoa a’zolari va boshqalar shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining muhim omillariga kiradi. Uchinchidan, jamiyatning yuridik institutlari va boshqa ta’lim-tarbiya muassasalari shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining alohida subyektiv omillarini tashkil qiladi. Sotsial institutlar esa shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining subyektiv omillari sifatida shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining aniq maqsadlari mazmuni, metodikasini belgilab beradi, ya’ni shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi uchun o‘z ehtiyojlarini qondirishga ko‘maklashadi.

Madaniyat yaxlit holda shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining obyektiv va subyektiv omillari sifatida namoyon bo‘ladi va shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi uning o‘z ichki dunyosida amalga oshadigan murakkab va bir butun jarayon bo‘lib, ichki ishlar organlari xodimlarining shaxsini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi jarayonida uning huquqiy ongi va madaniyati yuksalib boradi. Har bir ichki ishlar organlari xodimi yuksak darajada huquqiy ong va madaniyat sohibi

<sup>1</sup> Очилдиев А. С. Миллий тоя ва миллатлараро муносабатлар. – Т., 2004. – Б. 123.

bo‘lishlari lozim. Ular davlat manfaatlarini asrab-avaylash hamda huquqiy normalarga rioya qilgan holda o‘zлari xizmat ko‘rsatayotgan hududda yashovchi barcha fuqarolarning millati, jinsi, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar himoya qilishlari qat’iy tartibda belgilab qo‘yilgan.

Ma’lumki, hozirgi kunda huquqiy masalalarni keng tushunib, chuqur tahlil qiladigan, amaliyatga tatbiq eta oladigan mutaxassislar jamiyatimiz uchun juda zarur. Ta’kidlash joizki, bunday sermashaqqat ravishda chuqur huquqiy bilimga ega bo‘lish, chidam, iroda, halollik talab qiluvchi faoliyatni amalga oshirish ichki ishlar organlari xodimlaridan yuksak mas’uliyat va sabr-toqat talab qiladi.

O‘z navbatida Birinchi Prezident Islom Karimov ichki ishlar organlari xodimlariga yuqori darajada ishonch bildirib, «*Bugungi kunda ichki ishlar idoralari saflarida Vatanimiz manfaatlariga sadoqatli, munosib o‘g‘il-qizlarimiz xalqimizning tinch va osoyishta hayotini asrash yo‘lida murakkab vazifalarni ado etib kelmoqda*»<sup>1</sup> degan edi. Albatta, ichki ishlar organlari xodimlariga bunday e’tibor va munosabat ularda o‘z kasbidan faxrlanish hissini uyg‘otadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining shaxsini shakllantirish – yetuk huquqshunos mutaxassislarni tayyorlash vazifasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ular huquq normalarini targ‘ib qilishlari, jinoyatlarning oldini olishlari va jamiyatimiz barcha fuqarolarining manfaatlarini har taraflama muhofaza qilishlari zarur. Shuning uchun ham ularning huquqiy bilimlarini oshirish, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu munosabat bilan bugungi kunda IIV oliy harbiy ta’lim muassasalari xususan, Akademiyada tahsil olayotgan tinglovchilarga jismonan baquvvat va ma’nан yetuk mutaxassis bo‘lib yetishish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Akademiyada o‘qitilayotgan huquqiy fanlar tinglovchilarning sohadagi chuqur huquqiy bilimlarini, huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati fani esa ularning xulqatvori, axloqi, estetik bilim va mahoratini shakllantirib borsa, falsafa, sotsiologiya, ma’naviyat asoslari, madaniyatshunoslik va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar ularning dunyoqarashi, ma’naviyatini boyitadi. Chunki ichki ishlar organlarida xizmat qiladigan har bir xodim keng falsafiy mushohada qila oluvchi, estetik jihatdan go‘zal, ma’naviyati boy, ma’rifatli, yetuk va barkamol inson bo‘lishi kerak.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар идоралари ходимларига байрам табриги // Постда. – 2007. – 25 окт.

Hozirgi paytda ichki ishlar organlari xodimlarida eng avvalo yuksak ma’naviyat, vatanparvarlik, milliy g‘urur, o‘z kasbiga sadoqat va shu kabi boshqa fazilatlarni shakllantirish har qachongidanda muhim va dolzarb bo‘lib qolmoqda. Agar ichki ishlar idoralari xodimi yaxshi mutaxassis bo‘lsa-yu, unda vatanparvarlik, milliy g‘urur va o‘z kasbiga sadoqat singari inson uchun ahamiyatga ega fazilatlar bo‘lmasa, bunday xodimlar bilan biz oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erisha olmaymiz. Shuning uchun ham tinglovchi va kursantlarimizda vatanparvarlik, milliy g‘urur, o‘z kasbiga sadoqat kabi tuyg‘ularni shakllantirish muhimdir. Ichki ishlar organlari xodimlarini Vatanga muhabbat ruhida, ota-bobolarimizning jasoratidan ibrat olib, ona yurtimizni asrab-avaylash e’tiqodi bilan yashashga, dunyoda yuz berayotgan voqeа-hodisalarga beparvo va loqayd bo‘lmaslikka, xalq va Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashashga, Vatanni himoya qilish, sadoqatli, adolatli, halol bo‘lish, xalqiga xizmat qilish ruhida tarbiyalash oldimizda turgan eng dolzarb vazifalardandir.

Ular xalq bilan muloqotda pedagogik va psixologik xislatlarini namoyon qila bilishlari lozim. Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday qayd qilgan edi: «ichki ishlar idoralari safida xizmat qilayotgan xodimning qaddi qomati kelishgan, chehrasi yorug‘, istarasi issiq, ozoda va tartibli kiyingan hamda boshqalarga o‘rnak bo‘ladigan darajada intizomli bo‘lishi kerak, shuningdek, xalqning osoyishtaligini ta’minalashda o‘z kasbiga mehr qo‘yib, vijdonan xizmat qilishlari, xalqimiz esa o‘zlarining shunday posbonlari va himoyachilarini borligiga ishonib faxrlanib yurishlari lozim».

2016-yil 16-sentabrda «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Bu Qonunni o‘rganish va uni joriy qilishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarini ham mukammal bilish IIO xodimlari, tinglovchilar va kursantlarining muhim vazifalariga aylanmog‘i kerak. Darvoqe, IIO xodimlarining yuksak burchi, mas’uliyati va majburiyati – ularning fidoyiligi, ona Vatanga sadoqati, xalqini e’zozlashda namoyon bo‘laveradi.

### **Tayanch tushunchalar**

Individ, inson va shaxs, sotsial aloqalar tizimida shaxs, shaxs shakllanishida tabiiy-biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning ijtimoiylashuvi va unga ta’sir etuvchi omillar, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi, shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining obyektiv va subyektiv omillari, belgilangan va erishilgan mavqelar, sotsial anomiya nazariyasi, Ichki ishlar idoralari xodimlarini shaxsini shakllantirish masalalari, Ichki ishlar organlari

xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati, O‘zbekistonda shaxs shakllanishida yaratilgan imkoniyatlar.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Sotsiologiya fanining shaxsni o‘rganishda boshqa ijtimoiy-huquqiy fanlardan farqi nimada?
2. Shaxs deb kimga aytish mumkin?
3. Individ, inson va shaxsning farqlari haqida tushuntirib bering.
4. Shaxsga xos belgilar nimalarda namoyon bo‘ladi?
5. Amerikalik Dj. Mid va R. Mintonlar tomonidan asos solingan sotsiologiyada shaxsning roli nazariyasining ahamiyati nimada?
6. Belgilangan va erishilgan sotsial mavqelar deganda nimani tushunasiz?
7. Shaxsning shakllanishida biologik omillarning roli to‘g‘risida so‘zlab bering.
8. Shaxsning shakllanishidagi ijtimoiy omillarning ta’siri haqida bayon qiling.
9. Shaxs ijtimoiylashuvi deganda nimani tushunasiz?
10. Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi haqida fikringizni bildiring.
11. Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvining obyektiv omillarini sanab bering.
12. Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvining subyektini nima tashkil qiladi.
13. Sotsial anomiya nazariyasi asoschisi kim?
14. Sotsial anomiya nazariyasi nima?
15. Ichki ishlar organlari xodimi qanday shaxs bo‘lishi kerak, fikringizni bildiring.

## IX BOB. DEVIANT XULQ-ATVOR SOTSIOLOGIYASI

### 1-§. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining shakllanishi

*Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi* – umumsotsiologiyaning oila sotsiologiyasi, din sotsiologiyasi, yoshlar sotsiologiyasi, shahar va qishloq sotsiologiyasi, ma’naviyat sotsiologiyasi, huquq sotsiologiyasi kabi va boshqa tarkibiy qismlaridan birini tashkil qiladi. Deviasiya (lotincha deviatio – og‘ish) shaxs xulqining jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy normalardan og‘ishini anglatadi. Deviant og‘uvchi xulq deb, kishining xatti-harakati, faoliyat turi odatiy, umum e’tirof etilgan me’yorlardan farq qiladigan yoki a’zosi bo‘lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy normalarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me’yorlaridan og‘ishida namoyon bo‘ladigan axloqqa aytildi. Shaxsning deviant axloqini jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy normalarga zidligi hamda ruhiy jarayonlarning muvozanatsizligi, moslashuvchan emasligi ko‘rinishida yoki uning shaxsiy axloqi ustidan axloqiy va estetik nazoratdan bo‘yin tov lash ko‘rinishida o‘zini faollashtirish jarayonlarining buzilishida namoyon bo‘luvchi alohida qilmishlar yoki qilmishlar tizimi sifatida belgilash mumkin.

Deviant xulq-atvor muammosini sotsiologiya fani doirasida dastlab E. Dyurkgeym maxsus o‘rgangan bo‘lsa-da, jamiyatning eng qadimiy muammolaridan biri sifatida deviant holatlarga munosabatlar uzoq davrlardan shakllanib kelgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan, Misr, Hindiston va Xitoy diniy qonun-qoidalalaridagi axloqiy me’yorlar bu sohadagi dastlabki qarashlardan bo‘lgan. Qadimgi Yunon va Rim faylasuflari ham o‘z asarlarida mazkur muammolarni tahlil qilishgan.

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesta» ham o‘ziga xos axloqiy normalarni mujassam etgan beba ho qadriyatlar tizimidir. O‘rta asrlarda axloq normalari diniy qarashlar ta’siri ostida rivojlandi hamda ulardan chekinish nisbatan diniy nuqtai nazardan baholangan. Yevropada xristian dini barcha sohada hukmronlik qilgan bo‘lsa, Sharq dunyosida axloqiy-huquqiy normalar va ular haqidagi ta’limotlar – islom dini falsafasi ta’sirida rivojlandi.

XVIII–XIX asrlarga kelib, Yevropada jamiyat rivojining kuchayishi axloq normalarining xristiancha talablari doirasiga sig‘may qoldi. XVIII asr mutafakkirlari ijtimoiy norma va undan chekinish muammosini yanada chuqurroq tahlil qildilar. SH. L. Monteskyo, J. J. Russo, CH. Bekkaria, B. S. Gelvetsiy, D. Didro, P. Golbax, Morelli va SH. Furyelar o‘z ilmiy

izlanishlarida ijtimoiy normalar hamda qadriyatlar uchun umumiyl bo‘lgan qonuniyatlarni topishga intildilar.

XIX asr oxirlarida tabiiy fanlarda erishilgan ilmiy yutuqlar ijtimoiy-gumanitar fanlar taraqqiyotiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Xususan, sotsiologiyada ijtimoiy normadan og‘ish holatlarini tushuntiruvchi dastlabki ta’limot – E. Dyurkgeymning «anomiya» g‘oyasi yaratildi. Anomiya – ijtimoiy normalarning individ xulq-atvorini belgilay olmaydigan vaziyatini anglatadi. Keng ma’noda talqin etadigan bo‘lsak, anomiya fransuzcha so‘z bo‘lib, individual va ijtimoiy ongning shunday holatiki, bunda butun jamiyat, uning ijtimoiy institatlari inqirozga uchrab, sotsial maqsadlar va ularni amalga oshirish o‘rtasida ziddiyatlar vujudga kelganda qadriyatlar tizimi parchalanib ketadi. Ma’lumki, sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishida ijtimoiy patologiya omiliga e’tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada E. Dyurkgeymning to‘rtta asari chop etilgan bo‘lib, shulardan biri «O‘z joniga qasd qilish» (1897-y.) kitobi deviantlik muammosiga bag‘ishlangan.

Amerika sotsiologiyasida muhim o‘rin tutuvchi ta’limotlardan biri E. Saterlendning differensial aloqalar ta’limotidir. Bunga ko‘ra, har qanday xulq-atvor, shu jumladan, deviant xulq-atvor ham o‘rganiladi. Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R. Merton ishlab chiqqan ta’limot sotsiologiyada yetakchi o‘rin tutadi. E. Dyurkgeymning anomiya g‘oyasini rivojlantirib, Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta’rif beradi: «Deviant xulq-atvor jamiyatda e’lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir»<sup>1</sup>.

Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining rivojlanish davri, asosan XIX va XX asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda G‘arbiy Yevropa va AQSHda CH. Lombrozo, A. Kettle, U. Sheldon, Z. Freyd, E. Erikson, E. Fromm, E. Dyurkgeym, R. Merton, A. Koen, E. Saterlend, G. Bekker va boshqa olimlar tomonidan antropologik, biologik, psixologik va sotsiologik nazariyalar vujudga keldi hamda shaxsning og‘ish holatlari sabablarini o‘rganish maqsadida empirik tadqiqotlar olib borildi.

XIX asr oxirlari va XX bo‘sag‘asida deviant xulq-atvor sotsiologiyasi dunyo miqyosida nazariy-metodologik jihatdan keng o‘rganila boshlandi. Deviatsiya, shaxs og‘ish holatlarini sotsiologiya fanidan tashqari falsafa, psixologiya, antropologiya, psixiatriya, davlat va huquq nazariyasi, kriminologiya kabi bir qancha fanlar ham o‘rganadi. Chunki u turli xil ko‘rinish-

---

<sup>1</sup> Мертон Р. Явные и латентные функции/ Американская соиологическая мысль. – М., 1994. – С. 87.

larda mavjud bo‘ladi va vujudga kelish sabablari ham xima-xildir. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi asosan G‘arb mamlakatlarda kriminologiya fani ta’sirida rivojlandi. Uning rivojlanishida o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan kriminalist va sotsiolog olimlari E. Ferri, Frans fon List, A. Prins, E. Krechmer, F. Zak, S. Kvensel, E. Saterlend, G. Shnayder, G. Xess, S. Sherer, Dj. Kar, Ye. Gud, E. Shur, Dj. Shelli, G. Lezyer, E. Karmen, R. Parker, A. Terk, S. Koen, R. Kuinni, N. Shover, M. Layne va boshqalarning asarlari muhim rol o‘ynadi. Ular kriminologiyani jinoyatchilik sotsiologiyasi sifatida tahlil qiladi. Jinoyatchilik sotsial hodisa sifatida jamiyatdagi boshqa sotsial hodisa va jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqlik va aloqada bo‘lib, sotsiologik o‘rganishni talab qiladi. Ularning fikricha, jinoyatchilik ontologik hodisa bo‘lmasdan, balki jamiyatning ichki tuzilishidan va undagi o‘rnatilgan tartib, qonun va qoidalarga kishilarning munosabatlari natijasida kelib chiqadigan sotsial hodisadir<sup>1</sup>. Jinoyatchilikni bunday talqin etishning sababi shundaki, g‘arbliklar asosan amerikalik mutaxassislar kriminologiyani sotsiologik fan sifatida e’tirof etishadi. Rossiyyada, jumladan O‘zbekistonda jinoyatchilikni o‘rganuvchi kriminologiya fani an’anaviy tarzda yuridik fanlar tarkibiga kiradi.

Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining shakllanishi va rivojlanishida g‘arbiy Yevropalik va Shimoliy amerikalik kriminalist olimlari qatori, rossiyalik kriminalist va sotsioglarning g‘oyaviy-nazariy va metodologik tadqiqotlari muhim rol o‘ynadi. Jumladan, I. Ya. Foynitskiy va P. A. Sorokin asarlarida deviant xulq-atvor sotsiologiyasining kriminologik va sotsiologik jihatlari ochib berilgan.

Shaxsning og‘ish holatlari va kriminologiyaga sotsiologik yonda-shuvlar rossiyalik yetakchi kriminalist olimlar V. Luneyev va Ya. Gilinskiy-larning asarlarida ham rivojlantirildi. V. Luneyev sobiq sovet tuzumi davridayoq og‘ish holatlarini qamrab olgan «jinoyatchilik sotsiologiya»sini kriminologiyaning tarkibi sifatida tadqiq qilib kelgan. Sobiq sovet tuzumi davrida huquq sotsiologiyasi tarkibida deviant xulq-atvor sotsiologiyasi shakllana bordi. Bu tuzum buyruqbozlikka asoslangan totalitar tuzumligidan deviant xulq-atvor sotsiologiyasiga ham bir tomonlama yondashuvlar bo‘ldi.

Hozirgi paytda sotsiologiya fanining tarkibiy qismi bo‘lgan deviant xulq-atvor sotsiologiyasi predmeti, uning mustaqil fan sifatida qachon vujudga kelganligi va rivojlanganligi atrofida haligacha yevropalik, amerikalik hamda rus olimlari o‘rtasida qizg‘in ilmiy bahslar davom etmoqda. Jumladan, rus olimi YA. I. Gilinskiy deviant xulq-atvor sotsiologiyasining paydo bo‘lishini buyuk fransuz sotsiologi E. Dyurkgeym nomi bilan bog‘-

---

<sup>1</sup> Криминология / Под ред. Дж.Ф.Шели/ Пер. с англ. – СПб., 2003.

laydi. O‘zining boshqa ilmiy tadqiqotlarida G. Tard, A. Kettle, G. Zimmel va P. Sorokinlarning ham xizmatlari katta ekanligini alohida ta’kidlab, «mustaqil sotsiologik yo‘nalish» sifatida vujudga kelishini R. Merton va A. Koen nomlari bilan bog‘laydi. Taniqli rus kriminolog olimi S. M. Inshakov deviant xulq-atvor sotsiologiyasining mustaqil sotsiologik yo‘nalish sifatida paydo bo‘lishi va rivojlanishi XX asrning 60-yillariga to‘g‘ri kelishini ta’kidlab o‘tadi.

Sotsiologiya jamiyatni bir butun tizim hamda kishilar o‘rtasidagi sotsial munosabatlar va shaxs xulq-atvorini aniq shart-sharoit bilan bog‘liqlikda o‘rganuvchi yagona fan bo‘lganligi uchun, uning tarkibiy qismi bo‘lgan deviant xulq-atvor sotsiologiyasi shaxs xulq-atvoriga ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillarini ilmiy asosda tahlil qiladi. Individ, shaxs har qanday sotsial birlik va tizimlarni harakatga keltiruvchi omil bo‘lganligi uchun ham sotsiologiyaning tarkibida deviant xulq-atvor sotsiologiyasi alohida o‘ringa egadir.

Sotsiologlar kishilar xatti-harakatlari hamda jamiyatning har xil darajalarini o‘rganadi. Hozirgi zamon sotsiologiya fani rivojiga katta hissa qo‘sghan amerikalik olim R. Merton fanning uchta darajasini alohida ajratib ko‘rsatadi: empirik (aniq sotsiologik tadqiqotlar); o‘rta darajadagi sotsiologik nazariyalar hamda umumnazariy sotsiologiya hisobga olinadi.

Shaxsning ijtimoiy qabul qilingan normalardan og‘ishi bilan bog‘liq jarayonlarning barchasini o‘rta darajadagi sotsiologik nazariyalar o‘rgani-shi nazarda tutiladi.

Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining predmetini barcha turdagи jamiyatga xos hamda kishilar faoliyatining barcha sohalariga daxldor va o‘zining har xil ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan deviatsiya (qabul qilingan normalardan og‘ish) – buzg‘unchilik jarayonlarining rivojlanish qonuniyatlari va ularga amal qilish tashkil qiladi. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi predmetining o‘zga xos tomoni shundaki, jamiyatda yuzaga keladigan deviatsiya (og‘ish) holatlari, ya’ni buzg‘unchiliklar sotsial normalarning tarixan o‘zgaruvchanligiga bog‘liq holda tahlil etiladi. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi predmeti, uni kriminologiya nazariyasidan farqlash imkonni beradi. Kriminologiya nazariyasi, avvalambor, shaxsning og‘ish holatlarini huquqiy normalarning buzilishi sifatida o‘rgansa, deviant xulq-atvor sotsiologiyasi esa bu holatlarni keng ma’noda boshqa ijtimoiy normalar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Demak, deviant xulq-atvor sotsiologiyasining predmeti, ya’ni jinoyatchilikni huquq doirasida, huquqqa zid tomonlarini tahlil etadigan kriminologik tadqiqotlar predmetiga nisbatan ancha kengdir. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi huquqqa zid bo‘lgan og‘ishlar dan tashqari, huquqqa zid bo‘lmagan og‘ishlarni ham o‘z ichiga qamrab

oladi. Jumladan, spirtli ichimliklarni ko‘p iste’mol qilishi, futbol fanatizmi, yoshlarning norasmiy birlashmalarda qatnashish va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi og‘ishni nafaqat shaxsning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda, balki unga ta’sir etuvchi sotsial muhit sharoiti hamda ijtimoiylashuviga ham ta’sir etuvchi omillar va atrof-muhitdagi o‘zaro ta’sir jarayonlarining qonuniyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganadi.

Shaxs xulq-atvorining jamiyatda qabul qilingan normalardan qay darajada og‘ish holatida ekanligini jamiyatdagi ijtimoiy normalar tizimi aniqlaydi. Kishilik jamiyatini ijtimoiy normalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Jamiyatda inson faoliyati hamda xatti-harakatlari va xulq-atvorlari ni ijtimoiy normalar boshqaradi. Ijtimoiy norma jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo‘lib, shaxs yoki sotsial guruh xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Jamiyatda ijtimoiy normalar mavjud ekan, har doim u yoki bu holda kishilarning jamiyatda qabul qilingan normalardan og‘ish holatlari yuzaga kelaveradi. Ijtimoiy normaning bir nechta turlari mavjud bo‘lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlarga oid normalar shular jumlasidandir.

Jamiyat o‘zgaruvchan murakkab sotsial tizim bo‘lganligi uchun, uning ijtimoiy normalar tizimi ham o‘zgaruvchan xarakterga ega. Jamiyat rivojlanishi bilan ijtimoiy normalarning o‘zi ham, ularga bo‘lgan munosabat ham o‘zgarib boradi. Ya’ni jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy normalardan chetga chiqish, me’yorning buzilishi tabiiy hol hisoblanadi. Chunki jamiyatda inson xatti-harakatlarini belgilab beruvchi normalar qanchalar ko‘p bo‘lsa, undan chetga chiqishlar ham shuncha ko‘p bo‘ladi. Jamiyatda qabul qilingan normalarni to‘la qabul qilish konformizm deyilsa, undan chetga chiqish deviatsiya, demak, deviant xulq-atvorining turli ko‘rinishlarida ifodalanadi. Jamiyat har doim inson xulq-atvorining noma’qlu ko‘rinishlariga qarshi chiqqan. O‘rtacha me’yordan chetga chiqish, u xoh ijobiy tomonga, xoh salbiy tomonga bo‘lmasin jamiyatning barqarorligiga xavf solgan.

**Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi kategoriyalari.** Har bir fan sohasi va uning tarkibiy yo‘nalishlari – o‘zining tushunchalar apparatiga ega bo‘lib, ular yordamida fanning mazmun-mohiyati ochib beriladi, jamiyatdagi o‘rni va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlanadi, o‘rganilayotgan hodisalarning ketma-ketligi ta’milanadi, empirik ma’lumotlar umumlashtiriladi va xulosalar qilinadi. Bu deviant xulq-atvor sotsiologiyasiga ham taalluqli bo‘lib, u quyidagi: *sotsial norma, deviatsiya, anomiya, buzg‘unchilik, sotsial rol, sotsial nazorat, ijtimoiylashuv, madaniyat* va

*submadaniyat, sotsial tuzilish va sotsial muhit* hamda boshqa maxsus sotsiologik tushunchalarga asoslanadi. Mazkur fan tarixan tashkil topgan bo‘lib, o‘z ichiga maxsus sotsiologik tushunchalar hamda huquqshunoslik, psixologiya, antropologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlardan o‘zlash-tirilgan individ, shaxs, norma, deviatsiya, ijtimoiylashuv, submadaniyat, aynanlik, sotsial nazorat, tashkilot, tizim kabi tushunchalarga ham egadir. Bu tushunchalar og‘ish muammolarini sotsiologik jihatdan o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular og‘ishlarni turlarga ajratish va tasniflash hamda hodisalarini qayd qilish va ular o‘rtasidagi aloqalarni aniqlashda yordam beradi. Shuni qayd etish mumkinki, deviant xulq-atvor sotsiologiyasi tushunchalari tadqiqotlar olib borish jarayonlarida hamda fanning nazariya va metodologiyasini ishlab chiqish, olingan bilimlarning ortib borishi natijasida o‘zgarib, takomillashib boradi.

Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi tushunchalari o‘zga xos maxsus va abstrakt (mavhum) xususiyatlarga egadir. Uning tushunchalari voqelik bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita munosabatda bo‘lmaganligi uchun ifodalanayotgan tushuncha bilan voqelik bir-biriga to‘liq va aynan mos kelmaydi. Masalan, og‘ish tushunchasi jamiyatdagi boshqa ko‘pgina holatlar: jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka va boshqalarga nisbatan ham qo‘llanishi mumkin.

Deviant xulq-atvor – jamiyatda o‘rnatilgan axloq normalariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat va sotsial hodisa bo‘lib, yolg‘onchilik, dangosalik, o‘g‘rilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o‘z joniga qasd qilish va boshqa shu kabi holatlar – xulq-atvor xususiyatlari bo‘lib hisoblanadi. Bulardan tashqari, xalqimizda mahalliychilik, ypyg‘-aymoq-chilik, boqimandalik kabi salbiy holatlar ham normadan og‘ishning diqqat talab qiladigan ko‘rinishlarini tashkil qiladi.

## **2-§. Shaxsda deviatsiya (og‘ish) holatlarining yuzaga kelish sabablari**

Shaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishida quyidagi uchta omil: shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlari muhim ahamiyatga egadir. Shaxs xususiyatlarining shakllanishida asosan irsiy va psixofiziologik omillar hamda shaxsning bilim darajasi muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy normalardan og‘ishlarning yuz berishiga shaxsning qat’iylik yoki qat’iyatsizligi, principialligi yoki prinsipsizligi, qoidalarga bo‘ysunish yoki bo‘ysunmaslik odatlari, biron-bir qarorga kela olish qobiliyati, tashqi ta’sirga qanchalik berilishi, irodasi va boshqa shu kabi psixofiziologik holatlar va mijozni ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Shaxs xususiyatlarining salbiy xarakteri ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishiga sabab bo‘ladi hamda deviant xulq shaxs turmush tarzining uzviy bo‘lagiga aylanib boradi, natijada doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof-muhitdan noroziliklar, ishdagi tushunmovchiliklar va hokazolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bu o‘rinda sotsial institutlarning ko‘magi zarur bo‘lib, o‘z vaqtida ta’sir chorasini ko‘rsatishi lozimdir, aks holda vaziyatning yanada chigallashiga olib keladi?!

Shaxs ijtimoiy og‘ish holatlarining yuzaga kelishida jamiyatdagi muammoli vaziyatlar ham alohida o‘ringa egadir. Muammoli vaziyat – bu shunday holatki, u subyektdan yechimini talab qiladi, uning yechimi ijtimoiy normalarda ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, u yoki bu sabablarga ko‘ra, ushbu normalarni qo‘llash qiyinroq kechadi. Eng katta muammoli vaziyat ziddiyatli holatlarda, ya’ni turli shaxslar yoki guruhlarning manfaatlari bir-birlariga to‘qnash kelganda yuz beradi. Ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishiga ba’zan shaxs xususiyatlari sabab bo‘lsa, ba’zan kichik sotsial guruhlar, oila, mahalla, mehnat jamoalari a’zolari, sinfdoshlar orasidagi salbiy munosabatlar sabab bo‘ladi.

Jamiyatda shaxsning shakllanishiga ta’sir etuvchi muammo va uni hal qilish imkoniyatlarining murakkabligi darajasiga ko‘ra, muammoli vaziyatning to‘rtta, ya’ni:

- 1) hech qanaqa muammo yo‘q holat, bunda hech qanday qaror qabul qilinmaydi;
- 2) muammo bor, biroq qiyinroq yoki osonroq bo‘lsa-da, uning yechimi ijtimoiy normalarda ko‘rsatilgan holat;
- 3) mavjud muammoni subyekt ijtimoiy normalar doirasida hal qila olmaydigan holat;
- 4) muammoni hal qilib bo‘lmaydigan holatlar turlari mavjud.

Darhaqiqat, ushbu turli holatlar keng ko‘lamda biridan ikkinchisiga o‘tib turadi. Muammoli vaziyatning mazmuni subyektning individual maqsadlari bilan jamiyatning manfaat maqsadlari va unga erishishning mumkin bo‘lgan vositalari hamda faoliyatning kutilayotgan oqibatlari va uning qo‘srimcha natijasi (ijobiy yoki salbiy), shuningdek ijtimoiy norma talablari va shaxs xususiyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlarning (ko‘pincha o‘ylab chiqarilgan) paydo bo‘lishidan iboratdir.

Jamiyat a’zolari shaxsiy nuqtai nazarlarining shakllanishida deviant xulq-atvorga nisbatan ijtimoiy faol munosabatlarining tarkib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasaddi shaxslar va tashkilotlar rahbarlarining o‘rni hamda roli kattadir. Demak, har qanday holatlarda ham mansabdor shaxslar, turli jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalari-

ning rahbarlari, pedagog va tarbiyachilar, qonunni himoya qiluvchi organlar vakillarining xulq-atvor normalarini buzishi qat'ian qoralanadi.

Shaxsning ijtimoiy og'ish holatlari yuzaga kelishining oldini olishda ijtimoiy nazorat institutlarining o'rni beqiyosdir. Shaxsning ijtimoiyla-shuvi jarayoni jamiyat hamda odamlarning qat'iy nazorati ostida amalga oshadi. Ota-onalar bolalarini bilim olish hamda biror kasbni egallahga o'rgatish bilan birga, ulardan xulq-atvor normalari talablarining to'g'ri bajarilishini nazorat qilishadi. Bu bilan har bir ota-ona ijtimoiy nazorat vakili (agenti) vazifasini bajaradi. Inson xatti-harakati, xulq-atvori va faoliyatini ta'lim muassasalari, mahalla, mehnat jamoasi, davlat miqyosida huquqni muhofaza qiluvchi organlar (sud, prokuratura, IIO xodimlari) ham nazorat qilib borishadi. Nazorat qiluvchi har bir shaxs nisbatan ijtimoiy nazorat instituti vazifasini bajaradi.

Deviatsiya shaxs xulqining jamiyatda qabul qilingan normalardan og'ishi natijasi o'laroq ko'p hollarda sanksiya berish bilan yakunlanadi. Kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni buzadigan, jamiyatga unchalik ko'p zarar yetkazmaydigan og'ish shakllari ham mavjud. Ular jamoatchilik fikri orqali tartibga solib turiladi.

Shaxs xulqi og'ishini o'rganish – sotsiologiyaning eng nozik va murakkab mavzularidan birini tashkil qiladi. Ijtimoiy normalar va qadriyatlar qanchalik ko'p bo'lsa, qoidalarni buzish turlari ham shunchalik ko'payadi. Bundan tashqari, turli madaniyatlar, shuningdek submadaniyatlarning normalari bitta jamiyat ichida ham bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun jamiyat uchun oddiy hol hisoblangan narsa, boshqasida normadan og'ish sifatida baholanishi mumkin. Masalan, nasha chekish – Britaniya madaniyatida normadan og'ish hisoblanadi, spirtli ichimlik ichish esa og'ish hisoblanmaydi. Yaqin Sharq mamlakatlarida buning mutlaqo aksi kuzatiladi.

Deviatsiyani nafaqat alohida shaxs xulq-atvorining buzilishi, balki ma'lum guruh jamoalari tarkibiga kiruvchi kishilar xatti-harakatlarining jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy normalar yig'indisiga mos kelmasligini ham anglatadi. Bunga uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Jamiyatda normalarga to'liq amal qiladigan va undan og'adigan odamlar o'rtasida biror chiziq tortib ajratish mumkin emas? Chunki xulq-atvorning umumiyligi qoidalari ko'pincha buziladi. Masalan, avtobus yoki boshqa transport vositalaridan foydalanganda yo'l chiptalarini to'lamasdan yurish, ishxonalardagi ba'zi buyumlardan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish va shunga o'xshash boshqa mayda-chuyda xatti-harakatlarga yo'l qo'yiladi. Deviatsiya ijjobiy va salbiy ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Umuman, deviatsiya sog'lom demokratik hamda o'z taraqqiyot yo'lini to'g'ri tanlagan jamiyatda salbiy rol

o‘ynaydi. Lekin shunga qaramay, ba’zi hollarda deviatsiya ijobiy ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin. Deviatsiya holatlari avvalgi qabul qilingan qonun normalari eskirgan va jamiyat taraqqiyot darajasiga javob bermaydigan hamda xalq ommasi ular asosida yashashni istamagan vaqtida ijobiy bo‘lishi mumkin! Bunga misol tariqasida, ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan sobiq Sovet tuzumidan o‘tib kelgan ijtimoiy normalarga bo‘lgan munosabatni ko‘rsatish mumkin. Salbiy deviatsiya alohida shaxs hayoti hamda va umuman jamiyatga katta zarar yetkazadi hamda bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi.

### **3-§. Delinkvent xatti-harakat ko‘rinishlari**

*Cotsiologiyada «deviatsiya» tushunchasi bilan birga, «delinkvent» tushunchasi ham qo’llaniladi.* Ular mazmun jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalar bo‘lsa-da, ayni paytda ularni farqlash kerak. Delinkvent (lotincha «delinquens» – huquqbuzar, jinoyatchi) jamiyatda qonunda belgilangan huquqiy normalardan og‘ishni anglatadi. Shaxs delinkvent holatida deviatsiyadan farqli ravishda jinoiy yoki ma’muriy javobgarlikka tortilish bilan yakunlanadi.

*Ijtimoiy normalarning buzilishi jiddiy, nojiddiy, ongli yoki anglamagan holda bo‘lishi mumkin. Qonunga to‘g‘ri kelmaydigan xatti-harakat toifasiga kiruvchi ongli yoki anglab etilmagan barcha jiddiy xatti-harakatlar delinkvent deyiladi.* Deviant va delinkvent xatti-harakat quyidagicha farqlanadi: *deviant xatti-harakati nisbiy, delinkvent xatti-harakat mutlaq bo‘ladi.* Delinkvent xatti-harakatlarga – jinoyatchilik, o‘g‘rilik, firibgarlik, vandalizm, sanoat josusligi, qimor o‘ynash, o‘t qo‘yish, qalbaki hujjatlar tayyorlash, poraxo‘rlik kabilar kiradi. Delinkvent xatti-harakatlar mamlakatdagi qonunlarga nisbatan mutlaq bo‘ladi va davlat organlari tomonidan sanksiya berish yo‘li bilan unga qarshi kurashiladi.

*Sanksiya* – (lot. «sanction» – qat’iy, o‘ta jiddiy qaror) – rag‘batlantirish yoki jazolash turlari bo‘lib, ular yordamida ijtimoiy maqbul bo‘lgan xulq-atvor me’yorlari mustahkamlanadi. Sanksiya huquqiy me’yor hamda qonun moddasining ushbu qonun buzilishidan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar qismidir. Sanksiya boshqalar tomonidan individ yoki guruh xulqiga bildirilgan reaksiya bo‘lib, uning maqsadi ijtimoiy normalarning bajarilishini kafolatlashdir. Sanksiyalar *rasmiy va norasmiy* ko‘rinishlarda bo‘ladi. *Rasmiy sanksiyalar* – jamiyat a’zolarining ijtimoiy normalarga rioya qilishini kafolatlaydi. Agar shaxs ijtimoiy normalarga rioya qilmaydigan bo‘lsa, uning oqibati jinoiy yoki ma’muriy javobgarlik bilan tugashini anglatadi. *Norasmiy sanksiyalar* – rag‘batlantirish tariqasida

ko‘proq komformlikka nisbatan qo‘llaniladi va nisbatan kamroq uyushgan va ko‘pincha o‘z-o‘zidan kelib chiqadigan munosabat turidir. *Konformlik* – jamiyat yoki guruhda o‘rnatilgan me’yorlarga rioya qilishga asoslangan xulq.

Sotsiologiya fani delinkvent ko‘rinishlarini jamiyat rivojiga katta zarar yetkazuvchi illat sifatida qoralaydi hamda vujudga kelish sabablari va bartaraf etish yo‘llarini tadqiq qiladi. Umuman, shaxsning xulq-atvor qoidalarini buzishga qaratilgan xatti-harakatlar tasnifi murakkab bo‘lib, bu borada sotsiologiya va psixologiya fanlarida xar xil yondashuvlar mavjud. Shaxs xulqining og‘ishini sotsiologik tushunishga yaqin bo‘lgan tipologiyani R. Merton sotsial anomiya nazariyasida tavsif qiladi. U shaxsning hayotiy vaziyatlariga bog‘liq bo‘lgan beshta turini alohida ajratib ko‘rsatadi, bular:

- 1) hayot vaziyatlariga moslashib ketadigan inson – konformist;
- 2) o‘z maqsadiga qolipga solmagan (nostandard) usullar orqali erishadigan inson – innovator;
- 3) amaldagi qonun va qadriyatlarni tashqi tarafdan maqullagani bilan ularni qabul qilmaydigan, uning uchun o‘tmishdagi axloqiy norma va qadriyatlarni muhim bo‘lgan inson – ritualist;
- 4) mavjud norma va qadriyatlarni inkor etadigan, lekin ijtimoiy borliqqa qarshilik ko‘rsatmaydigan, o‘zining dunyoqarashi asosida yashaydigan inson – eskeytist;
- 5) barcha kishilar tarafidan e’tirof etilgan ijtimoiy norma va qadriyatlarni inkor etadigan inqilobchi inson – isyonchi<sup>1</sup> bo‘lib hisoblanadi.

Tadqiqotchi X. Bekker shaxs xulqining deviatsiya holatlari tabiatini o‘rganib, uni ikki toifaga ajratadi. *Birinchisi*, har bir insonning hayot faoliyatida bilib yoki bilmay qilgan kamchilik va xatolari natijasida unchalik ahamiyatga molik bo‘lmagan birlamchi og‘ishlardir. Bu xato va kamchilikka umum e’tirof etilgan normalardan og‘ish holatida bo‘lishiga qaramay, xulqning atrofdagilar tomonidan og‘ish holatida, deb e’tirof etilmasligi u bilan murosa qilishi nazarda tutiladi. *Ikkinchisi*, insonlarning qabul qilin-gan ijtimoiy normalardan uzluksiz og‘ishlari hamda atrofdagilar va jamiyat uchun xavf tug‘diradigan xatti-harakatlarni kiritadi. Demak, ikkinchi toifa-dagi og‘ish holatlari jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik, suitsid (o‘z joniga qasd qilish) ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi.

*Jinoyatchilik* – ma’lum davlatda (mintaqada) muayyan davr mobay-nida sodir etilgan jinoyatlar yig‘indisidir<sup>2</sup>. Jinoyatchilik tarixan o‘zgaruv-chan sotsial hodisadir. U turli sotsial tizimlarda bir xil tarzda namoyon bo‘lmaydi. Jinoyatlarning darjasи va tuzilishi ma’lum tuzum rivojining turli bosqichlarida uning sabablari va imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit-

<sup>1</sup> Merton R. Social Theory and Social Structure. – Glencoe, 1957.

<sup>2</sup> Юридик атамалар лугати. 1-жилд. – Т., 2007. – Б. 382.

larga bog‘liq holda hamda davlat tomonidan jinoyat, deb topilgan qilmishlar doirasidan kelib chiqib o‘zgarib turadi. Jinoyatchilik sotsial hodisa bo‘lib, uning negizida ijtimoiy-iqtisodiy qonunlar yotishi hamda ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqaruvchi kuchlarning xususiyatiga asoslanishida namoyon bo‘ladi. Jinoyatchilikni sotsial xususiyatga ega bo‘lgan sabab va shart-sharoitlar vujudga keltiradi. Jinoyatchilik bir qancha jinoyatlarning statistik yig‘indisidan iborat bo‘lmay, balki sotsial-huquqiy hodisa hisoblanadi. Har qanday sotsial hodisa singari jinoyatchilik jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, g‘oyaviy, ruhiy holat, boshqaruv, huquq bilan bog‘liq holda o‘zaro aloqador bo‘lgan sabab va oqibat qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Jinoyatchilikning izchilligi va xususiyati jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy jarayonlardagi qarama-qarshiliklar, kriminogen, antikriminogen, aralash xususiyatdagi hodisalar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Jinoyatchilik muayyan bir hudud hamda ma’lum bir vaqtda sodir etilgan aniq jinoyatlardan tashkil topadi.

Jinoyat – shaxsning insoniylik chegarasidan chiqishidir. Darvoqe, jinoyatni dunyo hamjamiyati yo‘q qila olmagan. Shunga qaramay, jahon hamjamiatining asosiy vazifasi har qanday jinoyatning oldini olish va uni imkon qadar kamaytirishdir.

Belgiyalik matematik, statist olim L. A. Ketele o‘zining «Ijtimoiy fizika» asarida jinoyatchilikning vujudga kelishida bir qancha omillar sabab bo‘lishini qayd etib, uni jamiyatning ijtimoiy holati, kishilarning turmush darajasi, individ bilan sotsial guruhrar o‘rtasidagi munosabatlarining susayishi va boshqa omillar bilan bog‘liqligini e’tirof etadi.

Jamiyatda qonun va qonun osti hujjalarda belgilab qo‘yilgan barcha jiddiy xatti-harakatlar delinkvent og‘ish turiga kiradi, ular albatta, qonunlarda belgilab qo‘yilgan jazo turlari bilan jazolanadi. Qonun bor joyda jinoyat ham mavjud bo‘ladi. O‘z navbatida, har qanday qonunning ishlab chiqilishi, uning yaratilishi jinoyatning oldini olishga qaratilganligidadir. Jinoyatlarning turlari shunchalik ko‘pki, ularni sodir etayotganlarining barchasi bir xil ruhiy holatlarga ega, deyish noto‘g‘ridir. Biz jinoyatning faqat bir toifasi, aytaylik og‘ir jinoyatlar tadqiqi bilan cheklansak ham, juda ko‘plab xar xil holatlar aniqlanadi. Bunday jinoyatlarning ba’zilari individlar tomonidan, boshqalari esa uyushgan jinoyatchi guruhrar tomonidan sodir etiladi. Jamiyatda sodir etilayotgan jinoyatlarning mohiyatini qoniqarli darajada izohlash va sotsiologik jihatdan baholash mumkin, albatta. Chunki jinoyatlar jamiyatning sotsial institutlari tomonidan qayd etib boriladi. Lekin jinoyatchilikning haqiqiy miqyosini baholash mushkul, chunki hamma jinoyatlar xam aniqlanavermaydi. Shunga qaramay, ba’zi mamlakatlarda jinoyatchilik darajasi o‘rtachadan ancha balanddir.

Har qanday jinoyat turiga o‘ziga yarasha jazo muqarrar bo‘lib, bu qonunlarimizda belgilab qo‘yilgan. Jazo ham xuddi jinoyat singari turli mamlakatlarda kishilarni jinoyatlardan muhofaza qilish va ularni qayta tarbiyalash maqsadida paydo bo‘lgan. Hozirgi paytda ko‘pchilik mamlakatlarda o‘lim jazosi bekor qilingan. Jumladan, O‘zbekiston davlatida ham 2008-yildan boshlab o‘lim jazosi bekor qilinib, jinoiy ishlarni yanada liberallashtirish ishlari davom etib kelmoqda.

Hozirgi paytda sotsiologik tadqiqot natijalari sodir etilayotgan jinoyatlarning aksariyati iqtisodiy yetishmovchiliklar, huquqiy ong va madaniyatning pastligi, ta’lim va tarbiyaning yetarli darajada emasligi, ijtimoiy nazoratning samarasizligi hamda boshqa obyektiv va subyektiv omillar bilan bog‘liq ekanligini tasdiqlamoqda. Shu bois ichki ishlar organlarining har bir xodimi jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashda shu omillarga e’tibor berishi lozim, – deb o‘ylaymiz. Buning uchun, albatta, ulardan kuchli bilim va mahorat talab qilinadi.

*Ichkilikbozlik* – spirtli ichimliklarni mudom ichaverish oqibatida ro‘y beradigan surunkali kasallikdir. Shuningdek, spirtli ichimliklarni me’yordan ortiq ichishning kishilar sog‘lig‘i va mehnat qobiliyati hamda ma’naviy va maishiy hayotiga, ayniqsa jamiyat farovonligiga yetkazadigan zararlari cheksiz-chegarasizdir?! Ichkilikbozlik individual va ijtimoiy hayotning hamma shakllariga ta’sir ko‘rsatadi. Ichkilik ta’sirida odamlar jamiyat va davlat oldida mas’uliyat sezish hissini yo‘qotib qo‘yadi. Oqibatda bezorilik va qonunni buzishga aloqador boshqa xatti-harakatlarni qilishi mumkin. Ichkilikbozlik ishlab chiqarishga zarar yetkazadi, mehnat intizomining buzilishi va unumdarligining pasayishi hamda odamlarning xastalanib qolishi va hatto bevaqt halok bo‘lishiga olib keladi. Mastlikda odam o‘z muvozanatini saqlay olmasligi, diqqati chalg‘ib, atrofdagi vaziyatni aniq bila olmasligi baxtsiz hodisalarga sabab bo‘ladi.

Ichkilikbozlik rivojlanishida *boshlang‘ich*, *o‘rta* va *so‘nggi bosqich* alomatlari kuzatiladi. *Boshlang‘ich bosqich*, bu asosan alkogolga nisbatan haddan ortiqroq maylning paydo bo‘lishi va unga bo‘lgan chidamlilik (tolerantlik)ning oshishi, quşish, ya’ni himoya refleksining yo‘qolishi, yashirin yoki yolg‘iz ichib mast bo‘lish, ichayotgan alkogol miqdorini nazorat qila olmay qolishi, perforatsion amneziya, faqat ichaverish to‘g‘risidagi istakning miyaga o‘rnashib qolishi, alkogoldan o‘zni tiyganda holsizlanish (asteniya) holatining yuzaga chiqishi bilan ifodalanadi. *O‘rta bosqichda* alkogolga bo‘lgan chidamlilik juda oshadi, «alkogol ochligi» – xumor (abstinent) holatining yuzaga kelishi, ichkilikka bog‘lanib qolish, soxta mayzadalik (psevdozapoy), alkogol psixozlari va shaxsning ruhiy jihatdan tubanlashuvi kuzatiladi. *So‘nggi bosqich* esa alkogolga chidamsizlik

(intolerantlik), muttasil ichishning davriy tus olishi, chin mayzadalik, ruhiy va jismoniy zaiflashish, asab va ichki a'zolar faoliyatining izdan chiqishi, dispeptik holat, o'tkir va surunkali alkogol psixozlari, xotira va es-hushing aynishi bilan ifodalanadi.

Ichkilikbozlik odam organizmidagi barcha tizimlar va a'zolar faoliyatiga putur yetkazadi. Ichkilikboz odam o'zi ichayotgan ichkilik miqdorini bilmay qo'yadi, markaziy va periferik asab tizimi faoliyati buzilib (psixik kasalliklar, nevritlar va boshqalar paydo bo'ladi), ichki a'zolar funksiyasi izdan chiqadi. Ichkilikning zaharli ta'siri moddalar almashinuvi, ayniqsa vitaminlar almashinuvining buzilishiga olib keladi. Ichkilikboz odam qo'l barmoqlari, ko'z qovoqlari, til uchining titrab turishi, shuningdek har kuni bajarib yurgan odatdagisi shini bajara olmay qolishi mumkin. Ko'p ichadigan odamda ko'z xiralashib, ba'zan quloq ham og'ir tortib qoladi. Ichkilikning me'daga ta'siri natijasida shu a'zoning barcha funksiyalari buziladi. Ichkilik, ayniqsa, jigarga zararli ta'sir ko'rsatib, jigar serrozi yuzaga keladi. Ichkilikbozlik pankreatit, kand kasalligi, stenokardiya va miokard infarkti kasalliklariga ham sabab bo'ladi. Ichkilik ichki sekretsiya bezlari va birinchi galda jinsiy bezlarga zarar qiladi, mijoz susayib, jinsiy zaiflik paydo bo'ladi. Ayollar ichkilik ta'sirida tez so'lib qoladi, pushti susayib, homiladorlik vaqtida har xil asoratlar ko'proq uchraydi. Mudom ichib yurish kishining barvaqt qarib, nogiron bo'lib qolishiga olib keladi.

Bugungi kunda jamiyat hayotini muayyan darajada ichkiliksiz tasavvur etib bo'lmay qoldik?! Chunki har qanday maraka, tug'ilgan kun, to'y va oilaviy bayramlar, do'stlar bilan uchrashuvlar, spirtli ichimliksiz o'tkazilmayapti. Bu keyinchalik ayrim shaxslarning ichkilikka mukkasidan ketishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur illat axloq bilan bog'liq holda yuzaga kelsa-da, aksariyat xollarda ba'zi kishilarni jamiyat uchun katta zarar keltiradigan jinoyatlar sodir etishiga olib kelmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bezorilikning 90%, nomusga tegishning 90% va boshqa jinoyatchilikning 40% ichkilik bilan bog'liq holda sodir etiladi!

Ichkilikbozlik spirtli ichimliklarni ko'p iste'mol qilish natijasi o'laroq doimiy kasallik bo'lib, uni davolashdan ko'ra, oldini olgan afzaldir. Ichkilikbozlik jamiyatga salbiy putur yetkazadigan illat ekan – uning oldini olish maqsadga muvofiqdir. Bunda nazorat institutlarining roli katta bo'lib, avvalambor, oilada, mакtabda, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalarida uning salbiy oqibatlari to'g'risida targ'ibot va tashviqot ishlarini uzluksiz tarzda olib borish lozimdir. Agar shaxsda ichkilikbozlik belgilari paydo bo'lganda, darhol narkologiya shifoxonalariga yotqizib, uzoq vaqt narkolog vrach kuzatuvida muntazam ravishda davolanishni tashkil qilish kerak. Oqibati, albatta ma'lum bo'ladi.

*Giyohvandlik* – (narkomaniya yunon. «narke» – karaxtlik va mania – ehtiros) eyforik, tinchlaniruvchi, og‘riq qoldiruvchi, uxlatadigan, bangi qiluvchi yoki qo‘zg‘atuvchi tabiiy va sintetik moddalarga patologik moyillikdir. Giyohvandlik *ositani oz-ozdan iste’mol qilganda*, haqiqiy holatga mos kelmaydigan o‘z-o‘zidan xursand bo‘laverish, *ko ‘proq iste’mol qilganda* sulaytirib hushini yo‘qotishgacha, giyohvandlik uyqusi darajasiga gacha olib keluvchi, *muttasil ravishda iste’mol qilganda* doimiy dozasini oshirib borishni talab qiladigan kasallikdir. Giyohvandlik – giyohvand vositalarini notibbiy ravishda iste’mol qilish natijasida yuzaga keladigan kasallik. Giyohvandlik turlari asosan quyidagilar: opiy giyohvandligi – opiatlar suiiste’moli natijasida kelib chiqadi (morphin, kodein, tebain, geroin); nasha iste’mol qiluvchi bangilik (nashavandlik); efedron giyohvandligi; kokainomaniya – kokain iste’mol qiluvchi bangilik. Ularning har biri o‘ziga xos xususiyatga ega. Ammo hamma turlarining umumiyligi belgilari preparatga tez o‘rganish, jismoniy va ruhiy moyillik hamda abstinent holati rivojlanishidan iborat bo‘ladi. Ko‘p giyohvandlarda narkotik preparatni birinchi iste’molidan boshlab, 2–3 haftada moyillik paydo bo‘ladi. Biroq hozir shunday sintetik narkotik vositalar borki, ular 2 inyeksiya olganidan so‘ng moyillikka olib keladi. Hamma narkotik preparatlar narkomanning ruhiy holatini o‘zgartirib yuboradi. Ularda kayfiyatining parishonligi va qo‘zg‘alish hamda xulq-atvorida salbiy pasayish: sababsiz kulgi, sergaplik namoyon bo‘ladi, vaqt va atrof-muhitni, muvozanatni qabul qilishi buziladi.

Narkotiklarni uzoq vaqt iste’mol qilganda shaxs borgan sari inqirozga uchraydi, narkomanlar tuban, atrofdagilarga va yaqin qarindoshlariga befarq bo‘lib qoladilar, aql-idroki pasayadi. Narkomanlar jismoniy va ruhiy holdan toladilar, ularning emotsiyalari qo‘pollashadi, ma’naviy alomatlari va odatlari yo‘qola boradi, tez-tez jamiyatga zid harakatlar sodir etadilar. Narkoman hayotdan yosh ketadi – narkotik miqdori dozasini yuqori qilib yuborganidan, abstinent holatida, ya’ni yurak-qon-tomir yetishmovchiligidan o‘lib qoladi. Ular VICH (odamning immunodefitsit virusi) infeksiyaning tashuvchilari va asosiy tarqatuvchilari bo‘lib qoladilar va OITSdan o‘lganlarning ko‘pchiligini tashkil qiladilar. Giyohvand vositasi inson organizmini, markaziy asab tizimini, kayfiyati va harakatini, yurish-turishi hamda xatti-harakatini o‘zgartiradi.

Giyohvandlik vositasini iste’mol qilish inson hayoti va uning zurriyoti, kelajak hayoti, farzandlariga katta salbiy ta’sir qiladi. Giyohvandlik natijasida og‘ir ijtimoiy oqibatlarga olib boruvchi jinoyatlar sodir bo‘ladi. Giyohvandlik hali aqlini yig‘ib olmagan yoshlarni nogiron, ishga layoqatsiz, kelajagini barbob qilmoqda. Giyohvandlikka qarshi kurashda huquqiy, tibbiy va maxsus usullardan foydalilaniladi. Bundan tashqari, mamlakatda ijti-

moiy, iqtisodiy, madaniy xarakterdagi maxsus usullardan ham foydalanib, giyohvandlik yo‘liga kirishi ehtimol bo‘lgan shaxslarni bu illatdan qaytarish ishlari olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi JK 270–276-moddalarida mazkur holat bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan<sup>1</sup>.

**Fohishabozlik.** Fohishabozlikni pul evaziga jinsiy mayl ko‘rsatilishi, deb ta’riflash mumkin. Fohishabozlik bilan shug‘ullanish antik davrlar dayoq paydo bo‘lganligiga qaramasdan, fohishabozlik iborasi XVIII asrning oxirida fanga kirib kelgan. Uning vujudga kelishi kichik qishloq jamoalarining yemirilishi, katta shaharlarning paydo bo‘lishi va ijtimoiy munosabatlarning tijoratlashuvi bilan bevosita bog‘liqdir. Ajralishlar sonining o‘sishi nochor ahvolga tushib qolayotgan ba’zi ayollarni fohishalikka yetaklaydi.

Shuningdek, fohishabozlik ko‘p xollarda ayollarning ijtimoiy hayotdagi ahvoli, ularning axloqiy ta’lim va e’tiqodlarining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ba’zi ayollar o‘zlarining tirikchiliklarini yaxshilash uchun, ayrimlari esa turmushidan noroziligi va kasalligi tufayli ham bu yo‘lga kirishadi. Odamlar azaldan bu yo‘lda tirikchilik qiladiganlarni qoralab kelganlar. Hozirgi vaqtda ba’zi mamlakatlarda bu illat taqiqlangan yoki cheklab qo‘yilgan, bir nechta mamlakatlarda esa ruxsat etilgan.

Jinoyat qonunchiligidagi zo‘rlab yoki zo‘rlik ishlatib, qo‘rqitib yoki aldash yo‘li bilan fohishabozlikka jalb qilganligi uchun javobgarlik belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi JKning 131- moddasiga ko‘ra, fohishaxona tashkil etish yoki saqlash, shuningdek g‘arazli yoki boshqa tuban niyatlarda qo‘shmachilik qilishga nisbatan jinoiy jazo qo‘llaniladi<sup>2</sup>.

*Suitsid* (ing. «suicide» – o‘zini o‘zi o‘ldirish) – kishi tomonidan kuchli ruhiy zo‘riqish negizida sodir etiluvchi o‘zini o‘zi o‘ldirish yoxud shaxsning mavjudligida shaxsiy hayoti oliy qadriyat sifatida o‘z ma’nosini yo‘qotadigan o‘tkir ruhiy jarohat yetkazuvchi vaziyatlar ta’siri ostida ongli ravishda hayotdan ko‘z yumish holatlari paydo bo‘ladi. Individ, shaxsning o‘z joniga qasd qilishi ko‘p xollarda ma’lum bir muammoning yechilmasligi tufayli sodir bo‘ladi. Insonning qiyinchiliklar oldida irodasizligi, ruhiy tushkunlik holatida uning o‘z joniga qasd qilishi orqali kechadi. O‘z joniga qasd qilish harakati insonning jinsi, yoshi, ma’lumoti, ijtimoiy va oilaviy holatlari bilan bog‘liqdir.

O‘z joniga qasd qilish xollari bugungi kunda ko‘proq rivojlangan mamlakatlar ulushiga to‘g‘ri kelmoqda. Ayniqsa, bu holat 55 yoshdan so‘ng

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. – Т., 2015. – Б. 199–204.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. – Т., 2015. – Б. 81.

va 20 yoshgacha bo‘lgan yoshlar o‘rtasida ko‘proq uchramoqda. Statistika ma’lumotlarining ko‘rsatishicha, o‘z joniga qasd qilishlar shahar joylarida yakka yashaydigan kishilar o‘rtasida ko‘proq sodir etilmoqda?!

O‘zbekiston Respublikasi JKning 103-moddasiga ko‘ra, o‘zini-o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish – moddiy tomondan yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo‘lmagan shaxsga rahmsiz muomala qilish yoki uning sha’ni-shavkati hamda qadr-qimmatini mutassil ravishda kamsitishlar natijasida uning o‘zini o‘zi o‘ldirish yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazishga nisbatan jinoiy jazo belgilangan<sup>1</sup>.

Delinkvent toifadagi og‘ish holatlari – jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik, suitsid va boshqa ko‘rinishdagi og‘ishlarning yuzaga kelishi hamda sotsial oqibatlariga ko‘ra, mohiyatan muayyan darajada farqli jihatlarga ham egadir.

Shaxsning og‘ish holatlari, u qaysi ko‘rinishda namoyon bo‘lishidan qat’iy nazar jamiyat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Uning oldini olish uchun, avvalambor, oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumta’lim mакtablarida, litsey va kollejlarda, oliy ta’lim muassasalari hamda, mehnat jamoalarida ta’lim-tarbiya masalalariga jiddiy e’tibor qaratmog‘i-miz lozim! Yoshlarimiz ongiga jamiyatimizga turli xil yo‘llar bilan kirib kelayotgan «ommaviy madaniyat»ning salbiy oqibatlarini keng targ‘ib qilishimiz zarur. Ularni ota-bobolarimizdan meros bo‘lgan boy milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash orqali ular istiqboli uchun barchamiz mas’ul ekanligimizni bir zum ham esdan chiqarmasligimiz shart.

### Tayanch tushunchalar

Sotsiologiyaning tarkibiy qismi, deviant xulq-atvor sotsiologiyasi predmeti, deviant xulq-atvor sotsiologiyasining vujudga kelishi, ijtimoiy norma, axloqiy va huquqiy normalardan og‘ish, individual va guruhiy og‘ish, ijobiy va salbiy og‘ish, deviant xulq-atvorning ko‘rinishlari, shaxs ijtimoiylashuvi, shaxs ijtimoiylashuvining obyektiv va subyektiv omillari, anomiya, me’yor, deviatsiya, delinkvent toifadagi og‘ish holatlari: jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik, suitsid (o‘z joniga qasd qilish), deviant va delinkvent og‘ish holatlarining oldini olish choralar.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi nimani o‘rganadi?
3. Deviant xulq-atvor ko‘rinishlarini kimlar o‘rgangan?

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. – Т., 2015. – Б. 63.

4. Ijtimoiy norma nima?
5. Muammoli vaziyat va ijtimoiy nazorat deganda nima tushuniladi?
6. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining predmeti haqida gapirib bering.
7. Deviant xulq-atvorning yuzaga kelish sabablari nimada?
8. Deviant xulq-atvorning qanday ko‘rinishlari mavjud?
9. Delinkvent toifadagi og‘ish holatlariga nimalarni kiritish mumkin.
10. Deviant va delinkvent og‘ishlarni bir-biridan farqlang.
11. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi kategoriyalarini sanab bering?
12. Jinoyatchilik deb nimaga aytamiz va uning qanday turlari mavjud?
13. Ichkilikbozlikning kelib chiqish sabablari nimadan iborat?
14. Giyohvandlikning kelib chiqish sabablari nima?
15. Suitsid nima?

## **X BOB.**

# **SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNI AMALGA OSHIRISH METODLARI**

### **1-§. Sotsiologik tadqiqotni tashkil etish, uning dasturi, tuzilishi va vazifalari**

Sotsiologiya fanini empirik sotsiologik tadqiqotlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. «Empirik» qadimgi yunoncha empeiria so‘zidan olingan bo‘lib, tajriba ma’nosini anglatadi. Sotsiologiya fani amaliyotda o‘tkaziladigan empirik sotsiologik tadqiqotlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, aynan mana shu tadqiqotlar mazkur fanning jamiyat hayotidagi o‘rnini belgilab beradi. Empirik sotsiologik tadqiqotlarni o‘tkazish o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, tadqiqotchidan ma’lum bir vaqt hamda bilim va ko‘nik-malarni, amaliy tajribalarni talab qiladi. Empirik sotsiologik tadqiqotlarni o‘tkazish jarayoni ketma-ketlikda bajariladigan bir nechta tarkibiy qism va yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Avvalambor, puxta ishlab chiqilgan sotsiologik tadqiqot o‘tkazish dasturi, sotsiologik tadqiqotlar jarayonida qo‘llaniladigan usullar, ular yordamida olingan empirik ma’lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, zarur amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, ya’ni sotsial faktlarni izlash, tasnif qilish, to‘plash muhim ahamiyatga egadir.

Sotsial fakt deganda, muayyan vaqt davomida real sotsial voqelikning alohida jihatlarini tasnif qilish orqali olingan ilmiy asoslangan ma’lumot-larga aytildi. Bozor munosabatlari rivojlanishi jamiyat hayotida ro‘y berayotgan muhim o‘zgarishlar hamda kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni amaliy sotsiologik tadqiqotlarsiz ilmiy asosda o‘rganib bo‘lmaydi. Jamiyatni ilmiy boshqarish esa doimo amaliy sotsiologik tadqiqot natijalariga tayammog‘i lozim. Jamiyat hayotida vujudga keladigan sotsial muammolarni o‘z vaqtida hal etish hamda jamiyatni har taraflama rivojlantirish va uni rejali ilmiy faraz qilish asosida boshqarish jarayonlarida amaliy sotsiologik tadqiqot natijalari muhim vazifalarni bajaradi.

Sotsiologik tadqiqotlarning sifat darajasini hamda samaradorligini oshirishda empirik ma’lumotlarning ishonchli ekanligi va ilmiy asoslanganligini ta’minkash uchun uning metodologik negiziga alohida e’tibor qaratilmog‘i lozim. Bunda esa uning ilmiy asoslangan dasturini tayyorlash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ilmiy-nazariy jihatdan puxta ishlanishi lozim. Puxta va pishiq ishlab chiqilgan sotsiologik tadqiqot dasturi har qanday tadqiqotni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kafolatidir.

Sotsiologik tadqiqot dasturini ishlab chiqish jarayonida ikkita asosiy talabga rioya qilish kerak. *Birinchidan*, ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy umumlashmalardan aniq tadqiqot jarayonlariga o‘ta bilish va *ikkinchidan*, olingan natijalar va faktlar hamda yig‘ilgan empirik materiallarni nazariy jihatdan umumlashtira olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Bu ikki talabga rioya qilish *bir tomon dan*, sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni tizimli yo‘lga qo‘yish hamda jamiyat sotsial muammolarini tadqiq etish ishlarini uzluksiz amalga oshirishni ta’minlasa, *ikkinci tomon dan*, ilm-fan turli sohalarining uzviy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Sotsiologik tadqiqot dasturi asosan ikkita, nazariy-metodologik va ish tartibi (protsedura) bo‘limlaridan iborat bo‘lib, nazariy-metodologik bo‘lim-ga muammoni qo‘yish, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekti va predmetini aniqlash, obyektning tizimli tahlili, tushunchalarning nazariy va empirik interpretatsiyasi va gipotezani aniqlash kiradi. Ish tartibi (protsedura) bo‘limiga tadqiqotning qat’iy rejasini tuzish hamda metodi va texnikasini tanlash, ma’lumotlarni qayta ishslash va tahlil qilish, olingan natjalarning nazariy interpretatsiyasi kiradi.

Sotsiologik tadqiqot dasturining asosiy vazifasi belgilangan sotsiologik tadqiqotning maqsad va vazifalaridan og‘ishmay, to‘g‘ri va o‘z vaqtida muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish nazarda tutiladi. Sotsiologik tadqiqot dasturi mukammal va puxta ishlab chiqilmagan bo‘lsa, ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi, demak tadqiqot jarayonida sarflangan xarajatlar qoplanmaydi va moddiy zarar keltiradi.

Darhaqiqat, har qanday sotsiologik tadqiqotning boshlang‘ich nuqtasi muammo qo‘yish bo‘lib, unda jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalari: ma’lum sotsial-hududiy va etnik birliklar, sotsial institut va tashkilotlar, sotsial guruhlar o‘rtasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar yoki ular o‘rtasidagi yutuqlarning kelib chiqish sabablari, shahar va qishloq joylarida yechimini kutayotgan masalalar hamda ularni hal qilish va shu kabilar muammo sifatida qaraladi. Jamiyatda yuzaga keladigan sotsial muammolar ko‘lami jihatdan bir-biridan farq qiladi. Ba’zi muammolar jamoa yoki tashkilot doirasidan chetga chiqmaydi, ba’zilari esa ma’lum mintaqqa, millat, etnik guruh o‘rtasida yuzaga keladi, ayrimlari esa bir butun jamiyat miqyosida, hatto global xarakterga ega bo‘ladi. Birinchi navbatda kishilar o‘rtasidagi qarama-qarshilik hamda ziddiyatlar tugunlarini yechish maqsadida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirgan barcha sabablar, omillar har taraflama o‘rganilib, tadqiqotning ilmiy muammosi qo‘yiladi. Ilmiy muammoning qo‘yilishi muayyan sohada amal qilayotgan bilimlar hamda amaliy andozalar doirasidan qoniqmaslik natijasida yuzaga keladi.

Ta'kidlash joizki, muayyan tadqiqot boshlangunga qadar ma'lum bilimlar doirasida hamisha ham sotsial muammoli vaziyat hal etilavermaydi. Odatda, sotsial muammo amaliy vositalar bilan hal etilmagan holatlarda ilmga, tadqiqot o'tkazishga murojaat qilinadi. Bu murojaat ilmda «sotsial buyurtma» deb ataladi. Shu bilan birga, sotsiologik tadqiqotlar tadqiqotchining shaxsiy tashabbusi bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Tadqiqotchining shaxsiy tashabbusi ham real hayot muammolari asosiga qurilishi shart. Ilmiy muammoda sotsial tizimning rivojlanishi va amaliy faoliyatida yuzaga keladigan ziddiyatlar u yoki bu holda aks ettirilishi kerak. Masalan, jamiyatda jinoyatchilikning o'sib borishi muammosini o'rganish lozim bo'lsa, sotsiologik tadqiqot orqali bu masalaning nazariy va amaliy jihatlari aniqlanadi. Jinoyatchilikni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish – uning nazariy jihatini tashkil qilsa, bartaraf etish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish esa amaliy jihatini tashkil qiladi. Sotsiologik tadqiqotlarning nazariy asoslarini o'rganish va undagi kamchiliklarni bartaraf etish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish bir paytda emas, balki mushtarak holda umumiylardan kelib chiqib amalga oshirilishi kerak.

***Tadqiqotning maqsad va vazifalarini aniqlash.*** Muammo qo'yilgandan so'ng tadqiqotning maqsad va vazifalarini aniqlab olish lozim. Ko'p hollarda sotsiologik tadqiqotning maqsad va vazifalari sotsial buyurtmachi tomonidan ham belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi, muammoni o'rganish darajasi, sotsial buyurtmachi va uning manfaatlariga bog'liq bo'lib, uning nazariy yoki amaliy yo'nalishga bo'linishini ko'rsatuvchi mo'ljal vazifasini o'taydi.

Maqsadni amalga oshirish jarayonida bir qator ziddiyatli sotsial holatlarga duch kelish mumkin. Ushbu jarayonda ba'zan faqat asosiy vazifagini emas, ikkinchi darajali vazifalarini ham bir yo'la bajarishga to'g'ri keladi. Shu bois ham ishdagi asosiy va qo'shimcha u yoki bu masalalar bir vaqtida hal etiladi yoki ularni hal qilishning aniq yo'llari belgilab beriladi. Demak, maqsad ma'lum bir vazifani hal qilish natijasida amalga oshiriladi. Agar, maqsad tadqiqot nima uchun o'tkaziladi, degan savolga javob bersa, vazifa tadqiqotni qanday o'tkazish, qo'yilgan maqsadga erishish uchun ishni nimadan boshlash kerak, qanday nazariy-metodologik va metodik xususiyatga ega bo'lgan masalalarni yechish zarur, degan savollarga javob beradi. Maqsadning amalga oshirilishi jarayonida tadqiqotchi uchta an'anaviy vazifani bajaradi. *Birinchidan*, mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan atroficha tadqiq etish, *ikkinchidan*, bu ilmiy-amaliy mavzuning boshqa ilm va hayot jabhalari bilan nechog'lik bog'liqligi, ularga ta'siri masalarini o'rganish va nihoyat, *uchinchidan*, sotsial ziddiyatli holatlardan chiqishning mantiqiy asoslangan yo'llarini belgilab berishdan iboratdir.

Sotsiologik tadqiqotning asosiy vazifasi qo‘yilgan maqsadni qanday amalga oshirishga qaratiladi.

**Tadqiqotning obyekti va predmetini aniqlash.** Tadqiqotning maqsad va vazifalarining qo‘yilishi – uning obyekti va predmetini aniqlashga olib keladi. Sotsiologik tadqiqotlarning obyektini ma’lum bir sotsial tizimdagi sotsial voqelik tashkil qilishi mumkin. Sotsiologik tadqiqot obyektini aniqlaganda, albatta muammodan kelib chiqish kerak! Ko‘pincha mehnat jamoalari obyekt bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, empirik tadqiqotlarning obyektlari – odamlarning fikri, jamoadagi munosabatlar, boshqaruv va mehnatni tashkil qilish samaradorligi hamda boshqalar bo‘lishi mumkin. Tadqiqotning predmeti muayyan masala bo‘lib, uning obyektidan kelib chiqadi. Masalan, sotsiologik tadqiqotning obyekti jamiyat huquqiy tizimining tarkibiga kiruvchi O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi va unda tahsil olayotgan tinglovchi va kursantlar bo‘lishi mumkin. Tinglovchi va kursantlarning ma’lum bir hodisa va jarayonlarga bo‘lgan munosabatlarini aniqlash esa uning predmetini tashkil qiladi.

Obyekt predmetdan ma’no-mazmun doirasi jihatidan ancha kengdir. Ya’ni obyekt zamiridagi bir nechta tadqiqot predmetlarini ajratib olib o‘rganish mumkin. Shuningdek, predmet muammo bilan mos kelishi mumkin. Lekin muammo empirik tadqiqotlarning predmetiga nisbatan keng bo‘lib, muammoda asosan nazariy bilimlar yotadi.

Predmetni ilmiy jihatdan to‘g‘ri ajratib olishda abstraktlashtirish (mut-laqlashtirish) usulining ahamiyati kattadir. Abstraktlashtirish, deganda muayyan predmetning u yoki bu xususiyatlaridan eng muhimlarini, ya’ni ikkinchi darajali xususiyatlaridan ajratib tasavvur qilish tushuniladi. Abstraktlashtirish jarayonida mazkur predmetning umumiyligi xususiyatlarini ifodalash imkoniyatiga ham ega bo‘lishi mumkin. Masalan, mazkur sotsial muammoning mavzusi: yoshlar orasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘lsa, uning predmeti yoshlar o‘rtasida huquqiy bilimlarni keng yoyishga qaratiladi. Chunki huquqiy madaniyatga huquqiy bilimlarni o‘zlashtirmasdan erishib bo‘lmaydi. Shu mavzu obyekti bo‘yicha huquqiy madaniyatni egallash uchun huquqiy tashkilotlar va huquq-tartibot tizimi xodimlari, ta’lim-tarbiya domlalari, ota-onalarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati bo‘lishi mumkin.

**Obyektni tizim sifatida tahlil qilish.** Sotsiologik tadqiqotning dastlabki bosqichi o‘rgani layotgan sotsial obyektni bir butun tizim sifatida o‘rganilishini qayd etishdir. Sotsial obyekt ikki tomonlama, ya’ni bir butunning qismi sifatida va qismlardan tashkil topgan bir butun sifatida tahlil qilinmog‘i lozim. *Birinchi holatda* uning tashqi voqeasi va hodisalar bilan bog‘liqligi, *ikkinchisi holatda* esa uning ichki o‘zaro bog‘liqligi nazarda tutiladi.

Obyekt ma'lum tizim sifatida o'rganilayotganda, uni tashkil qiluvchi elementlarini belgilab olish kerak. Masalan, IIV Akademiyasi tinglovchi va kursantlarining akademiyada o'qitilayotgan fanlarni o'zlashtirish darajasining pasayib ketishi natijasiga ko'ra, uning samaradorligini oshirish masalasi ilmiy muammo sifatida o'rganilayotgan bo'lsa, tadqiqot obyekting taxminiy elementlari quyidagilar: *ayrim o'qituvchilarning talab darajasida dars bera olmasligi; o'qitilayotgan fanlar bo'yicha kutubxonada adabiyotlarning kamligi; bo'sh vaqtning to'g'ri tashkil qilinmaganligi; tinglovchilarning xo'jalik ishlariga ko'p jalb etilishi; fanlar bo'yicha qo'shimcha tadbirlarning olib borilmamasligi; ilmiy to'garak ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi; tinglovchilarda fanlarga bo'lgan qiziqishni uyg'ota olmaslik; o'qitish jarayonlarida zamonaviy texnik vositalarning yetishmasligi va boshqa sabablar bo'lishi mumkin.*

Obyektning yuqorida tilga olingan elementlarining har biri ba'zi fanlarni yetarli darajada o'zlashtirmaslikka sabab bo'lishi mumkin.

**Tushunchalarning nazariy va empirik interpretatsiyasi.** Interpretatsiya – hodisalar, voqelik va tushunchalar mazmunini subyekt tomonidan tushuntirish, sharhlash, tushuntirib berishni anglatadi. Shuningdek, interpretatsiya tadqiqot konsepsiyasining nazariyasi va tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar mazmun-mohiyatini respondentlarga har taraflama tushunarli bo'lishligini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Masalan, dasturni tuzish jarayonida tushunchalarni nazariy va empirik interpretatsiya qilinadi. Nazariy interpretatsiya – tushunchalar mazmuni hamda muammoni nazariy nuqtai nazardan tushuntirishdir. Empirik interpretatsiya – tushunchalarni empirik faktlar bilan taqqoslash, o'rganilayotgan soha bilan muvofiqligini aniqlashtirishni ta'minlaydi.

Sotsiologik tadqiqotlar dasturida ilmiy izlanishga sabab bo'lgan sotsial ziddiyatli muammolar va ularning asosiy tushuncha va atamalaring atroflicha izohlab berilishi muhimdir. Tadqiqotda qo'llaniladigan ilmiy tushuncha va atamalarni tadqiqotchilar tomonidan har xil izohlashlarning oldini olish maqsadida, ularning mazmun va mohiyatini atroflicha tahlil qilish lozim. Masalan, kadrlarning o'zgaruvchanligini o'rganish lozim bo'lsa, albatta «adaptasiya» (moslashish) tushunchasi qo'llaniladi. Bunda kishilarning adaptasiyasi, deyilganda yangi ish joyiga moslashishdan tashqari, sotsial, psixologik, ishlab chiqarish va boshqalarga ham moslashuvi tushuniladi. Tadqiqot dasturida adaptatsiya jarayonini qaysi ko'rsatkich bo'yicha o'lhash mumkinligini aniq-ravshan bayon qilish lozim bo'ladi. Demak, sotsiologik tadqiqot jarayonida tadqiqotning nazariy jihatlari bilan empirik ma'lumotlarni bir-biri bilan taqqoslash zarurati tug'ilgan vaqtida tushunchalarning to'g'ri tahlili qo'l keladi.

**Gipotezani aniqlash.** Tadqiqot konsepsiysi nazariyasi va tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar mazmun-mohiyatining atrof-licha olib berilishi – dastur gipotezasini tuzish uchun keng yo'l ochilishi-ga imkon yaratadi. Gipoteza, ya'ni butun tadqiqot jarayonini tashkil etuvchi bosh metodologik vosita – ilmiy farazdir. Sotsiologik tadqiqotda ilmiy faraz sotsial obyektning tuzilishi haqidagi nazariy jihatdan asoslangan ilmiy taxmin bo'lib, mazkur obyektni tashkil etuvchi turli xil elementlar va aloqalar xususiyati hamda ularning faoliyati va taraqqiyotini o'zida ifodalaydi. Ilmiy faraz o'rganilayotgan obyekt xususida dastlabki tahlil o'tkazilgandan keyin tuzilishi mumkin.

Gipotezaning qanchalik hayotiyligi yoki nohayotiyligi empirik asoslanish jarayonida muayyan sotsiologik tadqiqotni o'tkazish davomida ma'lum bo'ladi. Bunday tadqiqotlar natijasida ilmiy farazlar tasdiqlanadi yoki bekor qilinadi. Hayotiyligi isbotlangan taxmin-faraz muayyan nazariya-ning qoidasi bo'lib, tadqiqotning muvaffaqiyatlari o'tishini ta'minlaydi.

Ilmiy asoslangan faraz quyidagi talablarga javob berish kerak: *boshlang'ich prinsiplarga mos kelishi; ilmiy farazga oid fikrlarning mohiyatiga muvofiq bo'lishi; ilmiy farazda ilgari surilgan fikr allaqachon isbotlangan ma'lum voqeа va hodisalarga qaratilmagan bo'lishi; ilmiy farazda ilgari surilgan fikr hammaga ma'lum va aniq isbotlangan hamda undagi ayrim faktlar haqiqatiga zid bo'lmashigi; ilmiy farazni butun tadqiqot jarayonida isbotlash imkoniyati sotsiologik ta'minlangan bo'lishi lozim.*

Ilmiy faraz empirik metod yordamida tekshirilishi mumkin bo'lgan hamda tadqiqotdagi eng asosiy xususiyatlarni aniqlovchi muhim bilish vositasidir. Ilmiy faraz tadqiqotning asosini tashkil qiladi, qolgan barcha ishlar bu farazni isbotlash yoki inkor etish bilan bog'liq bo'ladi.

**Dasturning ish tartibi bo'limi.** Ish tartibi (protsedura) bo'limi – tadqi-qotda qo'llaniladigan va uni o'tkazish uchun muhim bo'lgan turli qoidalar, harakatlar, vositalarni qo'llash hamda ularning tartibiga bog'liq masalalar yig'indisi bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

**Tadqiqotning qat'iy rejasini tuzish.** Tadqiqotning qat'iy rejasini tuzish ilmiy faraz xarakteriga bog'liq bo'lib, sotsiologik tadqiqot o'tkazishga oid tashkiliy vositalar hamda unga ketadigan sarf-xarajatlar aniqlanadi. Anketa blanklarini tayyorlash, tadqiqot o'tkaziladigan korxonalar bilan shartnomalar tuzish, so'rov o'tkazish uchun respondentlar toplash ishlarini belgilab olishni o'z ichiga oladi. Tadqiqot rejasini tuzish obyektning tuzilishiga aloqador barcha empirik ma'lumotlarni tasniflash bilan yakunlanadi.

Sotsiologik tadqiqot o'tkazish jarayonida texnik va texnologik imko-niyatlarning kengayishi, sotsial axborot va takliflarning har tomonlama mantiqiy asoslangan bo'lishiga doir talablarning ortib borishi, ilmiy izla-

nish davomida ko‘plab mutaxassislarning jalb etilishi ish jarayonining ko‘p qirraliligi, umuman tadqiqot rejasining puxta va ilmiy asoslangan bo‘lishini taqozo etadi.

***Ma'lumotlar to'plash metodi va texnikasini tanlash.*** Sotsiologik tadqiqot metodi asoslangan gipotezadan kelib chiqib tanlanishi kerak. Aniq sotsiologik tadqiqot metodi – dastlabki sotsiologik axborot olish va ularni qayta ishlash usulidir. Aniq sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish, hujjatlar tahlili, sotsial eksperiment, so‘rov (intervyu (musohaba), anketa, test), saralash, sotsiometriya usullari qo‘llanilishi mumkin. Bu sotsiologik tadqiqot o‘tkazish usullari o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Ular to‘g‘risida mazkur darslikning keyingi mavzusida batafsil so‘z yuritamiz. Sotsiologik tadqiqotlar olib borish jarayonida qo‘llanilishi lozim bo‘lgan bir usul o‘rniga boshqa usulning qo‘llanilishi noto‘g‘ri natijalar berishi mumkin. Masalan, anketa to‘lg‘azish yordamida olish mumkin bo‘lgan to‘liq ma'lumotni intervyu yoki kuzatish usuli yordamida olib bo‘lmaydi. Shu bois tadqiqot metodini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Sotsiologik tadqiqot texnikasi deganda, tadqiqot jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan usullardan samarali ravishda foydalanishning yo‘l-yo‘riqlari nazarda tutiladi. Ya’ni, olingan ma'lumotni ma'lum shkalalar va statistika apparati yoki kompyuterda umumlashtirish mumkin.

***Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish.*** Aniq sotsiologik tadqiqotlarda yig‘ilgan materiallarni qayta ishlash va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Materiallarni dastlabki qayta ishlash tadqiqotchi tomonidan olingan empirik materiallarni tartibga solish bilan yakunlanadi. Keyingi bosqichda empirik materiallar shifrlanadi yoki kodlashtiriladi. Bunda har bir javob varianti sonlar bilan kodlashtiriladi. Unda anketa va intervyu-blankdagi ma'lumotlar tartibga solingen sonlarga aylanadi. Kodlashtirishda sonlarning ahamiyati emas, balki shu sonlar orqali ishlab chiqiladigan ma'lumotlar ahamiyatli hisoblanadi.

Ma'lumotlarni atroflicha tahlil qilish hozirgi zamon sotsiologidan chuqur va atroflicha tahliliy bilimni talab etadi. Ular jumlasiga tahlilning matematik usullarini yaxshi o‘zlashtirish, dasturlashtirishning zarur usullarini bilish, kompyuterda ishlash qobiliyatini kiritish mumkin.

***Olingan natijalarning nazariy interpretatsiyasi.*** Olingan natijalarning nazariy interpretatsiyasi aniq sotsiologik tadqiqotlarning muhim bosqichlaridan bo‘lib hisoblanadi. Bu bosqichda olingan natijalarning tadqiqot dasturida ilgari surilgan ilmiy faraz bilan to‘liq mos kelishi yoki kelmasligi aniqlanadi hamda tadqiqot jarayoni umumlashtiriladi.

***Sotsiologik tadqiqot hisoboti.*** Sotsiologik tadqiqotning yakuniy bosqichida hisobot tayyorланади. Hisobot ilmiy izlanish jarayonida to‘plangan

empirik ma'lumotlarni o'zida ifodalab, dasturda belgilangan barcha talablarning qay darajada bajarilganligini ifodalaydi. Hisobot sotsiologik tadqiqotning o'rganilayotgan obyekt bo'yicha yakuniga yetganligi hamda unda empirik ma'lumotlar guruhlashtirilib tartibga solinishi, tizimli holda tuzilib, kelgusi sotsiologik tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilish holatiga keltirilib, buyurtmachiga topshiriladi.

Hisobot ikki tarkibi qismdan, ya'ni *nazariy* va *amaliy* bo'limlardan iborat bo'lgan holda tuziladi. Hisobotning *birinchi* nazariy bo'limida muammoning qo'yilishi, uning dolzarbligi, muammoli masalalarining ta'rifi, asosiy tushunchalarning nazariy tahlili va muammoning qay darajada o'rganilganligi, ya'ni uni hal etishning mavjud yo'llari e'tiborga olinib ko'rsatiladi. Hisobotning ikkinchi *amaliy* bo'limida tadqiqotning amaliy natijalari aniq ko'rsatilib, xulosalari va tavsiyalari berilib, amaliy sotsiologik tadqiqotlardan kutilgan asosiy maqsadga erishganligiga alohida e'tibor qaratiladi, kelgusi tadqiqotlarga uslubiy va texnikaviy tavsiyalar beriladi.

Hisobotni tuzishda quyidagi talablar qo'yiladi: *birinchidan*, sotsiologik tadqiqot obyekti va predmetiga muvofiq tanlab olingan va o'rganilgan muammoning kelib chiqishiga sababchi bo'lgan barcha jihatlari keng aks etishi zarur. Bu o'z navbatida tadqiqot natijalarini tahlil qilish, umumlashtirish, muhim qismdan nomuhim qismini ajratishda qo'l keladi. *Ikkinchidan*, hisobotning har bir bo'limida muammo va tadqiqot natijalari qat'iy va aniq belgilangan bo'lishi, ya'ni birinchi bo'lim muammo va tadqiqot natijalarini olmog'i, ikkinchi bo'limda esa ilmiy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalarni o'z ichiga olishi zarurdir. *Uchinchidan*, hisobotda anketa savollari respondentlar ruhiga mos, javoblar umumlashtirilgan holda ixcham va to'g'ri ifodalanishi hamda ilmiy hisobot aniq hayotiy hujjatlar va statistik ma'lumotlar asosida tasdiqlangan bo'lishi kerak. *To'rtinchidan*, hisobot ixcham, to'g'ri va texnik jihatdan yuksak saviyali tarzda yozilishi kerak.

Hisobotning hajmi qat'iy belgilanmagan bo'lib, tadqiqot o'tkazish doirasidan kelib chiqqan holda yozilishi, tadqiqotga oid sxemalar, jadvallar, diagrammalar ham tayyorlanib, ular ilova shaklida ko'rsatilishi, hisobotga doir tadqiqotchi tomonidan tushuntirish xati yozilgan bo'lishi kerak.

Shuning bilan birga sotsiologik tadqiqotlar bo'yicha ilmiy hisobot yozilishi va tavsiya etilishi jarayonida tadqiqotning eng muhim va zaruriy natijalari to'g'risida buyurtmachi muassasalarga tezkor xabar yuborish maqsadga muvofiqdir. Hisobot alohida to'plangan hujjat sifatida baholanishi va matbuotda e'lon qilinishi mumkin.

## **2-§. Sotsiologik tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish**

*Sotsiologik tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish* – tadqiqotning muhim bosqichi bo'lib hisoblanadi. Bu bosqichda ilgari surilgan ilmiy faraz tekshirib ko'rildi. Shuningdek, o'rganilayotgan sotsial obyekt haqida olingan ma'lumotlarni shu obyekt haqida oldindan ma'lum bo'lgan ma'lumotlar bilan solishtiriladi. Sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichining ma'no va maqsadi – natijalarning mohiyatini tushuntirish va fikrlarni umumlashtirish hamda yagona nazariy tizimga keltirishdir.

Tahlil olingan axborotlarni tartibga solish, guruhlarga bo'lish va tasniflashdan boshlanadi. Sotsial axborotlarning har xil alomatlarga ega bo'lishi hamda sotsiologik tadqiqotlarning vazifalari va maqsadlari xilma-xilligini inobatga olib, har xil guruhlashadir uslublarini qo'llash mumkin.

**Guruhlashadirish.** Guruhlashadirishning eng sodda shakllaridan biri olingan ma'lumotlarning belgilari (masalan, shaxsning yoshi, jinsi, kasbi, ma'lumoti, bergen mulohazasi va hokazo) bo'yicha sinchiklab, maxsus o'rganishdir. Hozirgi paytda bu uslubning imkoniyatlari kompyuterlardan foydalanish natijasida ancha kengaydi. Bu yerda axborotlarni statistik tahlil qilish natijasida javoblarning o'rtacha arifmetik ko'rsatkichlarini hamda javoblarning foiz bo'yicha miqdorlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

*Kesishgan guruhlashadirish* – ikki belgisi bo'yicha oldindan taxminan tartibga solingan o'zaro bog'liq ma'lumotlardir. Kesishgan guruhlashadirishning asosiy vazifasi o'rganilayotgan obyekt o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashdir. Masalan, oilada erkak va ayolning yosh jihatdan o'ziga xosligi bo'lib, ko'plab mamlakatlarda oiladagi erkaklarning yoshi ayollarnikiga qaraganda kattaligi kuzatiladi – bu oddiy holat. Shunga qaramay, Rossiya o'lkasining shimolidagi shaharlar aholisining demografik tarkibining o'ziga xosligi shundaki, oilada ko'pchilik ayollar o'z erlaridan yosh jihatdan katta bo'lishadi. Bunday guruhlashadirish, ba'zi holatlarni hisobga olmaganida, tadqiqot natijalari bo'yicha tayyorlanadigan hisobot uchun yetarlidir.

*Empirik tasniflash* – javoblari ma'lum nazariy asosga ega bo'lmagan holda tadqiqot natijalariga ko'ra tasniflashdir. Empirik tasniflashda sotsial obyektlarning mustahkam bog'liqligi xususiyatlari bitta yoki ikkita belgisi bo'yicha emas, balki bir vaqtning o'zida bir nechta o'lchamlari bo'yicha aniqlashdir. Masalan, oilada er va xotinning yoshi ularning millati, turar joyi, kasbi va boshqa jihatlari bo'yicha tahlil qilinadi. Bugungi kunda ko'p o'lchamli empirik tasniflash ishlari matematik hisoblash usullari orali, ya'ni qayd etganimizdek, zamonaviy kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi.

Nazariy tasniflashda tadqiqot obyektining belgilari oldindan mavjud nazariyaga mos ravishda amalga oshiriladi. Bunda empirik tasniflash orqali hosil qilingan ma'lumotlar asosida tadqiqotning ilmiy farazlari tekshiriladi. Aytish joizki, o'rganilayotgan muammoni iloji boricha to'laroq qamrab oladigan bir nechta ilmiy faraz ilgari surilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy farazlarning hayotga yaqinligi samarali vosita sifatida kishilarning sotsial faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli tadqiqotchi ilmiy farazni sinash jarayonida ko'proq real hodisalarga tayanishi va xilma-xil ma'lumotlarni umumlash-tirishi hamda empirik materiallardan o'rganilayotgan obyektning zaruriy, muhim jihat va xossalarni ajratib berishga intilishi kerak. Ilmiy farazlar amaliyotda sotsial eksperimentlar orqali sinab ko'rildi.

Sotsiologik tadqiqot natijalari tahlil yakunida hosil bo'ladigan hisobotda o'z aksini topadi. Hisobot tadqiqot jarayonida belgilangan vazifalarning yechilishi to'g'risida izohlash xati hamda ilovalarni o'z ichiga qamrab oladi. Izohlash xatida sotsiologik tadqiqot dasturida belgilangan vazifalarning bajarilishi ketma-ket bayon qilinadi. Ilovalarda esa raqamlar, jadvallar va boshqa shakllarda qayd etilgan ko'rsatkichlar, hujjatlar, anketa hamda blankalarning barchasi taqdim etiladi.

Hisobot bo'limlarida qo'yidagi jihatlar o'z aksini topishi lozim. *Birinchidan*, o'rganilayotgan sotsial obyektning miqdoriy o'lchamlarini o'z ichiga olgan bo'lishi, *ikkinchidan*, uning rivojlanish sur'atlari (o'sish yoki pasayish) yo'nalishlarini ko'rsatishi, *uchinchidan*, sotsial hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik qonuniyatlarini ishonchli ko'rsatkichlar yordamida ochib berishi lozim.

Ta'kidlash joizki, huquq-tartibot tizimi, ayniqla ichki ishlar organlari xodimlarining amaliy faoliyatida, umuman jamiyatning boshqa tuzilmlarida ham sotsiologik tadqiqotlar olib borish o'ziga xos murakkab jarayondir. Chunki sotsiologik tadqiqot olib borishning o'ziga xos talab va qoidalari bo'lib, tadqiqotchidan chuqur bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi. Shuning uchun huquq-tartibot tizimining bo'lg'usi har bir xodimi chuqur sotsiologik bilimga ega bo'lishi hamda amaliyotda sotsiologik tadqiqot o'tkazishning qonun-qoidalarni egallab olishi shart!

Xulosa o'rnida qayd etish mumkinki, empirik sotsiologik tadqiqotlar sotsiologiya fanida muhim va zaruriy ahamiyat kasb etib, mazkur fanning jamiyat hayotida tutgan o'rnini belgilaydi.

Sotsiologik tadqiqotni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish natijalariga ko'ra, ulardan ijtimoiy boshqaruv amaliyotida unumli tarzda foydalanish mumkin. Empirik ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish jarayoni-dayoq, o'rganilayotgan obyektning muhim jihatlari aniq bo'la boshlaydi.

Bu jihatlarni nazarda tutgan holda, ilmiy takliflar, tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish, sotsiologik tadqiqot natijalaridan amaliyatda foydalanish uchun asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Sotsiologik tadqiqot natijalaridan amaliyatda foydalanish bosqichi: ikki yoqlama jarayon bo‘lib, unda olimlar, ilmiy xodimlar va amaliyatchilar faol tarzda qatnashadilar. Ba’zi sotsiologlar fanning asosiy vazifasi aniq ma’lumotlar yig‘ib, kerakli xulosalar va o‘rganilayotgan ijtimoiy muammo xususida zarur takliflar va tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, ularni hayotga, amaliyatga tatbiq qilish esa jamoat tashkilotlari, ma’muriyatning ishi, deb hisoblaydilar. Bunday qarash ilmiy ma’lumotlar va ularning bosh-qaruvdagagi yechimi o‘rtasida uzilishga olib keladi. Bizningcha, ikki yoqlama bosqich yaxlit ilmiy-amaliy dastur assosida faoliyat ko‘rsatishi kerak.

Sotsiologik tadqiqot natijalarini amaliyatga tatbiq etishning turli shakl va usullari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: 1) *sotsiologik tadqiqot natijalarini tadqiqot o‘tkazilgan korxona, tashkilot yoki muassasaning o‘zida rahbariyatdan tortib, oddiy ishchilar ishtirokida himoya qilish*; 2) *sotsiologik tadqiqot natijalarini kitob shaklida, uslubiy qo‘llanma, maqolalar to‘plami va matbuotda nashr etish*; 3) *sotsiologik tadqiqot natijalari bo‘yicha mutaxassis olimlarning radio va televideniyeda chiqishlarini tashkil qilish ham o‘ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi*; 4) *sotsiologik tadqiqot natijalari bo‘yicha ilmiy-amaliy anjumanlar, seminarlar, davra suhbatlari, simpoziumlar tashkil etish va o‘tkazish kabi shakllari ham muhim ahamiyatga ega*; 5) *sotsiologik tadqiqot natijalaridan ilmiy-tadqiqot bilan shug‘ullanuvchi olimlarning ilmiy ishlari hamda doktorantlarning doktorlik disser-tatsiyalarida o‘z aksini topishi ham amaliy ahamiyatga egadir*.

Ushbu natijalardan amaliy jihatdan foydalanishda jamoatchilik fikrini o‘rganuvchi sotsiologik tadqiqot markazlari o‘z faoliyatlarida qo‘llashlari mumkin. Afsuski, bunday markazlar respublikamizda juda kam? Har bir viloyat, shahar va tuman hokimliklari qoshida shunday markazlar tashkil qilinsa, jamiyatimiz infrastrukturasidagi mavjud muammolarning hal qilib borilishida jiddiy o‘zgarishlar yuz berishi ayni muddao bo‘lar edi.

Hozirgi paytda amaliy sotsiologiyaning rivojlanishi – bu jamiyatda ziddiyatli sotsial muammolar vujudga kelishining oldini olish hamda mavjud bartaraf etish yo‘l-yo‘riqlarini belgilab berishi, to‘g‘ri va aniq amaliy vazifalarni ishlab chiqishi bilan bog‘liq.

### **3-§. Sotsiologik axborotlarni yig‘ishning asosiy metodlari**

**Kuzatish metodi.** Kuzatish usuli faqat sotsiologiya fanining usuli bo‘lib qolmay, balki tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarning barcha sohalarida

keng qo'llaniladi. Sotsiologik kuzatish – voqelikdagi hodisa va jarayonlarni muayyan maqsadga yo'naltirishga qaratilgan hissiy bilish usulidir. Kuzatish jarayonida tadqiqotchi voqealari yoki hodisaning belgilari, xususiyatlari, o'ziga xosligini ajratib oladi. Bunda kuzatilayotgan obyekt to'g'-risidagi ma'lumotlar kuzatish daftari yoki alohida blankalarga qayd etib boriladi. Kuzatishda fotoapparat yoki videokamera va boshqa texnika vositalaridan foydalanish mumkin. Kuzatish ma'lumotlarni yig'ishning dastlabki usuli bo'lib, izlanayotgan obyekt haqidagi umumiyligi taassurotlarni vujudga keltiradi.

Kuzatish turli maqsadlar va shaklda, har xil qamrov va vositalar yordamida olib boriladi. Ma'lumki, barcha odamlar o'z hayotlarida kuzatish usulidan u yoki bu darajada foydalanadilar. Ular foydalanayotgan usul ilmiy kuzatish usuli emas, oddiy kuzatish usulidir. Odamlarning kuzatish usulidan keng foydalanishi – ularning bu usulni yaxshi egallaganliklarini anglatmaydi. Bu usuldan samarali tarzda foydalanish uchun uning xususiyatlari, imkoniyat va chegaralarini ilmiy jihatdan o'rganish zarur.

Oddiy turmushdagi kuzatish ham aksariyat hollarda muayyan maqsadga yo'naltirilgan va shunga qarab tashkil etilgan bo'ladi. Lekin bu kuzatishlarda ilmiy maqsad nazarda tutilmagan va u ilmiy muammoni hal etishga qaratilmagani uchun ilmiy kuzatish bo'la olmaydi. Masalan, tomorqasiga ekilgan sabzavotlar rivojini kuzatayotgan dehqonning kuzatishi bilan tajriba uchastkasidagi o'simliklar rivojini kuzatayotgan tadqiqotchi olimning kuzatish usuli sirtdan qaraganda bir xil ko'rinsa ham, aslida bir-biridan keskin darajada farq qiladi. Dehqon o'simliklarni kuzatayotganda hayotiy tajribasiga asoslansa, tadqiqotchi ham hayotiy tajribasiga, ham ilmiy nazariyalarga asoslanib kuzatish olib boradi.

Ilmiy kuzatishlar muayyan nazariya yoki farazni tasdiqlash, isbotlash yoki rad etishni maqsad qilgan holda olib boriladi. Ilmiy kuzatish usulining muhim jihatni uning oldindan rejalashtirilishi va muntazam tarzda olib borilishidir. Ushbu rejalashtirish jarayonida tadqiqotchi qay maqsadni ko'zlab, qaysi nazariya va farazlar hamda qanday vositalardan foydalanigan holda kuzatish olib borishini aniqlab oladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda kuzatish usulining qo'llanilishi, uning tabiiy fanlarda qo'llanishidan farq qiladi. Tabiatda tadqiqotchining kuchli his-tuyg'ularini uyg'otadigan voqealar yuz bermaydi. Jamiyatda yuz berayotgan hodisalarni kuzatayotganda esa tadqiqotchi his-tuyg'ularga berilib ketishi, bo'layotgan hodisalarga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishi va bu hol esa tadqiqot natijalariga, xulosalarning ilmiy va obyektiv bo'lishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois ijtimoiy hodisalarni

kuzatishga harakat qilayotgan tadqiqotchi o‘z his-tuyg‘ularini tizginlay olishi, xulosa chiqarish paytida shu his-tuyg‘ulardan yuqoriroqqa ko‘tarila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Sotsiologik kuzatish olib borishning shart va talablari quyidagilarda aks etadi:

*Kuzatish kerakli saviyada va darajada tashkil qilinishi kerak.* Bu shart sotsiologik tadqiqotning rivoji bilan bog‘liq bo‘lib, natijalarning obyektivligini ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi. Kuzatish olib borishda shunday holatlar vujudga keladiki, bunda ushbu jarayon video tasvirga tushirilmasa yoki ovozlar yozib olinmasa, uni tabiiy ravishda qaytarish mumkin emas. Shuning uchun kuzatishni texnik jihatdan ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

*Kuzatishning muntazamliligi.* Bu shart ham tadqiqot natijalarining obyektivligini ta’minlashga qaratiladi. Kuzatish muntazam olib borilmay, o‘lda-jo‘lda va ahyon-ahyonda olib borilsa, tadqiqot obyekti uchun muhim bo‘lgan holatlar kuzatilmay qolishi va uning natijalari obyektiv bo‘lmay qolishi mumkin.

*Kuzatuvchining xolisligi.* Kuzatuvda xolislik ta’minlanmasa, tadqiqot jarayonida kuzatuvchi o‘zi o‘rganayotgan jarayonga ijobi yoki salbiy munosabat bildirishi va buning oqibatida voqealarni subyektiv talqin qilishi mumkin.

*Kuzatilayotgan obyekt to‘g‘risida mumkin qadar ko‘proq ma’lumot to‘plash.* Obyekt qanchalik batafsil kuzatilsa, chiqarilgan xulosalarning haqiqatga yaqin bo‘lishi uchun shunchalik imkoniyat yaratiladi. Aksincha, yetarli bo‘lмаган ма’лумот асосида xulosalar chiqarilsa, xulosalarning noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi.

*Kuzatishining borishi va natijalarini batafsil qayd etish.* Agar kuzatish jarayoni va natijalari qayd etib borilmasa, xulosa chiqarish paytida kuzatishning muayyan natijalari e’tibordan chetda qolishi mumkin. Bu esa xulosaning chala yoki noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi. Kuzatish jarayonini qayd etib borishda ayniqsa texnika vositalari katta yordam berishi mumkin<sup>1</sup>.

Sotsiologik kuzatishlarni shartli ravishda ikki turga *chetdan kuzatish* va *qo‘silib kuzatishga* bo‘lish mumkin. Obyekt *chetdan kuzatilganda* ushbu jarayon ishtirokchilarining o‘zları kuzatish obyekti ekanliklaridan mutlaqo bexabar bo‘ladilar. Masalan, ma’lum bir jinoiy guruhning jinoyatga oid faoliyatini o‘rganmoqchi bo‘lgan tergovchi yoki tadqiqotchi jinoiy guruh a’zolarining xatti-harakatlarini chetdan kuzatishi mumkin. Bunda jinoiy guruh a’zolari o‘zlarining kuzatish obyekti bo‘lganliklarini bilishlari kerak emas? Agar ular o‘zları sotsiologik kuzatish obyekti bo‘lganliklarini

---

<sup>1</sup> Saithodjaev. H.B Sotsiologia. – T., 2008. – B. 144–145.

bilib qolsalar, ularning xatti-harakatlarida ma'lum o'zgarishlar yuz beradi va kuzatish natijalari obyektiv bo'lmay qoladi. Chetdan kuzatishda fotoapparat, videokamera yoki boshqa texnik vositalardan foydalanish qo'l keladi. Chetdan kuzatayotgan tadqiqotchi o'rganilayotgan obyektga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi va uni tabiiy holda kuzatib o'rganadi.

*Qo'shilib kuzatilganda* tadqiqotchi ikki xil: *ochiq kuzatish* va *yashirin yoki xufiya kuzatish* usulidan foydalanishi mumkin. *Ochiq kuzatilganda* tadqiqotchi o'zi o'rganayotgan guruh yoki jamoa a'zolariga maqsadini aytadi. Masalan, mehnat jamoasidagi yangi a'zolarning psixologik moslashuv jarayonlarini kuzatishda shu usuldan foydalanish mumkin. Lekin bu turdag'i kuzatishning imkoniyati ancha cheklangan bo'ladi. Chunki maxsus kuzatish obyekti ekanliklarini bilgan kishilar, tabiiyki o'z xulqlarini o'zgartiradilar.

Jinoiy guruhni kuzatayotgan tadqiqotchi *yashirin holda* jarayonlar va munosabatlarni kuzatish imkoniyatiga ega bo'lsa, bunday kuzatish sotsiologiyada *yashirin kuzatish* usuli deb nomlanadi. Bu usul o'rganiladigan obyektni tabiiy holda tadqiq qilish imkonini beradi. Bu usul yordamida *yashirin*, ba'zan esa yot kishilardan sir tutiladigan hodisalarni ham kuzatish mumkin. Masalan, amerikalik sotsiolog Uilyam Uayt italiyalik emigrant oilalaridan bo'lgan yoshlar orasida reket va buzgunchilikka moyillikning kelib chiqish sabablarini o'rganish va fosh etish uchun ular orasida uch yarim yil yashaganligini qayd qiladi.

Sotsiologik kuzatish ilmiy empirik bilish usuli sifatida va mohiyate'tibori bilan murakkab jarayon bo'lgani uchun reja asosida olib boriladi. Kuzatish rejasi empirik bilish usulning xususiyatlari va asosiy bosqichlarini nazarda tutgan holda tuziladi va quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Kuzatish obyekti aniqlanadi. Kuzatish obyekti ijtimoiy rivojlanishdagi ziddiyatlarni aniqlash uchun buyurtmachi yoki shaxsan sotsiologning o'zi tomonidan olib boriladi. Kuzatish obyekti aniqlangandan keyin uni amalga oshirishning yo'l-yo'riqlarini topish dastlabki vazifadir. Masalan, jinoiy guruh faoliyatini o'rganmoqchi bo'lgan tadqiqotchi yoki ichki ishlar organi xodimining oldidagi dastlabki vazifa uning shu jinoiy guruhga qanday qilib yaqinlashishi va kirib borishi, guruhdagi jarayonlar oqimiga ta'sir o'tkazish yo'lini topishdir. Bu vazifani hal qilish uchun rasmiy va norasmiy imkoniyatlardan, ochiq va *yashirin* usullardan qay birini qo'llash masalasi hal qilinadi. Bu masalani hal qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan masala kuzatishning qaysi turidan foydalanishni aniqlashdir.

Kuzatish turlaridan qay birini qo'llash obyektning xususiyatlari, tadqiqot maqsadi, ko'lami, ajratiladigan vaqt va boshqalarini e'tiborga olgan

holda belgilanadi. Agar vaqt yetarli bo‘lmasa, kuzatishning yashirin turidan foydalanish imkoniyati bo‘lmaydi. Kuzatish turi ham aniqlangandan keyin navbatdagi vazifa – kuzatish anjomlari, jihozlari o‘quv ashylari va hokazolarni tayyorlashdir. Ashyo va jihozlar ham tayyor bo‘lgandan keyin kuzatish amalga oshiriladi. Bu jarayonda kerakli ma’lumotlar to‘planadi va tadqiqotchi esda tutishi muhim bo‘lgan holat: kuzatish natijalari va umuman, kuzatilayotgan jarayon o‘z vaqtida va batafsil tarzda yozib boriladi. Bunda tayyorlab qo‘yilgan ovoz yozish, kino, foto, video kamera vositalaridan foydalanish mumkin. Kuzatish tugagandan keyin uning xulosalari obyektiv bo‘lishini ta’minalash maqsadida natijalar yana bir nazoratdan o‘tkaziladi.

Kuzatish natijalarini nazoratdan o‘tkazish uchun jarayon qatnashchilari bilan suhbatlashish, hujjatlarga murojaat qilish yoki shu turdagи tadqiqot o‘tkazgan boshqa sotsiologlarning tajribasidan foydalanish mumkin.

Kuzatishning so‘nggi bosqichi kuzatilgan jarayonlar to‘g‘risida hisobot tayyorlashdir. Hisobot kuzatish to‘g‘risidagi yakuniy hujjat bo‘lgani uchun, u juda izchil va batafsil tayyorlanishi kerak. Unda kuzatish o‘tkazilgan vaqt, joy va kuzatishning borishi haqida to‘la ma’lumot yozilishi lozim. Kuzatilgan shaxs va obyekt batafsil tavsif etilishi kerak. Bundan tashqari, kuzatuvchi o‘zi kuzatgan jarayonga ta’sir o‘tkazgani to‘g‘risida hamda o‘zining fikr-mulohazalarini hisobotda bayon qilishi shart.

**Sotsial eksperiment.** Sotsial eksperiment nima? Sotsial eksperimentlar qachon, qayerda va qanday o‘tkaziladi? Ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rni nimada? kabi masalalar bilan sotsiologiya fani shug‘ullanadi. Eksperiment lotincha experimentum so‘zidan olingan bo‘lib, sinov, tajriba ma’nolarini anglatadi. Sotsial eksperiment – bu ijtimoiy ahamiyat kasb etib, ya’ni kishilar jamoasida, ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Boshqacha e’tirof etadigan bo‘lsak, sotsial eksperiment – voqeа va hodisalar o‘rtasidagi sababiy aloqalarni o‘rganish hamda nazorat qilish va boshqarish sharoitlarida yangi bilimlarni olish uchun qo‘llaniladigan umummilliy usuldir. Demak, sotsial eksperimentlar maqsadga kirishish hamda yangi amaliy usullarni izlash va boshqarishda qo‘llaniladi. Bu o‘rinda sotsial eksperiment sotsiologik ma’lumotlar yig‘ishning asosiy usullaridan birini tashkil qilishi hamda uning tabiiy fanlar sohalarida qo‘llaniladigan eksperimentlardan farqli jihatlarini qayd qilib o‘tmoq joizdir. Eksperiment sun’iy yaratilgan sharoitda bir yoki bir nechta o‘zgaruvchan miqdorning boshqaliga ta’sirini o‘rganish, deb ta’riflash mumkin. Eksperiment ko‘pincha tabiiy fanlar sohasida keng qo‘llanilib, alohida maxsus eksperimentlar uchun moslashtirilgan xonalarda o‘tkaziladi. Sotsial eksperiment tabiiy

fanlar sohalarida o‘tkaziladigan eksperimentlardan farq qiladi. Sotsiologiyada uni qo‘llash doirasi cheklangan bo‘lib, alohida xonalarga faqat kichik guruhlarni joylashtirish mumkin. Lekin ular ham o‘zлari ustidan tajriba o‘tkazilayotganliklaridan xabardor bo‘lishadi, natijada eksperiment obyektiv bo‘lmay qoladi!?

Shunday bo‘lsada, sotsiologiyada sotsial eksperiment usuli ba’zan muvafqaqiyatlар qo‘llaniladi. Bunga Filip Zimbardo o‘tkazgan ajoyib tadqiqot misol bo‘la oladi. U o‘ziga xos «qamoqxona» tashkil etib, unda talabalar mahbuslar va qo‘riqchilar rolini o‘ynagan. Uning maqsadi turli rollarni ijro etish orqali talabalarning xulq-atvori qay darajada o‘zgarishini aniqlash edi. Natijalar tadqiqotchilarni hayratga soldi. «Qo‘riqchilar» tez orada avtoritar muomala tarzini o‘zlashtirib olib, «mahbuslar»ga nisbatan haqiqiy dushmanlarcha munosabatda bo‘la boshladilar. Ular «mahbuslar»ni haqorat qilar, qo‘rqitar edi. Ularning sheriklarida esa aksincha, haqiqiy qamoqxona mahbuslarida kuzatiladigan apatiya va isyonkorlik belgilari paydo bo‘la boshladi. Bu ko‘rinishlar shu qadar yaqqol ko‘zga tashlanar, vaziyat esa shunchalik keskin ediki, eksperimentning boshlanishidayoq to‘xtatishga to‘g‘ri keldi. Tadqiqotchi qamoqxonalardagi xulq-atvorni u yerdagilarning shaxsiy xislatlari emas, muhitning o‘zi belgilaydi, degan xulosaga keldi<sup>1</sup>.

Sotsial eksperiment usulining asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: *obyektiv reallik tizimiga ta’sir ko‘rsatish; nisbatan ajratib olingen eksperimental omilni tadqiq qilinayotgan obyektga nisbatan rejali asosda qo‘llash; uning oqibatlarini rejali nazorat qilib borish; o‘zgarish samaradorligi hamda ijobiy va salbiy jihatlarini o‘lchash nazarda tutiladi.*

Sotsiologik va sotsial-psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eksperiment usulidan foydalanish ikki asosiy omilga bog‘liq bo‘ladi: tadqiqot obyektining o‘ziga xosligi va tadqiqot qilinayotgan sotsial guruh javob reaksiyasining xarakteriga bog‘liq bo‘ladi. Bu usul har qanday sotsial obyektga ham qo‘llanilavermaydi. Bu usuldan foydalanishda, eng avvalo tadqiq etilayotgan sotsial obyekt misolida eksperiment o‘tkazish mumkin, deb topilsa, uni o‘tkazish chegarasi aniq belgilanmog‘i lozim. Eksperiment sotsial obyekt (tizim) funksional munosabatlarini buzmasligi va izdan chiqarmasligi kerak.

Sotsial eksperimentlar o‘z vazifasi va mazmuni hamda yakuniy natijasi bilan farq qilsa-da, barchasiga xos ichki tuzilishga ega bo‘ladi. Uning ichki unsurlariga eksperiment o‘tkazuvchi (tadqiqotchi, olimlar guruhi, ilmiy laboratoriya), yaratiladigan shart-sharoit tizimi – eksperimental omil, eksperimental holat va eksperiment natijalari kiradi.

---

<sup>1</sup> Энтони Гидденс. Социология. – Т., 2002. – Б. 775.

Sotsiologiyada sotsial eksperiment asosan 3 turida olib boriladi:

1. Ekspost-fakto eksperiment. Bunda eksperiment o‘tmishdan hozirgacha bo‘lgan ijtimoiy tadqiqot obyekti qilib olinganda o‘tkaziladi. 2. Taqqoslash tamoyiliga asoslangan eksperiment. Bu turda hozirgi davr ijtimoiy jarayonlari tadqiqot obyekti qilib olinadi. 3. Proyektli eksperiment. U hozirdan kelajakka yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Bulardan tashqari sotsial eksperimentlar tadqiqot xususiyatiga ko‘ra: fan sohasi va ijtimoiy jarayonlarni boshqarishdagi eksperimentlar; sotsial eksperiment tarkibining xarakteriga ko‘ra: dala va laboratoriya sharoitidagi eksperimentlar; mantiqiy tarkibiga ko‘ra: parallel va davomiy tarzda turlarga bo‘linadi.

Sotsial eksperiment o‘tkazishning muayyan talablariga ko‘ra, quyidagi jihatlar nazarda tutiladi: *kishilarining amaliy faoliyati hamda muayyan tizimning biror sohasi bo‘yicha sotsial eksperiment o‘tkazishda ommaning tashabbusiga tayanish; tadqiqotning maqsadi, dasturi va tuzilishi jamiyatning ijtimoiy manfaatlariga mos kelishi; sotsial eksperiment tadqiq etilayotgan obyektlarning faol shakllanishiga mos kelishi; ijtimoiy-psixologik, axloqiy, huquqiy, siyosiy sohalaridagi sotsial eksperimentlar kishilar hayotidagi moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.*

Sotsial eksperiment o‘tkazish muayyan bosqichlardan iboratdir: *Birinchi bosqich* – nazariy bosqich bo‘lib, unda o‘tkaziladigan eksperiment turi belgilanadi va nazariy jihatdan asoslanadi. Mavjud imkoniyatlar eksperiment omillar va tadqiqot obyekting o‘ziga xos jihatlari hisobga olinadi. *Ikkinci bosqich* – eksperiment dasturida ko‘rsatilgan asosiy vazifalar va metodikasi ishlab chiqiladi. *Uchinchi bosqich* – eksperiment dasturida ko‘rsatilgan asosiy vazifalar aniq vositalar orqali obyektga tatbiq qilinadi. *To‘rtinchi bosqich* – so‘nggi bosqich bo‘lib, unda eksperimentdan olingan natijalar ilmiy tahlil qilinadi va baholanadi.

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, jamiyat hayotining umumsosiologik muammolari ustida olib boriladigan sotsial eksperimentlar kutilgan natjalarni bermaydi. Bunda faqat ijtimoiy munosabatlarning funksional va rivojlanish qonuniyatlariga putur yetkaziladi, xolos. Kishilar boshiga og‘ir kulfatlar solib, bartaraf qilinishi qiyin oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Jamiyat hayotining maxsus sohalari doirasida, mikrososiologik obyektlar ustida sotsial eksperimentlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki nisbatan kichik doirada sotsial obyektda o‘tkazilgan eksperiment natjalari aniq muddat ichida o‘z natijalarini ko‘rsatishi mumkin hamda uning oqibatlari salbiy jihatlarga ega bo‘lsa, ijtimoiy hayotning boshqa

sohalariga yoyilib ketmaydi. Bu natijalar eksperiment o'tkazilgan tadqiqot obyektiga tegishli bo'ladi. O'tkazilgan eksperimentning ijobiy natijalarini hayotning boshqa sohalariga qo'llash, tatbiq qilish mumkin.

Sotsial eksperiment jamiyatning ma'lum bir sohalarida, muayyan hududda, tashkilot yoki korxonalarda yoxud ma'lum guruhlarda amalga oshirilishi mumkin. Sotsial eksperiment o'tkazishdan avval ilmiy faraz asosida uning obyekti tanlanadi va eksperiment o'tkazish uchun shart-sharoit vujudga keltiriladi, eksperiment va nazorat guruhlari tashkil qilinadi. Masalan, IIV Akademiyasida tahsil olayotgan tinglovchilarning ma'lum guruhlarida eksperiment tariqasida o'qitishning blok tizimi (*o'quv semestrining muayyan davrida predmetlarning ketma-ketlik asosida o'tilishi bo'lib, bir predmet to'liq o'r ganilgach, keyingisini o'zlashtirish nazarda tutiladi*)ni qo'llash mumkin. Natijada o'qitishning bu usuli eksperiment sifatida tanlab olingen guruhlarda ma'lum ijobiy yoki salbiy o'zgarishlarga olib keladi. Sotsial eksperimentlar har doim ijobiy natijalarga olib kelavermaydi. Ular salbiy natijalar berishi ham mumkin. Bunday holatlarda eksperiment natijalari inkor etiladi. Sotsial eksperimentdan kuzda tutilgan asosiy maqsad ham ilgari surilgan farazni isbotlash yoki inkor qilishdir.

**Hujjatlar tahlili.** Hujjat o'z semantik ma'nosiga ko'ra, isbot etish mazmunini ifodalaydi. Sotsiologiyada hujjatlar tahlili deganda, qo'lyozma yoki bosma matnlar, fotosuratlar, kino va video tasmalarga tushirilgan lavhalar, anketa, tarjimai hol, kundalik daftарlar, o'zaro yozishmalar va boshqalarda qayd etilgan har qanday ma'lumotlar tushuniladi. Bunda «hujjat» so'zi umum-e'tirof etilgan «hujjat»dan farq qiladi, Hujjat deganda, faqat rasmiy materiallar tushuniladi. Shunga qaramay, sotsiologiyada bu usul «hujjatlar tahlili» deb ataladi.

Tarixdan ma'lumki, hujjatli manbalar tadqiqot uchun axborot olishning eng asosiy usullaridan bo'lib kelgan. Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida ko'pdan-ko'p tarixiy yozma manbalardan keng foydalangan. Hujjatlar qanday shaklda bo'lishiga qaramay, asosan tarixiy manba sifatida hamda voqeа va hodisalarga oid ma'lumotlarni o'zida ifodalaydi.

Hujjatda inson yoki jamoatchilik fikri yozma va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi. Hujjat sifatida turli formulalar, chizgilar, jadvallar, ramziy belgilar bo'lishi ham mumkin. Bunday shartli belgilar muayyan ma'lumotga ega kishilar tomonidan o'r ganiladi.

Hujjatlar o'ziga xos jihatlari, maqomi, o'rniga qarab quyidagi shakllarda bo'ladi. Hujjatlar axborotlarni o'zida aks ettirishiga qarab, qo'lyozma yoki bosma matnlar, fotosuratlar, kino va video tasmalar, mualliflik daraja-

siga ko‘ra: shaxsiy va umumiyligi hujjatlarga bo‘linadi. *Shaxsiy hujjatlarga* kundalik daftalar, to‘lg‘azilgan anketalar, shaxsiy ro‘yxatga olish kartochkalari, shaxsiy ish rejalar, arizalar, saylov uchastkalaridagi ovoz berish blankalari va boshqalar kiradi. *Umumiyligi hujjatlarga* statistik ma’lumotlar, arxiv hujjatlari, matbuot, majlis bayonnomalari va boshqalar kiradi. Hujjatlar kelib chiqish darajasiga qarab, *rasmiy* va *norasmiy* hujjatlarga bo‘linadi. *Rasmiy hujjatlarga* hukumat qarorlari, bayonatnomalar, rasmiy yig‘ilishlarning stenogrammalari, davlatning statistik ma’lumotlari va boshqalar kiradi. *Norasmiy hujjatlarga* ommaviy axborot vositalarida chop etilgan, kundalik turmush to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiradi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining amaliy faoliyatini alohida shaxs bilan bog‘liq yoki jamiyatning u yoki bu sohasiga daxldor bo‘lgan hujjatlarni tahlilsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Masalan, profilaktika xizmati xodimi o‘zi xizmat qilayotgan hududda ma’lum vaqt mobaynida fuqarolaridan tushgan arizalarning mazmun va mohiyatini to‘g‘ri tahlil qilish natijasida vaziyatni aniqlab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Hujjatlar tahlili asosida faoliyat yuritayotgan tadqiqotchi yoki sotsiolog bu usulni qo‘llash uchun oldiga qo‘yanan aniq maqsad va vazifalarni amalga oshirishda qat’iy reja asosida ish olib borishi lozim.

#### **4-§. Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishda so‘rov, saralash, test, sotsiometriya va boshqa metodlar**

**So‘rov usuli.** Aniq sotsiologik tadqiqot o‘tkazishda eng qulay va keng tarqalgan usullardan biri – so‘rov usulidir. Tadqiqot ko‘lamini kengaytirishda so‘rov usulining imkoniyatlari juda katta bo‘lib, uning yordamida korxonalar va muassasalar, mamlakat hatto mintaqalar miqyosida ham tadqiqot o‘tkazish mumkin.

So‘rov usulining afzallik tomoni shundaki, agar kuzatish va sotsial eksperiment usullari faqat hozirgi davrda yuz berayotgan hodisalar haqida ma’lumot bersa, bu usuli yordamida respondentga bevosita murojaat qilinib, uning xulq-atvori, harakatidan ko‘zlagan niyatlar, o‘tgan davrda qilgan va hozir qilayotgan ishlari, kelajakka mo‘ljallagan rejalar to‘g‘risida batafsil ma’lumot olish mumkin. So‘rov usuli faqat afzallik va qulayliklardan iborat ekan, deb xulosa chiqarish noto‘g‘ri? Chunki uning o‘ziga xos murakkab tomonlari mayjud. Masalan, bu usul yordamida olingan ma’lumotlarning haqiqatga qanchalik mos kelish yoki kelmasligini sinchiklab tekshirish kerak. Chunki so‘rov usuli qo‘llanilganda, ma’lumot manbai faqat respondent bo‘ladi. Respondentlar esa o‘z xarakteri, dunyoqarashi,

xulqi, ma'lumoti bo'yicha har xil toifadagi kishilardan tashkil topgan bo'lib, ular har doim ham haqiqatni gapiravermaydilar.

Respondent javoblarining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshirishning bir qancha usullari mavjud bo'lib, ulardan qanchalik ustalik va mahorat bilan foydalana olish bevosita tadqiqotchi va sotsiologning bilimiga bog'-liqidir. So'rov usulini qo'llash san'ati bu o'rinda qo'l keladi. Tadqiqotchisotsiolog savollarni kimga va kimga bermoqchiligi, ya'ni respondent savollarga javob berishni xohlaydimi yoki xohlamaydimi, qo'yilgan savollarga javob bera oladimi yoxud yo'qmi, uning haqqoniy javob berishi uchun savollarni qay yo'sinda, qay tarzda va qay shaklda berish kerakligini har taraflama va puxta o'ylab ko'rishi va buning uddasidan chiqa olishi lozim. Savollar tuzishda mana shu jihatlarga e'tiborini qaratgan sotsiolog tadqiqotning muvaffaqiyatlari chiqishini ko'p jihatdan ta'minlagan bo'ladi.

So'rov o'z navbatida *intervyu* (musohaba) va *anketa* usullariga bo'linadi.

*Intervyu* (musohaba) – (ing. «interview» – yuzma-yuz suhbat) – tadqiqotchi yoki intervyyu oluvchining respondent bilan tadqiqot predmetiga oid masalalar bo'yicha muayyan maqsadga qaratilgan suhbat. Intervyu hozirgi kunda eng ko'p va keng tarqalgan so'rov usulidir. Intervyudan bu qadar keng ko'lamda foydalanishda radio, televideniye, kundalik matbuotning roli katta bo'lmoqda. Shuning uchun ham intervyyu sotsiologiya, psixologiya, jurnalistika, statistika, etnografiya, pedagogika, boshqaruv singari fanlarda keng va muvaffaqiyatlari qo'llanilmoqda. Ayniqsa, hozirda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida kundalik hayotimizda ro'y berayotgan jiddiy o'zgarishlar to'g'risidagi ommaning ijtimoiy fikrini aniqlashda intervyyu olishning salmog'i ortmoqda. So'rov usulining bu turida intervyyu ikki asosiy funksiyani bajaradi: birinchisi, muayyan voqeа-hodisa, jarayon to'g'risida ma'lumot yig'iladi; ikkinchisi, obyektga – respondentga intervyyu orqali ta'sir ko'rsatiladi.

Sotsiologik tadqiqotlarda intervyyu o'ziga xos xususiyatlarga ega. Eng avvalo, shuni ko'rsatib o'tish lozimki, intervyyu orqali empirik ma'lumotlarni yig'ish shaxsning individual jihatlari bilan ro'baru kelinadi. Shu orqali respondent to'g'risida, uning tadqiq etilayotgan muammo to'g'risidagi qarashlari, fikri to'g'risida axborot olinadi. Beriladigan savollarga nisbatan respondentning ruhiy reaksiyasi kuzatiladi va hisobga olinadi.

Intervyyu olishda tadqiqotchi respondent bilan yaqin, samimiy, yuksak axloqiy muomalada bo'lishi shart. Beriladigan savollar avvaldan puxta o'ylangan, respondentning shaxsiyatiga tegmaydigan, mazmunli bo'lishi talab qilinadi. Bunday shartlar respondentning intervyyu so'roviga jiddiy munosabatda bo'lib, beriladigan savollarga to'la va har tomonlama javob berishini ta'minlaydi.

Intervyu olishda o‘ziga xos qiyinchiliklar ham mavjud. Bunday qiyinchiliklarga eng avvalo intervyu ko‘p vaqt va moddiy sarf-xarajatlar talab qilishini kiritish lozim. Har bir respondent bilan ruhiy munosabat o‘rnatish zarur. Bunga esa doimo ham erishilavermaydi. O‘ta injiq, alamzada, hatto tajovuzkor respondentlar ham uchrab turadi. Sotsiologik tadqiqot o‘tkazish madaniyati esa intervyu yakunining doimo muvaffaqiyatli va ijobiy tugallanishini talab qiladi.

Intervyu ko‘p jihatdan tadqiqotchining malakasiga bog‘liq. Tadqiqot o‘tkazuvchining kiyinishi, o‘zini tutishi, ovozi, muomalasi va boshqa xattiharakatlari ham tadqiqot jarayoniga bevosita ta’sir etishi mumkin. Shuning uchun tadqiqotchi qayerda, qachon va kimlar bilan suhbat olib borishini puxta o‘ylab, oldindan unga tayyorgarlik ko‘rishi lozim. Shuningdek, tadqiqotchi faqatgina o‘zining kiyimi, ovozi, muomalasi va boshqa xattiharakatlari to‘g‘risidagina o‘ylab qolmay, respondentning o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olishi lozim. Bunday xususiyatlarni aniqlash uchun esa tadqiqotchi o‘z imkoniyatlari darajasida respondentning tashqi ko‘rinishi, kiyinishi, yoshi, jinsi va hokazolarga qarab xulosa chiqarishi kerak.

Intervyu usulining kamchiligi shundaki, bunda suhbat olib boruvchi respondentga ta’sir o‘tkazishi va shuning natijasida ma’lumotlar o‘zgarib ketishi mumkin. Shu bilan birga, javobni taqqoslab tahlil qilish ham qiyinroq bo‘ladi.

Intervyu olishning bir nechta turlari mavjud bo‘lib, ular quyidagidan iborat:

Erkin intervyu (standartlashtirilmagan) – bunda respondent bilan uzoq, erkin tarzda suhbat o‘tkaziladi. Respondentga avvaldan belgilangan savollarga qo‘srimcha ravishda savollar bilan ham murojaat qilish mumkin. Respondentga erkin va keng tarzda fikr yuritish imkoniyati yaratiladi. Intervyuning bunday turiga hozirda televideniye orqali muntazam ravishda olib borilayotgan «Yuzma-yuz», «Tema» kabi ko‘rsatuvlarni misol qilib olishimiz mumkin.

Standartlashtirilgan intervyu – oldindan rejlashtirilgan, muayyan mavzuning qat’iy belgilangan doirasidan chiqmaydigan turiga aytildi. Intervyuning bu turi asosan davlat rahbarlari, siyosiy arboblar, siyosatchilar, mas’ul va ma’muriy shaxslar – respondentlar bilan o‘tkaziladi.

Yarim standartlashtirilgan intervyu esa qat’iy belgilangan savollardan tashqari respondentning yoki tadqiqot obyektining norasmiy jihatlarini oydinlashtirish, ular to‘g‘risida qo‘srimcha ma’lumotlarga ega bo‘lish maqsadida o‘tkaziladi. Ayrim kasb egalari bilan, masalan, artistlar, mashhur

shaxslar, tarbiyasi og‘ir bolalar, jinoyatchi va boshqa shu kabi respondentlar bilan o‘tkaziladigan intervyyuni misol qilib olish mumkin.

O‘tkazish jarayoniga ko‘ra intervyyu: ko‘cha-ko‘yda, guruhli, klinik, yo‘naltirilgan kabi shakllarga ega. Muloqot vositasi sifatida esa ochiq, yuzma-yuz, telefon orqali yoki yopiq tarzda bo‘lishi mumkin.

Ayrim respondentlar bilan yopiq tarzda intervyyu o‘tkazishga ham to‘g‘ri keladi. Bunda respondentning shaxsi sir tutiladi. Respondent ochiq intervyyu berishdan manfaatdor bo‘lmaydi. Ko‘pincha, yopiq intervyyu davlat ichki ishlar maxsus bo‘limlari vakillar bilan, ayrim jinoyatchilar bilan, or-nomusni yo‘qotib pushaymon bo‘lgan shaxslar – respondentlar bilan olib boriladi.

Intervyuning har qanday tipidan kamida 50 dan ortiq respondentdan olingan empirik ma’lumotlar mazmun jihatdan guruhlarga ajratilib, umumlashtiriladi. Bu esa sotsiologik tadqiqot jarayonining keyingi bosqichida amalga oshiriladi.

Intervyu tayyorlash, uni o‘tkazish va olingan natijalarni umumlashtirishning o‘zi qiyin jarayon hisoblanadi. Chunki o‘rganilayotgan muammoning mohiyatini, kelib chiqish sabablarini, umumiyl tendensiyalarini va uni bartaraf qilish yo‘llarini o‘rganish uchun yuzlab respondentlar bilan muloqotda bo‘lishga to‘g‘ri keladi. 1-2 intervyyu olish bilan tadqiqot obyekti bo‘yicha obyektiv asosga ega bo‘lgan ilmiy tasavvur hosil qilish qiyin kechadi.

Bu usulning afzalligi yoki kamchiligidan qat‘i nazar ichki ishlar organlari xodimlari o‘zlarining amaliy faoliyatlarida undan keng foydalanadilar va muayyan natijalarni qo‘lga kiritadilar. Masalan, sodir etilgan jinoyatni fosh etish yoki jinoyatlarning oldini olishda, jinoyatda gumon qilinayotgan shaxs to‘g‘risida har taraflama *surishtiruv ishlarini* olib borishga to‘g‘ri keladi. Ushbu jarayonning o‘zi, har bir ichki ishlar organi xodimidan surishtiruv natijasida to‘plangan ma’lumotlarni har taraflama tahlil qilib, obyektiv xulosalar qabul qilishni taqozo etadi. Buning uchun esa ulardan kuchli bilim va mahorat hamda ulkan amaliy tajriba talab qilinadi.

*Anketa* – o‘z shakl va mazmuniga ko‘ra, mantiqan bog‘liq holda tuzilgan savollar va mulohazalar bayon qilingan so‘rov varaqasi. «Anketa» so‘zi fransuzcha atama bo‘lib, tadqiq etish, o‘rganish, so‘rash degan ma’nolarda qo‘llaniladi. Anketa usuli yordamida sotsial faktlarning (voqe-a-hodisalar) kelib chiqish sabablarini aniqlash, mazkur faktlarning turli qirralari, umumiyl tendensiyalari hamda jamoatchilik fikrining bu hodisalarga nisbatan munosabati masalalari o‘rganiladi. Anketa orqali so‘rov o‘tkazishdan maqsad sotsiologik tadqiqotlar nuqtai nazaridan, dastlabki, aksariyat hol-larda muayyan mo‘ljal olinuvchi ma’lumotlar to‘plashdan iboratdir.

Anketa jamoatchilik fikrini atroflicha o‘rganish omili sifatida sotsiologik tadqiqot usullari orasida alohida o‘rin tutadi. Anketa usulini qo‘llagan tadqiqotchi odatda so‘roq qog‘ozlari yoki anketani respondentlarga tarqatgandan boshlab tadqiqot ma’lumotlarini to‘plash jarayoni ustidan nazorat qilish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi.

Anketa so‘rovi shaklining asosiy komponentlari: *tadqiqotchi, respondent va anketadan* iboratdir.

*Tadqiqotchi* anketa savollarini har taraflama puxta o‘ylab tuzishi lozim. Tanlab olingan savollar va unga javob variantlari bir-biri bilan bog‘liq hamda tadqiqotning bosh maqsadiga qaratilgan bo‘lishi kerak. Tadqiqotni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun savol va javob variantlarining samarali tizimini yaratishda sotsiolog tadqiqot muammosidan tashqari, o‘rganilayotgan obyektning tuzilishi, shu jamoadagi axloqiy-ma’naviy muhiti, uning umumiyligi va ijtimoiy psixologiyasini yaxshi bilishi talab qilinadi. Tajribaga ko‘ra, agar anketa savollarini uzundan-uzoq, jumlalari uslubiy jihatdan tarqoq bo‘lsa, ixcham va jozibador hamda ravon bo‘lmasa anketaga nisbatan respondentda salbiy munosabat uyg‘otadi. Javoblar noaniq bo‘lishi esa ba’zan javob berishga istakning yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Shu bois ham anketa tuzishga jiddiy e’tibor berish kerak. Anketa uchun tuziladigan savol va javob variantlari xususiyatlariga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Ular uchta belgiga, ya’ni mazmuni, shakli va funksiyasiga qarab tasniflanadi.

Savollar mazmuniga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: *Faktlarga* (yoshi, jinsi, kasbi, maoshi, oilasi tarkibi va boshqalar) oid savollar va o‘tgan zamona, hozirgi davr hamda kelajakda bo‘ladigan hodisalar haqidagi savollar ham shu guruhga kiradi. Kishining his-tuyg‘ulari, kechinmalari, niyat va harakat motivlari bilan bog‘liq savollar shular jumlasidandir.

*Birinchi turkumdagi* savollar deyarli barcha turdagisi anketalarda uchraydi va odatda anketaning alohida bir qismiga jamlanib, sotsiologiyaga oid adabiyotlarda demografiya yoki pasport qismi nomlari bilan yuritiladi. Anketaning pasport qismidagi savollar aniq va muayyan konkret javoblarni talab qiladi va odatda, bu qismdagi savollarga berilgan javoblarning haqqoniyligini darajasi juda yuqori bo‘ladi. Bu savollar yordamida tadqiqotchi respondentdan obyektiv ma’lumotlarni oladigan bo‘lsa, *ikkinci turkumdagi* savollar yordamida esa tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan respondentning fikrlari, taklif-mulohazalari va istaklari bilib olinadi.

*Ikkinchi turkumdagi* savollarga berilgan javoblarning haqqoniyligi birinchi turkumdagi javoblarga nisbatan kamroq bo‘ladi. Buning sababi respondentlarning ataylab noto‘g‘ri javob berishida emas, balki qo‘yilgan masalaga fikr-mulohaza bildirishning murakkabligi bo‘lishi mumkin. Ikkinchi turkumdagi savollarni baholashda subyektivlik kuchli bo‘ladi.

Shuning uchun bu toifadagi savollar bir-birini to‘ldiradigan, biriga berilgan javobdagi noaniqlikni ikkinchisi aniqlashga yordam beradigan bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, respondentning javob topishini yengillatish uchun anketaga javob variantlari kiritilishi ma’quldir. Javoblarda turli holatlar hisobga olingan bo‘lib, ulardan yaxlit javob o‘rniga o‘sha javobning qismlari aks etishi javobning haqqoniy bo‘lishiga xizmat qiladi. Chunki shunday holda respondent javob variantlaridan birini yoki o‘zida sodir bo‘lgan kechinma, his-tuyg‘ularga mos ravishda bir nechtasini tanlab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Savollar shakliga ko‘ra ochiq va yopiq, to‘g‘ri va egriga bo‘linadi: *Ochiq (erkin) savollarda* respondent qo‘yilgan savollarga qanday xohlasa shunday javob berishi va o‘zining erkin fikr-mulohazalarini ifodalashi mumkin. *Yopiq savollarda* respondent qo‘yilgan savollarga faqat «ha» yoki «yo‘q», deb javob berishi yoxud oldindan tayyorlangan javoblarning bittasini tanlashi qat’iy belgilab qo‘yiladi.

Tadqiqotchining respondentdan axborotni bevosita olishi uchun yo‘naltirilgan savollar to‘g‘ri savollar deyiladi. Masalan, «*Siz jinoyatchi Ahmedov bilan oldin tanish bo‘lganmisiz?*» «*Fuqaro Alimov to‘g‘risida sizning fikringiz?*» «*Olib borilayotgan tadbirlardan qoniqish hosil qilasizmi?*» va shu kabi savollarni keltirish mumkin.

Agar tadqiqotchida respondentdan axborotni bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri olishga ishonch yo‘q bo‘lsa, u holda savollar aylantirib beriladi va bunday savollar egri savollar deyiladi. Masalan, «*Ba’zilar bu to‘g‘rida (qo‘yilgan muammo) shunday deyishadi: Sizning fikringizcha?*» «*Tadqiqot natijalari shunday ko‘rsatilyapti. Sizning bunga munosabatingiz qanday?*» va shu kabilarni aytish mumkin.

Savollar funksiyasiga ko‘ra *filtrdan o‘tkazuvchi* va *nazorat savollariga* bo‘linadi. *Filtrdan o‘tkazuvchi* savollarning vazifasi shundaki, tanlab olingan respondentlar guruhi qo‘yilgan savollarga javob bergisi kelmaygan yoki javob berishi lozim bo‘lmagan respondentlar to‘g‘risida bir yoki bir nechta qo‘srimcha savol yordamida ma’lumot berishga to‘g‘ri keladi.

*Nazorat savollari* anketaga berilgan javoblarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘-riligi, berilayotgan javoblarning samimi yoki nosamimiyligini tekshirib ko‘rish uchun hamda respondentning o‘tkazilayotgan tadqiqotga munosabatini aniqlash maqsadida kiritiladi. Nazorat savollarining o‘tkazilayotgan tadqiqotga unchalik aloqasi bo‘lmasligi mumkin. Lekin uning qo‘yilishi respondent tomonidan savollarga berilgan javobning haqqoniyligini bilishdan iboratdir. Nazorat savollaridan foydalanishning muhimligi, ya’ni so‘ralayotgan respondentlar ko‘pchiligining savollarga noto‘g‘ri yoki

samimiyl javob bermaganligi aniqlansa, u xolda mazkur tadqiqot natijalari bekor qilinishi kerak. Nazorat savollari yordamida tashqi ta'sir tufayli respondentning javoblari nosamimiyl bo'layotganini ham aniqlab olish mumkin yoki anketaning anonim ekaniga shubha paydo bo'lganda ham javoblar samimiyl bo'lmaydi.

**Anketa savollarini tuzishning o'ziga xos prinsiplari va qoidalari.** Tadqiqot natijalarining samaradorligi ko'p jihatdan anketaga kiritilgan savollarning sifati va savollar tuzish talablariga javob berishga rioya qilingan va qilinmaganligi bilan bevosita bog'liqdir.

Savollar tuzishda qo'yidagi talablarga rioya qilish lozim:

1) anketada faqat tadqiqotning asosiy vazifasini yechishga yo'naltirilgan muhim savollar o'z aksini topishi lozim;

2) savollarning tuzilishi respondentga aniq va tushunarli bo'lishi kerak;

3) anketada respondentda samimiyl va haqiqiy fikr berish istagini yo'qotadigan savollar bo'lishi mumkin emas;

4) anketadagi savollar tuzilishining ketma-ketligiga rioya qilinishi lozim.

Anketa muayyan tuzilishga ega bo'lib, kirish, asosiy va demografiya qismlarini qamrab oladi. Anketaning *kirish qismida* qaysi korxona yoki tashkilot anketa so'rovini o'tkazayotganligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari bayon qilinadi. O'tkazilayotgan tadqiqotda respondentning qatnashishi muhim ekanligi ta'kidlanadi. Javoblar anonimligining kafolatlanishi hamda anketaning qanday qilib to'lg'azilishi va qaytarib berish muddatlari belgilab qo'yiladi. Uning *asosiy qismida* tadqiqotning mazmunini ochib berishga yo'naltirilgan asosiy savollar o'z aksini topadi. Anketaning *demografiya qismida* esa shaxsning obyektiv holati va maqomiga (yoshi, jinsi, kasbi, maoshi, oilasining tarkibi va boshqalar) taalluqli bo'lgan savollar ifoda etiladi.

Anketa savollarini tuzib bo'lgandan so'ng, uning sifatiga baho berish uchun tanlab olingan ma'lum guruhlarda sinov tadqiqoti o'tkazish mumkin. Bu sotsiologiyada *pilotaj* deb yuritiladi.

Anketa orqali so'rashning uchta turi mavjud bo'lib, ular pochta orqali, matbuot hamda anketalarni bevosita tarqatish yo'li bilan amalga oshiriladi. *Pochta orqali* so'rashda anketa savollari respondentga pochta orqali yuboriladi va to'lg'azilgan anketalar tadqiqotchiga belgilangan muddatda pochta orqali qaytariladi. *Matbuot orqali* so'rashda anketa savollari gazeta va jurnallarda chop ettiriladi va savollarga javob berishni xohlouvchilar to'lg'azilgan javob varaqalarini tahririyat manziliga jo'natadilar. Keng tarqalgan so'rash turiga anketalarni respondentlarning qo'liga bevosita tarqatish orqali amalga oshirishni ham kiritish mumkin. Bunda to'lg'azilgan anketalar belgilangan muddatda yana tadqiqotchiga qaytariladi.

**Saralash usuli.** Saralash usuli aniq sotsiologik tadqiqotlar olib borishda qo'llaniladi. Sotsiologik tadqiqot obyekti ishtirokchilari son jihat-dan nihoyatda ko'p bo'lishi mumkin. Masalan, ma'lum bir shahar, tuman, viloyatda istiqomat qilayotgan aholi, yirik korxonaning minglab ishchilari yoki IIV Akademiyasida tahsil olayotgan tinglovchilar va kursantlar bo'lishi mumkin. Tadqiq davomida hududda yashayotgan yoki oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar yoki tinglovchilarning barchasini suhbatdan o'tkazish yoxud barchasiga anketa tarqatishning iloji bo'lmasligi mumkin. Iloji bo'lganda ham suhbat olib borish bir nechta kunga cho'zilishi tabiiy va tadqiqot maqsadga muvofiq kelmaydi. Anketa usuli qo'llanilganda ham qanchadan-qancha sarf-xarajatlar qilinadi hamda vaqt-dan yutqazishga olib keladi. Bunday holatlarda sotsiologik tadqiqot o'tkazish uchun saralash usulidan foydalaniladi.

Tadqiqot obyekti sifatida olingan ma'lum ishlab chiqarish korxonasi ishchilari yoki oliy o'quv yurti talabalarining bir qismi bergan javoblar butun korxona va oliy o'quv yurtiga mos tushadi, deyish mumkin. Lekin bunday aniqlikka erishish uchun saralash reprezentativ bo'lishi kerak. Reprezentativ saralash esa o'rganilayotgan kishilar guruhining butun aholi xususiyatiga mos bo'lishi talab qilinadi.

Statistika sohasi mutaxassislari saralashning hajmi va tarkibini belgilashning ko'plab qoidalarini ishlab chiqqanlar. Tasodifiy saralash bilan ishlash alohida ahamiyatga ega. Unda saralash jarayoni shunday belgilanadi, o'rganilayotgan to'liq guruh a'zolarining saralashga kiritilish ehtimoli bir xil bo'ladi. Tasodifiy saralashni shakllantirishning eng ishonchli yo'li, ya'ni aholining har bir vakiliga bir raqam biriktiriladi, so'ngra esa (masalan, har o'n raqamdan birini tanlab olish orqali) tasodifiy raqamlar tanlab olinadi.

Saralash usulini qo'llashdan oldin ma'lum hudud yoki oliy o'quv muassasasida o'tkaziladigan tadqiqotning maqsadi nimaga qaratilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, IIV Akademiyasida o'tkazilayotgan sotsiologik tadqiqot o'quv jarayonini yanada takomillashtirish, tinglovchilarning yuqori saviyada bilim olishlariga xalaqit berayotgan omillarni aniqlashga qaratilgan bo'lsa, buning uchun Akademiyada tahsil olayotgan barcha tinglovchilarni yakkama-yakka so'rovdan o'tkazish yoki barchasiga anketa tarqatish shart emas? Bunda tinglovchilar orasidan barcha fanlardan yaxshi o'zlashtiradigan, jamoat ishlarida faol qatnashadiganlar guruhi tanlab olinib, sotsiologik tadqiqot amalga oshiriladi. Bunday saralab olingan guruhlarda o'tkazilgan tadqiqot asosan ijobiy natijalar beradi.

*Test* (ing. «test» – sinash, tekshirish, o'rganish) – shaxsning (tekshiriluvchining) aqli rivoji, qobiliyati, malaka va ko'nikmalar, irodaviy sifat-lari, shuningdek uning boshqa ruhiy xususiyatlarini aniqlash hamda

tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart topshiriqdir. Test psixologiya fanida keng qo'llanilib, asosiy vazifasi kishilar qobiliyati, aql- idrok doirasi, mehnat qobiliyatiga layoqatlik darajasini o'rganishdan iboratdir. Sotsiologiya fanida test chuqur ildiz otayotgan ilmiy tadqiqot usullaridan bo'lib, kishilarning ichki ruhiyati, xislati va fazilatlari hamda iroda kuchi atroficha o'rganiladi. Shuningdek, testning bosh vazifasi - tafakkur, xotira, diqqat, e'tibor, bilim va qiziqish jarayonidagi aqliy intellektual o'zgarishlarni tahlil etadi, xulosalar chiqaradi. Testlar yordamida kishilarning hayotiy tajribalari, o'z tasavvurlari, axloqiy estetik qarashlari to'g'risida ma'lumot olish mumkin.

*Sotsiometriya* (lot. «societas» – jamiyat va yunon. «metron» – o'lchamoq ma'nosini anglatadi) kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy o'lchovlar asosida o'rganadi. Unda kishilarning o'zaro bir-birlarini xush ko'rish, yoqtirish va xush ko'rmaslik mayillari o'rganiladi.

Sotsiometriya tushunchasi XIX asr oxirida matematik usulning ijtimoiy hayotga tatbiq qilishi oqibatida paydo bo'ldi. Sotsiometriyaga XX asrda fransuz sotsiologi, faylasufi G. D. Gurvich (1894–1965-y.) va amerikalik ruhshunos olim Ya. L. Moreno (1892–1974-y.)lar tomonidan asos solingan. Ular kichik sotsial guruhlarda shaxslararo munosabatlarni tadqiq qilish – mikrosotsilogiyada sotsiometriyani qo'lladilar. Ayniqsa, sotsial psixologiyada sotsiometriyaning ahamiyati katta bo'ldi.

Ya. L. Morenoning sotsiometriya tizimi 5 asosga ega. Bular:

1. *Kishilarning o'zaro xush ko'rishlik va yoqtirmaslik asosidagi ehtiros quvvati bo'lib, ularni aniqlash sotsiometriyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.*

2. *Jamiyat «sotsial atomi» alohida individ emas, balki individlarning birgalikdagi munosabatidan iborat, demak, bu aloqadorlik jarayoni ikki darajaga ega: o'z-o'zidan yuzaga keluvchi va real – bunda ehtirosli sherik shu bosqichda o'rganiladi.*

3. *Sotsial gravitatsiya qonuni.*

4. *Sotsiologik qonun.*

5. *Sotsiodinamik qonunlar nazarda tutiladi.*

Kishilar hayoti faoliyati davomida o'zaro, ya'ni bir-birlariga nisbatan ijobiy (simpatiya) yoki salbiy (antipatiya) tuyg'ularga ega bo'ladilar. Har qanday kichik ijtimoiy guruh, tashkilot va muassasaning faoliyati uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar xarakteriga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ularda ijtimoiy muhit qanchalik yaxshi bo'lsa, sotsial tizim faoliyati ham shunchalik muvaffaqiyatli davom etadi. Aks holda, kichik guruhlar va

ulardagi kishilar hayoti shunchalik qiyin va og‘ir kechadi. Sotsiometriya esa shu qiyinchiliklar hamda nomuvofiqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishi hamda undagi kishilar hayoti butun olam tortishish qonuniga bo‘ysunadi. Ya’ni tabiatdagi kabi jamiyatda ham kishilar o‘zaro gravitatsion (o‘zaro tortishishga asoslangan) munosabatda bo‘lishadi. Aytish joizki, tabiatdagidan farq qilib, jamiyat hayotida bu qonuniyat o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Aql kuchi, bioquvvat, xarakter, temperament, mayl, ta’b, odat, tarbiya, did, iymon-e’tiqod va shu kabi sotsial-ruhiy omillar kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning murakkab gravitatsion asosini tashkil qiladi. Ular asosida kishilar o‘zaro «tortiladilar», do‘stona, samimiyl bo‘ladilar yoki bir-biridan uzoqlashadilar yoxud adovatda bo‘ladilar. Sotsiometriya shu jarayonlarni miqdor jihatdan o‘rganadi. O‘z navbatida miqdor o‘lchovlari sifat ko‘rsatkichlarini farqlash uchun xizmat qiladi.

Sobiq sovet tuzumi davrida sotsiometriyaga sinfiy jihatdan yondashilib, burjua ta’limoti sifatida rad etildi hamda sotsiologiya fani sohasida o‘rganilmadi.

Hozirgi paytda bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida jamiyat ijtimoiy hayotining sotsiodinamik tarzda rivojlanishini sotsiometriyada o‘rganish – ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, tarbiyaviy muammo-larni yechishga xizmat qiladi. Demak, ijtimoiy-ruhiy muhitni mo‘tadillash-tiradi. Shuning uchun ham kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy-ruhiy munosabatlar va tuyg‘ularni o‘rganish faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy ahamiyat kasb etadi. Empirik sotsiometrik tadqiqotlar jamiyat hayoti hamda kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishda muhim ilmiy qimmatga ega bo‘lib, uni o‘rganish ayni muddaodir.

### **Tayanch tushunchalar**

Aniq sotsiologik tadqiqot dasturi, tuzilishi va vazifalari, dasturning nazariy-metodologik bo‘limi, sotsiologik axborotni yig‘ish, sotsiologik tadqiqotning maqsad va vazifalarini aniqlash, obyektni tizim sifatida tahlil qilish, tushunchalarning nazariy va empirik interpretatsiyasi, dasturning ish tartibi bo‘limi, ma’lumotlar to‘plash metodi va texnikasini tanlash, olingan ma’lumotlarni qayta ishslash va tahlil qilish, olingan natijalarning nazariy interpretasiyasi, sotsiologik tadqiqot hisoboti, sotsiologik axborotlarni yig‘ishning asosiy usullar: kuzatish va uning turlari, intervyu (suhbatlashish), anketalashtirish, sotsial eksperiment, hujjatlar tahlili, saralash, test, sotsiometriya usullari va ularning ahamiyati.

## **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Sotsiologik tadqiqot dasturi nima va u qanday tarkibiy qismlardan iborat?
2. Sotsiologik tadqiqot dasturining vazifasi nimadan iborat?
3. Sotsiologik tadqiqot dasturining nazariy-metodologik va ish tartibi bo‘limlarini tahlil qilib bering.
4. Tadqiqotning maqsad va vazifalari qanday aniqlanadi? .
5. Sotsiologik tadqiqotning ilmiy asoslangan gipoteza (ilmiy faraz)si qanday talablarga javob berishi kerak?
6. Sotsiologik axborotlarni to‘plashning qanday asosiy usullari mavjud?
7. Sotsiologik tadqiqot natijalari qanday tahlil qilinadi va umumlashtiriladi.
8. Sotsiologik tadqiqot hisoboti o‘z ichiga nimalarni oladi?
9. Sotsiologik kuzatishning qanday turlari mavjud?
10. So‘rov usuli va uning qanday turlarini bilasiz?
11. Intervyu va anketa usullarining o‘xhash va farqli jihatlarini tahlil qilib bering.
12. Anketa savollarini tuzishning o‘ziga xos qoidalarini sanab bering?
13. Sotsial eksperiment deb nimaga aytamiz?
14. Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishda hujjatlar tahlili, saralash, test, sotsiometriya usullarining o‘rni masalalarini tahlil qilib bering.
15. Ichki ishlar organlari xodimlarining amaliy faoliyatida sotsiologik axborotlarni to‘plashning usullarining o‘rni izohlab bering.

## XULOSA

Hozirgi XXI asr dunyo miqyosida har xil qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, manfaatlar to‘qnashuvi ko‘pligi bilan ajralib turadi. Bu asrning eng asosiy vazifasi jamiyat taraqqiyotini chuqurroq o‘rganib, uning ochilmagan qonunlarini ochish va inson taraqqiyotini muqobil tarzda olib borishni taqozo etadi. Insonlarni dunyo taraqqiyotiga mos ravishda tarbiyalashda, inson tafakkurini ilmiy asosda va milliy ruhda shakllanishida va nihoyat jamiyat taraqqiyotining optimallashuvida sotsiologiya fanining o‘rni beqiyosdir.

Jamiyat bugun sotsiologiya yordamida o‘z-o‘zini yo‘naltirish va o‘z-o‘zini taraqqiy ettirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu fan o‘z tarixi mobaynida har xil qarama-qarshi dunyoqarashlarni talqin qiladi. Dunyo hamda jamiyat miqyosida plyuralizm va dunyoqarashlar o‘rtasidagi kurashlarni tahlil va talqin qilish hozirgi zamon sotsiologiyasining asosiy jihatlaridandir

Bugungi kunda AQSH va Yevropa mamlakatlarda ingliz faylasufi va sotsiolog olimi Karl Popper tomonidan ishlab chiqilgan «sotsial muhandislik» konsepsiysi keng rivojlangan. Uning «sotsial muhandislik» konsepsiysi inson faoliyati va jamiyat hayotini oqilona asosda ta’mirlash demakdir. Ijtimoiy hayot muammolari «sotsial muhandislik» faoliyati, ya’ni nazariya va amaliyotning birligi natijasida to‘g‘ri hal qilinishi mumkin. «Sotsial muhandislik»ning asosiy vazifasi ham shundan iboratdir.

Sotsiologik tadqiqotlarni olib borishda nazariya bilan amaliyotning o‘zaro chambarchas bog‘liqligini ta’minalash muhim omillardan hisoblanadi. Shu bilan muammoni amaliy jihatdan to‘g‘ri tadqiq qilish uchun haqiqiy hayot bilan bog‘liqligini ta’minalashga, hayotga mos aniq rejalarни tuzishga va amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishga imkoniyat yaratiladi. Shuningdek, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi optimal aloqa metodlarni to‘g‘ri tanlash asosida aniq axborotlarni to‘plash, sotsial tizim rivojlanish qonuniyatlarni ilmiy asosda isbot qilish va istiqbolni ko‘ra bilish hamda uzoqqa mo‘ljallangan bashoratlarni aniq bajarilishini ta’minalaydi.

Hozirgi paytda kuzatilayotgan sotsial tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, atrofimizda bo‘layotgan qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, ijtimoiy portlashlar, inqirozlar va anomal holatlar jamiyat taraqqiyotining yo‘lini tanlashda

ijtimoiy-gumanitar va ayniqsa sotsiologiya faniga tayanmasdan shu tuzilishning, qaror qabul qilinishiga va boshqarishning oqibatidir. Sotsial siyosat va sotsial amaliyatga va ular tomonidan yaralgan ilmiy chora-tadbirlarga amal qilmasdan ish yuritish jamiyatni og‘ir ahvolga olib keladi. Bunga dunyo miqyosida deyarli har kuni sodir bo‘layotgan ayanchli voqeа va hodisalar misol bo‘laoladi.

Sotsiologiya fanining asosiy vazifalaridan biri amaliy sotsiologik tadqiqotlar yordamida jamoatchilik fikrini o‘rganishdir. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasida 2017-yilni «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili», deb e’lon qildi. Shuningdek, o‘z ma’ruzasida davlat organlarining fuqarolar bilan o‘zaro munosabatlarini sifat jihatdan yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida har bir viloyat, tuman va shaharda «Xalq qabulxonalari»ni tashkil etish va ularning to‘la-qonli faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash zarurligiga to‘xtalib: «Bizning asosiy maqsadimiz – «Xalq qabulxonalari»ga qilingan hech bir murojaat e’tiborsiz qolmaydigan tizim yaratishdan iborat. Muxtasar aytganda, odamlarning dardini eshitish, ular bilan ochiq muloqotda bo‘lish, og‘irini yengil qilish – aholining davlat va jamiyatga ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi», – deb ta’kidlaydi. Inson manfaatlarini ular bilan muloqot qilmasdan, uning dardlarini eshitmasdan to‘la amalga oshirib bo‘lmaydi. Insonlar bilan muloqot, avvalambor, sotsiologiyaning tadqiqot usullari yordamida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham hozirgi kunda Prezidentimiz hamda davlatimiz tomonidan qo‘yilayotgan talab ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, ko‘proq sotsiologiya fani zimmasiga yuklatiladi. Chunki sotsiologiya o‘zining ilmiy-amaliy sotsiologik usullari asosida bu vazifani bevosita bajaradi. Sotsiologiya amaliy sotsiologik tadqiqotlar yordamida jamiyatda inson manfaatlarining qay darajada qondirilganligi hamda uning keyingi istiqbollarini oldindan bashorat qilib beradi.

## SOTSIOLOGIK ATAMALAR LUG‘ATI

**Avtoritar shaxs** – shaxsga mansub xos xususiyatlar yig‘indisi bo‘lib, salbiy jihatlar, ya’ni boshboshdoqlik, murosasizlik, mensimaslikdan iborat dunyoqarash va o‘zgalarning fikrini qabul qilmaslik hamda tan olmaslikda ifodalanadi.

**Adaptatsiya** – insonning yangi faoliyat sharoitlariga, ma’lum ijtimoiy guruhdagi munosabatlar tizimiga moslashuvi.

**Anglangan harakat** – odamning muayyan sababga ko‘ra, anglangan maqsadga erishish uchun bajarayotgan harakati.

**Aniq sotsiologik tadqiqot** – amaliyot bilan bevosita bog‘liq holda ijtimoiy munosabat turlari, xilma-xil ijtimoiy faktlarni o‘ziga xos metodik texnika asosida o‘rganish bilan shug‘ullanish.

**Anketa** – o‘z shakl va mazmuniga ko‘ra, o‘zaro mantiqan bog‘liq hol-da tuzilgan savollar va mulohazalar bayon qilingan so‘rov varaqasi.

**Anomiya** – ijtimoiy normalarning individ xulq-atvorini belgilay olmay-digan vaziyatni anglatadi. Bu tushuncha sotsiologiyaga E.Dyurkgeym tomonidan kiritilgan.

**Antropologiya** – an’anaviy madaniyatlar va inson evolutsiyasiga oid masalalarni tadqiq qiluvchi ijtimoiy fan bo‘lib, u sotsiologiya fani bilan uzviy bog‘liq.

**An’analar** – uzoq vaqt davomida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan va ma’lum jamiyatlar, ijtimoiy guruhlarda saqlanib qolgan ijtimoiy va madaniy meros elementlari.

**Assimilatsiya** – ozchilikning ko‘pchilik aholi ichiga singib ketishi, bunda ozchilik aholi hukmron madaniyat normalari va qadriyatlarini qabul qiladi.

**Axborot texnologiyasi** – negizi axborot jarayonlari va mikrosxemalaridan tashkil topgan texnologiya turlari.

**Axborotni kodlashtirish** – 1) empirik ma’lumotlarni zarur talablar asosida qayta ishslash va tahlil qilishga tayyorlashga oid chora-tadbirlar yig‘indisi; 2) sotsiologik ma’lumotlarni qayta ishslash bosqichining birinchi davri.

**Axloq** – u yoki bu ijtimoiy guruhlar va jamiyatdagi ijtimoiy munosa-batlarni nazorat qilish hamda tartibga solish vazifasini bajaruvchi ijtimoiy institut, normalar, baholar, xulq-atvor namunalari tizimi.

**Axloqiy-ma’naviy norma** – xulq-atvor va xatti-harakat haqidagi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri g‘oyalar va qarashlar tizimi bo‘lib, u bir harakatni bajarishni talab etadi va boshqalarini taqiqlaydi.

**Begonalashuv** – kishilar va ijtimoiy guruhlarning bir-biri bilan yonma-yon yashashiga qaramay, ular munosabatlaridagi azaliy birlikning buzilishi va unga olib keladigan jarayon.

**Birlamchi guruh** – bir-birlari bilan shaxsiy munosabatda bo‘ladigan individlar guruhi.

**Byurokratiya** – xalqdan ajralib qolgan va uning ustidan hukmronlik qilib, o‘ziga xos vazifalar hamda imtiyozlarga ega bo‘lgan kishilar qatlami bo‘lib, tashkilot yordamida o‘z manfaatlarini amalga oshiradigan boshqarish tizimi, korrupsiyaning bir turi.

**Giyohvandlik** – narkotik moddalarni iste’mol qilish oqibatida shaxsning ruhiy va ijtimoiy voyaga yetishishining sekinlashuvi va undan kelib chiqadigan ijtimoiy muammolar.

**Gipoteza** – ilmiy faraz, bashorat. Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishdan oldin bo‘lajak natijalarning qanday bo‘lishini empirik tekshirish uchun qilinadigan ilmiy taxmin.

**Deviatsiya** – shaxs xulqining jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy normalardan og‘ishini anglatadi.

**Delinkvent** – jamiyatda qonun bilan belgilangan huquqiy normalardan og‘ishni anglatadi.

**Demografiya** – aholining hududlar bo‘yicha joylashishi, ko‘payishi, kamayishi, oila, nikoh, migratsiya va aholiga taalluqli masalalarni o‘rganuvchi fan.

**Diada** – ikki kishidan iborat guruh.

**Yetakchi** – guruhning hal qiluvchi vaziyatlarda mas’uliyatli qarorlar qabul qilish huquqini zimmasiga olgan a’zosi; biror-bir jamoada katta obro‘-e’tibor va ta’sirga ega bo‘lgan shaxs.

**Jamiyat** – insonlarning o‘zaro barcha harakatlari, uslublari va bir-biridan har tomonlama bog‘liqligi ifodalanadigan birlashmalar yig‘indisi.

**Jamoatchilik fikri** – joriy masalalarga jamiyat a’zolarining umumiy qarashlari.

**Jinoyat sotsiologiyasi** – huquq sotsiologiyasining mustaqil sohasi hisoblanib, jinoyatchilikning yuzaga kelishi, oldining olinishi hamda jazoning sotsio-psixologik jihatlarini o‘rganadi.

**Ideallik** – voqelikda mavjudligi shart bo‘lmagan ijtimoiy obyektning asosiy belgilarini ta’kidlovchi atama. Maks Veber tomonidan yaratilgan byurokratik tashkilotning idealligi bunga misol bo‘la oladi.

**Ijtimoiyadolat** – jamiyatda inson qadr-qimmatini, ijtimoiy hamkorlik, erkinlik va fuqarolarning teng huquqliligiga erishish mexanizmini ta’milovchi qadriyatlar majmui.

**Ijtimoiylashuv agentlari** – ijtimoiylashuvning eng muhim jarayonlari yuz beradigan guruhlar yoki ijtimoiy kontekstlar.

**Ikkilamchi guruh** – bir-biri bilan shaxsan tanish bo‘lmagan individlar guruhি.

**Individ** – o‘z «men»ini anglamagan, o‘ziga xos takrorlanmas xususiyatlarga ega bo‘lgan odam.

**Instinkt** – irsiyat darajasida asoslanadigan xulq-atvorning alohida usuli bo‘lib, har qanday turning hamma vakillarida mavjud bo‘ladi.

**Ichkaridan kuzatish** – sotsiologiya va antropologiyada keng qo‘llaniladigan tadqiqot usuli, guruh yoki hamjamiyatlar faoliyatida sotsiologning o‘zi ishtirok etishini nazarda tutadi.

**Karser tashkilot** – odamlar uzoq vaqtga tashqi dunyodan ajratib qo‘yilgan tashkilot. Masalan, qamoqxona, ruhiy kasalliklar shifoxonasi, kazarma, maktab-pansion.

**Katta ijtimoiy guruhlar** – jamiatda mavjud kishilar birligi. Bularga sinflar, ijtimoiy qatlamlar, etnik jihatdan umumiy bo‘lgan elatlar, millatlar, yoshlari jihatidan umumiy bo‘lgan yoshlar, qariyalar va boshqalar kiradi.

**Kichik ijtimoiy guruhlar** – jamiatning alohida va ayrim tomonlari doirasida mavjud kishilar birligi. Unga oliv o‘quv yurtlarining kurslar, guruhlarda tahsil olayotgan talabalari, maktab o‘quvchilari, do‘stona munosabatlar asosida birlashgan ulfatlar va boshqalar kiradi.

**Kontent-tahlil** – hujjatlar asosida sotsiologik axborot mazmunini miqdor va sifat jihatdan o‘rganish uslubi.

**Koordinatsiya** – yaxlit tizimni saqlab turadigan, o‘zaro aloqador elementlarning bir-biriga mosligi.

**Korrelatsiyali tahlil** – tadqiq etilayotgan obyektning belgilari orasidagi statistik aloqalarni o‘rganishda qo‘llaniladigan matematik tartib-qoidalar.

**Kutilayotgan umrning davomiyligi** – muayyan yoshdagi odamlar yana yashashi mumkin bo‘lgan yillarning kutilayotgan o‘rtacha davomiyligi.

**Latent funksiyalar** – ijtimoiy tizim a’zolari uchun kutilmagan yoki maqbul bo‘lmagan funksional oqibatlar.

**Legitimlik** – qabul qilingan siyosiy tartibning adolatli va qonuniyligiga bo‘lgan ishonch.

**Makrosotsiologiya** – katta ijtimoiy guruh, tizimlar, jarayonlar, harakatlar va hodisalarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqot yo‘nalishi.

**Maltuschilik** – aholi dinamikasi haqida Tomas Maltus tomonidan yaratilgan doktrina, unga ko‘ra aholining o‘sishi ocharchilik, urush singari «tabiiy cheklolar» yordamida tartibga solinadi.

**Manfaat guruhlari** – siyosiy maydonda alohida manfaatlarni himoya qilish maqsadida tuzilgan guruhlar. Ular ko‘pincha qonun chiqaruvchi organlardagi vakillari – lobbistlar orqali harakat qiladilar.

**Maxsus nazariy sotsiologiya** – ijtimoiy tizimlar tarkibiga kiruvchi alohida ijtimoiy guruhlarning tuzilishi, rivojlanish qonuniyatları va ular o‘rtasidagi aloqa hamda munosabatlarni aks ettiradi.

**Mentalitet** – individ, ijtimoiy guruh yoki millatning o‘ziga xos tafakkur tarzi, voqelikni ma’lum tarzda tushunishi hamda birgalikda harakat qilishga tayyorligi va moyilligi.

**Migratsiya** – individlar yoki ijtimoiy guruhlarning doimiy yashash joylarini o‘zgartirish jarayoni, u mazkur xalqlarning boshqa jug‘rofiy hudud yoki mamlakatga ko‘chib o‘tishida ifodalanadi.

**Mikrosotsiologiya** – sotsiologiyada nisbatan katta bo‘lmagan ijtimoiy tizimlardagi ijtimoiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan, alohida olingan hodisalarning mikrodarajadagi jarayonlar bilan aloqasini empirik tasvirlash bilan chegaralanadigan yo‘nalish.

**Mintaqalashuv** – ijtimoiy hayotning mintaqaviy tuzilmalar yoki zonalar bo‘yicha taqsimlanishi.

**No verbal muloqot** – individlar o‘rtasida nutq va tildan umuman foydalananmay, yuz mimikasi, tana a’zolari harakati va holati vositasida muloqotga kirishish shakli.

**Nodavlat tuzilmalar** – jahonda muhim rol o‘ynayotgan xalqaro (nodavlat) agentliklar.

**Norasmiy guruhlar** – kishilarning mayl va xohishlarining umumiyligi asosida birlashishi.

**Ommaviy axborot vositalari** – asosan gazeta, jurnal, radio, televdeniye va shu kabi katta auditoriyalarga mo‘ljallangan kommunikatsiya turlari.

**Prestij** – individ yoki guruhning mavqeiga asosan unga ko‘rsatiladigan hurmat.

**Psixoanaliz** – Zigmund Freyd tomonidan kashf etilgan psixoterapiya usuli. «Psixoanaliz» – «ruhiy tahlil» so‘zi odatda Freyd tomonidan yaratilgan intellektual tizim doirasida qo‘llaniladi.

**Psixopatik shaxs** – shaxsning alohida turi. Bunday individlarda boshqa turdagи odamlarga xos axloqiylik va boshqalar uchun g‘amxo‘rlik qilish tuyg‘usi bo‘lmaydi.

**Ramziy interaksionizm** – J. G. Mid tomonidan taklif qilingan, sotsiologiyada qo‘llaniladigan nazariy yondashuv. Unda til va timsollarning shaxslararo ta’sirining asosiy elementlari sifatidagi roli ta’kidlanadi.

**Rasmiy (formal) guruh** – yuridik maqomga ega bo‘lgan ijtimoiy guruh bo‘lib, bunda guruhga a’zolik, vazifalar, maqsad va xulq-atvor qoidalari normativ hujatlarda qayd etilgan bo‘ladi.

**Rasmiy ijtimoiy tashkilot** – yuqori darajali ko‘rsatmalar, buyruqlar, farmoyishlar bilan boshqariladigan, tashkiliy harakatlar jarayonida shakllanadigan o‘zaro bog‘liq tizimdir.

**Ratsionallashuv** – mavhum tartib-qoidalarga asoslangan aniq tahlil va tashkil qilish usullari. Ijtimoiy hayotda ustunlik qilish jarayonlarini belgilash uchun Veber tomonidan qo‘llanilgan tushuncha.

**Reijtimoiylashuv** – shaxsiyat o‘zgarishining bir turi bo‘lib, unda yetuk individ oldin qabul qilinganidan boshqacha xatti-harakat turini qabul qiladi.

**Rivojlanish savollari** – sotsiologiyada ijtimoiy institatlarning o‘tmish-dan bugunga qarab rivojlanishini o‘rganishda qo‘llaniladigan savollar turi.

**Rol** – biror-bir voqeа yoki jarayonda ishtirok etish darjasи, ta’sir ko‘rsatish normasi va ahamiyat ko‘rsatkichi; ma’lum maqomga ega bo‘lgan shaxsdan kutiladigan xulq-atvor, xatti-harakat, ijtimoiy vazifalar majmui.

**Sanksiya** – ikki xil: 1) biron-bir mas’uliyatli harakatni yuqori instansiya tomonidan amalga oshirishga ruxsat etish; 2) jazolash ma’nosida (ular yordamida ijtimoiy maqbul bo‘lgan xulq-atvor normalari mustahkamla-nadi) ishlatiladi.

**Saralash** – sotsiologiyada tadqiqotning butun bir obyektini tashkil qiluvchi ko‘pgina guruhlardan ma’lum sonini tanlab olish usuli.

**Sotsial** – jamiyatda kishilar o‘rtasidagi turli munosabatlarni ifodalaydi. «Sotsial» tushunchasi bir nechta ma’nolarda: a) bir butun jamiyatga nisbatan; b) jamiyatning alohida sohalariga (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa) nisbatan; v) kichik guruhlar, jamoalar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalash maqsadida ishlatilishi mumkin.

**Sotsial aloqa** – ma’lum vaqt ichida biron maqsadni amalga oshirish uchun muayyan maqsadli kishilarning hamkorlikdagi faoliyatini belgilab beradigan dalillar yig‘indisi.

**Sotsial ahvol** – ijtimoiy subyektning jamiyatda tutgan o‘rni, ya’ni u yoki bu muayyan ijtimoiy mavqeni qo‘lga kiritgan shaxsning ijtimoiy darjasи.

**Sotsial bashorat** – ijtimoiy rivojlanish xususiyati va yo‘nalishi, jamiyat ijtimoiy rivojlanishining ustuvor jihatlari hamda o‘tmish tajribalari, uning tadrijiy o‘zgarib borishi asosida oldindan aytib berish. Bashorat – ma’lum dalillarga asoslangan xolda biror-bir jarayonning rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy asosga tayanib oldindan aytib berish.

**Sotsial guruh** – jamiyatning ma’lum tarixiy rivojlanish sharoitida muayyan kishilarning axloqiy normalar va umumiyl manfaatlar asosida uyushgan barqaror guruhi.

**Sotsial dinamika** – jamiyatning muntazam ravishda muayyan kuchlar ta’sirida taraqqiy etishi va ijtimoiy hayotdagi voqealarning o‘zgarib borish jarayoni.

**Sotsial jarayon** – individ, ijtimoiy institutlar, guruhlarning ijtimoiy holati yoki turmush tarzi o‘zgarishini ifodalovchi barqaror harakatlar, o‘zgarishlar, xatti-harakatlar holatlarining majmui.

**Sotsial institut** – hamkorlikdagi kishilar faoliyatining tarixan tarkib topgan barqaror uyushgan shakli.

**Sotsial infrastruktura** – ijtimoiy hayotning barcha sohalari, shu jumladan ijtimoiy-maishiy sohada inson hayoti va faoliyatini oqilona tashkil etishni ta’minlovchi moddiy elementlarning mustahkam majmui.

**Sotsial maqom** (status) – individning ijtimoiy munosabatlar tizimi-dagi holati.

**Sotsial munosabatlar** – kishilar va sotsial guruhlar o‘rtasidagi nisbatan barqaror va mustaqil aloqalar.

**Sotsial nazorat** – jamiyatning sog‘lom ijtimoiy tartibini ta’minlashni nazarda tutgan holda individ xatti-harakati va xulq-atvoriga maqsadli ta’sir ko‘rsatish.

**Sotsial tashkilot** – muayyan maqsad yo‘lida shaxsiy bo‘lmagan aloqalar asosida faoliyat olib boruvchi kishilardan tashkil topgan birlashma.

**Sotsial tizim** – o‘z tabiatiga ko‘ra, ijtimoiy xususiyatlarga ega bo‘lgan, o‘zaro aloqalar, munosabatlar orqali birlashgan, muayyan bir butunni tashkil qiluvchi kishilar birlashmasi.

**Sotsial toifa** – individlarning umumiyligi xususiyatlarga ega bo‘lgan statistik guruhi, masalan muayyan daromad darajasiga qarab belgilangan guruhlar.

**Sotsial tuzilish** – ijtimoiy tizimning yaxlitligini ta’minlaydigan, har qanday ichki va tashqi o‘zgarishlarda o‘z xususiyatlarini saqlab qoladigan mustahkam bog‘langan elementlar yig‘indisi.

**Sotsial fakt** – ma’lum jarayonlar yoki ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasiga daxldor bo‘lgan alohida ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi voqealar yig‘indisi.

**Sotsial huquqlar** – fuqarolarning davlat tomonidan belgilangan hamda kafolatlangan huquqlari tizimi (masalan, ilm olish, ishsizlikdan himoyalanish, pensiya, nafaqa olish va boshqa huquqlari).

**Sotsial eksperiment** – bu voqealarning hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni o‘rganishga asos bo‘ladigan, nazorat qilinadigan hamda boshqariladigan sharoitlarda yangi bilimlar olish uchun qo‘llaniladigan umumilmiy uslub.

**Sotsializatsiya** (ijtimoiylashuv) – individ tomonidan mavjud ijtimoiy normalar, qadriyatlar va bilimlar tizimini o‘zlashtirish jarayoni.

**Sotsiologik kuzatish** – turmushdagi voqeа-hodisa va jarayonlarni muayyan maqsadga muvofiq o‘rganishga qaratilgan hissiy bilish usuli.

**Sotsiologik tasavvur** – sotsiologik tadqiqot jarayonida o‘z tasavvurlarini qo‘llash. Sotsiologik tasavvur kundalik odatiy hodisalardan chetga chiqish va muammolarni ijobiy hal qilishga ko‘maklashadi.

**Sotsiologiya** – jamiyatni yaxlit tizim sifatida o‘rganadigan, ijtimoiy tashkilotlar, jarayonlar va guruhlarni tahlil etadigan fan.

**Sotsiometriya** – kichik guruhlar, jamoalar va tashkilotlardagi shaxslararo munosabatlar tizimini maxsus o‘rganish usuli.

**Startifikatsiya** – jamiyatning tuzilmasi va alohida qatlamlari, ijtimoiy tabaqlanish belgilari tizimini ifodalovchi sotsiologik tushuncha.

**Statistika** – ijtimoiy voqeа va hodisalarning miqdor jihatlarini o‘rganuvchi maxsus fan.

**Strukturalizm** – tilni o‘rganishda vujudga kelgan, ijtimoiy va madaniy tizimlarning tuzilmasini aniqlash uchun nazariy yondashuv.

**Suitsid** – o‘z joniga qasd qilish.

**Subordinatsiya** – yaxlit tizimda bir xil ahamiyatga ega bo‘lmagan elementlarning bir-biriga bo‘ysunishi, izchil bo‘lish va ketma-ketlikni tashkil qiladi.

**Suhbatlashish** (intervyu) – tadqiqotchi (intervyu oluvchi)ning respondent bilan tadqiqot predmetiga tegishli masalalar bo‘yicha muayyan maqsadga qaratilgan suhbati.

**So‘rov** – birlamchi axborot to‘plash metodi bo‘lib, tadqiqotchining tadqiqot mavzuiga oid savollar bilan respondent (so‘raluvchi)ga og‘zaki yoki yozma murojaati.

**Tabaqa** – individlar, guruhlar o‘rtasidagi tengsizlik, qonunga ko‘ra mustahkamlab qo‘yiladigan stratifikatsiya shakli.

**Tengdoshlar guruhi** – bir xil yosh va ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan do‘stona individlardan tashkil topgan guruh.

**Tizim** – ichki tartibga solingan, o‘zaro aloqa va munosabatda bo‘lib turadigan, bir butunni tashkil qiluvchi elementlar majmui.

**Teologiya** – (yun. theos-xudo, logos-ta’limot) xudoning mohiyati, din va diniy aqidalar to‘g‘risidagi diniy ta’limotlar majmui; ilohiyot.

**Totalitarizm** – siyosiy boshqaruv shakli, unda butun hokimiyat siyosatidan norozi bo‘lganlarni terror qiluvchi, o‘zining sodiq odamlariga tayanuvchi diktator qo‘lida jamlanadi.

**Turmush tarzi** – muayyan tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga xos bo‘lgan insonning individual va jamoaviy hayot faoliyati usuli, shakli va shart-sharoitlari.

**Umrning maksimal davomiyligi** – mazkur turdagি organizmlar hayotining maksimal biologik davomiyligi.

**Umumnazariy sotsiologiya** – makrosotsiologik tadqiqot sifatida ijtimoiy tizimlar rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini aks ettiradigan fan.

**Urbanizatsiya** – jamiyat rivojida shaharlar mavqeи va rolining oshib ketish jarayoni.

**Uyushgan jinoyatchilik** – maxsus noqonuniy guruhlar (tashkilotlar) tomonidan amalga oshiriladigan jinoiy xatti-harakatlar.

**O‘zgarishlarning dialektik talqini** – fandagi qarama-qarshi manfaatlar yoki guruhlar to‘qnashuvining ijtimoiy transformatsiyalarini harakatga keltiruvchi kuch, deb talqin qiladigan yondashuv.

**O‘rta ijtimoiy guruhlar** – jamiyatning ma’lum bir umumiy tomonlariga xos bo‘lgan kishilar guruhi. Bularga biron-bir jihatdan umumiy bo‘lgan kishilar guruhi – shahar, tuman, qishloq aholisi va boshqalar kiradi.

**Faktologik savollar** – faktlarni aniqlashga qaratilgan savollar.

**Fundamentalizm** – qadimgi diniy matnlarning aynan mazmuniga e’tiqod qilishni rag‘batlantiruvchi g‘oya, yo‘nalish.

**Hujjatlar tahlili** – hujjatlarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni tadqiqot vazifalari nuqtai nazaridan o‘rganish hamda talqin qilishdan iborat sotsiologik usul.

**Huquq sotsiologiyasi** – sotsiologianing jamiyat huquqiy borlig‘ining tabiatи va qonuniyatlarining vujudga kelishi, amal qilishi hamda rivojlanishining sotsial yo‘nalishlarini yaxlit tizim sifatida o‘rganadigan tarkibiy qismi.

**Huquqiy ijtimoiylashuv** – kishilarning xatti-harakatlarini imkon darajada belgilab beradigan qonunlar, huquqiy bilimlarni o‘zlashtirish, zarur sotsial malakalarni asta-sekinlik bilan egallash, o‘z huquqlarini anglab borish va ularga amal qilish, har xil murakkab munosabatga kirishadigan kishilar va sotsial institutlar o‘rtasidagi munosabatlarni tushunib borish jarayoni.

**Huquqiy ijodkorlik** – jamiyatdagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari tizimini yaratish hamda takomillashtirishga qaratilgan faoliyat turi.

**Huquqiy eksperiment** – huquqiy norma eksperimentning omili sifatida tanlab olinadi. Unda amalda bo‘lgan normaning samaradorligi tekshiriladi yoki tayyorlanayotgan yangi huquqiy hodisaning ta’sirchanligi taxmin qilinadi.

**Shaxs** – muayyan tarixiy sharoitdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayonida o‘zi mansub bo‘lgan ijtimoiy guruh manfaatlarini ifodalaydi-gan, ularni himoya qila oladigan, mustaqil fikrlash va muayyan vaziyatda mas’uliyatni o‘z bo‘yniga olib, mustaqil qarorga kela oladigan inson.

**Shizofreniya** – psixik xastalikning jiddiy shakli bo‘lib, unda shaxs voqelikni anglash tuyg‘usini ma’lum darajada yo‘qotgan bo‘ladi.

**Ekspert baholash uslubi** – so‘rov o‘tkazilayotgan soha bo‘yicha ekspert so‘rovi o‘tkazish bilan soha mutaxassislari fikrini olish orqali sotsiologik axborotga ega bo‘lish.

**Etnometodologiya** – kishilarning o‘zaro kundalik ijtimoiy ta’sir doirasida bajargan harakatlari yoki aytgan so‘zlariga qanday ma’no berishni o‘rganish.

**«Eritish qozoni»** – etnik tafovutlarning qorishib ketib, yangi xulq-atvor qoidalarini yaratishi mumkinligi haqidagi fikrning ko‘chma ma’nosi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. О‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т., 2016.
2. *Каримов И.А.* Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т., 1996.
3. *Каримов И.А.* Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т., 1996.
4. *Каримов И.А.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6 – Т., 1998.
5. *Каримов И. А.* Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т. 7. – Т., 1999.
6. *Каримов И.А.* Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т., 2000.
7. *Каримов И.А.* Эришган мэрралар билан чекланмасдан, бошлаган ислоҳотларимизни янги босқичга кўтариш – бугунги кундаги энг долзарб вазифамиздир. Т. 23. – Т., 2015.
8. *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008.
9. *Каримов И.А.* «Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштири ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси». – Т., 2010.
10. *Мирзиёев Ш.М.* Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги маъруzasи // Халқ сўзи. – 2016. – 8 дек.
11. *Мирзиёев Ш.М.* Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишлиланган Олий мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи. – 2016. – 14 дек.
12. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. / Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишлиланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруzasи // Халқ сўзи. – 2017. – 16 янв.
13. Мирзиёев Ш.М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 25 янв.
14. *Абдулла Авлоний.* Танланган асарлар. 2 жилд. – Т., 2006.
15. *Абдураҳмонов Қ.Х., Имомов В.* Ўзбекистон меҳнат потенциалидан самарали фойдаланиш ва уни бошқариш. – Т., 2008.
16. *Абдураҳмонов Ф. Р., Саитходжсаев Х. Б.* Социология. – Т., 2000.
17. *Абу Наср Форобий.* Фозил одамлар шаҳри. – Т., 1993.

18. *Абу Райхон Беруний*. Танланган асарлар. Т. 1. – Т., 1968.
19. *Алишер Навоий*. Маҳбуб ул-қулуб. – Т., 1984.
20. Амир Темур ўгитлари. – Т., 1992.
21. *Ата-Мирзаев О.Б.* Народонаселение Узбекистана: история и современность. – Т., 2009.
22. *Ахмедов Э., Сайдаминова З.* Ўзбекистон Республикаси (қисқача маълумотнома). – Т., 2006.
23. *Бреева Е.Б.* Основы демографии: Учебное пособие. – М., 2009.
24. Бу муқаддас Ватанда азиздир инсон / Нашр учун масъул А.Бекмуродов. – Т., 2010.
25. *Буриева М.Р.* Ўзбекистонда оила демографияси. – Т., 1997.
26. *Бўриева М. Р.* Рождаемость в Узбекистане. – Т., 1991.
27. Гуннар Скибекк Нильс Гилье. Фалсафа тарихи. – Т., 2002.
28. Демографическая ситуация в Республике Узбекистан. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике (19 марта 2014). Архивировано из первоисточника 24 марта 2014.
29. *Дюргейм Э.* Метод социологии. – М., 1981.
30. *Дюргейм Э.* Социология, её предмет, метод, предназначение.– М., 1995.
31. *Насриддинов К.* Ўзбек оиласи тарихидан. – Т., 1995.
32. Инсон хукуқлари умумжаҳон Декларацияси. Декларациянинг 60 йиллигига бағишиланган нашр. – Т., 1948–2008.
33. Институциональных матриц: в поисках новой парадигмы. // Журнал социологии и социальной антропологии. – М., 2001. №1.
34. Криминология / Под ред. Дж.Ф.Шели/ Пер. с англ. – СПб.: – Питер, 2003.
35. *Лапаева В. В.* Хукуқ социологияси. – Т., 2005.
36. *Мертон Р.* Явные и латентные функции / Американская соиологическая мысль. – М., 1994.
37. *Монтескье Ш.Л.* О духе законов. Избранные произведения. – М., 1955.
38. *Мусаев. Ф. А.* Демократик давлат қуришнинг фалсафий-хукуқий асослари. – Т., 2007.
39. *Навоий А.* Маҳбуб ул-қулуб. – Т., 1984.
40. *Одилқориев X.* Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002.
41. Ойна. Журнал. – 1913.– № 1,7., – 1914. – № 4.
42. *Оспанов С.И.* Социология права. – Алматы, 2002.
43. *Очилдиев А. С.* Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. – Т., 2004.
44. *Пригожин А. И.* Современная социология организаций. – М., 1995.
45. *Радугин А. А., Радугин К. А.* Социология. – М., 1995.
46. *Саитходжасаев Х.Б.* Социология. Маъruzalар курси. – Т., 2008.

47. Салиев А С., Курбанов Ш.Б. Демографическое развитие сельской местности Республики Узбекистан // Социально-экономическая география. Вестник Ассоциации российских географов-обществоведов. – 2015. – № 1 (4).
48. Смелзер Н. Социология. Пер. с англ. – М., «Феникс», 1994.
49. Социология: Учебник для вузов // Под.ред. В.Г. Осипова, Л.Н. Москвичева – М., 2003.
50. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойлашиши. Монография. – Т., 2010.
51. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т.3. – Т., 2002.
52. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. – Т., 2015.
53. Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси. – Т., 2012.
54. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. – Т., 1995.
55. Фараби. Трактат о взглядах жителей добровольного города / Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII–XII вв. – М., 1960.
56. Философский энциклопедический словарь. – М., 1983.
57. Фролов С.С. Социология: [Учебник для высш. учеб. заведений] – 2-е изд., перераб. и доп. – М., 1996.
58. Хан С.М., Хан В.С. Социология. – Т., 1999.
59. Энтони Гидденс. Социология. – Т., 2002.
60. Юксак маънавият ва қонун устуворлиги асосида яшаш, эл-юртга садоқат, адолат, ҳалоллик фазилатлари ва муомала маданиятини камол топтириш. / Масъул муҳаррир Ш.Т. Икрамов –Т., 2016.,
61. Юридик атамалар лугати. 1. жилд., – Т., 2007.
62. Aliev B, Mullajonova M, Rahmonov B. Социология. – Т., – Б. 331.
63. Merton R. Social Theory and Social Structure. Glencoe, 1957.
64. Saithodjaev. Н.В. Sotsiologiya. – Т., 2008.
65. Spencer H. First principles. – N.Y., 1898.
66. Rabbiej, Horwitz M. The arousal of ingroup – outgroup bias by chance win or loss // S.Sociol Psychol. 1969, col. 13.
67. www.census.gov. Проверено 1 февраля 2016.
68. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Служебная:Ссылки\\_сюда/Население\\_Земли](https://ru.wikipedia.org/wiki/Служебная:Ссылки_сюда/Население_Земли).
69. ria.ru. Проверено 5 февраля 2016.
70. sharh.uz/.../138-statistika-aholi-soni-tugilish-ulim-nikoh-ajralish.
71. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
72. <http://vatandosh.uz/news/2014/09/25766/>.

# MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

## I BOB.

### SOTSILOGIYA FANINING NAZARIY – METODOLOGIK ASOSLARI

1-§. Sotsiologiya fanining predmeti va obyekti .....	5
2-§. Sotsiologiya fanining tuzilishi va tarkibiy qismlari .....	9
3-§. Sotsiologik qonunlar va ularning amal qilish sohalari .....	11
4-§. Sotsiologiya fanining asosiy funksiyalari.....	14

## II BOB.

### SOTSILOGIYA FANINING GENEZISI VA EVOLUTSIYASI

1-§. Sotsiologiya fani shakllanishi va rivojlanish bosqichlari .....	19
2-§. G‘arb sotsiologiyasining asosiy yo‘nalishlari .....	30
3-§. Markaziy Osiyoda sotsiologik qarashlarning evolutsiyasi .....	37
4-§. Mustaqillik yillarda sotsiologik tafakkur taraqqiyoti .....	52

## III BOB.

### JAMIYAT SOTSIAL TIZIM SIFATIDA

1-§. Sotsial bilishning mohiyati va tuzilishi .....	57
2-§. Sotsial bilishda sotsial fakt va eksperimentlarning o‘rni.....	61
3-§. Sotsial tizim va uning tuzilishi funksiyalari .....	67
4-§. Sotsial institutlar hamda ularning funksiyalari .....	77
5-§. Sotsial tashkilotlar va ularning jamiyat hayotidagi o‘rni .....	87

## IV BOB.

### HUQUQ SOTSILOGIYASI

1-§. Huquq sotsiologiyasi va uning ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimidagi o‘rni.....	97
2-§. Huquq sotsiologiyasining tarkibiy qismlari .....	102
3-§. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining amaliy faoliyatida huquq sotsiologiyasining o‘rni .....	107

## V BOB.

### JAMIYATNING SOTSIAL-DEMOGRAFIK TUZILISHI

1-§. Jamiatning sotsial-demografik tuzilishi mohiyati, uning sotsial asoslanganligi va jamiat rivojiga ta’siri .....	113
2-§. Aholining jins va yosh bo‘yicha tarkibi. Aholining tug‘ilishi va o‘limiga ta’sir etuvchi omillar .....	120
3-§. Aholi migratsiyasi va uning sabablari .....	131

**VI BOB.  
SOTSIAL BIRLIKLAR**

1-§. Sotsial-etnik birliklarning mohiyati va ularning belgilari .....	135
2-§. Sotsial-etnik birliklarning O‘zbekistondagi taraqqiyoti .....	144
3-§. Sotsial-hududiy birliliklar. Shahar va qishloq sotsiologiyasi .....	149

**VII BOB.  
OILA SOTSILOGIYASI**

1-§. Oila – ijtimoiy institut sifatida .....	160
2-§. Oilaning asosiy funksiyalari va istiqboli .....	167
3-§. Nikohning mohiyati va uning turlari .....	177
4-§. Oila mustahkamligi va barqarorligini ta’minlovchi sotsial xususiyatlar .....	184

**VIII BOB.  
SHAXS SOTSILOGIYASI**

1-§. Sotsiologiyada shaxs va uning talqini .....	189
2-§. Shaxsning sotsial mavqe (status) va sotsial roli .....	194
3-§. Huquqiy ijtimoiylashuv ichki ishlar organlari xodimlari shaxsini shakllantirishning muhim omili .....	199

**IX BOB.  
DEVIANT XULQ-ATVOR SOTSILOGIYASI**

1-§. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining shakllanishi .....	207
2-§. Shaxsda deviatsiya (og‘ish) holatlarining yuzaga kelish sabablari .....	212
3-§. Delinkvent xatti-harakat ko‘rinishlari .....	215

**X BOB.  
SOTSILOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNI AMALGA OSHIRISH  
METODLARI**

1-§. Sotsiologik tadqiqotni tashkil etish, uning dasturi, tuzilishi va vazifalari .....	224
2-§. Sotsiologik tadqiqot jarayonida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish .....	232
3-§. Sotsiologik axborotlarni yig‘ishning asosiy metodlari .....	234
4-§. Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishda so‘rov, saralash, test, sotsiometriya va boshqa metodlar .....	242

**XULOSA .....** **253**

**SOTSILOGIK ATAMALAR LUG‘ATI .....** **255**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....** **264**

# SOTSIOLOGIYA

*Darslik*

*Muharrir: M. E. Sultonova*

*Texnik muharrir: D. R. Djalilov*

---

Bosishga ruxsat etildi 26. 05. 2017 y. Nashriyot-hisob tabog‘i 19,0.  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № Kelishilgan narxda.

---

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,  
1000197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.